

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

A.U. Burxanov, Sh.X. Muminov, X.X. Xudoyqulov

INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan iqtisodiy ta‘lim yo‘nalishi talabalari
uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2021

UO‘K: 336.1
KBK 67.404.1
I 98

A.U.Burxanov, Sh.X.Muminov, X.X.Xudoyqulov.
Investitsiya va innovatsiyalar. – T.: «Innovatsion
rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. – 462 b.

ISBN 978-9943-7628-8-6

Darslik «Investitsiya va innovatsiyalar» fani dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, unda investitsiya tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati, investitsion faoliyat, investitsiya siyosati va muhiti, investitsiya loyihasi va uni moliyalashtirish, xorijiy investitsiyalar va ularni jalb qilish yo‘nalishlari, innovatsiya va iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion jarayonlar, innovatsion faoliyat va uning samaradorligi kabi masalalar yoritilgan

Kitob talabalar, magistrantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, iqtisodiyot yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar, amaliyotchi mutaxassislar, investitsiyalar va innovatsion faoliyat muammolari bilan qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 336.1
KBK 67.404.1

Taqrizchilar:

J.X. Ataniyazov – TMI, «Xalqaro moliya-kredit» kafedrası mudiri, i.f.d., prof.;

R.X. Karlibayeva – TDIU, «Korporativ iqtisodiyot va biznes tahlil» kafedrası mudiri, i.f.d., prof.

ISBN 978-9943-7628-8-6

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021

KIRISH

Bozor prinsiplari va mexanizmlariga asoslangan har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik mamlakatning investitsiya va innovatsiya siyosati hamda ularni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan mexanizmlarga bevosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda so'nggi yillarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini innovatsiyalar asosida rivojlantirish va ularga investitsiyalarni keng ko'lamda jalb qilish, shuningdek, investorlar uchun qulay investitsiya muhiti yaratishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yilga bag'ishlangan Oliy Majlisga Murojaatnomasida alohida urg'u berilgan, xususan "... iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi, shuningdek, mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir"¹.

Shu o'rinda, bugungi kunda xususiy va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar ulushini oshirish hisobiga investitsiya siyosatini yuritishda davlat ishtirokini pasaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Vaholanki, jahon miqyosida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish qulay investitsiya muhiti yaratish, ularni mamlakatning strategik tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish va ularga investitsiyalarni jalb qilishni yanada rag'batlantirish, investitsion va innovatsion faoliyatning o'zaro bog'liqligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Ma'lumki, mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi va innovatsion rivojlanishiga o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi. Bu xo'jalik yuritish subyektlarining moliyaviy-xo'jalik va tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilganligi, ularni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilganligiga bog'liq, jumladan:

– davlatning samarali investitsiya va innovatsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanish uchun davlat tasarrufida bo'lgan resurslar bilan bir qatorda xususiy sektorda ham innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash lozim. Jumladan, ularni amalga oshirish va

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

ragʻbatlantirish boʻyicha shaffof mexanizmlarni yaratish va bu asosda aniq ilmiy yoʻnalishlar, dasturlar, loyihalar, fan sohalar va alohida ilmiy muassasalar va xususiy sektorni tanlab olish maqsadga muvofiq;

– innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun moliyaviy taʼminotning mustahkam va turli xil vositalar hamda manbalaridan samarali foydalanish zarur. Moliyaviy taʼminot sifatida budjet va tijorat bank mablagʻlari, shuningdek, xususiy sektor va donor tashkilotlar moliyaviy manbalari ilmiy-innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirishning bevosita va bilvosita shakllarini uygʻunlashgan holda oʻzida birlashtirishi lozim;

– investitsiya va innovatsiya jarayonlarini jadallashtirish iqtisodiyotning real sektorini diversifikatsiya qilish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish va texnologik jihozlash uchun jalb qilingan investitsiyalar rentabelligini oshirishga asos boʻlishi zarur;

– investitsion va innovatsion muhit jozibadorligini taʼminlash va uni yanada yuksaltirish yoʻllari boʻyicha huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni davlat, hududlar va xoʻjalik yurituvchi subyektlar koʻlamida amalga oshirishning yagona tizimini yaratish maqsadga muvofiq;

– investitsion va innovatsion faoliyat samaradorligini baholash boʻyicha metodologik asoslarini ishlab chiqish hamda hududlar va xoʻjalik yurituvchi subyektlar kesimida reytingni aniqlash va uni doimiy yuritish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Yuqorida keltirilgan jihatlar mamlakatning milliy investitsiya va innovatsiya tizimning tarkibiy qismlari hisoblanib, ularni samarali amalga oshirish investitsion va innovatsion menejment mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

1-BOB. INVESTITSIYA HAQIDA TUSHUNCHA VA UNING IQTISODIY MOHIYATI

1.1. Investitsiya tushunchasi va iqtisodiy mohiyati

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, «qoʻyish», «mablagʻni safarbar etish», «kapital qoʻyilmasi» maʼnosini beradi. Keng maʼnoda investitsiya mablagʻni koʻpaytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Yaʼni, «kelajakda katta miqdordagi mablagʻ olish uchun bugun puldan voz kechish» degan maʼnoni anglatadi. Odatda, bu jarayon ikkita omil bilan bogʻliq – vaqt va risk. Koʻpgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy neʼmatlar hamda ularga doir huquqlar tarzida taʼriflanadi. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qoʻyilgan kapital. Oʻzining moliyaviy shakliga koʻra, ular foyda olish maqsadida xoʻjalik faoliyatiga qoʻyilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga koʻra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat koʻrsatuvchi mashina va asbob-uskunalarga, hamda shu bilan bogʻliq boʻlgan aylanma kapitalning oʻzgarishiga ketgan xarajatlardir.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati toʻgʻrisida iqtisodchi olimlar oʻrtasida xilma-xil fikrlar mavjud. Investitsiyalarga tugallangan bir taʼrif berilmagan. Har bir tadqiqotchi ushbu kategoriyaga nisbatan oʻz yondashuv uslubi va fikriga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Investitsiyalar nazariyasi oʻzining tarixiy rivojlanish jarayonida bir qancha bosqichlarni bosib oʻtdi. V.V. Aladinning fikricha, investitsiyalarning dastlabki belgilarini Avstriya iqtisodchilari maktabining ilmiy ishlarida koʻrish mumkin (Bem-Baverk)². Muallifning fikricha, oʻtgan asrning 20–30-yillariga kelib, moliya nazariyasining fan sifatida paydo boʻlishi bilan I.Fisherning foiz stavkalari nazariyasi ilmiy ishi dunyoga keldi.

Edvin J. Dolan, Kolin D. Kempbell, Rozmari J. Kempbellarning fikrlariga koʻra, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida oila

² Аладын В.В. Инвестиционная деятельность субъектов Российской Федерации. – М: Социум, 2002. -с.17.

xo'jaligining yillik xarajatlari hajmi daromadlardan kichik bo'ladi. Oila xo'jaligining tovarlar va xizmatlar, shuningdek, boshqa soliqlar hamda to'lovlardan ortgan daromadlari **jamg'arma** deb ataladi. Ma'lumki, sotsialistik iqtisodiyotda jamg'armalar haqida gap borganda faqat aholi ixtiyoridagi bo'sh turgan pul mablag'lari tushunilib kelinar edi. Vaholanki, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida jamg'armalar korxonalar va davlat ixtiyorida ham bo'lishi mumkin.

Investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida ham amalga oshiriladi, hamda o'zidagi yangi qurilishlarga, kengaytirishga, rekonstruksiyaga va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga, uskunalar, inventarlar, loyihaviy mahsulotlar sotib olishga sarf-xarajatlarni mujassamlashtiradi. Iqtisodiy fanlar va amaliyot «investitsiya» va «kapital qo'yilma» terminlari bir xil tushuncha, ya'ni sinonim so'zlar emasligini ta'kidlaydi. Investitsiyalar kapital qo'yilmaga nisbatan keng mazmunli, qamrovli tushunchadir. G'arb adabiyotlarida investitsiyalar borasida so'z yuritilganda asosiy e'tibor fond bozoriga qaratiladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar asosan qimmatli qog'ozlar orqali amalga oshiriladi.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya va investitsiyalash muammolari J.Keyns, P.Masse, K.Makkonel, S.Bryu, E.Dolan, U.Sharp va boshqa olimlar ilmiy ishlarida keng miqyosda yoritib berilgan.

U.Sharp investitsiyalarga quyidagicha ta'rif beradi: «Real investitsiyalar asosan moddiy aktivlarga (yer, uskunalar, zavodlar) qilingan investitsiyalardir. Moliyaviy investitsiyalar bu qog'ozda bitilgan shartnomalardir. Bularga oddiy aksiyalar va obligatsiyalar kiradi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotda investitsiyalarning asosiy qismi real investitsiyalarga tegishlidir. Rivojlangan iqtisodiyotda esa, investitsiyalarning asosiy qismi moliyaviy investitsiyalash institutlarining keng miqyosida rivojlanishi real investitsiyalarning o'sishiga sababchi bo'ladi. Investitsiyalarning bu ikki xil shakli bir-biri bilan raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchidir»³.

Fransuz olimi P.Masse va ingliz olimi J.Keynsning investitsiya mohiyatini aniqlashdagi mavjud tafovutlarda umumiy metodologik yondashuv ifodalangan. Shunday ekan, P.Masse ta'kidlaydi: «investit-

³ Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. - М.: ИНФРА- М, 1997. – 7 с.

siyalash bugungi kundagi ehtiyojning qondirilishini manfaat yordami bilan uning kelajakda kutilayotganini almashuv aktini o'zida ifodalaydi»⁴. Ushbu ta'rifda investitsiyaning ikki tomonlama mohiyati – resurslarga sarflar va bu sarflarning natijalari yoritib berilgan. J.Keyns fikricha, investitsiya ushbu davrga daromadlar, ya'ni ehtiyoj uchun foydalanilmaydigan qismini o'zida ifodalaydi. Bu «alohida shaxs yoki korporatsiyaning qandaydir eski yoki yangi mol-mulk xaridini, qaysiki yangi investitsiyalar daromad hisobiga turli ko'rinishdagi kapital mol-mulk xaridini» ifodalaydi⁵.

J.Keyns nazariyasida investitsiya va jamg'arish o'rtasidagi aloqadorlik bitta hodisaning ikki tomoni sifatida aniq ko'rsatib berilgan.

Keyns nazariyasi bo'yicha investitsiyalash mazmuni bo'yicha shunday xulosa chiqarish mumkinki, rivojlangan iqtisodiy tizimda investitsiyalash va jamg'arish kategoriyalari alohida funksiyalari bilan ajralib turadi. Jamg'armaning muayyan qismini bevosita investitsiyalash mumkin, bu asosiy jamg'arma kichik va xususiy korxonalar, fermer xo'jaliklari mablag'larining qolgan qismi kelajakdagi sarflar (iste'mol va investitsion) uchun iqtisodiy munosabat subyektlarida saqlanadi.

Keyns odamlarning jamg'arishga bo'lgan moyilligining ortib borishini ularning iste'molga bo'lgan moyilligining kamayishida deb biladi. Unumli iste'mol mollariga bo'lgan talabning pastligiga sabab esa investitsiyalarni rag'batlantirishning yetarli emasligida deb hisoblaydi. Uning talqinidagi samarali talab hajmining yetarli emasligi muqarrar ravishda investitsiya jarayonining sustligi bilan izohlanadi, bunga sabab tadqiqotlarning kapital qo'yimalarga kamroq qiziqishidir.

K.Makkonel va S.Bryu investitsiyaning mohiyatini keynschilar modelining idrokida deb hisoblaydilar, shuning uchun investitsiyani mikroiqtisodiy nuqtayi nazardan qarab chiqadilar⁶. Mualliflar o'zlari-ning qarashlarida «yalpi xususiy ichki investitsiyalar» tushunchasini «amerikalik ishbiarmon firmalarning investitsion sarflari» deb ayta-

⁴ Массе П. Критерии и методы оптимального определения капиталовложений / Пер.с фр. –М.: Статистика, 1971. –160 с.

⁵ Коваленко Н.Я. Экономика сельского хозяйства. С основами аграрных рынков. Курс лекций. –М.: Ассоциация авторов и издателей. ТАНДЕМ: Изд. ЭКМОС, 1998. -448 с.

⁶ Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2-х т.: Пер. С англ. 11-го изд. Т.1.- М.: Республика, 1992. –399 с.

dilar hamda ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: mashinalarga barcha oxirgi xaridlar, barcha qurilishlar, iste'mol qilinmagan mahsulotlar.

E.D. Dolan va D.S. Lindseylar investitsiya mohiyatini mikro-iqtisodiy nuqtayi nazardan talqin qilib, ular investitsiyaning mazmunini «shakllanayotgan iqtisodiy tizimda kapital hajmining o'sishi, odamlar amal qiladigan ishlab chiqarish resurslari taklifini yuksalishida» deb ta'kidlaydilar⁷.

Shuningdek, investitsiyalarga nisbatan rossiyalik iqtisodchi olimlar ham o'z yondashuvlarini berishgan.

G.S. Vechkanov, G.R. Vechkanovalar ta'kidlaydiki, investitsiya – bu foyda olish maqsadi bilan mamlakatda yoki xorijda xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga davlat yoki xususiy kapitalning uzoq muddatli qo'yilmalaridir.

V.V. Bocharov hisoblaydiki, investitsiya tadbirkorlik va boshqa ko'rinishdagi faoliyat obyektlariga qo'yilgan barcha turdagi mulkiy va intellektual qimmatliklar bo'lib, natijada foyda (daromad) yuzaga keladi yoki ijtimoiy samaraga erishiladi⁸.

F.S. Tumusov investitsiyaning mohiyatini yoritishda quyidagicha ta'rif bergan: «investitsiya pul mablag'lari sarfi, daromad qismi sifatida, joriy iste'molda emas, balki takror ishlab chiqarishdagi barcha ijtimoiy va individual kapitaldan foydalanishni va natijada pirovard maqsad bo'lib yangi, bir muncha yuqori daromad olish yoki kelajakda ijtimoiy samaraga erishishni ifodalaydi». Ushbu ta'rifda muallif faqat resurs, balki sarflar yondashuvida birga qo'shishga harakat qilib, investitsiyani bir tomonda ishlab chiqarish faoliyatining natijasi, ikkinchi tomondan, ma'lum vaqtga iste'molda foydalanilmaydigan daromad qismi sifatida tushuntiradi.

S.S. Borgayakovning fikricha, investitsiyalarni maqsadga muvofiq ikki jihati qarab chiqiladi: zaxira kategoriyasi sifatida va oqim kategoriyasi sifatida. Investitsiyaning mohiyati bo'yicha turlicha yondashuvlardan farqli ravishda muallif ko'rsatkichlarni o'lchashning davriy jihati bosh mezon deb hisoblaydi. Agar investitsion ko'rsatkichlarni vaqtga bog'liq bo'lmagan holda o'lchash mumkin bo'lsa (jamg'arma hajmi, kapital mulk miqdori, mahsulot miqdori va

⁷ Долан Э.Дж., Линдсей Д.Е. Микроэкономика. –СПб.,1994.-448 с.

⁸ Бочаров В.В. Финансово-кредитные методы регулирования инвестиций. –М.: Финансы и статистика,1999. -144 с.

h.k.), unda bu kategoriya zaxira, aks holda, mazkur ko'rsatkich qandaydir dinamik kategoriya sifatida vaqtga bog'liq ravishda o'lchansa, unda bu oqim kategoriyaga tegishlidir. Bunday yondashuv, bizning fikrimizcha, bir muncha «kapital qo'yilmalar» va «investitsiya» mohiyatining bog'liqligini ifoda etadi.

Investitsiya tushunchasiga yagona va to'liq ta'rif berish uchun uni kengroq ko'rib chiqish lozim. Iqtisodiy fanning turli qismlarida va amaliy faoliyatning turli sohalarida investitsiya mazmuni o'zining xususiyatlariga ega.

Makroiqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarishdagi yangi vositalarga, turar-joylarga investitsiyalar va moddiy zaxiralarining o'sishiga qilinadigan xarajatlardan tashkil topadigan yalpi xarajatlarning bir qismi hisoblanadi. Investitsiyalar – joriy davrda iste'mol qilinmagan va iqtisodiyotda kapital o'sishini ta'minlovchi YaIMning bir qismidir.

So'nggi yillar davomida bozor islohotlarining rivojlanishi natijasida «investitsiyalar» atamasi keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991-yildan boshlab qabul qilindi va o'tgan vaqt mobaynida takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida investitsiyalarga quyidagicha ta'rif berilgan:

Investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

– mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini (shu jumladan chet el valutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni;

– ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

– intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan, u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik

hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni.

Ushbu iqtisodiy ta’rif investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘laligicha faoliyat ko‘rsatishini aniq tasdiqlaydi. Jumladan, unda, birinchidan, investitsiyaning o‘ziga va investitsiya faoliyatining obyektlariga keng ta’rif berilgan; ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog‘liqligi ta’kidlab o‘tilgan. Demak, investitsiyaga bozor munosabatlaridan kelib chiqib berilgan ta’rifning o‘zidayoq investitsion jarayonning hajmi, asosiy bosqichlari, ya’ni jamg‘armalar (resurslar), qo‘yilma mablag‘lar (sarf-xarajatlar), samara (daromad, foyda) aniq va ravshan ko‘rsatib o‘tilgan. Xuddi shu kabi yondashuv investitsion faoliyatning bozor munosabatlariga o‘tishi uchun zamin yaratadi, bu esa, moliyaviy moddiy va aqliy boyliklarni qayta taqsimlashning vertikal va gorizontalaridan bir xilda foydalanishni ta’minlab beradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning ahamiyati jihatidan bir qator iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari mavjud. Jumladan, Sh.Shodmonov, U.G‘afurovlarning fikricha, “Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko‘paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko‘rinishidir”⁹. Prof. D.G‘.G‘ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etib, quyidagicha ta’rif berib o‘tgan: “Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag‘lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, rikslar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko‘zlangan samarani olishdan iborat bo‘ladi”¹⁰. Prof. N.H. Haydarov investitsiyalar mazmun–mohiyatiga quyidagi ta’rifni beradi: “Investitsiya – bu mulk shaklidan qat’i nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning

⁹ Shodmonov Sh., G‘ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. -347 bet.

¹⁰ G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: “Moliya” nashriyoti. 2013. -26 bet.

iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o‘z boyliklarini qonun doirasida bo‘lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir”¹¹.

D.Tojiboyevaning fikricha, investitsiya deganda kelajakdagi natija uchun: ishlab chiqarishni kengaytirish yoki qayta ta’mirlesh, mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo‘ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi¹².

Muallif fikricha, iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar yetakchi rol o‘ynaydi, sababi investitsiya orqali korxonalar kapital jamg‘arilishiga, natijada mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy o‘shishga erishiladi.

B.A.Abdukarimov, A.N.Jabriyev, M.K.Pardayevlarning fikricha, «investitsiya – bu moliyaviy (pul) yoki real kapitalga mablag‘ qo‘yish. U pul mablag‘lari, kredit, qimmatbaho qog‘oz shaklida olib boriladi va ko‘chma, ko‘chma bo‘lmagan mol-mulkka, intellektual mulkka, ne‘matlarga bo‘lgan huquqqa va boshqa qiymatliklarga qo‘yiladi, ya’ni korxonaning barcha aktivlariga ishlatiladi»¹³.

B.S.Mamatov, D.Yu.Xujamkulov va O.Sh.Nurbekovlar xulosasiga ko‘ra, foyda yoki ijobiy natijaga erishish maqsadida subyektlar tomonidan xarajatlar tarzida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga joylashtiruvchi turli ko‘rinishlarga ega boyliklarga investitsiyalar deyiladi.¹⁴

R.I. Kayumov va R.X. Xojimatov fikricha, investitsiya deganda ko‘p qirrali faoliyatni tushunish lozim va u bo‘sh bo‘lgan moliyaviy mablag‘larni kelajakda moddiy va moliyaviy boylikni yaratuvchi obyektlarga sarflashni ifodalaydi.¹⁵ Shuningdek, ushbu yondashuvga yaqin boshqa mualliflar fikriga ko‘ra, investitsiyalar – bo‘sh turgan kapitalni iqtisodiy-ijtimoiy samara olish uchun harakatga keltirishdir.¹⁶

¹¹ Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - T.: 2003. -29 bet.

¹² Tojiboyev D. Iqtisodiy nazariya (ikkinchi kitob). – T.: Sharq, 2003. -79b.

¹³ Abdukarimov B.A. va boshqalar. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. -T.: Fan, 2005. 241b.

¹⁴ Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2014. -b.12.

¹⁵ Kayumov R.I., Xojimatov R.X. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: TDIU, 2010. - b.17.

¹⁶ Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G‘. Investitsiya va lizing asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-Moliya, 2018. - b.7.

Investitsiyalar deganda, barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur.

Investitsiya kiritishda, avvalo:

– investitsiya faoliyati subyektlarining mustaqilligi va tashabbuskorligi;

– kiritilayotgan moddiy ne'matlarga investitsiya maqomini berish (fuqaro o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun olgan buyumlari investitsiya bo'la olmaydi);

– qonun bilan belgilangan investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi zarur bo'lib hisoblanadi.

Investitsiyalar – bu yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, ya'ni yangi kapitalni barpo etishga ketgan xarajatlardir. Investitsiyaga ketgan xarajatning miqdori ikki omilga bog'liq: birinchisi – sof foydaning kutilayotgan me'yori, uni tadbirkorlar investitsiyaga ketgan xarajatlardan olishni mo'ljallaydi; ikkinchisi – foiz stavkasi yoki tadbirkor real kapitalni sotib olishga zarur bo'lgan pulga ega bo'lishi uchun to'lashi lozim bo'lgan baho. Agarda, kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda me'yoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Investitsiya mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mexanizmlarni ta'minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, investitsiyalar kapital qiymatining o'sishini va daromad keltirishini ta'minlaydi.

Demak, investitsiya tushunchasining mohiyatini yoritganda uni jamg'arish, qo'yish va daromad olishdan iborat dinamik jarayonni olib qarash lozim. Investitsiyaning bunday doiraviy harakati asosan investitsion faoliyat orqali amalga oshiriladi. Ko'plab mamlakatlar xorijiy qo'yilmalarni jalb etish maqsadida imtiyozli sharoitlarni yaratadi, xususan, kapitallarni saqlash va zararlarni qoplashni kafolatlaydi, imtiyozli soliq olishni kiritadi va foydani xorijga erkin o'tkazishga ruxsat beradi, olingan daromadlar va boshqalarni qayta investitsiyalashga sharoitlar yaratadi.¹⁷

¹⁷ Карлибаева Р.Х. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2009. - 6.10.

Yaqin davrgacha mamlakatimizda investitsiyani «kapital qo'yilma» mohiyati bilan aynan bir xil tushuncha deb qarab kelindi.

Umumqabul qilingan investitsiya (kapital qo'yilma) tushunchasi quyidagilar bo'yicha ifodalanadi: «kapital qo'yilma» (yoki kapital sarfi) yangi qurilishga va rekonstruksiyaga sarflanadigan moliyaviy mablag'; harakatdagi korxonalarni texnik qayta qurollantirish va kengaytirish (ishlab chiqarishga kapital qo'yish), uy-joyga, kommunal va madaniy-maishiy qurilishlar (noishlab chiqarishga kapital qo'yish).

Bunda investitsiya tushunchasining mohiyatini aniqlashda bozor va rejali iqtisodiyotidagi farqlari ifodalanadi. Kapital qo'yilmaning yuqorida keltirilgan izohi sarf-xarajatlar tavsifini aniq ifodalaydi va investitsiyalash sohasini faqat qo'yilmagacha qisqartiradi, ya'ni asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish, ularning yuksalishi va takomillash-tirilishini nazarda tutadi. Ma'lumki, sobiq Ittifoq iqtisodiyot fanida investitsiyaning moliyaviy va boshqa turlari o'rganilmagan. Ma'muriy boshqaruv tizimi sharoitida resurslar taqsimlanishi, mulk shaklining bir xilligi va qimmatli qog'ozlar bozorining to'liq amal qilmasligi (davlat obligatsiya zayomlaridan tashqari) bo'lishi mumkin emas edi. Shunday ekan xo'jalik yuritishning rejali tizimi sharoitida investitsiya sarflar ko'rinishida chiqib, faqat bir vaqtning o'zida faqat joriy sarflarga farq qiladi. Sarflarning natijaviylik darajasini aniqlash to'lig'icha e'tiborga olinmagan.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq asosiy kapitalga investitsiya (asosiy vositalarga), shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonani texnik qayta qurollantirish va rekonstruksiyalash, kengaytirish, yangi qurilishga xarajatlar, mashina jihozlarini sotib olish, inventar, loyiha-tadqiqot ishlari va boshqa sarflar kapital qo'yilmalar deyilgan, bu esa ularning muayyan ko'rinishini ifodalaydi va mohiyati bo'yicha to'g'ridan to'g'ri investitsiya sinonimini bildiradi.

Nazariy tadqiqotlar va tahlil natijalaridan umumiy xulosa chiqargan holda xorij va milliy iqtisodchi olimlarning uslubiy yondashuvlariga asoslangan holda investitsiya mohiyatini yoritib berish bo'yicha quyidagi xulosaga kelish mumkin: investitsiya mohiyatining ilmiy sharhi quyidagilarni ifodalashi zarur: resursli va xarajatli yondashuvlar ularning dastlabki tashkil etilishi mablag'lardan foydalanishni talab etadi; qo'yilmalar daromadliligi – asosiy tartibga soluvchi sifatida resurslar va qo'yilmalar, ularning hajmi va

dinamikasiga muvofiqligi; xavf-xatar elementlarining ishtirok etishi va natijalar bashoratining noaniqligi.

Umumiy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, investitsiya – bu uzoq muddatli va kapital qo'yilmalarni xavf-xatarga qo'yib (tavakkal qilib), tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga takror ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida va buning natijasida foyda olish yoki resurslar potensialining cheklangan sharoitida kelajakda boshqa foydali samaraga erishish maqsadidagi iqtisodiy kategoriyadir.

1.2. Investitsiyalarning tasniflanishi

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyalar quyidagicha tasniflanishi mumkin:

– kapitalni ko'paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik obyektlariga joylashtirish;

– investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, investitsiyalar mo'ljallangan obyektiga ko'ra **kapital, moliyaviy** va **ijtimoiy** turlarga bo'linadi.

Asosiy fondlarni yaratish va takror ko'paytirishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiya qilishga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar **kapital** investitsiyalar jumlasiga kiradi.

Kapital investitsiyalar asosan ularning qiymatini belgilaydigan jismoniy xususiyatlarga ega. Masalan, binolar, asbob-uskunalar, yer va boshqalar. O'z navbatida, kapital investitsiyalar takror ishlab chiqaradigan, (masalan, asbob-uskunalar) va takror ishlab chiqarmaydigan (masalan, yer, shaxtalar, san'at buyumlar) kabi turlarga bo'linishi mumkin.¹⁸

Aksiyalar, korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek, qimmatli qog'ozlarning boshqa turlariga kiritiladigan investitsiyalar **moliyaviy** investitsiyalar jumlasiga kiradi.

¹⁸ Фабоцци Ф. Управление инвестициями. Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2000. XXVIII, 932 с. - (Серия «Университетский учебник»). -с.14.

Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar ham kiradi.

Moliyaviy investitsiyalarning tarkibida portfel investitsiyalarni farqlash mumkin. Portfel investitsiyalar – mulkdan daromad olishda huquq beruvchi qimmatli qog'ozlarga kapital qo'yishdir. Moliyaviy aktivlarga investitsiyalar quyidagi shakllardagi qo'yilmalarni o'z ichiga oladi:

- asosiy iqtisodiy agentlar faoliyati jarayonida yaratilgan barcha ko'rinishdagi to'lov va moliyaviy majburiyatlar;
- naqd pullar;
- joriy hisobraqamdagi mablag'lar;
- banklarga qo'yilgan muddatli omonatlar;
- turli xil qisqa muddatli qarz majburiyatlari;
- obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar.

Portfel investitsiyalar turli loyihalar guruhlariga kapital qo'yishni ifodalaydi. Masalan, korxonalar qimmatli qog'ozlarini qo'lga kiritish. Bunda investorning asosiy vazifasi portfel investitsiyalarni shakllantirish va maqbul boshqarish hisoblanadi. Portfel investitsiyalar qatorida pul-kredit operatsiyalari keng tarqalgan bo'lib, investorning kapitali kredit sifatida bu omonatlardan keyinchalik foydalanish bilan depozit omonatlar ko'rinishida bankka joylashtirish tushuniladi.

Moliyaviy investitsiyalar, ularning keltiradigan daromadi bo'yicha baholanadi. Qimmatli qog'ozlar kursining harakati korxonaning moliyaviy holati va butun iqtisodiyotning yaqin kelajakda istiqbollari va holatini aks ettiradi. Takror ishlab chiqarish jarayonida real aktivlar harakati kapital bozori va investitsion tovarlar bozorida o'zaro aloqadorlikda realizatsiya qilinadi. Shuning uchun bitta korxonalar doirasida moliyaviy investitsiyalarning yopiq doiraviy aylanishi mumkin emas. Bozor iqtisodiyotida aynan moliyaviy qo'yilmalar muhim rol o'ynaydi. Bu shu bilan bog'liqki, moliyaviy kapital, avvalambor harakatchanligi bo'yicha ishlab chiqarishdan farqli ravishda har doim ham harakatchan emasligi bilan xarakterlanadi. Fikrimizcha, bu shu bilan bog'liqki, agarda investorlar aktiv vositalarga mablag' qo'ysalar asosan likvid bo'ladi. Aynan shuning uchun aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi

moliyaviy investitsiyalar iqtisodiy tizimda tarkibiy o'zgarishlarga ko'maklashuvchi, bir iqtisodiyot sohasidan boshqasiga kapital ko'chishini ta'minlaydi.

Inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek, nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar **ijtimoiy** investitsiyalar jumlasiga kiradi.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi kelib chiqib, investitsiyaning shartli ravishda uchta turini ham ajratish mumkin:

- moliyaviy investitsiyalar;
- moddiy investitsiyalar;
- aqliy (intellektual) investitsiyalar.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar bo'lib, ilmiy ishlar, tajribalar natijasi, litsenziyalar «nou-xau», mutaxassislar tayyorlash va kadrlarni qayta tayyorlash, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini joriy etish kabilar hisoblanadi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat.

Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalar bozor munosabatlarining rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, «nou-xau», kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Investitsiyalarni tasniflashda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar alohida ahamiyatga ega. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar – moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga uzoq muddatli mablag'lar qo'yishdir. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar – u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishga davlat yoki xususiy firmalarning kapital qo'yishi bo'lib, real kapital (bino, inshoot, tovar moddiy zaxiralari va boshqalar) tashkil etilishini ifodalaydi.

Investitsiyalashda ishtirok etish xususiyatiga ko'ra to'g'ridan to'g'ri va bilvosita investitsiyalarga ajratilishi mumkin. To'g'ridan

to'g'ri investitsiyalar guruhiga quyidagi investitsiya turlari kiradi: ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirish, rekonstruksiyalash va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda yo'naltirilganlik hamda eskirgan bino, inshoot va jihozlarning o'rnini to'ldirishga investitsiyalar.

Ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirishga investitsiyalar – yangi ishlab chiqarishlarni, ishlarni, xizmatlarni yoki yangi bozorlarni ochishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga investitsiyalar – joriy ishlab chiqarish hajmini oshirish va sotish bozorini kengaytirishni o'z ichiga oladi.

Texnologiyalarni modernizatsiyalash va takomillashtirishga investitsiyalar – ishlab chiqarishni yangilashga, takomillashtirilgan texnologiyalarni joriy etishga va modernizatsiya qilingan mahsulotlarni chiqarishga yo'naltirish.

Samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – resurslarni tejaydigan texnologiyalarni (moddiy, mehnat, moliyaviy) rivojlantirishga qaratiladi.

Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatbaho qog'ozlarga (aksiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin.

Harakat yo'nalishi bo'yicha investitsiyalar **yalpi va sof investitsiyalarga** ham ajratiladi. **Yalpi investitsiyalar** – bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar amortizatsiya va sof investitsiyalarni o'z ichiga oladi. **Sof investitsiyalarni** aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratiladi.

Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya o'rtasidagi nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya'ni yuksalish, turg'unlik yoki pasayish davrini boshidan kechirayotganligini aniqlash mumkin. Agarda, yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq, ya'ni sof investitsiya yuqori bo'lsa, iqtisodiyot yuksalishda bo'ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi.

Yalpi investitsiya va amortizatsiya bir-biriga teng bo'lgan holda iqtisodiyot turg'unlik holatida bo'ladi. Bu vaziyatda sof investitsiyalar

no'lgan barobar va iqtisodiyot shu yilda qancha kapital iste'mol qilgan bo'lsa, uni qoplash uchun shuncha ishlab chiqaradi.

Ishchan faollik pasayib borayotgan iqtisodiyot uchun (**astagnatsiya holati**) yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan kam bo'lgan holdagi vaziyat xosdir, ya'ni iqtisodiyotda yil davomida kapital ishlab chiqarilganiga nisbatan ko'proq iste'mol qilinadi. Bunday holatda sof investitsiyalar ishorasi manfiy bo'lib, uning mutlaq qisqarishini bildiradi. Natijada, yil oxirida kapital hajmi yil boshidagiga qaraganda kam bo'ladi.

Islohotlarning dastlabki bosqichida iqtisodiyotning astagnatsiya holati deyarli barcha hamdo'stlik mamlakatlarida kuzatildi. Korxonalarining ichki investitsiyalash imkoniyatlarini pasayishi bilan bir vaqtda markazlashgan kapital qo'yilmalarning qisqarishi, ishlab chiqarishning tushib ketishiga, milliy mahsulot hajmi mutlaq kamayishiga olib keldi.

Investitsiyalar hajm o'lchovi nuqtayi nazaridan yirik va kichik investitsiya turlariga bo'linadi. Kichik investitsiyalar, odatda korxonalar yillik tushum hajmiga jiddiy ravishda ta'sir ko'rsatmaydi hamda qo'shimcha samara olishda unchalik ahamiyatga ega emas.

Yirik investitsiyalarda korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiyasi hajmi investitsiya miqdoriga (kiritilgan investitsiya hajmiga) bog'liq bo'ladi.

Korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida kiritilayotgan barcha investitsiyalar investitsiya subyekti nuqtayi nazaridan davlat va xususiy investitsiya larga bo'linadi. Ular yo'nalishi, maqsadi, moliyalash manbalari bo'yicha bir-biridan farqlanadi.

Davlat investitsiyalari asosan mudofaa, sog'liqni saqlash, madaniyat, fundamental ilmiy loyihalar maqsadida hamda iqtisodiyotni tizimli tartibga solish uchun u yoki bu tarmoq va ishlab chiqarishning eng muhim sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi zarur. Davlat investitsiyalari davlat va mahalliy budjetlarning jamg'arma fondlari turli darajadagi davlat korxonalari foydasi yoki ichki va tashqi davlat zayomlari, obligatsiyalar chiqarish hisobiga moliyalashtiriladi.

Davlat investitsiyalari davlat boshqaruvi organlarining ehtiyojlarini qondirish uchun davlat buyurtmasini barcha mezonlar va ko'rsatkichlarga, texnik-iqtisodiy parametrlar (standartlar)ga muvofiq

bajarishga yo‘naltiriladi. Qoida tariqasida, ular atrof-muhit va iste‘molchining xavfsizligiga qaratilgan.

Xususiy investitsiyalar ko‘proq foyda olish imkoniyati yuqori bo‘lgan tarmoqlarga yo‘naltiriladi. Ularni moliyalashtirish manbai bo‘lib, korxonalar va tashkilotlarning taqsimlanmagan foydasi, amortizatsiya jamg‘armasi hamda korxonalarni o‘z mol-mulkini garovga qo‘yib emissiya qilgan mablag‘lari shaklidagi korxonalarining o‘z mablag‘lari hisoblanadi.

Investitsiyalar kiritilishi muddati bo‘yicha uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalarga bo‘linadi. Kiritilgan mablag‘larni joriy etish vaqti va natijalardan foydalanish nuqtayi nazaridan investitsiyalar quyidagi turlari farqlanadi:

1. Bir martalik investitsiyalar – bir martalik mahsulotni chiqarishga yo‘naltiriladi. Bunday guruh investitsiyalarga – investitsiyalash jarayonidan muayyan bir vaqtda sarflangan va shunga muvofiq holda bir martalik mahsulot ishlab chiqarish aktiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalash jarayonini ifodalaydi.

2. Takroriy investitsiyalar – bu jarayonda ham bir martalik mahsulot ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Bu holatda kapital mablag‘ sarflari hamda mahsulot ishlab chiqarish bir paytda amalga oshiriladi.

3. Bir martalik investitsiyalar – bu jarayonda korxonalar mahsulot ishlab chiqarishni bir necha marta takroran hosil qiladi. Bu holda investitsiya mablag‘lari sarfi bir vaqtli (muayyan davrda) xarakterga ega, ammo mahsulot ishlab chiqarish uzoq muddatda amalga oshiriladi.

Investitsiyalar moliyalashtirish manbalari bo‘yicha o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘larga bo‘linadi. Investitsiyaning o‘z mablag‘lari manbalariga korxonalar jamg‘armalari, ya‘ni foyda, amortizatsiya ajratmalari, ishchi-xodimlar mablag‘lari (ulushlari, aksiyalari va h.k.) kiradi. Jalb qilingan mablag‘lar manbayiga: davlat va mahalliy budjet mablag‘lari, tijorat mablag‘lari, kompaniyalar investitsion fondlar resurslari, moliya-kredit tashkilotlari resurslari, obligatsiyalar, xorijiy investorlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri va portfel investitsiyalari kiradi.

Investitsiyalar majburiy joriy qilinish darajasi bo‘yicha quyidagilarga tasniflanadi:

– majburiy investitsiyalar – umumdavlat manfaatlariga muvofiq keladigan investitsiyalardir. Bunday investitsiyalar asosan o‘rab turgan muhitni saqlash, tabiatni muhofaza qilish, obyektlarni qurish, jamoat maskanlarini bunyod etish va boshqalarni moliyalashtirishga sarflanadi.

– xavf-xatardan himoyalashga sarflanadigan investitsiyalar – komplekt mahsulot va xomashyolarni sotib olish bo‘yicha xavf-xatarni kamaytirishga yoki korxonalariga bozordagi baholar darajasini yetarli darajada ushlab turishga ko‘maklashish, shuningdek, ishlab chiqaruvchilarni monopol raqobatdan himoyalashga yo‘naltiriladi;

– tezkor investitsiyalar («nou-xou», ilmiy yangiliklar uchun) – yangi texnik va texnologik imkoniyatlarni izlashga, texnik taraqqiy etishga yo‘naltiriladi;

– ijtimoiy investitsiyalar – korxonalar jamoasi mehnat sharoitlarini yaxshilashga yo‘naltiriladi;

– hukumat investitsiyalari – korxonalar mavqeyini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi.

Bugungi kunda investitsiyalar ko‘proq biznes egasining sifatlariga, uning manfaatlariga, shuningdek, menejment va moliyaviy menejmentga bog‘liq. Samarali ishlab chiqilgan investitsiya siyosatiga ega bo‘lmagan ishlab chiqaruvchilar (mulkdorlar) raqobatdosh ustunliklarini yo‘qotgan holda o‘z bizneslarini yopishga yoki qo‘llashga majbur bo‘ladilar. Ular ishlab chiqarishni (kapitalni) diversifikatsiya qilish yoki uni takomillashtirish uchun sarflanishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha xarajatlarni o‘z zimmalariga oladilar.

Umumiy jihatdan investitsiyalarni turli mezonlarga ko‘ra tasniflash mumkin (1.1-jadval).

1.1-jadval

Investitsiyalarni turli mezonlar bo‘yicha tasniflanishi

Investitsiya larning tasniflash belgilari	Investitsiya turlari
Tashkiliy shakllari bo‘yicha	Investitsiya loyihasi (investitsiya faoliyatining aniq obyektini mavjudligi va investitsiyani odatda bir shaklining amalga oshirishi); xo‘jalik yurituvchi subyektning investitsiya portfeli (bir investordagi investitsiyaning bir necha shakllari mavjud)

Investitsiya faoliyati obyektlari bo'yicha	Moddiy va nomoddiy aktivlarda asosiy vositalarni yaratish va ko'paytirish uchun uzoq muddatli real investitsiyalar (kapital qo'yilmalar); aylanma mablag'larga qisqa muddatli investitsiyalar (tovar-moddiy zaxiralar, qimmatli qog'ozlar va boshqalar); davlat va korporativ qimmatli qog'ozlarga moliyaviy investitsiyalar
Investitsiya resurslariga mulkchilik shakllari	Xususiy; Davlat; Xorijiy; Hamkorlikda.
Investitsiyalashda ishtirok etish xususiyatiga ko'ra	To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar (moddiy obyektga to'g'ridan to'g'ri investitsiya); bilvosita investitsiyalar (vositachi – portfelli investitsiyalarning mavjudligi).
Harakat yo'nalishi bo'yicha	Boshlang'ich investitsiyalar; sof investitsiyalar (korxonalar loyihasi yoki uni sotib olish asosida); kelajakda korxonaning omon qolishiga qaratilgan investitsiyalar; joriy xarajatlarni tejash uchun investitsiyalar; bozorda o'z o'rnini saqlab qolish uchun investitsiyalar; ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga investitsiyalar; ishlab chiqarishni kengaytirish uchun investitsiyalar (ekstensiv); yangi ishlab chiqarishni yaratish uchun investitsiyalar (innovatsion); reinvestitsiya; yalpi investitsiyalar (sof investitsiya + reinvestitsiya).
O'zaro bog'liqlik darajasi bo'yicha	1. Izolyatsiyalangan investitsiyalar (boshqa investitsiyalarga ehtiyoj tug'dirmaydigan mablag'lar). 2. Tashqi omillarga bog'liq bo'lgan investitsiyalar (ishlab chiqarish, ijtimoiy infratuzilma, inflyatsiya va boshqalarning mavjudligiga bog'liq bo'lgan kapital qo'yilmalar). 3. Tashqi omillarga ta'sir etuvchi investitsiyalar (ommaviy axborot vositalariga mablag'lar).
Ishonchlilik darajasiga ko'ra	Nisbatan ishonchli; Riskli (innovatsiyalarda)

Faol investitsiyalar – bu yangi bozorlarni egallashga yo'naltirilgan tajovuzkor yoki diversifikatsiyalangan investitsiyalardir. Moliyaviy

vositalar (portfel investitsiyalar) orqali ular raqobatchilarni o'ziga singdirib yuborishi yoki ularning bozordagi mavqeini pasaytirishi mumkin. Bu yerda narxlarni demping qilish, ishlab chiqarish va menejment sohasida eng yangi texnologiyalarni joriy etish mexanizmi qo'llanilishi mumkin. Ushbu investitsiyalar yuqoriroq daromad keltirishi mumkin, ammo mavjud riskdan xoli bo'lmaydi.

Passiv investitsiyalar – faol investitsiyalardan farqli ravishda, nisbatan kamroq riskka ega bo'lib, eskirgan uskunalar va texnologiyalarni almashtirish hamda yangi kadrlar tayyorlash, boshqaruvni tegishli darajada qo'llab-quvvatlash orqali korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash (barqarorlashtirish)ga yo'naltiriladi.

O'z mohiyati va tabiati bo'yicha investitsiyalar **boshlang'ich** va **yalpi** investitsiya larga ajratiladi.

Boshlang'ich investitsiyalar korxonani tashkil etish yoki uni sotib olishdagi moliyaviy qo'yilmalarni o'z ichiga oladi. Adabiyotlarda ular **sof** investitsiyalar deb ham nomlanadi.

Yalpi investitsiyalar – **sof** investitsiyalar va **reinvestitsiyalarni** o'z ichiga oladi.

Reinvestitsiya – bo'sh pul mablag'lardan (foyda, aylanma aktivlarning eskirishi va boshqalar) yangi ishlab chiqarish jihozlarini sotib olish yoki o'rnatishda foydalaniladi. O'z iqtisodiy xarakteriga ko'ra, ular faol-passiv investitsiyalarga xos, chunki ular yangi asbob-uskunalar, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni sotib olish, yangi asosiy vositalar (fondlar)ni mustaqil ravishda yaratish, eskirgan asbob-uskunalarini almashtirish, modernizatsiya qilish va kapitalni diversifikatsiyalashga yo'naltirilgan.

O'z navbatida, ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi bozorlarni egallash, ishlab chiqarilayotgan (ishlab chiqarilgan) mahsulotning yakuniy sotilishini ko'paytirish, boshqa firmalarga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan investitsiyalar **ekstensiv** investitsiyalar deb ataladi.

Ekstensiv investitsiyalar – ishlab chiqarish potensialini yuksaltirishga yo'naltirilgan investitsiyalardir.

Intensiv investitsiyalar – xomashyoga xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlarga ehtiyojni kamaytirish, energiya iste'molini qisqartirish, kapital xarajatlar, ya'ni moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni kamaytirishga yo'naltiriladi.


1.3. Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi

Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat subyektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi. Investitsiya munosabatlarining mohiyati bu faoliyat ishtirokchilari doirasida va darajasida o'z ifodasini topadi.

Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- investorlarni rag'batlantirish;
- milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- mamlakat hududida investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish.

Mamlakatda investitsiya faoliyatini tartibga solishning zaruriy sharti bo'lib, davlat qonunchiligi va huquqiy asosini shakllantirish hisoblanadi (1.1-rasm).



1.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari

Investitsiya munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish deganda, barcha boshqaruv organlari foydalanadigan ma'muriy-iqtisodiy tuzdagi qonun bilan belgilangan shakl va usullar tushuniladi.

Investitsiya munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solishda davlat investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish, soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash, normalar, qoidalar, standartlarni belgilash, monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash, kredit siyosati va narx siyosatini o'tkazishga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash va boshqalar amalga oshiradi.

Investitsiya munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish – bu investitsiya faolligini ta'minlash va shu asosda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun vakolatli davlat muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijro etuvchi va nazorat choralari tizimidir.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish, huquqiy nuqtayi nazaridan, turli mulkdorlar o'rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o'ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarini shakllantirish me'yorlarini nazarda tutadi.

Investitsiya jarayonining barcha subyektlari – chet ellik investorlardan boshlab, davlat, yuridik va jismoniy, shu jumladan chet ellik shaxslar (rezidentlar va nerezidentlar)gacha bu munosabatlarning ishtirokchilariga aylanadilar.

Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish birinchi navbatda davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlarini ko'zlaydi. Respublika qonun hujjatlariga muvofiq chet el investitsiyalari milliylashtirilishi, davlat tasarrufiga olinishi mumkin emas. Chet el investitsiyalari tabiiy ofatlar, faloqatlar, epidemiyalar hollarini mustasno qilganda, rekvizitsiya qilinmaydi.

Chet el investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olingan o'z foydasi va boshqa mablag'larini chet el valutasida chetga o'tkazish kafolatlanadi. Qonun hujjatlarida chet ellik investorlarga ularning davlat boshqaruvining vakolatli organlari bilan tuzadigan **konsessiya** shartnomalari asosida tabiiy resurslarni qidirish, foydalanishga

tayyorlash va foydalanish hamda boshqa xo‘jalik faoliyatini joriy qilish uchun konsessiyalar berish nazarda tutilgan. Respublika qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan faoliyatning hamma sohalari va turlari bo‘yicha konsessiya berilishi mumkin. Chet ellik investor qarori bilan investitsiya larga hamda ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, tasarruf etish huquqi respublika qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga berilishi mumkin.

Davlat investitsiya faoliyatini tartibga solish bilan birga bevosita o‘zi ham ishtirok etadi. Bunda:

- davlat investitsiya dasturlarini qabul qilish va ularni respublika budjetidan moliyalashtirish;

- yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun to‘lovlilik, muddatlilik va qaytarib berish asosida respublika budjetining markazlashgan investitsiya resurslarini taqdim etish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun jalb etilgan kreditlar uchun davlat kafolatini taqdim etish;

- investitsiya loyihalarining davlat kompleks ekspertizasini olib borish;

- mahalliy va xorijiy investorlar uchun konsessiyalar taqdim etish kabilar bilan investitsiya faoliyatida qatnashadi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- investorlarning erkin faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslarni yaratish, mustahkamlash, takomillashtirib borish;

- pul-kredit siyosati orqali;

- valuta siyosati orqali;

- amortizatsiya siyosati orqali;

- narx siyosati orqali;

- dotatsiyalar, subsidiyalar tizimi orqali;

- budjet-soliq siyosati, jumladan, fiskal siyosat, soliqlardan imtiyozlar berish, soliq kreditlari orqali;

- davlat kafolatlari tizimi orqali;

- xorijiy va mahalliy investorlarning huquqlarini himoya qilish orqali;

- ayrim tarmoq, soha, hududlar va ulardagi obyektlarni davlat o‘z nazoratida saqlab qolish, investitsiyalash orqali va boshqalar.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga solish, investitsion salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, yillik investitsiya dasturlarini sifatli ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumatlarning moliya institutlari, yetakchi chet el kompaniyalari va bank tuzilmalari bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, jalb etiladigan chet el investitsiyalari samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, jumladan:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi “Konsesiyalar to‘g‘risida”gi 110-I-son qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi “Xorijdan mablag‘ jalb qilish to‘g‘risida”gi 263-I-son qonuni

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5643-son farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5635-son farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495-son farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrda “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5600-son Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4135-son qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni

jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300-son qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4332-son qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida xorijiy investorlar kengashini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4519-son qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4563-son qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyundagi “Investitsiya va infratuzilma loyihalarini jadal amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3794-son qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi eksportni rag‘batlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 373-son qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 390-son qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi tarif va notarif tartibga solish kengashining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 408-son qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-maydagi “Investitsiya va boshqaruv kompaniyalari faoliyati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 414-son qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 420-son qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi “Xorijiy investorlar bilan ishlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 547-son qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 621-son qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligining 2019-yil 15-apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi 52-son qarori.

Chet ellik hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soladigan eng muhim hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni hisoblanadi. Ushbu qonunga ko‘ra, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasini va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat vazifalari bajarilishini ta‘minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi turli investitsiya obyektlariga qo‘yilmalar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni ta‘minlash maqsadida davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, qonunning 25-moddasida ko‘ra, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

– investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;

– investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolatlarini taqdim etish;

O‘zbekiston Respublikasi hududida maxsus iqtisodiy zonalarini va kichik sanoat zonalarini barpo etish;

– asosiy fondlarni tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqini berish;

– texnik jihatdan tartibga solish normalari, qoidalari va talablarini belgilash;

– raqobatni qo‘llab-quvvatlash choralari qo‘llash;

– yer uchastkalariga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish shartlarini belgilash.

Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hisoblanadi. Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organining asosiy vakolatlari quyidagilardan iborat:

– salohiyatli investorlarga faoliyatining huquqiy, iqtisodiy va boshqa masalalari bo‘yicha maslahat berish hamda ularga yuzaga keladigan masalalarni hal etishda zarur yordam va ko‘mak ko‘rsatish;

– yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish hamda investitsiya faoliyatini tartibga solish sohasidagi davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

– hamkorlik yo‘nalishlarini va loyihalarini majburiy ravishda kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining va xo‘jalik boshqaruvi organlarining chet el vakolatli organlari, chet el hukumat moliya tashkilotlari hamda xalqaro moliya institutlari, shuningdek, kompaniyalar va salohiyatli chet ellik investorlar bilan investitsiyaviy hamkorlik masalalariga doir o‘zaro aloqalarni ta‘minlash;

– investorlar bilan doimiy ikki tomonlama aloqani ta‘minlash, hududlar va mahalliy yuridik shaxslarga investitsiyalarni jalb qilishda ko‘maklashish, investitsiya takliflari ishlab chiqilishini tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini ifodalash va xalqaro investitsiya hamjamiyatlari ishida ishtirok etish;

investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya muhitini rivojlantirish va O‘zbekiston Respublikasi hududidagi investitsiya faoliyatini takomillashtirish sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va kiritish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari ham investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organining hududiy bo‘linmalari bilan birgalikda quyidagilarni amalga oshirish vakolatiga ega:

- mahalliy darajada mamlakatning tegishli hududiga investitsiya qilish hajmlarini kengaytirishni rag‘batlantirishga qaratilgan investitsiya siyosatini olib borish, shu jumladan investitsiyalarni jalb qilish, hududda investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, tegishli hududdagi korxonalarining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash;

- investitsiya qilishni talab qiladigan istiqbolli loyihalarni, shuningdek, bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini hamda yer uchastkalarini hududlarning ehtiyojlari va salohiyatidan (resurs, tabiiy-iqlim, mehnat va boshqalar) kelib chiqqan holda o‘rganish va aniqlash;

- investorlarning faoliyati bilan bevosita bog‘liq masalalarni, shuningdek, zarur hollarda, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish vositasida istiqbolli tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish;

- tegishli hududdagi investitsiya loyihalarini, shu jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash, ularni hal etish bo‘yicha tezkor choralar ko‘rish;

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar faoliyatini, shuningdek, investorlar tomonidan investitsiya majburiyatlari bajarilishini tahlil qilish asosida tegishli hududning iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish;

- tegishli hududning chet el banklari, fondlar, agentliklar va kompaniyalar bilan investitsiyaviy hamkorlik yo‘nalishlarini o‘zaro manfaatli asosda rivojlantirish va diversifikatsiya qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- investitsiyalarni tegishli hududga jalb etish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni va yanada qulay shart-sharoitlar yaratish uchun chet el investitsiyalarini jalb qilish sohasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga hamda qo‘shma korxonalariga jalb etishga qaratilishi

lozim. Shuningdek, tartibga solish xususiy tadbirkorlik subyektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutishi kerak. Bunda chet el investitsiyalarining oqib kirishini rag‘batlantirish, shu bilan birga milliy iqtisodiyot subyektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o‘rinda turadi. Shunday qilib, davlat tomonidan investitsiya munosabatlarini tartibga solishning vazifasi, bir tomondan, bevosita chet el investitsiyalari oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik subyektlarining qo‘yilmalarini kengaytirishdan iborat bo‘ladi.

O‘zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo‘naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. Bu borada jahon hamjamiyati oldida o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasidagi geografik joylashuvi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5643-son farmoniga ko‘ra, Tashqi savdo vazirligi va Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi negizida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tashkil etildi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi mamlakatda yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish, xorijiy, birinchi navbatda, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishni muvofiqlashtirish, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, shuningdek tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy hamkorlik sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish va muvofiqlashtirish uchun mas‘ul vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Shuningdek, farmonga asosan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan o‘rta muddatli investitsiya siyosati strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi asosida hududlar va tarmoqlarning rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqishni muvofiqlashtiradi;

xalqaro va xorijiy hukumat moliya institutlarining jalb qilinadigan kredit resurslari va texnik ko‘maklashish vositalari (grantlari)dan, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘laridan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan markazlashgan investitsiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

Vazirlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

–yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish, davlat rivojlanish dasturlari va investitsiya dasturlari, shu jumladan tarmoq va hududiy investitsiya dasturlari ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

–xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlarini muvofiqlashtirish, xalqaro iqtisodiy va moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama formatda o‘zaro samarali hamkorlikni amalga oshirish;

–O‘zbekiston Respublikasining investitsiyaviy hamkorlik masalalari borasidagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash, kelishish va imzolashda ishtirok etish;

–investorlar bilan doimiy qayta aloqani yo‘lga qo‘yish, investitsiyalarni jalb qilishda hududlar va mahalliy kompaniyalarga ko‘maklashish, investitsiya takliflarini ishlab chiqishni tashkillashtirish va boshqalar.

Shu bilan bir qatorda, vazirlik investitsiya va savdo faoliyatiga, shu jumladan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan muammolarni o‘rganishni ta‘minlaydi;

–Vazirlikning o‘z vakolati doirasida qabul qilgan va normativ-huquqiy xususiyatga ega bo‘lgan qarorlari davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi;

–Vazirlik tegishli idoralarning investitsiya siklining har bir bosqichida investorlarga hamrohlik qilishi, byurokratik ko‘rinishlarning oldini olgan holda yuzaga kelayotgan tashkiliy masalalarni, shu jumladan investitsiyadan keyingi davrda hal qilish bo‘yicha muzokaralar olib borishini tashkil qiladi;

–davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, ustav kapitalida davlat ulushi ustun bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tashabbusi bilan qiymati 10 mln AQSH dollaridan ortiq ekvivalentdagi investitsiyalarni jalb qilish sohasidagi kelishuvlar Vazirlik bilan oldindan kelishilishi shart;

–davlat organlari va tashkilotlarga investorlar, shuningdek, investitsiya ishtirokidagi tashkilotlardan kelib tushgan murojaatlarning Vazirlik tomonidan monitoring qilish uchun ularning nusxalari murojaatlar kelib tushgan kundan boshlab bir kun muddatda «**Investitsiya portali**»ga joylashtiriladi;

–Vazirlik doimiy asosda investorlar murojaatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning umumlashtirilishini ta‘minlaydi va investorlarning, shu jumladan salohiyatli investorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritadi;

–investitsiyalar, savdo va iqtisodiy tartibga solish masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy tartibda Vazirlik bilan kelishilishi lozim.

1.4. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o‘rni

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishi, aholi daromadlarining oshishi, turmush sharoitining yaxshilanishi aksariyat holatlarda milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga jalb etilayotgan investitsiya mablag‘larining hajmi va tarkibiga bog‘liq. Shunday ekan, har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishi milliy iqtisodiyotga investitsiya mablag‘larini jalb etishning jozibador muhitini shakllantirishga qaratilishi muqarrardir.

Yaqin kelajakda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlanish darajasiga yetkazib olishni maqsad qilgan O‘zbekiston uchun respublikaning investitsion jozibadorligini oshirish, investitsiya mablag‘larini ichki kapital resurslar hamda xorijiy investitsiya va kreditlar asnosida ko‘payishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni aytish lozimki, dunyo hamjamiyatining hozirgi taraqqiyot bosqichida birorta ham mamlakat investitsiyalarsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erisha olmaydi.

Investitsiya resurslarini o'z vaqtida milliy iqtisodiyotlariga jalb qilish imkoniyati bo'lmagan, pul mablag'lari tanqisligini boshidan kechirayotgan davlatlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha dunyo mamlakatlari darajasidan ancha orqada qolib ketishiga olib keladi. Mazkur holatning yechimi, moliyaviy mablag'lar ortiqcha bo'lgan rivojlangan mamlakatlardagi kapital resurslarni, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga jalb qilish hisoblanadi.

Investitsiyalar yordamida quyidagi vazifalar yechish mumkin:

Birinchidan, ichki bozorda talabgor bo'lgan – import tovarlari o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan yangi korxonalarni qurish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ishlab chiqarishini kengaytirish va istiqbolli rivojlanishni ta'min etuvchi omil – milliy korxonalarining xususiy kapital hajmini to'ldiradi.

Uchinchidan, milliy iqtisodiyotda texnologik yangilanish amalga oshadi va milliy sanoat ishlab chiqarishiga yangi texnika va zamonaviy uskunalar o'rnatiladi va natijada jahon bozorida raqobatlasha oladigan milliy mahsulotlar ishlab chiqarila boshlaydi.

To'rtinchidan, milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan kredit mablag'lari hisobidan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkoni yaratiladi.

Beshinchidan, milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi amalga oshadi.

Demak, investitsiyalar, makro yoki mikro darajada bo'lishidan qat'i nazar iqtisodiy o'sishni ta'min etuvchi muhim omildir.

Milliy ishlab chiqaruvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatiga investitsiyalarni jalb etish uchun korxonalar miqyosida quyidagi ishlarni bajarishlari kerak.

Birinchidan, puxta ishlab chiqilgan va istiqbolga ega bo'lgan biznes-rejaga ega bo'lishlari lozim. Investorlar hamma vaqt ularning qo'yilmalari kelajakda foyda keltirishini bilishga intiladilar.

Ikkinchidan, investorlar faqat o'zlari ishonch qozongan korxonalariga investitsiya loyihalarini moliyalashtiradilar. Yashirin va

gumonli korxonalariga investitsiya qo'yish, foydadan ajralish bilan barobar, shuning uchun, milliy korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha iqtisodiy reytingi yuqori bo'lishi zarur.

Uchinchidan, korxonalar shaffof va ochiq faoliyat yuritishlari lozim. Buning uchun buxgalteriya hisobi hujjatlari ularga qo'yilgan talab darajasiga javob berishi va korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati hujjatlari bo'yicha yakuniy natijalari ommaviy axborot vositalari orqali jamiyat a'zolariga ochiq e'lon qilinishi zarur.

Milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlarida kiritilgan investitsiyalarni tahlil qilamiz.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 2020-yilida 202,0 trln. so'm yoki 2019-yilga nisbatan 91,8% asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi (1.2-jadval).

2020-yilda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning 70,0% yoki 132,0 trln. so'm jalb etilgan mablag'lar hisobidan, qolgan 34,6%i yoki 70,0 trln. so'm korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi. 2020-yilda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 8,0% punktga kamayib, 19,5% ni yoki 39,3 trln. so'mni tashkil etdi¹⁹.

YaIMga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 2020-yilda 34,8% ni tashkil etib, o'tgan yildagiga nisbatan 3,6% punktga pasaydi. Mazkur ko'rsatkich 2017-yilda 23,9 % ni hamda 2018-yilda – 30,6 % ni tashkil etgan (1.2-jadval). Qayd etish lozimki, mazkur ko'rsatkich dunyo mamlakatlari miqyosida hisoblangan investitsiyalarning o'rtacha salmog'idan yuqori bo'lsada, 2020-yilda koronavirus pandemiyasining salbiy iqtisodiy oqibatlari hisobiga qisman pasayganini ko'rishimiz mumkin. Ammo, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida strategik maqsadlarni belgilab olgan ekan, ularni amalga oshirish uchun milliy iqtisodiyotga investitsiyalar hajmini oshirish zarur bo'ladi.

¹⁹ <https://stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumotlari.

Buni, **birinchidan**, ichki investitsiyalar hajmini ko‘paytirish, **ikkinchidan**, tashqi investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish negizida amalga oshirish mumkin.

1.2-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalar²⁰

Ko‘rsatkich	Yillar								
	2000	2005	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Investitsiyalar hajmi, trln.so‘m	0,7	3,2	16,5	44,8	51,2	72,2	124,2	189,9	202,0
O‘shish sur‘ati, %	101,0	105,7	108,7	109,6	107,7	120,4	118,1	133,9	91,8
YaIM dagi ulushi, %	22,9	19,9	24,6	24,3	25,0	23,9	30,6	38,4	34,8
Aholi jon boshiga, ming so‘m	30,2	121,0	543,4	1331,4	1562,8	2112,6	3256,9	5655,8	5900,9
Aholi jon boshiga o‘shish sur‘ati, %	99,6	104,5	107,0	107,7	105,8	118,4	116,1	131,4	90,1

2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari quyidagilar:

- tozalangan metan asosida sintetik suyuq yoqilg‘i ishlab chiqarishga mo‘ljallangan Sho‘rtan gaz-kimyoy majmuasi qurilishi;
- uglevodorodlar qazib chiqarishni 2017–2021–yillarda kengaytirish dasturi;
- magistral tarmoqlar podstantsiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish;
- Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida issiqlik elektr stansiyasi qurilishi;
- Taxiatoş IES – quvvati 230-280 MVt bo‘lgan ikkita bug‘-gaz qurilmasi qurilishi (Ikkinchi bug‘-gaz qurilmasini ishga tushirish);
- elektr energiyasi iste‘molini hisoblash va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish: Buxoro, Jizzax va Samarqand viloyatlarida 0,4 kV elektr energiyasi iste‘molini hisoblash tizimi;
- “Farxod GES” UK ni modernizatsiya qilish (II faza);

²⁰ <https://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

- “Sharg‘un ko‘mir” AJ – loyiha quvvatini yiliga 900 ming tonna toshko‘mirga yetkazish bo‘yicha modernizatsiya qilish;
- lokomotivlar sotib olish bilan lokomotivlar parkini yangilash;
- Janubiy Qoraqalpog‘istonda suv resurslari boshqaruvini yaxshilash va boshqalar.

Shuningdek, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan quyidagi loyihalarga yirik investitsiyalar jalb qilingan:

- “Yoshlik 1” konini o‘zlashtirish, Olmaliq sh., Toshkent viloyati;
- Toshkent shahrida yerusti halqa metro liniyasi qurilishi;
- “Muruntau” karyeriga ishlov berish (V navbat) II bosqich;
- “Navoiyazot” AJ da ammiak va karbamid ishlab chiqarishi bo‘yicha qurilish ishlari;
- Texnogen chiqindilarni qayta ishlash majmuasi qurilishi I-II bosqichlar.

Respublika bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni aholi jon boshiga ko‘radigan bo‘lsak, 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatan 9,9% ga pasaygan va 5900,9 ming so‘mga yetdi (1.2-jadval).

2020-yilda aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Toshkent shahrida 17062,5 ming so‘m (yoki 2019-yilga nisbatan 93,4%), Navoiy viloyatida – 15954,9 ming so‘m (yoki 77,4%), Jizzax viloyatida – 9291,9 ming so‘m (yoki 149,3%), Sirdaryo viloyatida – 8404,0 ming so‘m (yoki 108,9%), Qashqadaryo viloyatida – 6023,2 ming so‘m (yoki 72,7%), Toshkent viloyatida – 6399,9 ming so‘m (yoki 81,5%) va Buxoro viloyatida 5812,1 ming so‘m miqdorida (yoki 95,4%) qayd etildi²¹.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi salmoqli hisoblanib, 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 42,9 foizni tashkil qilmoqda (1.3-jadval). Bunda O‘zbekiston Respublikasi davlat kafolati ostida xorijiy kreditlar 3,1 foizli punktga kamayib 11,6 foizni tashkil etdi, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar esa 31,8 foizni tashkil etgan holda o‘tgan yilga nisbatan 0,7 foizli punktga ko‘paydi. O‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning YaIMdagi ulushi 14,9 % ni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 2,0% punktga kamaydi.

²¹ <https://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti ma’lumotlari.

O‘zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning qiymati 86647,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, undan 64179,9 mlrd. so‘mi to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 74,1 % ini tashkil etdi.

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan namunaviy loyihalar asosida shahar va qishloq joylarda turar joylar qurilishi bo‘yicha yirik davlat ahamiyatidagi ijtimoiy investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda.

To‘g‘ridan to‘g‘ri va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan quyidagi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi:

- zamonaviy gazni qayta ishlash zavodi qurilishi bilan Qandim konlar guruhini o‘zlashtirish, Xauzak va Shodi konlarini o‘zlashtirish, shuningdek, mahsulot taqsimoti kelishuvi asosida Qo‘ng‘irot hududida geologik-qidiruv ishlarini olib borish;

- mahsulot taqsimoti kelishuvi asosida Janubiy-G‘arbiy Hisor va Ustyurt hududida uglevodorod qazib olish va konlarga ishlov berish;

- O‘zbekiston Respublikasi investitsiya bloklarida neft-gaz konlariga ishlov berish va geologik-qidiruv ishlarini olib borish (Qultoq-Qamashi, Muborak, Surxon, Ashibuloq va Kosquduq, G‘arbiy Farg‘ona investitsiya bloklari);

- mahsulot taqsimoti kelishuvi asosida Surxondaryo viloyatida “Mustaqillikning 25 yilligi” koniga ishlov berish va qidiruv ishlarini yakunlash bilan gaz-kimyoy majmuasi qurilishi;

- Auminzo-Amantoy konlari hududida oltin mavjud konlarni qayta ishlash va qazib chiqarish konini qurish I-II bosqich va boshqalar.

1.3-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi²², jamiga nisbatan foizda

Manba	Yillar							
	2005	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Asosiy kapitalga investitsiyalar -	100	100	100	100	100	100	100	100
shu jumladan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirildi:								
davlat budjeti	12,3	5,6	4,5	4,5	5,1	6,5	7,6	6,5

²² <https://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

korxonalar va aholi	57,5	49,0	52,9	53,0	44,5	39,3	29,3	34,6
bank kreditlari va boshqa qarzi mablagʻlari	3,8	9,7	11,8	11,1	13,3	14,9	13,1	14,1
xorijiy investitsiya va kreditlar	21,7	28,3	19,9	21,3	25,1	29,2	45,7	42,9
budjetdan tashqari fondlar, tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi, sugʻoriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash fondlarini qoʻshgan	4,8	7,4	x	x	x	x	x	x
davlat maqsadli fondlari, bolalar sportini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish fondini qoʻshgan holda	x	x	10,9	10,1	12,0	12,8	4,3	1,9

2020-yilda davlat budjeti mablagʻlarining jami asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 2,5% punktga kamaydi (1.3-jadval). Davlat budjeti mablagʻlari Oʻzbekiston Respublikasi infratuzilmasini rivojlantirish, ijtimoiy sohani qoʻllab-quvvatlash va turmush tarzini yaxshilash maqsadlardagi manzilli investitsiya dasturini bajarishga yoʻnaltirildi.

2020-yilda iqtisodiyotning nodavlat sektorida 168,1 trln. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirildi. Mazkur koʻrsatkich jami investitsiyalar hajmida respublika boʻyicha 83,2% ni, shuningdek, Qashqadaryo viloyatida – 92,6% ga yetdi, Jizzax viloyatida – 90,7%, Fargʻona viloyatida – 90,1%, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida – 89,2% ni tashkil etdi.

Shuningdek, davlat budjeti mablagʻlarining asosiy qismi Qoraqalpogʻiston Respublikasi (davlat budjeti mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilgan jami investitsiyalarning 10,9%i), Toshkent viloyati (10,1%), Sirdaryo viloyati (7,5%) va Xorazm viloyatlarida (7,0%) oʻzlashtirildi.

Hududlar boʻyicha tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzi mablagʻlari hisobidan salmoqli investitsiyalar oʻzlashtirildi, jumladan Namangan viloyatida – jami asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalarning 24,4%i, mos ravishda Fargʻona viloyatida – 24,3%, Xorazm viloyatida – 21,2%, Toshkent shahrida – 19,0% va Samarqand viloyatida – 18,9% (1.4-jadval).

O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar va ularni hududlar bo‘yicha taqsimlanishi²³, mlrd. so‘m

Hududlar nomi	Yillar					
	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Respublika bo‘yicha jami ²⁴	41 671	49 771	60 719	124 231	189 924	202 000
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5 926	3 719	2 235	6 046	8 435	8 167
Andijon	1 661	1 987	2 236	4 056	8 184	8 755
Buxoro	3 866	5 757	11 009	7 846	9 867	11 249
Jizzax	1 101	1 247	1 437	3 169	7 919	12 974
Qashqadaryo	5 591	7 049	10 182	15 321	23 525	19 922
Navoiy	1 685	2 847	2 785	10 059	17 775	16 043
Namangan	1 966	2 567	3 052	7 131	12 187	11 983
Samarqand	2 854	3 321	3 307	5 747	9 799	13 426
Surxondaryo	1 633	2 005	2 949	6 111	12 232	9 923
Sirdaryo	1 000	1 241	1 349	2 155	6 129	7 175
Toshkent	4 056	3 960	4 302	9 351	16 935	18 994
Farg‘ona	2 133	2 405	2 474	4 978	9 164	11 320
Xorazm	1 343	1 445	1 877	2 980	5 567	6 663
Toshkent sh.	6 855	10 221	11 526	21 862	41 498	44 779

1.4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarni 2015-yilga nisbatan 2020-yildagi o‘shish sur’ati 4,8 martani tashkil qilgan. Ushbu davr oralig‘ida yuqori o‘shish sur’ati Jizzax (11,8 marta), Navoiy (9,5 marta), Sirdaryo (7,2 marta), Namangan va Surxondaryo (6,1 marta) viloyatlarida va Toshkent shahrida (6,5 marta) kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar nominal miqdorining jami Respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi orqali har bir hududning investitsion faolligini aniqlash mumkin bo‘ladi.

²³ <https://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

²⁴ Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda.

O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarda hududlarning ulushi²⁵ (jamiga nisbatan foizda)

Hududlar nomi	Yillar					
	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Respublika bo‘vicha iami ²⁶	100	100	100	100	100	100
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	14,2	7,5	3,7	4,9	4,4	4,0
Andijon	4,0	4,0	3,7	3,3	4,3	4,3
Buxoro	9,3	11,6	18,1	6,3	5,2	5,6
Jizzax	2,6	2,5	2,4	2,6	4,2	6,4
Qashqadaryo	13,4	14,2	16,8	12,3	12,4	9,9
Navoiy	4,0	5,7	4,6	8,1	9,4	7,9
Namangan	4,7	5,2	5,0	5,7	6,4	5,9
Samarqand	6,8	6,7	5,4	4,6	5,2	6,6
Surxondaryo	3,9	4,0	4,9	4,9	6,4	4,9
Sirdaryo	2,4	2,5	2,2	1,7	3,2	3,6
Toshkent	9,7	8,0	7,1	7,5	8,9	9,4
Farg‘ona	5,1	4,8	4,1	4,0	4,8	5,6
Xorazm	3,2	2,9	3,1	2,4	2,9	3,3
Toshkent sh.	16,4	20,5	19,0	17,6	21,8	22,2

1.5-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Respublikada asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya lardagi eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahriga to‘g‘ri kelmoqda. Xususan, jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda Toshkent shahrining ulushi 2015-yilda 16,4%ni tashkil qilgan bo‘lsa 2020-yilda bu ko‘rsatkich 22,2% ga yetgan. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha tahlil qilinayotgan davrlarda yuqori o‘shish Qashqadaryo (9,9%), Toshkent (9,4%) va Navoiy (7,9%) viloyatlarida kuzatilgan bo‘lib, 2020-yilda yetakchi ko‘rsatkichlarga ega bo‘linmoqda (1.5-jadval).

Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalarni hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

birinchidan, asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar ko‘lamining o‘shishi yuqori texnologik taraqqiyot va intensiv iqtisodiy

²⁵ <https://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

²⁶ Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda.

o‘shishning omili sifatida YaHMni yillik o‘shish sur‘atiga ijobiy ta‘sir etadi;

ikkinchidan, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, tarkibiy islohotlarni amalga oshirish pirovardida import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish imkoni yaratiladi.

uchinchidan, mavjud moliyaviy-investitsion salohiyatdan oqilona foydalanish kontekstida tadbirkorlik faoliyatining keng rivojlanishiga va pirovard natijada yangi ish o‘rinlari yaratilishi orqali aholining turmush farovonligini oshirilishini ta‘minlaydi. Natijada aholi daromadlarini izchil ortishi hisobiga iqtisodiyotdagi yalpi talabning kengayishi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Jami asosiy kapitalga investitsiyalardan ishlab chiqarish sanoatiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar ulushi 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 4,0 va 2018-yilga nisbatan esa 9,1 foizli punktga oshib, 31,1 foizni tashkil qilmoqda. 2020-yilda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 62 %dan ortig‘i quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yo‘naltirildi: tog‘- kon sanoati – 11,6 %, ishlab chiqarish sanoati – 31,1 %, tashish va saqlash – 4,7 %, elektr, gaz va bug‘ bilan ta‘minlash, havoni konditsiyalash – 5,1 %, turar joy qurilishiga – 9,5 % (1.6-jadval).

1.6-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi²⁷

	2015-y.		2016-y.		2017-y.		2018-y.		2019-y.		2020-y.	
	Mrd. so‘m	Jami-ga nisbatan %da	Mrd. so‘m	Jami-ga nisbatan %da	Mrd. so‘m	Jami-ga nisbatan %da	Mrd. so‘m	Jami-ga nisbatan %da	Mrd. so‘m	Jami-ga nisbatan %da	Mrd. so‘m	Jami-ga nisbatan %da
Jami	41670,5	100,0	48083,1	100	68423,9	100	107333,0	100	189924,3	100	202000,1	100
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1375,5	3,3	1646,4	3,4	2379,3	3,5	3561,1	3,3	15141,0	8,0	18025,5	8,9
Tog‘-kon sanoati	9701,1	23,3	7173,4	14,9	14203,8	20,8	12253,9	11,4	22319,4	11,7	23434,1	11,6

²⁷ <https://stat.uz> – Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитасининг расмий сайти маълумотлари асосида муаллифлар томонидан тузилди.

Ishlab chiqarish sanoati	5346,2	12,8	8992,0	18,7	12238,1	17,9	23661,6	22,0	51433,3	27,1	52805,1	31,1
Elektr, gaz va bug' bilan ta'minlash, havoni konditsiyalash	2244,5	5,4	2722,6	5,7	5472,2	8,0	15241,1	14,2	20527,0	10,8	10214,7	5,1
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash	446,6	1,1	717,3	1,5	963,6	1,4	2587,8	2,4	4093,6	2,2	3630,9	1,8
Qurilish	1057,1	2,5	932,0	1,9	1427,9	2,1	2436,2	2,3	5260,2	2,8	9442,5	4,7
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va motosikllarni ta'mirlash	2028,8	4,9	2459,2	5,1	2508,9	3,7	4042,2	3,8	5903,8	3,1	8578,9	4,2
Tashish va saqlash	3739,5	9,0	5785,0	12,0	669,0	9,3	7969,5	7,4	11337,0	6,0	9575,5	4,7
Ovqatlanish va yashash bo'yicha xizmatlar	476,3	1,1	929,7	1,9	550,8	0,8	1296,8	1,2	5591,4	2,9	2335,8	1,2
Axborot va aloqa	985,3	2,4	1098,5	2,3	1926,1	2,8	920,1	0,9	3241,3	1,7	4820,3	2,4
Moliya va sug'urta faoliyati	511,4	1,2	345,4	0,7	801,9	1,2	1064,3	1,0	1519,4	0,8	2244,9	1,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	895,4	2,1	501,9	1,0	553,6	0,8	1354,1	1,3	2032,2	1,1	3536,6	1,8
Ta'lim	963,7	2,3	1330,6	2,8	1481,4	2,2	2772,1	2,6	4856,6	2,6	4947,8	2,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	950,2	2,3	1140,2	2,4	1605,8	2,3	2720,4	2,5	6077,6	3,2	5672,6	2,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	189,8	0,5	378,9	0,8	566,2	0,8	2157,3	2,0	5697,7	3,0	3358,1	1,7

Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	9116,3	21,9	9394,2	19,5	11068,8	16,2	17695,8	16,5	19413,2	10,2	19141,9	9,5
Boshqa faoliyat turlari	1642,8	3,9	2535,8	5,3	4306,5	6,2	5598,7	5,2	5317,9	2,8	10234,9	5,0

1.6-jadval ma'lumotlariga ko'ra, asosiy kapitalga investitsiyalardan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga 2020-yilda 18025,5 mlrd. so'm o'zlashtirilib, jamiga nisbatan 8,9 %ni tashkil qildi. Bu 2019-yilga nisbatan 0,9 foizli punktga ko'p demakdir. Shuningdek, qurilish ishlariga 9442,5 mlrd. so'm (4,7%) hamda axborot va aloqa sohasiga 4820,3 mlrd. so'm (2,4%) investitsiyalar o'zlashtirilib, ushbu sohalarga o'tgan yilga nisbatan mos ravishda 1,9 va 0,7 foizli punktga o'sdi.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, milliy va chet el investorlariga yaratilgan shart-sharoitlar, xususan, o'z vaqtida me'yoriy-huquqiy bazaning shakllantirilgani investitsiyalar miqdori-ning yildan-yilga ortishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyotga investitsiyalar hajmini, ichki investitsiyalar negizida ko'paytirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- jamg'armalarni investitsiyaga aylantirish bilan bog'liq milliy iqtisodiyotda amal qiluvchi mavjud mexanizmni takomillashtirish;
- tijorat banklari tomonidan aholi qo'lida mavjud pul resurslarini, xoh u milliy, xoh u xorijiy valutada bo'lsin jalb qilish va ularni tadbirkorlik subyektlariga kredit mablag'lari sifatida berish;
- aholi qo'lida yig'ilgan pul mablag'larini "Toshkent" fond birjasi orqali investitsiya jarayoniga jalb qilish va boshqalar.

Ko'rinib turibdiki, ichki investitsiya mablag'larini milliy iqtisodiyotga yanada jadal jalb qilish, mamlakatimizda mavjud kapital resurslarni iqtisodiyot tarmoqlariga jalb qilish mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq bosqichni bosib o'tishni taqozo etadi, ya'ni birmuncha vaqtni talab qiladi.

Milliy iqtisodiyotga investitsiyalar kiritish hajmini oshirishda ichki investitsiyalarga alternativ omil, bu faqat xorijiy investitsiyalar va kredit mablag‘lari hisoblanadi.

Shunday ekan, bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish bilan bog‘liq mavjud barcha resurs va zaxiralarni o‘rganish va qaytadan ko‘rib chiqish, chet el kapitalini milliy korxonalariga jalb qilish mexanizmini takomillashtirish borasida ish olib borish lozim bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridagi masalalarning ijobiy hal etilishi, milliy iqtisodiyotga yo‘naltirilgan ichki va xorijiy investitsiyalar hajmining ortishiga, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga, pirovardida mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. Investitsiya tushunchasiga ta‘rif bering.
2. Investitsiya normasi deganda nimani tushunasiz va u qanday hisoblanadi?
3. Investitorlarning huquqlari himoya qilinishi va tartibga solinishi bo‘yicha qanday me‘yoriy hujjatlar mavjud?
6. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish bo‘yicha qanday manbalarni bilasiz?
7. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar deganda nimani tushunasiz va uning mohiyatini yoriting.
8. Investitsiya loyihalarini mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoriting.
9. Investitsiyalarni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni qanday?
10. Investitsiyalar miqdori qanday sohalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan?

2-BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATI

2.1. Investitsiya faoliyati, uning obyektlari va subyektlari

Investitsiyalar va investitsiya faoliyati bir-biriga juda yaqin tushunchalar hisoblanadi. Investitsiyalarga berilgan ta'rifga muvofiq, investitsiya faoliyati asosan **ikki bosqichdan** tashkil topadi. Investitsiyalar harakatining **birinchi bosqichida** investitsiya resurslari investitsiyalash obyektlariga qo'yiladi, ya'ni investitsiya faoliyati yuz beradi. **Ikkinchi bosqichda** esa investitsiya obyektlariga qo'yilgan qo'yilmalardan olinadigan daromad, samara aks etadi.

Investitsiya faoliyatiga tor va keng ma'noda ta'rif berish mumkin. Tor ma'noda investitsion faoliyat yoki investitsiyalash resurslarni qo'yilma sifatida qayta yo'naltirish, ya'ni qayta tiklash jarayonini o'zida aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, kapitalning hozirgi qiymatini saqlagan holda, jamg'armalarni qayta tiklashdan iborat bo'ladi. Keng ma'noda esa investitsion faoliyat – bu daromad (samara) olish maqsadida investitsiyalash obyektiga mablag' qo'yish bilan bog'liq faoliyatdir. Ya'ni qiymatni kapitallashtirish, jamg'armalarni ko'paytirish maqsadlarida resurslarni u yoki bu investitsion obyektga yo'naltirishdan iborat. Mana shu jarayonni investitsion sikl yoki investitsiyalarning doiraviy aylanishi deyish mumkin. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, investitsiyalarning o'zlari ham investitsion faoliyatning obyekt sifatida ishtirok etadi. Investitsiyalar o'zlarining iqtisodiy tabiatiga ko'ra mavhum tushuncha hisoblansa, investitsion faoliyat ko'zda tutilgan aniq iqtisodiy, ijtimoiy natijaga erishish uchun obyektlarning muayyan xatti-harakatlari, faoliyatlari majmuidir.

Ayrim adabiyotlarda investitsion faoliyat iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kiritilgan mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan funksiyalar majmuasi sifatida tavsiflanadi²⁸.

Investitsion faoliyat iqtisodiy jarayonning bir qismidir. Bu ishlab chiqarishni rivojlantirishni ta'minlashning asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi, ammo uning asosiy maqsadlariga nisbatan bo'ysunuvchi xarakterni namoyon etadi, faqat ushbu maqsadlarga erishish vositasi sifatida kirishadi. Investitsion faoliyat hajmi alohida davrlar bo'yicha

²⁸ Николаева И.П. Инвестиции. Учебник. – М.:Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2013. - 256 с.

taqsimlanmagan, bu alohida ishlarni kapital sig'imining har xilligi bilan belgilanadi. Investitsiyalarning qoplash muddati va ulardan samara olinishi ma'lum bir vaqt oralig'iga bog'liq bo'ladi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar fikricha, investitsion faoliyat – bu yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samaraga erishish uchun investitsiya jarayonini amalga oshirish maqsadida mablag'larni jalb qilish va ko'paytirishga qaratilgan faoliyatidir²⁹.

Investitsion faoliyat korxonalarda pul oqimining mustaqil turini shakllantiradi, bu **investitsiya oqimi** deb ataladi. Har qanday oqim singari, investitsiya oqimi ham kirim va chiqim bilan tavsiflanadi. Investitsiyalar oqimining chiqib ketishiga asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotib olishga investitsiya kiritish hamda aylanma mablag'larning o'sishi kiradi. Kirimga esa, asosiy vosita elementlari va nomoddiy aktivlarni sotishdan tushgan tushumlar kiradi.

Investitsion faoliyat – bu foyda olish va boshqa foydali samaraga erishish uchun investitsiyani jalb qilish va amaliy harakatlarni amalga oshirishdir³⁰. Investitsion faoliyat jarayonida obyektlar zarur investitsiya manbalarini topadilar, samarali investitsiyalash vositalarini tanlaydilar, muvozanatli investitsiya dasturi va investitsiya portfellarini shakllantiradilar hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida investitsion faoliyatga quyidagicha tarif berilgan: investitsiya faoliyati – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui. Mazkur ta'rif investitsion faoliyatga berilgan lo'nda ta'rifdir.

Umuman olganda, investitsion faoliyat – bu jamg'armalar, resurslar, qo'yilmalarning shunday bir yaxlit harakat jarayoni bo'lib, kelajakda ma'lum bir iqtisodiy-ijtimoiy ijobiy natijalarga erishish ko'zda tutiladi.

Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan qonunning 7-moddasida investitsiya resurslari jumlasiga quyidagilar kiradi:

²⁹ Михайлова Э.А., Орлова Л.Н. Экономическая оценка инвестиций. Учебное пособие. – Рыбинск: РГАТА, 2008. – 176 с.

³⁰ Подшиваленко Г.П., Лахметкина Н.И., Макарова М.В. Инвестиции. –М.: КНОРУС, 2006. –с.21.

– pul mablag‘lari (shu jumladan chet el valutasini) va boshqa moliyaviy mablag‘lar, shu jumladan kreditlar, paylar, ulushlar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar;

– ko‘char va ko‘chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalari, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklar) hamda ularga bo‘lgan huquqlar;

– intellektual mulk obyektlari, shu jumladan u yoki bu turdagi ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlar;

– yer uchastkalariga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish huquqi, shuningdek, mulk huquqlaridan kelib chiquvchi boshqa ashyoviy huquqlar.

Investitsion faoliyatni tartibli yaxlit bir tizim sifatida tahlil qilish nuqtayi nazaridan unga taalluqli bo‘lgan quyidagi elementlarni: **subyektlari, obyektlari va boshqa iqtisodiy munosabatlarini** ko‘rib chiqamiz.

Investitsiya faoliyati **subyekti** deb investorlar (pul qo‘yuvchilar, xaridorlar, buyurtmachilar, kreditorlar va boshqalar) va investitsiya obyektlaridan foydalanuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar, davlat, mahalliy hokimiyat idoralari, xorijiy mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqalar), investitsiya faoliyatining obyektlaridan foydalanadiganlar hisoblanadilar.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra quyidagilar investitsion faoliyatning subyektlari (investorlar va ishtirokchilar) bo‘lishlari mumkin: O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, yakka tartibdagi tadbirkorlari va yuridik shaxslari – rezidentlari, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, chet davlatlar, chet davlatlarning ma‘muriy yoki hududiy organlari, xalqaro tashkilotlar hamda chet ellik yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Investorlar qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachi (mablag‘ kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo‘lishlari, shuningdek, investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi bo‘lishlari mumkin.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchilari investor bilan tuzilgan shartnoma asosida investorning buyurtmasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda investitsion faoliyat subyektlarini shartli ravishda quyidagicha umumlashgan tasnifga keltirish mumkin:

Investitsion faoliyatni amalga oshiruvchi tomonlar nuqtayi nazaridan subyektlar:

- 1) investor;
 - 2) buyurtmachi;
 - 3) pudratchi;
 - 4) investitsion faoliyat obyektlaridan foydalanuvchi va boshqalar.
- Investitsiyalash maqsadi nuqtayi nazaridan:
 - 1) strategik investorlar;
 - 2) moliyaviy investorlar.
 - Tashkil etish shakli nuqtayi nazaridan:
 - 1) jismoniy shaxslar;
 - 2) yuridik shaxslar.
 - Rezidentlik nuqtayi nazaridan:
 - 1) O'zbekiston Respublikasi subyektlari;
 - 2) xorijiy subyektlar.

Investitsiya faoliyatining asosiy subyekti sifatida "**investor**" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirish lozim.

Ko'pincha investor sarmoya kirituvchi sifatida, investitsiyalash-tirish esa qaysidir obyektga pul kiritish tushuniladi. Zamonaviy sharoitda ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyati kengaydi. Chunki, mablag'ni nafaqat investor, balki homiy va xayriyachi ham kiritishi mumkin, ammo ular investor hisoblanmaydi. Investitsiya kiritgan sarmoyador har doim aniq iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydi – foyda olish yoki ishlab chiqarishni nazorat qilish va keyinchalik o'z kapitalini ko'paytirish. Demak, faqat iqtisodiy maqsadlar va manfaatlar uchun ishlab chiqarishni rivojlantirishga mablag' kiritadigan subyekt investor deb hisoblanishi mumkin.

Investor iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun bir qator ishlarni amalga oshirishi kerak, jumladan: sarmoyaning maqsadlari va obyektini aniqlash, kerakli summani topish, ma'lum ishlab chiqarish elementlarini rivojlantirish uchun mavjud mablag'larni sarflash (ya'ni

pulni ishlab chiqarish omillariga aylantirish) va shundan keyingina o‘z maqsadiga erishishga imkon beradigan natija olish. Investitsiyalar ta’siri ostida o‘zgartirilgan iqtisodiy obyekt investor yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladi. Shu sababli, investitsiya faoliyatida ko‘plab turli xil subyektlar ishtirok etishadi.

Investorlar orasida individual va institutsional investorlar alohida ajralib turadi. **Individual investor** – bu asosiy faoliyatni rivojlantirish yoki ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun investitsiyalarni amalga oshiradigan jismoniy yoki yuridik shaxs. **Institutsional investor** – bu alohida subyektlarning mablag‘larini jamlaydigan va o‘z nomidan investitsion faoliyatni amalga oshiradigan moliyaviy vositachidir. Bular investitsiya kompaniyalari yoki turli xil fondlar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, investorlar **konservativ** va **agressiv** turlarga ham bo‘linishi mumkin. **Konservativ** investorlar sarmoyalarini jalb qilishda yuqori xavfli holatlardan qochadilar va o‘z mablag‘larining xavfsizligini ta’minlashga intiladilar, **agressiv** investorlar esa, aksincha, yuqori daromad keltiradigan va kapitalning tez o‘shishini ta’minlaydigan yuqori xavfli loyihalarni tanlaydilar.

Shuningdek investorlarni strategik va murakkab turlarga ham bo‘lish mumkin. **Strategik investor**larning moliyaviy manfaatlariga investitsiyalashning chegaralanmagan muddatida keng ko‘lamli shartnomalar kiradi. Ular kelajakda nazorat paketini sotib olish orqali o‘zlari yoqtirgan kompaniyani qo‘lga kiritish maqsadida qimmatli qog‘ozlar portfellarini shakllantiradilar. **Murakkab investorlar** – bu eng yuqori tavakkalchiliklarni o‘z zimmasiga oladigan yuqori malakali mutaxassislardir. Ular faoliyat sohasini doimiy diversifikatsiya qilish bilan ajralib turadilar.

Investitsiya faoliyatining obyekti bo‘lib, ishlab chiqilgan investitsiya loyihasini amalga oshirish hisoblanadi.

Har qanday investitsion faoliyat asosiy subyektlar – investorlar va foydalanuvchilarning mavjudligini, shuningdek investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Bo‘sh mablag‘larga ega bo‘lgan va mavjud obyektga mablag‘ kiritishni istagan har qanday shaxs investor bo‘lishi mumkin. Bular sarmoyadorlar, mahsulot xaridorlari, mijozlar, qarz beruvchilar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Asosan, ular investitsiyalash jarayonida

zarur bo‘lgan tadbirkorlik faoliyatiga bevosita aralashmaydilar, balki mijozlar orqali o‘z manfaatlarini ifoda etadilar.

Investorlar investitsiyalash obyektlarini tanlaydilar, ular investitsiyalarning yo‘nalishlari va hajmini aniqlaydilar hamda ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qiladilar. Ularning investitsion faoliyatning boshqa ishtirokchilaridan farqi shundaki, ular kelgusi davrda daromad olish uchun bugungi kunda mavjud resurslarni tezkorlik bilan iste‘mol qilishni xohlamaydilar. Investorlar investitsion faoliyatning boshqa ishtirokchilarining har qanday funksiyalarini birlashtirishlari mumkin.

Buyurtmachi – investorlar tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun vakolat berilgan jismoniy yoki yuridik shaxs. U to‘g‘ridan to‘g‘ri investor yoki uning ishonchli vakili bo‘lishi mumkin. Ikkinchi holda, vakolati davrida buyurtmachiga investitsiyalarga egalik qilish, foydalanish va joylashtirish huquqini beradi. Buyurtmachilar loyihani amalga oshirish bo‘yicha zarur ishlarni bajaradigan **puqratchilar** bilan shartnoma tuzadilar. Bunda puqratchi sifatida ish olib boruvchi tashkilotning muayyan ish turlariga litsenziyasi bo‘lishi shart.

Investitsiya faoliyati obyektlaridan **foydalanuvchi** sifatida har qanday jismoniy va yuridik shaxslar, davlat va nodavlat tashkilotlari, xorijiy davlatlar, xalqaro birlashmalar va tashkilotlar foydalanishlari mumkin. Investitsion loyihalarni amalga oshirish investitsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi barcha subyektlarning iqtisodiy manfaatlariga mos kelgandagina mumkin bo‘ladi, ularning har biri ushbu obyektga investitsiyalarni tezroq amalga oshirishdan manfaatdor bo‘lishlari kerak.

Obyekt sifatida korxonalarining investitsion faoliyati quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

– operatsion daromadlarni ko‘paytirish va o‘ziga xos boshqa operatsion xarajatlarni kamaytirish hisobiga korxonaning operatsion faoliyatini o‘shirishni ta‘minlaydi;

– investitsion faoliyatning shakllari va usullari operatsion faoliyatga qaraganda korxonaning tarmoq xususiyatlariga kamroq darajada bog‘liq;

– korxonalar investitsion faoliyatining ko‘lami moliyaviy resurslarni to‘plash va qulay tashqi iqtisodiy sharoitlardan foydalanish

zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan alohida davrlar bo‘yicha notekislik bilan tavsiflanadi;

– investitsiya foydasi va samaraning boshqa shakllari sezilarli kechikish bilan shakllanadi, chunki ma’lum vaqt davomida investitsiya resurslari xarajatlari va samarani olish o‘rtasida ma’lum bir vaqt ketadi;

– investitsion faoliyat jarayonida mustaqil pul oqimlari shakllantiriladi;

– investitsion faoliyatning o‘ziga xosligi investitsion risklar deb ataladigan xavflarning alohida turlari bilan tavsiflanadi, ularning darajasi operatsion risklar darajasidan yuqori bo‘ladi.

Ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarining obyektlari **investitsiya faoliyati obyektlaridir**³¹.

Ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

– mulkchilikning barcha shakllaridagi yangidan barpo etiladigan asosiy kapital;

– iqtisodiyotning hamma sohalaridagi muomala vositalari;

– korxonalar va tashkilotlarning qayta quriladigan va modernizatsiya qilinadigan asosiy kapitallari;

– ilmiy-texnika mahsulotlari, investitsiya loyihalari;

– yer uchastkalari.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, investitsiyalarning o‘zlari ham tom ma’noda investitsion faoliyat obyektining yorqin ko‘rinishidir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra barpo etilishi va foydalanilishi qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlik talablariga va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya qilish taqiqlanadi.

Investitsiya faoliyatining iqtisodiy mazmunini subyektlarning o‘zaro hamkorligi va iqtisodiyotning barcha sohalarida investitsiyalarni turli shakllarda amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar va aloqalar yig‘indisi tashkil etadi. Demak aytish

³¹ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 25 декабрда қабул қилинган «Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида»ги ЎРҚ-598-сонли қонуни.

mumkinki, investitsiya faoliyati va uni amalga oshirayotgan o‘zaro bog‘liq obyektlar va subyektlarning (investorlar va foydalanuvchilar) munosabatlari yig‘indisidan iborat.

Investitsiya faoliyatini jadal amalga oshirishning muhim shartlaridan biri uni qaysi mablag‘lar hisobidan amalga oshirishga bog‘liq. Bozor munosabatlariga o‘tishning dastlabki yillarida investitsiyalar faqat davlat mablag‘lari yoki davlat kapital qo‘yilmalarini o‘zlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. Investitsiya faoliyatining asosiy manbalari bo‘lib korxonalar va tashkilotlarni o‘z mablag‘lari va davlat budjeti daromadlari hisoblanadi.

Umuman aytganda, tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarni barcha investorlar tomonidan amaliy ravishda yo‘lga qo‘yish, mablag‘lar sarf etish va ularni hayotga tatbiq etish chora va tadbirlarining yig‘indisi investitsion faoliyatni anglatadi.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi – investitsiyalarning amalga oshirilishini buyurtmalarni bajaruvchi sifatida yoki investorning topshirig‘i asosida ta‘minlaydigan investitsiya faoliyati subyektidir.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisi:

– birja, tanlov va tender savdolarining, elektron do‘konlarning va kim oshdi savdolarining ishtirokchisi bo‘lishga;

– investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish yuzasidan shartnomalar tuzishga;

– agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, o‘zining investor oldidagi majburiyatlarini bajarishga boshqa shaxslarni jalb qilishga haqli.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisi:

– qonun hujjatlarida belgilangan normalar, qoidalar va standartlarga, shu jumladan raqobat to‘g‘risidagi, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi, investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi, mehnat to‘g‘risidagi, shaharsozlik to‘g‘risidagi va atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi;

– shartnoma shartlarini o‘z vaqtida va lozim darajada bajarishi;

– shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli investorga yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplashi;

– davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining o‘z vakolatlari doirasida qo‘yiladigan talablarini bajarishi shart.

2.2. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va shakllari

So‘nggi yillarda yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida tubdan tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, bunday o‘zgarishlar investitsiyalar va investitsiya faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarda ham kuzatilmoqda. Xususan, chet ellik hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2019-yil 25-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi³². Qonun doirasida makro darajada investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning umumiy manbalari sifatida *investitsiya resurslari* va *markazlashtirilmagan investitsiyalarning manbalari* keltirilgan. Jumladan, *investitsiya resurslari* jumlasiga quyidagilar kiritilgan:

- pul mablag‘lari (shu jumladan chet el valutasini) va boshqa moliyaviy mablag‘lar, shu jumladan kreditlar, paylar, ulushlar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar;
- ko‘char va ko‘chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklar) hamda ularga bo‘lgan huquqlar;
- intellektual mulk obyektlari, shu jumladan u yoki bu turdagi ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlar;
- yer uchastkalariga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish huquqi, shuningdek, mulk huquqlaridan kelib chiquvchi boshqa ashyoviy huquqlar.

Markazlashtirilmagan investitsiyalarning manbalari quyidagilardan iborat:

³² Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 25 декабрдаги “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-598-сонли Қонуни.

- investorning shaxsiy mablag‘lari;
- O‘zbekiston Respublikasining kafolatisiz olingan, shu jumladan chet el banklaridan olingan bank kreditlari;
- to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalari.

Mikro darajada investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish mamlakat iqtisodiyoti, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini inobatga olgan holda ularning investitsion salohiyatni shakllantirish manbalari tarkibini optimallashtirish va ulardan maqsadli foydalanishni tahlil qilishni nazarda tutadi.

Bozor munosabatlari va muhitining doimiy o‘zgarib turishi sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatining moliyalashtirish manbalari tarkibi samaradorligi va sifatini monitoring qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiya jarayonlari moliyalashtirish tizimi investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va usullari uyg‘unligida shakllanadi. Bozor munosabatlari sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarning mavjudligi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faoliyatidagi asosiy muammolardan hisoblanadi.

Har qanday investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish sharoitida bir tomondan loyihalarni amalga oshirish vaqtida investitsiyalar barqarorligini ta‘minlash bo‘lsa, boshqa tomondan soliq va boshqa imtiyozlari, shuningdek, moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanish hisobiga xarajatlar va xatarlarni pasaytirishni ta‘minlash lozim. Xususan bunday sharoitda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha imtiyoz hamda preferensiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyektlarga quyidagi imtiyoz va preferensiyalar taqdim etiladi:

- davlat mulki bo‘lgan obyektlarni yoki ularga bo‘lgan mulkiy huquqlarni imtiyozli yoki nolga teng xarid qiymati bo‘yicha investorga berish;
- soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berish;
- investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun investor tomonidan olinadigan kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini subsidiyalash.

Xususan, imtiyozlar va preferensiyalar quyidagilarga qarab beriladi:

- investitsiyalar hajmiga;
- investitsiya loyihasi amalga oshiriladigan joyning shart-sharoitlariga;
- kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samaraga va yangi ish o‘rinlarini yaratishga;
- investitsiya loyihasini amalga oshirish sohalari va tarmoqlariga.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatini moliyalashtirish zarur miqdordagi mablag‘lar manbalarini aniqlash va jamg‘arishdan boshlanadi. Jumladan, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari turli xil bo‘lishi mumkin, masalan:

a) **xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z moliyaviy mablag‘lari**, ya’ni foyda, amortizatsiya ajratmalari, tabiiy ofat (yong‘in, suv toshqini va boshqalar) oqibatlarini natijasidagi yo‘qotishlarni qoplab berish ko‘rinishidagi sug‘urta tashkilotlariga to‘lanadigan mablag‘lar, boshqa aktiv turlari (asosiy vositalar, yer uchastkalari va boshqalar) va jalb qilingan mablag‘lar, masalan, aksiyalarni sotishdan olingan mablag‘lar, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yuqori organi hisoblangan xolding va aksiyadorlik kompaniyalar, sanoat-moliya guruhlarining beg‘araz mablag‘lar va boshqa badallar;

b) **beg‘araz va imtiyozli tartibda budjet hisobidan ajratiladigan maqsadli mablag‘lar** (respublika, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlari va boshqalar), davlat maqsadli jamg‘armalari, budjetdan tashqari jamg‘armalar, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi;


d) **chet el investitsiyalari** – qo‘shma korxonalar ustav kapitalini shakllantirishda moliyaviy va boshqa shakllarda ishtirok etuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘lari, shuningdek, amaldagi qonunchilikka zid bo‘lmagan moliyaviy muassasalar va xalqaro tashkilotlarning turli xil mulkchilik shakli va jismoniy shaxslarning to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy mablag‘lari;

e) **qarz mablag‘lari** – davlat va tijorat banklari, xorijiy investorlar (masalan, Jahon banki, Yevropa taraqqiyot va rivojlanish banki, xalqaro jamg‘armalar, agentliklar va yirik sug‘urta kompaniyalari)

tomonidan qaytarish sharti bilan taqdim etiladigan kreditlar, veksellar va boshqalar.

f) **noan'anaviy moliyalashtirish**, ya'ni sindikatli kreditlash, venchurli moliyalashtirish, seleng va boshqa usullari.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari bo'yicha tarkibi tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, moliyalashtirish manbalari bo'yicha beqaror tebranish dinamikasiga ega bo'lmoqda (11.1-rasm).



2.1-rasm. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari bo'yicha tarkibiy dinamikasi (%)

Xususan, so'nggi yillarda budget mablag'lari (2000-yil – 29,2%dan 2019-yilda – 6,5%gacha) va xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z mablag'lari (2006-yil – 60,3%dan 2020 yilda – 25,7%gacha) hisobidan moliyalashtirish ulushi keskin kamaygan va aksincha chet el investitsiyalari va kreditlari hisobidan moliyalashtirish (2013-yilda – 18,1% dan 2020-yilda – 42,9%gacha) barqaror o'sish tendensiyasiga ega.

Shu o'rinda, bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faolligini oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslar salohiyati mavjud. Birinchidan, jamg'arish manbasi sifatida *amortizatsiya ajratmalarini iqtisodiy ahamiyatini tiklash*, ikkinchidan, *aholining moliyaviy jamg'armalarini xo'jalik yurituvchi subyektlarni uzoq muddatli investitsiyalash maqsadida oqilona jalb qilish*.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatini

moliyalashtirish manbalarining tashkiliy tarkibi 2.1-jadvalda keltirilgan.

2.1-jadval

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining tashkiliy tarkibi

Moliyalashtirish manbalarining tashkiliy shakllari	Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari			
	xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z va jalb qilingan mablag‘lari	Budjet va budjetdan tashqari davlat mablag‘lari	Xorijiy investitsiyalar	Qarz mablag‘lari
Aksiyadorlik jamiyatlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish				
Ustav kapitalini shakllantirish	+	+	+	-
Korporativ moliyalashtirish	+	+	+	+
Budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish				
Qaytarish sharti bilan beriladigan budjet kreditlari	-	+	-	-
Budjet hisobidan ajratiladigan beg‘araz mablag‘lar	-	+	-	-
Maqsadli davlat investitsiya dasturlari	-	+	-	-
Davlat ishtirokida moliyalashtiriladigan loyihalar	-	+	+	+
Loyihalarni moliyalashtirish	-	+	+	+
Qarz mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish				
Lizing	-	-	+	+
Bank qarzlari va kreditlari	-	+	+	+
Xorijiy kerditlar	-	-	+	+
Kollektiv investorlar investitsiyalari	-	-	+	+

Izoh: (+) – ko‘rsatilgan manbaning ushbu tashkiliy shaklda

foydalanilganini bildiradi; (-) – ko‘rsatilgan manbaning ushbu tashkiliy shaklda qo‘llab bo‘lmasligini bildiradi.

Shu o‘rinda, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning eng ko‘p tarqalgan va zamonaviy shakllariga to‘xtalib o‘tamiz.

Budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish. Budjet hisobidan moliyalashtirish manbalari odatda respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlaridan shakllanadi.

Davlat investitsiya larini oluvchilar davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat tashkilotlari va yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin. Moliyalashtirish qarorlar qabul qilish darajasidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Respublika darajasida davlat mulki hisoblangan obyektlar va davlat dasturlari, hududlar darajasida esa muayyan hudud mulki hisoblangan obyektlar, hududiy loyihalar va dasturlar moliyalashtiriladi.

Budjet hisobidan moliyalashtirish bir qator tamoyillarga amal qilgan holda amalga oshiriladi³³. Xususan:

- *minimal xarajatlar bilan maksimal iqtisodiy va ijtimoiy samara olish.* Ya’ni budjet mablag‘lari faqat eng yuqori natijani ta’minlaydigan loyihalar uchun ajratilishi lozim;

- *budjet mablag‘lari ishlatilishining maqsadli xususiyati.* Bu shuni anglatadiki, muayyan obyektни moliyalashtirish tegishli yil uchun budjet tasdiqlangandan keyin amalga oshiriladi va shu asosda oldin belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha mablag‘lar sarflanishi nazorat qilinadi.

Loyihalarni moliyalashtirish shakli O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish amaliyotida yaqindan boshlab qo‘llanilmoqda. Vaholanki, rivojlangan davlatlarda ushbu moliyalashtirish shaklidan uzoq yillardan buyon foydalanib kelinmoqda.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning ushbu shaklini qarz majburiyatlariga xizmat qiluvchi loyihalarni moliyalashtirish manbayi sifatida tavsiflash mumkin. Bunda moliyalashtiruvchi subyektlar amalga oshirilayotgan loyiha uchun investorlar tomonidan kiritilayotgan ssudalar, zaymlar yoki boshqa turdagi mablag‘larni qoplashni ta’minlay olishi nuqtayi nazaridan investitsiya obyektini

³³ Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирования инвестиций: учеб.пособие. – М.: Финансы и статистика, 2001. -стр.77.

baholaydi.

Loyihalarni moliyalashtirish davlat subsidiyalari yoki korporativ manbalarning moliyaviy qo'yilmalariga bevosita bog'liq emas.

O'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish. Bu moliyalashtirish shakli mahsulot ishlab chiqarish, texnik va ishlab chiqarish bazasini kengaytirish bo'yicha xarajatlarni to'liq qoplashga asoslanadi, ya'ni har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining joriy va kapital xarajatlarini o'z mablag'lari manbalari hisobidan qoplaydi.

Har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirishga intilishi lozim, shundagina moliyaviy muammolar vujudga kelmaydi va bankrotlik xatari kamayadi. Bundan tashqari, o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatining yaxshiligi va muayyan raqobat afzalliklari mavjudligini anglatadi.

Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'larining asosiy manbasi *toza foyda va amortizatsiya ajratmalari* hisoblanadi. O'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tamoyilini yuqori xarajatlar bilan mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi past rentabelli xo'jalik yurituvchi subyektlarda obyektiv sabablar tufayli hali ta'minlab bo'lmaydi. Bunga uy-joy kommunal xo'jaligi, yo'lovchi transport, qishloq xo'jaligi va boshqa davlat budjetidan moliyalashtiriladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarni kiritish mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirish kapital bozorlarga aksiyalarni chiqarish orqali moliyaviy mablag'lar shakllanishini nazarda tutadi.

Aksiya – bu qimmatli qog'oz bo'lib, o'z egasining aksiyadorlik jamiyati kapitalida hissasi borligi va shunga muvofiq topilgan foydaning bir qismini dividend shaklida olishini, shuningdek, aksiyadorlik jamiyati va uni tugatilishidan keyin qolgan mulkning bir qismini boshqarish huquqini tasdiqlaydi.

Dividendlar aksiyadorlarga aksiyadorlik jamiyati faoliyatining yil yakuni bo'yicha to'lanadi. Dividendlar pul mablag'lari, ayrim holatlarda jamiyat ustavida nazarda tutilgan boshqa mulklar ko'rinishida, jamiyatning sof foydasidan to'lanadi.

Qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirish asosan moliyaviy bozorlardan jalb qilingan mablag'lar, ya'ni bank kreditlari, yuridik va jismoniy shaxslarning qarz mablag'laridan amalga oshiriladi.

Kreditlash – bu xo‘jalik yurituvchi subyektning qaytariladigan moliyalashtirish shakli va banklarning an’anaviy xizmat turi hisoblanadi. Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida kreditlashga bo‘lgan yondashuvlar sezilarli o‘zgaradi. Bugungi kunda xo‘jalik yurituvchi subyekt hisob raqami ochilgan bank bilan bir qatorda har qanday bankda va hohlagan investitsiya talabiga qarab kredit olishlari mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning kreditlash kredit shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladi. Jumladan, kreditning qaytarishlik, muddatlilik, to‘langanlik, ta‘minlanganlik va maqsadli xususiyati kabi tamoyillari asosida kreditlash amalga oshiriladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektning investitsiyaga bo‘lgan talabidan kelib chiqib qisqa va uzoq muddatli kreditlarga ajratilishi mumkin.

Qisqa muddatli bank kreditlari xo‘jalik yurituvchi subyektning aylanma mablag‘larini shakllantirish manbayidan biri hisoblanadi. U xo‘jalik yurituvchi subyektning joriy faoliyati bilan bog‘liq investitsiyalarga bo‘lgan talabini qondirish imkonini beradi.

Jumladan, kapital xarajatlar uchun kreditni bir yildan ortiq muddatga olish mumkin. Bu holatda ushbu kredit xo‘jalik yurituvchi subyekt rivojlanishiga yo‘naltirilgan qarz mablag‘lari sifatida gavdalanadi.

Uzoq muddatli bank kreditlari obyekt sifatida xo‘jalik yurituvchi subyektning quyidagi:

- ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan obyektlarni qurish, kengaytirish va rekonstruksiya qilish;
- ko‘chirib bo‘ladigan va kuchmas mulkni sotib olish;
- yangi korxonani tashkil etish;
- ilmiy-texnik va innovatsion mahsulotlar, intellektual mulk va boshqa mulk obyektlarini tashkil etish xarajatlarini kiritish mumkin.

Moliyalashtirishning har bir shaklining o‘ziga xos afzal va nuqsonlari bo‘lib, ularni faqat moliyalashtirishning muqobil variantlari bilan solishtirish asosida to‘g‘ri baholash mumkin.

Shu o‘rinda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning o‘ziga xos zamonaviy manbalari va shakllariga to‘xtalib o‘tsak. Xususan, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida anchadan buyon keng foydalanilayotgan va O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi va samarali bo‘lgan moliyalashtirishning quyidagi shakllari lizing, ipoteka

kreditlash va venchur mablag‘lari hisoblandi.

Ularning vujudga kelishini ilmiy-texnik va innovatsion taraqqiyot sharoitida investitsiyalarga bo‘lgan talab va ularni an’anaviy moliyalashtirish manbalari bilan to‘liq qanoatlantirib bo‘lmasligi bilan bog‘lash mumkin.

Lizing o‘tgan asrning 50 yillarida AQSHda va Yevropa davlatlarida esa 60-yillarda yuzaga kelgan. Bugungi kunda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning lizing shartlari jahonning ko‘pgina mamlakatlarida keng tarqalgan. Xususan, bugungi kunda Yaponiyada lizing shartlari asosida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish ulushi 25% gacha, Yevropa kapital bozorida esa 15% ni tashkil etmoqda.

Lizing O‘zbekiston iqtisodiyotiga mustaqillik yillari boshida kirib kelgan bo‘lib, bugungi kunda banklarning asosiy bank xizmatlari va alohida lizing kompaniyalari sifatida jadal rivojlanib bormoqda. Jumladan, lizing tartibi va operatsiyalari qonuniy-me’yoriy xujjatlarda o‘z aksini topdi. Jumladan, 1999-yil 14-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Qonunda lizingni amalga oshirish paytida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi tartib qoidalar berilgan.

Lizing – bu moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanishdir.

Lizing obyektlari. Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste’mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk lizing obyektlari bo‘lishi mumkin. Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar, shuningdek, muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo‘lishi cheklangan boshqa mol-mulk lizing obyektlari bo‘lishi mumkin emas.

Lizing beruvchi. Lizing shartnomasi bo‘yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing obyektini mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi subyekti.

Lizing oluvchi. Egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo‘yicha lizing obyektini olayotgan shaxs.

Lizing to'lovlari. Lizing to'lovlari lizing beruvchiga lizing obyekti qiymatining lizing oluvchi tomonidan qoplanishidan, shuningdek, lizing beruvchining foizli daromadidan iborat bo'ladi. Lizing to'lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo'lib-bo'lib to'lanadi. Lizing to'lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi.

Rivojlangan davlatlarda lizing operatsiyalarini amalga oshirish amaliyotida lizingning quyidagi turlari keng tarqalgan:

- operativ lizing;
- moliyaviy lizing;
- qaytariladigan lizing;
- ulushli lizing;
- to'g'ridan to'g'ri lizing;
- sublizing.

Yuqorida keltirilgan lizing turlarining asosida operativ va moliyaviy lizing shakllari yotadi.

Operativ lizing – bu joriy ijara shartnomasidir. Odatda, bunday shartnomalar muddati ijaraga olingan aktivlar amortizatsiyasining to'liq davridan kam bo'ladi. Operativ lizingning asosiy ajralib turadigan jihati – lizing oluvchi shartnomani muddatidan oldin to'xtatish huquqiga ega.

Operativ lizing obyektiga tez eskiradigan asbob-uskunalar va doimiy servis xizmatlarini talab etuvchi texnika va texnologiyalar kiradi. Jumladan, operativ lizing ijarachilar uchun foydali hisoblanadi.

Operativ lizing kamchiliklari – boshqa lizing shakllariga nisbatan ijara haqining yuqoriligi, bo'nak va oldindan to'lov bo'yicha shartlar qattiqligi va boshqa jihatlaridir.

Moliyaviy lizing – ijarachi tomonidan to'lov hisobiga ijaraga olingan jihozning to'liq amortizatsiyasini nazarda tutuvchi uzoq muddatli shartnomadir. Modomiki, bunday shartnomada lizing oluvchi shartnomani muddatidan oldin to'xtatish huquqiga ega emas. Lizingning bunday shaklida mulkni o'rnatish va joriy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar odatda ijarachiga yuklanadi. Ko'p hollarda bunday shartnomalar muddati tugashi bilan mulkni qoldiq qiymatda yoki imtiyozli shartlarda sotib olish huquqi ijarachilarga beriladi.

Moliyaviy lizing obyektiga ko'chmas mulk (yer, bino va

inshootlar), shuningdek, uzoq muddatli ishlab chiqarish vositalarini kiritish mumkin.

Moliyaviy lizing boshqa ikki turdagi – qaytariladigan va ulushli lizing shakllanishiga asos bo‘ladi.

Qaytariladigan lizing sotuvchi asbob-uskunalarini boshqa tomon uchun sotish bilan bir vaqtda uni sotib oluvchidan uzoq muddatli ijaraga olish bo‘yicha ikki tomonlama shartnomani o‘zida aks ettiradi. Bu yerda sotib oluvchi sifatida tijorat banklari, investitsiya, sug‘urta yoki lizing kompaniyalari bo‘lishi mumkin.

Ulushli lizing – bitimda uchinchi tomonning ishtirokni nazarda tutib, bunda investor odatda tijorat banklari, investitsiya, sug‘urta yoki lizing kompaniyalari bo‘lishi mumkin. Bunday holatda lizing kompaniyasi qandaydir asbob-uskunalarini uzoq muddatli ijaraga olish bo‘yicha dastlabki shartnoma tuzib, qarz mablag‘lari hisobiga asbob-uskunalar qiymatini bir qismini to‘lagan holda egalik qiladi.

Ulushli lizing obyektiga foydali qazilma boyliklar koni, qazib olish tarmog‘i uchun asbob-uskunalar va boshqa qimmatbaho aktivlarni kiritish mumkin.

To‘g‘ridan to‘g‘ri lizingda ijarachi talab etiladigan asbob-uskunalarini sotib olish va kelgusida uni ijaraga berish bo‘yicha lizing kompaniyalari bilan shartnoma tuzadi. Ko‘p hollarda ijara to‘g‘risidagi shartnoma bevosita ishlab chiqaruvchi-firma bilan tuziladi.

Sublizing – lizing predmetidan foydalanish huquqini uchinchi shaxs bilan bog‘liq murosaga kelishning o‘ziga xos munosabatlarni sublizing shartnomasi asosida rasmiylashtirilishidir. Sublizingda asosiy ijaraga beruvchi ijara to‘lovlarini olish huquqiga ega bo‘ladi. Odatda shartnomada agar uchinchi shaxs bankrot deb e‘lon qilinsa, u holda ijara haqqi asosiy ijara beruvchiga tushadi.

Xullas, lizing bozor munosabatlariga shiddat bilan kirib borayotgan yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining investitsiya faoliyatini moliyalashtirishga qodir tez moslashuvchan manba va vosita bo‘lishi lozim.

Venchur kapitali xususiy biznesga investitsiyaga kiritishning muqobil manbasi sifatida XX asrning 50-yillarida AQSHning Silikon vodiysida vujudga kelgan. Ushbu biznesning asoschilari Tom

Perkins³⁴, Yudjin Kleyner, Frank Kofild, Bruk Bayers va boshqalar hisoblanadi.

Aynan venchur kapitali g'arb mamlakatlarida innovatsion loyihalarni investitsiyalash jarayonidagi, ichki manbalar chegaralangan vaziyatda va boshqa tashqi manbalar qo'llash imkoniyati yo'qligida moliyalashtirishning eng samarali vositasi bo'lib xizmat qildi.

Venchurli moliyalashtirish atamaları inglizcha «venture» so'zidan olingan bo'lib «yuqori riskli yangi korxonalar, faoliyat turi» ma'nosini anglatadi. Venchurli korxonalar deb kichik 3–5ta yuqori malakali mutaxassislardan (olimlar, kashfiyotchilar va menejerlardan) iborat ilmiy-izlanish korxonasi tushuniladi.

Jumladan, venchur asosida moliyalashning mohiyati uning funksional yo'nalishi bilan belgilanib, ustav sarmoyasidagi ulash yoki aksiyalarning qandaydir paketi evaziga ma'lum miqdordagi pul mablag'larini berish yo'li bilan muayyan biznesga ko'maklashishdan iborat.

Venchur asosida moliyalash jarayonini quyidagicha tarzda ifodalash mumkin: venchur fondi (VF) investitsiyalash obyekti hisoblangan kompaniya aksiyadorlik sarmoyasining bir qismini xarid qiladi. Bunda yuridik shaxs – fondning boshqaruvchi kompaniyasi bir yoki bir necha sarmoyadorlarning moliyaviy mablag'laridan foydalanadi. Ushbu mablag'lardan foydalangan holda obyekt-kompaniya rivojlanib, bu bilan o'z qiymatini oshiradi. Bir muncha vaqt o'tgach boshqaruvchi kompaniya o'zi xarid qilgan aksiyalarni pul mablag'lariga ayirboshlashning teskari jarayonini amalga oshirib, ushbu investitsiya bitimidan o'z foydasini qayd etadi.

Jumladan, «Venchurli moliyalashtirish – bu moliyalashtirishning shunday turiki, bunda venchur kapitali egalari va kompaniya egalari yuqori riskli (xatarli) va yuqori daromadli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hamkorlik qiladilar. Bu holatda loyihaning xatari tashqi holat (boshqaruvning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi kabilar) bilan emas, balki yangi texnologiyaning rejalashtirilayotgan mahsulotni ishlab chiqara olish qobiliyati va bozorda bu mahsulotni tan olinishi bilan bog'liq bo'ladi»³⁵.

³⁴ Thomas Perkins. Mine's Bigger: The Extraordinary Tale of the World's Greatest Sailboat and the Silicon Valley Tycoon Who Built It. – by Newsweek's David A. Kaplan, 2007

³⁵ Uzoqov A., Nosirov E., Saidov R., Sultanov M. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006., 173 bet.

Venchurli moliyalashtirishning asosiy quyidagi ikki bosqichini ajratish mumkin:

- *dastlabki bosqichni moliyalashtirish* – ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish;

- *kechki bosqichni (later stage) moliyalashtirish* – ishlab chiqarish tashkil etilgan va uni kengaytirish salohiyati mavjud bo‘lgan holda venchur kapitalini kiritish.

Shuningdek, venchurli moliyalashtirishning quyidagi turlari mavjud:

- *qutqaruv moliyalashtirish* – bankrotlik ostonasida turgan korxonalarini moliyalashtirish, sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish;

- *o‘rindosh moliyalashtirish* – tashqi moliyalashtirish manbalarini bir qismini korxonaning ichki (aksiyadorlik) kapitali bilan almashtirmoq;

- *korxonani qimmatli qog‘ozlar bozoriga chiqishi* bilan bog‘liq operatsiyalarni moliyalashtirish va boshqalar.

Shu o‘rinda venchur fondlarini tashkil etish investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning eng zamonaviy va samarali manbalaridan hisoblanadi. Jumladan, *venchur fondi* – jamlangan pul mablag‘larini faqat yuqori xavfli venchur loyihalariga investitsiya qilish uchun mo‘ljallangan, boshqaruv kompaniyasi boshqaruvidagi investitsiya kompaniyasidir.

Venchur fondi faoliyatning quyidagi asosiy turlarini amalga oshiradi:

- yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini keyinchalik innovatsion faoliyatga investitsiya qo‘yishdan foyda ko‘rish maqsadida jamlash;

- yangidan tashkil etilgan va mavjud tashkilotlarning ustav fondida ulushli ishtirok etish yo‘li bilan, shuningdek, ushbu tashkilotlarga garov bilan ta‘minlanmagan qarzlarni berish yo‘li bilan innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni moliyalashtirish;

- bo‘sh turgan pul mablag‘larini ichki bozorda yuqori likvidli moliyaviy vositalarga joylashtirish;

- fond aksiyadori (ishtirokchisi) bo‘lgan tashkilotlarni boshqarishda ishtirok etish³⁶.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning yuqorida keltirilgan manbalari va shakllari iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish,

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-maydagi “Investitsiya va boshqaruv kompaniyalari faoliyati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 414-son qarori.

yangi ish o‘rinlarini yaratish va pirovardida aholi turmush darajasini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savollar

1. Investitsiya faoliyatiga ta’rif bering.
2. Kimlar investitsiya faoliyati subyekti hisoblanadi?
3. Qanday faoliyat investitsiya faoliyati obyektlari hisoblanadi va ularni qanday turlarga ajratish mumkin?
4. Investitsiya faoliyati ishtirokchisiga qanday talablar qo‘yiladi?
5. Markazlashtirilmagan investitsiyalarning manbalari nimalardan iborat?
6. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari turli haqida gapirib bering.
7. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining tashkiliy tarkibini tushuntirib bering.
8. Venchurli moliyalashtirish nima, uni qanday asosiy bosqichi va turlarini ajratish mumkin?
9. Lizing nima va rivojlangan davlatlarda lizing operatsiyalarini amalga oshirish amaliyotida lizingning qanday turlari keng tarqalgan?
10. O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari bo‘yicha tarkibini tahlil qilib bering.

3-BOB. INVESTITSIYA SIYOSATI VA MUHITI

3.1. Investitsiya siyosatining mohiyati, vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari

Davlat investitsiya siyosati umumiy iqtisodiy siyosatning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U kapital qo‘yilmalarni faollashtirish, ularning strukturasi optimallashtirish, samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan maqsadlar, vazifalar, yo‘nalishlar va chora-tadbirlar majmuini ifodalaydi.

Investitsiya siyosatining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi.

1. Nodavlat sektorining investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladigan qulay muhitni shakllantirish.

2. Yangi texnologiyalar asosida korxonalarining ma‘nan va jismonan eskirgan uskunalari modernizatsiyalash uchun xususiy mahalliy va chet el investitsiyalarini jalb qilish.

3. Kapital qo‘yilmalar samaradorligini oshirishda eng muhim ishlab chiqarishlar va ijtimoiy sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Davlatning investitsiya siyosati mamlakatdagi xususiy va davlat kapital qo‘yilmalari rivojlanishiga ulkan ta‘sir ko‘rsatadi. Aynan u mamlakatning investitsion muhitini shakllantiradi, shu sababli, hukumat investitsiya siyosatiga katta e‘tibor qaratadi.

Investitsiya siyosati investitsiya faoliyatining o‘rta va uzoq muddatli maqsadlari hamda ularga erishish yo‘llarini belgilab beradi. **Investitsiya siyosati** – investitsiya strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi, investitsion taktika.

Investitsiya siyosati qo‘yilgan maqsadlarga erishish hamda iqtisodiy siyosatning qisqa muddatli va uzoq istiqbol uchun belgilangan vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Investitsiya siyosatining ta‘sirchan vositalari nisbatan cheklanganligi sababli muayyan vaziyatlarda qaysi vositalar samarali, qaysilari samarasiz ekanligini bilish murakkab hisoblanadi.³⁷

Investitsiya siyosatini ishlab chiqish iqtisodiy faoliyatning barcha darajalarida amalga oshirilishi zarur. **Mikrodarajada** – investitsiya siyosati innovatsion faoliyatni amalga oshirayotgan korxonalar,

³⁷ Vaxabov A.V. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Moliya», 2010.

banklar, fondlar va uy xo‘jaliklari uchun ishlab chiqilishi lozim. **Mezodarajada** (hududlar va tarmoqlar) – iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni rivojlantirish, istiqbolli loyihalarni selektiv qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltirilgan maqsadli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. **Makrodarajada** – davlat investitsiya strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish cheklangan budjet mablag‘laridan samarali foydalanish, istiqbolli tarmoqlar va hududlarni qo‘llab-quvvatlash, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash chora- tadbirlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Davlatning tashqi investitsiya siyosati – bu tashqi investitsion oqimlarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari tizimidir. Ushbu siyosatning maqsadi investitsiya jarayonlariga maksimal darajada qulaylik yaratuvchi shart-sharoitlar tizimi shaklidagi qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat bo‘lib, uni amalga oshirish iqtisodiy salohiyat, ijtimoiy, tashkiliy-huquqiy va moliyaviy omillarga bog‘liqdir.

Strategik maqsadi – investitsiya jarayonlariga maksimal darajada qulaylik yaratuvchi shart-sharoitlar tizimi shaklidagi qulay investitsiya muhitini shakllantirish.

Asosiy taktik maqsadlar – milliy va xorijiy investorlar uchun bir xil imkoniyatlar hamda milliy va xorijiy kapital qo‘yilmalar uchun qulay jozibadorlik.

Asosiy omillari:

1. Iqtisodiy salohiyat – ishlab chiqarishni joylashtirishning resurs, tabiiy-iqlim va hududiy imkoniyatlari.

2. Bozor muhiti – raqobatning rivojlanganlik darajasi, bozor infratuzilmasi, investitsion faollik ichki bozor sig‘imkorligi, tovar eksporti va xorijiy kapitalning mavjudligi.

3. Ijtimoiy omillar – aholi turmush darajasi va ish haqi, aholining xorijiy investorlarga munosabati.

4. Tashkiliy – huquqiy omillar – hukumatning xorijiy investorlarga munosabati, qonunlarga rioya qilish, huquqni himoya qiluvchi organlarning samaradorligi, ishlab chiqarish omillari harakati uchun shart-sharoitlar.

5. Moliyaviy omillar – budjet daromadi va budjetdan tashqari fondlar mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik moliya resurslari va xorijiy

valutada kreditlar olish imkoniyati, bank foiz stavkasi, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi jamg'armalar miqdori.

Investitsiya siyosati – investitsiya faoliyatini jonlantirish, iqtisodiyotni yuksaltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida iqtisodiy subyektlar uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmuidir.

Investitsiya siyosati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasidagi aniq maqsadga qaratilgan faoliyatning eng muhim doimiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bunday siyosat davlatning butun siyosiy sohasining asosiy o'zagini tashkil etadi yoki boshqacha aytganda, bu butun davlat siyosiy faoliyatining negizidir. Mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining oshishi, iqtisodiy o'sish sur'atlari, moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish hajmi va sifatining oshishi, jamiki infratuzilmaning rivojlanishi ko'p jihatdan investitsiyalarga va investitsiya siyosatiga bog'liq bo'ladi. Investitsiya siyosati davlatning jamiyatda moddiy ne'matlarni takror ishlab chiqarishni tashkil etishga investitsiya vositalarini safarbar qilishga doir funksiyasidir. Davlat siyosatining ushbu sohasi tashkiliy-huquqiy jihatdan olganda, uning tegishli organlarining bunday siyosatning maqsadlari va vazifalarini belgilash, uni amalga oshirish uchun mablag'larni qidirib topish borasidagi faoliyatidan iborat bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishda oqilona investitsiya siyosatini ishlab chiqish yetakchi o'rin tutadi. Investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratishga xizmat qiladigan qator institutlarni tashkil etish lozim. Jahon iqtisodiyotida samarali amal qiluvchi model bozor tizimiga tayanadi va milliy iqtisodiyotning afzalliklaridan to'liq foydalanadi. O'zbekistonda investorlar uchun ko'p jihatdan beqiyos, o'ta qulay investitsion muhit, imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgan, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Bunda

ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan.

Jahon iqtisodiyoti amaliyotida investitsiya siyosatining uchta modelini ajratish mumkin.

Birinchi modelni shartli ravishda «amerika», ikkinchisini «yapon» va uchinchisini «tayvan» modeli deb atash mumkin. Keltirilayotgan tasnif bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasini tizimlashtirishga urinishdir. Muhimi, bu modellarning barchasi samarali bo'lib, ushbu ilg'or tajribadan o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida munosib investitsiya siyosati strategiyasini ishlab chiqish uchun chuqur o'rganish zarur.

Birinchi modelda asosiy e'tibor xususiy investorlar uchun belgilanadigan soliq imtiyozlariga qaratiladi. Ikkinchi modelda xususiy loyihalarning davlat tomonidan moliyalashtirilishi markaziy o'rinni egallaydi. Uchinchi model esa davlat muvofiqlashtirish kamchiliklarini bartaraf etish, xususiy investorlar qarorlarini muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish bo'yicha zarur infratuzilmani yaratadi va inson kapitaliga sarflangan qo'yilmalarni rag'batlantiradi. Yuqorida qayd etilgan investitsiya siyosati modellari keng qo'lamli dastaklarni o'z ichiga oladi.

Amerika modelida davlatning investitsiya siyosatida asosiy o'rinni soliq dastaklari egallaydi. Bundan tashqari, bozor dastaklari yordamida narxlar va foiz stavkalarini barqarorlashtirishga yo'naltirilgan izchil liberal makroiqtisodiy siyosat amalga oshiriladi. Ushbu tizim doirasida banklarga ikkinchi darajali o'rin ajratilgan. Investitsiya resurslarining samarali taqsimlanishini nazorat qilishning asosiy mexanizmi – bu fond birjasidir. Aynan rivojlangan qimmatbaho qog'ozlar bozori ushbu modelni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur sharti hisoblanadi. Davlat muvofiqlashtirish muammosini iqtisodiyotning holati va rivojlanish prognozlarini to'g'risida sifatli iqtisodiy axborotni to'plash, tahlil qilish va tarqatish orqali hal etishga harakat qiladi. Davlat zaruriyatga qarab infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalar yo'naltiradi. Ushbu investitsiyalar faqat favqulodda holatlardagina

umumiqtisodiy strategiyaning elementlariga aylanadi. Model zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lganda investitsiyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi.

Yapon modeli davlat va xususiy investorlar o'rtasidagi faol hamkorlik asosida quriladi. Davlat bank sohasini nazorat qiladi va aholi jamg'armalarini mustaqil jalb etadi. Ushbu mablag'larni korporatsiyalarga hamkorlik va o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarish evaziga imtiyozli shartlarda beradi. Infratuzilmaga sarflanadigan investitsiyalar muayyan xususiy firmalarning ehtiyojlari bilan bevosita muvofiqlashtirib amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan tashkil etiladigan maslahat kengashlari muvofiqlashtirish rolini o'z zimmasiga oladi. Ushbu modelni amalga oshirishning zarur sharti – kuchli xususiy sektor va samarali apparatga ega bo'lgan davlatdir. Ushbu modelning afzalligi katta hajmdagi mablag'larni samarali investitsiyalarga safarbar etish imkoniyatiga egaligi bilan belgilanadi. Kamchiligi esa investitsiyalarni rejalashtirish jarayonining siyosiyashtirilishi va asosiy pul-kredit indikatorlarining kutilmagan holda o'zgarishi, shu jumladan, siyosiy doiralarning korrupsiyalanishi bilan izohlanadi.

Tayvan modeli esa yapon va amerikacha modellarning qator dastaklarini o'zida birlashtiradi. Ushbu modelning farqli jihati investitsion qarorlarni muvofiqlashtirishning xususiy mexanizmlarning davlat tomonidan yaratilishidan iborat. Model eksportga ishlaydigan xususiy firmalarning bozor va investitsion loyihalar salohiyatini juda yaxshi bilishiga asoslangan. Ushbu xususiy firmalar atrofida ta'minotchilar tarmog'i shakllanib, ular o'z rejalarini «bosh» kompaniya bilan muvofiqlashtirib turadilar. Davlatning asosiy vazifasi ushbu guruhlarni faol qo'llab-quvvatlash, shuningdek, loyihaviy-konsultativ byurolar, texnik xizmat ko'rsatish agentliklari va ilmiy laboratoriyalar orqali barcha tarmoq ishtirokchilarining yangi yuqori texnologiyalardan foydalanishi hamda ularning yangi mahsulot va investitsiyaviy rejalarni ishlab chiqishda teng huquqli ishtirok etishini ta'minlashdan iborat. Ushbu model muvaffaqiyatining asosiy bo'g'ini va garovi eksport ishtirokchilarining «test»idan o'tishdan iborat. Ushbu testdan muvaffaqiyatli o'tish esa imtiyozli kreditlar olish uchun keng yo'l ochadi. Shu bilan birga, investitsiyaviy siyosatning ushbu

turi Umumjahon savdo tashkilotining qoidalari nuqtayi nazaridan tobora zaiflashib bormoqda.

Shunday qilib, iqtisodiy o‘shishda oqilona investitsiya siyosatini ishlab chiqish yetakchi o‘rin tutadi. Investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratishga xizmat qiladigan qator institutlarni tashkil etish lozim. Jahon iqtisodiyotida samarali amal qiluvchi model bozor tizimiga tayanadi va milliy iqtisodiyotning afzalliklaridan to‘liq foydalanadi.

3.2. Hududiy investitsion siyosat va uni takomillashtirish yo‘llari

Investitsiya siyosati samaradorligi va uning hududni barqaror rivojlanishiga ta’siri ko‘p jihatdan investitsiya siyosati maqsadlari, uni amalga oshirishning mavjud holatiga va hudud iqtisodiyotining milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida rivojlanish istiqbollari mos keluvchi usullarining to‘g‘ri qo‘yilishi bilan belgilanadi. Iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanishda investitsiya siyosatining o‘ziga xosligi shundaki, uning maqsadi ishlab chiqarish sohasini investitsion ta’minlash va uning asosida hududni izchillik bilan rivojlantirish hisoblanadi.

Ushbu holat hududni nafaqat ma’lum bir hududiy tuzilma sifatida, balki ishlab chiqarish omillariga, uni tashkil qilish va amalga oshirish shartlariga ega bo‘lgan ishlab chiqarish birligi sifatida ko‘rib chiqishga undaydi. Hududni korporativ tuzilma sifatida quyidagi holatlar bilan keltirish mumkin:

birinchidan, hudud mehnat taqsimoti va kooperatsiya tamoyillariga asoslangan umumiy ishlab chiqarish tizimida foydalaniladigan ishlab chiqarish omillari yig‘indisiga ega;

ikkinchidan, samarali investitsiyalar uchun imkoniyatlar va rag‘batlar, hududda ishlab chiqarishni kengaytirish va ish o‘rinlari yaratish ma’lum bir investitsion imkoniyatlar mavjudligi bilan bog‘liq ravishda tasavvur qilinadigan ishlab chiqarish faoliyati omillari hisoblanadigan raqobat cheklovlari, risklar va xarajatlar darajasi bilan asoslanadi.

Hududni korporativ tuzilma nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish hududda investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun quyidagicha ishlab chiqarish shartlarini hisobga olishga imkon beradi:

- hududda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish xarajatlari;

- hudud risklari;
- hudud bozorida raqobat sharoitlari.

Biroq, ushbu omillarni tartibga solish, hudud iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish maqsadida, ularni takomillashtirish uchun investitsiya siyosatini shakllantirish lozim. Hududiy darajada investitsiya jarayonining asosiy qatnashchilari bo‘lib ishlab chiqarish kompleksiga mablag‘lar investitsiya qiladigan kompaniyalar, shuningdek, investitsiyalar qabul qiluvchi hudud ishtirok etadi. Shu sababli, investitsiya faoliyatining maqsadlar tizimini shakllantirishda asosiy vazifa bu ikki tomon manfaatlarini muvofiqlashtirish hisoblanadi.

Zamonaviy investitsiya siyosatida maqsadli ko‘rsatmalar mavjudligi investitsiya strategiyasi va uni amalga oshirishning hududiy mexanizmlari ishlab chiqishga kirishish imkonini beradi. Ushbu muammoning yechimi ikki bosqichda amalga oshiriladi. Dastlabki bosqichda investitsiya siyosati uchun maqbul keladigan hududni tanlash lozim. Ikkinchi bosqichda – hududiy investitsiya siyosati maqsadlariga erishish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Hududlar iqtisodiyotining hozirgi holatiga javob beradigan samarali hududiy investitsiya siyosati quyidagicha bo‘lishi lozim:

- faol, ya’ni hududga nisbatan tashqi manbalardan investitsiyalar jalb qilishga yo‘naltirilgan;
- hududning raqobatli ustunliklariga javob beradigan hudud tarmoqlari klasterini rivojlantirishni ko‘zda tutadigan yondashuv asosida shakllantirilgan;
- hudud iqtisodiy siyosatining mustaqil strukturali elementi.

Hozirgi sharoitlarda hududning ilg‘or investitsiya siyosati uning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydigan omil hisoblanadi. Uning mohiyati raqobatli muhit sharoitlarida hududga ishlab chiqarish investitsiyalari maksimal oqimini ta’minlashdan iborat bo‘lgan to‘g‘ri tashkil qilingan investitsiya strategiyasi bunday siyosatning asosiga aylanishi lozim.

Zamonaviy investitsiya siyosati strategiyasi hududda investorlarga ularning manfaatlarini amalga oshirishni ta’minlaydigan sharoitlar yaratishni ko‘zda tutadi. Bundan kelib chiqib, xulosa chiqarish mumkinki, investitsiya strategiyasi ikkita funksional yo‘nalishga ega.

Birinchi yoʻnalish kapital bozori taklifini oʻrganishni, hududda qandaydir loyihalarga investitsiya kiritishni amalga oshirishga qodir va tayyor boʻlgan potensial investorlar guruhini aniqlash, shuningdek, hududda faoliyat yuritish shartlari va afzalliklari haqida maʼlumotlarni yetkazish, boshqacha qilib aytganda, hududda investitsiyalarga ragʻbatlash koʻzda tutiladi. Ikkinchi yoʻnalish raqobatchi hududlar bilan taqqoslaganda hududda investorlar faoliyati ustunliklarini maksimallashtirish va risklarni minimallashtirishni koʻzda tutadi. Ushbu yoʻnalish doirasida hududning investitsion salohiyati baholanadi, hududda investorlar faoliyatiga salbiy omillar taʼsirini cheklash va ijobiy omillarni maksimallashtirish amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, hududda investorlar faoliyat yuritishi uchun sharoitlar yoki investitsiya muhiti shakllantiriladi.

Iqtisodiy oʻsish investitsion strategiyasini shakllantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda ichki va tashqi sharoitlar baholanadi, buning uchun SWOT-tahlil amalga oshirilib, uning asosida hudud investitsion salohiyatining kuchli va kuchsiz tomonlari tahlil qilinadi.

Kuchli va kuchsiz tomonlarni miqdoriy baholash, ustuvorliklarni belgilash va shu asosda resurslarni taqsimlashga imkon beradi. SWOT-tahlil asosida aniqlangan kuchsiz tomonlar va tahdidlarni bartaraf qilish va asosiy muvaffaqiyat omillarini amalga oshirish yoʻnalishida harakat qilish, agarda u ustuvorliklarni ajratishga asoslanadigan boʻlsa, ijobiy hisoblanadi va bu iqtisodiy oʻsish investitsiya siyosati strategiyasini shakllantirishning ikkinchi bosqichi hisoblanadi. Bunday ustuvorliklar sifatida investitsion resurslar kiritiladigan muayyan sohalar ishtirok etadi.

Muayyan investitsiya loyihalarini aniqlashning eng keng tarqalgan usuli iqtisodiyotning «oʻsish nuqtalari»ni aniqlash usul boʻlib, bunda investitsiya resurslarini taqsimlash jarayonida birlamchi ahamiyat kasb etadigan xoʻjalik birliklari tushuniladi.

Biroq, ushbu usul doirasida investitsiya strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda asosiy omil sifatida namoyon boʻladigan tizimli yondashuvga ahamiyat berilmaydi. Ushbu kamchilik hududning rivojlanishi ustuvor sohalarini aniqlashning tarmoq yondashuvida bartaraf qilinadi.

Tarmoq tamoyili bo'yicha zamonaviy investitsiya siyosatini shakllantirishning nazariy asosi u yoki bu darajada kapital jamg'arish, taqsimlash va foydalanish jarayonlarini tavsiflaydigan ko'p sonli nazariyalar bo'lishi mumkin. Biroq, M.Porterning milliy iqtisodiyotlar raqobatli ustunliklar nazariyasi investorlar harakatini tushunish va hudud hukumatlari investitsiyalar jalb qilish uchun qabul qiladigan qarorlarni asoslab berishga boshqa barcha nazariyalardan ko'ra kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Investorlarning tarmoqni afzal ko'rishlarini aniqlash uchun ularning raqobatbardoshligini belgilab beradigan har bir shartlar holatini belgilab, hudud tarmoqlarining raqobatli ustunliklarini tahlil qilish zarur. Buning uchun uning mahsulotiga talab va tarmoqning rivojlanish omili ko'rsatkichlari, shuningdek, turdosh va qo'llab-quvvatlaydigan tarmoqlarning mavjudligi va rivojlanish holati sifat va son jihatidan baholanadigan model ishlab chiqilgan.

Tarmoq tahlili asosida hududiy rivojlanishning ustuvor sohasi aniqlanadi. Ushbu yondashuvdan foydalanishda ijobiy jihat shundaki, amalga oshirilayotgan tahlil doirasida hududda asosiy tarmoq mahsulotining raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida investitsiyalar bilan qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish zarur bo'lgan o'zaro bog'liq (turdosh va bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan) tarmoqlar klasteri shakllantiriladi.

Investitsion siyosat strategiyasini shakllantirishning uchinchi bosqichida har bir tarmoq uchun hududning raqobatbardosh tarmoq klasterini tashkil qiladigan lokal investitsiya strategiyalari ishlab chiqiladi. Bu maqsadlar uchun ADL matritsasi qurishga asoslangan investitsiya portfellarini tahlil qilish modelidan foydalanish mumkin. Tarmoqlarning raqobat pozitsiyalaridan kelib chiqib, investitsiya strategiyasi ishlab chiqish maqsadida ADL-matritsa yaratish tarmoqlarni lokal investitsiyalash strategiyalari bo'yicha taqsimlashga imkon beradi:

- faol investitsiyalash tarmoqlari (ko'p jihatdan xususiy investitsiyalar bilan ta'minlanadi, davlat investitsion kreditlar taqdim etishi, korxonalarining ustav kapitalida ishtirok etishi, ijtimoiy ahamiyatga molik tarmoqlarga subsidiyalar taqdim etishi mumkin);

- ikkilamchi investitsiyalash tarmoqlari (xususiy investitsiyalar bilan bir qatorda bilvosita xarakterga ega bo'lgan davlat yordami olinishi mumkin);

- eskirayotgan va raqobatbardosh bo'lmagan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar (faqat ichki manbalar hisobiga rivojlanadi, lekin davlat ijtimoiy ahamiyatga molik tarmoqlarga investitsiya kiritadi);

- zarar ko'rib ishlaydigan tarmoqlar (investitsiyalar maqsadga muvofiq emas, davlat faqat ijtimoiy ahamiyatga molik mahsulotlar ishlab chiqarishga dotatsiya beradi).

Ushbu lokal strategiyalarni birlashtirish iqtisodiy o'sish investitsiya siyosati umumiy hudud strategiyasi ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi. Bu zamonaviy investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini shakllantirish uchun asos hisoblanadi.

Bunday sharoitlarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va uni tarkibiy qayta qurish, sanoatning qayta ishlash sohasi raqobatbardoshligini oshirish, «yangi iqtisodiyot» sektorlarini jadal investitsion rivojlantirish, eng avvalo, innovatsion axborot tarmoqlarini yuzaga kelishi, milliy iqtisodiyotning yangi texnologik qiyofasini shakllantirishga ko'maklashish davlat siyosatining ustuvorliklari hisoblanadi. Investitsiya siyosati mazmunini aniqlashtirishda investitsiyalar sohasida davlat faolligining uchta asosiy yo'nalishini ifodalaydi:

- qulay investitsiya muhiti yaratish;
- davlat tomonidan investitsiyalar;
- xususiy investitsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Investitsion mexanizmni shakllantirish yuqorida ta'kidlab o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi va quyidagilarni ko'zda tutadi:

1. Qulay investitsiya muhiti yaratish sohasida:

- mahalliy va xorijiy investorlar xo'jalik faoliyatining oldindan aytib berish mumkin bo'lgan va qulay me'yoriy-huquqiy rejimini qo'llab-quvvatlashning kafolati sifatida davlatning rolini kuchaytirish;

- amalga oshirilayotgan davlat investitsiya siyosati ommaviylikini oshirish;

- investorlarning davlat bilan o'zaro munosabatlari borasida ichki investitsiyalar shartlarini yomonlashtiradigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishga tushishi tufayli investorlarning ishonchini oshirish,

investorlarga barqaror xo‘jalik yuritish sharoitlari saqlanishiga kafolatlar taqdim etish;

- mulkchlik shaklidan qat’i nazar, barcha investorlarga xo‘jalik faoliyati yuritish uchun kapitalni samarali joylashtirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladigan bir xil raqobatli sharoitlar yaratish; biznesiga ortiqcha aralashish amaliyotidan voz kechish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda investorlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning samarali amaliy va qonunchilik mexanizmlarini joriy qilish;

- investitsion faoliyat yo‘lidagi me‘yoriy-qonunchilik bazalardagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish, kapital bozoriga kirib borishdagi to‘siqlarni olib tashlash;

- ruxsat beradigan hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ularni tayyorlash va olish taomillarini soddalashtirish yo‘li bilan investitsiya loyihalari bozorini erkinlashtirish («yagona darcha» tamoyili);

- investorlarning investitsiyalash obyektlarini tahlil qilish va tanlash maqsadida tashkilotlar haqida ishonchli axborot olish imkoniyatini ta‘minlash (ochib berilayotgan moliyaviy va nomoliyaviy xarakterli axborot tuzilishi va tarkibini, uni ochib berish usullarini tartibga solish; buxgalteriya hisobini isloh qilish, buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga javob beradigan mahalliy standartlar ishlab chiqish);

- milliy iqtisodiyot jamg‘armalarini ishlab chiqarishga investitsiyalarga aylantirishni ta‘minlaydigan investitsiya bozori zamonaviy institutsional infratuzilmasi shakllanishiga ko‘maklashish.

2. Davlat tomonidan investitsiyalash sohasida:

- mamlakatda investitsiya faoliyatining ijtimoiy yo‘nalganligini kuchaytirish, «inson» kapitaliga, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish muammolarini hal qilishga, sog‘liqni saqlash va ta‘lim, fundamental va amaliy fanlarga investitsiyalar so‘zsiz ustuvorlik berish;

- davlat investitsiya siyosatining ochiqligi va oldinday aytish mumkinligi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ustuvor vaziyatlarni hal qilish uchun davlat sektori kapitalini jalb qilishni rag‘batlantirish;

- mamlakat uchun strategik ahamiyatga molik bo‘lgan, butun milliy xo‘jalik sohalari faoliyati ularga bog‘liq bo‘lgan, innovatsion-

texnologik rivojlanishga xizmat qiladigan infratuzilma obyektlarini, shuningdek, ekologiya xavfsizligini ta'minlaydigan loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ustuvorligi;

- iqtisodiyotning davlat sektori investitsion faoliyati samaradorligini oshirish, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati ustuvor vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan investitsiya dasturlari va loyihalari «shaffof»ligini ta'minlash;

- davlatning tasdiqlangan budjet doirasidagi investitsiya majburiyatlarini so'zsiz bajarish.

3. Iqtisodiyotning xususiy sektorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sohasida:

- mahalliy korxonalarni qayta qurish dasturlarini amalga oshirish, soliq yukini pasaytirish, ishlab chiqarishni investitsion qayta ta'mirlash vazifalariga mos keladigan amortizatsiya siyosatini takomillashtirish yo'li bilan ularning investitsion salohiyatini oshirish uchun sharoitlar yaratish;

- faoliyat yuritayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish uchun talab qilinadigan zamonaviy texnologik asbob-uskunalarni mamlakatga olib kirish uchun tashqi savdo va soliq rejimini erkinlashtirish;

- korxonalarga ular joylashgan uchastkalarga egalik huquqini berish asosida mahalliy korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish;

- iqtisodiyotning barcha sektorlarida majburiy xalqaro hisobot standartlarini joriy qilish, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatini isloh qilish.

Mamlakatda, hududda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining muayyan mazmuni amaldagi qonunchilikda tavsiflanadi. Investitsion qonunchilikni shakllantirish jarayonini tahlil qilishda quyidagi muhim jihatlarni e'tiborga olish lozim.

Birinchiidan, investitsion qonunchilik shakllanishiga (mamlakat va hududiy darajada) ta'sir etadigan eng muhim omillardan biri chet el investitsiyalarini jalb qilish borasida ochilayotgan imkoniyatlar hisoblanadi.

Ikkinchiidan, investitsiya kiritishni huquqiy shartlarining qulaylik darajasi va hududlar reytingini ishlab chiqish chet el investorlarini jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Boshqacha qilib aytganda, risk yuqori

va salohiyati past bo‘lgan hududlar eng qulay qonunchilik maydoniga ega bo‘ladi.

Bunda, hududiy investitsion qonunchilikning ijobiy samarasini ishlab chiqish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi pastligi va noqulay ixtisoslashuv omillarini to‘liq bartaraf qilish uchun yetarli darajada kuchli bo‘lmasligi mumkin, lekin shunga qaramay, yaxshiroq qonunchilik maydoni hisobiga hududning investitsion jozibadorligini jiddiy oshirish mumkin.

Hududiy investitsiya siyosatning bazaviy elementi sifatida hududiy investitsion qonunchilikka e‘tibor kuchliligini belgilab beradigan uchinchi holat shundan iboratki, uning asosida, hududdagi investitsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va tartibga solishning tashkiliy tuzilishi va investitsiyalarni rag‘batlantirishning iqtisodiy mexanizmlar tizimi shakllanadi.

Hudud iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish masalasini yechish uchun hududiy investitsion siyosatni ishlab chiqilishi zarur. Qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak, hududiy investitsion siyosat – bu hududiy ma‘muriyat organlari faoliyati bo‘lib, u investitsiyalar manbayini izlab topishga va ularni samarali foydalaniladigan sohalarga yo‘naltirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Hududiy investitsion siyosatning maqsadini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish.
2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash.
3. Qo‘shimcha ish joylarini yaratish.
4. Barcha manbalardan investitsion resurslarni jalb qilish. Shu bilan birga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.
5. Nodavlat investitsion fondlarni, shu bilan birga venchur fondlarni tashkil etish.
6. Innovatsion faoliyatda lizingdan foydalanishni kengaytirish.
7. Imtiyozlar tizimini takomillashtirish.
8. Investitsion muhitni va jozibadorlikni ta‘minlash.

Respublikamizda strategik kontekstda makroiqtisodiy barqarorlik va mutanosib iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashda muvozanatli hududiy ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi asimmetrik

tafovutning mavjudligi, mavjud iqtisodiy-resurs salohiyatdan unumli foydalanish va nisbatan past darajada rivojlangan hududlarda iqtisodiy rivojlantirishni jonlantirishga qaratilgan faol hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirishni taqozo qiladi. Bunda hududiy moliyaviy-investitsion salohiyatni to'g'ri baholash va boshqarish negizida investitsion faollikni yanada jonlantirish bo'yicha islohotlarni chuqurlashtirishni talab qilmoqda.

Hududiy investitsiya siyosatni amalga oshirish mexanizmi investitsiya siyosatining asosiy vositalari to'plami va maqsadli ko'rsatmalarga erishish uchun ularni qo'llash taomillari yig'indisini ifodalaydi.

Iqtisodiy o'sish investitsiya siyosatining barcha vositalarini to'rta funksional yo'nalish bo'yicha guruhlash mumkin³⁸. Buning uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- investorlarning hudud ishlab chiqarishiga mablag'lar kiritishni optimallashtirishga undashi va motivatsiyasi;
- investorlarni hududning investitsiya muhiti haqida xabardor qilish;
- hudud investitsion salohiyatini rivojlantirish;
- investitsion loyihasini amalga oshirishni to'liq amalga oshirishgacha qo'llab-quvvatlash (qoplay olish).

Ushbu vositalar yo'nalishi turlichadir. Xususan, undovchi mexanizmlar va investorlarning axborot ta'minotiga aloqador bo'lgan dastlabki ikki yo'nalish vositalari hudud tashqarisida ishlaydi, shu sababli, ular hududga nisbatan tashqi bo'lgan investitsion siyosat omillarini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltiriladi. Investitsion boshqarish va investitsion salohiyatni rivojlantirish hududning ichki investitsion muhiti tarkibiy qismi hisoblanadi, ularning ta'siri alohida hudud bilan chegaralanadi, shu sababli ular investitsiya siyosatining ichki quyi tizimini rivojlantirish yo'nalishlari sifatida ishtirok etadi. Bunday yondashuv SWOT-tahlil natijalarini hudud investitsion tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar bilan bog'lashga imkon beradi. Biroq shuni tan olish kerakki, taqdim etilgan bo'linish yetarli darajada shartli hisoblanadi. Ayrim vositalar

³⁸Шваков Е.Е. Анализ основных подходов к формированию механизмов реализации региональной инвестиционной политики в Российской Федерации // Вестник молодых ученых: сборник научных работ. - Горно-Алтайск: РИО ГАГУ, 2006. - №3. - с.87-97.

investitsiya siyosatining ichki quyi tizimini yaxshilaydigan va shu bilan bir vaqtda o'z harakatlarini alohida hududdan tashqarida namoyon qiladigan omillar hisoblanadi.

Shu sababli, investitsiya siyosatining barcha vositalarini hudud investitsiya siyosatining qiyofasini belgilab beradigan mazmunga oid hamda asosiy vositalardan hosil bo'lgan tashkiliy vositalarga bo'lish tavsiya etiladi. Biroq, tashkiliy vositalarsiz asosiy vositalarni amalga oshirishning imkoni yo'q, chunki ularning namoyon bo'lishi tashkiliy vositalardan amaliy faoliyatida foydalanish vositasida amalga oshiriladi. Masalan, muayyan hududda investorlarni imtiyozli soliqqa tortish haqida investorlarga faqat buning ommaviy axbrot vositalarida keng yoritilishi tufayligina ma'lum bo'ladi.

«Xarajatlar-daromad» tizimida bo'lgan, investitsiya loyihalari va ular bilan bog'liq risklar va xarajatlar o'sishiga yo'naltirilgan mexanizmlar zamonviy hududiy investitsiya siyosatining asosi hisoblanadi.

Mamlakat subyektlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari o'z vakolatlari doirasida investorlarga imtiyozlar va kafolatlar taqdim etishi, muhandislik va transport infratuzilmasini moliyalashtirishi, hududiy va mahalliy budjet, shuningdek, budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga investitsiya loyihalarini boshqa shaklda qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Hududda investitsion faoliyatni moliyaviy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning asosiy vositalari soliq va moliya mexanizmlari hisoblanadi. Soliq mexanizmlari vositasida investorlar uchun soliq yukini pasaytirish amalga oshiriladi va investitsiya loyihalarining o'zini qoplash davrini qisqartirishga erishiladi. Moliyaviy mexanizmlar investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida investorlarga to'g'ridan to'g'ri dotatsiyalar (subsidiyalar) taqdim etish yoki muayyan pul ifodasiga ega bo'lgan boshqa yordam ko'rsatish, masalan, yer uchastkasi yoki boshqa davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovini pasaytirishdan iborat bo'ladi.

Soliq bilan bog'liq qo'llab-quvvatlash vositalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- hududiy budjetlarga (foyda solig'i, korxonalar mulk solig'i) va mahalliy budjetlarga (mulk solig'i, yer solig'i) soliqlarni to'lashdan vaqtinchalik to'liq yoki qisman ozod qilish;

- hududiy va mahalliy budjetlarga soliq to'lovlarini kechiktirish yoki muddatini uzaytirish;
- investitsion soliq kreditlari taqdim etish;
- investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash moliyaviy vositalari;
- investorlarga hududiy va mahalliy budjetlar davlat munitsipal kafolatlari taqdim etish;
- mamlakat subyekting davlat mulkida yoki hukumat organlarining munitsipal mulkida bo'lgan mulk va yer uchastkasidan foydalanganlik uchun ijara to'lovi imtiyozli stavka;
- budjet (investitsiya) kreditlari;
- hudud korxonalarining (aksiyadorlik jamiyatlari) ustav kapitalida ishtiroki;
- chiqarilgan mahsulotga mahalliy va hududiy budjetlar mablag'lari hisobiga investorlarga subvensiyalar taqdim etish;
- investorlarga bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini hududiy va mahalliy budjetlardan subsidiyalash.

Hududning investitsion salohiyati joriy holatini yaxshilash investorlar uchun mexanizmlarni shakllantirish bilan bevosita bog'liq. Investitsiya siyosatining bu ikkala funksional yo'nalishi birgalikda uning mazmunini belgilab beradi. Bunda shuni tan olish kerakki, hududga ular yordamida investorlar jalb qilinadigan investitsiya siyosati vositalari bir vaqtning o'zida bilvosita ravishda hududning investitsion salohiyatini oshiradi.

Shu bilan bir paytda, hududning investitsion salohiyatini, uning tavsifnomalarini oshirish ham investitsiyalashning rag'batlantiruvchi omili sifatida ishtirok etadi. Iqtisodiy o'sishning investitsiya siyosati ushbu yo'nalishi doirasida investorning xarajatlarini pasaytirish va investitsion loyiha samaradorligini oshirishga imkon beradigan hudud investitsion salohiyati muayyan ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishiladi. Ya'ni, ushbu vositalar, investorlarni rag'batlantirish vositalari sifatida, «xo'jalik-daromad» tizimida bo'ladi, biroq, ularning birinchisidan farqli ravishda, ular pul bahosida uzil-kesil ifodalanishi va muayyan investorga nisbatan qo'llanishi mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, ular bitta investor emas, balki hududga kelgan barcha investorlar uchun investitsiyalash shartlari yaxshilanadi. Iqtisodiy o'sish investitsiya siyosatining ushbu yo'nalishini amalga oshirish vositalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- mahalliy va hududiy budjetlar mablag‘lari hisobiga hududning ishlab chiqarish infratuzilmasi yaratishni moliyalashtirish (joriy holatni yaxshilash);

- hudud iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlari uchun mamlakat va hudud ta’lim muassasalarida mahalliy aholini tayyorlashni moliyalashtirish;

- davlat hukumati organlari harakatlaridan (harakatsizligidan) kafolatlash, jumladan, mahalliy va hududiy hukumat organlarida korrupsiyani bartaraf qilish;

- nodavlat tashkilotlarining noqonuniy harakatlaridan kafolatlash, alohida hududda xo‘jalik yuritishning huquqiy rejimini kuchaytirish;

- hududning davlat va munitsipal mulkida bo‘lgan yer uchastkalari va noturar-joy fond obyektlarini ijaraga olish yoki mulk qilib sotib olish bo‘yicha investorlarga yordam ko‘rsatish.

Hudud investitsiya siyosatining navbatdagi funksional yo‘nalishi uning axborot ta‘minoti hisoblanadi. Investorlar hududlarda investitsiya tizimining axborot shaffofligini baholaydilar. Asosan investitsiyalar obyektlari haqida axborot ochiq bo‘ladi.

Axborot siyosati axborot ta‘minotining asosiy vazifasi investorlar nigohida hududning ijobiy imijini shakllantirish va unga investitsion loyihalar, ularni investitsion faoliyatni hududda amalga oshirish qoidalari va taomillari haqida axborot yetkazish hisoblanadi.

Quyidagilar iqtisodiy o‘shish investitsiya siyosatining axborot yo‘nalishi vositalari bo‘lib xizmat qiladi:

- hudud haqida batafsil axborot, jumladan, biznes yuritish shartlari haqida ma’lumotlar, shuningdek, amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan investitsiya loyihalari haqida ma’lumotlar joylashtiriladigan internet-saytlarni qo‘llab-quvvatlash;

- investitsiyalar jalb qilish masalalari bo‘yicha axborot-tahlil va maslahat markazlari yaratish;

- erkin ishlab chiqarish maydonlari kataloglarini ishlab chiqish;

- hudud korxonalari biznes-profillarini ishlab chiqish;

- qog‘ozli va magnitli shaklda «Biznes-yo‘l ko‘rsatkich», «Investorning yo‘l ko‘rsatkichi» va boshqa spravochniklarni nashr qilish;

- potensial investorlar ishtirokida anjumanlar o‘tkazish;

- investorlar ma’lumotlar to‘plamini yaratish, hududda investitsion imkoniyatlar bo‘yicha axborotni aniq manzilli tarqatish;

- xalqaro simpozium, ko‘rgazma va anjumanlarda ishtirok etish;
- hukumat va biznes vakillaridan iborat xorijiy delegatsiyalar tashrifini tashkil qilish;
- potensial investorlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va investitsiyalar jalb qilish uchun hududning investitsion imkoniyatlarini tayyorlash va taqdim etish.

Investor hududga kirib kelgandan boshlanadigan va investitsiya loyihasi o‘zini qoplash nuqtasigacha davom etadigan investitsion boshqarish investitsiya siyosatining axborot yo‘nalishi va uning davomi hisoblanadi.

Investitsion boshqarish vositalari quyidagilar hisoblanadi:

- hududda biznesni tashkil qilish va yuritishning istalgan masalalari bo‘yicha maslahatlar berishni tashkil qilish;
- investorlarga shartnoma asosida hududda korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, buxgalteriya hisobi, audit, sug‘urta, lizing bo‘yicha hududdagi soliq organlari bilan aloqada xizmatlar ko‘rsatadigan ixtisoslashgan vakolatli kompaniyalarni konkursli asosda tashkil qilish;
- xorijiy investorlar bilan hamkorlik va investitsion faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan maslahat organlarini tashkil qilish;
- investitsiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalarini hal qilishning ma‘muriy mexanizmlarini optimallashtirish va ushbu jarayonda investorning o‘tish vaqtini minimallashtirish;
- hududda nazorat organlari bilan alohida masalalarni hal qilish;
- investorlarga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha bitta joyda xizmat ko‘rsatishni ko‘zda tutadigan «yagona darcha» tizimini yaratish (masalan, yer uchastkasini rasmiylashtirish, loyiha hujjatlarini muvofiqlashtirish va obyekt qurilishi uchun ruxsatnoma olish).

Umuman olganda, investitsion boshqarish muvaffaqiyatlari xizmat xodimlarining professionallik darajasi bilan belgilanadi, shu sababli investitsiyalarga ko‘maklashish va boshqaruv organini shakllantirish investitsiya siyosatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Shunday qilib, hududda investitsiya siyosatini amalga oshirish vositalaridan foydalanishda hududdagi investitsion muhitni yaxshilash

imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, uning barqaror rivojlanishiga katta qadam bo'ladi.

Barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqish katta miqdordagi axborot olishni talab qiladigan kompleksli va qimmatbaho jarayon bo'lib, bu axborotni olish doim ham oson emas, ba'zida esa umuman imkonsiz hisoblanadi. Tizimga kiradigan indikatorlar ko'pligi zarur statistik ma'lumotlar yo'qligi sababli ko'plab mamlakatlarda ulardan foydalanishni qiyinlashtiradi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, uni tashkil qilishga ikki yondashuv mavjud:

1) har biri barqaror rivojlanishning alohida jihatlarini aks ettiradigan indikatorlar tizimini tuzish. Ko'pincha umumiy tizim doirasida quyidagi ko'rsatkichlar quyi tizimlari ajratib ko'rsatiladi: ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional.

2) uning asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorlik darajasi haqida mulohaza yuritish mumkin bo'lgan integral, agregatsiyalangan indikator tuzish.

Agregatsiyalash odatda uchta ko'rsatkichlar guruhi asosida amalga oshiriladi: ekologik-iqtisodiy, ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik ko'rsatkichlar.

Bir qator xalqaro tashkilotlar barqarorlik agregatsiyalangan indikatorini tuzish bilan faol shug'ullanib kelmoqda. Eng muvaffaqiyatli loyihalar sifatida BMT va Jahon banki ishlanmalarini qayd etish mumkin. Agregatsiyalangan indikator mavjudligi, eng avvalo, qaror qabul qiladigan shaxslarga mamlakat barqarorligi, rivojlanish yo'nalishining ekologikligi haqida mulohaza yuritishga imkon beradi. Shunday qilib, ushbu ko'rsatkich hozirgi kunda iqtisodiy farovonlik va iqtisodiy rivojlanish barqarorligi ular orqali o'lchanadigan YaIM, YaMM va milliy daromad kabi ko'rsatkichlarning analogi bo'lishi mumkin bo'lardi. Biroq, metodologik va statistik muammolar, hisob-kitob qilish qiyinligi tufayli butun dunyoda e'tirof etilgan integral indikator hozircha yo'q.

3.3. Hududlarda investitsiya siyosati samaradorligini baholash

Investitsiya siyosatining istalgan yo'nalishlarini amalga oshirishning asosida zamonaviy investitsion tahlil uslubiyatiga muvofiq

samaradorlik mezon ko'rsatkichlari ma'lum bir to'plami bo'yicha olib boriladigan investitsiyalash obyektlarining investitsion xususiyatlarini baholash yotadi. Investitsiyalar samaradorligi ko'rsatkichlari qiymatini aniqlash ko'rib chiqilayotgan investitsiya obyektiga kelgusi tahlil uchun maqbullik nuqtayi nazaridan qarash, qator raqobatlashuvchi investitsiya obyektlarini qiyosiy baholash va ularni ranglarga ajratish, samaradorlik va risk berilgan nisbatini ta'minlaydigan investitsiya obyektlari yig'indisini tanlashga imkon beradi.

Investitsiyalar samaradorligini baholash investitsion qaror qabul qilishning eng mas'uliyatli bosqichi bo'lib, investitsiyalash maqsadlarini amalga oshirish darajasi ko'p jihatdan uning natijalariga bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, olingan natijalar obyektivligi va ishonchliligi ko'p jihatdan foydalaniladigan tahlil usullari bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan investitsiyalash variantlarini oqilona tanlash maqsadida, ularni qo'llash imkoniyatlarini aniqlash va makroiqtisodiy tizimlar investitsiya siyosatini amalga oshirish samaradorligini baholashda mavjud uslubiy yondashuvlarni ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirishning hozirgi amaliyotida uning samaradorligini baholashda uch xil yondashuv mavjud.

Hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish samaradorligi ikkita tarkibiy qismlar samaradorligi bilan asoslanadi:

1) hududning rivojlanish istiqbollari belgilab beradigan asosiy tavsifnoma hududning investitsion jozibadorligidan foydalanish darajasi hisoblanadi. Mamlakat subyektlarining investitsion jozibadorligidan foydalanish darajasi hududdagi investitsion faollikning hudud investitsion jozibadorligiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Hududning investitsion salohiyati hududda mavjud turli iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy resurslar, uning geografik joylashuv xususiyatlari va unda investitsion faollikni shakllantirish uchun zarur bo'lgan boshqa obyektiv sharoitlardan kelib chiqib barcha (ichki va tashqi) moliyalashtirish manbalari hisobiga hudud asosiy kapitaliga jalb qilinishi mumkin bo'lgan investitsiyalar hajmi sifatida baholanadi.

Hududning investitsion jozibadorligi uning investitsion risklari daraja va investitsion salohiyatidan, ya'ni hududdagi investitsion

faoliyat shartlaridan kelib chiqib, hudud asosiy kapitaliga jalb qilish mumkin bo'lgan kapital qo'yilmalar hajmi bo'yicha hisoblab chiqiladi;

2) mamlakat hududlarida investitsion faoliyat rivojlanishining boshqa bir muhim tavsifnomasi investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hisoblanadi. Buning uchun an'anaviy ravishda investitsiyalar manbalarida davlatning o'z mablag'lari ulushi yuqori ekanligi xos bo'lib, bu moliya bozorining rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Hududlar tasnifi investitsiyalarni moliyalashtirishning o'z mablag'lari hamda jalb qilingan davlat va nodavlat mablag'lari nisbatidan kelib chiqib tuziladi.

Hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish samaradorligi mamlakat subyektlarining hudud turi va investitsion jalb etuvchanlikdan foydalanish darajasi bilan belgilanadi.

AK&M axborot agentligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot negizida hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish samaradorligi ikki guruhdagi mezonlarni tahlil qilish asosida aniqlanadi:

- hududning moliyaviy holatini belgilab beradigan mezonlar (subyektlarning budjet ijrosi haqida oylik hisobotlar ma'lumotlariga, shuningdek, davlat qarzi hajmi haqida hududiy ma'muriyatlar ma'lumotlariga asoslanadi);

- hududning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilab beradigan va budjetning daromadlar qismini shakllantirish shart-sharoitlarini yaratadigan mezonlar (davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asoslanadi).

Hududning moliyaviy holatini belgilab beradigan mezonlar guruhiga quyidagilar kirishi mumkin:

- 1) davlat qarzining budjetning o'z daromadlariga nisbati;
- 2) daromadlar umumiy hajmida o'z daromadlarining ulushi;
- 3) budjetning o'z daromadlari hajmi;
- 4) budjet taqchilligining budjet daromadlariga nisbati;
- 5) xarajatlarda boshqa darajadagi budjetlarga yo'naltiriladigan mablag'lar ulushi;
- 6) xarajatlarda ajratiladigan kreditlar va budjet ssudalari ulushi.

Hududning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilab beradigan mezonlar qatoriga quyidagilar kirishi mumkin:

- 1) soliqlar bo'yicha qarzlarning soliq to'lovlari hajmiga nisbati;

2) foyda ko‘rib ishlaydigan korxonalarining alohida hududda qayd qilingan korxonalar umumiy sonidagi ulushi;

3) korxonalar foyda va zararlari saldosini;

4) aholining bir kishiga hisoblagandagi pul daromadlari.

Shu usul bilan mamlakat subyektlarining nisbiy kredit layoqati darajasini aniqlash mumkin, ushbu ko‘rsatkich dinamikasi hududiy investitsiya strategiyalarini amalga oshirish samaradorligidan dalolat beradi.

Rossiya Federasiyasining "Ekspert RA" reyting agentligi tomonidan har bir yil yakunlari bo‘yicha alohida hududlari investitsion jozibadorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot o‘tkazishda hududiy jalb etuvchanlik ikkita asosiy tavsifnoma – investitsion risk va investitsion salohiyat bilan belgilanadi. Investitsion risk hajmi investitsiyalardan yo‘qotishlar va ulardan olish mumkin bo‘lgan daromadni ko‘rsatadi. Integral risk yetti xil risk turi – qonunchilik riski, siyosiy risk, ijtimoiy risk, iqtisodiy risk, moliya riski, kriminal risk va ekologiya riskidan tashkil topadi. Har bir risk turi bo‘yicha hudud rangi ekspertlar tomonidan hududlarni investitsion risk indeksi qiymati bo‘yicha tartibga solish natijasida – o‘rtacha mamlakat risk darajasiga nisbatan aniqlangan.

Investitsion salohiyat quyidagi kabi asosiy makroiqtisodiy tavsiflarni hisobga oladi: hududning ishlab chiqarish omillariga to‘yinganligi, aholining iste‘mol talabi va boshqa ko‘rsatkichlar. Hududning umumiy investitsion salohiyati sakkizta xususiy salohiyatdan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘z navbatida, bir guruh ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Investitsion mahsulotning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar hisoblanadi: mehnat, iste‘mol, infratuzilma, ishlab chiqarish, innovatsion, moliyaviy va tabiiy-resurslar.

Alohida olingan hududning har bir salohiyat turi bo‘yicha rangi barcha hududlar umumiy salohiyatida uning ulushi (foizda) sifatida uning salohiyatini miqdoriy baholashga bog‘liq bo‘ladi.

Risk yoki salohiyat umumiy ko‘rsatkichi risk yoki salohiyat xususiy turlarining o‘rtacha o‘lchangan summasi sifatida hisoblab chiqiladi. Ko‘rsatkichlar – har biri o‘zining vazn koeffitsiyenti bilan yig‘indisi chiqiladi. Hududning yakuniy rangi xususiy ko‘rsatkichlar o‘lchangan yig‘indisi bo‘yicha hisoblab chiqiladi. Natijada har bir

hudud nafaqat rangi bilan, balki uning investitsiyalar obyekt sifatida qanchalik buyuk ekanligi va ushbu hududga investitsiyalash riski qanchalik katta ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Umumiy salohiyat yoki integral riskka har bir tarkibiy qismning hissasi vaznini baholash mahalliy va xorijiy investitsiya va konsalting kompaniyalari va korxonalarining mos keluvchi yildagi ekspertar orasida o'tkazilgan so'rovlar natijasida olinadi. Ekspertlar tariqasida shuningdek, bir qator mamlakat subyektlari investitsiya departamentlari rahbarlari ham jalb qilinadi.

Shunday qilib, qayd etish mumkinki, turli uslubiyatlar turli ko'rsatkichlar nuqtayi nazaridan investitsiya siyosatini amalga oshirish samaradorligini tavsiflaydi. Hozirgi sharoitlarda iqtisodiy tizimlarni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini, jumladan, investitsiya siyosati borasida amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradigan yangi vositalar negizida investitsiya siyosatini amalga oshirish samaradorligini kompleksli baholash zarur. Bunday vositalar qatoriga, masalan, muvozanatlangan ko'rsatkichlar tizimi, shuningdek, iqtisodiy tizimlar strategiyalarini shakllantirish yangi modellari va ularning strategik yo'nalishlarini belgilab beradigan omillarni aniqlash va ularning samaradorligini baholash kiradi.

Hududiy investitsiya siyosati samaradorligini baholashga nisbatan foyda va xarajatlarni tahlil qilish usulidan birinchi bo'lib J.A.Shofild foydalangan³⁹. U depressiv hududlar rivojlanishini rag'batlantirish uchun foydalaniladigan mexanizmlar tizimi sof samarasini baholash uchun quyidagi formulani taklif qilgan:

$$NPV = \sum_{r=1}^n \sum_{k=1}^m \frac{W_{rt}B_{wt} + P_{rt}B_{pt} + A_{rt}}{(1+i)^k} - \sum_{r=1}^n \sum_{k=1}^m \frac{D_{rt} + G_{rt} + M_{rt}}{(1+i)^k}$$

bu yerda:

NPV – hududiy investitsiya siyosati chora-tadbirlarining keltirilgan sof samarasi;

W – hududiy investitsiya siyosati chora-tadbirlari bilan asoslana-digan mehnat daromadi;

R – hududiy investitsiya siyosati chora-tadbirlari bilan asoslana-digan kapitalga daromad;

V_w – mehnat daromadi uchun milliy multiplikator;

³⁹ Бизнес: Оксфордский толковый словарь. - М.: ПРОГРЕСС-АКАДЕМИЯ, 1995.

V_p – kapitalga daromad milliy multiplikatori;

A – hududiy investitsiya siyosati chora-tadbirlarini amalga oshirishdan bosh tortishda mehnat resurslari migratsiyasi olib kelishi mumkin bo‘lgan xarajatlarda tejash;

D – hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq kapital xarajatlar;

G – hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq kapital xarajatlar;

M – korxonalarni rag‘batlantiriladigan maydonga o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar;

i – diskont stavkasi;

r – hududning tartib raqamini belgilash uchun indeks;

t – siyosatni amalga oshirish tartib raqamini belgilash uchun indeks;

n – ko‘rib chiqiladigan hududlar soni;

m – hisob-kitob davri davomiyligi.

Ushbu tenglamaga kiritilgan barcha ko‘rsatkichlarni baholab, Shofild Buyuk Britaniyada depressiv hududlarni iqtisodiy rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish oqibatida jamiyat farovonligining sezilarli o‘sganligi haqida xulosaga keldi.

Shubhasizki, Shofild taklif qilgan, hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq foyda va xarajatlar ro‘yxatini uzil-kesil deb hisoblab bo‘lmaydi va kelgusida bu ro‘yxat turli mualliflar tomonidan bir necha marotaba aniqlashtirilgan. Hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq foyda va xarajatlar kompleksli tizimiga eng muvaffaqiyatli yondashuvlardan biri G.Armstrong va J.Taylor⁴⁰ tadqiqotlarida bayon qilingan.

G.Armstrong va J.Taylor xulosasiga ko‘ra, hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirishdan olinadigan asosiy ijtimoiy foydalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish natijasida daromadning o‘sishi;
- qo‘llab-quvvatlanadigan hududlardan qo‘llab-quvvatlanmaydigan hududlarga aholi migratsiyasining qisqarishi natijasida

⁴⁰Беренс В. Руководство по оценке эффективности инвестиций. Пер. с англ.-2-е изд. перераб. и доп. / В. Беренс, П.М.Хавренек. - М.: АОЗТ «Интрексперт», Инфра-М, 1995.

ijtimoiy xizmatlar taqdim etish va infratuzilma yaratish xarajatlarida tejash;

- hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirishdan voz kechishda qo'llab-quvvatlanadigan hududlari tark etishga majbur bo'lishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxslar uchun ko'chib o'tish xarajatlarida tejash;

- iqtisodiy faoliyatni bir tekisda makonga oid taqsimlash tufayli shahar tashqi xarajatlarida tejash (infratuzilmaga haddan tashqari og'ir yuklama va ifloslantirish bilan asoslanadigan);

- hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish natijasida daromadni bir tekisroq taqsimlash;

- iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lmagan foyda (siyosiy, ijtimoiy, ekologik).

Hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirishning asosiy xarajatlari quyidagilar hisoblanadi:

- ishlab chiqarish resurslarini muqobil foydalanish yo'nalishlaridan chalg'ish natijasida daromadlar yo'qotilishi;

- yangi joyga ko'chish xarajatlari;

- yangi ishlab chiqarishlar yaratish va mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish bo'yicha kapital xarajatlar;

- infratuzilma yaratish xarajatlari;

- hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq ma'muriy xarajatlar;

- atrof-muhitga yetkazilgan zarar.

Shofild, Armstrong va Teylor tomonidan taklif qilingan hududiy investitsiya siyosatini amalga oshirish ijtimoiy xarajatlarini ajratishga yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning ko'pchiligi nafaqat qo'llab-quvvatlanadigan hududlar aholisi farovonligida, balki boshqa, muvaffaqiyatliroq va rivojlangan hududlar aholisi farovonligida ham aks etadi. Bu, eng avvalo, eng yirik shahar aglomeratsiyalarida ijtimoiy infratuzilma ortiqcha yuklanganligi, shuningdek, farovonligi pastroq bo'lgan hududlardan aholi oqimining cheklanishi oqibatida yetakchi hududlar ishlab chiqarish imkoniyatlarining qisqarishi bilan bog'liq xarajatlar qisqarishi hisobiga ro'y beradi. Shu sababli, milliy iqtisodiyotning resurslar salohiyati va mavjud infratuzilmadan foydalanishni optimallashtirish uchun u yoki bu chora-tadbirlarni amalga oshirishning barcha hududlar uchun oqibatlarini hisobga olishi

shart bo'lgan federal markaz tomonidan hududiy darajada investitsiya jarayonlariga faol aralashish zarur.

Foyda va xarajatlarni tahlil qilish usuli doirasida hududiy investitsiya siyosati samaradorligini baholash nuqtayi nazaridan K.Bleyk tomonidan taklif etilgan investitsiya loyihalari tasnifi muhim ahamiyat kasb etadi⁴¹. Ushbu tasnifga muvofiq, rag'batlantiriladigan hududlarda amalga oshiriladigan barcha investitsiya loyihalarini uch toifaga ajratish zarur:

- investitsiya siyosati chora-tadbirlarini amalga oshirishdan voz kechishda boshqa hududlarda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, siyosat chalg'itgan loyihalar (subsidy - diverted projects);

- investitsiya siyosati chora-tadbirlarini amalga oshirishdan voz kechishda baribir qo'llab-quvvatlanadigan hududda amalga oshiriladigan mustaqil loyihalar (autonomous projects);

- investitsiya siyosati chora-tadbirlarini amalga oshirishdan voz kechishda rag'batlantiriladigan va boshqa hududlarda amalga oshirilmaydigan, siyosat tashabbuschisi bo'lgan loyihalar (subsidy-created projects).

Mustaqil loyihalar hududiy investitsiya siyosati samaradorligini baholashda umuman – foyda va xarajatlar ham hisobga olinmasligi kerak. Shu asnoda bu dasturlarni ishlab chiquvchilar, qoidaga ko'ra, ularga mustaqil loyihalar kiritish hisobiga ko'lamini sun'iy ravishda oshirishga, ularni amalga oshirish haqida qarorlar dasturda ko'zda tutilgan stimullar tizimiga aslo bog'liq bo'lmagan qarorlar qabul qilishga intiladi.

Siyosat ularning tashabbusi bilan chiqqan loyihalarga ko'ra, hududiy investitsiya siyosati samaradorligini baholashda ushbu loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq barcha tijorat natijalari va barcha tijorat xarajatlari hisobga olinishi kerak. Siyosat chalg'itadigan loyihalar bo'yicha loyihalarni boshqa hududlarda amalga oshirishdan voz kechish bilan bog'liq muqobil xarajatlar hisobga olinishi lozim. Agar hududiy investitsiya siyosatida ko'zda tutilgan rag'batlar ta'siri ostida tijorat nuqtayi nazaridan foydaliroq bo'lgan loyihadan boshqa hududlarda voz kechiladigan va tijorat nuqtayi nazaridan unchalik

⁴¹Бернштам Е.С. Инвестиции в региональную экономику: сравнительный анализ субъектов Российской Федерации // Федеративные отношения и региональная социально-экономическая политика. - 2002. - №9. - С. 6-20.

foydali bo‘lmagan loyihalarga o‘tiladigan bo‘lsa (hududiy siyosatda rag‘batlar, masalan, subsidiyalar yoki soliq imtiyozlari hisobga olingunga qadar), bu jamiyat farovonligida sof yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin, lekin ular aholi migratsiyasi bilan bog‘liq xarajatlarni tejash, yirik aglomeratsiyalarda ijtimoiy infratuzilma xarajatlarini qisqartirish va daromadlarni bir tekisroq taqsimlash hisobiga qoplanishi mumkin.

Nazariy jihatdan foyda va xarajatlarni tahlil qilish usuli mamlakatning turli subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan hududiy investitsiya siyosati samaradorligini baholash uchun ham foydalanilishi mumkin. Biroq, buning uchun har holda, hududda asosiy investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish shartlari haqida, ulardan har biriga nisbatan amal qiladigan stimullar va tashkiliy qo‘llab-quvvatlash choralari haqida, shuningdek, hududiy ma‘muriyatlar taklif qiladigan rag‘batlarga iqtisodiy agentlar reaksiyasi haqida axborot talab etiladi. Bunday baholashni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan eng taxminiy boshlang‘ich ma‘lumotlarni esa qimmatbaho tadqiqotlar o‘tkazmasdan olishning imkoni yo‘q. Shu bilan bir paytda hududiy investitsiya siyosati samaradorligini boshqa hududlarda erishilgan, taqqoslash mumkin bo‘lgan rivojlanish sharoitlari bilan tavsiflanadigan natijalar bilan taqqoslagan holda yiriklashtirgan holda baholash imkoniyati mavjud.

Mamlakat hududiy investitsiya siyosati samaradorligining yiriklashtirilgan baholarini qiyosiy usul bilan olish ikkita vazifani oldindan hal qilishni talab etadi, ulardan birinchisi hududlar investitsion salohiyati tavsiflarini baholash uslubiyatini tanlash bilan, ikkinchisi esa – bir xil turdagi hududlar guruhi bo‘yicha investitsion faoliyat natijalari va investitsion salohiyat tavsiflarini taqqoslash asosida investitsion siyosat samaradorligi integral ko‘rsatkichini shakllantirishga imkon beradigan metodologiyani tanlash bilan bog‘liq.

Hududiy investitsiya siyosati samaradorlik indikatorini tuzish uchun A.Chans, V.Kuper va E.Rods tomonidan ular faoliyatining kirish va chiqish ko‘rsatkichlari ko‘pligi sharoitlarida qaror qabul qiladigan birliklar qiyosiy samaradorligini (decisionmakingunits) o‘lchash uchun ishlab chiqilgan ma‘lumotlarni qamrab olish usulidan (dataenvelopmentmethod, DEA) foydalanish mumkin⁴².

⁴²Бетин О.И. Некоторые аспекты региональной социально-экономической политики // Федеративные отношения и региональная социально-экономическая политика.-2003.- №1.-С. 11-16.

Ma'lumotlarni qamrab olish usulining mohiyati quyidagidan iborat. Ularning samaradorligini taqqoslash lozim bo'lgan I birlik qaror qabul qilish mavjud bo'lsin. Har bitta I birlik qaror qabul qilish kirishda mavjud bo'lgan J turdagi resurslar va chiqishdagi K faoliyat natijalari bilan tavsiflansin, bunda I birlik qaror qabul qilishning kiruvchi (X_{jl}) va chiquvchi (Y_{kl}) birlik ko'rsatkichlari barcha qiymatlari manfiy emas. Shunda i birlik qaror qabul qilish samaradorligini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin bo'ladi:

$$\sum_{k=1}^K W_{kl} Y_{kl} / \sum_{j=1}^J V_{jl} X_{jl}$$

bu yerda:

W_{kl} va V_{jl} – har bir kiruvchi va chiquvchi ko'rsatkichga berilgan vazn koeffitsiyentlari.

Ma'lumotlarni qamrab olish usuli quyidagi matematik dasturlash masalasini yechish asosida i qaror qabul qilish har bitta birligi uchun vazn koeffitsiyentlarini individual aniqlashni talab etadi:

$$\frac{\sum_{k=1}^K W_{kl} Y_{kl}}{\sum_{j=1}^J V_{jl} X_{jl}} \rightarrow \text{cheklovlar bilan max darajada}$$

$$\frac{\sum_{k=1}^K W_{kl} Y_{kb}}{\sum_{j=1}^J V_{jl} X_{jb}} \leq 1, \quad b = \overline{1, I}, \quad V_{ij} \geq 0, \quad k = \overline{1, K}$$

Mazkur matematik dasturlash masalasini yechish davomida b qaror qabul qilish boshqa barcha birliklari bilan i qaror qabul qilish birliklarini taqqoslash amalga oshiriladi, shuningdek, kirish ko'rsatkichlari berilgan uyg'unlashuvda chiqish ko'rsatkichlarning eng yaxshi kombinatsiyalarini belgilab beradigan samarali chegara baholanadi.

Samarali chegaraga to'g'ri keladigan qaror qabul qilish birliklari uchun e_i ko'rsatkichi 1 ga teng bo'lgan maksimal ehtimoliy qiymatga ega bo'ladi. Agar qaror qabul qilish birligi boshqa birliklar bilan taqqoslaganda kichikroq samaradorlik namoyish etadigan bo'lsa, optimallashtirish masalasini yechish natijasida hisoblab chiqilgan e_i chi 1 dan kichik bo'lib chiqadi, bunda bu ko'rsatkich qiymati qanchalik kichik bo'lsa, ushbu birlik samarali chegaradan shunchalik uzoqda joylashadi.

Investitsion salohiyat yuqori va past bo'lgan hududlar uchun analog-hududlar soni yetarli emasligi sababli ularning investitsiya siyosati samaradorligini baholash qiyosiy usul bilan amalga oshirilmagan.

3.4. Investitsiya muhiti va uning shakllanishi

Xorijdan kapital qabul qiluvchi tomonidan investitsiya muhiti modelini ishlab chiqish har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni aniqlab beruvchi vositadir. U orqali xorijiy investorga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'g'risida aniq tushunchalarga ega bo'lish, xorijlik investorlarning xulq-atvorini har tomonlama anglash va mamlakatdagi iqtisodiy holatni chuqurroq baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu jarayonlarning barchasi respublikamizning boshqa davlatlar bilan dastlabki iqtisodiy munosabatlarini yo'lga qo'yish jarayonida chetdan kapitalni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya muhiti – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beradigan ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

Investitsiya muhiti kompleks, ko'p qirrali tushuncha bo'lib milliy qonunchilik iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega⁴³.

Investitsiya muhiti obyekt kategoriyasi bo'lib, har bir alohida olingan vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda mavjud bo'lgan shart-sharoitlar majmuasini aks ettiradi. Lekin, hozirgi sharoitda investitsiya muhiti faqat davlat organlari ta'siri ostida shakllanmoqda. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda jahon tajribasidan, jumladan, xorijiy investitsiya bilan tashkil etilib, yuksak iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishgan kompaniya va firmalar tajribasidan kengroq foydalanish kerak. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni ham hisobga olish lozim.

Davlat hokimiyatining ta'sirchanligi investitsiya muhitini aniqlovchi omillardan biridir. Shundan kelib chiqib, har bir kapital jalb

⁴³ Vaxabov A.V. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya». 2010.

qiluvchi mamlakat ma'lum bir investitsiya tizimiga egaligini ta'kidlash mumkin. Bu tizim huquqiy me'yorlar va muassasalardan iborat xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi va investitsiya muhitini o'z ichiga oladi. Xorijiy kapitalni qabul qilish tizimi investitsiya muhitining komponenti bo'lib xizmat qiladi va unga nisbatan mustaqil ravishda tashkil etiladi. Chunki, u investitsiya muhitini o'zgartirishga qodirdir. Xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi qabul qiluvchi tomonining xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga qulay ravishda kirib kelishini namoyon etadi, investitsiya muhiti kirib kelgan kapitalni mamlakat ichida optimal ravishda o'sib borish vaziyatiga baho beradi⁴⁴.

Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir.

Investitsiya muhiti – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuidan iborat. Investitsiya muhiti tabiiy shart-sharoitlar, foydali qazilmalar zaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy kon'yunktura holati, ichki bozor sig'imi, tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning yaratilganligi kabi omillar orqali belgilanadi.

Investitsiya muhiti – investitsion jarayonlar amalga oshadigan sharoit bo'lib, u hududning investitsion faoliyati hamda investitsiyalarning risk darajasini aniqlaydigan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'sirida shakllanadi⁴⁵.

Mamlakatning investitsion muhitni shakllantiradigan omillar kompleksi quyidagilardir:

1. Siyosiy omillar: xorijiy investitsiya borasida davlat siyosati; xalqaro kelishuvlarga rioya qilish; davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi; iqtisodiy siyosatning hayotiyliigi; mamlakatning xalqaro

⁴⁴ Imomov H.H. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. –T.:TDIU, 2007. -232 b.

⁴⁵ Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo'llanma. –T.: Baqtriya press, 2017. –b.39.

shartnomalar tizimida qatnashuvi; davlat apparatining ish faoliyati; siyosiy hukumatning investitsiyalarga moyilligi.

2. Iqtisodiy holat: mamlakat to'lov balansining holati, valuta barqarorligi, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish holati, ichki bozor sig'iminining kattaligi, inflyatsiya darajasi, YaIM, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari.

3. Huquqiy baza: yangi sharoitlarga mos keladigan, mamlakat va uning alohida tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqaradigan farmonlar, qarorlar, nizomlar, yo'riqnomalarning mavjudligi.

4. Tabiiy xomashyo resurslari: mineral, xomashyo, yoqilg'i-energetika va suv resurslari zaxiralari, qishloq xo'jaligi xomashyosi ishlab chiqarish hajmlari.

5. Mehnat resurslari va bandlik: iqtisodni faol aholi soni, band aholi ulushi, ishsizlik darajasi xizmatchilar daromadi darajasi, kadrlarning malaka darajasi.

6. Ishlab chiqarishning texnik bazasi: asosiy ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarning foydalanish muddati tarkibi, asosiy fondlarining eskirishi darajasi.

7. Ilmiy-texnika salohiyati: iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmlari. Investitsiya tavakkalchilik darajasi. Ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish va ITTKI sohasini rivojlantirish holati, mahsulotning fan sig'imkorligi katta va yuqori texnologiya turlarini ishlab chiqarish.

8. Moliya-kredit tizimi: soliq, va kredit siyosati, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining foydalilik va rentabellik darajasi. Narx siyosati va narxni shakllantirish siyosati.

9. Infratuzilma: bank tizimi rivojlanishi holati, transport, kommunikatsiya xizmatlari va mehmonxona xo'jaligi sohalari, tovar va fond birjalari, marketing, konsalting, auditorlik xizmatlari, sug'urta sohasi tarmog'ining ishonchliligi.

10. Ekologik vaziyat: atrof-muhitning ifloslanish darajasi, radiatsion fon, zararli chiqindilar.

11. Ijtimoiy omillar: jamoatchilikning xususiy mulk va xorijiy investitsiyalarga munosabati; jamiyatning mafkuraviy birdamlik

darajasi; mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy masalalari bo'yicha kelishuvning mavjudligi; ishchi guruhining tashkilotchiligi.

Iqtisodiyotdagi investitsiya muhiti, birinchi navbatda, mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlik bilan belgilanadi. Mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni ta'riflaydigan asosiy ko'rsatkichlar (YaIM, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishi sur'atlari, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi darajasi va hokazolar) ayni vaqtda yetarlicha barqaror dinamikaga ega va qulay investitsiya muhitini shakllantirishda salmoqli kafolat hisoblanadi.

Investitsiya qabul qiluvchi mamlakat ichki bozori sig'iminining kattaligi xorijiy investorlar uchun muhim omil hisoblanadi. Tahlillar ko'rsatishicha, O'zbekistonning ichki bozori iste'mol tovarlari bilan hali to'liq to'yintirilmagan, shu bois aholi yalpi talabining sezilarli qismi import hisobiga qondiriladi.

Kapitalni tashqaridan jalb qilishga yordam beradigan omil xorijiy tadbirkorlarga investitsiyalash uchun qulay muhitni shakllantirishga ko'maklashadigan rag'batlar tizimini taklif qilishdir. Respublika qonunchiligi tomonidan mustaqillik yillarida qabul qilingan imtiyozlar va rag'batlar yetarli miqdorda bo'lib, investorlar faoliyatining hamma jihatlarini kamrab olgan.

Umuman olganda, **investitsiya muhiti** – bu mamlakatning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar majmuasidir. Mamlakatdagi umumiy investitsiya muhiti hudud, tarmoq va korxonalaridagi investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Investitsiyalarni shakllantirish va ulardan foydalanish, mamlakat va xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion siyosati asosida amalga oshiriladi. Bu siyosat birinchidan, kapital qo'yilmalarning ustuvor yo'nalishlarini, ikkinchidan, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish va rivojlantirish, uchinchidan, fan-texnika taraqqiyoti va butun iqtisodiyotning rivojlanishini belgilab beradi.

3.5. O'zbekistonda investitsiya siyosati va muhiti

Ma'lumki, jahon amaliyotida ko'plab mamlakatlar iqtisodiy muvaffaqiyatlarga iqtisodiyotni va uning tarmoqlarini erkinlashtirish

tufayli erishishgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham jamiyat hayotining barcha sohalari, shu jumladan, iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tashqi iqtisodiy siyosatni erkinlashtirish islohotlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, o‘tish davri iqtisodiyoti masalalari yechimini tezlashtiradi. Bunday erkinlashtirishning asosiy shakllaridan biri xorijiy investitsiyalarning mamlakatga kirib kelishini kengaytirishni ta’minlashdir.

Xorijiy, birinchi navbatda, to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy investitsiyalarni jalb qilish, buning uchun zarur investitsiya muhiti hamda xorijiy investorlar uchun kafolatlarni yaratish – milliy iqtisodiyotning tizimli ta’minlanishi va ishlab chiqarish modernizatsiyasining eksport o‘sishi va import o‘rnini bosish ta’minlanishining muhim shartlaridandir.

O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida investitsion faoliyatni amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish talab etilmoqda. Investitsiya bozorini shakllantirish investitsiya resurslarini to‘plash, jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muammolarini hal etishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Ko‘plab mamlakatlar xorijiy qo‘yilmalarni jalb etish maqsadida imtiyozli sharoitlarni yaratadi, xususan, kapitalni saqlash va zararlarni qoplashni kafolatlaydi, imtiyozli soliq olishni kiritadi va foydani xorijga erkin o‘tkazishga ruxsat beradi, olingan daromadlar boshqalarni qayta investitsiyalashga sharoitlar yaratadi. O‘zbekiston ham xorijiy mablag‘larni jalb qilishdan manfaatdordir. Hozirgi vaqtda ular asosan xalqaro tashkilotlar va boshqa mamlakatlar hukumatlari krediti tarzida kelmoqda. Shu bilan birga, respublika xorijiy investitsiyalarga ehtiyoj sezadi, chunki kreditdan farqli ravishda investitsiyalar qarzdor qilib qo‘ymaydi, balki ishlab chiqarishni kengaytirish va zamonaviylashtirishga, ilmiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga bevosita yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida tarkibiy o‘zgarishlarni, iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni izchil davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va

ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib borilmoqda.

Bu mablag'lar, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirayotgan korxonalarining o'z mablag'larini ko'paytirishi, soliq yukini yanada kamaytirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va aholining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini oshirish hisobidan hosil bo'ladi.

O'zbekistonda investitsiya siyosatining maqsadi xo'jalik subyektlarining manfaatdorligini oshirish, moliyalashtirish manbalari tuzilmasini takomillashtirish va xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar tashkil qilish asosida mamlakatning investitsion salohiyatni oshirishdan iborat. Oqilona investitsiya siyosati, birinchi navbatda, investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Investitsiya siyosati milliy va xorijiy investorlarning xo'jalik faoliyatini yuritishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi kerak.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon qulay investitsion muhitni yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Investitsiya muhitining muhim tarkibiy qismi davlatning qonunchilik bazasidir. O'zbekistonda ham investitsiya sohasida mustahkam qonunchilik bazasi shakllangan bo'lib, u yildan-yilga yanada takomillashtirib borilmoqda.

Xususan, mamlakatimiz hududlarida investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish va yanada yaxshilash, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, iqtisodiyotning ustuvor soha va tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish, investorlarning davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-son, 2019-yil 10-yanvardagi "Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5621-son, 2019-yil 28-yanvardagi "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5643-son va 2019-

yil 17-yanvardagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5635-son Farmonlari mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiyotga investitsiya joylashtirish hajmini oshirishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi “Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5621-son farmoniga muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi O‘zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat organi etib belgilandi.

2. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish davlat dasturlari va investitsiya dasturlari O‘zbekiston Respublikasining o‘rta muddatli investitsiya siyosati strategiyasi asosida ishlab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasining o‘rta muddatli investitsiya siyosati strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish konsepsiyalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlangan dastur va qarorlar asosida shakllantiriladi.

3. Investitsiya siyosati strategiyasi ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi tomonidan davlat rivojlanish dasturlari va investitsiya dasturlarini tayyorlash va ijrosini ta‘minlash orqali amalga oshiriladi:

kichik sanoat zonalarini hududida qiymati 7,0 mln. AQSH doll. ekvivalenti hisobidan yuqori bo‘lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha ma‘muriy kengashlar qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan kelishilishi lozim.

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga quyidagi maqsadlar uchun shartnoma asosida, jumladan xorijiy konsultantlar va ekspertlarni, shuningdek, texnik ko‘mak va grant mablag‘larini jalb qilishga ruxsat etiladi:

– investitsiya va sanoat siyosati strategiyalarini ishlab chiqish sohasida ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va tatbiq etish;

– vazirlik va uning tarkibiy bo‘linmalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlantirishning dolzarb masalalari bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish, investitsiya siyosati strategiyasini ishlab chiqish;

– xorijiy mamlakatlarning tegishli vazirliklari va idoralari bilan samarali va o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatish.

5. a) kichik sanoat zonalari ishtirokchilari uchun imtiyoz va preferensiyalarni ularni amaldagi ishtirokchilar uchun 2020-yil 1-yanvargacha saqlab qolgan holda bekor qilinadi;

b) kichik sanoat zonalari ishtirokchilariga quyidagi huquqlarni beriladi:

– o‘z mablag‘lari hisobiga qurilgan bino va inshootlarga (yoki ularning qismlariga) mulk huquqini o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirish;

– investitsiya va boshqa ijtimoiy majburiyatlarni to‘liq bajargan taqdirda, biroq kichik sanoat zonasi ishtirokchisi maqomini olgan davridan boshlab kamida 5 yil muddat o‘tgandan keyin, o‘zlariga berilgan binolar va inshootlarni (yoki ularning qismlarini) xususiyashtirish;

– rekonstruksiya qilish yoki kapital ta‘mirlashni o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirgan taqdirda, biroq kichik sanoat zonasi ishtirokchisi maqomini olgan davridan boshlab kamida 3 yil muddat o‘tgandan keyin, binolar va inshootlarni (yoki ularning qismlarini) xususiyashtirish;

– bino va inshootlarni (yoki ularning qismlarini) rekonstruksiya qilish yoki kapital ta‘mirlash uchun kichik sanoat zonasi ishtirokchisi tomonidan ajratilgan mablag‘lar ularni xususiyashtirishda hisobga olinadi.

Shuningdek, mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

– jahonning ilg‘or amaliyotini inobatga olgan holda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar strategiyasini qabul qilish;

– xorijiy investitsiyalarni, eng avvalo, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash choralarni ko‘rish;

– xorijiy investorlar bilan ishlashning institutsional bazasini yanada takomillashtirish;

– maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirish;

– iqtisodiyotda davlat ishtirokini jiddiy ravishda kamaytirish, «xufyona» iqtisodiyotga qarshi kurashish va uning ulushini keskin qisqartirish choralari ko‘rish;

– milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish sohalari va tarmoqlarini aniqlash.

Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy investorlarni mamlakatimiz imkoniyatlari va salohiyati to‘g‘risida xabardor qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o‘zlashtirish sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekistonning investitsiya siyosati quyidagilarga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak:

– respublikada investitsiyaga oid qonunchilik bazasini doimiy takomillashtirib borish;

– davlatning investitsiya siyosatidagi nomutanosiblikka yo‘l qo‘ymaslik;

– ishchi kuchi nisbatan ko‘p bo‘lgan hududlarga investitsiyalarni ko‘proq jalb qilishga qulay shart-sharoit yaratadigan investitsiya muhitini shakllantirish;

– ijtimoiy masalalarni hal etish;

– hududlardagi infratuzilmani rivojlantirish.

Shuningdek, investitsiya siyosatini amalga oshirishda hukumat quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ustuvorlikni berishi lozim⁴⁶:

– respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag‘larni keng jalb qilishni ta‘minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

– respublikamizda jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan, iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga

⁴⁶ Mustafakulov Sh.I. Investision muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo‘llanma. –T.: Baqtriya press, 2017. –b.212

ko‘maklashayotgan xorijiy sarmoyadorlarga imtiyoz va preferensiyalar taqdim etish tizimini takomillashtirish;

– mablag‘larni raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish;

– tashqi iqtisodiy faoliyatda raqobat qila oladigan va valuta tushumini ta‘minlaydigan yetakchi tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash;

– aholi bandligini ta‘minlaydigan va milliy daromadni oshirishga qaratilgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish;

– energiya tejamkor va atrof-muhitga kam zarar yetkazadigan yuqori texnologik, zamonaviy uskunalarni o‘rnatish;

– mahalliy sharoitlarga mos keladigan ilg‘or xorijiy texnologiyalarni tatbiq etish, o‘zimizda yaratilayotgan ixtirolarni rag‘batlantirish va bilimlar iqtisodiyotiga mablag‘lar yo‘naltirish.

3.6. Investitsiya muhiti jozibadorligi va uni oshirish yo‘llari

Investitsion jozibadorlik – bu muayyan investor nuqtayi nazaridan u tomonidan shakllantirilgan mezonlarga muvofiq investitsiyalash obyekti sifatida hududning afzalliklari va kamchiliklarining umumiy xususiyatidir. Investitsion jozibadorlik tushunchasi “Investitsion faollik” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq.

Investitsion faollik – bu hududga investitsiyalarni jalb qilish hajmi va sur‘ati bilan tavsiflanadigan investitsion faoliyatning rivojlanishi va jadalligi. Investitsion faollikni joriy (ya‘ni oxirgi hisobot davri uchun) va prognoz holatini aniqlash o‘ta muhim vazifadir.

Haqiqiy investitsion faollik uning investitsion jozibadorligi bilan taqqoslash orqali ushbu jozibadorlikni amalga oshirish darajasini ko‘rsatadi, ya‘ni xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlat hokimiyati organlari tomonidan hududning obyektiv mavjud investitsion salohiyatidan real foydalanish darajasini ifodalaydi.

Investitsion salohiyat – bu investitsiyalash obyektlari mavjudligi va xilma-xilligiga qarab investitsiyalar va biznesni istiqbolda rivojlantirish uchun mavjud obyektiv shart-sharoitlar yig‘indisi ko‘rinishidagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlarini hisobga oladigan miqdoriy belgidir. Ya‘ni, investitsion salohiyat hududning joriy davrdagi amalga oshirilmagan potensial

imkoniyatlaridan foydalanib iqtisodiy rivojlanish va o‘shishga erishish hisoblanadi.

Hududning umumiy investitsion salohiyati bir nechta xususiy integral potentsiallardan iborat: resurs va xomashyo; mehnat; ishlab chiqarish; innovatsion; institutsional; infratuzilma yoki geosiyosiy; moliyaviy va iste’molchi.

Investitsion risk – bu investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun salbiy ijtimoiy-siyosiy, qonuniy, ekologik va boshqa sharoitlar mavjudligi sababli (investorlar uchun esa, investitsiyalar yoki ulardan keladigan daromadlarning yo‘qotilish ehtimoli) hududning investitsion salohiyatining to‘liq amalga oshirilmaganlik ehtimoli.

Bunday sharoitlarga quyidagilar kiradi: hududdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat (xususan, aholining bozor iqtisodiyoti shakllanish jarayonlariga munosabati), atrof-muhit holati va boshqalar.


Shunday qilib, ma’lum bir hududga xos bo‘lgan va unda risklarni kamaytirishga hissa qo‘shadigan omillarning yig‘indisi bu hududning investitsiya muhiti hisoblanadi.

Investitsiya muhiti o‘zaro bog‘liq jarayonlarning keng doirasi va ma’lum bir hududda mavjud bo‘lgan investitsiya faoliyati uchun turli obyektiv sharoitlarning yig‘indisi ta’siri ostida shakllangan munosabatlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Investitsiyalarni rag‘batlantirishni belgilovchi shartlar sifatida quyidagilar ko‘rib chiqiladi: siyosiy, ijtimoiy-psixologik, me’yoriy-huquqiy, ekologik, iste’molchi va institutsional tabiatining infratuzilma omillari.

Investitsiya muhiti kapitalni samarali joylashtirish uchun yangi imkoniyatlar va rag‘batlarni yaratadi. Boshqacha aytganda, qulay investitsiya muhiti kompaniyalar daromadlarini ko‘paytirish va xarajatlar hamda risklarni pasaytirishni ta’minlaydi. Oxir oqibat, ijobiy investitsiya muhiti mehnat unumdorligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, bandlikni ta’minlash, barcha darajadagi budjetlarga soliq tushumlarini ko‘paytirish va boshqa ko‘rinishdagi ijtimoiy samara yaratadi.

Investitsiya muhiti jozibadorligi – bu aniq investor nuqtayi nazaridan alohida yo‘nalish va obyektlarni investitsiyalashdagi afzalliklar va kamchiliklarini umumlashtirib, alohida obyektlarni

investitsiyalash jozibadorligini baholash ko‘p omillarga bog‘liq va individual xususiy xarakterga ega⁴⁷.



3.1-rasm. Hududning investitsiya muhiti jozibadorligini belgilovchi omillari⁴⁸

“Investitsiya muhiti jozibadorligi” tushunchasining mukammalligi uning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa xarakterdagi omillarning o‘zaro bog‘liqligi natijasida shakllanganligi, natijada mamlakat yoki hududda investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun asosiy shart-sharoitlarni yaratish bilan izohlanadi. 3.1-rasmida ko‘rsatilganidek, investitsiya muhiti jozibadorligi uning ikki tarkibiy qismi, ya’ni investitsiya muhiti va investitsion salohiyatning o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, hududning investitsion jozibadorligini tashkil etuvchi omillar soni nazariy jihatdan cheklanmagan. Biroq, investitsiya muhiti ko‘rsatkichlariga faqat investitsiya bilan bog‘liq omillar kiritilgan, ya’ni ushbu ko‘rsatkichlar hududlarda investitsion faollikning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni tavsiflovchi omillar hamda mikroiqtisodiy, tovar xomashyo, mehnat va moliya bozorlari faoliyati bilan bog‘liq omillar bilan o‘zaro bog‘liqdir. Biznes yuritish va investitsiyalarni jalb qilishning muhim sharti makroiqtisodiy barqarorlik hisoblanadi, shuning uchun makroiqtisodiy omillar strategik investorlarning investitsiya kiritishi uchun hududlarni tanlashda muhim rol o‘ynaydi.

⁴⁷ Бланк И.А. Основы инвестиционного менеджмента. В 2т. –СПб.: Ника-цент, 2001.

⁴⁸ Муаллифлар томонидан тузилган.

Asosiy makroiqtisodiy omillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- budget defitsiti (profitsiti) hajmi;
- inflyatsiya darajasi;
- davlat qarzi hajmi;
- milliy vayuta kursi dinamikasi.

Ma’lum bir hududdagi korxonalar tomonidan texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq omillar hududning ilmiy-texnik salohiyatini aks ettiradi, ya’ni mamlakatda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar va ularning ishlab chiqarish jarayoniga qanday kiritilayotganligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy omillar birinchi navbatda, sog‘liqni saqlash sohasining samaradorligi, ta’lim va o‘qitish tizimining sifati, aholining demografik holati bilan bog‘liq.

Biznes-muhit faoliyatining samaradorligini belgilovchi omillar birinchi navbatda, yetkazib berish zanjirining mavjudligi va sifati, korporativ strategiyalarni takomillashtirish va pudratchilar mavjudligi bilan bog‘liq.

Institutsional muhit samaradorligini belgilovchi omillar investorlar uchun iqtisodiyotning jozibadorligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Infratuzilma omillari yo‘llar va transport uzellarining sifati, elektr stansiyalarining quvvati, aloqa sifati, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tayyor infratuzilmasi bo‘lgan investitsiya maydonlarining mavjudligi va sifati bilan belgilanadi.

Investitsiya riskining ta’sir qilish darajasini belgilaydigan omillar, asosan, xorijiy investorlarga nisbatan huquqiy muhit sifati bilan bog‘liq. Hozirgi vaqtda jahon tajribasida mamlakatlarning investitsiya muhiti jozibadorligi qator muhim omillar uyg‘unligida tavsiflanuvchi investitsion salohiyat va investitsiya riski orqali aniqlanadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi investitsiya larga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi nomutanosiblik, investitsiyalar oqimining taraqqiy etgan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga o‘tish yo‘nalishi tendensiyalari hukm surmoqda. Natijada, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi keskin oshib bormoqda. Bunday holat o‘z navbatida, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun investitsiya muhiti jozibadorligini va investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish bilan

bog‘liq ko‘plab muammolarni hal etish, shuningdek, investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarishni takomillashtirish zaruriyatini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida respublikamiz iqtisodiyotini tubdan o‘zgartirish, shu bilan bir qatorda, barqaror hamda yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashning asosiy sharti bu investitsiya faoliyatini jadallashtirish, investitsiya faoliyatini kafolatlash, mazkur jarayonlarning samaradorligini ta‘minlash maqsadida davlatning bosh islohotchiligi asosida tartibga solish, shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda va uning hududlarida yillik investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va uni hayotga izchil tatbiq etish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarning erkin kirib kelishi va infratuzilmaning xalqaro talablar asosida shakllanishini ta‘minlash maqsadida institutsional o‘zgarishlar, ya‘ni me‘yoriy hujjatlar, standart va talablar ishlab chiqildi, boshqaruv tuzilmalari takomillashtirildi.

Mamlakatimizda ham yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish maqsadida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mazkur sohadagi faoliyat samaradorligi, avvalo, mavjud resurslardan yetarli darajada samarali foydalanmaslik, investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va rentabelligi masalalari kabi muammolar ham mavjud. Ushbu muammolar mamlakatning investitsiya muhiti jozibadorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda.

Ta‘kidlash joizki, investitsiya muhiti jozibadorligi investorlar uchun foydalilik darajasini belgilaydi. Korxonaga investitsiya jalb etish va kreditlash bo‘yicha qaror qabul qilishda moliyaviy barqarorlik, kreditga layoqatlilik va raqobatbardoshlik nazarda tutiladi.

Quyidagilar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi:

– raqobatbardosh eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida mahalliy va xorijiy tadbirkorlarga O‘zbekistonning ustuvor soha, tarmoq va hududlariga investitsiya kiritish uchun qulay investitsiya muhiti va rag‘batlarni yaratish;

– mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarini hal qilish uchun davlat moliyaviy vositalari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining qarz resurslari va texnik ko‘maklashish vositalari (grantlari)dan foydalanish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi markazlashgan investitsiyalarning boshqaruv tizimini yaratish;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini yaxshilash, mamlakatning iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini jadal rivojlantirishni ta‘minlash, ilg‘or texnologiyalarni transfer qilish uchun xorijiy, shu jumladan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni keng jalb qilish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini bosqichma-bosqich takomillashtirish;

– respublikaning iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining xorijiy investorlar, savdo bo‘yicha hamkorlar, xorijiy hukumat va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro samarali aloqalarini ta‘minlash;

– optimal bojxona-tarif siyosatini amalga oshirish, Jahon savdo tashkilotiga integratsiyalash, boshqa ko‘p tomonlama savdo-iqtisodiy tizimlar bilan hamkorlik qilish;

– eksport qiluvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, savdo, shu jumladan tashqi savdo infratuzilmasini, elektron tijorat tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish, mazkur sohadagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;

– mahalliy tovarlar va xizmatlarning tashqi bozorlarga chiqishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, samarali transport yo‘laklarini shakllantirish, yetkazib berish geografiyasini diversifikatsiya qilish maqsadida zamonaviy logistika tarmoqlarini rivojlantirish;

– tashqi bozorlarda mahalliy tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun mahsulotni sifat jihatdan boshqarishning zamonaviy tizimlarini keng joriy qilishni hamda ularning xalqaro standartlar va texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini ta‘minlash, investitsiya siyosatini faollashtirishni ta‘minlovchi ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish.

3.7. Investitsiya muhiti jozibadorligi

Dunyo mamlakatlarining investitsiya muhiti jozibadorligini qiyosiy baholash tarixi 30 yildan ortiq vaqtni tashkil etadi. Ushbu

sohada birinchilardan bo'lib 1969-yilda Garvard biznes maktabi xodimlari tomonidan tadqiqot o'tkazilgan. Mamlakatlararo taqqoslash har bir mamlakatning quyidagi xususiyatlarini o'z ichiga olgan ekspert bahosiga asoslangan: xorijiy va milliy investorlar uchun qonunchilik shartlari; sarmoya kelish imkoniyatlari; milliy valutaning barqarorligi; siyosiy vaziyat; inflyatsiya darajasi; milliy kapitaldan foydalanish imkoniyatlari. Ko'rsatkichlarning ushbu tizimi sarmoyadorlar e'tiborini hisobga olgan barcha sharoitlarni to'liq aks ettirish uchun yetarlicha batafsil ma'lumotga ega bo'lmagan.

Keyinchalik mutaxassislar tomonidan turli mamlakatlarning investitsiya muhiti jozibadorligini qiyosiy baholash usullari baholash parametrlar tizimini kengaytirish va mukammallashtirish hamda miqdoriy (statistik) ko'rsatkichlarni kiritish orqali takomillashtirildi. Ko'pincha quyidagi parametr va ko'rsatkichlardan foydalanildi: iqtisodiy tizim turi; makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (YaMM hajmi, iqtisodiyot tuzilmasi va boshqalar); tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik; infratuzilma holati; tashqi savdoni rivojlantirish shart-sharoitlari; davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki⁴⁹.

Hozirgi kunda Jahon amaliyotida mamlakatning investitsiya muhiti jozibadorligini baholash borasida turli yondashuvlar mavjud. Aksariyat iqtisodchilar investitsiya muhiti jozibadorlikning mazmunini bir xil izohlaydilar, ammo mamlakat investitsiya muhiti jozibadorligini baholashga nisbatan olimlarning yondashuvlari uning tuzilishi va usullarini aniqlashda bir-biridan keskin farq qiladi. Mamlakatlarning investitsiya muhiti jozibadorligining reytingini aniqlashda omilli yondashuv eng keng tarqalgan.

Xususan, quyidagi kompaniya va agentliklar tomonidan mamlakatlar investitsiya muhiti jozibadorligi baholanadi:

– Global raqobatbardoshlik indeksi (World Economic Forum's Global Competitiveness Index);

– A.T. Kearney kompaniyasining to'g'ridan to'g'ri xorijiy investorlarning ishonch indeksi (A.T. Kearney Foreign Direct Investment Confidence Index);

⁴⁹ Бакиева А.А. Анализ подходов к оценке инвестиционной привлекательности российских регионов // Научно-технический вестник Санкт-Петербургского государственного университета информационных технологий, механики и оптики. - 2006. - № 24. - С. 289–291.

– UNCTADning to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun mamlakat salohiyati indeksi (UNCTAD Foreign Direct Investment Potential Index);

– “Katta uchlik” qatoriga kiruvchi «Standart va Poors» («Standard & Poors»), «Mudis» (Moody's) va «Fitch reyting» (Fitch Ratings) xalqaror reyting agentliklari reytinglari;

– Jahon banki guruhining mamlakatda biznes yuritish qulayligi Doing Business indeksi;

– To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar darajasi bo‘yicha dunyo mamlakatlari reytingi;

– BERI indeksi;

– Euromoney, Fortune va The Economist kabi yetakchi iqtisodiy jurnallar tomonidan davriy nashr qilinadigan mamlakatlar investitsion jozibadorligining kompleks reytinglari.

Yuqoridagi baholash indeksleri va reytinglarining ayrimlari bo‘yicha batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Global raqobatbardoshlik indeksi. Shvetsariyada joylashgan nodavlat “Xalqaro iqtisodiy forum”, ayrim manbalarda “Jahon iqtisodiy forumi” deb yuritiladi. Ushbu forum doirasida bir yilda bir marta konferensiya ko‘rinishida uchrashuv tashkil etiladi.

Tadqiqot 2004-yildan buyon olib boriladi va hozirgi kunda dunyoning turli mamlakatlari uchun raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarining eng to‘liq to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Global raqobatbardoshlik indeksida mamlakatlar 113 ta ko‘rsatkichlar bo‘yicha quyidagi 12 ta yo‘nalishda baholanadi:

- 1) Institutlarning sifati;
- 2) Infratuzilma;
- 3) Makroiqtisodiy barqarorlik;
- 4) Sog‘liqni saqlash va boshlang‘ich ta‘lim;
- 5) Oliy ta‘lim va professional tayyorlash tizimi;
- 6) Tovar va xizmatlar bozori samaradorligi;
- 7) Mehnat bozorining samaradorligi;
- 8) Moliya bozorining rivojlanganligi;
- 9) Texnologik rivojlanish darajasi;
- 10) Ichki bozorning hajmi;
- 11) Kompaniyalarning raqobatbardoshligi;
- 12) Innovatsion salohiyat.

Global raqobatbardoshlik indeksi bo'yicha davlatlar reytingi⁵⁰

Davlatlar	Yillar											
	2014-2015		2015-2016		2016-2017		2018		2019		2020	
	Reyting	Baho	Reyting	Baho	Reyting	Reyting	Baho	Baho	Reyting	Baho	Reyting	Baho
AQSH	3	5.5	3	5.61	3	5.7	1	85.6	2	83.7		
Singapur	2	5.6	2	5.68	2	5.7	2	83.5	1	84.8		
Germaniya	5	5.5	4	5.53	5	5.6	3	82.8	7	81.8		
Shveysariya	1	5.7	1	5.76	1	5.8	4	82.6	5	82.3		
Yaponiya	6	5.5	6	5.47	8	5.5	5	82.5	6	82.3		
Niderlandiya	8	5.5	5	5.5	4	5.6	6	82.4	4	82.4		
Gonkong	7	5.5	7	5.46	9	5.5	7	82.3	3	83.1		
Buyuk Britaniya	9	5.4	10	5.43	7	5.5	8	82	9	81.2		
Shvetsiya	10	5.4	9	5.43	6	5.5	9	81.7	8	81.2		
Daniya	13	5.3	12	5.33	12	5.3	10	80.6	10	81.2		
Xitoy	28	4.9	28	4.89	28	5.0	28	72.6	28	73.9		
Rossiya	53	4.4	45	4.44	43	4.5	43	65.6	43	66.7		
Qozog'iston	50	4.4	42	4.48	53	4.4	59	61.8	55	62.9		
Qirg'iziston	108	3.7	102	3.83	111	3.7	97	53	96	54.0		
Tojikiston	91	3.9	80	4.03	77	4.1	102	52.2	104	52.4		

12.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2014–2017-yillarda eng yuqori reytingga ega bo'lgan davlatlar birinchi uchta ligida deyarli o'zgarish bo'lmagan holda, Shveysariya, Singapur va AQSH band etib kelgan bo'lsa, 2018–2019-yillarda ushbu uchta ligik reytingda keskin o'zgarish bo'lib, mos ravishda Singapur, AQSH va Gonkong davlatlari egallagan. Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'istonning 2014–2019-yillarda global raqobatbardoshlik indeksi bo'yicha eng yuqori reytingi 2015–2016-yillarda qayd etilgan holda 42 o'ringacha ko'tarilgan. Shuningdek, Qirg'iziston ushbu reyting bo'yicha tahlil qilinayotgan davrda eng yaxshi natijaga 2019-yilda erishgan holda 111

⁵⁰ The Global Competitiveness Report 2018 ma'lumotlari asosida tuzildi.

o‘rindan 96 o‘ringa ko‘tarilgan. Tojikiston esa, aksincha 2018-yildagi 102 o‘rindan 2 pog‘ona pastlab 2019-yilda 104 o‘ringa tushib qoldi.

BERI indeksi. BERI (Germaniya) firmasi tomonidan har qanday mamlakat, hudud yoki tumandagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatni tahlil qilish uchun BERI indeksi ishlab chiqildi. Ushbu indeks 100 ga yaqin ekspertlarning ekspert baholari asosida mamlakatdagi investitsiya muhitini turlicha salmoqqa ega bo‘lgan 15 ta baholash mezonlari bo‘yicha hisoblab chiqadi (3.2-jadval). To‘plangan yuqori ball «barqaror mamlakat»ni anglatadi. Mamlakat to‘plagan ball qanchalik yuqori bo‘lsa, investitsiyalashdan olinishi mo‘ljallangan foyda ham shuncha yuqori bo‘lishi zarur, aks holda investitsiyalash asossiz hisoblanadi.

3.2-jadval

BERI indeksi

№	Mezonlar	Salmog‘i %
1.	Siyosiy barqarorlik: kutilmagan hukumat to‘ntarishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faolligiga ta’sirini baholaydi	12
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat: xususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyojlarga bo‘lgan xarajatlar hajmi	6
3.	Milliylashtirish: beg‘araz ekspropriatsiya imkoniyatlaridan to mahalliy hokimiyatlarga imtiyozlar berishgacha	6
4.	Devalvatsiya: devalvatsiya ta’siri, hamda korxonalar faoliyatiga devalvatsiyaning ta’sirini yumshatuvchi choralarning hayotiyliigi	6
5.	To‘lov balansi: hisoblar balansi va umumiy balansga, hamda xorijiy investorlarning daromadlariga ta’sir etuvchi omillar	6
6.	Rasmiyatchilik masalalari: davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, bojxona rasmiyatchiliklarini amalga oshirilishi, valuta o‘tkazishlari va boshqa shunday operatsiyalar	4
7.	Iqtisodiy o‘shish sur’atlari: yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish sur’atlarining o‘shishi 3%, 3-6%, 6-10% va 10%dan yuqori chegaralarda	10

8.	Valutaning konvertirlangani: milliy valutaning xorijiy valutaga almashtirish imkoniyati, hamda milliy valutaning (korxonalariga zarur bo'lgan darajada) valutalar bozoridagi o'rni	10
9.	Sharnomani amalga oshirish imkoniyati: shartnomaga amal qilish imkoniyati, hamda til va urf-odatlardagi farq natijasida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi	6
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar: ish haqi darajasi, mehnat unumdorligi, ishga qabul qilish tartibi	8
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati: korxonalariga yuridik, buxgalteriya, marketing bo'yicha maslahatlar berish, texnologiya va qurilish ishlarini amalga oshirish sohalarida maslahatlar ko'tish imkoniyati	2
12.	Aloqa va transportni tashkil etish: faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo'llari va aloqa tizimini (mamlakat ichidagini ham) tashkil etish va foydalanish imkoniyati. Transport infratuzilmasini baholash	4
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor: boshqaruvning turli masalalarini yechishda o'z kapitali bilan qatnashish va hamkorlikda faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan mahalliy hamkorlarning soni va imkoniyatlari	4
14.	Qisqa muddatli kredit: xorijiy hamkorlarga qisqa muddatli kreditlar berish va ulardan foydalanish imkoniyati	8
15.	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital: hamkorlar tomonidan nizom kapitaliga o'z ulushlarini qo'shish shartlari va milliy valutada uzoq muddatli kredit berish shartlari	8

Doing Business indeksi. Doing Business indeksi – Jahon banki tomonidan yillik ma'lumotlar asosida tuzilgan dunyo mamlakatlari o'rtasidagi tadbirkorlikning soddaligini taqqoslash indeksidir. Indeksning eng yuqori reytinglari biznesni tartibga solishning qulayligi va sifati, shuningdek, mulk huquqlarini himoya qilish sifatini ko'rsatadi.

Doing Businessning umumiy indeksi quyidagi o'nta ichki ko'rsatkichlarga asoslanadi:

- biznesni boshlash – korxonani tashkil etish uchun protseduralar, vaqt, xarajatlar va minimal kapital;
- qurilish uchun ruxsatnomalar bilan ishlash – omborni qurish uchun protseduralar, vaqt va xarajatlar;
- elektr ta’minoti – elektr energiyasini olish uchun protseduralar, vaqt va xarajatlar;
- mulkni ro‘yxatga olish – tijorat ko‘chmas mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi, vaqti va xarajatlari;
- kredit olish – qonuniy huquqlarning mustahkamligi, kredit to‘g‘risidagi ma’lumotning to‘liqligi;
- investorlar huquqlarini himoya qilish – moliyaviy ko‘rsatkichlarning ochiqqligi, boshqaruv mas’uliyati va investorlarning davolarini ko‘rib chiqish osonligi;
- soliqlarni to‘lash – soliqlarning miqdori, soliq hisobotlarini tayyorlash vaqti, foydadan olinadigan jami soliq;
- xalqaro savdo – eksport va import uchun zarur hujjatlar soni, xarajatlar va vaqt;
- shartnomalarni kafolatlash – qarzni to‘lash tartibi, vaqti va xarajatlari;
- korxonalarni yopilishi – to‘lovga noqobil korxonani yopish uchun to‘lovga bo‘lgan foizlar, vaqt va qo‘shimcha xarajatlar.

Doing Business indeksining birinchi reytingi 2005-yilda e’lon qilingan. 2007-yildan 2016-yilgacha Singapur reytingni muttasil boshqarib turdi, 2017-yildan boshlab Yangi Zelandiya o‘z peshqadamligini namoyon etmoqda (3.3-jadval).

O‘zbekiston Respublikasida 2016-yildan boshlab iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichiga o‘tishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, ularning faoliyati uchun yengillik, qulaylik va imtiyozlarning yaratilishi natijasida mamlakatimiz Doing Business indeksi bo‘yicha 2015-yil 141 o‘rindan 2016-yilda 54 pog‘ona yuqorilab 87 o‘ringa, 2018-yilda esa 69 o‘ringa ko‘tarildi (3.3-jadval).

Doing Business indeksi bo'yicha dunyo davlatlari reytingi⁵¹

Davlatlar	Bahosi	Yillar										
		2020	2019	2018	2017	2016	2015	2014	2013	2012	2011	2010
Yangi Zelandiya	86,8	1	1	1	1	2	2	3	3	3	3	2
Singapur	86,2	2	2	2	2	1	1	1	1	1	1	1
Daniya	85,3	4	3	3	3	3	4	5	5	5	6	6
Gonkong	85,3	3	4	5	4	5	3	2	2	2	2	3
Koreya	84,0	5	5	4	5	4	5	7	8	8	16	19
Gruziya	83,7	7	6	9	16	24	15	8	9	16	12	11
Norvegiya	82,6	9	7	8	6	9	6	9	6	6	8	10
AQSH	84,0	6	8	6	8	7	7	4	4	4	5	4
Buyuk	83,5	8	9	7	7	6	8	10	7	7	4	5
Janubiy Makedoniya	80,7	17	10	11	10	12	30	25	23	22	38	32
Xitoy	77,9	31	46	78	78	84	90	96	91	91	79	89
Rossiya	78,2	28	31	35	40	51	62	92	112	120	123	120
Qozog'iston	79,6	25	28	36	35	41	77	50	49	47	59	63
O'zbekiston	69,9	69	76	74	87	87	141	146	154	166	150	150
Qirg'iziston	67,8	80	70	77	75	67	102	68	70	70	44	41
Tojikiston	61,3	106	128	123	128	132	166	143	141	147	139	152

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Xalqaro indeks va reytinglarda hozircha o'z o'rnini topgani yo'q. Shu sababli, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, shuningdek, respublikaning xalqaro indekslar va reytinglardagi o'rnini yaxshilashni ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevralda "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4210-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini monitoring qilish va baholash milliy tizimi yaratildi.

Boshqaruv sifati va siyosatning samaradorligini o'lchash, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonini baholash, tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqan holda islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini

⁵¹ https://www.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/pdf/db2020/Doing-Business-2020_rankings.pdf

ishlab chiqishga yordam beruvchi ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari Milliy monitoring tizimining tarkibiy qismi etib belgilandi.

2. Milliy monitoring tizimi faoliyatini tashkil etishning dastlabki bosqichi sifatida respublikadagi tadqiqot institutlariga alohida xalqaro reytinglar birlashtirildi va ularga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- xalqaro reytinglarning metodologik va boshqa tarkibiy qismlarini aniqlash, ularni amaldagi qonunchilikka implementatsiya qilish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi past ko‘rsatkichlariga sabab bo‘layotgan asosiy omillarni aniqlash;

- o‘zini o‘zi baholash uchun ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari asosida milliy indekslarni ishlab chiqish;

- loyihalar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yuksaltirishga to‘sqinlik qilayotgan normalarni aniqlash nuqtayi nazaridan ekspert tahlil qilish hamda tahlil natijalariga ko‘ra tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

- O‘zbekiston Respublikasining tegishli reytinglardagi rivojlanish jarayoni to‘g‘risidagi axborotlarni, shuningdek, baholanayotgan yo‘nalishlar bo‘yicha tavsiyalar va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘z ichiga olgan axborotlar ma’lumot bazasini yaratish;

- O‘zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashga to‘sqinlik qilayotgan mavjud haqiqiy muammolarning tizimli tahlilini olib borish, ularni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- xalqaro tashkilotlar, reyting agentliklari va ilmiy muassasalarning ekspertlari bilan hamkorlik o‘rnatish va konstruktiv muloqotni yo‘lga qo‘yish;

- tegishli tarmoqlardagi muammolarni aniqlash va ahvolni o‘rganish uchun ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish, shuningdek, mamlakatda keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish doirasida turli sohalarda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar to‘g‘risida jamoatchilik va xalqaro reyting agentliklarini xabardor qilish.

Baholash indekslari va reytinglaridan tashqari alohida mamlakatlarning investitsiya muhiti jozibadorligini baholashning tadqiqotchilar va olimlarning usullari ham mavjud. Xususan, ko‘pchilik olimlar investitsion muhit jozibadorligini baholash uchun

integral ko‘rsatkich (K) barcha omillar bo‘yicha bahoning o‘rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblashadi:

$$K = \frac{K_1 \cdot l_1 + K_2 \cdot l_2 + \dots + K_n \cdot l_n}{\sum_{i=1}^n l_i},$$

Bu yerda,

K_1, K_2, \dots, K_n – xususiy ko‘rsatkichlar, ya’ni moliyaviy, iqtisodiy, siyosiy;

l_1, l_2, \dots, l_n – xususiy ko‘rsatkichlarning vazni.

Investitsiya muhiti jozibadorligini baholashning tarkibiy ko‘rsatkichi investitsiyalar uchun ma’lum bir iqtisodiy tizimning jozibadorligi uchun aniq bir mezon bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas. Odatda, investitsiya muhiti holati va dinamikasi bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ma’lum omillarning rivojlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi⁵².

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim Sh. Mustafakulov investitsiya muhiti jozibadorligini aniqlashni yagona formula orqali izohlaydi⁵³:

$$IJ_{kj} = X * IJ_{xj} + Y * IJ_{tj}$$

Bu yerda

IJ_{kj} - j mamlakatning kompleks investitsion jozibadorligi;

IJ_{xj} - j mamlakatning ma’lum bir (tahlil qilinayotgan) hududining investitsion jozibadorligi;

IJ_{tj} - j mamlakatning ma’lum bir tarmog‘ining investitsion jozibadorligi;

X, Y – har bir investitsion jozibadorlik ko‘rsatkichlarining solishtirma og‘irligi/vazni.

Mamlakatning hududiy va tarmoq bo‘yicha investitsion jozibadorlik ko‘rsatkichlarini baholash uchun quyidagilar aniqlanishi lozim: iqtisodiy qaytim (investitsiya mablag‘lari yo‘naltirilgan biznesdan (obyekt) keladigan daromad); investitsiya riski (mamlakatning (hudud va tarmoq bo‘yicha) turli xildagi risk darajasi hisoblanadi).

⁵² Сухинова С.Е. Региональная специфика инвестиционного климата. – Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2004.

⁵³ Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo‘llanma. –T.: Baqtriya press, 2017. –b.53.

$$IJ_{x(m)j} = DD_{x(m)j} * (1 - RD_{x(m)j})$$

Bu yerda:

$IJ_{x(m)j}$ – mamlakatning hududiy/tarmoq bo‘yicha investitsion jozibadorligi;

$DD_{x(m)j}$ – hududiy/tarmoq bo‘yicha investitsiya mablag‘lari yo‘naltirilgan biznes (obyekt)ning daromadlilik yoki iqtisodiy qaytimi;

$RD_{x(m)j}$ – hududiy/tarmoqqa yo‘naltirilgan investitsiyaning risklilik ko‘rsatkichi.

Nazorat uchun savollar

1. Investitsiya siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. Davlatning tashqi investitsiya siyosatiga tushuncha bering.
3. Investitsiya siyosatiga qanday omillar ta’sir qiladi?
4. Investitsiya siyosatining ishlab chiqish bosqichlarini izohlab bering.
5. Jahon iqtisodiyoti amaliyotida investitsiya siyosatining nechta modeli mavjud?
6. Investitsiya muhiti nima va uni baholashning qanday usullari mavjud?
7. O‘zbekistonda investitsiya siyosatini bugungi holatini tushuntirib bering.
8. Mamlakat investitsiya muhitini yaxshilash uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim?
9. Mamlakat investitsiya muhiti jozibadorligi nima va uni oshirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim?
10. Investitsiya muhiti jozibadorligini baholashning qanday usullarini bilasiz?

4-BOB. INVESTITSIYA LOYIHASI VA UNI MOLIYALASHTIRISH

4.1. Investitsiya loyihasi tushunchasi, uning maqsadi va qatnashchilari

Loyiha lotincha soʻzdan olingan boʻlib, “oldinga qoʻymoq” degan maʼnoni bildiradi.

Xorijiy adabiyotlarda **loyiha** – talab etilayotgan natija va olingan maʼlumotlar asosida maʼlum vazifalarni bajarish uchun qabul qilingan qarorni amalga oshirish usullari.

Iqtisodiy adabiyotlarda, investitsiya loyihasi – maʼlum maqsadga erishishni taʼminlash uchun qandaydir harakatlar kompleksini amalga oshirish uchun tuzilgan tadbir, faoliyat, ish hisoblanadi.

Agar “loyiha” tushunchasiga iqtisodiy tizimning faoliyati nuqtayi nazaridan qaralsa, uning shakllanishi boʻyicha uchta jihatni aniqlash mumkin. Birinchidan, kelajakdagi ishning maqsadi aniqlanadi: ishlab chiqarish hajmini oshirish, sifatni yaxshilash, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, xarajatlarni kamaytirish va boshqalar. Ikkinchidan, maqsadga erishish uchun aniq vazifalar belgilanadi. Uchinchidan, qoʻyilgan vazifalarni bajarish yoʻllari aniqlanadi. Maqsad va vazifalarni belgilashda natija iqtisodiy samara olishga qaratilishi kerak. Hatto, yangi noyob texnologiyani joriy etish ham texnologik tajriba emas, balki u korxonani yanada rivojlantirish va bozorda yuqori oʻrinni egallash uchun xizmat qilishi shart.

Umumiy olganda “investitsiya loyihasi” tushunchasi belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni oʻzida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qarash mumkin. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonunida quyidagicha taʼrif berilgan, yaʼni *investitsiya loyihasi* – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, oʻzaro bogʻliq boʻlgan tadbirlar majmui majmuidir⁵⁴.

⁵⁴ Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati”gi OʻRQ-598-son Qonuni.

Investitsiya loyihasi o‘z maqsadi, yo‘nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo‘lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to‘liq va mukammal hisob-kitoblarga asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, investitsiya loyihasini qo‘shimcha daromad olish maqsadida investitsiyalar ishtirokidagi iqtisodiy muammolarni hal qilish dasturi sifatida qarash mumkin. Shuning uchun har qanday loyiha to‘rtta jihat bilan tavsiflanadi: muayyan maqsadlarga aniq e‘tibor qaratish, ko‘lami, boshlanishi va tugashi o‘rtasidagi vaqt, cheklangan moliyaviy va boshqa manbalar. Loyihaga sarmoya kiritish va investitsiyalardan daromad olishni boshlash o‘rtasidagi vaqt oralig‘i vaqt fazasi deb nomlanadi.

Ayrim adabiyotlarda, loyiha deganda fizik obyektlar, texnologik jarayonlar, ular uchun texnik va tashkiliy hujjatlarni, moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqa manbalarni, shuningdek, boshqaruv qarorlari va ularni bajarish choralarini amalga oshirish uchun yaratilgan yoki modernizatsiya qilingan maqsadlar tizimi tushuniladi⁵⁵.

Boshqa adabiyotlarda esa, investitsiya loyihasi – bu maqsadlarga erishish (ma‘lum natijalarga erishish)ni ta‘minlaydigan har qanday harakatlar majmuasini amalga oshirishni o‘z ichiga oladigan biznes, faoliyat, tadbir, ya‘ni hujjatlar va faoliyat, sifatida talqin etiladi⁵⁶.

D.E. Starikovning ta‘kidlashicha, investitsiya loyihasi – investitsiyalar hajmi va muddatlarining iqtisodiy maqsadga muvofiqligini asoslash, shu jumladan mamlakat qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqilgan zarur loyiha-smeta hujjatlari va belgilangan tartibda tasdiqlangan standartlar (normalar va qoidalar), shuningdek, investitsiyani amalga oshirish bo‘yicha amaliy harakatlarning tavsifi⁵⁷.

Rossiyalik boshqa olimlar, investitsiya loyihasini investitsiyalarni jalb qilishni talab etadigan iqtisodiy tadbir yoki tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish uchun reja (dasturi) sifatida qarashadi⁵⁸.

Bunday yondashuv investitsiyalash davriga (yil, chorak, oy), shuningdek, qoida tariqasida investitsiyalarning dolzarbligiga (qisqa muddatli va uzoq muddatli) qaratilgan.

⁵⁵ Шапиро В.Д. Управление проектами. -СПб.: ДваТри, 1996.

⁵⁶ Методические рекомендации по оценке эффективности инвестиционных проектов. 2-е изд. -М.: Экономика, 2000.

⁵⁷ Стариков Д.Э. Расчеты эффективности инвестиционных проектов. -М.: ЗАО «Финстатинформ», 2001. - С.5.

⁵⁸ Завалин П.Н., Васильев А.В., Кноль А.И. Оценка экономической эффективности инвестиционных проектов (современные подходы). -СПб.: Наука, 1995. -С. 31.

Shunday qilib, investitsiya loyihasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: amalga oshirish, davomiylik, pul oqimlari, uning maqsadga muvofiqligi va o‘ziga xos xususiyatlarga asoslanishi.

“Investitsiya loyihasi” tushunchasi ikki ma’noda foydalaniladi:

– ma’lum bir maqsadga erishishni ta’minlaydigan har qanday harakatlar majmuasini amalga oshirishni o‘z ichiga olgan faoliyat, ish sifatida. Bunday holda, “iqtisodiy faoliyat”, “ish”, “loyiha” atamalari bir-biriga yaqin bo‘ladi;

– har qanday xatti-harakatlarni bajarish yoki bunday harakatlarning tavsifi uchun zarur bo‘lgan tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hujjatlar tizimi sifatida⁵⁹.

Har qanday investitsiya loyihasi to‘rtta fazani o‘z ichiga oladi.

Birinchi, preinvestitsion faza bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– investitsiyalar konsepsiyasini (biznes g‘oyalar) izlash;
– loyihani oldindan tayyorlash;
– yakuniy g‘oyani shakllantirish va uning texnik-iqtisodiy va moliyaviy holatini baholash;

– loyihani yakuniy ko‘rib chiqish va u bo‘yicha qaror qabul qilish.

Ikkinchi faza investitsion bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– muzokaralar olib borish va shartnomalar tuzish;
– muhandis-texnik loyihalashtirish;
– qurilish;
– ishlab chiqarish marketingi;
– o‘qitish;
– foydalanishga topshirish va ishga tushirish.

Uchinchi faza operatsion bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– kengaytirish;
– innovatsiya;
– almashtirish;
– reabilitatsiya.

To‘rtinchi tugatish fazasi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– ishlab chiqarishni tugatish;
– uskunalarni demontaj qilish va ularni yo‘q qilish;
– foydalanilmagan aktivlarni sotish.

⁵⁹ Кныш М.И., Перекатов Б.А., Тютиков Ю.П. Стратегическое планирование инвестиционной деятельности. -СПб.: Бизнес-пресса, 1998. -С. 89.

Har bir faza muayyan moliyaviy resurslarni talab qiladi. Ushbu yondashuv investitsiyalarga ehtiyojning tuzilishini va davrlarini aniqlashga imkon beradi.

Shunday qilib, statistik ma'lumotlarga ko'ra, preinvestitsion faza uchun xarajatlar 3%, rejalashtirish – 5%, loyihalashtirish – 20%, qurilish (foydalanishga topshirish) – 60% va yakuniy bosqich uchun – 12% ni tashkil etadi.

Demak, investitsiya loyihasi deganda, g'oyaning texnik-iqtisodiy asosini, uni amalga oshirish yo'llari va choralari, moliyalashtirishning manbalari va bosqichlari, boshqaruvning iqtisodiy samarasi va davlat xavfsizligiga yo'naltirilgan rasmiylashtirilgan hujjat tushunilishi kerak.

Loyiha barcha materiallarni to'liq o'rganishni o'z ichiga oladi: mavjud texnologiyalar, usullar, me'yoriy-huquqiy baza, amalga oshirilayotgan g'oyaning hayotiy faoliyati va moliyaviy resurslarga ehtiyoj.

G'oyaning murakkabligi va amalga oshirish maqsadi va vositalariga qarab investitsiya loyihalarni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- aniq (mahsulot, xizmat, bilim va boshqalar);
- mavhum (prognozlar, rejalar, usullar va boshqalar);
- joriy (texnologiya, hujjatlar va boshqalar);
- yakuniy (foйда, bozorni diversifikatsiya qilish, xarajatlarni kamaytirish, ijtimoiy muammolarni hal qilish va boshqalar).

Investitsiya loyihalarni turli mezonlarga ko'ra ham tasniflash mumkin. Ko'pincha loyihalar darajasi (kichik, o'rta va megaloyiha), amalga oshirish muddati (qisqa, o'rta va uzoq muddatli), cheklangan manbalar (multiloyiha va monoloyiha), sifat talablari, maqsadi, ishtirokchilar tarkibi va boshqalar bo'yicha ajratiladi (13.1-rasm).

Kichik loyihalar, odatda, oddiy va miqdori jihatdan cheklangan bo'ladi. Megaloyihalar – bu umumiy maqsad bilan birlashtirilgan o'zaro bog'liq loyihalar majmui. Bunday loyihalar uzoq muddatli amalga oshirish, katta miqdordagi moliyaviy xarajatlar va ishchi kuchi talab qilishi bilan tavsiflanadi. Murakkab loyihalar ko'p kuch, vaqt va xarajatlarni talab qiladigan nostandart vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Ba'zi loyihalarni amalga oshirishda, bajarilish sifatiga alohida e'tibor beriladi, chunki nafaqat mahsulot sifati, balki obyektning faoliyat xavfsizligi ham bunga bog'liq bo'ladi. Bunday loyihalarning qiymati va sifat talablari juda yuqori.

Ko'lami va aniq maqsadini aks ettiruvchi turlariga ko'ra, investitsiya loyihalari bir nechta guruhlariga bo'linadi (13.1-rasm):

1. Ishlab chiqarish investitsiya loyihalari.
2. Ilmiy-texnik investitsiya loyihalari.
3. Tijorat investitsiya loyihalari.
4. Moliyaviy investitsiya loyihalari.
5. Ijtimoiy-iqtisodiy investitsiya loyihalari.
6. Ekologik investitsiya loyihalari.

Investitsiya loyihalari					
Darajasiga ko'ra	Maqsadiga ko'ra	Shakliga ko'ra	Amalga oshirish muddatiga ko'ra	Murakkabligiga ko'ra	Manbalariga ko'ra
Kichik loyiha	Ishlab chiqarish	Innovatsion	Qisqa muddatli	Aniq	Multiloyiha
O'rta loyiha	Ilmiy-texnik	Ilmiy-tadqiqot	O'rta muddatli	Mavhum	Monoloyiha
Megaloyiha	Tijorat	Ta'lim	Uzoq muddatli	Joriy	
	Moliyaviy	Aralash		Yakuniy	
	Ijtimoiy-iqtisodiy				
	Ekologik				

4.1-rasm. Investitsiya loyihalarining klassifikatsiyasi⁶⁰

Ishlab chiqarish investitsiya loyihalari iqtisodiyotning turli tarmoqlari, shu jumladan uy-joy, ijtimoiy va boshqa sohalar uchun asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, kengaytirish, modernizatsiya qilish yoki rekonstruksiya qilishga investitsiyalarni jalb qilishni o'z ichiga oladi.

Ilmiy-texnik investitsiya loyihalari eng yangi yuqori samarali mashinalar, uskunarlar, texnologiyalar va texnologik jarayonlar, yangi xususiyatlarga ega yangi yuqori samarali mahsulotlarni ishlab chiqish va yaratishga qaratiladi. Ilmiy-texnik va ishlab chiqarish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'pincha o'zaro bog'liqdir.

Ilmiy-texnik investitsiya loyihalarini amalga oshirish turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlarni ko'rsatish, yangi yaratilgan qiymatni shakllantirish uchun asos bo'lgan asosiy vositalarning sifat jihatidan yangilanishi uchun sharoit yaratadi.

⁶⁰ Mualliflar tomonidan tuzilgan.

Tijorat investitsiya loyihalarining maqsadi investitsiyalarni qandaydir mahsulot, tovar, xizmatlarni sotib olish, sotish va qayta sotishga jalb etish natijasida foyda olishdir.

Tijorat investitsiya loyihalarining daromadi yangi tashkil qilingan moddiy ishlab chiqarish sohasini qayta taqsimlash natijasidagi qiymati hisoblanadi. Agar olingan daromad, foyda ishlab chiqarish yoki ilmiy-texnik investitsiya loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash manbai bo'lsa, tijorat investitsiya loyihalarini amalga oshirishning samarasi kapitalni tashkil qilishi mumkin.

Moliyaviy investitsiya loyihalari qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish va ularni sotish, qarz moliyaviy majburiyatlarini sotib olish va sotish, shuningdek, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va sotish bilan bog'liq. Uning uch varianti mavjud.

Birinchi holatda investor – qimmatli qog'ozlarni sotib oluvchi va egasi – ulardan dividendlar oladi va moliyaviy kapitalini oshiradi. Kapitalning o'sish manbai ishlab chiqarish investitsion loyihalarni amalga oshirish hisoblanadi.

Ikkinchi holatda investor – qarz majburiyatlarini sotib oluvchi va sotuvchi ham moliyaviy kapitalini oshiradi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotda umumiy kapitalning o'sishi kuzatilmaydi.

Uchinchi holatda moliyaviy investitsiya loyihasini amalga oshirish ishlab chiqarish investitsiya loyihasini amalga oshirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va sotish bo'yicha loyihani amalga oshiruvchi investor, ishlab chiqarish investitsion loyihani moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasini hal qiladi.

Ekologik investitsiya loyihalarini amalga oshirishning pirovard natijasi tabiatni muhofaza qilish obyektlari qurish yoki atmosferaga zararli chiqindilarni kamaytirish, faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish korxonalari va ekspluatatsiya xizmatlarining xususiyatiga ta'sir ko'rsatish hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy investitsiya loyihalari ma'lum bir ijtimoiy foydali maqsadga, shu jumladan mamlakat va mintaqalardagi sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat holatini sifat jihatidan yaxshilash uchun yaratiladi.

Aniq xo'jalik yurituvchi subektlar nuqtayi nazaridan, investitsiya loyihalarni moliyalashtirish manbalari o'z (ichki) va tashqi mablag'lardan iborat bo'ladi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar uchun o'z mablag'lari manbalari quyidagilardan iborat:

- asosiy vositalarning eskirishi (ularni yangilash);
- ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilgan sanoat-xo'jalik faoliyatdan olinadigan foyda;
- sug'urta kompaniyalaridan tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalar natijasida yetkazilgan zararni qoplash shaklida olingan summalar;
- keraksiz asosiy vositalarni sotishdan, ortiqcha aylanma mablag'larni immobilizatsiya qilishdan tushgan mablag'lar;
- nomoddiy aktivlarni realizatsiya qilish mablag'lari (davlat qimmatli qog'ozlari, patentlar va boshqalar).

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb qilingan mablag'lar:

- investor tomonidan aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va sotish natijasida olingan mablag'lar;
- sheriklik va dividendlarni taqsimlashda ishtirok etish uchun tegishli shartlar asosida investitsion loyihada ishtirok etgan boshqa korxonalar va tashkilotlarning mablag'lari;
- yuqori turuvchi xolding kompaniyalari va aksiyadorlik jamiyatlari, sanoat-moliya guruhlari tomonidan qaytarmaslik asosida ajratiladigan mablag'lar.

Tashqi moliyalashtirish manbalariga quyidagilar kiradi:

- qaytarish shartlari asosida beriladigan budjet ssudalari;
- turli moliyaviy, pensiya jamg'armalari va boshqa institutsional investorlarning bank va tijorat kreditlari;
- mahalliy budjetlar va turli xil tadbirkorlik fondlaridan qaytarmaslik asosida ajratiladigan mablag'lar;
- qo'shma korxonalarining ustav fondida moliyaviy yoki boshqa moddiy va nomoddiy ishtirok ko'rinishidagi xorijiy investitsiyalar.

Loyiha ishtirokchilarining tarkibi, ularning roli, funksiyalari va majburiyatlarining taqsimlanishi loyihaning hayotiy siklining turi, shakli, ko'lami, murakkabligi va fazalariga bog'liq. Loyihaning hayotiy sikli davomida amalga oshirish bilan bog'liq funksiyalar doimiy bo'lib, ishtirokchilar tarkibi, ularning roli, vazifalari va majburiyatlari taqsimlanishi o'zgarishi mumkin. Loyihaning asosiy ishtirokchilari:

1) **tashabbuskor** – loyihaning asosiy g'oyasi, uning dastlabki asoslanishi va uni amalga oshirish bo'yicha takliflarning muallifi. Bu kelajakdagi loyihaning har qanday ishtirokchisi bo'lishi mumkin, ammo odatda tashabbus mijozdan chiqadi;

2) **buyurtmachi** – loyihaning asosiy talablari va ko‘lamini belgilovchi, loyihani moliyalashtirishni ta’minlaydigan, ijrochilar bilan shartnomalar tuzadigan, barcha ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonini boshqaradigan va loyiha uchun javobgar bo‘lgan, loyiha natijalarining kelajakdagi egasi va foydalanuvchisi;

3) **investor** – loyihani amalga oshirishdan olgan foydasini maksimal darajada oshirish maqsadida loyihaga mablag‘ kiritadigan tomon. Investorlar mijozlar bilan shartnoma munosabatlarini o‘rnatadilar va loyihaning sheriklari va mijozlar bilan shartnoma tuzilgunga qadar o‘z investitsiyalari hisobiga sotib olingan mulk egalari hisoblanadilar;

4) **loyiha menejeri (loyiha rahbari)** – buyurtmachi va investor loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyatni boshqarish vakolatini beradigan yuridik shaxs. Funktsiyalar va vakolatlar tarkibi mijoz bilan tuzilgan shartnomada belgilanadi;

5) **loyiha jamoasi (ishchi guruh)** – loyihani amalga oshirish davrida tuzilgan va menejer tomonidan boshqariladigan tashkiliy tuzilma. Uning vazifasi – maqsadlarga samarali erishgunga qadar loyihani boshqarish funksiyalarini bajarishdir;

6) **pu dratchi** – buyurtmachi bilan munosabatlarni o‘rnatadigan va shartnoma bo‘yicha ishlar va xizmatlarning bajarilishi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan loyihaning ishtirokchisi. Pu dratchining funksiyalari mijoz bilan shartnoma tuzish, subpu dratchilar bilan shartnomalar tuzish, ularning ishlarini muvofiqlashtirish, hamkasblarining ishini qabul qilish va haq to‘lash;

7) **subpu dratchi** – pu dratchilar yoki yuqori darajadagi subpu dratchilar bilan shartnoma munosabatlariga kirishadi va shartnomaning bajarilishi uchun javobgardir;

8) **litsenziya beruvchilar** – yer uchastkasiga egalik qilish, kim oshdi savdolarini o‘tkazish, muayyan ish turlarini bajarish va boshqalar huquqi uchun litsenziyalar beradigan tashkilotlar;

9) **ma’muriyat** – soliqlarni to‘lash orqali o‘z manfaatlarini qondirish va loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq ekologik, ijtimoiy jamoaviy va boshqa talablarni qo‘yish;

10) **loyihaning yakuniy mahsulotini ishlab chiqaruvchi** – belgilangan asosiy vositalardan foydalanadi va tayyor mahsulot ishlab chiqaradi. Uning roli va funksiyalari loyihaning yakuniy natijalaridagi mulk ulushiga bog‘liq. Odatda loyihada mijoz yoki investor bo‘ladi;

11) **tayyor mahsulotni ishlab chiqaruvchilar** – tayyor mahsulotga talabni shakllantiradigan va belgilaydigan, ishlab chiqariladigan mahsulotni xaridorlari va foydalanuvchilari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar. Iste’molchilar hisobidan loyihaning xarajatlari qoplanadi va loyiha barcha ishtirokchilarining foydasi shakllanadi.

4.1-jadval

Investitsiya loyihasi ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari⁶¹

Loyiha ishtirokchisi-ning funksiyasi	Loyiha ishtirokchisi												
	M	LR	L	BL	SP	B	HT	YeB	YeE	LB	M	MCh	MI
Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish	x	+											
Loyiha hayotiyligini baholash	x					+							
Loyihani ishlab chiqish	+	X											
Texnologik jarayonlarni ishlab chiqish	x		+					+		+	+	+	
Yer uchastkasini tanlash	x	+	+				+		+				
Dastlabki loyihalashtirish	x	+	+							+		+	
Shartnomalar tuzish (savdo)	x	X	+	+	+	+		+	+	+	+	+	
Mufassal loyihalashtirish		+	x	+				+		+	+	+	
Xarid qilish, yetkazib berish	x	+		+	+	+		x		+	+	+	
Qurilish-montaj ishlari		+		+	X	+				+		+	
Ishlarni nazorat qilish	+	X	+	+							x	+	
Mahsulotlarni o‘zlashtirish va chiqarish	x	+	+			+				+	+	x	+

Shartli belgilar: M – mijoz; LR – loyiha rahbari; L – loyihalashtiruvchi; BL – bosh loyihalashtiruvchi;

⁶¹ Mualliflar tomonidan tuzilgan.

SP – subpudratchi; B – banklar; HT – hukumat tashkilotlari; YeB – yetkazib beruvchilar; YeE – yer egasi; LB – litsenziya beruvchilar; M – muhandis; MCh – mahsulot ishlab chiqaruvchilar; MI – mahsulot iste'molchilari; x – ko'rsatilgan bosqichda ushbu ishtirokchi bu funksiyani bajarmaydi; + - funksiyani bajaradi.

Investitsiya loyihasi ishtirokchilarining asosiy funksiyalarini bajarish bo'yicha o'zaro ta'siri 4.1-jadvalda keltirilgan.

4.2. Pul oqimlarini diskontlash

Pul oqimi loyihani amalga oshirish natijasida xo'jalik subyektlarning hisob raqamlari va kassasiga haqiqatda tushgan (kiradigan pul oqimi) va tashqi agentlarga to'lanadigan (chiqadigan pul oqimi) pul mablag'larning yig'indisi hisoblanadi.

Kiradigan pul oqimi o'z mohiyatiga ko'ra, loyihaning moliyaviy natijasi bo'lib, uning shakllanish manbalariga mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushgan tushum; tashqi agentlarning kredit va qarz mablag'lari; aksiyalar qo'shimcha emissiyasi hisobiga jalb qilinadigan aksiyadorlik sarmoya; loyihaga jalb qilinadigan va loyihani yakunlash paytida baholanadigan aktivlarni sotishdan tushgan tushum; aniq loyiha bilan bog'liq boshqa daromadlar kirishi mumkin.

Chiqadigan pul oqimi loyihaga dastlabki sarmoya qo'yilmalarning miqdorini aniqlovchi investitsiya xarajatlarini hamda odatda loyihaga jalb qilingan asosiy aktivlarga amortizatsion ajratmalarni⁶² hisobga olmagan holda ishlab chiqarish sotish xarajatlarni o'z ichiga olgan loyiha bo'yicha joriy moliyaviy to'lovlarni; kredit va qarz mablag'lari uchun to'lovlar; soliq to'lovlari; boshqa foydadan to'lovlar, shu jumladan qo'shimcha aksiyadorlik sarmoyaga dividendlarni to'lashni o'z tarkibiga olgan.

Sof pul oqimi investitsion davrining muayyan vaqt davr mobaynida haqiqiy pul mablag'larning kirimining va haqiqiy pul mablag'larning chiqimiga ayirmasi bilan ifodalanadi:

$$NCF_t = CIF_t - COF_t$$

bu yerda,

NCF_t - t vaqt oralig'ida sof pulning oqimi;

⁶² Amortizatsion ajratmalar nominal pul xarajatlari hisoblanadi. Ular iqtisodiy subyektlarning xarajatlar tarkibiga kiritilib, soliq solish foydasini kamaytiradi. Ammo, haqiqatda amortizatsion ajratmalar tashqi agentlarga to'lanmaydi va iqtisodiy subyektlarida jamg'ariladi

CIF_t - t vaqt oralig'ida kiradigan pul oqimi;

COF_t - t vaqt oralig'ida chiqadigan pul oqimi.

Moliyaviy ko'rsatkichlarning prognozini investitsion davrining oralig'i bo'yicha tabaqalashgan holda amalga oshirish lozim. Investitsion davr oralig'i sifatida oy, chorak yoki yil deb qabul qilish mumkin. Muayyan oraliqni birinchidan, pul kirimi va to'lovlarning rejalashtirilgan davriyligidan, ikkinchidan har bir oraliq bo'yicha prognozni olish aniqligidan kelib chiqqan holda tanlash lozim. Uzoq muddatli loyihalar uchun investitsion davrlarni turli oralqlarga bo'lish tavsiya etiladi. Masalan, loyiha amalga oshirilishining birinchi yil uchun oraliq odatda bir oy yoki chorak, keyingi yillar uchun – bir yil deb qabul qilinadi.

Innovatsiya loyihalari pul oqimlari bilan tavsiflanib, ular odatda, investitsion davrning alohida oralig'i davomida turli intensivligiga ega. Bunda sof pul oqimi loyiha bo'yicha investitsion xarajatlar sarflanayotgan paytida loyihaning boshlang'ich, investitsion bosqichida salbiy bo'lishi mumkin va aksincha, joriy kirimlar joriy to'lovlar miqdoridan oshib ketadigan paytda, loyihaning foydalanish bosqichida ijobiy tus oladi.

Loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun loyihaning potensial ishtirokchilar tomonidan turli vaqt oralig'ida olinadigan yoki sarflanadigan pul mablag'larning turli qiymatlarini hisobga olish lozim. Turli vaqtdagi pul oqimlarini taqqoslash *diskontlash* – turli vaqtdagi pul oqimini (kirimni va to'lovlarni) yagona vaqt paytiga keltirish uslubi bilan amalga oshiriladi. Diskontlash uslubining mohiyati kelgusida turli vaqtlarda to'lanadigan va/yoki olinadigan pul mablag'larning ekvivalentini topishdan iborat:


$$P = \varphi(F_t)$$

bu yerda,

P (present value) – pul mablag'larning joriy bahosi;

F_t (future value) – t vaqt paytida to'lanadigan (olinadigan) pul mablag'lar (kirimlar va/yoki to'lovlar) miqdori.

Kelgusi kirimlar (to'lovlar)ning pul ekvivalentini aniqlashga imkon beradigan hisoblash uslubi sifatida murakkab foizlar formulasi qo'llaniladi. Endi ushbu formulani yagona to'lov shakli sifatida oddiy pul oqimi uchun qo'llashni ko'rib chiqamiz. Uning diagrammasi 4.2-rasmda berilgan.



4.2-rasm. Yagona joriy pul miqdori va yagona kelgusi pul miqdori

Agar n yildan keyin R foiz stavkalarida joriy pul miqdorining pullik ekvivalentini P aniqlash zarurati bo'lsa, kelgusi pul miqdori F quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$F = P(1 + R)^n$$

bu yerda,


n – joriy va kelgusi vaqt paytlarini ajratadigan foizli davrlarning soni (foizlarni qo'yishlar soni).

Agar n yildan keyin R foiz stavkalarida kelgusi pul mablag'lar F joriy pul miqdorining pullik ekvivalenti P aniqlash zarurati tug'ilsa, quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$P = \frac{1}{(1 + R)^n}$$

Agar pul oqimi miqdor jihatdan teng bo'lgan va doimo amalga oshiriladigan to'lovlar bilan amalga oshirilsa ekvivalentni hisoblash yanada murakkablashadi.

Xususan, n yildan keyin R foiz stavkalarida teng to'lovlar seriyaning kelgusi ekvivalentini A aniqlash uchun (4.3-rasm), quyidagi misoldan foydalanamiz.



4.3-rasm. Teng to'lovlar seriyalari va yagona kelgusi pul miqdori

MISOL.

Faraz qilamizki, har yili bankning omonat hisob raqamiga 100 ming so‘m qo‘yiladi. Omonat hisob raqamidagi foiz stavkasi butun davr mobaynida yiliga 12% tashkil etadi. 5 yil ichida hisob raqamida qancha mablag‘ yig‘iladi?

Topish lozim bo‘lgan ko‘rsatkichning hisob-kitob ketma-ketligi 4.2-jadvalda keltirilgan bo‘lib, u quyidagilardan iborat. Omonat hisob raqamiga qo‘yilgan birinchi pul miqdori - 100 ming so‘m 4 yildan keyin miqdori, 157,35 ming so‘mga oshadi. Ikkinchisi, bir yildan keyin qo‘yilgan pul miqdori 140,49 ming so‘mga oshadi va boshqalar. Chunki so‘nggi pul mablag‘i 5 yil oxirida kiritilgan, unga foiz stavkalari hisoblanmaydi.

4.2-jadval

Har yilgi to‘lovlar seriyalarning murakkab foizlar summasi

Yil oxiri	Har yilgi to‘lovlar seriyalarning murakkab foizlar koeffitsiyenti	5 yil oxirida murakkab koeffitsiyenti	Umumiy pul miqdori, F
1	$100 (1,12)^4$	157,35	635,28
2	$100 (1,12)^3$	140,49	
3	$100 (1,12)^2$	125,44	
4	$100 (1,12)^1$	112,00	
5	$100 (1,12)^0$	100,00	

Kelgusi pul miqdorini F hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$F = A + A(1 + R) + \dots + A(1 + R)^{n-2} + A(1 + R)^{n-1}$$

Ushbu ifodani $(1 + R)$ ko‘paytiramiz:

$$F(1 + R) = A(1 + R) + A(1 + R)^2 + \dots + A(1 + R)^{n-1} + A(1 + R)^n$$

Ikkinchi ifodadan birinchi ifodani ayirib, quyidagicha hosil qilamiz:

$$F(1 + R) - F = -A + A(1 + R)^n$$

Natijada n foizli davrlardan keyin R foiz stavkalarida miqdori bo'yicha teng va doimo amalga oshiriladigan to'lovlar seriyadagi pul oqimining A pullik ekvivalentini F hisoblash uchun quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$F = A \left[\frac{(1+R)^n - 1}{R} \right]$$

n foizli davrlardan keyin kelgusi pul miqdori ekvivalentiga F teng bo'lgan R foiz stavkalarida miqdor bilan teng va doimo amalga oshiriladigan to'lovlar seriyadagi pul oqimini A aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$A = F \left[\frac{R}{(1+R)^n - 1} \right]$$

MISOL.

Agar har yili murakkab foizni yiliga 12% stavkalar bilan 5 to'lovlar seriyalarni amalga oshirgan holda 6 000 so'm jamg'arish talab qilinadigan bo'lsa, har yili quyidagi miqdorda to'lovlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi:

$$A = 6000 \times 0,12 / [(1 + 0,12)^5 - 1] = 6000 \times 0,1574 = 944,4$$

Amaliyotda joriy pul miqdori P bilan n foizli davr mobaynida R foiz stavkalarida doimo amalga oshiriladigan to'lovlar miqdori A bo'yicha teng seriyadagi pul oqimining o'rtasidagi ekvivalentligini o'rnatish masalalari doimo yuzaga chiqadi.

MISOL.

Investitsiya loyihasi bilan savdo lizing shartlari bo'yicha asbob-uskunalarni sotib olish ko'zda tutilgan. Asbob-uskunaning qiymati 2 000 000 doll.ga teng. Shartnoma shartlariga ko'ra oldindan to'lanadigan to'lov (avans) asbob-uskuna qiymatining 50%ni tashkil etadi. Keyingi to'lovlar yiliga 10% stavkalarida 10 to'lovlarga teng seriyalarda har chorakda amalga oshiriladi. Har chorakdagi to'lovlar miqdorini aniqlang.

Buning uchun p foizli davr mobaynida R foiz stavkalarida joriy pul miqdori P ekvivalentiga teng bo'lgan to'lovlar miqdorini A aniqlash lozim. Buning uchun ilgari hosil bo'lgan bog'liqlikdan foydalanib, quyidagi ko'rinishdagi ifodani hosil qilamiz:

$$A = F \left[\frac{R}{(1+R)^n - 1} \right] = P(1+R)^n \left[\frac{R}{(1+R)^n - 1} \right] = P \left[\frac{R(1+R)^n}{(1+R)^n - 1} \right]$$

Hosil bo'lgan formulani keltirilgan misolda lozim bo'lgan miqdorini A ni topish uchun qo'llashga harakat qilamiz. Agar shartnoma shartlariga ko'ra, oldindan to'lanadigan to'lov 1 000 000 doll.ni tashkil etadigan bo'lsa, har chorakda hisoblanadigan 10% stavka foizi bo'yicha 10 to'lovlar seriyalarda namoyon bo'lgan (10%:4 =2,5%) qolgan mablag' miqdori P ekvivalentini aniqlash lozim bo'ladi:

$$A = 1000000 \left[\frac{0,025(1+0,025)^{10}}{(1+0,025)^{10} - 1} \right] = 1000000 \left[\frac{0,025 \times 1,28}{1,28 - 1} \right] = 1142588 \text{ \textit{dollar}}$$

Ushbu to'lovlar tizimida A to'lovning qaysi qismi asosiy qarzlarni qaytarish, qaysi qismi esa savdo krediti bo'yicha foizlarni to'lashga yo'naltirilganligini aniqlash darkor. Xususan, soliq solish maqsadida foizlarni tannarxiga qo'shish muhim hisoblanadi. Buning uchun 4.3-jadvalda keltirilgan hisob-kitoblar sxemasidan foydalanish mumkin.

4.3-jadval

**Kredit uchun to'lovlarning hisob-kitob sxemasi
(hisob-kitoblar yaxlitlangan holda amalga oshirilgan)**


To'lov raqami	Kreditning to'lanmagan qismi	To'lov		
		Jami	Shu jumladan	
			Foizlar	Kreditning nominalini qaytarish
1	1 000 000	114 259	25 000	89 259
2	910 741	114 259	22 768	91 490
3	819 251	114 259	20 481	93 777
4	725 473	114 259	18 137	96 122
5	629 351	114 259	15 734	98 525
6	530 825	114 259	13 271	100 988
7	429 837	114 259	10 746	103 513
8	326 324	114 259	8 158	106 101
9	220 223	114 259	5 506	108 753
10	11 470	114 259	2 787	111 470
Jami	0	1 142 590	142 590	1 000 000

Hisob-kitob shunga asoslanadiki, kredit uchun foizlar foizlarni hisoblash paytida qolgan qarz miqdori (kreditning nominali) hisobidan hisoblab chiqiladi. Shu bois birinchi to'lov (114 259 doll.) 1 000 000 doll. $\times 0,025 = 25\ 000$ doll. miqdordagi foiz to'lovini va 114 259 doll. $- 25\ 000$ doll. = 89 259 doll. miqdoridagi pul mablag'ni qaytarishni o'z ichiga oladi. Birinchi to'lovdan keyin asosiy qarz miqdori 1 000 000 doll. $- 89\ 259$ doll. = 910 741 doll.gacha kamayadi. Shuning uchun ikkinchi to'lovni amalga oshirishda foizlar aynan shu miqdoridan hisoblab chiqiladi. Keyingi barcha to'lovlar bo'yicha ham keltirilgan hisob-kitob tartibi qo'llaniladi.

R foiz stavkalarida n foizli davr mobaynida amalga oshiriladigan A to'lovlar seriyasining P joriy ekvivalentini baholash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$P = A \left[\frac{(1+R)^n - 1}{R(1+R)^n} \right]$$

Ifodalangan bog'liqliklar loyihaning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish uchun qo'llanilgan bo'lib, ular pul oqimlarining turli tuzilish shakllarida namoyon bo'lgan. Bunda bitta pul oqimining ikkinchidan afzallik tomonini baholash taqqoslanadigan oqimlarni yagona ekvivalent asosiga keltirishni talab etadi. Xususan, 4.4-rasmda ko'rsatilganidek, har bir 1 va 2 taqqoslanadigan pul oqimlari yagona to'lovlar (kirimlar) yig'indisi sifatida ko'rib chiqiladi, har biri uchun joriy ekvivalent $P_i(F_i)$ aniqlanadi. Agar bu holatda har bir yagona to'lovlar diskontlashgan, ya'ni joriy vaqt paytiga keltirilgan bo'lsa, quyidagi formula orqali aniqlanadigan diskontlashgan yagona to'lovlar miqdori pul oqimini taqqoslash uchun asos sifatida xizmat qilishi mumkin.



4.4-rasm. Pul oqimini diskontlash sxemasi

Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblar pul oqimlarni taqqoslash bo'yicha olib borgan diskontlash stavkasi ma'lum bo'lganligi bilan shartlangan. Ammo, diskontlash stavkasini tanlash nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham juda murakkab muammo hisoblanadi.

Muayyan loyiha uchun diskont stavkasini tanlashda mazkur loyihaga investitsiyalash bilan bog'liq xavf-xatar hisobiga to'g'rilangan (ko'paytirilgan) investorlar uchun mumkin bo'lgan va kafolatlangan sarmoya jamg'arish manbalar miqdorlari (masalan, ishonchli bankda qo'yilmalar bo'yicha depozit foizlari yoki davlat obligatsiyalari bo'yicha daromad foizlari)ni hisobga olish tavsiya etiladi.

4.3. Investitsiya loyihalarining samaradorligi, uni baholash mezonlari va usullari

Iqtisodiy samaradorlik – investitsiya uchun qo'yilgan kapitaldan foydalanilganligi uchun olingan foyda, daromad tushunilsa, ijtimoiy-iqtisodiy samara esa, investitsiyani ishlatishdan olingan foydadan tashqari, insonlarning hayot darajasi yaxshilanishi, tabiatni saqlash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi ham tushuniladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda «iqtisodiy samara» va «iqtisodiy samaradorlik» atamalariga e'tibor berish lozimdir.

Iqtisodiy samara – qo'yilgan kapitalning investitsiyalash natijasida olingan natijasi bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik esa olingan iqtisodiy samara yoki investitsiya natijasida olingan foyda bilan investitsiya miqdori o'rtasidagi munosabatni bildiradi.

Iqtisodiy samara deganda, ishlab chiqarishning ko'payishi, mehnat unumdorligining oshishi, foyda, milliy daromadning ko'payishi yoki boshlang'ich va joriy xarajatlarning kamayishi tushuniladi. Ijtimoiy samara deganda aholi farovonligi oshishi, bilim darajasi oshishi, bo'sh vaqtning ko'payishi va boshqalar tushuniladi.

Samaradorlik (iqtisodiy va ijtimoiy) bu iqtisodiy yoki ijtimoiy samaraning unga erishish xarajatlariga nisbati. Umumiy iqtisodiy samaradorlik quyidagicha topiladi:

$$I_{s1} = \frac{N}{X}$$

bu yerda:

I_{s1} – iqtisodiy samaradorlik;

N – natija;

X – olingan natijaga erishishdagi xarajatlar.

Investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$I_s = \frac{I_f}{K}$$

bu yerda:

I_s – iqtisodiy samaradorlik;

I_f – investitsiyadan olingan foyda;

K – qo‘yilgan kapital.

Investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligi sarmoya qo‘yilmalarning samaradorligini majmuaviy baholash bilan bevosita bog‘liq, chunki bu vaziyatda loyiha investitsiyalash obyekti sifatida qaraladi.

Samaradorlik nazariyasining eng muhim masalalaridan biri mezonlash yondashuvi hisoblanadi, chunki turli mezonlar mavjud paytda iqtisodiy samaradorlikning turli mos bo‘lgan ko‘rsatkichlari (koeffitsiyentlar) o‘rin olgan. Mezonlash yondashuvi negizida investitsiyalar unumdorligining uch qismli mezonlari yotadi: iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy. Bu samaradorlikni izohlashni bir muncha murakkablashtiradi va dastavval har bir keltirilgan soha uchun maqbul variantlarini aniqlaydigan, so‘ng ularning ma‘lumotlarini integratsiyalashga imkoniyat beradigan uslubiyatini talab qiladi.

Ko‘rsatib o‘tilgan sohalarga ta‘sirini hisobga olishga nisbatan aniq yondashuvni iloji boricha ko‘rsatkichlarning chegaralangan soniga keltirish kerak. Bu esa ko‘p omilli masalalarning yechimini bir muncha osonlashtirishga imkon beradi. *Iqtisodiy* nuqtayi nazardan investitsiyalar jonli va o‘tgan mehnat xarajatlari bilan tavsiflanadi. Ushbu konsepsiyaga mos ko‘rsatkichlar (jamg‘arma sarflash hajmi, mehnat sarflash hajmi, materiallarni sarflash hajmi va h.k.) investitsiya samaradorligini yanada oshirishni ta‘minlash uchun kamayish tendensiyasiga ega.

Ijtimoiy mezon kommunal-maishiy mehnat sharoitlarini yaxshilash, qo‘l mehnati xarajatlarini pasaytirish hamda bir ishchi hisobga daromadlarning o‘shirishini hisobga oladi.

Ekologik jihati havo, suv, yer resurslari qurilishida va boshqa sohalarda foydalanishni kamaytirishga qaratilgan (4.4-jadval).

4.4-jadval

Samaradorlik ko'rsatkichlari

Nomi	Shartli belgilari	Mezonli yo'nalganligi
Iqtisodiy Jamg'armani sarflash hajmi, so'm Materiallari sarflash hajmi, so'm Mehnatni sarflash hajmi, odam Qurilish muddati, oy Sarmoya qo'yilmalari, so'm Korxonaning quvvati, so'm	Js'h MAsh MEsh Qm Sq Kq	Js'h→min MAsh→min MEsh→min Qm→min Sq→min Kq→min
Ijtimoiy Ishchilarning soni, kishi Mehnat unumdorligi, so'm/kishi Uy-joy bilan ta'minlanganligi, m ² /kishi	Is Mun UJt	Is→min Mun→min UJt→min
Ekologik Yer resurslardan foydalanish, ga Suv resurslardan foydalanish, m ³ Havo resurslardan foydalanish, m ³	YeRf SRf HRf	YeRf→min SRf→min HRf→min

Investitsiyalarning umumiy iqtisodiy samaradorligi quyidagicha hisoblanishi mumkin:

a) butun xalq xo'jaligi, yirik hudud va tarmoqlari bo'yicha MI – solishtirma narxlardagi ishlab chiqilgan milliy daromad ulushining (ΔMD) ushbu o'sishiga sababchi bo'lgan barcha moliyalashtirish manbalari bo'yicha foydalaniladigan sarmoya qo'yilmalariga (Q) nisbati:

$$MI = \frac{\Delta MD}{Q}$$

Bunda mutlaq samaradorlik mezoni (S_m) Kr sifatida investitsiya hajmlarni maksimallashtirish hisoblanadi:

$$S_m = MD \rightarrow \max,$$

$$S_m = Q \rightarrow \min$$

b) i loyiha bo'yicha D_o – daromad yoki xo'jalik hisob daromadining o'sishi $\Delta\pi$ (tannarxning pasayishi)ning ushbu o'sishga sabab bo'lgan sarmoya qo'yilmalarning o'sishiga (ΔQ) nisbati:

$$D_o = \frac{\Delta\pi}{\Delta Q}$$

Investitsiya loyihalari samaradorligining mezoni – bu istalgan maqsadlarga erishish darajasi. Shuning uchun samaradorlikni baholash maqsadlarni, ularning erishilish darajasini aniqlashdan boshlanishi va ushbu maqsadni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tanlashi kerak.

Jahon amaliyotida investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning quyidagi modellari va ko'rsatkichlari mavjud:

1. Sof keltirilgan samara yoki sof diskontlangan daromad (Net Present Value, NPV).
2. Investitsiyaning rentabellik indeksi (Profitability Index – PI)
3. Diskontlangan rentabellik indeksi (Discounted Profitability Index, DPI).
4. Diskontlangan qoplash muddati (Discounted Payback Period, DPP).
5. Foydaning ichki me'yori darajasi (Internal Rate of Return, IRR).
6. Modifikatsiyalangan foydaning ichki me'yori (Modified Internal Rate of Return, MIRR).
7. Investitsiyaning samaradorlik koeffitsiyenti (Accounting Rate of Return, ARR).

Yuqoridagi modellar va ko'rsatkichlar haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Sof diskontlangan daromad (Net Present Value, NPV).

Sof diskontlangan daromad (NPV) – investitsiyalashning asosiy maqsadiga erishish, ya'ni investor uchun daromad shaklidagi eng maqbul sof foyda olishga yo'naltirilgan. Ushbu usul investitsiya loyihasining moliyaviy natijalarining eng umumlashtirilgan xususiyatini, ya'ni mutlaq yakuniy samarani olish imkonini beradi. Sof joriy samara – bu pul tushumlarining hozirgi qiymatiga to'g'ri keladigan loyihaning sof foydasi (Present Value, PV):

$$PV = \frac{FV}{(1+G)^n} \quad (4)$$

Bu yerda,

loyihadan keladigan pul tushumlarining kelajakdagi qiymati (Future Value, FV); G – diskont stavkasi, birlik ulushi; n – hisob-kitob davri, yillar (oylar).

Agar $NP > 0$ bo'lsa, ya'ni kapitalning o'rtacha qiymatidan (Weighted Average Cost of Capital, WACC) yuqori daromad keltiradigan bo'lsa, loyiha investor tomonidan ma'qullanishi mumkin.

Sof diskontlangan daromad (NPV) – loyihani amalga oshirish davrida pul tushumlari summasining haqiqiy keltirilgan qiymati (diskontlash yo'li bilan) va uni amalga oshirish uchun sarflangan investitsiya summasi o'rtasidagi farq sifatida ifodalanadi:

$$NPV = PV - IC \quad (5)$$

Bu yerda,

PV – loyihadan tushgan tushumlarning (daromadlarning) diskontlanganidan keyingi qiymati; IC – loyihani amalga oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) miqdori.

(5) formuladan agar loyihaga investitsiyalar bir yo'la qo'yilsa sof diskontlangan daromad (NPV)ni hisoblashni quyidagi ko'rinishga keltirish mumkin:

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{P_t - C_t}{(1+i)^t} - C_0 = \frac{P_1 - C_1}{1+i} + \frac{P_2 - C_2}{(1+i)^2} + \dots + \frac{P_n - C_n}{(1+i)^n} - C_0 \quad (6)$$

Bu yerda:

P_t – t yildagi korxonaning foydasi,

C_t – t yildagi korxonaning xarajatlari,

C_{t0} – boshlang'ich kapital qo'yilma (investitsiya miqdori),

t – loyiha muddati,

i – diskont, muddati to'lmagan kapital qo'yilma uchun investorga to'lanadigan haq miqdori.

Agar (6) formulada barcha investitsiya kiritilgan yillar uchun, yillik daromad va xarajatlar $P_t - C_t = q$ bir xil bo'lsa, uni geometrik progressiyani hisoblash formulasidan foydalanib, quyidagicha yozish mumkin:

$$NPV = \frac{q((1+i)^n - 1)}{i(1+i)^n} - C_0 \quad (7)$$

Oxirgi (7) formuladan ko‘rinadiki, $NPV(q, n, i)$ – ning funksiyasidan iborat, ya’ni, $P_t - C_t = q$ yillik korxonaning sof foydasiga, n - loyiha kiritilgan muddatga, $i = \frac{P}{100}$ – diskont miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Agar

$NPV > 0$ bo‘lsa, investitsiya loyihasi korxonaga uchun samarali bo‘ladi, uni qabul qilish mumkin;

$NPV < 0$ bo‘lsa, investitsiya loyihasi korxonaga uchun samarali emas, uni qabul qilish kerak emas;

$NPV = 0$ bo‘lsa, loyiha korxonaga uchun foydali ham, zararli ham emas.

Foydaning ichki me’yori darajasi (Internal Rate of Return, IRR).

IRR investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning ancha murakkab ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich loyihadan keladigan pul mablag‘larining kelajakdagi qiymati avans to‘lovining hozirgi qiymatiga nisbatan keltiriladigan diskont stavkasi bilan ifodalangan, loyihaning foydalilik darajasini tavsiflaydi.

Foydaning ichki me’yori darajasi deganda (IRR) **sof diskontlangan daromad** (NPV) «0»ga teng loyihaning diskontlash koeffitsiyenti tushuniladi:

$$NPV = 0$$

Ya’ni

$$0 = \sum_{t=1}^n \frac{P_t - C_t}{(1+i)^t} - C_0 \quad (12)$$

Bundan

$$C_0 = \sum_{t=1}^n \frac{P_t - C_t}{(1+i)^t} \quad (13)$$

Bir martalik kapital qo‘yilmada (yil davomida) foydaning ichki me’yori darajasi (IRR)ni soddalashtirilgan holda quyidagicha hisoblash mumkin:

$$IRR = \frac{NPV}{IC} \quad (14)$$

Bu yerda,

NPV – sof diskontlangan daromad; IC – loyihani amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar) miqdori.

Amaliyotda har qanday korxonada o‘z faoliyatini turli manbalarga asoslanagan holda moliyalashtiriladi. Korxonada faoliyatida avanslashtirilgan moliyaviy resurslardan foydalanganligi uchun to‘lov sifatida, u foiz, dividend, rag‘batlantirish kabi korxonada iqtisodiy qudratini ushlab turishga asoslangan xarajatlarni amalga oshiradi.

Bu xarajatlar darajasining xarakterlovchi ko‘rsatkichlarni avanslashtirilgan kapital bahosi deyish mumkin. Bu ko‘rsatkichni korxonada faoliyatida qo‘yilgan eng kam qaytaruvni o‘zida aks ettiradi, uning rentabelligi o‘rtacha arifmetik formula bo‘yicha hisoblanadi.

Bu ko‘rsatkichning iqtisodiy ma‘nosi quyidagicha ifodalanadi:

Korxonada joriy ko‘rsatkichdan past bo‘lmagan rentabellik darajasiga ega har qanday investitsion xarakterga ega qarorni qabul qilish mumkin. Xuddi o‘sha bilan IRR ko‘rsatkichi taqqoslanadi. Bunday sharoitda ular o‘rtasidagi aloqa quyidagicha:

Agar: $IRR > CC$ dan loyiha qabul qilinadi;


$IRR < CC$ dan loyiha qabul qilinmaydi;

$IRR = CC$ loyiha zararsiz va foydasiz;

CC – joriy ko‘rsatkich.

Agar loyihaning ichki rentabelligi ushbu loyiha uchun belgilangan minimal rentabelligidan yuqori bo‘lsa, loyiha iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichning iqtisodiy mazmuni loyihaning ichki rentabelligi loyihaga kiritilayotgan sarmoyaning o‘sish sur‘atini aniqlab berishidan iborat. Bundan tashqari, ushbu ko‘rsatkich eng yuqori mumkin bo‘lgan ssuda foiz stavkani aniqlab, unda loyihani kreditlash zararsiz holda, ya‘ni investitsiyalashga kiritilgan o‘z sarmoyadan olingan foydaning bir qismini kreditni to‘lamasdan turib amalga oshiriladi.

Loyihaning ichki rentabellik ko‘rsatkichini aniqlash uchun diskont stavkalarining turli miqdorlar sharoitida NPV miqdorni grafik usulidan foydalanish mumkin. Bunda 4.5-rasmda ko‘rsatilganidek, grafik absissa o‘qi bilan kesishadigan R miqdori loyihaning ichki rentabellik miqdorini belgilaydi.



4.5-rasm. Loyihaning ichki rentabellik miqdorini aniqlash

Investitsiyaning rentabellik indeksi (Profitability Index – PI).

Bu mezon investitsiya loyihalarini baholashda qo‘llaniladigan xarajatlar birligiga rentabellik yoki daromad indeksini aniqlaydigan usul hisoblanadi:

$$PI = \frac{PV(\text{foyda})}{PV(\text{xarajat})} = \sum_{t=1}^n \frac{\frac{CIF_t}{(1+k)^t}}{\frac{COF_t}{(1+r)^t}} \quad (8)$$

Bu yerda,

CIF_t – kutilayotgan pul oqimlarining yoki daromadlarning kirimi;

COF_t – kutilayotgan pul oqimlarining yoki xarajatlarning chiqimi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, agar

$PI > 1$ bo‘lsa, loyiha samarali va uni qabul qilish mumkin;

$PI < 1$ bo‘lsa, loyiha samarali emas va uni qabul qilish kerak emas;

$PI = 1$ bo‘lsa, loyiha foydali ham, zararli ham emas.

Investitsiyaning rentabellik indeksining sof diskontlangan daromad (NPV) dan farqi shundan iboratki, bu nisbiy ko‘rsatkich hisoblanadi. U bir birlik xarajatga to‘g‘ri keladigan daromadlar darajasini, jalb qilish samaradorligini ko‘rsatadi, ya‘ni ushbu ko‘rsatkich qancha yuqori bo‘lsa loyihaga investitsiya qilingan har bir pul birligining qaytarilishi yuqori bo‘ladi. NPV ko‘rsatkichlari bir xil bo‘lgan bir necha loyihalarning ichidan birini tanlashda PI mezonini juda qulay hisoblanadi (aniqrog‘i, agar ikki loyihaning NPV ko‘rsatkichlari bir xil bo‘lsa va har xil miqdordagi investitsiyalarni

talab qiladigan bo'lsa, eng yuqori samarani qaysi biri ta'minlay oladiganligini aniqlash mumkin) yoki investitsiya portfelini tanlashda jami *NPV* miqdorini maksimallashtirish maqsadida juda qulay hisoblanadi.

Investitsiya loyihasining samaradorligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Agar *NPV*, *PI* va *IRR* qiymatlarini hisoblashda bitta loyiha ko'rib chiqilsa, bitta indikator uchun maqbul bo'lgan loyiha boshqasi uchun maqbul bo'lishi mumkin. Buning sababi *NPV*, *PI* va *IRR* qiymatlari o'rtasida quyidagicha aniq bog'liqlik mavjud:

Agar $NPV > 0$, u holda bir vaqtning o'zida $IRR > HR$ va $PI > 1$.

Agar $NPV < 0$, u holda bir vaqtning o'zida $IRR < HR$ i $PI < 1$.

Agar $NPV = 0$, u holda bir vaqtning o'zida $IRR = HR$ i $PI = 1$,

Bu yerda *HR* (hurdle rate) – sarmoyaning istalgan rentabelligi darajasi sifatida kompaniya tomonidan tanlangan to'siq koeffitsiyenti.

Diskontlangan rentabellik indeksi (Discounted Profitability Index, DPI).

Diskontlangan rentabellik indeksi (*DPI*) quyidagi formula bilan topiladi:

$$DPI = \frac{PV}{IC} \quad (9)$$

Bu yerda,

PV – loyihadan tushgan pul mablag'larining haqiqiy qiymati;
IC – loyihani amalga oshirish uchun yo'naltirilgan investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) miqdori.

Agar loyihani kelgusida amalga oshirish bilan bog'liq investitsiyalar bir necha bosqichda (qadamlarda) amalga oshirilsa, *DPI* quyidagicha hisoblanadi:

$$DPI = \frac{PV_k}{\sum_{k=1}^n \frac{IC_k}{(1+G)^k}} \quad (10)$$

Bu yerda,

DPI – loyihaga bosqichma-bosqich investitsiya kiritishda diskontlangan rentabellik indeksi; PV_k – *k*-qadamdagi hisoblashda pul tushumlarining haqiqiy qiymati; IC_k – *k*-qadamdagi hisoblashda investitsiya (kapital qo'yilma) summasi; *G* – diskont stavkasi, birlik ulushi; *n* – umumiy hisoblash davrida bosqichlar (qadamlar)ning soni.

Agar $DPI \leq 1,0$ bo'lsa, u holda loyiha rad etiladi, chunki u investorga qo'shimcha daromad keltirmaydi. $DPI > 1,0$ bo'lsa, loyiha amalga oshirish uchun qabul qilinadi.

Diskontlangan qoplash muddati (Discounted Payback Period, DPP).

Diskontlangan qoplash muddati (DPP) loyihalar samaradorligini baholashning eng keng tarqalgan ko'rsatkichlaridan biridir. U quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$DPP = \frac{IC}{PV} \quad (11)$$

Bu yerda,

PV – ko'rib chiqilayotgan davrda loyihani amalga oshirishdan tushgan pul mablag'larining o'rtacha miqdori; IC – loyihani amalga oshirish uchun yo'naltirilgan investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) miqdori.

Modifikatsiyalangan foydaning ichki me'yori darajasi (Modified Internal Rate of Return, MIRR).

Modifikatsiyalangan foydaning ichki me'yori darajasi (MIRR) – bu IRRning takomillashtirilgan modelidir. Bu diskontlangan stavkani yanada to'g'ri baholashni beradi va loyihani baholashning turli bosqichlarida (qadamlarida) foyda me'yorini ko'paytirish muammosini bartaraf etadi. Ushbu usulning mazmuni quyidagicha:

- 1) barcha tushadigan tushumlarning umumiy diskontlangan qiymati hisoblab chiqiladi va barcha pul tushumlarining jamlangan qiymati umumlashtiriladi;
- 2) diskontlash va shakllantirish loyihani moliyalashtirish manbasi qiymatida amalga oshiriladi (Cost of Capital, CC);
- 3) pul oqimlarining hozirgi qiymati va tushumning oxirgi qiymatini muvozanatlashtiradigan diskontlangan koeffitsiyent aniqlanadi.

Ushbu diskontlangan koeffitsiyent MIRR sifatida qabul qilingan. MIRR quyidagicha hisoblanadi:

$$\sum_{k=0}^n \frac{COF_k}{(1+G)^k} = \frac{\sum_{k=0}^n CIE_k x(1+G)^{n-k}}{(1+MIRR)^k};$$

$$PV_{invest} = \frac{TV}{(1 + MIRR)^n}$$

Bu yerda,

COF_k – k-davrdagi pul oqimlari va investitsiyalarni anglatadi;

G – ushbu loyihani moliyalashtirish manbasining narxi, birlik ulushi;

MIRR – investitsiyalar (PV) va pul oqimlarining oxirgi qiymatini muvozanatlashtiradigan diskontlangan stavkasi;

CIE_k – k-davrdagi pul oqimlari.

MIRR favquloddagi pul oqimi bilan loyihaning samaradorligini tavsiflaydi. Ushbu ko‘rsatkichdan foydalanish mantig‘i juda oddiy: agar $MIRR > CC$ (WACC) bo‘lsa, loyiha amalga oshirish uchun tavsiya etiladi, bu yerda, CC – uni moliyalashtirish manbasining qiymatidir.

Qayd etish mumkinki, keltirilgan formula agar pul oqimlarining oxirgi qiymati diskontlangan pul tushumlari miqdoridan oshsa ma’noga ega bo‘ladi. Baholashning har bir usuli korxonada mutaxassislariga loyihaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Shu sababli, tajribali tahlilchilar har bir loyihani investitsion tahlil qilishda barcha asosiy usullardan foydalanadilar.

Investitsiyaning samaradorlik koeffitsiyenti (Accounting Rate of Return, ARR).

Albatta, NPV investitsiya loyihasi bo‘yicha qaror qabul qilish uchun eng muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Ammo, chuqur ishlab chiqilgan xulosalar uchun nafaqat sof joriy qiymat, balki foydaning ichki me‘yoriy darajasi, rentabellik indeksi va qoplash muddati ko‘rsatkichi ham yetarli bo‘lmay qolishi mumkin. Shu sababli unchalik murakkab bo‘lmagan loyihalar uchun ayrim hollarda ba’zi murakkab baholashlar talab qilinadi. Bunday yordamchi mezonlardan biri investitsiyalarning samaradorlik koeffitsiyenti (ARR (Accounting Rate of Return)) xizmat qilishi mumkin.

Ushbu ko‘rsatkich diskontlash mexanizmlarini hisobga olmaydi va hisoblash davri uchun o‘rtacha sof daromadni o‘rtacha investitsiyalarning qiymatiga bo‘lish natijasida hisoblanadi.

Ko‘rsatkichning hisoblash formulasi quyidagicha:

$$ARR = \frac{PN}{1/2 \times (IC + RV)}$$

Bu yerda,

PN – budgetga ajratmalar chiqarib tashlangan holda rejalashtirilgan o‘rtacha balans foyda;


IC – loyihani investitsiyalash xarajatlari;

RV – investitsiya obyektini tugatish (ba’zi hollarda qoldiq) qiymati.

4.4. Investitsiya loyihalarining hayotiy sikli

To‘liq shakllangan, yakuniga yetgan investitsiya loyahasini tuzish va amalga oshirish umumiy holda quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi (13.6-rasm):

- investitsiya g‘oyasini shakllantirish;
- investitsion imkoniyatlarni tadqiq etish;
- investitsiya loyahasini texnik-iqtisodiy asoslash;
- shartnoma hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlari;
- obyektни ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy ko‘rsatkichlar) monitoringini olib borish.



4.6-rasm. Investitsiya loyahasini tuzish va amalga oshirishning umumiy bosqichlari

Investitsiyalash nuqtayi nazaridan investitsiya loyihalarini tanlab olish va amalga oshirish uslubiyati va uni ishlab chiqish masalalari

g'oyat muhim hisoblanadi. Jahon amaliyotida faqat hayotiy muhim loyihalarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadigan va keng tarqalgan investitsiya loyihalari sikli konsepsiyasi mavjud.

Investitsiya loyihalarini boshqarish uslubiyatining «loyiha sikli konsepsiyasi» va «loyiha tahlili» ko'rinishlarida keng tarqalgan. Ushbu konsepsiyalar investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda pul oqimlarini vaqtli qiymati konsepsiyasi asosida tashkil etiladi.

Investitsiya loyihalarining ko'lami, tuzilmasi, resurslari, qiymati va boshqalarga qarab ularni boshqarishning maxsus usullariga ehtiyoj ortib boradi. Boshqarish aslida qo'yilgan maqsadlarga erishish vazifasini, loyihani amalga oshirish muammolarini bartaraf etish, huquqlar va mas'uliyatlarni jamlash vazifalarini ko'zlaydi. Mamlakat iqtisodiyotining globalashuvi va integratsiyalashuvi, loyihalarni amalga oshirishda chet ellik sheriklar, turli subyektlar, moliya institutlarining ishtirok etishi, ular harakatlarini va faoliyatlarini muvofiqlashtirishni talab etadi.

«Loyiha» deyilganda butun dunyoda, resurslar va vaqt birligi bilan cheklangan, nazariy ishlanmalar bilan asoslangan va «loyiha sikli» konsepsiyasi ko'rinishida ta'riflangan belgilangan jarayonni tayyorlash va maqsadli faoliyatni amalga oshirish tushuniladi.

Investitsiya loyihasi sikli loyihani tayyorlash, ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish, amalga oshirish (muzokaralar, bajarish) va baholash bosqichlarini, shuningdek, loyihani amalga oshirish natijalarini baholash mumkin bo'lgan turli xil nuqtayi nazarlar va mezonlarni qamrab oladi.

Investitsiya loyihasining hayotiy yo'li loyiha siklini yaratadigan, muayyan izchillikdan iborat bo'lgan o'ziga xos bosqichlarga ega. Loyiha bazaviy modelga (Baum sikli) yoki DRMS sikli (Development Rgojest Manajment Setrge), Rondinelli sikli, Gudman va Lav sikliga (Integratsiyalashgan loyihaviy rejalashtirish va boshqarish sikli), YuNIDO (United Nations Industrial Development Organization) diagramma-tizimi, Mak Artur diagrammasiga ega bo'lishi mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan loyiha sikllarida o'zaro o'xshash tomonlar ko'p, lekin ularning har birida o'ziga xos maqsadlarni ko'zlaydi. Ularning hammasida faoliyatning siklik xarakteri to'g'risidagi g'oya

ilgari suriladi, shu bilan birga turli-tuman va ayni paytda o'zgarib turadigan fikrlar yangi ma'no kasb etadi.

Investitsiya loyihasi, birinchidan, maqsadli yo'naltirilgan faoliyat, ikkinchidan, bu faoliyat vaqt birligi va resurslar bilan deyarli cheklangan, uchinchidan esa, undan keladigan naf qilingan xarajatlardan doimo ortiq bo'ladi. Chunki, kelajakdagi daromadlar bugungi pul qiymatlari bilan o'lchangan bo'lib, zamonaviy xarajat oqimlaridan yuqori bo'lishi nazarda tutiladi.

Investitsiya loyihasi o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmuidan iborat bo'lib, cheklangan davr davomida, belgilangan budjet hisobidan, qo'yilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan aniq maqsadni nazarda tutadi. Ya'ni, investitsiya loyihalari boshqa tadbirlardan quyidagilar bilan ajralib turadi:

- maqsadi, unga erishish ichki kuchi va uni belgilangan vaqt mobaynida amalga oshirish imkoniyatlari bilan;
- belgilangan davr mobaynida loyihaning noyobligi va tanholigi darajasi hamda belgilangan vaqtning o'zining cheklanganligi bilan;
- har qanday tirik mavjudot kabi uning ham hayotiy siklga egaligi bilan.


Loyihani ishlab chiqish dastlabki muhandislik loyihalash, iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarni tahlil qilish, boshqarishning ma'muriy tizimlarini ko'rib chiqish, loyihaning atrof-muhitga, mahalliy aholiga ta'sirini baholash va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda loyihalarni qoniqarsiz chiqqan variantlarini yaroqsizga chiqarish va eng maqbullarini batafsil o'rganish zarurati kelib chiqadi.

Loyihani moliyalashtirish va tegishli qarorlar qabul qilish muammolarini tadqiq etishda loyihaning hayotiylik sikli boshlang'ich tushuncha hisoblanadi. Loyihani bosqichlarga bo'lish g'oyat xilma-xil bo'lishi mumkin. Asosiy narsa shundaki, bunday bo'lish eng muhim nazorat nuqtalarini ochib beradigan bo'lsin, bu bosqichlardan o'tish vaqtida qo'shimcha axborotlarni qarab chiqish va loyihani rivojlantirishning imkoni bo'lgan yo'nalishlarini baholash mumkin bo'lsin.

Jahon amaliyotida loyihalarning murakkabligiga qarab ularni boshqarishning turli usullaridan foydalaniladi. Loyihalarni barcha mavjud boshqarish usullari nazarda tutilgan natijalarga qaratiladi, huquq va burchlarning jamlanganligiga, matritsali tashkil etilganligiga,

to‘qnashuvlar va muammolarning oldini olishga qaratiladi. Loyihalarni ishlab chiqish, ular samarasini belgilash, ularni tanlash va amalga oshirish, shuningdek, ularni ichki va tashqi resurslar hisobidan moliyalashtirishda mamlakatning xalqaro bozorga chiqishi kuchli zamin va asos hisoblanadi. Loyihaning kelajakka qaratilishi uning oldindan aytib berish mumkin emasligidan dalolatdir, shu sababli investitsiya loyihasining sifat tavsiflarini hisobga olish muhim.

Loyiha yuzaga kelgan vaqtdan toki u tugatilgan vaqtga qadar o‘tgan vaqt oralig‘iga loyihaning hayot sikli deyiladi. Loyiha bosib o‘tishi lozim bo‘lgan holatlarga esa fazalar, bosqichlar deyiladi.



4.7–rasm. Investitsiya loyihalari hayot sikli bosqichlari

Investitsiya loyihalari hayot sikli quyidagi bosqichlarda bo‘lishi mumkin (13.7-rasm):

1. Investitsiya oldi bosqichi:

- a) investitsiya imkoniyatlarini tahlil qilish;
- b) dastlabki texnik iqtisodiy asoslash;
- d) texnik iqtisodiy asoslash;
- e) marketing tadqiqotlarini olib borish;
- f) investitsiya imkoniyatlari to‘g‘risida hisobot.

2. Investitsiya bosqichi:

- a) muzokaralar olib borish va shartnomalar tuzish;
- b) loyihalashtirish;
- d) qurilish ishlarini amalga oshirish;

e) xodimlarni o‘qitish.

3. Ekspluatasiya bosqichi:

a) qabul qilish va ishga tushirish;

b) uskunalarni almashtirish (yangilash);

d) kengaytirish, innovatsiya.

Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish loyihaning yakuniy maqsadlarini va bu maqsadlarga erishish yo‘llarini belgilashni o‘z ichiga oladi. Bunda muqobil maqsadlar ko‘rib chiqiladi, hajmlar, muddatlar, foyda hajmi miqdor jihatdan solishtiriladi.

Loyihaning yashovchanligini baholash dastlabki texnik iqtisodiy asoslash mazmunini tashkil etadi. Bunda bir necha muqobil variantlar ko‘rib chiqiladi va qiymati hamda foyda bo‘yicha baholanadi. Loyihani rejalashtirish bosqichida loyiha bo‘yicha ishlar rejasi tuziladi. Bu rejada ishlarni tarkibiy va vaqt bo‘yicha bosqichlari, ijrochilari aniqlanadi.

Loyihani ishlab chiqishni turli bosqichlarida turli darajadagi aniqlikka, xatolikka erishiladi va qaltislikka yo‘l qo‘yiladi.

Shunday qilib, investitsiya loyihasining vujudga kelishi va uni tugatilishi o‘rtasidagi oraliq vaqt investitsiya loyihasi hayotiy sikli deb ataladi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish xarajatlarini taqsimlash nuqtayi nazaridan investitsiya loyihasi hayotiy siklini quyidagi tarkibiy bosqichlarga ajratish mumkin:


Tayyorgarlik (investitsiya loyihasi konsepsiyasi va rejalashtirish) bosqichi investitsiya loyihalashtirishning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, unda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- istiqbolli hududiy bozorlarni tanlab olish;
- keng miqyosdagi marketing tadqiqotlarini amalga oshirish (talab va taklif, bozorlarni segmentlash, tovar (xizmatlar)ning joriy va prognoz narxleri darajasini baholash, talab elastikligi, asosiy raqobatchilar va ularning marketing strategiyalari va boshqalar);
- investitsiya g‘oyasining dastlabki asoslarini ishlab chiqish;
- tuman, viloyat va respublika darajasida investitsiya g‘oyasini dastlabki kelishuvlarga erishish;
- mo‘ljallanayotgan investitsiya hajmini baholash;
- loyihani moliyalashtirish mumkin bo‘lgan manbalarini baholash;

- xorijiy valutaga bo‘lgan talabni baholash;
- loyihani amalga oshirishi mumkin bo‘lgan kompaniyalarni dastlabki tanlab olish;
- texnik yechimlarni innovatsion, patent va ekologik tahlil qilish;
- investitsiyalar samaradorligini dastlabki baholash;
- loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq risklarni baholash;
- kompaniyalar investitsiya imkoniyatlarini baholash;
- investitsiya loyiha ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- investitsiyalash shartlarini aniqlash;
- salohiyatli investorlar uchun investitsiya takliflarini tayyorlash;
- aniq investorlarni tanlash;
- loyihani amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy shakllari va ishtirokchilari tarkibi bo‘yicha takliflarni tayyorlash;
- loyihani amalga oshirishni to‘xtatish shartlarini aniqlash.

Tayyorgarlik bosqichining davom etish muddati investorga bog‘liq bo‘lib, odatda u mamlakatning investitsiya jozibadorligi hamda hukumat va tadbirkorlik tuzilmalari bilan bevosita bog‘liq.

Umuman olganda, ushbu bosqichga loyihaning umumiy xarajatlarni 3% dan 5% gacha qismi to‘g‘ri keladi (4.8-rasm).



4.8-rasm. Investitsiya loyihasi hayotiy siklining umumiy xarajatlardagi taqsimoti

Loyihashtirish bosqichi eng murakkab bosqich hisoblanadi. Loyihani ishlab chiqish va kelishishda ishtirok etuvchi tashkilotlarning ko‘pligi loyihani amalga oshirish uchun ruxsat olish bilan bog‘liq

jarayonlarda juda katta mehnat talab qiladi. Bundan tashqari ko‘pincha ushbu bosqich huquqiy bazaning takomillashmaganligi va byurokratik to‘siqlar hisobiga loyiha obyektini qurilishi muddati bilan teng bo‘liq qoladi.

Avvalambor, joylashuv qulayligi (magistral transport yo‘li, muhandislik kommunikatsiyalari, malakali ish kuchining mavjudligi, korxonaning istiqboldagi rivojlanishi va boshqalar) bo‘yicha kompaniya talablariga javob beradigan obyekt qurilishi uchun yer uchastkasini tanlab olish zarur. Shuningdek, ushbu yer uchastkada korxonani joylashtirish bo‘yicha joylardagi hokimiyat organlari roziligini olish. Shundan so‘ng yer uchastkasini maqsadli foydalanish uchun yaroqliligini aniqlash maqsadida muhandislik-geologik, ekologik, iqlim va boshqa izlanishlar olib boriladi.

Yuqorida keltirilgan savollarga ijobiy xulosalar olingandan keyin investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishga o‘tiladi va u quyidagilarni o‘zida aks ettirishi lozim:

- dastlabki ruxsat beruvchi hujjatlarni (yerdan foydalanish huquqini rasmiylashtirish, muhandislik kommunikatsiyalarga ulanishga texnik shartlarni olish) tayyorlash;

- mahsulot ishlab chiqarish dasturini (ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi va nomenklaturasini asoslash, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflar, xorijiy texnologiyalarni sotib olish, ishlab chiqarishni kengaytirish) tayyorlash;

- ishlab chiqarish jarayonlarini (foydalaniladigan texnologiyalar, xomashyo va boshqa materiallar, butlovchi qismlar, energiya resurslar) tavsiflash;

- texnik (shu jumladan, bosh reja) va texnologik xulosalarni ishlab chiqish, texnologiya va uskunalarni tarkibini tahlil qilish;

- shaharsozlik, arxitektura-rejalashtirish va qurilish xulosalar;

- atrof-muhitni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni tayyorlash;

- favqulodda vaziyatlarda va fuqarolar mudofasi bo‘yicha chora-tadbirlarni tayyorlash;

- qurilish tashkilotini tavsiflash;

- fuqarolik uy-joy qurilishi zarurati bo‘yicha ma’lumotlarni tayyorlash;

- korxonani boshqarish, ishchilar va xizmatchilar mehnatini tashkil qilish tizimini tavsiflash;

- smeta-moliyaviy hujjatlarni tayyorlash (shu jumladan, ishlab chiqarish xarajatlarini baholash; kapital xarajatlar, korxonada faoliyatidan yillik tushumlar va aylanma mablag'larga bo'lgan talabni hisoblash);

- investitsiya imkoniyatlarining dastlabki asoslarini o'zida aks ettirgan hisobotni tayyorlash.

Tayyorlangan texnik-iqtisodiy asoslar nazorat va ma'muriy organlar bilan kelishilgandan keyin, tegishli davlat ekspertizasidan o'tishi lozim. Ushbu ekspertizadan ijobiy xulosalar olingandan keyin buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadi va investitsiya loyihasi uchun mablag' kiritish bo'yicha qaror qabul qilinadi.

Ushbu bosqichda loyiha qiymatining 20%igacha xarajat qilinadi.

Investitsiya loyihasining **qurilish va yakunlash bosqichi**, odatda me'yoriy muddatlarga kirmaydi, sababi pudratchi-kompaniyalar uchun shartnoma shartlarini buzish manfaatli emas. Jumladan, ushbu bosqichdagi quyidagilar amalga oshiriladi:

- qurilish xizmatlari bozorini tahlil qilish va salohiyatli pudratchilar bilan muzokaralar olib borish;

- tender savdolari;

- pudratchilar bilan shartnomalar tuzish;

- ishchi hujjatlarni tayyorlash;

- qurilish materiallari va konstruksiyalari, nostandart texnologik uskunalarni ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilarni aniqlash;

- qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish;

- qurilish-montaj va ishga tushirish ishlari;

- bajarilgan ishlar sifatini texnik va mualliflik nazoratini amalga oshirish;

- tugatilgan qurilish obyektini davlat qabul qilish komissiyasiga topshirish.

Ushbu bosqich eng xarajatli bosqich bo'lib, qurilish uchun loyiha umumiy xarajatlaridan 60%i, yakunlash bosqichiga esa, 12%i to'g'ri keladi.

Umuman olganda, investitsiya loyihalarning hayotiy siklini qisqartirish loyiha doirasida ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilar, ya'ni investordan tortib, to ma'muriy va nazorat organlarining asosiy maqsadi bo'lmog'i lozim.

4.5. Investitsion risklar va ularni baholash usullari

Investitsiya loyihasi kapital va joriy xarajatlar, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish hajmi, mahsulot narxi va loyihani aniq belgilangan bajarish muddatiga asoslanib ishlab chiqiladi. Ushbu ishlarning sifati va asosligidan qat'i nazar, loyihani amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarning kelajakdagi rivojlanishi har doim ham noaniq bo'ladi. Shu sababli, investitsiyalarni loyihalashtirish amaliyotida noaniqlik va risklar hisobga olinadi.

Noaniqlik deganda kelajakda muayyan voqealar rivojlanishidagi noaniqlik holati, korxonalar rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari va miqdorlarini, shu jumladan investitsion loyihani amalga oshirishda aniq bashorat qilishning mumkin emasligi tushuniladi. **Noaniqlik** – bu bir tomondan, har qanday tadbirkorlik faoliyatining vositasi bo'lgan obyektiv hodisa, boshqa tomondan, har qanday tadbirkorning doimiy “bosh og'rig'i” uchun sababdir. Noaniqlikni to'liq yo'q qilish, ya'ni biznesni samarali yuritish uchun shart-sharoitlarni yaratish har bir tadbirkor uchun muhim vazifadir.

Risk deganda ba'zi bir istalmagan voqea yuz berishi mumkinligi tushuniladi. Tadbirkorlik faoliyatida risk odatda korxonalar o'z resurslarining bir qismini yo'qotishi, rejalashtirilgan daromadning kamayishi yoki ma'lum ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijasida qo'shimcha xarajatlar paydo bo'lishi bilan belgilanadi. **Risk** – bu bozor muhitining o'zgarish xususiyatidir. Riskning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- kompaniyaning mijoz oldidagi majburiyatlarini bajara olmay qolish ehtimoli bilan bog'liq ishlab chiqarish riski;
- kompaniya faoliyatini moliyalashtirish uchun qarz mablag'laridan foydalanish natijasida kompaniyaning investorlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajara olmay qolish bilan bog'liq moliyaviy risk;
- o'z va sotib olingan qimmatli qog'ozlardan iborat bo'lgan investitsion va moliyaviy portfelning mumkin bo'lgan amortizatsiyasi bilan bog'liq investitsion risk;
- fond bozorida foiz stavkalari va valuta kurslarining o'zgarishi bilan bog'liq bozor riski;

– mamlakatdagi beqaror siyosiy vaziyat tufayli tadbirkorlar va investorlar uchun mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar bilan bog‘liq bo‘lgan siyosiy risk. Yangi siyosiy partiyalarning yoki yangi harakatning hokimiyatga kelishi, investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qator iqtisodiy qonunlarning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Soliq imtiyozlari bekor qilinishi va hukumat ustuvorligi o‘zgarishi mumkin.

Investitsion risk deganda investitsion mablag‘larning bir qismi yoki barchasini yo‘qotish holati yuzaga kelishi mumkinligi tushuniladi. Investitsion risk umumiy moliyaviy riskning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zida moliyaviy yo‘qotishlar ehtimolini va investitsiyalardan daromadlarni to‘liq ololmaslik yoki qo‘shimcha investitsion xarajatlarning paydo bo‘lishini namoyon etadi⁶³.

Kapital qo‘yilmalar riski – bu ma‘lum bir tadbirkorlik faoliyatining riskidir va investitsiyalardan kerakli daromadni ola olmaslik qobiliyati bilan bog‘liq. Ushbu risk yuqorida keltirilgan barcha risk turlarini o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda, investitsiya loyihasining barcha ishtirokchilari loyihaning to‘liq bajarilmasligi yoki hech bo‘lmaganda o‘zlari uchun yo‘qotishning oldini olishdan manfaatdor. Beqaror va tez o‘zgaruvchan vaziyatda investitsion faoliyat subyektlari yo‘qotishlarga olib keladigan barcha omillarni hisobga olishga majbur bo‘ladilar. Shunday qilib, risklarni tahlil qilishning maqsadi – potensial investorlarga loyihada ishtirok etishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun zarur ma‘lumotlarni berish va mumkin bo‘lgan moliyaviy yo‘qotishlardan himoya qilish choralarini ko‘rishdir.


Loyihaviy risklar – bular investitsion loyihalarni amalga oshirishga tahdid soluvchi va ularning samaradorligini pasaytiruvchi risklar yig‘indisidir.

Risklarni tasniflashda quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratiladi:

- loyihaviy imkoniyatning bosqich va foydalariga ko‘ra;
- loyihalar riski ishtirokchilarining risk omillariga ta’sir darajasi;
- risklardan himoyalalanish imkoniyatlari nuqtayi nazariga ko‘ra, ikki sug‘urtalangan va sug‘urtalanmagan turlarga ajratiladi.

⁶³ Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. / i.f.d., professor A.B.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – T.: “Moliya”, 2010. –b.165-167.

Loyihalar risklarini quyidagi turlarga bo'lishi mumkin va ularni alohida ko'rib chiqamiz (4.9-rasm).



4.9-rasm. Loyihalar risklari turlar

1. Loyiha ishtirokchilari riski. Loyiha ishtirokchilaridan birining o'z majburiyatini o'z vaqtida bajarmasligidir. Natijada butun bir loyiha samarasiz bo'lishi mumkin. Bu risk oldini olish loyiha menejeri nazorati ostida bo'ladi: Bunda

- loyiha ishtirokchilarini sinchkovlik bilan tanlash;
- ishtirokchilar o'rtasidagi shartnomalarda ko'rsatilgan qoida buzilishlarga jarima solish mexanizmini ko'rib chiqish;
- vaziyatdan kelib chiqib ishtirokchilarni o'zgartirish choralarini muntazam kuzatish;
- loyiha ishtirokchilarini loyihaviy risklarni sug'urtalashga majbur etish;
- imkoniyatga qarab bo'ysunuvchi kompaniya uchun kompaniyadan majburiyat talab qilish kerak bo'ladi.

2. Yuqori qiymatlilik riski. Bu risk unsurlari quyidagilardan iborat:

- loyihalashtirishdagi xatoliklar;
- mavjud resurslardan samarali foydalana olmaslik;

- loyihaning amalga oshirilish shartlaridagi o'zgarishlar (narx oshishi, soliq ko'tarilishi) va boshqalar.

Bu amalda ko'p uchraydigan risklardan biridir.

3. Bevaqt to'xtatilish riski. Bu risk sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- loyihalashtirishdagi xatoliklar;
- majburiyatlarga amal qilmaslik;
- tashqi shartlarning o'zgarishi (loyihani ekologik sabablarga ko'ra yopilishini talab etilishi, qog'ozbozlik) va boshqalar.

4. Konstruktorlik va texnologik risklar. Konstruktorlik riski – loyihani tayyorlash fazasidagi texnologiyasi mavjud emasligidir. Texnologik riski – obyekt ekspluatatsiyasida texnik-iqtisodiy parametrlardan chekinish rejimidir.

5. Ishlab chiqarish riski. Bu ishlab chiqarish jarayonidagi vujudga kelgan to'qnashuvlar bilan bog'liq risklar. Ishlab chiqarish jarayonlarining bir maromda bo'lmasligi va hatto to'liq to'xtab qolishi bilan xarakterlanadi. Uni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- geologik risk qazib olish miqdoridagi zaxiralarning noaniq belgilanishi;
- ekologik risk ekologik standartlarni buzilishi natijasida davlatga to'langan xarajatlarni oshib ketishi.

6. Boshqaruvchilik riski. Bu risk ishlab chiqarish riskining bir turi bo'lib, boshqaruv xodimlarida malaka va tajribaning yetishmasligi bilan xarakterlanadi.

7. Ortiqchalik riski. Bu risk loyihaviy mahsulotni sotilish miqdori va narxini tushishi bilan bog'liqdir. Bu risk bozor konyunkturasi o'zgarishi deb ham ataladi.

8. Moliyaviy risklar. Bu riskning asosiy turlari loyihaviy faoliyat bilan bog'liqdir va u quyidagi turlarga bo'linadi: kredit riski; valuta riski; foiz stavkasi o'zgarishi riski; qayta moliyalash risklari.

Kredit riski – bu loyihaviy kompaniyaning bank oldidagi to'lov majburiyatini qisman yoki umuman bajarilmasligidir.

Valuta riski – bu loyihaviy mahsulotni sotilishidan kelib tushgan valutani kredit valutasini bilan mos kelmasligidir. Hukumat milliy valutada sotishni talab etsagina harakatga keladi.

Foiz stavkasining o'zgartirish riski – bu risk kredit resurslarini suzib yuruvchi kursda foydalanishida kelib chiqadi.

Qayta moliyalash riski – tashabbuskor bank sanoatdagi turli qiyinchiliklarni hisobga olish va o'zi majbur bo'lib qolish mumkin.

Quyidagilar moliyaviy risklarni boshqarish tamoyillari hisoblanadi:

- risklarni ongli ravishda qabul qilish va boshqariluvchanlik;
- boshqaruvning mustaqilligi;
- qabul qilingan risk darajasinnig daromadlilikka mosligi;
- kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlari bilan taqqoslanish;
- boshqaruvning tejamkorligi;
- vaqt omili hisobi;
- kompaniyaning moliyaviy strategiyasi hisobi;
- riskni yetkazish imkoniyati.

9. Davlatlararo risk – bu tashqi loyihaviy risk bilan bevosita bog'liq bo'lib, unga ko'ra davlat siyosati yoki loyiha amal qiladigan hududdagi holat o'zgarishi mumkin.

10. Ma'muriy risk – bu tashqi darajadagi risk bilan bog'liq bo'lib, unga ko'ra loyihani amalga oshirish maqsadida zarur bo'lgan barcha turdagi litsenziyalarni davlatdan va xalqaro miqyosda olinishi ko'zda tutiladi. Ba'zi rivojlanayotgan davlatlarda bu holat korrupsiya bilan ham bog'liqdir

11. Huquqiy risk. Loyihalarni amalga oshirishda amal qiladigan milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy normalar bilan bog'liqdir. Bu risk qonunlarning mustahkam emasligi va tez o'zgaruvchanligi oqibatida yuzaga keladi.

12. Fors-mojor riski. Tashqi darajadagi risk turlariga bevosita bog'liq bo'lib, ular quyidagilardan iborat: yer qimirlash, ofatlar, yong'inlar va boshqalardir. Bunga yana tabiiy bo'lmagan qayta qurish, revolyutsiya kabi holatlar ham kiradi.


Loyihani boshqarish – bu sintetik intizom bo'lib, ixtisoslashgan va professional bilimlar to'plamidir va bunda risklarni boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda risklarni boshqarish bo'yicha yetarli darajada yaxshi tarkib topgan faoliyat turlari mavjuddir. Bular quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- identifikatsiya;
- risklarni baholash;
- risk boshqaruvida maqsad va instrument tanlash;
- riskning oldini olish va nazorat qilish;
- riskni moliyalashtirish;
- natijalar bahosi.

Birinchi va ikkinchi yoʻnalishlar risk tahlili hisoblanadi, bunda identifikatsiya riski – sifat tahlili boʻlsa, risk bahosi – miqdoriy tahlildir.

Risk tahlillari ichida eng koʻp uchraydigan riskning nazariy boshqaruvi boʻlib, statistik usullar hisoblanadi. Usullar: statistik tekshiruv Monte–Karlo eksport usullarini baholash analitik usul aloqador risklarni kattaligi tahlili muhim bosqichlardan biri boʻlib, riskni boshqarishda choralar va usullar bosqichi hisoblanadi.



4.10-rasm. Risk boshqaruvining asosiy guruhlari

Risklarni boshqarishda usul va choralardan foydalaniladi. Qabul qilingan usul doirasida bir necha choralardan foydalanish mumkin. Nazariya va amaliyotda risklarni boshqarish toʻrtta asosiy guruhga boʻlinadi: siqib chiqarish riski; riskni oldini olish va nazorat; risk sugʻurtasi; riskni singdirish (4.10-rasm).

Riskni oldini olish va nazorat oldindan belgilangan reja va dastur asosida tashkiliy texnik tadbirlarni koʻzda tutadi. Bular jumlasida quyidagi tadbirlar kiradi: risk monitoringi, risk bashorati, tahdid solayotgan xavfdan boshqarmani xabardor etishning oldini olish va nazorat doirasida maxsus tashkiliy texnik tadbirlar oʻtkazish. Natijalarni baholash mavjud loyiha doirasida risk – menejmentining yakuniy qismi hisoblanadi.

Risklar tahlili investitsiya jalb qilish bosqichlaridan oʻrin olgan. Ayni vaqtda bu tahlilning obyekti boʻlib investitsion va ishlab chiqarish bosqichlaridagi risklar hamda loyihalarning yopilish bosqichidagi risklar hisoblanadi. Tahlil oʻtkazish vaqtida bu bosqichlar oʻrtasidagi masofa shuni bildiradi:

- baʼzi risklar identifikatsiya bosqichida hisobga olinmagan boʻlishi mumkin;
- loyihani amalga oshirish shartlarni oʻzgarishi natijada baʼzi risklar nomuvofiq boʻlishi mumkin;
- loyihaga oʻtkazilgan oʻzgarishlar natijada baʼzi risklar toʻgʻri kelmasligi mumkin;
- risk boʻyicha yangi olingan axborot, bu riskni qayta koʻrib chiqish lozim.

Loyihaning kombinatsiyalashgan xususiyati. Bu omilni loyihaviy risk boshqaruvida hisobga olinishi investitsiya loyihasining boshlangʻich bosqichida risk tahlili vositasida koʻrib chiqish lozim. Loyiha doirasidagi turli xil faoliyatlarga aloqador holda: ilmiy izlanish, ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqalarni amalga oshirish lozim.

Yuqoridagi loyihaviy xususiyatlarni hisobga olib quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- loyihaviy risk tahlili alohida loyihaviy faoliyatda riskni boshqarish bosqichi sifatida emas, balki butun loyiha mobaynida bosh tamoyil boʻlish lozim.
- loyiha ishtirokchilarining koʻpligi asosiy (loyihaviy kompaniya, loyiha homiylari va kreditorlar) va ikkilamchi (isteʼmolchilar, yetkazib beruvchilar va boshqalar) ishtirokchilar oʻrtasidagi ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan:

birinchidan, har bir ishtirokchi boshqalardan farqli oʻlaroq oʻziga xos riskka ega;

ikkinchidan, har bir ishtirokchiga to‘g‘ri keladigan yuqori risk darajasi ishtirokchilar o‘rtasidagi zanjirga bog‘liq;

uchinchidan, har bir ishtirokchi uchun loyihaning boshqa ishtirokchilari o‘ziga xos risk olishdir.

Bundan xulosa chiqargan holda, shunga muvofiq tavsiyalar berish mumkin. Jumladan:

- barcha loyiha ishtirokchilari risk sharoitida bir tahlil uslubidan foydalanishlari hamda subyektiv riskni minimallashtirish va umumiy maqsadga erishish lozim;

- ishtirokchilar o‘rtasidagi risk taqsimoti hech bo‘lmasa, umumiy ko‘rinishda investitsiya loyihasining boshlang‘ich bosqichida amalga oshirishi mumkin. Agar risk taqsimoti bo‘yicha muzokaralar keyinroqqa qoldirilsa, loyiha saqlanib qolishda to‘xtab qolishi va sarflangan xarajatlar behuda ketishi mumkin.

Risk taqsimoti narx kelishish kabi operatsiyalardan ham muhimroq. Jumladan:

- riskni taqsimlashda uni ishtirokchilar zimmasiga alohida-alohida yoki umuman bo‘lib tashlashni o‘zi bo‘lmaydi, chunki bir ishtirokchining o‘z vazifasini bajarmasligi boshqalarni ham o‘ziga tortib ketadi va hamma jabr ko‘radi. Shuning uchun ishtirokchilar manfaatlari mos keladigan muhit yaratish lozim-ki, ular o‘zlarini “bir qayiqda” deb bilishi kerak;

- har bir ishtirokchi qay darajada bo‘lmasin riskning xususiy omili bo‘lib hisoblanadi, tashabbuskor hamkor tanlashda hamkorlarning bu ish borasidagi tajribasi, mutaxassisligi omillarga e‘tibor berish hamda hamkorlikning iqtisodiy ahvoli albatta birinchi navbatda ko‘rib chiqish lozim.

Loyihaviy faoliyatning xalqaro xususiyati shundan iboratki, loyiha ishtirokchilari turli davlat huquqchiligiga bo‘ysunishlari hamda xalqaro tashkilotlar statuslariga ega bo‘lishlari mumkin.

Loyihaviy faoliyatning internatsionallashuvi xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashishi bilan transmilliy kompaniyalarni jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini kuchaytirish, loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda xalqaro moliya institutlarning ahamiyatini o‘sishi bilan shartlanadi. Loyihaviy faoliyatning xususiyatlari yuqorida eslatib o‘tilgan risk-menejment bosqichlarida o‘z aksini topadi. Xususan:

- risklarni identifikatsiyalash, ya'ni tahlil omillarini aniqlash, risk ko'rinishlarini, bosqichlarini risk o'sishi mumkin bo'lgan sharoitda aniqlash mumkin;

- risklar turli-tumanligi (har bir loyiha uchun)ga qaramay, bir xil turdagi loyihalarda yuzaga keladigan risklar yetarli darajada andozalashgan;

- riskning tahliliy jarayonini rasmiylashtirish uchun turli risk matritsalarini ishlab chiqilgan, ularda loyihaviy risklarni ko'rinishlari yechimlari, sohalari va ularni amalga oshirish vaqtlari ko'rsatilgan.

Loyihaviy faoliyatda riskni baholashda asosan quyidagi usullardan foydalaniladi:

- “loyihaning ta'sirchanlik tahlili” foydalaniladi. Unga ko'ra “zararsizlik nuqta”sini aniqlash barqarorlikni tekshirishni aniqlash ko'zda tutildi. Ta'sirchanlik tahlili loyihaning ta'sirchanlik darajasi loyihada belgilangan o'xshash parametrlardan birining o'zgarishi loyiha ta'sirchanligi qay darajada o'zgarishini aniqlab beradi.

- “zararsizlik nuqta”sini aniqlash, ya'ni bu usul yordamida mahsulot sotuvidan kelib tushgan foyda va uni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni tengligi, ya'ni sotuv hajmini aniqlash mumkin. Zararsizlik nuqtasi tahlili loyihaviy qudrat yoki ishlab chiqarish hajmini aniqlash uchun xizmat qiladi.

- barqarorlik nazorati usuli loyiha ishtirokchilari uchun birmuncha xavfli bo'lgan loyihani o'sish ssenariysini ishlab chiqarishni ko'zda tutadi.


Tadbirkorlik faoliyati riski yoki biznes-risk (BR) – o'ziga xos va makroiqtisodiy omillar ta'siri natijasida vujudga keladigan hamda moliyalashtirish usulidan qat'i nazar har qanday investitsiya loyihasiga xos bo'lgan kutilayotgan natijalar olishning o'zgaruvchanligi bilan tavsiflanadigan barcha risk turlarini qamrab oladi.

Moliyaviy risk (FR) – aksiyadorlarga (mulk egalariga) yuklanadigan, korxonaga majburiyatlarini to'lamaslik bilan bog'liq qo'shimcha risk.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishdan oldingi tadqiqotlarda uzoq muddatli investitsiyalar foiz risklar miqdori quyidagi usullar asosida hisoblanadi va baholanadi (13.11-rasm):

- investitsion jalb etuvchanlik tahlili (sensitivity analysis);

- zararsizlik darajasi tahlili (break - even analysis);
- ehtimoliy taqsimotlar tahlili;
- imitatsiya modellari tahlili (Monte Carlo simulation analysis);
- subyektiv riskni tartibga solish jarayonlari (adjusting the payback period, risk -adjusted discount rate, adjusting cash flows);
- aniqlik ekvivalentlaridan foydalanish (certainty equivalent-approach);
- qarorlar iyerarxiyasining tahlili;
- standart og‘ishlar, sezuvchanlik koeffitsiyentlari hisob-kitobi.



4.11-rasm. Uzoq muddatli investitsiyalar foiz risklar miqdorini hisoblash usullar

Korxonaning umumiy risk darajasi tezimli va diversifikatsiyalangan risk yig‘indisi bilan belgilanadi.

Diversifikatsiyalangan risk – turli investitsiya loyihalarini yaxshi diversifikatsiyalangan kapital qo‘yilmalar portfeliga kombinatsiyalash hisobiga yo‘qqa chiqarish mumkin bo‘lgan investitsiyalangan kapitalni to‘liq yoki qisman yo‘qotish imkoniyatidir.

Tizimli risk investitsiyalar portfelini diversifikatsiyalash hisobiga kamayishi hisoblanadi.

Ma’qul keladigan risk darajasining risk darajasiga bog‘liqligini SARM modeli yordamida aniqlash mumkin bo‘lib, bu investitsiyalar

bozor portfelining daromadlilik darajasi o'zgarishlariga sezuvchanligiga bog'liq.

Moliya bozorida operatsiyalarni internet-treyding orqali amalga oshirish jarayonida xatarlar tez-tez uchrab turadi.

Birinchi xatarlar internet-treyding orqali moliya bozorlaridagi operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida tarmoqlar bilan bog'liq. Ma'lumki, internet tarmog'i juda ko'p axborotlarni o'ziga qamrab oladi. Axborotlarni uzatish va qabul qilish jarayonida uchinchi bir shaxsning bu jarayonni o'zgartirishi yoki o'zgartirishini kafolatlanmaydi. Bu esa brokerning mijozlar uchun xizmat doirasini kamaytirishga yoki amalga oshirilgan operatsiya orqali kutilayotgan daromadga erisha olmasligiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi xatarlar tarmoqdagi ma'lumotlar yo'qotilganda, mavjud bo'lmaganda yoki serverning internet tarmog'i bilan aloqani amalga oshiradigan kanallari yopib qo'yilganda vujudga keladi. Natijada, amalga oshirilgan oldi-sotdi operatsiyalari to'g'risidagi axborotlar o'z tizimini yo'qotib, mijozlarga xizmat ko'rsatish doirasi qisqarishiga olib keladi. Masalan, brokerlik kompaniyasining tarmoqdagi ma'lumotlari yo'qolishi yoki biron kishi tomonidan o'zgartirilishi, birinchidan, kompaniya iqtisodini izdan chiqarsa, ikkinchidan, mijozlarga xizmat ko'rsatish muammolarini keltirib chiqaradi. Agar katta birjaning tarmog'idagi ma'lumotlari o'zgartirilsa, yoki internet orqali birjadagi oldi-sotdi operatsiyalari o'zgartirilsa, bu butun bir bozorni o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu jarayon butun mamlakat moliya tizimini izdan chiqarishi mumkin.

Telekommunikatsiya xizmatlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan yana bir muhim xatar borligini ham nazarda tutish kerak. Mijoz internet orqali amalga oshirgan operatsiyasining ma'lum bir turdagi paketini yo'qotib qo'ygan bo'lsa, u zudlik bilan investitsion qaror qabul qilgan holda, shu davrdagi barcha axborotlar bilan tanishib chiqishi va tig'iz yoki kutilmagan operatsiyalarni bajarishga yo'l qo'ymasligi kerak. Texnik xususiyat bilan bog'liq bo'lgan xatarlar internet bilan amalga oshirilgan operatsiyalarga ta'sir qilmasligi mumkin. Lekin brokerlarning elektron tizimidagi quyidagi yo'nalishlari, ularning ish tartibi, ish faoliyatidagi operatsiyalarning himoyalaniishi va rivojlanishi hamda ish unumdorligining o'sishiga ta'sir etishi mumkin.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan xatarlar internet-treyding texnik xususiyatlari bilan bog‘liq xatarlar bo‘lib, ma‘lum ma‘noda oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirishda ishtirok etgan tashkilotchi brokerlarni ham qamrab oladi. Oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida, texnik nosozliklar kelib chiqishi, o‘zaro shartnomalarni belgilangan manzillar bo‘yicha yubormaslik, almashib ketish va shunga o‘xshash ko‘pgina jarayonlar internet-treyding tarmog‘ida texnik xatarlarni yuzaga keltiradi. Bu esa kerakli ma‘lumotlar, shartnomalar mijozlarga o‘z vaqtida yetib bormasligiga, iqtisodiy infratuzilmaning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishda internet-treyding tarmog‘ining ahamiyati juda katta. Lekin, shu bilan birga, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarli holatlar oldini olish ham muhimdir. Ehtiyotsizlik natijasida amalga oshirilgan har qanday operatsiya investor – broker – mijoz o‘rtasidagi nomutanosiblikni keltirib chiqarishi mumkin. Internet-treydingdagi xatarlarni oldini olishda, birinchi navbatda, tarmoqdagi dasturlarning ishlash sharoitiga e‘tibor berish zarur. Xatarning oldini olish uchun amalga oshirilgan operatsiyalar maxsus kodlar asosida, uchinchi shaxsga ma‘lum bo‘lmagan tarzda sir saqlanishi lozim, ikkinchidan esa, tarmoqdagi broker tizimini himoya qilish lozim. Internet-treydingdagi texnik jihatdan yuzaga keladigan xatarlar bilan birga, shu tarmoq orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir qiluvchi xatarlar mavjud bo‘lib, bular birja savdosiga qatnashayotganlarning mutaxassis emasligi natijasida kelib chiqadi. Bunday xatarlarning yuzaga kelishiga hozirgi kunda bu soha bo‘yicha mutaxassislarning kamligi sabab bo‘lsa, ikkinchidan, adabiyotlar yetishmasligi ham soha rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda risklarni boshqarishning asosiy shakllarini tahlil qilamiz (4.12-rasm).

Aktiv – bu mavjud axborotdan foydalanish, hodisalarni bashorat qilish orqali korxonada faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatish, salbiy oqibatlarining oldini maksimal darajada olishdir.

Adaptiv – yuzaga kelgan vaziyatga moslashish, “eng kichik salbiy ta‘sir”ni tanlash, yetkaziladigan zararining oldini qisman olishdan iborat.

Konservativ – bu boshqaruv ta‘siri risk holatidan keyin keladi, zararni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan.



4.12-rasm. Risklarni boshqarishning asosiy shakllari

Riskdan qochish – eng keskin yo‘nalish bo‘lib, u quyidagilardan tashkil topgan:

- risk darajasi juda yuqori bo‘lgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishdan voz kechish;
- katta hajmda qarz kapitalidan foydalanishdan voz kechish;
- aylanma vositalar likvidligi past bo‘lganda ko‘proq jamlashdan voz kechish;
- vaqtinchalik bo‘sh mablag‘lardan qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlarda foydalanishdan voz kechish (salbiy oqibatlariga ega – inflyatsiya sharoitida pul mablag‘lari qadrsizlanishi va pullarni qimmatli qog‘ozlarga vaqtinchalik kiritish tufayli qo‘ldan chiqarilgan foyda).

Limitlash – moliyaviy faoliyatning turli jihatlarini amalga oshirish siyosatini ishlab chiqish jarayonida mos keluvchi ichki moliyaviy me‘yorlarni belgilashdir va bu quyidagilarda o‘z aksini topgan:

- qarzga olingan mablag‘lar maksimal hajmi (salmog‘i);

- yuqori likvidli aktivlarning minimal hajmi (salmog‘i);
- bitta xaridorga beriladigan tovar krediti maksimal hajmi;
- bitta emitentning qimmatli qog‘ozlariga qo‘yilmalar maksimal hajmi;
- mablag‘larni debitorlik qarzlarga jalb qilish maksimal davri.

O‘zini-o‘zi sug‘urtalash – kontragentlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan moliyaviy operatsiyalar bo‘yicha risklarning salbiy ta‘sirini yo‘qotish uchun moliyaviy resurslarning bir qismidan ichki zaxira yaratish hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- zaxira kapitalini shakllantirish;
- maqsadli zaxira fondlarini shakllantirish;
- mas‘uliyat markazlari budjet tizimida zaxiralar shakllantirish;
- moddiy va moliyaviy resurslar sug‘urta zaxiralarini shakllantirish;
- foydani (taqsimlanmagan) qayta investitsiyalash.

Riskni taqsimlash – risklarning salbiy oqibatlarini oldini olish bo‘yicha maksimal imkoniyatlardan kelib chiqib, hamkorlar o‘rtasida qisman taqsimlash, ya‘ni:

- investitsiya loyihasi qatnashchilari o‘rtasida risklarni taqsimlash;
- korxonada va ta‘minotchi o‘rtasida risklarni taqsimlash;
- lizing operatsiyasi qatnashchilari o‘rtasida risklarni taqsimlash;
- faktoring operatsiyasi qatnashchilari o‘rtasida risklarni taqsimlash (tovar sotuvchisi va faktoring firma (bank) o‘rtasida).

Risklarni xedjirlash – keng ma‘noda – moliyaviy yo‘qotishlar riskini kamaytirish uchun har qanday (ichki va tashqi) mexanizmlardan foydalanish jarayonidir. Tor amaliy ma‘noda esa – moliyaviy risklar salbiy ta‘sirini yo‘qotishning turli moliyaviy vositalardan foydalanishga asoslangan, uning egasi oldindan belgilangan shartlarda kelajakda qimmatli qog‘ozlar, valuta, tovar va boshqalarni sotish yoki sotib olish huquqi yoki majburiyatini tasdiqlaydigan ichki mexanizmi usul samarali, biroq brokerlarga komission to‘lovlar, opsionlar bo‘yicha mukofotlar kabi ma‘lum bir xarajatlarni talab qiladi. Shuningdek, tovar yoki fond birjasida birja shartnomalarining har xil turlari bilan qarama-qarshi bitimlar tuzish

yo‘li bilan operatsiyalar bo‘yicha fyuchers shartnomalaridan foydalangan holda xedjirlash.

Risklarni xedjirlash uch turdagi bitimlar amalga oshirishni talab qiladi:

- kelajakda yetkazib berish shartida real aktiv yoki qimmatli qog‘ozlarni sotish (sotib olish) (forvard bitimi);

- fyuchers shartnomalarini bir xil sondagi aktivlar yoki qimmatli qog‘ozlarga sotish (sotib olish) (fyuchers shartnomalar bo‘yicha pozitsiyalar ochish);

- fyuchers shartnomalar bo‘yicha pozitsiyalarni real aktivlar yoki qimmatli qog‘ozlar yetkazib berilgan paytda ular bilan teskari (ofset) bitim tuzish yo‘li bilan yopish. Agar korxonada real aktivni yetkazib berish vaqtida narxning o‘zgarishi tufayli biron yo‘qotishga uchraydigan bo‘lsa, bu holda u xuddi shu aktiv soni bilan fyuchers shartnomasi xaridori kabi teng hajmda yutadi.

Bunda ikki xil operatsiyalar turi: xarid bilan xedjirlash va bu shartnomalarni sotishni xedjirlash kelib chiqadi.

- opsionlardan foydalangan holda xedjirlash shartnomada ko‘zda tutilgan muddat davomida qimmatli qog‘ozlar, valuta, real aktivni oldindan belgilangan narxda kelishilgan miqdorda sotish yoki sotib olish huquqi (lekin majburiyati emas) uchun to‘lanadigan mukofotli (opsionli) bitim. Jumladan, opsionning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

- xarid opsioni asosida xedjirlash (kelishilgan narx bo‘yicha xarid huquqini beradi);

- sotuv opsioni asosida xedjirlash (kelishilgan narx bo‘yicha sotish huquqini beradi);

- ikkiyoqlama opsion asosida xedjirlash (bir vaqtning o‘zida kelishilgan narx bo‘yicha xarid yoki sotish huquqini beradi);

- “svop”dan foydalangan holda xedjirlash va shu asosda tarkibini yaxshilash va yo‘qotishlarning oldini olish maqsadida moliyaviy aktivlarni (valuta, qimmatli qog‘ozlar) ayirboshlash (oldi-sotdi) yotadi. Masalan, *valuta “svopi”* – bir valutadagi kelajakdagi majburiyatlarni boshqa valutadagi mos keluvchi majburiyatlarga ayirboshlash; *moliyaviy “svop”* – qimmatli qog‘ozlarning bir turini boshqa turga aylantirish majburiyati (korxonada obligatsiyalarini – korxonada

aksiyalariga); *foiz “svopi”* – korxonaning qat’i belgilab qo‘yilgan foiz stavkali qarz moliyaviy majburiyatlarini o‘zgaruvchan foiz stavkali majburiyatlarga ayirboshlash va aksincha.

Diversifikatsiya – risklarni taqsimlashga asoslangan tizimsiz moliyaviy risklar salbiy ta’sirini yo‘qotishning mexanizmi hisoblanadi va ular quyidagilardan iborat:

- moliyaviy faoliyat turlarini diversifikatsiyalash (qimmatli qog‘ozlar, real investitsiyalar, boshqa kompaniyalarning nizom kapitalida qatnashish va boshqalar);
- valuta portfelini diversifikatsiyalash;
- depozit portfelni diversifikatsiyalash;
- kredit portfelini diversifikatsiyalash;
- qimmatli qog‘ozlar portfelini diversifikatsiyalash.

Nazorat uchun savollar

1. Investitsiya loyihasining mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
2. Investitsiya loyihasi qanday fazalarni o‘z ichiga oladi?
3. Investitsiya loyihalarini qanday guruhlarga ajratish mumkin?
4. Jahon amaliyotida investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun keng qo‘llaniladigan qanday modellar va ko‘rsatkichlarni bilasiz?
5. Investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirishning umumiy bosqichlarini tushuntirib bering.
6. Investitsiya loyihalari hayotiy sikli bosqichlarini tushuntirib bering.
7. Investitsion risklarni boshqarishning qanday shakllarini bilasiz?
8. Korxonalarda investitsion mablag‘lardan samarali foydalanishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
9. Investitsiya loyihasini boshqarish jarayoni qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
10. Investitsiya loyihalari risklarini qanday turlarga ajratish mumkin?

5-BOB. XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA MOLİYALASHTIRISH

5.1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy mohiyati va mexanizmlari

Ma'lumki, bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish maqsadida yo'naltirilgan har qanday shakldagi mulk va moliyaviy mablag'ni to'laqonli xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo, shunday mulk shakllari borki, ular xorijiy investitsiya hisoblanmaydi. Masalan, elchixonada chet davlat mulki hisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa, bu xorijiy shaxs mulki hisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo'la olmaydi.

Xalqaro investitsiyalar jahon mamlakatlari o'rtasida harakatda bo'lgan investitsiyalardir. Investitsiyalarni xorijga chiqarish, ularning mamlakatlar o'rtasidagi faol harakati zamonaviy jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi. Investitsiyalarni chetga chiqarish jahon iqtisodiyotidagi monopoliya hukmronligiga chek qo'yadi. Hozirgi vaqtda xalqaro investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 30%dan oshadi. Bu ko'rsatkich jahon savdosi o'sishi sur'atlaridan deyarli 5 marotaba ortiqdir. Xalqaro investitsiyalar o'zida moddiy boylik barpo etish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish, pul va tovar shakllarida jamg'arilgan zaxiralarni mujassamlashtiradi. Ushbu investitsiyalar doimiy ravishda mamlakat ichida bir tarmoqdan boshqasiga hamda davlatlararo harakatda bo'ladi.

Kompaniyalar va jismoniy shaxslar investitsiya jarayonining ishtirokchilaridir. Ular investitsiya jarayonida ham talab tomonida ham taklif tomonida ishtirok etishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyalarning ichki investitsiyalardan farqi shundaki, ularda investor boshqa mamlakat fuqarosi bo'ladi. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ssuda kapitali (ya'ni qarz va kredit) hamda bevosita (to'g'ridan to'g'ri) va portfel investitsiyalarga bo'linadi. Investitsiyalar nimaga yo'naltirilganligi ular qaysi xorijiy investitsiya turiga kirishini belgilaydi.

Xorijiy investitsiyalar qo‘shma korxonalarda o‘z hissasi bilan qatnashib, xorijiy investorlarga to‘liq tegishli bo‘lgan korxonalarni yaratish, xususiylashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olishi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo‘lishi, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga asosan quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi (5.1-rasm):

iqtisodiy omillar:

- ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining bir maromda ushlab turilishi;

- jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta’siri ostida olib borilishi);

- ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va integratsiyalashuvini chuqurlashuvi;

- jahon iqtisodiyotida transmilliy rivojlanishga keng e’tibor qaratish (AQSH Transmilliy korporatsiyalari xorijiy filiallarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi AQSH tovar eksportidan 4 marotaba ortiqdir);

- ishlab chiqarishning globallasuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;

- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi va boshqalar.


siyosiy omillar:

- kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (erkin iqtisodiy hududlar, offshor hududlari va boshqalar);

- rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashuv siyosatini olib borish;

- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiy sektorni va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash);

- bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.



5.1-rasm. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda O'zbekistonning yangi investitsiya siyosatida o'z aksini topgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy mohiyatiga bo'lgan yondashuvlarni tahlil qilib chiqamiz.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq:

to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari – chet ellik investorning hukumat kafolatsiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari;

chet el investitsiyalari – chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar;

chet ellik investorlar – chet davlatlar, chet davlatlarning ma’muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o‘rtasidagi bitimlarga yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyekti bo‘lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatadigan yuridik shaxslar, har qanday boshqa shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar, chet davlat fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – aksiyalarining (ulushlarining, paylarining) yoki ustav fondining (ustav kapitalining) kamida o‘n besh foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar.

Jumladan, chet ellik investorlarga hamda chet el investitsiyalariga adolatli va teng huquqli rejim taqdim etiladi, ularni to‘liq va doimiy ravishda himoya qilish hamda ularning xavfsizligi ta’minlanadi. Shu bilan bir qatorda chet ellik investorlarga quyidagi huquqlari belgilab qo‘yilgan investitsiya faoliyati natijasida olingan, o‘ziga tegishli bo‘lgan ixtirolarni, foydali modellarni va sanoat namunalari xoriжда hamda O‘zbekiston Respublikasida patentlash to‘g‘risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;

- O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi soddalash-tirilgan tartibini qo‘llash;

- O‘zbekiston Respublikasidan chiqmasdan muddatini uzaytirish imkoniyati bilan «investitsiya vizasi»ni, ularning oila a’zolari (tur-mush o‘rtog‘i, ota-onasi va farzandlari) esa «investitsiya vizasi» amal qilish muddatiga mos ravishda «mehmon vizasi»ni olish;

- O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga yoxud «investitsiya vizasi»ga ega bo‘lgan chet ellik investorlar hamda ularning oila a’zolari (tur-mush o‘rtog‘i, ota-onasi va farzandlari) quyidagi huquqlarga ega:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida ishga joylashish;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan teng huquqlar asosida tibbiy va ta’lim xizmatlaridan foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasining ta’lim muassasalarida o‘rta va oliy ta’lim olish.

- investorlar va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida har qanday chet davlat fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilan mehnat shartnomalarini erkin tuzish;

- huquqiga ega. Bunday shaxslar mehnat shartnomasining butun amal qilish davrida tegishli ko‘p martalik vizalarni olgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirish va uning hududida bo‘lish huquqiga ega;

- chet ellik xodimlarning ish haqi va qonuniy yo‘l bilan olingan boshqa daromadlari qonunda belgilangan soliq va to‘lov to‘langandan keyin ular tomonidan boshqa davlatlarga hech bir cheklovlarsiz o‘tkazish;

- investor, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar chet ellik xodim uchun pensiya ta’minoti bo‘yicha to‘lovlarni ushbu xodimning doimiy yashash joyi bo‘lgan mamlakatning tegishli fondlariga o‘tkazish.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy o‘rinni *chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish* muhim ahamiyat kasb etadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishning asosiy sabablari turli xil ichki, tashqi va strategik yo‘nalishlarda o‘z aksini topadi (5.1-jadval).

Shu o‘rinda, O‘zbekistonning yangi investitsiya siyosatini tartibga soluvchi bosh hujjatda⁶⁴ chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar faoliyati bilan bog‘liq quyidagi huquqlar belgilab qo‘yilgan:

- chet ellik investorlar O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishi va ularga O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda xalqaro

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son qonuni.

shartnomalari bilan berilgan barcha huquqlar, kafolatlar va imtiyozlardan foydalanish;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, uning tashqarisida har qanday valutada, har qanday bankda hisobvaraqlarni ochish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish;
- ssudalarni chet el valutasida olish va qaytarish;

5.1-jadval

Xorijiy investitsiyali korxonalarni tashkil etish sabablari⁶⁵

	Investitsiya muhitining ustunliklaridan foydalanish
Ichki sabablar	Risklarni taqsimlash
	Ishlab chiqarish miqyosida tejash
	Boshqaruvning yangi usullarini o‘rganish
	Xorijiy bozorlarga chiqishni jadallashtirish
	Shartnoma xarajatlarini kamaytirish
Tashqi sabablar	Jahon bozoriga chiqish
	Siyosiy keskinlikning yumshashi
	Milliy hukumat talablari
	Samarali raqabotni vujudga keltirish
Strategik sabablar	Mustahkam xomashyo bazasiga ega bo‘lish
	Texnologiyalar transferti
	Ishlab chiqarish diversifikatsiyasi
	Mamlakatda uzoq vaqt faoliyat olib borish imkoniyati

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O‘zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan sho‘ba korxonalar, filiallar, shuningdek, yuridik shaxs bo‘lmagan vakolatxonalar va boshqa alohida bo‘linmalar tashkil etish;

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O‘zbekiston Respublikasi hududida ixtiyoriy asosda uyushmalar va boshqa xo‘jalik birlashmalarini tashkil etish;

⁶⁵ Kuziyeva N. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar moliya va kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006. 62-bet.

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining chet el valutasidagi barcha xarajatlari ularning o'z valuta tushumlari, shuningdek, chet el valutasini olishning qonun hujjatlarida ruxsat etilgan boshqa manbalari hisobidan ta'minlanish;

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar eksport-import operatsiyalarini qonun hujjatlari talablariga rioya etgan holda mustaqil ravishda amalga oshirish;

- ixtirolarni va sanoat namunalarini investitsiyalar sifatida kirituvchi chet ellik investorlarga hamda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalariga tegishli bo'lgan ixtirolarni patentlash hamda sanoat namunalarini joriy etish va boshqalar.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda maxsus iqtisodiy zonalar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, jahon amaliyotida maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etishda bir qator bojxona, soliq, va moliyaviy faoliyat bilan bog'liq imtiyozlar qo'llaniladi (5.2-jadval).

5.2-jadval

Jahon amaliyotida qo'llaniladigan maxsus iqtisodiy zonalarining modellari: hajmi va imtiyozlari tarkibi⁶⁶

Maxsus iqtisodiy zonalar turlari	Maydoni (kv. km)	Bojxona chegaralari-ning mavjudligi	Bazaviy imtiyozlar*	Asosiy mintaqalar / mamlakatlar
Erkin savdo zonalari	3 – 5 gacha	Majburiy	Bojxona imtiyozlari	Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yirik transport tugunlari
Sanoat-ishlab chiqarish zonalari:				
a) “nuqtali”	1 – 2 gacha	Yo‘q	Bojxona imtiyozlari	Braziliya, Meksika, Puerto-Riko, Filippin, Karib havzasi
b) sanoat parklari	0,1 – 0,5 1 – 20	Majburiy emas	Bojxona imtiyozlari	Janubiy-Sharqiy Osiyo, Meksika
Savdo-ishlab chiqarish	1 – 4	Majburiy	Bojxona imtiyozlari	AQSH

⁶⁶ Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. / i.f.d., professor A.B.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – T.: “Moliya”, 2010. –b.187.

Kichik biznes zonalari	0,01 – 3	Yo‘q	Moliyaviy, soliq imtiyozlari	Hindiston, Yaqin Sharq, Argentina, Fransiya
Ilmiy-texnologik (ilmiy-ishlab chiqarish)	2 – 20	Majburiy emas	Soliq imtiyozlari	Janubiy-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari
Offshor moliya markazlari	0,05 – 0,1	Yo‘q	Soliq imtiyozlari	Karib havzasi, Gonkong, Singapur
Kompleks:				
a) maxsus iqtisodiy	16 – 330	Majburiy	Soliq, bojxona, moliya	Xitoy
b) “Manaus” zonasiga o‘xshash alohida rejimga ega hududlar	80 dan yuqori	Hudud qismlari uchun majburiy	Soliq, bojxona, moliya	Braziliya (“Manaus”), Argentina (“Olovli yer”)
d) alohida iqtisodiy zonalar	Ma‘muriy-hududiy tuzilmalar doirasida (shahar, tuman)	Alohida eonada joylashgan kichik (lokal) hududlar uchun majburiy	Soliq, bojxona, moliya	Rossiya (Kaliningrad viloyati)


* - Ma‘muriy imtiyozlar barcha turdagi zonalar uchun bazaviy hisoblanadi.

O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat ko‘rsatishini va ularni rivojlantirishni tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2020-yil 17-fevralda O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.

Qonunga muvofiq **maxsus iqtisodiy zona** – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan hududdir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarining quyidagi turda tashkil etish mumkin (14.2-rasm). erkin iqtisodiy zonalar;

- maxsus ilmiy-texnologik zonalar;
- turistik-rekreatsion zonalar;
- erkin savdo zonalari;
- maxsus sanoat zonalari.



5.2-rasm. O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar turlari

Erkin iqtisodiy zona – yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta’minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hududdir.

Maxsus ilmiy-texnologik zona – innovatsiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlarida ilmiy tashkilotlar va ilmiy faoliyat sohasidagi boshqa tashkilotlar (texnologik parklar, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi) markazlari, innovatsion klasterlar, venchur fondlari, biznes-inkubatorlar va boshqalar) to‘plangan hududdir.

Turistik-rekreatsion zona – unda zamonaviy turistik infratuzilma obyektlarini (mehmonxona komplekslari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va boshqa turistik ahamiyatdagi obyektlarni),

maxsus faoliyat ko'rsatuvchi va mavsumiy rekreatsion dam olish zonalarini turistlarga xizmat ko'rsatish maqsadida zarur shart-sharoitlarni ta'minlagan holda barpo etishga doir investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladigan hududdir.

Erkin savdo zonalari konsignatsiya omborlarini, maxsus bojxona va soliq rejimlari bo'lgan hududlarni, shuningdek, tovarlarga ishlov berish, ularni o'rab-joylash, saralash, saqlash uchun maydonchalarni o'z ichiga oladi. Erkin savdo zonalari chegara punktlarida, aeroportlarda, temir yo'l bog'lamlarida yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa bojxona hududlarida tashkil etiladi.

Maxsus sanoat zonasi – boshqaruv, xo'jalik va moliyaviy faoliyatning alohida rejimi joriy etiladigan hudud. Maxsus sanoat zonalari zarur ma'muriy, ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani barpo etish uchun yer uchastkalarini ajratish orqali shakllantiriladigan xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish zonalarini o'z ichiga oladi.

Maxsus iqtisodiy zonalar hududida *investitsiya loyihalari amalga oshirish* arxitektura va qurilish, texnik jihatdan tartibga solish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnatni muhofaza qilish hamda sanoat xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqlik;

- moliyalashtirish manbalarining mavjudligi;
- maxsus iqtisodiy zona faoliyatiga va tarmoq ixtisoslashuviga muvofiqlik;
- texnologik uskunalar va texnologik jarayonlar ko'rsatkichlarining zamonaviy energiya samaradorligi talablariga muvofiqligi.

Jumladan, maxsus iqtisodiy zona direksiyasi investitsiya loyihasida bayon etilgan shartlar, muddatlar va tartib-taomillarga muvofiq *investitsiya bitimini* tuzadi. Investitsiya bitimi investor tomonidan maxsus iqtisodiy zona ma'muriy kengashining bayonnomasi (undan ko'chirma) olinganidan keyin investor va maxsus iqtisodiy zona direksiyasi direktori tomonidan imzolanadi.

Investorlar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va manfaatdorligini ta'minlash maqsadida maxsus iqtisodiy zonalarining *maxsus huquqiy rejimi* ishlab chiqilgan. Maxsus huquqiy rejim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maxsus bojxona rejimi;

- soliqlar va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar maxsus iqtisodiy zonalarda mehnat munosabatlarini tartibga solish.

Jahon amaliyotida xorijiy investitsiyalar harakatini amalga oshirish ko'pincha qo'shimcha iqtisodiy, siyosiy va tijorat risklari bilan bog'liq. Shuning uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi ayrim mamlakatlarning milliy qonunchiligida xorijiy investorlarga nisbatan qo'shimcha imtiyozlar qo'llaniladi. Turli mamlakatlarda xorijiy investorlarga nisbatan quyidagi asosiy imtiyozlar qo'llaniladi:

- qayta investitsiyalashga nisbatan imtiyozli soliq, rejimini taqdim etish;

- shartnoma asosida investitsiya loyihalariga jalb qilinadigan xorijiy mutaxassislarning ish haqi va boshqa mukofot to'lovlarini soliqqa tortishning imtiyozli rejimini yaratish;

- xorijiy investorlarning eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishlarini rivojlantirish uchun import ko'rinishida olib kirayotgan mol-mulk, asbob-uskunalar va texnologiyalarni bojxona to'lovlaridan ozod qilish.

Shuningdek, agar xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat qonunchiligi milliy investorlar uchun salbiy tomonga o'zgarsa, odatda, xorijiy investitsiyali korxonalar uchun ushbu o'zgarishlar bo'yicha muddati kechiktirilishi ko'zda tutiladi.

Jahonda aksariyat hollarda, xorijiy investorlar uchun imtiyozli rejim xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga maksimal darajada intilayotgan rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tomonidan yaratiladi. Shu bilan birga xalqaro investitsiya jarayonining asosiy ishtirokchilari sifatida investitsiya faoliyatini kengaytirishga va barcha uchun yagona investitsiya rejimini yaratishga intilayotgan rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi. Boshqacha aytganda, jahonning yetakchi rivojlangan mamlakatlari umumiy, bir xil tamoyillar asosida ishlaydigan yagona investitsiya rejimini shakllantirish tarafdorlaridir.

Davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashning asosiy shakllari tarkibidan quyidagilarni ajratish mumkin:

Investitsiya kafolatlari to'g'risidagi qoidalar milliy hukumatlar tomonidan qabul qilinadi. Shu bilan birga ular ikki tomonlama va bir nechta mamlakatlar ishtirok etadigan mintaqaviy ko'p tomonlama kelishuvlarda ham mavjud bo'ladi. Ikki tomonlama kelishuvlarda asosan quyidagi qoidalar qayd etiladi:

- xorijiy investorlar uchun milliy rejim;
- xorijiy investorlarni himoya qilish (milliylashtirishdan, kapital, foyda va dividendlarning repatriatsiyasidan);
- nizolarni hal qilish tartibi;
- siyosiy risklar bilan bog'liq, zararlardan sug'urtalash.

Jahon xo'jaligida ko'p tomonlama shartnomalar asosida investitsiyalarni kafolatlash qoidalari bilan Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (MAGI) shug'ullanadi va quyidagi masalalarni ko'rib chiqadi:

- *xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash.* Bunda investor risklarni sug'urtalaydi. Odatda, sug'urta summasi investitsiya summasining 1 foizigacha miqdorini tashkil etadi. Milliy sug'urta agentliklari va kompaniyalari faqat o'zlarining to'g'ridan to'g'ri investorlarini sug'urtalaydilar;

- *investitsiya nizolarini hal etish.* Buni kapitalni qabul qiluvchi yoki chetga chiqaruvchi mamlakatning milliy qonunchiligi yoki xalqaro huquq qoidalari asosida amalga oshirish mumkin;

- *ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish.* Agar korporatsiya bir nechta mamlakatda ish yuritayotgan bo'lsa, ushbu mamlakatlar uning foydasini soliqqa tortishga harakat qiladi. Ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish haqidagi kelishuvga asosan xorijiy korporatsiyalar kapitalni qabul qiluvchi mamlakatda soliqning o'z mamlakatida to'lanmagan qismidagina soliq to'laydi;

- *ma'muriy va diplomatik qo'llab-quvvatlash.* Odatda, kapital chiqaruvchi mamlakatlar o'z investorlarini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu mamlakatlar investitsiya kiritilayotgan mamlakat bilan o'z investorlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish haqida muzokaralar olib boradi. Jahonning aksariyat mamlakatlarida investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha milliy agentliklar tashkil etilgan.

5.2. Xorijiy investitsiyalarning shakl va turlari

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiy-
lashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan
qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi
kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish
dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy
investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun
ishonchli huquqiy himoya va kafolatlar bilan ta'minlandi.

Iqtisodiy adabiyotda investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat
iqtisodiyotiga ko'rsatiladigan samarani aniqlashda ikki xil yondashuv
mavjud.

Birinchi yondashuv tashqi savdoga oid an'anaviy nazariyalarga
xos bo'lib, ular xorijiy investitsiyalarning moddiy buyum omiliga
bevosita ta'sirini belgilaydi. Bunday modelning asosiy sharti shundan
iboratki, xorijiy investitsiyalar mehnatning chegaralangan mahsulini
ko'paytiradi hamda kapitalning chegaralangan mahsulini kamaytiradi.

Sanoatni tashkil etish bilan bog'liq, ikkinchi yondashuv
investitsiyalar kiritishning bilvosita va tashqi samarasiga jiddiy e'tibor
beradi. Mazkur nazariya tarafdorlari nima uchun firmalar o'z
mamlakatida xuddi shunday tovarlar yoki xizmatlarni ishlab
chiqarmasdan xorijga investitsiya qilishlari sababini tushunishga
urinadilar. Ularning fikricha, xorijiy investitsiyalar mehnat unumdor-
ligini oshirish va eksportni kengaytirish asosida qabul qiluvchi
mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlaydi. Xorijiy investitsi-
yalar hisobiga olinadigan, ta'minlanadigan afzalliklarning eng muhim
mezoni qabul qiluvchi mamlakat va undagi investitsiya muhiti
to'g'risidagi tavsifdir.

Aksariyat nazariyalar xorijiy ishlab chiqarish va xalqaro *savdoning
o'zaro o'rini bosuvchi bo'lib, to'g'ridan to'g'ri xorijiy* investitsiyalar
(TTXI) oqimi yuqori texnologiyalarning kirib kelishiga olib keladi,
shuningdek, ularni mahalliy firmalarga joriy etish samarasini oshiradi,
bu esa mavjud resurslardan yanada samarali foydalanilishga olib
keladi, degan fikrga asoslanadi.

Xorijiy investitsiyalarning shakllari mavjud bo'lib, amaliyotda
ular qator mezonlar bo'yicha tasniflanadi (5.3-jadval).

Xorijiy investitsiyalarning shakllari

Tasnif mezonlari	Shakllari
Kelib chiqish manbalariga ko'ra	- Davlat - Xususiy - Xalqaro - Aralash
Chetga chiqarish shakli bo'yicha	- Pul
Foydalanish xususiyatiga ko'ra	- Tadbirkorlik - Ssuda
Maqsadiga ko'ra	- To'g'ridan to'g'ri - Portfel - Xalqaro qarzlari - Bank depozitlari
Subyektlar bo'yicha	- Makrodaraja - Mikrodaraja
Muddatiga ko'ra	- O'ta qisqa muddatli (3 oygacha) - Qisqa muddatli (1 yilgacha) - O'rta muddatli (1 yildan 5 - 7 yilgacha) - Uzoq muddatli (5-7 yildan 40 - 45 yilgacha)
Oqimlar yo'nalishlari bo'yicha	- Tovarlar va xizmatlar oldi-sotdisiga valuta-kredit va hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish - Asosiy va aylanma kapitalga xorijiy investitsiyalar - Qimmatli qog'ozlar va turli moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalar - Valuta operatsiyalari

YaIM bir qismining rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam va davlatlarning xalqaro tashkilotlarga badallari shaklida budjet orqali qayta taqsimlanishi

Xalqaro amaliyotda davlat kapitali ko'proq ssuda, xususiy va uzoq muddatli kapital shaklida bo'lib ular – tadbirkorlik shaklida faoliyat ko'rsatadi.

Kelib chiqish manbalariga ko'ra – bu davlat mablag'lari yoki xususiy kapital ko'rinishida bo'ladi. Davlat kapitali banklar ichida

rasmiy kapital deb ham ataladi. U davlat budjetidan xorijga chiqariladigan yoki u yerdan yo bevosita hukumatlar qarori bilan, yoki hukumatlararo tashkilotlar qarori bilan qabul qilinadigan mablag'lardir.

Shakllariga ko'ra – bu davlat qarzlari, ssudalar, grantlar (sovg'alar), yordam ko'rinishida bo'lib, ularning xalqaro harakati hukumatlararo shartnomalar bilan belgilanadi. Xalqaro tashkilotlarning kreditlari va boshqa mablag'lar ham shular qatoriga kiradi. Biroq, har qanday hollarda ham bu soliq to'lovchilarning oluvchiga turli yo'llar bilan yetib boradigan pullari hisoblanadi.

Xususiy kapital – bu xususiy shaxslar tomonidan xorijga joylashtiriladigan yoki xorijdan qabul qilinadigan nodavlat manbalar mablag'laridan iborat. Ular tarkibiga investitsiyalar, savdo kreditlari, banklararo kreditlash kiradi. Ular davlat budjeti bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi, biroq, hukumat ularning ko'chib yurishini kuzatib turadi va o'z vakolatlari doirasida ularni nazorat qilib, boshqarishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalarning asosiy shakllari tadbirkorlik va ssuda kapitali ko'rinishida bo'ladi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan xususiyatlar va ishtirok etish maqsadlarining qanchalik amalga oshishiga bog'liq holda, tadbirkorlik kapitalini chetga chiqarishning ikki turi ajratiladi: to'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalar (PI). To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) ko'pincha ayrim adabiyotlarda bevosita xorijiy investitsiya (BXI)lar ham deb yuritishadi.

TTXI – bu xorijiy kapitalning uzoq muddatli kiritilishi bo'lib, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksioner kapitaliga to'la ega bo'lish yoki kamida 10 foizi xo'jalik faoliyatining ta'sirchan nazorat qilinishini ta'minlaydi.

Bevosita investitsiyalar – kapitalning to'g'ridan to'g'ri eksporti bo'lib, investitsiya kirituvchiga shu korxonadan ustidan nazorat qilish huquqini beradi. Bunda korxonadan asosiy kompaniyaning xorijdagi shahobchasiga aylanadi. Bevosita xorijiy investitsiya (BXI)lar asosan xususiy tadbirkorlik kapitali shaklida bo'ladi.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni BXIlar turiga kiritish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aksionerlik kapitalining hissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Bu ko'rsatkich AQSHda 10%, Fransiya va Buyuk Britaniyada 20% ga yaqin, Germaniyada 25% dan 50% gacha, O'zbekistonda esa 49% darajasida belgilangan. Shuningdek, shu korxonaning boshqaruvida bevosita amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekanligi ham uning muhim belgilaridan biridir. Investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun mas'uliyatni davlat va aholi zimmasiga yuklamasdan, balki ularni tadbirkorlik tizimlari o'rtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan usuli hisoblanadi.

BXI borasidagi yana bir yondashuv bu turdagi investitsiyalarni faqat mulkchilik ko'lami bilan, ya'ni aksionerlik kapitalidagi ulushi bilan bog'liq, deb ko'rsatadi. Unga muvofiq BXIlarni:

- a) xorijda aksiyalarni sotib olish orqali;
- b) foydani qayta investitsiyalash yordamida;
- d) firma ichki qarzlari va qarzdorliklari orqali amalga oshirish mumkin.

Ko'pchilik iqtisodchilar bu shakllar yetarli emas, deb hisoblashadi va asosli ravishda turli xil noaksioner shakllar orqali bu ro'yxatni davom ettirishadi (subkontraktlar, boshqaruv kelishuvlari, franchayzing, litsenzion kelishuvlar va boshqalar).

BXIlarning shakl va usullariga bog'liq tushunchalar bilan bog'liq turli yondashuvlarning ko'payishi qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolar umumbashariy xarakterga ega bo'lib, nostandart yondashuvlar yechimini talab etadi.

Bevosita investitsiyalar ikki guruhga bo'linadi:

1. Transkontinental kapital qo'yilmalar.
2. Transmilliy qo'yilmalar.

Transkontinental kapital qo'yilmalar investitsiya kiritish uchun qulay bozor sharoiti bo'lgan holda boshqa bir davlat yoki kontinentdan investitsiya eksportini amalga oshirishdir. Asosiy maqsad – bozorni egallash va shu kontinentda yangi ishlab chiqarishni tashkil etish.

Transmilliy kapital qo'yilmalari asosan qo'shni davlatlarga amalga oshiriladi. Bundan asosiy maqsad – bosh kompaniyaga nisbatan qilinadigan kapitalning harakatini minimum darajada amalga oshirish.

Bevosita investitsiyalar ikki maqsadga yo'naltiriladi:

1. Yangi kompaniya tashkil etish.

2. Bankrot bo'lgan kompaniyalarni xarid qilish.

Portfel investitsiyalar – bu kapitalni xorijiy korxonalar qimmatli qog'ozlariga (korxonalar ustav kapitalining 10% dan kam qismini) kiritish shaklida olib chiqib ketish bo'lib, investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi.

Portfel investitsiyalar ancha yuqori likvidlikka ega bo'lib, harakatchan hisoblanadi. Ularni riskli zonadan boylik orttirish yengilroq bo'lgan muhitga ko'chirish qiyin emas. Portfel investitsiyalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va professional bilimlarni oshirish uchun katta mehnat talab etmaydi.

Portfel investitsiyalar (portfolio investments) shunday investitsiyalarki, bunda kapital daromad olish maqsadida korxonalarining aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi. Bunday investitsiyalar korxonalarining moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan nazorat o'rnatish huquqini bermaydi. Xorijiy portfel investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda firmalar uchun muhim ahamiyatga ega. By turdagi investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni yechish uchun murojaat qilinadi. Korporatsiyalarning moliyaviy bo'limlari mablag'larning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga qisqa muddatli investitsiyalardan yuqori foyda olish uchun o'tkazadilar. Bunday investitsiyalar ko'pincha xususiy tadbirkorlar kapitaliga asoslangan, ba'zida esa o'z qimmatbaho qog'ozlarini chiqaradi va xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib oladi.

Xalqaro portfel investitsiyalari mamlakat to'lov balansida qanday klassifikatsiyalangan bo'lsa, shunday aks ettiriladi. Portfel investitsiyalar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

Aksiyador qimmatbaho qog'ozlari (equity securities) – bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, hujjat egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy huquqqa egaligini tasdiqlaydi.

Zayom qimmatbaho qog'ozlar (debt securities) – bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, zayom egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan munosabatini tasdiqlaydi.

Zayom qimmatbaho qog'ozlari quyidagi shakllarda chiqariladi:

Obligatsiya (bond) (oddiy veksel, qarz majburiyati) pulli dastak bo'lib, uning sohibiga kafolatlangan va qat'i belgilangan pul daromadi

yoki shartnoma asosida belgilangan o‘zgaruvchan pul daromadini olish huquqini beradi.

Pul bozori dastaklari – pulli dastak bo‘lib, uning sohibiga ma’lum bir davr ichida kafolatlangan va qat’i belgilangan pul daromadi olish huquqini beradi. Bu dastaklar bozorda pasaytirilgan narxlarda sotiladi, narxni pasaytirish darajasi foiz stavkasining katta-kichikligiga va qarzni qoplanish muddatiga bog‘liqdir. Bularga g‘azna veksellari, depozit sertifikatlari, bank apsentlari va boshqalar kiradi.

Moliyaviy derivativlar (financial derivatives) – bozor narxiga ega bo‘lgan pulli dastak bo‘lib, uning sohibiga birlamchi qimmatbaho qog‘ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Bularga opsiolar, fyucherslar, varrantlar, svoplar kiradi.

Xalqaro portfel investitsiyalari harakatini hisobga olish maqsadida to‘lov balansida quyidagi kategoriyalar qabul qilingan:

1. Nota (qarz majburiyati) (note) – qisqa muddatli (3-6 oy) pulli dastak bo‘lib, bank bilan kelishuv asosida qarz oluvchining o‘z nomiga chiqariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta‘minlanadi. Keng tarqalgan notalar – Yevronotalardir.

2. Opsion (option) – shartnoma (qimmatbaho qog‘oz) bo‘lib, xaridorga ma’lum bir qimmatbaho qog‘oz yoki tovarni belgilangan muddatdan so‘ng yoki ma’lum bir davr ichida qat’i belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqini beradi. Opsion xaridori uning egasiga yuqorida qayd etilgan huquqlarni sotishi evaziga mukofot pulini to‘laydi.

3. Varrant (warrant) – opsiinning bir turi bo‘lib, egasiga belgilangan muddat ichida emitentdan imtiyozli sharoitda ma’lum bir miqdordagi aksiyalarni sotib olish imkonini beradi.

4. Fyuchers (futures) – qimmatbaho qog‘ozlarni, valuta yoki tovarlarni belgilangan narx va kelajakdagi belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish borasidagi bajarilishi majbur bo‘lgan qisqa muddatli standart shartnomalar.

5. Forvard kursi (forward rate) – asosiy qarz summasining ma’lum bir o‘zgarma qismiga nisbatan belgilangan vaqtda to‘lanadigan foiz stavkasining hajmi to‘g‘risida kelishuv bo‘lib, u o‘sha kundagi foiz stavkasidan past yoki yuqori bo‘lishi mumkin.

6. Svop (swap) – savdo qoidalariga amal qilgan holda bitta qarzni to‘lash bo‘yicha ma’lum bir muddat o‘tgandan so‘ng shartlarni o‘zgartirish bo‘yicha bitim.

Portfel investitsiyasining bevosita investitsiyalardan afzallik tomoni shundaki, ular tugatilish vaqtida qimmatbaho qog‘ozlar tezda naqd valutaga almashtirib olinishi mumkin. Portfel investitsiyalarning amalga oshirilishining asosiy sababi – tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda xorijiy investor o‘z mablag‘larini xorijda maksimal foyda keltiruvchi qimmatbaho qog‘ozlarga joylashtirishi mumkin. Ma’lum bir ma’noda portfel investitsiyasi pulni inflyatsiya va spekulyatsiya yo‘li bilan foyda ko‘rishdan saqlash vositasi sifatida qaraladi. Bunda investitsiya qilinayotgan soha ham, qimmatbaho qog‘oz turi ham hech qanday ahamiyatga ega emas, u ustama kurs o‘sishiga qarab, istalgan foydani bersa va dividendlar to‘lansa bo‘ldi.

5.4-jadval

To‘g‘ridan to‘g‘ri va portfel investitsiyalar o‘rtasidagi o‘ziga xos farqlar

Belgilar	Bevosita investitsiyalar (TTXI)	Portfel investitsiyalar
Kapital chiqarishdan asosiy maqsad	Xorijiy firma ustidan nazorat o‘rnatish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo‘llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va olib borish	Xorijiy qimmatbaho qog‘ozlarini sotib olish
Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga to‘liq egalik qilish b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish (XVJ nizomiga binoan kompaniya aksioner kapitalining 25%dan kam bo‘lmasligi kerak)	Xorijiy firma aksioner kapitalining 25%dan (AQSH, Yaponiya, Germaniyada 10%dan) kamini sotib olish
Daromad shakllari	Tadbirkorlik faoliyati foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

Boshqa shakl – **ssuda kapitalining** harakati milliy ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqaga ega bo‘lmasdan, qabul qiluvchi mamlakatdagi takror ishlab chiqarish jarayoniga bilvosita tarzda ta’sir qilishi mumkin.

Kapitalning ssuda shaklidagi migratsiyasi deganda kapitalning barcha xalqaro harakatlanishi tushunilib, quyidagi turdagi to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar bundan mustasno:

- davlat va xususiy zayomlar;
- boshqa mamlakatlarning obligatsiyalari, xorijiy kompaniyaning veksellari va trattini sotib olish;
- qarzlarni bo‘yicha to‘lovlar;
- banklararo depozitlar;
- rivojlanishga rasmiy yordam.

Xalqaro valuta fondi yana bir guruh – «boshqa investitsiyalar» guruhini ajratadi. Bu guruh asosan xalqaro zayomlar va bank depozitlaridan tashkil topadi. Ular ba’zida portfel, ba’zida to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar tarkibida bo‘lishi mumkin.

5.3. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tamoyillari va yo‘nalishlari

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag‘lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo‘l bilan respublika iqtisodiyotini ko‘tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga, chet el investitsiyalarining kirib kelishini va rag‘batlantirish yo‘li bilan investitsiyalarni, ko‘proq, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Jumladan, mamlakat investitsiya siyosatini ishlab chiqishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning quyidagi tamoyillariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Strategik yakdillik tamoyili. Bu tamoyilning iqtisodiy mohiyati mamlakat hududlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan uzoq istiqbolli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish bilan belgilanadi (5.3-rasm).

2. Markazlashmagan boshqaruv tamoyili. Ma'lumki, qarorlarni qabul qilishning markazlashgan tizimi hukumat organlarining ayrim investorlarga yon bosishi bilan bog'liq salbiy raqobat oshishiga imkon yaratadi. Shu nuqtayi nazardan davlat darajasida xorijiy investorlarning hududiy faolligiga e'tibor qaratish lozim.

3. Moslashuvchanlik tamoyili. Davlat investitsiya siyosatini mamlakat va jahon iqtisodiyotining o'zgaruvchan sharoitga qarab doimiy ravishda moslashtirish va qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Davlatning markazlashgan boshqaruv tizimida davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish juda qiyin. Shuning uchun davlat boshqaruvida mamlakat va global iqtisodiyot o'zgarishlariga moslashuvchan zamonaviy menejment tashkiliy tuzilmalarini joriy etish lozim.

4. Axborotlar ochiqligi tamoyili. Davlat investitsiya siyosati xorijiy investitsiya loyihalari va chora-tadbirlari, ma'muriy tartiblar va qonuniy-me'yoriy hujjatlar bazasi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan axborot portalini tashkil etish va rivojlantirishni nazarda tutishi lozim.

5. Barqarorlik tamoyili. Ma'lumki, xorijiy investitsiyalar jozibadorligini muhim omillaridan biri bu davlat kafolati va uning barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Xorijiy investorlar ishonchini oqlash uchun qonuniy-me'yoriy bazani takomillashtirish va davlat va jamoatchilik institutlarini mustahkamlash zarur.

6. Innovatsion rivojlanish tamoyili. Davlat investitsiya siyosatining asosiy iqtisodiy mohiyati sanoat tarmoqlarini rivojlantirish ustuvorligi va ularning texnik va texnologik qoloqligini bartaraf etishga qaratilgan xorijiy investitsiyalarni joriy etishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

7. Investitsiyalarning ochiqligi tamoyili. Kapitalni chetga chiqib ketishi uchun samarali to'siqlar yaratish lozim, jumladan offshorlar orqali. Yashirin iqtisodiyotning offshor va boshqa

mexanizmlari iqtisodiyotning real tarmoqlari rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



5.3-rasm. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tamoyillari


8. Ijtimoiy yo'naltirilganlik tamoyili. Xorijiy investor ham boshqa tadbirkorlar kabi birincha galda jab etgan investitsiyasiga nisbatan maksimal darajada foyda olishga intiladi va ijtimoiy kafolat ular uchun ustuvor ahamiyatga ega emas. Shu nuqtayi nazardan Davlat investitsiya siyosati quyidagi vazifalarni ham yechishi lozim: a) ish o'rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini oshirishni rag'batlantirish; b) xorijiy korxonalar ishchilari mehnat huquqlariga rioya qilinish nazoratini ta'minlashi kerak.

9. Tenglik tamoyili. Har qanday davlat dasturlarini ishlab chiqishda turli xil guruhlar manfaatlarini inobatga olinadi. Davlat investitsiya siyosatida bu tamoyil davlat va investorlar, investorlar va korxonalar mulkdorlari, mahalliy va xorijiy investorlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvidir. Asosiysi bu jarayonda tomonlar o'z majburiyatlarini halol va vijdonan bajarilishini ta'minlash asosida milliy rivojlanish ustuvorligini aniqlab olish lozim.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, davlat investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda investitsiyalarni jalb qilish tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlar O'zbekiston

Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida ham inobatga olingan va unga muvofiq investitsiyalar va investitsiya faoliyatining **asosiy tamoyillari** quyidagilardan iborat (5.4-rasm):

- qonuniylik;
- oshkoralik va ochiqlik;
- investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligi;
- adolatlilik va investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi;
- investorlarga nisbatan kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik;
- investorlarning vijdonliligi prezumpsiyasi.



5.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasida investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy tamoyillari

Investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy tamoyillari asosida O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investorlar turlari, shakllari va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz (5.5-rasm).

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investorlarning quyidagi **turlari** mavjud:

- chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;

- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;

- chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;

- chet davlat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy ravishda yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish **shakllari** quyidagilardan iborat:

- yuridik shaxslarni tashkil etish yoki ularning ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ulushli tarzda, shu jumladan mol-mulk va aksiyalar (ulushlar) sotib olish yo'li bilan ishtirok etish;


- O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni, jumladan qarz majburiyatlarini olish;

- konsessiyalarni olish, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, o'zlashtirish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga doir konsessiyalarni olish, shuningdek, mahsulot taqsimotiga oid bitimlarda ishtirok etish;

- mulk huquqini, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mulk huquqini, mualliflik huquqlarini, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xau, ishchanlik obro'sini (gudvillni), shuningdek, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlariga bo'lgan mulk huquqini ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda olish;

- yer uchastkalariga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan ijara asosida egalik qilish va foydalanish) hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini olish.

Shuningdek, investorlar qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda, investitsiyalar kiritishning turli shakllarini birlashtirish vositasida amalga oshirilishi mumkin.



5.5-rasm. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investorlar turlari, shakllari va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish yo'nalishlari

So'nggi yillarda O'zbekistonda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlarini faollashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, hukumat qarori bilan to'g'ridan to'g'ri xorijiy

investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirishning quyidagi **yo‘nalishlari** belgilab olindi:

- kimyo va neft-gaz sanoati, mashinasozlik sohasidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar, bank-sug‘urta tashkilotlari ustav kapitallaridagi davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish;
- to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun tayyor investitsiya takliflarini ishlab chiqish;
- investitsiya va biznes forumlar, taqdimotlar («Road Show») va marketing kampaniyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni tashkil etish⁶⁷.

Shu o‘rinda, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo‘lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni qabul qilindi⁶⁸. Unga muvofiq to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo‘lganda mazkur **soliq imtiyozlari** beriladi:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha – 3 yil muddatga;
- 3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha – 5 yil muddatga;
- 10 million AQSH dollaridan ortiq bo‘lganda – 7 yil muddatga.

Xorijiy investorlar uchun belgilangan **kafolatlar** quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

- xorijiy investorlarga to‘lanadigan, dividend tarzida olinadigan daromadlar bo‘yicha foyda solig‘i (stavkalari) ko‘payishi;
- xorijiy investorning chet elga o‘tkaziladigan daromatlari (foydasini)ni o‘z mamlakatiga qaytarish tartibotini murakkablashtiruvchi

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4300-sonli “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

⁶⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-sonli “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.

yoki ularning miqdorini kamaytiruvchi qo‘shimcha talablar joriy etilishi, bunda davlat xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaning to‘lovga qobiliyatsizligi va bankrotligi yoki kredit beruvchilarning huquqlarini himoya qilish, xorijiy investor — jismoniy shaxs sodir etgan jinoiy qilmish yoki ma’muriy huquqbuzarlik hollarida yoxud sud yoki hakamlikning qaroriga muvofiq daromad (foyda)ni o‘z mamlakatiga qaytarishni to‘xtatib turishning boshqa zarurati bo‘lganda xorijiy investor mablag‘larini qonun hujjatlarini kamsitmaydigan tarzda qo‘llash shartlari asosida o‘z mamlakatiga qaytarilishini to‘xtatib turish hollari mustasno;

- investitsiyalarning miqdori bo‘yicha investitsiyalash hajmlariga miqdoriy cheklashlar hamda boshqa qo‘shimcha talablar, shu jumladan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda xorijiy investitsiyalarning minimal miqdorini ko‘paytirish tarzidagi talablar joriy etilishi;

- respublika korxonalarining ustav jamg‘armalarida xorijiy investorning ulush bilan ishtirok etishi bo‘yicha cheklashlar joriy etilishi;

- xorijiy investorlarning vizalarini rasmiylashtirish va uzaytirish borasidagi qo‘shimcha tartibotlar, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha boshqa qo‘shimcha talablar joriy etilishi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar quyidagi iqtisodiyot tarmoqlari uchun **imtiyozlar** joriy etiladi:

1. Radioelektron sanoati buyumlari hamda kompyuter va hisoblash texnikasi butlovchi buyumlarini ishlab chiqarish.

2. Yengil sanoat.

3. Ipakchilik sanoati.

4. Qurilish materiallari sanoati.

5. Parranda go‘shiti va tuxumni sanoat miqyosida yetishtirish.

6. Oziq-ovqat sanoati.

7. Go‘shiti-sut sanoati.

9. Kimyo sanoati.

10. Neft-kimyo sanoati.

11. Tibbiyot sanoati, shuningdek, veterinariya uchun dori vositalarini ishlab chiqarish.

12. Qadoqlash materiallarini ishlab chiqarish.

13. Muqobil energiya manbalari negizida elektr stansiyalari qurish.

14. Ko‘mir sanoati.

15. Ishlab chiqarishga mo‘ljallangan elektroferrosplav va metall buyumlarni ishlab chiqarish.

16. Mashinasozlik va metallga ishlov berish.

17. Stanoksozlik va asbobsozlik sanoati.

18. Shisha va chinni-fayans sanoati.

19. Mikrobiologiya sanoati.

20. O‘yinchoqlar ishlab chiqarish.

21. Turizm.

22. Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish.

Xorijiy korxonalarini tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqda. O‘zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli sohalarida tashkil etilishi mumkin.

Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o‘z mol-mulklari bir qismini ajratib, sho‘ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday sho‘ba korxonalariga ham qo‘shma korxonalariga qo‘yilgan talablar belgilangan.

Ikki yoki uchdan ortiq davlat yoki korxonalar o‘z kapitallarini jamlagan holda xalqaro tashkilotlar tashkil etishi mumkin.

Konsessiya shartnomalari – bu tabiiy boyliklarni, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o‘zlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

Lizing shartnomasi esa chet el investitsiyalari ishtirokida asbob-uskunalarini, texnika – texnologiyalarni uzoq muddatga ijaraga olish.

Tenderlar esa tanlov asosida investorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etilishidir.

Erkin iqtisodiy hudud – bu ma‘lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir. O‘zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy hududlar to‘g‘risida»gi qonunida erkin iqtisodiy hududga quyidagicha ta‘rif berilgan:

«Erkin iqtisodiy hududlar – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma‘muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir».

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonida davlat qo‘llab-quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi hamda nazorat qiluvchi sifatida bosh islohotchi bo‘lishi lozim. Davlatning bosh islohotchi sifatida qatnashishi xorijiy tajribasida aniq namoyon bo‘ladi, masalan, Xitoy hukumati 1 dollar chet el investitsiyalarni jalb etish uchun 4 dollar o‘z mablag‘larini safarbar etgan. Natijada, milliy va asosan, xorijiy investorlar hududlarga investitsiyalar kirita boshlagan, bu esa o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining rivoji uchun poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Moliyaviy aktivlar – bu qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, u chet el kapitalini jalb etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun, nafaqat, hududlar balki, tarmoqlarda, shuningdek, investitsiya faoliyatining subyekti va obyektlarida ham investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish zarurdir. Bunda, asosan, chet el investitsiyasini iqtisodiyot sohalari bo‘yicha mutanosib jalb etishning kompleks dasturini ishlab chiqish va unda tarmoqlarni, asosan, 3 guruhga, ya‘ni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy sohalarga bo‘lib, investitsiyani ustuvor darajada real sektorga yo‘naltirib, so‘ng qolgan sohalarni rivojlantirishga hamda iqtisodiyot rivojlanishi va zaruriyatidan kelib chiqib, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy sohalarga ham jalb etilsa, maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Davlat tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

1. Moliyaviy:

- jadallashtirilgan amortizatsiya;
- soliq imtiyozlari;
- subsidiyalar, qarzlarni berish;
- kreditlarni sug‘urtalash va kafolatlash.

2. Nomoliyaviy:

- yer uchastkalari ajratish;
- zaruriy infrastruktura bilan ta‘minlash;
- texnik yordam ko‘rsatish.

Iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirishda O‘zbekiston yirik xalqaro moliya institutlari, hukumat tashkilotlari va xorijiy banklarni, birinchi navbatda mamlakatimiz bilan yirik investitsiya loyihasini amalga

oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga katta qiziqish bildirayotgan Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Yaponiya, Janubiy Koreya va XXR taraqqiyot banklari, qator arab davlatlarining investitsiya fondlarini jalb etish masalasiga katta ahamiyat beradi.

Xalqaro investitsiyalarni tartibga solish bo'yicha muhim amaliy hujjatlardan biri Osiyo-Tinch okeani hamkorligi tashkiloti doirasida ishlab chiqilgan xorijiy investitsiyalarning «ko'ngilli kodeksi»dir. Kelajakda umumjahon savdo tashkiloti (UST) tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan ushbu «kodeks»da quyidagi investitsion tamoyillar qayd etilgan:

- transparentlik;
- donor-mamlakatlarga nodiskriminatsion yondashuv;
- xorijiy investorlar uchun milliy rejim;
- investitsion rag'batlarni sog'liqni saqlash, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan mos tushishi;
- savdoni va kapital qo'yilmalar o'sishini chegaralovchi investitsiyalarga bo'lgan cheklovlarni minimallashtirish;
- investitsiyalarni ekspropriatsiya qilinishidan voz kechish (bunda ijtimoiy maqsadlar uchun va milliy qonunchilik doirasida, nodiskriminatsiya asosida, xalqaro huquq qoidalariga amal qilgan holda va yetarli va samarali kompensatsiya to'lanishi sharti bilan ekspropriatsiya amalga oshirilishi mumkin);
- ro'yxatdan o'tkazilish va konvertatsiyalashuvning ta'minlanishi;
- kapitalni olib chiqishdagi to'siqlarni yo'qotish;
- ikki marotaba soliqqa tortishni bekor qilish;
- retsiyent mamlakatning milliy qonunchiligiga, ma'muriy tartib va qoidalariga xorijiy investorning amal qilishi;
- investitsion loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xorijiy mutaxassislarni mamlakatdan chiqishiga va vaqtincha tashrif buyurishiga ruxsat berish;
- maslahatlar va muzokara yoki arbitraj yordamida kelishmovchiliklarni bartaraf etish.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini amalga oshirishda dunyoning bir nechta mamlakatlari ishtirok etmoqda. Investitsiyalarni jalb etish vazifasini davlatimiz ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini

yaratish va rivojlantirish asosida haqiqiy mulkdorlarni shakllantirish bilan bog'laydi.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyoy, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda. Eng muhimi, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratilgan.

Faol investitsiya siyosati mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning eng muhim sharti va manbasi bo'lmog'i kerak.

Kelgusi yillardagi ustuvor yo'nalishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

Yuqorida ta'kidlanganidek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tamoyillari va yo'nalishlari global iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga qarab doimiy ravishda takomillashtirish va ushbu o'zgarishlarga moslashtirish va qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

5.4. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy ahamiyati va hozirgi holati

Yangilanayotgan O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishning muhim sharti va iqtisodiy ahamiyati faol investitsiya siyosatini amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisoblanadi. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir.

So'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilgan keng ko'lamli tizimli islohotlar, iqtisodiyot tarmoqlarini

modernizatsiya qilish borasida tatbiq etilayotgan innovatsion usullar, davr talablari nuqtayi nazaridan qabul qilingan qonunlar, chiqarilgan farmonlar, qarorlar barcha sohalarida Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy ahamiyatini shu bilan asoslash mumkinki, ma'lumki, respublikadagi asosiy ishlab chiqarish quvvatlarning texnologik jihatdan qoloqligi, asosiy ishlab chiqarish fondlarining jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirganligi mamlakatimizning barqaror iqtisodiyoti o'sishiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy o'zgarishlariga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi:

- yuqori inflyatsiya sharoitida asosiy fondlar va aylanma mablag'larning eskirganligi hisobiga ko'pchilik korxonalar beqaror moliyaviy ahvolga tushib qolishi;

- bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalari institutlarining rivojlanmaganligi;

- to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya oqimi hajmi ichki ehtiyojlardan pastligi;

- aholi to'lov qobiliyatining pastligi hisobiga jadallashgan amortizatsiya tizimini joriy etish imkoniyatining cheklanganligi;

- bozor iqtisodiyoti munosabatlarining dastlabki yillarida davlat investitsion faolligining keskin kamayishi va boshqalar.


Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim omillaridan biri – iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishdan iborat. Bu borada davlat investitsiya siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanmog'i lozim (14.6-rasm):

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;

- xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish;

- xorijiy investorlarga nisbatan ochiqlik siyosatini izchillik bilan olib borish;

- xorijiy investitsiyalarni raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqariladigan ustuvor tarmoqlarga yo'naltirish.



5.6-rasm. Davlat investitsiya siyosatining asosiy tamoyillari

Shu jumladan, davlat investitsiya siyosatining asosiy vazifalarini quyidagilar bilan asoslash mumkin:

- investitsiya faoliyatini jonlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan siyosat yuritish;
- mahalliy mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash va mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ustuvor tarmoqlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- investitsiya loyihalarining tanlov asosida davlat tomonidan moliyalashtirilishini amalga oshirish;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- qurilish materiallari va pudrat ishlari bozorini rivojlantirish.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga keng miqyosda jalb etish o'tish davrining strategik va joriy vazifalarini hal etish zaruriyati bilan bog'liq. Ushbu vazifalar ichida eng muhimlari – iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, yuqori texnologik raqobatbardosh tarmoqlarni yaratish, innovatsion texnologiyasi va boshqaruv tajribalarini jalb etishdir.


O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining jadal sur'atlarda o'sishini quyidagi omillar belgilab bermoqda:

- mamlakatdagi investitsiya muhitining barqarorligi. Uzoq muddatga mo'ljallangan yirik investitsion loyihalarni amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi;

- valuta kursini tartibga solishdagi ijobiy o'zgarishlar. Milliy valutaning diversifikatsiyalashuvi, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarga xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar va import qilinadigan tovarlarga nisbatan raqobat kurashida ma'lum afzallikni beradi;

- bugungi kungacha jahon tovar bozorlaridagi ijobiy holatlar va milliy eksport tarkibidagi asosiy tovarlarga (oltin, mis, paxta tolasi) qulay narx konyunkturasi yirik milliy eksportyorlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirdi va o'zlarining investitsion dasturlarini moliyalashtirishning faollashtirilishiga, kengayishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, o'zaro bog'liq, tarmoqlar mahsulotiga talabning o'sishiga sababchi bo'ldi va multiplikator samarasini harakatga keltirdi;

- davlat moliyasi va davlat qarzigacha xizmat ko'rsatish holatining mo'tadillashuvi.



5.7-rasm. Davlat investitsiya siyosatining asosiy vazifalari

Mamlakatimizga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalarda davlat kafolatining kamayib borishini xorijiy investorlarda respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga bo'lgan ishonch ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida, davlat tomonidan iqtisodiy manfaatli bo'lmagan loyihalarni moliyalash to'xtatila boshlandi. Hukumat tomonidan faqat iqtisodiy manfaat chegaralangan yoki umuman bo'lmagan ijtimoiy muhim loyihalar kafolatlanadi. Bular, birinchi navbatda, suv ta'minoti, ta'lim va sog'liqni saqlash, transport va aloqa infratuzilmasi sohalaridagi loyihalardan iborat.

Xorijiy investitsiyalarning o'sishida xalqaro moliya institutlari qarzlari doirasida import aloqalarni qayd etish tartibining soddalashtirilishi, sanoat korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta ta'minlash, soliq yukining pasaytirilishi, mahsulot taqsimlash to'g'risidagi bitimning qo'llanishi, shuningdek, xorijiy investorlar bilan investitsiya shartnomalarini tuzish yo'li orqali alohida imtiyozlar hamda preferensiyalar taqdim qilish asosiy omillar bo'ldi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida donor mamlakatlar bilan istiqboldagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlash borasida birgalikdagi ishlar jadallashdi. Bunda, birinchi navbatda, asosiy e'tibor mintaqalararo hamkorlik loyihalarini amalga oshirish, kommunal tarmoqda islohotlarni chuqurlashtirish, ekin yer maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash, kadrlar tayyorlashning milliy ta'lim dasturini amalga oshirishga ko'maklashish, tibbiyot muassasalarini yuqori texnologiyadagi uskunalar bilan jihozlash, moliyaviy tashkilotlarning samaradorligini oshirish kabilarga qaratildi.

Xususan, dunyoning qator davlatlari, birinchi navbatda, bugungi kunda bizda asosiy hamkor sifatida qaraluvchi, iqtisodiy aloqalar jadal rivojlanayotgan, qo'shma investitsion loyihalar amalga oshirish rejalashtirilayotgan yoki ko'zda tutilayotgan Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalari barqaror sur'atlarda rivojlanmoqda.

Iqtisodiyotga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning tarmoq tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichlarida iqtisodiyotga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar tarkibida sanoat ulushi yetakchi o'rinni saqlab qolgan holda pasayish tendensiyasiga ega. Qishloq xo'jaligi tarmog'ini

rivojlantirishga qaratilgan Hukumatning sa'y-harakatlariga qaramasdan qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi tarmoq ehtiyojiga nisbatan pastroq darajada saqlanib turibdi.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nafaqat xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yangi, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, balki yangi zamonaviy texnika, dastgoh va uskunalar, texnologiya va innovatsiyalarni joriy etish, shu asosda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning yuqori sifatini ta'minlashga qaratilgan.

Hozirgi kunda investitsiya sohasida ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar e'tiborga molik. So'nggi yillarda mamlakatimizda samarali qonunchilik bazasi, xorijiy sarmoyadorlar uchun keng ko'lamli huquqiy kafolat va imtiyozlar majmui yaratildi, xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha yaxlit chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu jihatlar O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida⁶⁹ o'z aksini topgan. Qonun O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan yuksalishi va xalqaro jahon xo'jalik munosabatlariga integratsiyalashuvining g'oyat muhim va texnik qayta jihozlashga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish yo'lidagi strategik yo'nalishini ham belgilab beradi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati benihoyat katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-maydagi "Investitsiya va boshqaruv kompaniyalari faoliyati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 414-son qarori.

uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta’minlaydi;

to‘rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya’ni neft va kimyo sanoati, transport, energetika, yer osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim.


Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, xorijiy investorlarni o‘z mablag‘larini mamlakat iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan, jumladan:

- xorijiy investorlar kapitalini saqlanishi uchun kafolatlar;
- ko‘rilgan zararlarni qoplanishi uchun kafolatlar;
- soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlar;
- foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi;
- milliy so‘mda va chet el valutasida olingan foydalarni o‘tkazish va olib chiqib ketish imkoniyati;
- bojxona imtiyozlarining mavjudligi;
- xorijiy investorlarning mulklari va ularning o‘zlarini xavf-xatarlardan sug‘urtaviy muhofaza qilish tizimining yaratilganligi.

Yuqorida keltirilgan O‘zbekistonning yangi investitsiya siyosatining amaliyotda izchil amalga oshirilishi natijasida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Jumladan, birgina 2020-yilda o‘zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 28,7 trln. so‘mini to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, O‘zbekiston Respublikasi davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 22,5 trln. so‘mni, boshqa xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar 35,4 trln. so‘mni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning 2019-yilga nisbatan o‘shir sur‘ati 90,6% ni tashkil etdi. Natijada, jami asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibida

xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 42,9%ni tashkil qilmoqda (5.8-rasm).



5.8-rasm. 2020-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, %⁷⁰


Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi va ulushi turlicha bo'lib, bunda respublika bo'yicha jalb qilinayotgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi Toshkent shahri (14,1 trln. so'm yoki 16,3%) va Qashqadaryo viloyatiga (13,3 trln. so'm yoki 15,4%) to'g'ri kelmoqda (5.9-rasm).



5.9-rasm. 2020-yilda asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining hududlar bo'yicha tarkibi va ulushi, %⁷¹

⁷⁰ www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning hududlar bo'yicha tarkibida to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar ulushi Toshkent (77,7%), Surxondaryo (69,4%) va Jizzax (52,7%) viloyatlarida yuqori bo'lmoqda (5.10-rasm).



5.10-rasm. 2020-yilda asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning hududlar bo'yicha tarkibi, %⁷²

Bu mahsulot taqsimoti kelishuvi shartlari asosida gaz-kimyo majmuasi qurilishi bilan “Mustaqillikning 25 yilligi” konlarida qidiruv ishlarini yakunlash va ishlar olib borish, O‘zbekiston Respublikasi investitsiya bloklarida (Kultak-Qamashi, Muborak, Surxon, Ashibuloq va Koskud, G‘arbiy Farg‘ona investitsiya bloklari) neft-gaz konlariga ishlov berish va geologik qidiruv ishlarini amalga oshirish, hududlarda sement ishlab chiqarish, to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarini jadal olib borilayotgani bilan bog‘liq.

⁷¹ www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi.

⁷² www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning salmoqli ulushi Qoraqalpog‘iston Respublikasi (67,7%) va Qashqadaryo viloyatiga (54,2%) to‘g‘ri kelmoqda.


Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi, ya’ni 55,2% yoki 20,3% – Xitoy, 13,2% – Amerika Qo‘shma Shtatlari, 15% – Germaniya va 6,7% – Rossiya hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, shu bilan birga O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiya kiritadigan davlatlar umumiy soni 50 tadan oshdi.

2020-yilda qayta ishlash sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli hajmda o‘zlashtirilib, 36,5 trln. so‘mni yoki jami investitsiyalarning 42,1% ini tashkil qilmoqda.

Jumladan, uning tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyat turida 11,8% yoki 10,2 trln. so‘m, metallurgiya sanoatida 9,4% yoki 8,2 trln. so‘m, to‘qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha 8,8% yoki 7,6 trln.so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Tog‘-kon sanoatida bu ko‘rsatkich 15,7 trln. so‘mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 18,2% ini qayd etdi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash, havoni konditsiyalash kabi faoliyat turida 7,2 trln. so‘m yoki 8,3% xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi (5.12-rasm).



5.12-rasm. 2020-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, %⁷³

⁷³ www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi.

2020-yil va undan keyingi yillarda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni faol jalb qilish, ularni elektr energetika, axborot texnologiyalari, shuningdek, mavjud hom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga qaratilgan kimyo sanoati, elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ustuvor sohalardagi loyihalarni amalga oshirish orqali ularning yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish ishlari davom ettiriladi.

Nazorat uchun savollar

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga asosan qanday omillar ta‘sir ko‘rsatadi?
2. Maxsus iqtisodiy zona deganda nimani tushunasiz va ularning jahon amaliyotida qo‘llaniladigan qanday modellarini bilasiz?
3. O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarining qanday turlari mavjud?
4. Xorijiy investitsiyalarning qanday shakllari mavjud va amaliyotda ular qanday mezonlar bo‘yicha tasniflanadi?
5. Portfel investitsiyalar deganda nimani tushunasiz va ular qanday ko‘rinishda bo‘lishi mumkin?
6. To‘g‘ridan to‘g‘ri va portfel investitsiyalar o‘rtasidagi o‘ziga xos farqlarni tushuntirib bering.
7. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning qanday tamoyillarini bilasiz?
8. Xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishning qanday shakllari mavjud?
9. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining jadal sur‘atlarda o‘shishini qanday omillar belgilab bermoqda?

6-BOB. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA INNOVATSIYA

6.1. INNOVATSIYANING ASOSIY TA'RIFLARI

6.1.1. Innovatsiyalar

«Innovatsiya» soʻzi yangilik soʻzining sinonimi hisoblanadi va u bilan bir qatorda qoʻllanilishi mumkin.

Shu oʻrinda, innovatsiyaning taʼrifi va iqtisodiy ahamiyatiga toʻxtalib oʻtadigan boʻlsak, unga nisbatan iqtisodiy adabiyotlarda turli xil yondashuvlarni koʻrish mumkin va ulardan asosiylarini keltiramiz:

– innovatsiya bu kashfiyot yoki gʻoyalarning iqtisodiy mazmunini kasb etadigan jarayondir⁷⁴;

– innovatsiya bu gʻoyadan boshlanib bozorda realizatsiya qilinadigan tayyor mahsulotgacha boʻlgan barcha jarayonlardir⁷⁵;

– innovatsiya bu ishlab chiqarishga joriy etilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi yoki turdoshlaridan tubdan farq qiladigan kashfiyotlardir⁷⁶;

– innovatsiya bu bozorda realizatsiya qilinadigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, shuningdek, amaliyotda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonlar shaklida kirib borgan ijodiy faoliyatning pirovard natijasidir⁷⁷.

Yuqorida keltirilgan taʼriflardan koʻrinib turibdiki, innovatsiyaning taʼrifiga bir nechta yondashuvlar mavjud. Ularning ikkitasi kengroq tarqalgan:

– birinchisida yangilik yangi mahsulot (texnika), texnologiya, usul va h.k. koʻrinishidagi ijodiy jarayon natijasi sifatida;

– ikkinchisida – amaldagisi oʻrniga yangi buyum, element, yondashuvlarni joriy etish jarayoni sifatida namoyon boʻladi.

Biz uchun innovatsiya yangi isteʼmol qiymatlari yaratilgan (yoki joriy qilingan) shaklida ijodiy jarayon natijasi sifatidagi taʼrif koʻproq maʼqul keladi. Bu holda bozor xoʻjalik yuritish sharoitida

⁷⁴ Твисс Б. Управление научно-техническими инновациями. – М.: Экономика, 1989. – 388 С.

⁷⁵ Cooke Ian, Mayers P. Introduction to Innovation and Technology Transfer. Boston: Artech House, Inc., 1996. Part 1. – P.124

⁷⁶ Медынский В.Д., Ильдеменов С.В. Реинжиниринг инновационного предпринимательства. – М.: Юнити, 1999. – 414 С.

⁷⁷ Большаков А.С., Михайлов В.И. Современный менеджмент: теория и практика. -СПб.:Питер, 2000. – 411 С.

innovatsiyaning eng muhim belgilaridan uning iste'mol xususiyatlarining yangiligi hisoblanishi kerak bo'ladi. Texnik yangiligi esa ikkilamchi rol o'ynaydi. Shunday qilib, innovatsiyani yangi mahsulot va xizmat, ularning ishlab chiqarish uslublari, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa sohalardagi yangiliklari, xarajatlarni tejashni ta'minlaydigan va bunday iqtisod uchun sharoit yaratib beradigan biron-bir takomillashuvi deb tushunish mumkin.

Innovatsiya ishlab chiqarish faoliyati, ilm-fan, madaniyat, ta'lim va jamiyatning boshqa soha faoliyatidagi iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy munosabatlar jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanish natijasida vujudga keladi. Bu atama turli iboralarda turli xil ma'noni berishi mumkin. Ma'noni aniqlash jarayoni o'lchash va tahlil qilishning muayyan maqsadlariga bog'liq.

Innovatsiya – bu yangi yoki takomillashgan mahsulot ko'rinishda sotilgan, bozorda realizatsiya qilinadigan innovatsion faoliyat hamda amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi va takomillashgan texnologik jarayonning yakuniy natijasidir. Demak, innovatsiyaning yakuniy natijasi tijorat yutug'i hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiyaning tizimli ta'riflash metodologiyasi tavsiyalari 1992-yilda Oslo shahrida qabul qilingan xalqaro standartlarga asoslanadi. Shu bois, u «Oslo yo'riqnomasi» deb nom olgan. Ular *texnologik innovatsiyalarga* mo'ljallab ishlab chiqilgan hamda yangi mahsulot va jarayonlar, ularning tub texnologik o'zgarishlarini qamrab oladi⁷⁸. Innovatsiyalar, agar bozor yoki ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilingan bo'lsa, ahamiyatli hisoblanadi. Bunga mos ravishda ikki turdagi texnologik innovatsiyalarni ajratish mumkin: mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar va jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar.

Amerika va Yaponiya innovatsiya tizimini alohida ta'kidlab o'tishimiz mumkin: AQSHda innovatsiyalarning 1/3 qismi jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar, 2/3 qismi esa, mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar hisoblanadi; Yaponiyada esa teskari nisbat.

Barcha mavjud innovatsiya ta'riflarini beshta asosiy yondashuvlar bo'yicha tasniflash mumkin:

⁷⁸ Статистика науки и инноваций: Краткий терминологический словарь / Под ред. Л.М. Гохберга. -М.: ЦИСН, 1996. – 526 С.

1) obyektli (milliy adabiyotlarda aniqlashtiradigan atamasi sifatida ko‘pincha «yangilik» nomi bilan qo‘llaniladi);

2) jarayonli;

3) obyektli-amaliy;

4) jarayonli-amaliy;

5) jarayonli-moliyaviy⁷⁹.

Obyektiv yondashuvning mohiyati shundan iboratki, innovatsiya sifatida obyekt – Ilmiy-texnika taraqqiyot (ITT) natijasi: yangi texnika, texnologiya yuzaga keladi.

Iqtisodiyotda innovatsiya quyidagi turlarga ajratiladi:

– bazisli;

– yaxshilanadigan;

– soxta.

Yangi mahsulotni joriy etish, agar ilgari ishlab chiqarilgan mahsulotdan foydalanish sohasi, shuningdek, funksional tavsiflari, xususiyatlari, konstruktiv yoki qo‘llaniladigan material tarkiblari bilan tubdan farq qiladigan mahsulot to‘g‘risida gap borayotgan bo‘lsa, u *bazisli mahsulotlar bo‘yicha innovatsiyalar* sifatida qaralishi mumkin. Bunday innovatsiyalar yangi avlod mashina va materiallarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan va tubdan yangi texnologiyalar yoki mavjud texnologiyalardan yangicha foydalanishga asoslangan. Bazisli innovatsiya (tubdan yangi)larga yorug‘ diodli asosidagi indikatorlarni suyultirilgan kristall indikatorlar bilan yoki bug‘ dvigatelni ichki yonuv dvigatel bilan almashtirish holatini misol sifatida keltirish mumkin.

Yaxshilanadigan innovatsiyalar yanada samarali tarkibiy qismlari va materiallaridan foydalanish, bitta yoki bir nechta texnik tizimchalar (murakkab mahsulot holatida) qisman o‘zgartirish hisobiga sifatli yoki qiymatga oid tavsiflari sezilarli darajada yaxshilangan ilgari mavjud bo‘lgan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi. Bunday innovatsiyalar o‘zlashtirilgan avlod texnika (texnologiya)larni tarqalishi va takomillashtirilishiga, yangi rusumdagi mashina material turlarini yaratish, ishlab chiqaradigan mahsulot (xizmat)lari va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishga xizmat qiladi. Ichki yonuv dvigatelning foydali ish ko‘effitsiyentini oshirish yoki o‘raladigan

⁷⁹ Баев Л.А., Шугуров В.Э. Системный подход к определению инновации // Современные технологии в социально-экономических системах. -Челябинск: ЧГТУ, 1995. – 210 С.

magnitofondan kassetali magnitofonga o'tishi – yaxshilanadigan innovatsiyaning misollari hisoblanadi. Ikkala holatda ham tayyor buyumlar ilgari ishlab chiqilmagan.

Demak, innovatsiyaning qat'iligi ularni amalga oshirish bo'yicha harakatlar darajasini aniqlaydi. Ushbu taqsimotning negizida o'zaro farq qiluvchi ikkita – yaratuvchi va tenglashuvchi innovatsion jarayonlar yotadi. Yaratuvchi turidagi innovatsion jarayon jahon birinchi-ligiga erishish (masalan, AQSH), tenglashuvchi esa, arzon va tezkor natijalarni berishi mumkin (masalan, Yaponiya) bo'lgan chiziqni bildiradi Bu holat AQSHda katta miqdorda ishlab chiqilgan patentlar, Yaponiyada esa – olingan litsenziyalarda namoyon bo'ladi.

Jarayonli yondashuv doirasidagi innovatsiyaga yangi iste'mol qiymatlari – mahsulot, texnika, texnologiya, tashkiliy shakllarni va h.k.ni ishlab chiqish, joriy etish va tijoratlashirishni o'z ichiga oladigan majmuaviy jarayon tushuniladi.

Obyektli-amaliy yondashuvda «innovatsiya» ta'rifiga nisbatan ikkita asosiy jihatlar mavjud. Birinchidan, innovatsiyaga fan va texnika yutuqlariga asoslangan yangi iste'mol qiymati – obyekt sifatida tushuniladi. Ikkinchidan, yangilikning amaliy tomoniga urg'u beriladi va bu jamoa manfaatlarini yuqori samara olish orqali qanoatlantirilishi bilan izohlanadi. Obyektli-amaliy yondashuvdan farqli o'laroq «innovatsiya» atamasiga nisbatan *jarayonli-amaliy yondashuv* innovatsiya yangi amaliy vositani yaratish, tarqatish va undan foydalanish majmuaviy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Jarayonli-moliyaviy yondashuv doirasidagi innovatsiyaga yangiliklarga investitsiyalash jarayoni, yangi texnika, texnologiya, ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqishga mablag'larni qo'yish tushuniladi.

«Innovatsiya» atamasi bo'yicha keltirilgan barcha ta'riflar aniq formal holatga muvofiq izohlanadi. Ushbu yondashuvlarda innovatsiyaning iqtisodiy mazmuni yoritilmagan, iqtisodiy natijalar nuqtayi nazardan innovatsiya ta'rifining aniq mezonlari mavjud emas. Demak, har bir yangilikni, shu jumladan kam taraqqiy topgan va samarasiz yangiliklarga, innovatsiya sifatida qarash mumkin. «Innovatsiya» tushunchasini yanada chuqurroq yoritish uchun uni rivojlantirish nuqtayi nazardan tizimli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Tahlillar asosida bir qator mualliflar tomonidan «innovatsiya» tushunchasi mazmuniga umumlashgan ta'rif berilgan,

ya'ni innovatsiya – bu «bozorda mavjud bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan va iqtisodiy samara beradigan insonning turli hayot va faoliyat sohalarida yangi g'oyalarni amalga oshirish jarayoni»dir⁸⁰.

Innovatsiyaning mahsulot sifatidagi o'ziga xosligi ilmiy-texnika natijalarini olishda yuqori darajadagi noaniqligi, o'ziga xos moliyalashtirilishi, ya'ni xarajat va natijalar o'rtasida vaqtinchalik uzilish xavf-xatari, talabning noaniqligi bilan ifodalanadi. Innovatsiyalar sharoitida talabning noaniqligi ularning taklifi odatda faol va ogohlantiruvchi rol o'ynaydi.

*Innovatsion korxon*a (IK) uchun innovatsiya faollik jarayonlari ichki va tashqi omillarga bo'linadi. Innovatsiya faolligining ichki rag'bat – bozorda IK mahsulotining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida eskirgan uskunani almashtirish zarurligidadir. Bozor munosabatlari rivojlanmagan, ayniqsa iqtisodiy inqiroz sharoitida innovatsiyaga hal qiluvchi rag'bat davlatning iqtisodiy siyosati bilan bog'liq tashqi rag'bat hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining yangi ilmiy-texnik rivojlanish bosqichiga o'tishi bilim va texnikani bozor bilan muvofiqlashtiradigan innovatsion faolligini kuchaytirish va yangilikka yangi yondashuvlarni talab qildi. XX asrning 90-yillarida raqobat qiluvchi mustaqil xo'jalik subyektlarining, ular ushbu davrda o'z faoliyatini o'zgartirishga majbur etgan innovatsion faoliyatini iqtisodiy muhit bilan o'zaro aloqa qilish jarayonidagi yangi tendensiyalari kuzatildi.

Aynan innovatsiyalarga, ko'p yillar mobaynida iqtisodiy o'sishning bosh omili sifatida qaralgan. Xususan, bu jarayonda investitsiyalar ahamiyati pasaytirilgan holda, zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyotining nazariy asos sifatida innovatsiyalar namoyon bo'lgan. Hozirgi paytgacha nazariyada, sarmoya qo'yilmalar hajmini oshirish odatda ITT va iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida qarab kelinmoqda. Bu tabiiy: mamlakatimizda takror ishlab chiqarish ekstensiv rivojlantirishning aniq belgilari sifatida ifodalanib kelinmoqda, ammo eng muhimi, ushbu nazariy g'oyalarda bozorga o'rin yo'q. Biroq yangiliklarning roli avvalambor, bozor holati o'zgarishi bilan bog'liq: raqobat xususiyatiga, odatdagi statistik

⁸⁰ Бездудный Ф.Ф., Смирнова Г.А., Нечаева О.Д. Сущность понятия «инновация» и его классификация // Инновации. 1998. -№ 2-3. –С. 3-13.

raqobatdan dinamik raqobatga o'tishi, bu holat ko'pincha hozirgi bosqichdagi innovatsiya va bozorning o'zaro bog'lanishini taqozo qiladi.

Yangilik – bu shunday mahsulotki, uni bevosita qo'l bilan ushlab va jismoniy o'lchash mumkin emas: ulardan muayyan ilmiy bilimga (ayniqsa matematik), malakaviy ko'nikmaga va zarur axborotga ega bo'lmasdan turib foydalanish mumkin emas; uni tegishli dastlabki tayyorgarlik va qayta ta'lim olmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Ushbu tovarning o'ziga xos xususiyatlardan biri daromadni cheksiz oshirib borish (multiplikatsiya)ga qobilligidadir.

Intellektual tovar – muvofiq yuridik shaklda himoyalangan axborot, ixtiro, nou-xau va hokazolar – u qonuniy egalari unga xaridor chiqquncha berilishi mumkin.

Innovatsion mahsulot – mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalarni joriy etish natijalari, yangi (qayta joriy qilingan) yoki takomillashtirishga uchragan buyumlar, shuningdek, yangi va tub takomillashtirilgan usullar asosida ishlab chiqarilgan buyumlar (boshqa innovatsion mahsulot). Boshqa innovatsion mahsulot jarayonlar bo'yicha innovatsiyalarni joriy etish natijasi hisoblandi. Ular ilgari boshqa mamlakat yoki korxonada ishlab chiqarish amaliyotida qo'llanilgan va texnologik almashuv (patentsiz litsenziyalar, nou-xau, injiniring) yo'li bilan tarqalayotgan yangi va takomillashgan ishlab chiqarish usullarini joriy etishda ilg'or tajribasi negizida ishlab chiqilgan mahsulotlarni o'z ichiga oladi⁸¹.

6.1.2. Innovatsion jarayon

Innovatsion jarayon – bu ilmiy bilimning innovatsiyaga o'zgarish jarayoni, uni innovatsiya g'oyalardan aniq mahsulot, texnologiya yoki xizmatgacha bo'lgan davr mobaynida vujudga keladigan va amaliyotga qo'llaniladigan voqealar ketma-ketlik zanjiri sifatida tasavvur qilish mumkin. ITTdan farqli o'laroq innovatsion jarayoni *joriy etish*, ya'ni mahsulot, xizmatlarning bozorda birinchi paydo bo'lishi yoki yangi texnologiyani loyihaviy quvvatiga yetkazish bilan yakunlanmaydi. Bu jarayon joriy etilgandan keyin ham davom

⁸¹ Статистика науки и инноваций: Краткий терминологический словарь / Под ред. Л.М. Гохберга. -М.: ЦИСН, 1996. – 526 С.

etadi, chunki yangilikning tarqalishi (diffuziyasi) bilan u takomillashadi, yanada samarali bo'ladi, ilgari ma'lum bo'lmagan iste'mol xususiyatlarini paydo qiladi. Bu uni yangi qo'llanish sohalari va uning yangi bozorlarini ochib beradi, shuningdek, ushbu mahsulot, texnika va xizmatni o'zi uchun yangi sifatida biladigan yangi iste'molchilarni topadi.

Shunday qilib, ushbu jarayon bozor talab qiladigan mahsulot, texnologiya va xizmatni yaratishga qaratilgan va muhit bilan uyg'unlashgan holda amalga oshadi: uning yo'nalganligi, sur'atlari va maqsadlari u faoliyat ko'rsatayotgan va rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq.

Innovatsion jarayonning negizi *yangi texnika (texnologiya)ni yaratish va o'zlashtirish jarayoni* (YaTYaJ) hisoblanadi. *Texnika* – insonning yangi bilim va ko'nikmalar moddiylashgan ishlab chiqarish (mehnat vosita va predmeti)ning ashyoviy omillarining yig'indisi. *Texnologiya* – texnikani yaratish va qo'llash hamda tabiiy moddalarni sanoat va maishiy sohalarda qo'llanadigan mahsulotga aylantirishning usul va uslublari yig'indisi. YaTYaJ yangi ilmiy bilimlarni olish va muayyan qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan *fundamental tadqiqotlar* (FT)dan boshlanadi. FTning maqsadi – aniq qo'llashdan qat'i nazar hodisalar o'rtasidagi yangi aloqalarni aniqlash, tabiat va jamiyat rivojlanishining qonuniyatlarini bilib olish. FT nazariy va izlanish tadqiqotlarga bo'linadi.

Nazariy tadqiqotlar natijalari ilmiy kashfiyot, yangi tushuncha va taxminlarni isbotlash, yangi nazariyani yaratishdan iborat.

Alohida izlanish bo'yicha tadqiqotlarga quyidagilar kiradi:

- buyum va texnologiyani yaratishning yangi tamoyillarini;
- ilgari ma'lum bo'lmagan materiallar va ular birikmalarining xususiyatlarini;
- tahlil va sintez qilish usullarini kashfiyot qilish va boshqalar.

Alohida izlanish bo'yicha tadqiqotlar odatda bajarishi ko'zlangan ishning maqsadi ma'lum emas, nazariy asoslari biroz noaniq, ammo muayyan yo'nalishlari aniq va ravshan. Ushbu tadqiqotlar davomida nazariy taxminlar va g'oyalarning isboti topiladi. Innovatsion jarayonlarni rivojlanishida fundamental fanning ustuvor ahamiyati u g'oyalarning asosi sifatida namoyon bo'lganligi bilan hamda yangi bilimlar sohasiga yo'llarni ochib berish imkoniyatlari bilan

belgilanadi. Ammo FTning jahon fanidagi ijobiy chiqishi atigi 5%ni tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoq, ayniqsa aniq bir korxonada bunday tadqiqotlarni amalga oshirishga qurbi yetmaydi. FT tanlov asosida davlat budjeti hisobiga moliyalashtirilishi va qisman budjetdan tashqari mablag'laridan foydalanishi mumkin.

O'zbekistonda ilgari fan, agar kengroq oladigan bo'lsak – g'oyalar sohasi, odatda, amaliy xususiyatiga ega edi va hech qanday qiymatga ega emas edi. Faqat biron bir aniq natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan g'oyalar, fan yo'nalishlari rivoj topdi. Agar vaziyat o'zgarsa va har bir bilim, u tezkor foydani bermasa ham, qo'llab-quvvatlansa va qadrlansa bu holat butun millatning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ammo ushbu haqiqat jamoa ongida turg'un egallashi uchun bir oz vaqt va muayyan sharoitlarni talab qiladi. FT – fanning kelajagi sifatida mamlakat taraqqiyotini belgilovchi omildir.

Yirik olimlarning ilmiy ishlarida fundamental fanda shakllangan holatning bir qator aniq sabablari ko'rsatilgan, ulardan biri ilmiy natijalarni obyektiv baholash, ayrim olimlar va ilmiy jamoalar hissalarining fundamentallik darajasini o'lchash mexanizmlari yo'qligi hisoblanadi. Ushbu muammoga o'z e'tiborini qaratgan birinchi sobiq Ittifoq olimlaridan biri Akademik S.G. Strumilin, shunday yozgan «Hozirgacha, birinchi ko'rishda shu narsa ajablanarli tuyilishi mumkinki, fan biz o'lchov, vazn va hisob-kitobdagi ishlarimizda vujudga keladi, ammo hattoki o'z yutuqlarimiz qiymatini obyektiv baholashni o'lchash muammosini yechishga fursat topolmaymiz. Biz ilmiy mehnat samaradorligining umum qabul qilingan hech qanday o'lchov birligini bilmaymiz»⁸².

YaTYaJning ikkinchi bosqichi *amaliy tadqiqotlar* (AT) hisoblanadi. Ular ilgari kashf qilingan hodisa va jarayonlarni amaliy qo'llash yo'nalishlarini tadqiq etishga qaratilgan. Amaliy ko'rinishdagi ilmiy-tadqiqot ishi (ITI)ning maqsadi texnik muammolarni yechish, noaniq bo'lgan nazariy masalalarga aniqliklar kiritish, aniq ilmiy natijalarni olishdan iborat, ular o'z navbatida kelgusida tajriba-konstruktorlik ishlarida ilmiy-texnik ko'nikma sifatida qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, AT mustaqil ilmiy ishlar ham bo'lishi mumkin.

⁸² Струмилин С.Г. К методологии учета научного труда. – Л.: Наука, 1982. – 21 с.

Axborot ishlari – ilmiy-texnika axborotlarni qidirishni yaxshilash va tahlil qilishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy ishlar. Axborot ishlarning eng muhim tarkibiy qismlaridan *patentli tadqiqotlar* hisoblanadi.

Tashkiliy-iqtisodiy ishlar ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirishni takomillashtirish, mehnat va boshqarishni tashkil etish, ilmiy ishlar samaradorligini tasniflash va baholash usullarini ishlab chiqish va hokazolarga qaratilgan.

Ilmiy-o‘quv ishlari – doktorant, talaba va boshqalarni ilmiy ishlarini tayyorlash bo‘yicha faoliyatdir.

Tajriba-konstruktorlik ishlari (TKI)ga yangi texnika, material, texnologiyalar namunalarni yaratish (yoki modernizatsiya qilish, takomillashtirish) uchun AT natijalarni qo‘llash tushuniladi. TKI – ilmiy tadqiqotlarning yakuniy bosqichi, laboratoriya sharoiti va tajriba ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishga o‘ziga xos o‘tishidir. TKIga quyidagilar kiradi:

- muayyan muhandislik obyekti yoki texnik tizimi konstruktorlari (konstruktorlik ishlari) ishlab chiqish;
- yangi obyekt g‘oyalar va variantini ishlab chiqish;
- texnologik jarayonlarni, ya’ni fizik, kimyo, texnologik va boshqa jarayonlarining mehnat jarayonlari bilan yaxlit tizimi (texnologik ishi)ga birlashish uslubini ishlab chiqish.

Shunday qilib, TKIning maqsadi tegishli sinovdan o‘tgandan keyin seriyali ishlab chiqarish yoki bevosita iste’molchiga yetkazib berilishi mumkin bo‘lgan yangi buyumlar namunalarni yaratish (modernizatsiya qilish) hisoblanadi. Ushbu bosqichda nazariy tadqiqotlar natijalarini yakuniy tekshirish amalga oshiriladi, tegishli texnik hujjatlar tayyorlanadi, yangi buyum namunalari ishlab chiqiladi va sinovdan o‘tkaziladi. ITIdan TKI gacha kutilayotgan natijalarni olish ehtimoli ko‘payadi. ITIning taxminan 85–90% keyingi amaliyotda foydalanish uchun foydali natijalarni beradi; TKI bosqichdagi 95–97% ishlari ijobiy yakunlanadi.

Fan sohasining yakunlovchi bosqichi ilmiy va ishlab chiqarishni o‘zlashtirish: yangi (takomillashgan) mahsulotni sinovdan o‘tkazish hamda ishlab chiqarishning texnik va texnologik tayyorgarlikni amalga oshirishni o‘z ichiga oladigan *yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish* (YaMO‘) hisoblanadi.

O'zlashtirish bosqichida fanning tajriba bazasida *tajriba, sinov ishlari* amalga oshiriladi. Ularning maqsadi – yangi mahsulot va texnologik jarayonlarning tajriba namunalarni ishlab chiqish va qayta ishlash. Sinov ishlari ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus (nostandart) asbob-uskuna, apparatura, anjom, moslama, stend, maket va h.k. ishlab chiqish, ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatishga qaratilgan. Ushbu ishlardan tashqari sinov ishlab chiqarishi bevosita ilmiy-tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI) (ta'mirlash ishlari, tipografiya xizmatlari va h.k.)ga tegishli bo'lmagan turli ish va xizmatlarni hamda kichik seriyali mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshiradi⁸³.

Fanning tajriba bazasi – tajriba, sinov ishlari amalga oshiradigan tajriba ishlab chiqarishlarning yig'indisi. Fanning tajriba bazasi mamlakatning ilmiy salohiyatining tarkibiy qismi hisoblanadi, uning holati va undan foydalanish innovatsion jarayonlarni uzluksizligini ta'minlash maqsadida fanning ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini tajriba orqali tekshirishni amalga oshirishga qodirligi bilan izohlanadi. Tajriba bazasi tajriba, sinov ishlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan mehnat va moddiy-texnika resurslarni o'z ichiga oladi. Tajriba ishlab chiqarish subyektlari ilmiy tashkilot yoki yuridik shaxs balansida bo'lib turib, ular turli tashkiliy shakllarda faoliyat ko'rsatishi mumkin – zavod, sex, ustaxona, tajriba-sinov bo'linmalari, tajriba stansiyasi va h.k.; ularning joylashishi, xo'jalik yuritish shakli ham turlicha bo'lishi mumkin⁸⁴.

Bugungi kunda jami sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarining ko'pchilik qismi ITTKI bilan mustaqil tarzda shug'ullanadi. Jumladan, sinov bazasi va ilmiy-texnik faoliyati infratuzilmalari holati qoniqarsiz hisoblanadi.

Sanoatda innovatsiyalarni o'zlashtirishga to'sqinlik qilayotgan omillarga avvalambor, o'z moliyaviy resurslarni yetishmasligi, tijorat banklar kreditlarining yuqori stavkalari, va ichki taklifning siqishi, yangi mahsulotni o'zlashtirishning iqtisodiy xavf-xatari mavjudligi kabilar kiradi.

O'zlashtirish bosqichidan keyin *sanoat ishlab chiqarish* (SICH)

⁸³ Статистика науки и инноваций: Краткий терминологический словарь / Под ред. Л.М. Гохберга. -М.: ЦИСН, 1996. – 526 С.

⁸⁴ O'sha manba. – 526 B.

jarayoni boshlanadi. Ishlab chiqarishda bilimlar moddiylashadi, tadqiqotlar esa o'z mantiqiy yakunini topadi. Bozor iqtisodiyotida TKIni bajarish va ishlab chiqarishlarni o'zlashtirishni tezlashtirishga e'tibor beriladi. Innovatsion korxonalar, odatda, TKIni sanoat korxonalarini bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladi. Buyurtmachilar va ijrochilar TKIning natijalari amaliyotda qo'llanilishi va daromad olib kelishi, ya'ni iste'molchida amalga oshirilishi bo'yicha o'zaro manfaatdordirlar.

Agar hammasi muvaffaqiyatli bo'lib o'tsa, sanoat korxonasi ushbu ilmiy tashkilot bilan qaytadan shartnoma tuzishga manfaatdor bo'ladi. Shunday qilib, ilmiy tashkilot uchun muvaffaqiyatli bajarilgan ish uzluksiz buyurtmalarni, xodimlar uchun muvofiq ish haqi bilan ishchi o'rinlarni yaratishni kafolatlaydi. Aynan shu holat amaliy ITI va TKIni tezlashtirish va sifatli bajarishni rag'batlantirishga undaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hech kimni ko'rsatmalar berish orqali majburlash mumkin emas.

AT davrida ikkita bosqich amalga oshiriladi: yangi mahsulotni ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga sotish. Birinchi bosqich – ilmiy-texnik ishlanmalarining moddiylashtirilgan yutuqlarni iste'molchilar ehtiyojlari bilan aniqlanadigan ko'lamida bevosita jamoaviy ishlab chiqarishdir. Ikkinchi bosqichning maqsad va mohiyati yangi mahsulotni iste'molchiga yetkazib berish hisoblanadi. Davlat mulkchilik shakli hukmronlik qilayotgan va xalq xo'jaligini qat'i markazlashgan holda boshqarish sharoitida yangi mahsulot rejali taqsimoti yo'li bilan amalga oshirilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu mahsulot iste'molchilar talablari va bozor narxlarni hisobga olgan holda sotiladi.

Biz uchun hozirgi paytgacha G.M.Dobrov tomonidan taklif etilgan bosqichdan bosqichgacha kvadratli bog'liqlikka ega bo'lgan YaTYaJ bosqichlari o'rtasidagi qiymat xarajatlarning quyidagi samarali nisbatlari dolzarb hisoblanadi⁸⁵:

$$\begin{array}{cccc} FT & ITI & TKI & Ya \\ 2^0 & 2^2 & 2^4 & 2^8 \end{array}$$

⁸⁵ Добров Г.М. Системный анализ организационно-управленческих проблем научно-технического прогресса. -Киев: Знание, 1981. – 19 С.

Innovatsiyani ishlab chiqish bosqichdan keyin xizmatlarni ko'rsatish bilan birga yakuniy iste'molchilar tomonidan ulardan foydalanish hamda samarali ishlashini ta'minlash va eskirgan mahsulotni yo'qotish, uning o'rniga yangi ishlab chiqarishlarni yaratish bosqichi keladi. *Foydalanish bosqichida* bir yo'la ikkita jarayonlar amalga oshiriladi: ilmiy-texnika yutuqlari asosida yaratilgan moddiy va madaniy ne'matlardan bevosita foydalanish hamda yangi buyumning me'yoriy xizmat muddati mobaynida ishlay oladigan holatida saqlab turishni ta'minlovchi texnik va tashkiliy choralarni o'z ichiga oladigan servis xizmat ko'rsatish.

Fundamental va amaliy tadqiqotlarni bajarishdan boshlanadigan va keyinchalik yangi ilmiy-texnik g'oyalarni ishlab chiqish, o'zlashtirish va qo'llash, chiqarilayotgan texnikaning texnik-iqtisodiy parametrlarni yaxshilash, uni ta'mirlash va unga boshqa xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladigan, hamda ushbu texnika sifat jihatdan yangi, yanada samarali texnikaga almashtirishni talab qiladigan payt bilan yakunlanadigan davr *hayotiy sikl* deb ataladi.

Hayotiy siklning har bir bo'g'ini nisbatan mustaqil hisoblanadi, o'ziga xos qonuniyatlarga ega va muayyan rol o'ynaydi. Ushbu siklning hal qiluvchi va asosiy bandi g'oyalarni yig'uvchi fan hisoblandi; texnika – keyingi bo'g'in – muayyan mashina tizimi va tegishli texnologiyalarda ushbu g'oyalarni moddiylashtiradi; ishlab chiqarish, o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy-texnik yutuqlaridan foydalanish sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Hayotiy siklda yangi texnikani o'zlashtirish va uni keng ishlab chiqarishni tashkil etish bosqichlari ilmiy kashfiyotlarni xalq xo'jaligida moddiylashtirilishi va qo'llanilishi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois, keng ma'noda qaraydigan bo'lsak, ularni ishlab chiqarishga yangi texnikani joriy etish deb atash mumkin. Mahsulotning hayotiy sikli ilmiy-texnik yutuqlarini rejalashtirish, moliyalashtirish va ulardan foydalanish uchun qo'llaniladigan vaqt, mehnat va qiymat baholash tizimiga ega.

6.1-jadvalda YaTYaJning bosqichlar bo'yicha vaqt va qiymat xarajatlari keltirilgan hamda ushbu jarayonda ishtirok etadigan ilmiy tashkilot turlari ko'rsatilgan. Bunda, shuni aytib o'tish joizki, loyihalashtirish (L) va qurilish (Q) bosqichlarining mavjudligi zaruriyatni talab qilinmaydi. Ular, odatda, IL ishlanmalar bo'yicha yangi texnikani o'zlashtiradigan zavodlarni rekonstruksiya qilish bilan bog'liq.

YaTYaJ bosqichlari bo'yicha xarajatlarning nisbatlari ko'pincha bajarilayotgan ishlar va yechilayotgan muammolar xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu bois ushbu jadvalda qavs ichida L va Q hisobga olmagan ma'lumotlar berilgan.

Innovatsion jarayon ilmiy-texnik g'oyalarni qayta ishlashdan boshlab to uni tijorat asosida sotishga bo'lgan siklni qamrab oladi. Innovatsion jarayonlar ITTning boshqa elementlarga nisbatan ko'proq bozor munosabatlari bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyotida innovatsiyalar-ning asosiy qismi ishlab chiqarish va tijorat masalalarini yechish maqsadida tadbirkorlik tuzilmalari tomonidan sotib olinadi.

Demak, innovatsiyalar bozorga, aniq iste'molchi yoki iste'mol uchun mo'ljallangan. Innovatsion jarayonni nazariy bilimlarni olish va yangi bilim asosida yaratilgan tovardan iste'molchi tomonidan foydalanishga bo'lgan ketma-ket ishlar majmuasi sifatida qaralishi mumkin.

«*Innovatsion sikl*» tushunchasi yangi tovar iste'molchisining ilmiy sohasi bilan teskari aloqa mavjudligini ko'zda tutadi. Innovatsion sikllarning davomiyligi turlicha bo'lishi mumkin, bu iste'molchi o'z ehtiyojlarini qondirish uslubini takomillashtirish maqsadida ilmiy izlanishning qaysi bosqichda turganligiga bog'liq. Ma'lum bo'lishicha, hozirgi jahon texnologiyalar bozorida asosiy talablardan innovatsion siklni kamaytirish hisoblanadi.

6.1-jadval

Bosqichlar bo'yicha vaqt va qiymat xarajatlari

Yangi texnikani yaratish jarayon bosqichlari (YaTYaJ)	Funda-mental tadqiqotlar (FT)	Ama-liy tadqiqotlar (AT)	Tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (TKI)	Loyihalashtirish (L)	Qurilish (Q)	O'zlashtirish (YaMO')	Sanoat ishlab chiqarish (SICH)
YaTYaJda ishtirok etayotgan ilmiy	Fanlar akademi-yasining institutlari	Tarmoq (idoradan tashqari ⁸⁶) IK, sanoat korxonalari		Loyiha institutlari	Qurilish -montaj tashkilotlari	Sanoat korxonalari, tarmoq	Sanoat va innovatsion

⁸⁶ Idoradan tashqari IK – so'nggi yillarda tijorat asosida, odatda turli tashkiliy-huquqiy shakldagi kichik korxonalar ko'rinishida tashkil etilgan nodavlat ilmiy tashkilotlar.

tashkilotlar va sanoat korxonalarini	OO‘Y					(idoradan tashqari) IK	korxonalarini
Vaqt baholanishi (T) yil hisobida	⁻⁸⁷	1-1,1	1-1,1	0,5-1,0	1,0-2,0	0,5-1	
AT (ITI)dagi xarajatlarning (X) nisbiy birliklarga 1 ga teng	-	1,0	4,0-5,0	0,5-1	10,0-20,0	1-4	
	$X = 16,5 - 31 (6 - 10)$						

6.1.3. Innovatsion faoliyat

Innovatsion faoliyat – ishlab chiqarilayotgan mahsulot (tovar, xizmat)larning assortimentini kengaytirish va yangilash hamda sifatini yaxshilash, ularni keyinchalik joriy etish hamda ichki va xorijiy bozorlarda sotish uchun ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalaridan foydalanish va ularni tijoratlashirishga qaratilgan faoliyatdir. Sarmoya qo‘yilmalari bilan bog‘liq innovatsion faoliyat innovatsion-investitsiya faoliyati deb ataladi.

Innovatsion faoliyat ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat choralariining butun majmuasini qamrab oladi, ularning yig‘indisi, o‘z navbatida, innovatsiyalarga olib keladi.

Innovatsion faoliyatning asosiy turlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

a) yangi texnologik jarayonlarni yaratish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish asbob va uskunani xarid qilish, ularga va ishlab chiqarish jarayoni, usul va standartlarga hamda sifat nazoratiga o‘zgartirishlar kiritishni qamrab oladigan ishlab chiqarishni tayyorlash va tashkil etish;

b) yangi texnologiya va uskunadan foydalanish uchun mahsulot va texnologik jarayonni modifikatsiya qilish, xodimlarning malakasini

⁸⁷ Rossiya Federatsiyasining «Avtomobil va avtomotor markaziy ilmiy-tadqiqot instituti NAMI» ma‘lumotiga ko‘ra izlanish tadqiqotlarning davomiyligi 0,7 va 1.3 yil atrofida o‘zgarib turgan.

oshirishni o'z ichiga olgan ishlab chiqarish ishlanmalari;

d) bozor uchun yangi mahsulotni chiqarish bilan bog'liq faoliyat turlarini ko'zda tutadigan yangi mahsulot marketingi, shu jumladan, bozorni dastlabki tadqiq etish, mahsulotni turli bozorlarga moslashtirish, reklama kompaniyalarni uyushtirish;

e) tashqaridan patent, litsenziya shaklida moddiylashtirilmagan texnologiyalarni xarid qilish, texnologik mohiyatiga oid nou-xau, savdo marka, qurilma, model va xizmatlarni ochib berish;

f) o'z texnologik mohiyatiga ko'ra IKda mahsulot va jarayonli innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq moddiylashgan texnologiyalar – mashina va uskunalarni xarid qilish;

g) ishlab chiqarish operatsiyalarini, texnik ixtisosliklarni aniqlash uchun reja va chizmalarni tayyorlashni o'z ichiga oladigan ishlab chiqarishni loyihalashtirish...»⁸⁸.

Innovatsion faoliyatning negizida fan va texnikaning barcha sohalarda ilmiy-texnik bilimlarni yaratish, rivojlantirish, tarqatish va qo'llash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan *ilmiy-texnik faoliyati* (ITF) yotadi. ITF tushunchasi UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, fan va texnika statistikasida xalqaro standartlarning bazaviy toifasi hisoblanadi. UNESCO tavsiyalariga muvofiq ITF statistika obyekti sifatida uning uch turini qamrab oladi: a) ilmiy tadqiqotlar ishlanmalar; b) ilmiy-texnik ta'lim va xodimlarni tayyorlash; d) ilmiy-texnik xizmatlar⁸⁹.

ITFni amalga oshirishda «*ilmiy ishlar ko'lami*» tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi, u esa quyidagilarni qamrab oladi:

– *ilmiy (ilmiy-texnik) yo'nalishi* – mustaqil xususiyatga ega va mazkur fan va texnika tarmog'ini rivojlantirishning muhim masalalarni yechishga bag'ishlangan eng yirik ilmiy ish hisoblanadi. U yoki bu ilmiy yo'nalishni hal etishi bir qator ilmiy tashkilotlar xatti-harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin;

– *ilmiy (ilmiy-texnik) muammo* – ilmiy ilmiy-texnik) yo'nalishining bir qismi bo'lib, uni yechish mumkin bo'lgan birdan-bir yo'lini ifodalaydi. Ilmiy ish resurslar, ijrochilar, ishni bajarish muddati bo'yicha bir-biriga bog'langan majmua sifatida namoyon bo'ladigan maqsadli ilmiy-texnik dasturlar shaklida hal etishi mumkin. Bosh

⁸⁸ Статистика науки и инноваций: Краткий терминологический словарь / Под ред. Л.М. Гохберга. -М.: ЦИСН, 1996. – 526 С.

⁸⁹ O'sha manba. – 526 С.

tashkilotlar ushbu ishlarni muvofiqlashtirishi lozim;

– *ilmiy mavzu* – odatda ilmiy tashkilot doirasida yechiladigan va ishlarni moliyalashtirish, rejalashtirish yoki hisobga olishda tematik rejalarning asosiy birligi sifatida namoyon bo‘ladigan muammolarning bir qismi. Mavzuning maqsadi – patentli yoki iqtisodiy ishlarni hamda boshqalarni tadqiq etishning muayyan masalalarni samarali yechishdir. Mavzu o‘zining murakkabligiga qarab, davr va bosqichlarga bo‘linishi mumkin.

Innovatsion faoliyatini amalga oshirishda uning obyekt va subyekt ajralib turadi. *Innovatsion faoliyatning obyekt* mamlakat hududidagi korxonalar tomonidan, ularning tashkiliy-iqtisodiy shakllaridan va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, texnika va texnologiyani ishlab chiqishi hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatning subyekt – innovatsion faoliyatda ishtirok etadigan yuridik shaxslar, tashkiliy-iqtisodiy shakllardan va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, O‘zbekistondagi jismoniy shaxslar, xorijiy tashkilotlar va fuqarolar hamda fuqarolikni olmagan shaxslardir. Subyektlarning huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. Subyektlar orasida innovatorlar ham bo‘lishi mumkin. *Innovator* – innovatsiya (ixtiro, kashfiyot, foydali model, loyiha yechimi, samarali taklifi, nou-xau, sanoat namunasi yoki boshqa innovatsiya turi)ning muallifi.

ITF, odatda, ilmiy tashkilotlarda (IK) amalga oshiriladi. *Ilmiy tashkilot* – «u yoki bu iqtisodiyot tarmog‘iga tegishli bo‘lishidan, tashkiliy-huquqiy shakldan va mulkchilik shaklidan qat’i nazar asosiy faoliyati sifatida ITTKIni bajaradigan tashkilot (muassasa, IK)»⁹⁰.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uni rag‘batlantirish masalalariga o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar A. Rasulev va R. Alimov⁹¹ tomonidan mamlakat va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashgan va innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari keng ochib berilgan.

Jumladan, tarmoqlarning innovatsion faolligini baholash mohiyati ixtirolar ko‘lami, innovatsiya turlari va ularni qo‘llashni baholash bilan bir qatorda innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari va tegishli innovatsion

⁹⁰ Статистика науки и инноваций: Краткий терминологический словарь / Под ред. Л.М. Гохберга. – М.: ЦИСН, 1996. – 526 С.

⁹¹ Расулев А., Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике // Общество и экономика. -М.: Наука. – 2007. - № 5-6. – 13-36 С.

siyosatini shakllantirishni amalga oshirish bilan belgilanadi. Tarmoqning innovatsion faolligini baholash uchun zarur tizim bo‘lib, joriy ishlab chiqarish va texnologik holat, innovatsion yechimlarni yaratish va qo‘llash bo‘yicha tarmoqning investitsion imkoniyatlarini belgilovchi innovatsion salohiyat elementlari xizmat qilishi mumkin. Ushbu elementlar sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqish mumkin. Jumladan, innovatsion yo‘naltirilgan tuzilmalarning mavjudligi, kadrlar tarkibi, moliya resurslari, moddiy-texnik jihozlanganlik va tashkiliy-boshqaruv ko‘rsatkichlari.

6.2. INNOVATSIYALARNING MAQSADI VA TURLARI

6.2.1. Innovatsiyalarning tasnifi va o‘ziga xos xususiyatlari

Innovatsiyalarni bir qator belgilari bo‘yicha tasniflash qabul qilingan. Qat’ilik darajasi, iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati bo‘yicha innovatsiyalar bazisli, yaxshilanadigan va soxta innovatsiyalarga bo‘linadi. Ushbu bo‘linish negizida ikkita bir-biridan farqli yaratuvchi va tenglashuvchi innovatsion jarayonlar yotadi. Natijalarning yo‘nalganligi bo‘yicha innovatsiyalar ilmiy dastak, innovatsiya-jarayon va innovatsiya-mahsulotga bo‘linadi. Innovatsiyalarni iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishidagi tutgan o‘rniga qarab boshqa tasniflari ham mavjud.

Yangilik darajasi bo‘yicha innovatsiyaning tasnifi – innovatsiyaning yig‘indilarini yangilik darajasi bir xil bo‘lgan yangilik guruhlarga ularning ahamiyatini baholash maqsadida taqsimlash. Innovatsiya yangiligi tushunchasi ham mahsulot, ham butun texnologik jarayonga tegishli bo‘lishi mumkin, agar u mutlaq yangilikka yoki mavjud mahsulot yoki jarayon vazifalari va xususiyatlarini o‘zgartiradigan elementlari to‘g‘risida gap ketayotgan bo‘lsa, shu nuqtayi-nazardan, tasniflashning birinchi belgi bo‘yicha innovatsiya turlariga bo‘linadi:

– *bazisli innovatsiyalar* – yangi mahsulotga tegishli bo‘lgan innovatsiyalar;

– *yaxshilanadigan innovatsiyalar* – mavjud mahsulotlarni tubdan takomillashtirish, ishlab chiqarishning yangi yoki sezilarli darajada takomillashgan usullarini tatbiq etish bilan bog‘liq innovatsiyalar;

– *soxta innovatsiyalar* – eskirgan texnika va texnologiya avlodlari

qisman yaxshilanadi va odatda texnika taraqqiyotini sekinlashtiradi – ular jamiyat uchun yoki samara bermaydi yoki salbiy ta'sirga ega bo'ladi.

Mahsulot va texnologik jarayonning uncha ahamiyatsiz o'zgarishlarini amalga oshiradigan innovatsiyalar (ular soxta innovatsiyalar deb yuritiladi)ni ham e'tiborga olish lozim, bunga estetik (rangda, ko'rinishda va h.k.) o'zgarishlar hamda uning tuzilishini o'zgartirmagan holda, uning tarkibiga kirgan har bir material va tarkibiy qismlarning parametri, xususiyati va qiymatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazmaydigan o'zgarishlarni amalga oshirishni; joriy talabning qondirish va IK daromadini oshirish maqsadida mazkur IKda ilgari chiqarilmagan, ammo mahsulot bozorida ma'lum bo'lgan ishlab chiqarishni o'zlashtirish asosida mahsulot assortimentini kengaytirishni ko'zda tutadi.

Innovatsiyalarning yangilik darajasi bo'yicha tasniflanishi ham texnologik parametrlari, ham bozor holati bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Texnologik parametrlari nuqtayi nazardan, innovatsiyalar quyidagilarga bo'linadi:

– *mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar* – yangi material va yarim mahsulotlar hamda butlovchi qismlardan foydalanish, tubdan yangi funktsiya (tubdan yangi mahsulot) olish;

– *jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar* – ishlab chiqarishning yangi texnologiyasi, avtomatlashtirishning yanada yuqori darajasi. Ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullari (yangi texnologiyalarga qo'llaniladi). Bozor uchun yangilik turi bo'yicha innovatsiya tarkibidan quyidagilarni ajratib chiqarishimiz mumkin: jahondagi tarmoqlar uchun yangi buyumlar, mamlakatdagi tarmoqlar uchun yangi buyumlari, mazkur IK (IK guruhleri) uchun yangi buyumlari.

Har bir yangi buyum yoki yangi texnologiyani yaratish bo'yicha aniq ilmiy ish uchun innovatsiya loyihasining ayrim davr va bosqichlardan o'tish ketma-ketligini aniqlaydigan hayotiy sikli tushunchasini qo'llash mumkin. Ularning maqsad va vazifalarini o'ziga xosligi, ularga erishish usul va vositalari xususiyati, ularni olib borishning tashkiliy shakli va xarajatlari, kutilayotgan natijalarning noaniqlik darajasi bilan tavsiflanishi mumkin. Adabiyotlarda yangi g'oyalarning paydo bo'lishidan to uni tijoratlashtirish va amaliyotga joriy etish davrini qamrab oladigan innovatsion loyihaning hayotiy

sikli davri va bosqichlarini tasniflash va aniqlashning turli variantlari taklif etiladi.

Innovatsiya jarayonlarini quyidagicha bo‘lish taklif etiladi:

– ilk davri – g‘oyalarning paydo bo‘lishidan to uning texnik qayta ishlash davrigacha;

– o‘rta davri – texnik qayta ishlashdan to tijorat qayta ishlash davrigacha;

– yakuniy davri – keng hajmda ishlab chiqarilishigacha.

Bir qator nashrlarda innovatsion jarayonning ilk davrlarni yanada chuqurroq tasniflari keltirilgan, ya’ni ilmiy tadqiqot va ishlanmalari – fundamental, izlanish, amaliy va h.k. mazmunini tavsiflaydigan alohida bosqichlarga bo‘lingan. Shunday qilib, ilmiy ishlanma to‘rtta davrlarni o‘z ichiga oladi: tadqiqot va ishlab chiqish, o‘zlashtirish, seriyali va ko‘p hajmdagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish⁹².

ITTKI – bilimlar, shu jumladan, inson, tabiat va jamiyat to‘g‘risida bilimlar hajmini oshirish hamda ushbu bilimlarning yangi qo‘llanilish sohalarini topish maqsadida tizimli ravishda amalga oshiradigan ijodiy faoliyatdir. ITTKI ITFning eng muhim turi va fan statistikada kuzatishning asosiy obyekti hisoblanadi, unga bog‘liq bo‘lgan tushuncha va ta’riflar xalqaro statistik tashkilotlar tavsiyalarida muhim o‘rin egallagan. Ilmiy tadqiqotlar uchta faoliyat turini qamrab oladi: FT, AT va TKI.

Fanni inson faoliyati sohasi sifatida quyidagi xususiyatlar tavsiflab beradi:

– tadqiqot va ishlanmalarni olib borishning «texnologik» tavsifi;

– kadrlar tarkibi;

– mehnat predmeti, vositasi va yakuniy mahsulotning xususiyati⁹³.

Fanning «texnologiyalari» yangi hodisa yoki xususiyatlarini ixtiro qilish yoki ularni bilish, buning negizida yangi texnikani yaratishga qaratilgan tadqiqotlar va ishlanmalar, ya’ni mehnat yotadi. Ushbu faoliyatning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, oldindan yakuniy natija va unga erishish uchun vaqt xarajatlarni aniq baholab bo‘lmaydi, bu esa ko‘pincha tadqiqotlarning individual xarakterini belgilaydi.

Fan sohasidagi mehnat nafaqat tadqiqotlarni olib borish usullari

⁹² Беклешов В.К., Завлин П.Н. Нормирование в научно-технических организациях. – М.: Экономика, 1989. – 240 С.

⁹³ Беклешов В.К., Завлин П.Н. Нормирование в научно-технических организациях. – М.: Экономика, 1989. – 240 С.

bo'yicha, balki olinadigan natijalar bo'yicha ijodiy mehnat hisoblanadi. Tadqiqot ishi o'z mohiyatiga ko'ra aqlni ishlatish bilan bog'liq ishlar hisoblanadi, ammo ayrim ish bosqichlarini olib borishda jismoniy energiyani qo'llash ham talab etiladi. Har bir tadqiqot avvalambor vazifalarni qo'yish bilan boshlanadi.

«Ilmiy texnologiya»ning ushbu bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi: texnik topshiriqni ishlab chiqish (tadqiqotning yakuniy maqsadini aniqlash, ularga erishish mumkin bo'lgan uslublarni tanlash va qiyosiy baholash, iste'molchi tomonidan yakuniy natijalarga qo'yiladigan talab va chegaralarni belgilash), muammo bo'yicha adabiyotlardan ilmiy-texnik tajribasini o'rganish, vazifalarni tahlil qilish (yuksak yakuniy natijalarni aniqlash, ushbu natijani olish uchun to'sqinlik qilayotgan ilmiy-texnik ziddiyatlarni va uning sabablarini aniqlash, yuksak natijaga erishish uchun maqbul sharoitlarni yaratish) tajriba dasturini ishlab chiqish. Keyingi yarim ishlab chiqarish tavsifiga ega bo'lgan davrda aqliy mehnatning jismoniy mehnat bilan birlashadi (tajribani, sinovdan o'tkazish, tajriba namunalarni me'yoriga yetkazish).

Ushbu ishlarning natijasi yangi obyekt yoki jarayon ishlashining optimal sharoitlarini, o'xshash jarayon va obyektlarda zarur o'zgartirishlarni aniqlash va nihoyat, qo'llash sohasini belgilash hisoblanadi.

Ilmiy mehnatga avvalambor mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lgan bir qator xususiyatlar kiradi. Ularning qatoriga bajariladigan ishda ehtimol tasnifi va xavf-xatari mavjudligi, uning noyobligi va yangiligi, o'ziga xosligi va hech qachon takrorlanmay amalga oshirilishini kiritishimiz mumkin. Fan sohasidagi mehnat o'z mohiyatiga ko'ra turli toifadagi ishchilarni: olimlar, muhandislar, ishchilar, xizmat ko'rsatuvchi va ma'muriyat xodimlarini birlashtiradigan nazariy va tajriba faoliyatining uyg'unlashgan yaxlitligini namoyon qiladi.

Ilmiy mehnat predmetining bilimlar vositasiga – mehnatni moddiy ta'minoti, mahsulotiga esa, odatda, yangi tushunchalar, fikrlar va xulosa chiqarishlar, ya'ni turli axborot tarqatuvchi vositalarda qayd etilgan yangi bilimlar hisoblanadi. YaTYaJning barcha bosqichlarda yangi axborotlarning moddiy mahsulotga mujassam etilishi jarayonida ilmiy mehnat odatda, ilmiy-texnika mehnati bilan bajariladi, ushbu mehnatning ulushi ilk bosqichdan yakuniy bosqichgacha oshib boraveradi. Ushbu holat shu bilan izohlanadiki, ilmiy xodimlar o'z

faoliyati natijalarini amaliyotga tatbiq etganda texnika va texnologiyalardan foydalangan holda ilmiy tajriba, sinovlarni o'tkazish bilan band bo'ladi.

Ilmiy mehnat natijalari har doim ham jamiyat uchun xizmat qilmasligi mumkin, shuningdek, ilmiy, ilmiy-texnik va muhandislik-ishlab chiqarish faoliyatining natijalari moddiy-ishlab chiqarish faoliyatisiz amalga oshirilishi mumkin emas. Ilmiy-texnik mehnat - tadqiqot va ishlanmalarini olib borish natijasi sifatida, ilmiy tajriba texnikasini keskin murakkablashtirish zaruriyati paydo bo'lishi bilan vujudga keladi.

Ilmiy-texnik mehnat muhandislik-texnik mehnatning bir turi bo'lib, u yaqin vaqtlarda ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonida mustaqil mehnat faoliyati turi sifatida ajralib chiqdi. Muhandis-ishlab chiqaruvchilar mahsulotini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirishi mumkin, ammo uning tubdan o'zgartirish – olimlar va ilmiy xodimlarning vazifasi. IK sharoitida texnika va texnologiya bo'yicha fundamental bilimlarning moddiylashtirilishiga o'tishi ilmiy va muhandislik-texnik mehnatlari o'rtasida bo'lgan ilmiy-texnik mehnati yordamida amalga oshiriladi.

Ilmiy-texnik mehnatning bir qator o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tamiz. Ilmiy mehnatdan farqli ularoq, ilmiy-texnik mehnatning maqsadi, moddiy-ishlab chiqarish faoliyatidagi kabi, g'oyalarni amaliyotga joriy etilishi, muayyan tuzilishi, funktsiya va xususiyatlariga ega bo'lgan texnik obyektini yaratish hisoblanadi. So'zsiz, ilmiy-texnik mehnatdan 100 foizli ijobiy natija olib bo'lmaydi, ayniqsa tajriba o'tkazilayotgan paytda. Odatda, ilmiy-texnik mehnat bilimlar xususiyatlariga xos emas, chunki u o'zi sifat jihatdan yangi bilimlarni yaratib bermaydi. Lekin, bu holat uni ijodiy mehnat bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi.

Ilmiy mehnat jarayonida qonun, farazlar, hisob-kitoblar usullari, ya'ni yangi bilimlar yaratiladi, ular o'z navbatida ilmiy-texnik mehnat jarayonida moddiy mahsulotlarni yaratish uchun qo'llaniladi. Ilmiy mehnatga tugallangan (diskretli) holat xosdir, chunki u turli takrorlanmaydigan elementlardan iborat. Ilmiy faoliyatda, odatda, qat'i bo'ysunadigan texnik-mantiqiy jarayon mavjud emas; yangilikni ijodiy holda qidirish o'rin olgan; ayrim hollarda ish "faraz qilish", ichki his bilan sezgan holda olib boriladi, masalan, IKda odatda ITI hech qachon takrorlanmaydi. ITIda tashkil etilgan ilmiy ko'nikma asosida bajarilayotgan TKI aniqlashtirilgan ilmiy-texnik axborotga ega va ko'p hollarda takrorlanib turiladi, chunki bu yerda yangi buyumlarning

parametrli qatorlari yaratiladi yoki ular modernizatsiya qilinadi. Aynan ITIga ilmiy mehnat, TKIga esa – ilmiy-texnik mehnat ko‘proq xosdir.

Ilmiy mehnatning natijasi texnika va texnologiya to‘g‘risida ilmiy axborot (yangi fundamental bilimlar) hisoblanadi; ilmiy-texnik mehnatning natijasi – ilmiy-texnik axborot (texnik obyektlarni ishlab chiqish, tajriba namunalarni yaratish bo‘yicha texnik tavsifi shaklidagi aniqlashtirilgan yangi bilimlar); sanoat mehnatining natijasi – texnik axboroti (uni ishlab chiqish va undan foydalanishning texnik tavsifi shaklida) bilan amalga oshiriladigan moddiy mahsuloti hisoblanadi.

Ilmiy-texnik mehnati odatda, aniq amaliy bilimlar, masalan texnik fanlar tomonidan olinadigan bilimlarga tayanadi. Ushbu bilimlar muayyan texnik obyektga nisbatan aniqlashtiriladi.

Ma’lumki, ilmiy-texnik mehnatning ushbu xususiyatlari uni tashkil etish, rejalashtirish, me’yorlash va boshqarishda aks ettiriladi. Masalan, mehnat xarajatlari me’yorlarini ishlab chiqamasdan turib, FT amalga oshirib bo‘lmaydi, ammo, ATdan TKIga o‘tishda (ya’ni ilmiy-texnik mehnatida) FTsiz ishlarni amalga oshirish mumkin, sanoat ishlab chiqarishda u butunlay kerak bo‘lmaydi.

FTni amalga oshirishda ilmiy faoliyatning qat’i (direktiv) rejalashtirishning (topshiriqlarni bajarishning qat’i muddatlari kabi) umuman imkoniyati yo‘q. Bu yerda gap muayyan masalalar yechimining dasturiy muddatlarini belgilash to‘g‘risida bormoqda. ITFda masalan, TKIni olib borish paytida, bashorat qat’i (direktiv) rejalashtirish bilan muvofiq bo‘lishi kerak. Ammo bu yerda ham oldindan berilgan ishni bajarish tezligi bilan ishlarni bajarishning qat’i muddatlari bir-biriga muvofiq emas, ammo bunda ishning sikli tasnifini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy faoliyatning eng katta hajmi odatda FTga tegishli, ammo bu yerda texnik ishlar ham muhim o‘rin egallaydi. Sanoat ishlab chiqarishga yaqinlashib borgan sari noan’anaviy qarorlar, chizmalar va h.k. ko‘proq qo‘llaniladi, bu esa nafaqat yangi mahsulotni yaratish va uni ishlab chiqarishga tayyorlash bo‘yicha ish hajmlarini qisqartirish, balki uning sifatini oshirishga imkon yaratib beradi.

Ilmiy va ilmiy-texnik mehnat innovatsion faoliyatning negizida yotadi va ular akademik, oliy o‘quv yurtlari va tarmoq IKga tegishli. IK yangi texnikani yaratish va o‘zlashtirishda ishtirok etadi, ya’ni ular muayyan ketma-ketligida va o‘zaro bog‘langan holda ilmiy-konstruktorlik, texnologik, ishlab chiqarish va iqtisodiy ishlar majmuasini bajaradi.

Innovatsiyaning majmuaviy xususiyati, ko'pqirraligi va ulardan foydalanish soha va uslublarning turli tumanligi ularni tasniflashni talab qiladi. 6.2-jadvalda innovatsiyalarni aniqroq, to'liqroq, obyektiv baholash, ularning natijaviyligini aniqlash hamda to'g'rilash va qo'llab-quvvatlash talab qiladigan innovatsion yo'nalishlarni majmuaviy aniqlash hamda innovatsiyaning bir xil bo'lmaganligini aniqlash va ularning har biri uchun innovatsion jarayoniga mos holda boshqarish usulini tanlashga imkon beradigan *innovatsiyalarning tasnifi* taklif etilgan.

6.2-jadval

Innovatsiyalarning tasnifi

T/r	Tasnifiy belgilari	Innovatsiya guruhlarining tasnifi
1	Innovatsiyani qo'llash sohasi	Boshqaruv, tashkiliy, ijtimoiy, sanoat va h.k.
2	ITT bosqichlari	Ilmiy, texnik, texnologik, konstruktorlik, ishlab chiqarish, axborot
3	Innovatsiyaning intensivlik darajasi	«Hayratga soluvchi», bir me'yordagi, sust, ommaviy
4	Innovatsiyani amalga oshirish sur'atlari	Tezkor, sekinlashgan, so'nadigan, o'sib boradigan, bir maromdagi, sakrab ro'y beradigan
5	Innovatsiya ko'lami	Transkontinental, transmilliy, hududiy, yirik, o'rta, mayda
6	Innovatsiya natijaviyligi	Yuqori, past, barqaror
7	Innovatsiya samaradorligi	Iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, integral

ITTni qo'llash sohasi va bosqichlar bo'yicha bo'linadigan ayrim innovatsiya turlariga alohida to'xtalamiz:

– *texnik* odatda, yangi va takomillashgan xususiyatlariga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi;

– *tashkiliy-boshqaruv* avvalambor, ishlab chiqarish, transport, sotish va ta'minlashni optimal tashkil etish jarayoni bilan bog'liq;

– *axborot* ilmiy-texnik va innovatsion faoliyati sohasida samarali axborot oqimini tashkil etish, axborotlarning ishonchliligini oshirish va uni olishni tezlashtirish masalalarini yechadi;

– *ijtimoiy* mehnat sharoitlarini yaxshilash, sog'liqni saqlash, ta'lim va

madaniyat sohasidagi muammolarni hal etishga qaratilgan.

Turli xil innovatsiyalar o‘zaro uzviy bog‘liqlikda bo‘ladi va innovatsion mexanizmga o‘ziga xos talablarni qo‘yadi. Masalan, texnik va texnologik innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir etib, bir vaqtning o‘zida boshqaruv innovatsiyalari uchun sharoit yaratib beradi, chunki ishlab chiqarishni tashkil etishga o‘zgartirishlarni kiritadi⁹⁴.

Keltirilgan tasnif yangiliklarni yaratish jarayonlari xilma-xilligi va o‘z xususiyatlariga ko‘ra turlicha ekanligidan dalolat beradi. Innovatsiya tasnifiga bo‘lgan ma’lum yondashuvlardan foydalangan holda innovatsiyalarni boshqarish tizimini yaratish uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan klassifikatorni tuzish mumkin (6.3-jadval).

6.3-jadval


Innovatsiya klassifikatori⁹⁵

Tasnifiy belgilari	Belgilarning ahamiyati			
Ta’sir etish kengligi va ko‘lami	Global	Hududiy		Lokal
Innovatsiyaning keskinlik (radikal) darajasi	Bazisli	Yaxshilaydigan		Soxta
G‘oyalarning manbayi	Ochiq	Ixtiro	Rasionalizatorlik takliflari	Boshqalar
Yangilik turi	Konstruksiya va qurilma	Texnologiya	Material, modda	Tirik organizmlar
Mavjud analog (o‘xshash belgilar)lar bilan almashtirish uslubi	Erkin almashtirish		Tizimli almashtirish	

Mazkur klassifikator innovatsiyalarni u yoki bu belgilari bo‘yicha iste’molchilar ma’lumotlar bazasi ehtiyojlariga qarab turlicha guruhlashga imkoniyat beradi. Masalan, tarmoq innovatsiyasi boshqaruv ta’sirlarini manzilini belgilaydi. Innovatsiya manbayi sifatida ixtirolarning g‘oyasi turganligi bois, uning tijorat usuli bilan sotish imkoniyatlarini baholashga yordam beradi. Innovatsiyaning tarqalish ko‘lami yangilikning turiga bog‘liq.

⁹⁴ Бурханов А.У. Поддержка инновационного развития промышленных предприятий в условиях финансово-экономического кризиса. // Сборник научных трудов «Реализации антикризисной программы – дальнейшего развития национальной экономики и повышения его конкурентоспособности». –М.: МГЭИ, 2010. – С.23-26.

⁹⁵ Цветков А.Н. Государственный организационно-экономический механизм научно-технических нововведений. -СПб.: СПбГИЭА, 1997. – 142 С.



6.1. rasm. Innovatsiya tizimi va uning tasnifi

Shunday qilib, innovatsiyaning majmuaviy tavsifi uning ko'p qirraligi va sohaning hamda undan foydalanish uslublari turli tumanligi ularning tasniflanishini ishlab chiqishni talab etadi. Bunday tasniflashga P.P. Bezdudniy, G.A. Smirnova va O.D. Nechayevalar harakat qilgan⁹⁶. Fikrimizcha, tasniflashda boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni loyihalashtirishda zarur bo'ladigan va mazkur jarayonlarni hosil qiladigan ustunlik qiluvchi innovatsiya turlaridan kelib chiqadigan innovatsion jarayonlar xususiyatlarini hisobga olish lozim. Umuman olganda, innovatsiya tizimi 6.1-rasmda ko'rsatilganidek, asosiy guruhlar bilan ifodalanishi mumkin.

Tasnifning 12 ta asosiy belgilarini ajratib olish mumkin. Ularning ko'plari turli mualliflar tomonidan ko'rib chiqilgan⁹⁷. Ushbu belgilarga ko'ra innovatsiyaning bir qancha turi aniqlangan. Chunki ayrim belgilar ko'p holatlarda bir-birini o'rnini to'ldiradi, u yoki bu belgilar bilan belgilangan ayrim innovatsiyalar bir-birini to'ldiradi. Shunga qaramay, ko'rib chiqilgan belgilar umumiy holda innovatsiya yig'indisining keng tavsifini berishga imkon beradi.

Paydo bo'lish belgilari bo'yicha innovatsiyalarni tezkor va strategik innovatsiyalarga bo'lish mumkin⁹⁸.

Tezkor innovatsiyalar (TI) – bu raqobatchi tomonidan kiritilgan yangilik ta'sirida firmani saqlab qolishga qaratilgan innovatsiyalardir, ya'ni firma bozorda kurashni olib borishni davom ettirish uchun raqobatchi yangilikni kiritgan paytdan TI amalga oshirilishi kerak.


Strategik innovatsiyalar (SI) – istiqbolda raqobat ustunliklariga ega bo'lish uchun ogohlantiruvchi xarakterga ega bo'lgan innovatsiyalardir. 6.2 va 6.3-rasmlarda xarajatlar va innovatsiya samaradorligi egri chizig'ining harakati keltirilgan.

Birinchi holatda raqobatchi innovatsiyani kiritadi, uning natijasida xarajatlar va samaradorligi o'rtasidagi standart (o'rtacha) nisbati (samaradorlik nuqtasi) Adan Bga ko'chadi. Firma orqada qolmasligi uchun qo'shimcha xarajatlar qilishga, jarayonni yangilashga va B samaradorlik nuqtasi (raqobatchining samaradorlik egri chizig'i)ga ko'chishga majbur. Strategik innovatsiya holatida korxonalar samaradorlikning standart nuqtasi (B)ga kam xarajatlar qilgan holda erisha oladigan yangi jarayonlarni ishlab chiqadi.


⁹⁶ Бездудный Ф.Ф., Смирнова Г.А., Нечаева О.Д. Сущность понятия «инновация: и его классификация // Инновации. 1998. № 2-3 – 3-13 С.

⁹⁷ Grossi G. Promoting Innovation in a Big Business // Long Range Planning. 1990. Vol. 23. №1. P.41-52

⁹⁸ Grossi G. Promoting Innovation in a Big Business // Long Range Planning. 1990. Vol. 23. №1. P.43-44.



6.2-rasm. Tezkor innovatsiya



6.3-rasm. Strategik innovatsiya

*Innovatsiyani ishga solish predmeti va sohasi*⁹⁹ bo'yicha tasnifiy belgilari mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar (yangi mahsulot va yangi material)lar, bozor innovatsiyalar (mahsulotni yangi qo'llash sohaslarini ochib beradigan innovatsiyalar; mahsulotni yangi bozorlarda sotishga imkon beradigan innovatsiyalar), innovatsiya-jarayon (texnologiyalar, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va boshqaruv jarayonlari)ga bo'linishini ko'zda tutadi.

⁹⁹ Кругликов А.Г. Системный анализ научно-технических нововведений. -М.:Наука, 1991. – 118 С.

Yangilik darajasiga ko'ra innovatsiyalar yangi ixtirolarga asoslangan yoki ochiq holda qo'llanilgan yangi uslublar asosida yaratilgan bo'lishi mumkin¹⁰⁰. O'tgan asrning 80-yillarida elektron sohasidagi texnik yangilanish boshqalardan tubdan farq qilgan, u yangi ixtirolarni izchil o'zlashtirish bilan emas, balki ilgari yaratilgan ixtironing ekspluatatsion xususiyatlarini oshirib borish bilan amalga oshirilgan¹⁰¹.

*Qondiriladigan ehtiyojlar tavsifiga*¹⁰² ko'ra, innovatsiyalar amaldagi ehtiyojlarga qaratilgan bo'lishi va yangi ehtiyojlarni paydo qilishi mumkin.

*Ishlab chiqarish jarayondagi o'rni va roli bo'yicha*¹⁰³ asosiy va to'ldiradigan innovatsiyalarni ajratib olish mumkin. Asosiy mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalarning yangi bozorlarini yaratadi va yangi sohalar negizida yotadi, to'ldiradigan mahsulot – tegishli sohalardagi bozorlarni kengaytiradi. Asosiy texnologik – yirik texnologik tizimlarning bazasini tashkil etadi. To'ldiradigan texnologik – mavjud bazis texnologiyani rivojlantiradi. Ushbu tasnif Van Deyn tomonidan¹⁰⁴ taklif etilgan. Ko'rish mumkinki, innovatsiyaning ushbu belgilar bo'yicha tasnifi bozor belgilari bo'yicha tasnifiga mos tushadi.

Tarqalish ko'lami bo'yicha innovatsiyalar bir xil mahsulotni ishlab chiqaradigan yangi soha uchun asos bo'lgan innovatsiyalar hamda barcha soha va iqtisodiy tarmoqlarda qo'llaniladigan innovatsiyalarni o'z ichiga oladi. Ko'pincha ushbu ikkita innovatsiya turlari vaqt makonida ketma-ket keladi. Ushbu holatni izohlash uchun A.G. Kruglikov tomonidan izohlangan misolni keltiramiz: xalq xo'jaligining elektr texnika sanoati va elektrlashtirish; avtomobilsozlik va avtomobillashtirish; elektron hisoblash mashinasini (EHM) ishlab chiqarish va kompyuterlashtirish¹⁰⁵.

Innovatsiyalarning ahamiyatliligi bo'yicha tasnifi bazisli (sohani shakllantiruvchi, boshqa sohaga kirib boruvchi, asosiy);

¹⁰⁰ Кругликов А.Г. Системный анализ научно-технических нововведений. -М.:Наука, 1991. – 118 С.

¹⁰¹ Длинные волны: научно-технический прогресс и социальное развитие / С.Ю. Глазьев, Г.И. Микерин, П.Н. Тесля и др. -Новосибирск: Наука, 1991. – 224 С.

¹⁰² Добров Г.М. Системный анализ организационно-управленческих проблем научно-технического прогресса. -Киев: Знание, 1981. – 19 С.

¹⁰³ Длинные волны: научно-технический прогресс и социальное развитие / С.Ю. Глазьев, Г.И. Микерин, П.Н. Тесля и др. -Новосибирск: Наука, 1991. – 224 С.

¹⁰⁴ Длинные волны: научно-технический прогресс и социальное развитие / С.Ю. Глазьев, Г.И. Микерин, П.Н. Тесля и др. -Новосибирск: Наука, 1991. – 60 С.

¹⁰⁵ Кругликов А.Г. Системный анализ научно-технических нововведений. – М.:Наука, 1991. – 15-16 С.

yaxshilaydigan (bazisli innovatsiyalarni tubdan takomillashtirish) va soxta (bazisli innovatsiyalarni salgina o'zgartirish) innovatsiyalarga bo'linishini ko'zda tutadi¹⁰⁶.

Ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etishning yo'nalganligi bo'yicha innovatsiyalar kengaytiriladigan, oqilona tashkil etiladigan va o'rinni bosadigan innovatsiyalarga bo'linadi¹⁰⁷. Kengaytiriladigan innovatsiyalar bazisli innovatsiyalari mavjud bo'lgan turli soha va bozorlariga chuqurroq kirib borishga mo'ljallangan (masalan, kompyuterlashtirish – katta hajmdagi EHMdan chegaralangan holda foydalanishdan shaxsiy kompyuterlardan ommaviy foydalanishgacha). Oqilona tashkil etiladigan innovatsiyalar o'z mohiyatiga ko'ra yaxshilaydigan innovatsiyalarga yaqindir. O'rinni bosadigan innovatsiyalar bir (eski) mahsulot va texnologiyalarni ushbu vazifalarni bajarishga asoslangan ikkinchi (yangi) mahsulot va texnologiyalar bilan almashtirishga qaratilgan. Masalan, gaz chiroqlarini elektr tokda ishlaydigan chiroqlarga almashtirish.

Kiritilayotgan o'zgartirishlar chuqurligi bo'yicha innovatsiyaning tasnifi ko'rib chiqilgan ko'plab belgilarni o'z ichiga oladi, ammo borligi eng past darajadagi innovatsiyalarni eng yuqori darajadagi innovatsiyalarga o'tishini kuzatib borishga, ya'ni tasnifni boshqa belgilar bo'yicha rivojlantirishga imkoniyat yaratib beradi¹⁰⁸.

Quyida keltirilgan tasnif chexiyalik olim F. Valenta tomonidan taklif etilgan¹⁰⁹:

nol tartibli innovatsiya – tizimning birlamchi xususiyatlarni vujudga keltirish, uning mavjud funksiyalarini saqlab qolish va yangilash;

birinchi tartibli innovatsiyalar – tizimning miqdoriy xususiyatlarining o'zgarishi;

ikkinchi tartibli innovatsiyalar – tizimning tarkibiy qismlarini ularning ishlashini yaxshilash maqsadida qayta guruhlash;

uchinchi tartibli innovatsiyalar – bir-biriga moslashtirish maqsadida ishlab chiqarish tizimining elementlarini moslashtirilgan holda o'zgartirish;

¹⁰⁶ Кругликов А.Г. Системный анализ научно-технических нововведений. – М.:Наука, 1991. – 16 С.

¹⁰⁷ Длинные волны: научно-технический прогресс и социальное развитие / С.Ю. Глазьев, Г.И. Микерин, П.Н. Тесля и др. – Новосибирск: Наука, 1991. – 61 С.

¹⁰⁸ Водачек Л., Водачкова О. Стратегия управления инновациями на предприятии. – М.: Экономика, 1989. – 32-34 С.

¹⁰⁹ O'sha manba. – 176 С.

to‘rtinchi tartibli innovatsiyalar – yangi variant, oddiy moslashuvchi o‘zgarishlar doirasidan tashqarida sodir bo‘lgan oddiy sifatli o‘zgarishlar (mavjud elektrovozni yanada kuchli dvigatel bilan jihozlash);

beshinchi tartibli innovatsiyalar – yangi avlod; tizimining barcha yoki aksariyat qismi o‘zgaradi, ammo bazaviy tuzilma konsepsiyasi saqlanib qoladi (masalan, «A» seriyali elektrodvigateldan «AI» seriyali elektrodvigatelga o‘tish);

oltinchi tartibli innovatsiyalar – yangi tur, funksional tamoyillarni o‘zgartirmagan holda tizimning dastlabki xususiyatlarini va dastlabki konsepsiyasini sifatli o‘zgartirish (mokusiz to‘qish dastgohning paydo bo‘lishi);

yettinchi tartibli innovatsiyalar – yangi xil, tizim va uning qismlari funksional xususiyatlarini ular funksional tamoyillarini o‘zgartirgan holda yuqori darajadagi o‘zgartirish (yarim o‘tkazgich va tranzistorga o‘tish, klassik havo transportni «havo yostig‘i»dagi transport bilan almashtirish).

Yuqorida ko‘rib chiqilgan belgilar bo‘yicha innovatsiyalarni turlanishi quyidagilarga imkon beradi:

– u yoki bu strategiya turini innovatsiya turiga «bog‘lash»ni amalga oshirish (boshqacha qilib aytganda, turli darajadagi innovatsion strategiya turi ustun turadigan innovatsiyalar turiga bog‘liq);


– innovatsiya turiga qarab boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari va tashkiliy shakllarini tuzib chiqish (tashkiliy-iqtisodiy mexanizm innovatsion strategiyaning tizimchasi hisoblanadi);

– holat, sotish va oldinga yurg‘izish shakllarini aniqlash, bu har bir innovatsiya turlari uchun bir xil emas.

Iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarishning texnik darajasi tushunchasi keng tadqiq etilgan (turli yondashuvlar¹¹⁰da ko‘rib chiqilgan). Bu narsa ilmiy-texnik darajasiga ham qisman ta’sir etdi, innovatsion darajasi ko‘rsatkichi to‘g‘risida masala (yoki innovatsion rivojlanish darajasi) deyarli ko‘rib chiqilmagan. Innovatsion rivojlanish tushunchasi o‘zgarishlarga boy usullarni o‘z ichiga olganligi bilan texnik rivojlanishidan, hattoki ilmiy-texnik

¹¹⁰ Научно-технический уровень отрасли: методы оценки, измерения, анализа. Аналитический обзор. -М.: ВНИИЦентр, 1990. – 419 С.

rivojlanishdan farq qiladi, xo‘jalik birligining o‘z negizida istiqbolda rivojlanishga qodirligi bilan tavsiflanadi. Shunga mos ravishda innovatsion, ilmiy-texnik va texnik rivojlanishni ifodalaydigan ko‘rsatkichlar ham farqlanadi (1.4-rasm).



6.4-rasm. Texnik, ilmiy-texnik va innovatsion darajalarning o‘zaro bog‘liqligi

Asosiy farqi shundan iboratki, innovatsion darajaning ko‘rsatkichlari o‘z tarkibiga quyidagilarni aniqlashga imkon beradigan elementlarni oladi:

- korxonaning ilmiy-texnik ishlanmalarga bo‘lgan istiqbolli ehtiyoji; istiqbolga mo‘ljallangan ITTKI xarajatlar tarkibini;
- o‘z kuchi bilan innovatsion rivojlantirishning kadrlar imkoniyatlarini ko‘rsatib beradigan mehnat salohiyatining innovatsion tarkibi;
- innovatsion imkoniyatlarining korxonada ehtiyojlariga muvofiqligi;
- korxonaning ilmiy-texnik rivojlantirishni tezlashtirish bo‘yicha istiqboli, uning bozordagi holatini mustahkamlash bo‘yicha istiqbolli imkoniyatlari.

Shunday qilib, innovatsiyani tahlil qilishning muhim bosqichlaridan ularni bir qator asosiy belgilar bo‘yicha tasniflash va innovatsion darajasi ko‘rsatkichlarini aniqlash hisoblanadi.

6.2.2. Innovatsiyalar, fan-texnikaning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanishi

Innovatsiyalar, fan-texnikaning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanishi YaTYaJ ko‘rib chiqishdan kelib chiqadi. Innovatsiya jarayoni quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi: fan –texnika – ishlab chiqarish – iste‘mol.

Innovatsion jarayonning boshlanishi fundamental va qidiruv xususiyatiga ega, ya'ni nazariy yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni olib borish bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, muayyan davrda aynan yetarli o'rganilmagan yoki umuman shakllanmagan tabiat hodisalari tadqiqot qilinadi. Bunday tadqiqotlarning natijasi sifatida tabiat o'zining hamda umumiy qonun va qonuniyatlari (nazariy hisob-kitoblari natijasida) va tabiatning yangi moddiy obyektlarini yoki moddalarni ixtiro qilish va boshqalar gavdalanadi.

Oldingi natijalar asosida amaliy yo'nalishdagi ishlar va tadqiqotlar olib boriladi, ularni an'anaviy tarzda ishlanmalar yig'indisi deb atash mumkin. Bunga amaliy ahamiyatga ega maxsus tadqiqotlar kiradi, uning natijasi tor (lokal) qonuniyatlarini ixtiro qilish bilan birga ko'p holatda istiqbolli sun'iy takror ishlanadigan moddiy obyektlarning texnik yechimi namoyon bo'ladi, u odatda kashfiyot shaklida o'z ifodasini topadi. Keyinchalik, kashfiyotlar asosida loyiha-konstruktorlik ko'rinishdagi ishlar (loyiha-konstruktorlik va TKI) bajariladi. Ushbu tur ishlarning natijasi sifatida yangi texnik obyektining tajriba namunasi (mashinalar, jihozlar, apparatlar yoki boshqa uskunalar), yoki ilg'or texnologik jarayon. Keyinchalik amaliy yo'sindagi ishlanmalar qatoriga tirajli miqyosda yangi texnikani o'zlashtirish bo'yicha ishlar qo'shiladi, ya'ni u odatda iste'molning seriyali va ommaviy xususiyatiga ega mahsulotni ishlab chiqishni tayyorlash, deb ataladi. Ular yangi mahsulotning ham zavoddan tashqari ishlab chiqarishga tayyorlash, ham zavod ichki ishlab chiqarishga tayyorlash shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Ko'plab sohalarda sanoat ishlab chiqarish faqatgina yagona namunalarning u yoki bu iste'mol qiymatini yaratish bilan chegaralanmay, yangi mahsulotning sanoat partiyalarini o'zlashtirish bilan ham davom etadi. Oxirgi holatda innovatsion jarayon mazkur mahsulotni ishlab chiqarishning bevosita tayyorlanish deb nomlangan faoliyat sohasi orqali yangi mahsulotning seriyali va ommaviy ishlab chiqarish sohasiga kirib boradi.

So'nggi yillarda mamlakatning rivojlanishi innovatsion jarayonning oxirgi, to'rtinchi bosqichiga katta e'tibor berilmoqda, chunki ITI kuchaytirish bo'yicha harakatlari muvaffaqiyatli ishlab chiqarish faoliyatini yuritish uchun yetarli emas. ITI natijalarni tijoratlashtirishni ta'minlovchi barcha bo'linmalarining majmuaviy rivojlantirish lozim. Bunda korporativ strategiyasining tashkiliy va

boshqaruv jihatlari alohida muhim rol o'ynaydi. Innovatsiyalarni tijoratlashirish – Buyuk Britaniya va boshqa YI mamlakatlar korxonalaridagi zaif tomoni hisoblanadi. AQSH va Yaponiya kompaniyalar oxirgi yillarda bu sohada maksimal yutuqlarga erishdi.

Innovatsion jarayon bilan «innovatsion salohiyat» va «innovatsion siyosat» kabi tushunchalari uzviy bog'langan.

U yoki bu IKning yangilikni ilk bor amalga oshirish va uni takror ishlab chiqish (his etish)ga tayyorligi va qodirligi uning innovatsion salohiyatni tavsiflaydi. Davlat, tarmoq, korxonaning *innovatsion salohiyat* – turli xil resurslari, shu jumladan innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-ishlab chiqarish, moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnika boshqa resurslarining yig'indisidir.

Har bir davlatda innovatsion salohiyat milliy boyligi toifasiga kiradi. Yetuk G'arb mamlakatlarida uni muhofaza qilishga oid qonunchiligi mavjud. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishi faqatgina yopiq texnologiyalardan chegaralarni olib tashlash va ikkilamchi foydalanish toifasiga o'tkazish bilan tavsiflandi.

Innovatsion siyosat – innovatsion strategiyaning maqsad va istiqbolini va uni davlat hukumati organlari tomondan amalga oshirish mexanizmini belgilab beradigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning bir qismidir. Davlatning innovatsion siyosati jamiyat rivojlantirishning optimal yo'llarini; istiqbolli tarmoq va ishlab chiqarishlarni aniqlash, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash; innovatsion jarayonlarni iqtisodiy tartibga solish; fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish va xizmatlar sohasiga tezkor joriy etishni tashkiliy, huquqiy va boshqacha ta'minlash yo'llarini topish kabilardan tarkib topishi lozim. Demak, innovatsion siyosat – innovatsion infratuzilmalar shakllanishining va uning keyinchalik faoliyat yuritishining qulay sharoitlarini yaratishga qaratilgan tashkiliy choralar majmuidir. Davlat innovatsion siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- fan va texnikani yuksaltiradigan natijalarni olishga qaratilgan FT;
- yangi texnika va texnologiyani yaratish maqsadida keyinchalik ularning natijalarini moddiy ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirish uchun qidiruv ITTKIning moliyalashtirish;
- ishlab chiqaruvchilarni innovatsiyalarni yaratish, ya'ni yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish va bu asosida ishlab

chiqaruvchining va butun iqtisodiyotning texnik darajasini tubdan o'zgartirishga iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlaydigan qonunchilik va axborot bazasini yaratish.

O'zbekistonda innovatsion siyosat kuchli dastaklardan biri hisoblanadi, uning yordamida iqtisodiyotdagi inqirozni oldini olish, uning tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash va bozorni turli raqobatbardoshlik mahsulotlar bilan to'yintirish kabi muammolar ijobiy yechimini topadi^{111, 112}.

O'zbekiston ilmiy-texnik siyosatining vazifalaridan intellektual mahsulotni ishlab chiqarish va undan moddiy ishlab chiqarish sohasida va butun iqtisodiyotda foydalanish sifatida qaraluvchi ilmiy faoliyatning rivojlanishini va samaradorligini ta'minlaydigan barqaror va o'zini o'zi rivojlantiradigan mexanizmini yaratish hisoblanadi. Bunga mos ravishda ITJni boshqarish ushbu maqsadni ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Innovatsion siyosatni shakllantirish muammolari strategiyani tanlash kabi muhim jihatni o'z ichiga oladi. U nafaqat mavjud sharoitlarda shaxsiy manfaatlarni, balki IK rivojlantirish manfaatlarni hisobga olgan holda uzoq vaqt davomida muddat innovatsion siyosatining amal qilishini ko'zlash lozim. Ushbu jihatning muhimligi ikkita asosiy sabablar bilan izohlanadi.

Birinchi, bugungi kunda shakllangan maqsad va istiqbollari, shu jumladan istiqbolli, muayyan davrda faqatgina borliqni anglashda o'z aksini topadi. IK (tarmoq, butun xalq xo'jaligi)ning rivojlanib borayotgani sari uning maqsadlari tubdan o'zgarishi mumkin.

Ikkinchi, innovatsiyalar bir martalik choralar qatoriga kirmaydi, jamoa ishlab chiqarishida takror ishlab chiqilgan jarayonlar doimiy xarakterga ega bo'lishi lozim. Shu bois ilmiy-texnik yutuqlarni joriy etish bo'yicha barcha choralar nafaqat texnologik, balki vaqt bilan o'zaro bog'lash lozim. Aks holda ishlab chiqarish bazani modernizatsiya qilish texnik jihatdan mushkul ahvolga tushishi mumkin. Buni misol bilan izohlab beramiz.

Yangi texnologiyani joriy etishning ikkita varianti mavjud, deb faraz qilamiz: birinchi variant joriy vaqtda yuqori foyda bermoqda; ikkinchi variant kelgusida keng ko'lamdagi modernizatsiya ishlarini

¹¹¹ Кадыров А. Стратегия повышения конкурентоспособности экономики Узбекистана // Проблемы теории и практики управления. -М.:Известия. -2005. -№4. -51-57 С.

¹¹² Воронин С.А. Государственное регулирование ценообразования в условиях повышения конкурентоспособности национальной экономики (на примере Республики Узбекистан). Автореферат дис. д.э.н. - Ташкент, 2010.

olib borishni ko‘zda tutadi, birinchi esa ushbu sohani aynan toraytiradi. Tabiiyki, o‘zgaradigan holat, masalan, bozorda, ma’lum vaqt o‘tishi bilan modernizatsiyaning yangi siklini taqozo qiladi. Bu holda birinchi variantning amalga oshirilishi IK yangi sharoitga «moslashish»ga imkon tug‘dirmasligi mumkin, aks holda ikkinchi variant buni amalga oshirishga imkon tug‘diradi. Birinchi variantni tanlash natijasi – IK samaradorligining sezilarli darajada pasayishi va katta hajmdagi qo‘shimcha investitsiyalarni talab qiladi, uning miqdori kutilayotgan samaradan oshib ketishi mumkin. Shunday qilib, hozirgi paytda nafaqat foydani olish imkoniyatlari, balki uzoq muddat uchun IK ishlab chiqarish bazasini rivojlantirishning eng maqbul yo‘nalishlarini prognozlashtirish orqali kelgusida foyda olish ehtimolini tadqiq etish lozim.

Hozirgi sharoitda O‘zbekistonda yangi innovatsion siyosatini shakllantirishda hukumat markaziy rol o‘ynashi lozim. Bunda davlat bir yo‘la uchta yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z siyosatini amalga oshirishi talab etiladi:

- innovatorlarni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash;
- innovatsiyaning olg‘a siljishini ta‘minlay oladigan marketing, konsalting, injiniring firmalar, investitsion «xavf-xatarli» kompaniyalar va banklar, texnologiya birjalarini tashkil etish va qulay bozor infratuzilmalarini, shu jumladan, fan shaharchasi (texnopolis), texnopark, erkin industrial-iqtisodiy zona va hokazolarni tashkil etishning davlat (davlat va hududiy) dasturlarini shakllantirish;
- barcha bozor subyektlarni innovatsiyani kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va ishlash uchun boshqa faoliyat sohalari (ijtimoiy innovatsiyalar)da mazkur mexanizmning ishlashini ta‘minlovchi turli texnologik sikllar bosqichlarida o‘zaro manfaatdorlik asosida «manfaatlariga qarab» birlashuvi bo‘yicha innovatsiya bozorining barcha subyektlarning faoliyatini muvofiqlashtirishning yagona demokratik qoida va mexanizmlarni ishlab chiqish.

6.3. INNOVATSION INFRATUZILMALARNING XUSUSIYATLARI

6.3.1. Innovatsion infratuzilma turlari

Innovatsion faoliyatga innovatsion jarayon doirasidagi barcha faoliyat turlari hamda bozorda yangi iste‘molchilarni topish; raqobat

muhi va raqobatchi firmalar tovarlarining iste'mol xususiyatlari to'g'risidagi axborot; novatorlik g'oya va yechimlarni hamda innovatsion loyihalarni joriy etish va moliyalashtirish bo'yicha hamkorlarni topish kabilar kiradi. Barcha turdagi faoliyat *innovatsion sohani*, ya'ni innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni o'z ichiga oladigan innovatsion mahsulot (ish, xizmat)ning ishlab chiquvchi va iste'molchi faoliyat sohalarini namoyon qiladi.

Innovatsion infratuzilmaga yangi ilmiy-texnik g'oyalarni shakllantirish, yaratish, ishlab chiqarish va ularni qayta ishlashdan boshlab o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiradigan tizimlar faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur va yetarli bo'lgan tegishli tashkiliy elementlarining yig'indisi sifatida namoyon bo'ladigan fan yutuqlariga asoslangan mahsulotni sotishgacha bo'lgan innovatsion faoliyatni amalga oshirishning barcha sikllarini qamrab oluvchi tashkilot, firma, birlashma va boshqalar kiradi. Masalan, innovatsion markaz, inkubator, texnopark, texnopolis va konsalting innovatsion infratuzilma hisoblanadi.

Ushbu infratuzilmalarning bozor tamoyili zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z oldiga qo'yilgan vazifalarini bajarishni ta'minlay olish va doimiy dinamik o'zgarishlarga tez moslashtirish imkoniyatini belgilab beradi. Infratuzilmani shakllantirishning yakuniy maqsadi ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni yanada samarali yuritish uchun nafaqat muayyan xo'jalik subyektlarini tashkil etish, balki jamiyat manfaatlarida ularning umumiy faoliyatini amalga oshirishni ta'minlash, shu jumladan, ishlab chiqarishning pasayishi, uning tarkibiy qayta qurilishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentining o'zgarishiga bardosh berishi, ichki va tashqi bozor uchun uni raqobatbardoshligini va jozibadorligini oshirishi, yangi ishchi o'rinlarni yaratish va ilmiy-texnik salohiyatini saqlashdan iborat bo'lishi lozim. Shunga muvofiq ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatning infratuzilmasi quyidagi o'zaro bog'langan tizimlar majmuasini tashkil etgan bo'lishi lozim:

– mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha manfaatdor tashkilot va IK uchun turli shartlar bilan (shu jumladan tijorat asosida) ma'lumotlar bazasi va banklardan foydalanish imkonini beruvchi ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatning axborot ta'minoti;

– turli faoliyatni mustaqil baholashni yuqori malakali va sifatli

o‘tkazishni ta’minlay oladigan ilmiy-texnik va innovatsion dastur, loyiha, taklif va buyurtmalarni ekspertizadan (shu jumladan davlat tomonidan) o‘tkazish (ilmiy, moliyaviy-iqtisodiy, ekologik va boshqa tur ekspertizalar);

– turli budjetdan tashqari manbalardagi mablag‘lar (avvalambor mahalliy tadbirkorlik tuzilmalar resurslari hamda boshqa davlat va hududdan jalb qilingan investitsiyalar)dan faol foydalanuvchi va bir yo‘la ushbu faoliyatni bevosita va bilvosita davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni ko‘zda tutuvchi ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatning moliyaviy-iqtisodiy ta’minoti;

– yangi raqobatbardoshli yangilikka oid mahsulot va yuqori texnologiyalarni yaratish va ularning IKda, shu jumladan, lizingdan foydalangan holda amaliy o‘zlashtirishni ishlab chiqarish-texnologik qo‘llab-quvvatlash;

– innovatsion mahsulotlarni metrologiya, sertifikatlash va sifatni nazorat qilish sohalarida uning xizmatini o‘zlashtiradigan va ishlab chiqadigan IK larga taqdim etish;

– ilmiy-texnik ishlanmalarni va yangilikka oid mahsulotlarni hududiy, hududlararo, milliy va xorijiy bozorlarga yetkazish, shu jumladan, marketing, reklama va ko‘rgazma faoliyati, patent-litsenziyali faoliyat va intellektual mulkni himoya qilish;

– bozor iqtisodiyoti sharoitida ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat uchun kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, shu jumladan, aniq tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishni boshqarish uchun maqsadli «menejerlar guruhini»ni o‘qitish;

– iqtisodiy usullar va axborot bilan ta’sir o‘tkazish yordamida ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni yanada samarali amalga oshirish maqsadida ushbu faoliyat turlarini rivojlantirishni muvofiqlashtirish va boshqarish.

Sanab o‘tilgan har bir tizim o‘z funksiyalarining amalga oshirish mexanizmlari, ushbu mexanizmlar ishlashini ta’minlash uchun ixtisoslashgan IK, muassasa va tashkilot ko‘rinishida tegishli tashkiliy elementlarni o‘z tarkibiga olishi lozim. Bunda shu narsani hisobga olish kerakki, hududda tashkil etilayotgan ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat infratuzilmasi unda faoliyat ko‘rsatayotgan fan va texnika sohasi bilan bog‘liq barcha xo‘jalik subyektlari, shu jumladan, ilmiy-texnik sohasidagi yirik va o‘rta tashkilotlar, IK va oliy o‘quv yurti

(OO‘Y) yoki kichik tadbirkorlik subyektlari uchun yagona bo‘lishi kerak, chunki tizimning tarkibiy qismlarida fundamental baza yagona hisoblanadi. O‘zbekiston oldida turgan muhim vazifalaridan biri – mavjud ilmiy-texnik salohiyat o‘zagini saqlab qolishdir. Vaholanki, ushbu vazifadan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ilmiy-texnikaviy tarmoqlarni modernizatsiya qilish va ushbu tarmoqlar tuzilmalarini oqilona tartibga solish bo‘yicha jadal islohotlar olib borilmoqda.

Ilmiy tashkilotlarni akkreditatsiyadan o‘tkazish mulkchilik shaklidan qat’i nazar ilmiy va innovatsion faoliyat ishtirokchilarini baholash va ro‘yxatdan o‘tkazishga yordam beradi. Bu ilmiy-texnik salohiyatni saqlab qolgan, kuchli ilmiy kadrlarga ega bo‘lgan va muhim ilmiy vazifalarni amalga oshiruvchi ilmiy yo‘nalishlar va tashkilotlarga budjet mablag‘larini bir joyda to‘plash imkonini beradi.

6.3.2. Innovatsion korxonalar tasnifi

Innovatsion jarayon va innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ilmiy-texnik va innovatsion soha tashkilotlar tizimini tashkil etish va ushbu tashkilotlarning tegishli tasniflarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bevosita IK tasnifiga o‘tadigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash lozimki, innovatsion faoliyatning asosiy elementlaridan biri uning axborot ta’minoti hisoblanadi. Buning uchun telekommunikatsiya tizimidan foydalanishni hisobga olib *innovatsion jarayonni axborot ta’minotining avtomatlashtirilgan tizimini yaratish* muhim hisoblanadi. Tizim yagona axborot makonda innovatsion loyiha, xizmat va uning taklifi to‘g‘risida axborotlar bilan almashish imkoniyatlarini yaratib beradi. Unga o‘zini o‘zi tashkil etuvchi elementlari sifatida innovatsion loyiha, xizmat va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar banklarini o‘z ichiga oluvchi telekommunikatsiya bilan birlashtirgan hududiy va bosh markazlari xizmat qiladi.

Ilm-fanning rivojlanishi bilan ilmiy tashkilot turlarini ajratish nihoyatda murakkablashdi, ularning turli-tumanligi sababli tasniflashda aniq xususiyatlari belgilangan sanoqli guruhlardan foydalanish mushkul hisoblanadi. Ushbu tasniflashning metodologik

asosi tashkiliy tuzilmalarning bo'g'inlarini ixtisoslashtirish konsepsiyasi hisoblanadi. Ixtisoslashtirish turini tashkilotni tasniflashning eng muhim negizi sifatida qarash mumkin. 6.4-jadvalda ilmiy-texnik va innovatsion sohaning tasnifi taklif etilgan.

Ushbu tasnifda muhim belgilar sifatida ixtisoslashuv turi yotadi. Ixtisoslashgan tur bo'yicha IK predmetli va manzilliga bo'linadi. Texnologiya va resurslar turi (ilmiy-texnik axboroti, lizing xizmati)ni yaratishga qaratilgan. Manzilli ixtisoslashgan ilmiy-texnik, innovatsion sho'ba korxonalar va firmalarni tashkil etish shaklida ilmiy markazlarda olingan eng muhim ilmiy natijalardan foydalanish hamda tarmoqlararo foydalanish predmeti sifatida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan tarmoq, quyi tarmoq va korxonalariga an'anaviy xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Manzilli yo'naltirilganlik fanning tashkiliy tuzilmasida muhim ahamiyat kasb etib, integratsiya jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, ilmiy natijalardan intellektual foydalanishga asoslangan tashkilotlar istiqbolli hisoblanadi. Bunday tashkilotlar innovatsion mualliflik firmalarini tashkil etish uchun baza hisoblandi.

IKni innovatsion faoliyati xususiyati bo'yicha tasnifining muhim belgilaridan bozor va marketing jihatlarini hisobga olgan holda IK tomonidan amalga oshiriladigan ustun turuvchi innovatsiya turlari hisoblanadi.

Ustun turuvchi innovatsiya turlariga qarab IK quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin.

1. Peshqadam innovator va davom ettiruvchi innovatorlar. Peshqadam innovatorlar – innovatsiyaning tashabbuskorlari hisoblanib, ular keyinchalik boshqa IK – davom ettiruvchi innovatorlar tomonidan davom ettiriladi. Peshqadam innovatorlar yuqori xavf-xatar sharoitida ishlaydi, ammo, innovatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishda yangi raqobatbardoshli mahsulot portfeliga ega bo'lish va boshqalarga nisbatan kam ishlab chiqarish xarajatlarini sarflashda namoyon bo'ladigan iqtisodiy mustahkamlik zaxirasiga ega bo'la olmaydi. Davom ettiruvchi innovatorlar, aksincha, kam xatarga duch keladi, ularning innovatsiyalari, odatda, peshqadamlarning innovatsiya ta'sirida vujudga keladi va nisbatan past raqobatbardoshlik iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'ladi.

Ilmiy-texnik va innovatsion soha tashkilotlarining tasnifi

Belgilari	Guruhlar				
Ixtisoslashgan turi	Predmetli			Manzilli (iste'molchi uchun)	
	mahsulotlar bo'yicha	texnologiyalar bo'yicha	resurs bo'yicha	Ilmiy natijalardan foydalanish	Tarmoq, tarmoqosti, korxon va boshqalarga xizmat ko'rsatish
Ilmiy-texnik mahsulotning turi	Quyidagilar bo'yicha ixtisoslashgan tashkilotlar				
	FT	AT (ITI)	TKI	Tajribali namunalarni yaratish	Tajriba partiyalar, birinchi seriyalarni ishlab chiqarish
Takomillashib boradigan obyektlar turi	ITTKIga ixtisoslashtirilgan quyidagilarni takomillashtirishga qaratilgan tashkilotlar				
	buyumlar	materiallar	texnologiyalar	Tashkil etish va boshqarish shakllari	Boshqa obyektlar
Faoliyat xususiyati	Fan sohalaridagi tashkilotlar				
	Tabiiy fan		Texnik fan		Umumiy va gumanitar fan
Kombinatsiyalashni qo'llash	Tashkilotlar				
	Kombinatsiyalashni qo'llaydigan			Kombinatsiyalashni qo'llanmaydigan	
«Tadqiqot o'tkazish – o'zlashtirish» siklining bosqichlarini qamrab olish darajasi	Quyidagilarni qamrab oluvchi tashkilotlar				
	Bitta bosqichni			Ikki va undan ortiq bosqichni	
	FT, AT, TKI, YaMO'			FT-AT, AT-TKI, FT-AT-TKI, FT-AT-TKI-YaMO'	
Tashkil etish tamoyili	Tashkilotlar				
	doimiy			vaqtinchalik	

2. Yangi ilmiy ixtiro va ilg'or kashfiyotlarga mo'ljallangan IK va ilgari ixtiro qilingan va kashfiyot qilinganlardan foydalanishning yangi uslublari asosida innovatsiyalarni yaratayotgan IK. Yangi ilmiy ixtiro va ilg'or kashfiyotlarni amalga oshirish ishlab chiqarishda ITTKI to'liq siklga yoki hech bo'lmaganda ITTKIning amaliy tadqiqotlar rivojlangan bazasiga ega IK uchun xosdir, ammo bu turdagi innovatsiyalar juda kam uchraydi. IKning asosiy qismi

innovatsiyalarni ilgari ixtiro qilinganlardan foydalanishning yangi uslublari asosida yaratadi.

3. Yangi ehtiyojlarni yaratadigan IK va amaldagi ehtiyojlarni rivojlantirish va uni to'liq qondirishga ko'maklashadigan IK. Yangi ehtiyojlarni yaratadigan va qondiradigan innovatsiyalarning misoli sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: radiopriyomnik, magnitofon, televizor, telefon, videomagnitofon, videotelefon, kalkulyator, EHM, shu jumladan, PEHM. Mavjud ehtiyojlarni yanada oshib borishida, yuqorida keltirilgan mahsulotlarning yangi avlodlarini yaratish, ishlab chiqarish va sotishda innovatsiya asosiy turtki beruvchi omil hisoblanadi. Tabiiyki, IKning innovatsion rivojlanishi bo'yicha ehtiyojlarni qondirish xususiyati bo'yicha farq qiluvchi talablari ham bir xil emas.

4. Bazaviy innovatsiyalarni yaratadigan IK va faoliyat shaklining o'zgartiradigan innovatsiyalarni yaratishga qaratilgan IK. Bazaviy innovatsiyalar ham yangi ixtirolar asosida, ham «eski» ixtirolarni yangi uslubda foydalanish vositasi sifatida amalga oshirilishi mumkin. Bu turdagi innovatsiyalar yangi avlod texnikani yaratishi bilan bog'liq.

5. Innovatsiyalarni, ularni keyinchalik bitta sohada qo'llash maqsadida yaratayotgan IK va butun xalq xo'jaligi uchun innovatsiyalarni amalga oshiruvchi IK. Ikkinchi turdagi IK to'liq siklini olib borish uchun ITTKIning kuchli bazasiga ega bo'lishi kerak.

6. Ilgari yaratilgan mahsulot va texnologiyalar o'rnini bosadigan innovatsiyalarni amalga oshiruvchi IK va oqilona tashkil etiladigan va kengaytiradigan innovatsiyalarni yaratadigan IK. O'rnini bosadigan innovatsiyalarni yaratish bir muncha ilmiy salohiyatni jalb qilishni talab etadi.

7. Asosiy (mahsulotlar va texnologiyalar bo'yicha) innovatsiyalarni yaratadigan IK va to'ldiradigan innovatsiyalarni ishlab chiqadigan IK.

8. Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalarni sotadigan IK va jarayonlar bo'yicha innovatsiyalarni amalga oshiradigan IK.

9. Yangi bozorlar uchun innovatsiyalarni yaratadigan IK va eski bozorlarda innovatsiyalarning yangi qo'llanish sohasini yaratishga ixtisoslashgan IK.

10. IK yangilikni yaratish jiddiyligiga qarab tasniflanishi ham mumkin. Bu quyidagi innovatsiyalarni yaratishda tashabbus ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlardir:

a) mahsulot va jarayonning dastlabki xususiyatlarini yuzaga keltirish bo'yicha. Ushbu turdagi innovatsiya nolga teng, ya'ni ularni shartli ravishda innovatsiya deb atash mumkin. Odatda, ular amaldagi jarayonni faqatgina tiklashga qodir bo'lgan turli xil yangiliklardir. Ushbu turdagi IK eng past pog'onasida joylashgan. Ularning yangi mahsulotlardagi ulushi va istiqbolda paydo bo'lish ehtimoli kamligi tufayli, bozordagi holati turg'un emas;

b) amaldagi jarayonlarning unumdorligi va miqdorini oshirish bo'yicha. Bu turdagi innovatsiyalar birinchi tartibli innovatsiyalar qatoriga kiradi. Ushbu innovatsiya turiga ega bo'lgan IKning bozordagi holati turg'un bo'lishi mumkin, faqatgina tor guruhlari bo'yicha sifat jihatdan tub o'zgarishlarni amalga oshirgan vaziyatda.

11. O'z innovatsion faoliyati amaldagi ishlab chiqarish jarayonining ayrim elementlarini qayta guruhlash bilan bog'liq bo'lgan yangiliklarni joriy etishga qaratilgan IK. Bu ishlab chiqarishda va ishlab chiqarishning tashkiliy qayta guruhlashda amaldagi elementlarni turli kombinatsiyalash hisobiga yangi buyum (yangilik darajasi kam bo'lgan)larni yaratishda namoyon bo'lishi mumkin.

12. Ishlab chiqarish tizimining ayrim, odatda, to'ldiradigan elementdagi moslashgan yoki butun tizim faoliyatini sezilarli darajada o'zgartirmagan holda mazkur ishlab chiqarish tizimi elementlarini qisman yaxshilashga erishgan innovatsiyalarni yaratuvchi IK. Ushbu innovatsiyalarning yangilik darajasi yuqori emas, chunki ayrim elementlarning o'zgarishi yuqori innovatsionlik darajasi pastligi bilan ifodalanadi (masalan, stanokdagi bitta tur elektrodvigatelni boshqa IK tomonidan ishlab chiqaradigan elektrodvigatelga almashtirish yoki avtomobil uchun yangi yanada kuchli dvigatelni o'rnatish, poyezd, vagon, metro va h.k. qulay yoritish vositalarni qo'yish).

13. Bazaviy tuzilishini va tarkibini o'zgartirmagan holda yangi avlod texnologiya va mahsulotni ishlab chiqadigan IK.

14. Dastlabki konsepsiyasini tubdan o'zgartirgan va funksional tamoyilini saqlagan holda yangi turdagi ishlab chiqarish tizimi (mahsulot va texnologiya)larni yaratishda tashabbus ko'rsatayotgan IK.

15. Yangi avlod texnika va texnologiyani yaratadigan IK. Bu innovatsion faoliyatning yuqori turi hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan IK innovatsion faoliyatning har biri, agar ular to'g'risida gap boradigan bo'lsa, bir vaqtning o'zida boshqalar

bilan faoliyat ko'rsatadi. Shu bois, IK turi to'g'risida gap ochganda, IKda amalga oshirilayotgan innovatsiyalar tarkibi va ustun turuvchi turlarini hisobga olish lozim. Ko'rsatilgan xilma-xil shakllarga olib keladigan IKning tashkiliy rivojlanishi asosan ikkita qarama-qarshi tendensiyalar – integratsiya va dezintegratsiya (tarkibiy qismlarga ajralish) muvofiqligi sharoitida amaliy (tarmoq) fanlar sohasida sodir bo'lgan va sodir bo'lmoqda. Natijada ilmiy-texnik sohada yangi tashkiliy tuzilmalar tashkil etilmoqda: inkubator, texnopark, texnopolislar.

Inkubator – noyob ilmiy-texnik g'oyalarni amalga oshiradigan kichik innovatsion korxonalar (KIK) faoliyatini shakllantirish va uni samarali amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratishga ixtisoslashgan tuzilma. Bu KIKlarga moddiy (avvalambor ilmiy uskuna va turar joy), axborot, maslahat va boshqa zarur xizmatlarni ko'rsatish yo'li bilan erishiladi. Inkubatorlarda olib boradigan quyidagi ishlar turini keltirish mumkin¹¹³:

- taklif etilayotgan loyihaning yangiligi va haqqoniyligini aniqlab beradigan ilmiy-texnik ekspertizasini, ekologik va tijorat ekspertizasini (konyunkturani ishlab chiqish, yangi tovarning istiqbol bozorini va kutilayotgan foydani baholash) o'z ichiga olgan innovatsion loyihalarni ekspertizadan o'tkazish;

- investorlarni topish va zarurat tug'ilganda kafolatlarni taqdim etish;

- turar joy, uskuna, tajribali ishlab chiqarishlarni imtiyozli sharoitlarda berish;

- huquqiy, reklama, axborot, maslahat va boshqa xizmatlarni imtiyozli tarzda ko'rsatish.

Inkubator – tijorat tashkiloti: u o'zining faoliyatini innovatsion firmalarning kelgusida foyda olishida u yoki bu shaklda ishtirok etish hisobiga qoplaydi. Innovatsion biznes inkubatorlarning kelajakdagi texnopark va texnopolislarning asosi sifatida rivojlantirishga maqbul taktik choralaridan biri hisoblanadi. Mudofaa majmualari, akademik institut va OO'Y oldida (yoki bevosita ularning ichida) joylashganda, ko'p sonli xodimlarni ular ishdan bo'shamasdan turib va boshqa turar joylar, mamlakatning tashqarisiga chiqmasdan turib, yuqori ish haqini to'lab ijodiy ishga jalb qilishga imkoniyat yaratib beradi. AQSHda

¹¹³ Фигуровский Н. Будущее за инкубаторами инновационного бизнеса // Радикал. 1992. -№ 44.-36 С.

turli universitet bo'linmalariga tegishli bo'lgan 100 dan ortiq (inkubator turidagi) innovatsiya va ularni joriy etish markazlari tashkil etilgan. Ushbu ilmiy markazlar hattoki davlat budjeti ishtirokisiz tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari hududiy budjetlar tadqiqotlarni emas, balki yangi texnologiyalarni davlat ilmiy laboratoriyadan jamoat tashkilotlar – maktab, shifoxona, transport xo'jaliklar va h.k.ga amaliyotigacha olib borishga ixtisoslashgan katta hajmda bo'lmagan innovatsiyani joriy etish markazlarini moliyalashtirib kelmoqda. Joylarda ushbu yordam ko'rsatish bo'yicha ehtiyoj katta, buni universitet va davlat laboratoriyalari – Bruksenven, Sandia, Harbiy dengiz tadqiqotlari ko'magida faoliyat ko'rsatayotgan Pensilvaniya shtatining Texnik ko'maklashish dasturi misolida baholash mumkin.

Texnopark – umumiy holatda ilmiy muassasa, OO'Y va sanoat korxonalarini hamda axborot, ko'rgazma majmualarini, xizmat ko'rsatish xizmatlarini o'z ichiga olishi mumkin va qulay uy-joy va maishiy sharoitlarni yaratishni ko'zda tutuvchi ixcham joylashgan majmuadir. Texnoparkning faoliyat ko'rsatishi ilmiy-texnik faoliyatni tijoratlashtirish va moddiy ishlab chiqarish sohasiga innovatsiyalarni kiritishni tezlashtirishga asoslanadi.

Integratsion tendensiyalarning eng yuqori darajada namoyon etadigan bu *texnopolis* ilmiy park, texnologik parkdir. U o'z mohiyatiga ko'ra yangi g'oyalarni vujudga keltirish va uni tezroq tijoratlashtirishga manfaatlari bo'yicha bog'laydigan bir necha yuz tadqiqot muassasalari, sanoat korxonalari, innovatsiyalarni jalb qiluvchi, venchur tashkilotlari va boshqalarning monopolist ko'rinishida namoyon bo'ladi. Texnopolis – texnoparkka o'xshash tuzilma bo'lib, *fan shaharchalari* deb nom olgan katta bo'lmagan shahar (turar joy)larni o'z tarkibiga oladi. Bunda ushbu hududda joylashgan ilmiy va ilmiy-ishlab chiqarish majmualarni rivojlantirish maqsadga muvofiq deb qabul qilingan. Kichik firmalarning birlashishi yirik innovatsiyalarni yaratishga zarur va yetarli bo'lgan murakkab infratuzilmani tashkil etadi. Texnopolis markazi, uning negizi odatda yirik universitet – innovatsiya asosida turgan fundamental bilimlarni shakllantiruvchi va tarqatuvchi hisoblanadi.

Misol uchun, AQSHda olimlar uchun yangi ishchi o'rinlarni yaratadigan taxminan 300 ta shunday parklar, Germaniyada – taxminan 300 ta innovatsion markazlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Yaponiyada eng istiqbolli sohalarda takomillashgan texnologiyalarni ishlab chiqarish uchun kuchli salohiyatga ega bo'lgan 19 ta texnopolislar mavjud.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Innovatsiya» tushunchasiga ta'rif bering.
2. Mahsulot va jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar deganda nimani tushunasiz?
3. Innovatsion jarayon deb nimaga aytiladi?
4. Innovatsion faliyat nima, uning qanday turlarini bilasiz?
5. Innovatsiyani tasniflab bering.
6. Innovatsiya klassifikatori nima?
7. Innovatsion infratuzilma nima va uning qanday turlarini bilasiz?
8. Innovatsiyani yaratishni rag'batlantirish yo'llari nimalardan iborat?
9. Ilmiy-texnik va innovatsion soha tashkilotlarini tasniflab bering.
10. Innovatsiyalar va fan-texnikaning o'zaro bog'liqligini tushuntirib bering.

7-BOB. INNOVATSION JARAYONLARNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

7.1. INNOVATSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA DAVLATNING ROLI

7.1.1. Iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda innovatsiyalarning ahamiyati

Innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha ko‘pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, unda asosan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni davlat tomonidan tartibga solish masalalari ilgari surilgan^{114,115,116}. Xususan, ushbu jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati birinchi navbatda, ularning iqtisodiyot va jamiyatga ahamiyati oshib borishi bilan bog‘liq. Iqtisodiy o‘shish ekstensiv va intensiv omillar birikmasiga asoslanadi.

Ekstensiv omillarga birlamchi resurslarni – ishchi kuchi, moddiy tarkibiy qismlari, yer va h.k. ishlab chiqarishda foydalanadigan massaning ko‘payishi tushuniladi.

Intensiv omillar – qo‘llanilayotgan resurslarning sifati va ulardan foydalanish darajasini oshirish. Hozirgi davrda mehnatga layoqatli aholining bandligini oshirish va iqtisodiyotda tabiiy resurslardan foydalanish darajasini oshirish orqali mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishni oshirish imkoniyatlari keskin chegaralangan. Iqtisodiy dinamika uchun intensiv omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega, o‘z navbatida, kadrlarning malakasini va mehnat unumdorligini oshirish, material va asbob-uskunalardan foydalanish samarasi ilm-fan yutuqlari, ilg‘or tajriba va xo‘jalikda ulardan foydalanish darajasi bilan, ya‘ni yangiliklarning yoyilishi bilan aniqlanadi. Eng taraqqiy etgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning o‘shishiga ilmiy-texnik taraqqiyotining hissasi, turli baholash manbalariga ko‘ra, 75–90% ni tashkil etadi.

Shunday qilib, innovatsiyalarni umumdavlat ahamiyatining *birinchi jihati* uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga hal qiluvchi ta‘siri hisoblanadi.

Innovatsion jarayonlar ta‘sirida iqtisodiyotning tarkibi ham

¹¹⁴ Трапезников В.А. Управление и научно-технический прогресс. – М.: Наука, 1983. – 223 С.

¹¹⁵ Рашидова Г. Какой быть национальной инновационной системе Узбекистана? // Экономическое обозрение. - 2010 - №6 – 16-18 С.

¹¹⁶ Организация производства на предприятии (фирме). – М.: ИНФРА-М, 2004. – 448 С.

o‘zgaradi. Resurslardan foydalanish samaradorligining o‘shishi hisobiga ularning bir qismi bo‘shab qoladi va boshqa faoliyat sohaslariga taqsimlanadi. Masalan, qishloq xo‘jaligida bandlarning ulushi pasayganda xizmatlar sohasida bandlarning ulushi keskin ko‘payadi. Innovatsiyalar ta‘sirida bitta ishlab chiqarish va tarmoqlarning vujudga kelishi hamda boshqalarning sekin-astalik bilan tugatilish jarayoni kuzatiladi. Innovatsion jarayonlarning umumdavlat ahamiyatining *ikkinchi jihati* – jamoa ishlab chiqarish tarkibiga ta‘siri hisoblanadi.

Innovatsiyalar jamiyatning iqtisodiy tashkillashtirishni ham o‘zgartiradi. Asosiy xo‘jalik tarkibida yangi tuzilmalar (masalan, venchur firmalari) vujudga keladi, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqa munosabatlari o‘zgaradi. Turli mulkchilik shakllari tarkibi va faoliyat ko‘rsatishida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, boshqaruv texnologiyalari rivojlanadi. Vertikal ta‘siri gorizontaal ta‘siri bilan to‘ldiriladi yoki almashtiriladi. Natijada iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tarkibi ham o‘zgaradi. Demak, institutsional iqtisodiy mexanizmlarga sezilarli darajada ta‘sir etish – innovatsiyalarning umumdavlat ahamiyatining *uchinchi jihatidir*.

Innovatsion jarayonlarning ta‘sirida nafaqat ishlab chiqarish, balki jamiyat hayotining deyarli barcha sohalari ham o‘zgaradi. Iste‘mol, ya‘ni moddiy yoki moddiy bo‘lmagan ne‘matlar tarkibi takomillashadi, siyosiy madaniyat rivojlanadi, huquqiy, etik, estetik me‘yorlar ijobiy tomonga o‘zgaradi. Innovatsion jarayonlarning umumdavlat ahamiyatining *to‘rtinchi jihati* – millatni taraqqiyotga intilishga moyilligi va uning yangilikni joriy etish salohiyati mavjudligidadir.

Innovatsion jarayonlar ko‘pincha ijtimoiy jihatlarga ham ta‘sir o‘tkazadi. Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, innovatsiyalar ta‘siridagi iqtisodiy o‘shish aholining turmush darajasini oshiradi, shu bilan birga, yangi yuqori ish haqi beradigan ishchi o‘rinlarni yaratish hisobiga bandlik muammosini hal qilishga ham xizmat qiladi, ta‘lim olish va sog‘liqni saqlash darajasi oshadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning yoyilish jarayoni turli ijtimoiy va iqtisodiy subyektlarni yaxlit tizimga birlashtiruvchi elementlardan biri ham hisoblanadi, millatning hamjihatligini ta‘minlaydi. Ko‘p hollarda ijtimoiy ziddiyat va mojarolarni yumshatadi. Shunday qilib, ijtimoiy barqarorlikka innovatsion jarayonlarning ta‘siri – innovatsiyalarning umumdavlat ahamiyatining *beshinchi jihatidir*.

Hozirgi davrda innovatsion jarayonlar intensivligi jahon mamlakatlarida ekologik muammolarni keskinlashtirdi. Atrof-muhitning ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha antropogen o‘zgarishlar yuqori darajaga yaqinlashdi, buning natijasida tabiatda moddalar me‘yoriy aylanishning buzilishiga olib keldi. Ammo, faqatgina innovatsion yo‘nalishda inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirish mumkin. Ilmiy-texnik yutuqlar ishlab chiqarish va iste‘mol qilish tarkibini unumlashtirish hamda takroriy qayta ishlash (foydalanish) texnologiyalarni tarqatish yo‘li bilan to‘ldirib bo‘lmaydigan resurslardan foydalanishni va zararli moddalarni chiqarishlarni kamaytirishga imkon yaratib beradi. Ushbu muammolar XXI asrda jahon hamjamiyati tomonidan barqaror ekologik muvozanatni nazarda tutadigan barqaror rivojlanish konsepsiyasini qabul qilishda dolzarb ekanligini ta‘kidlash mumkin. Demak, innovatsiyalarning tashqi muhitga ta‘siri – innovatsion jarayonlarning umumdavlat ahamiyatining *oltinchi jihatidir*.

O‘tgan yuz yillikda xo‘jalik hayoti keskin tarzda xalqaro ko‘lami bilan belgilandi. Innovatsion jarayonlar ham xalqaro ko‘lamida muhim ahamiyat kasb etmoqda va bu odatda integratsiyaning yanada chuqur tus olishi bilan tavsiflanadi. Turli mamlakatlarning innovatsion sohadagi kooperatsiyasi keng shakl turlarida o‘z o‘rniga ega – yangi ilmiy-texnik natijalarni olish uchun resurslarni birlashtirish, texnologiyalarni moddiylashtirish, hamda moddiylashtirmaslik shaklda o‘zgarishi, jahon ilmiy-innovatsion infratuzilmalarni yaratish, global xarakterga ega bo‘lgan innovatsiyalarni joriy etish va h.k. Xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni faollashtirish – innovatsion jarayonlarning umumdavlat ahamiyatining *yettinchi jihatidir*.

Ammo mamlakatda mos bo‘lgan ilmiy-texnik baza hamda chetdan innovatsiyalarni kiritish mexanizmlari mavjud bo‘lmasa jahon innovatsion jarayonlariga to‘liq integratsiyani amalga oshirib bo‘lmaydi. Mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotiga kirish darajasi va samaradorligi uning jahon tovar va xizmatlar bozorlaridagi o‘rni hamda malakaviy xodimlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bu holat kam darajada noyob tabiiy resurslar va boshqa innovatsiyalarning mavjudligi bilan, ko‘p hollarda mahsulotning raqobatbardoshligini ta‘minlovchi innovatsiyalar bilan belgilanadi. Innovatsion jarayonlarning umumdavlat ahamiyatining *sakkizinchi jihati* – milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini innovatsion jarayonlarni

rivojlantirish darajasiga bog‘liqligi.

Innovatsiyalarni yaratish qobiliyati hozirgi paytda mamlakat xavfsizligining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonga ichki va tashqi omillar bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Tashqi omillar ta‘siri nuqtayi nazaridan qaralsa, bu yerda gap mamlakatning ilmiy-texnik xavfsizligini ta‘minlash to‘g‘risida boradi. Xususan, mamlakatning ilg‘or texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari chegaralanganligi sharoitida va mavjud texnologik zanjirdagi uzilishlar o‘rnini to‘ldirishda tashqi omillarning salbiy ta‘siriga barqaror turib beradigan mustahkam *ilmiy-innovatsion salohiyatiga* ega bo‘lishi kerak. Ilmiy-innovatsion salohiyatning rivojlanishi mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash uchun yuqori ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda, ilmiy-texnik va innovatsion jarayonlarning globalashuvi mamlakatlarning texnologik jihatdan o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishida yuzaga keladigan muammolarni kamaytiradi. Ichki omillar sirasiga texnologik halokatlardan, tabiiy ofatlar, ayrim huquqbuzarlik harakatlarning oldini olish va salbiy oqibatlarini kamaytirishga imkon yaratuvchi innovatsiya yondashuvlar kiradi. Ilmiy-innovatsion salohiyat va milliy xavfsizlik darajalarining o‘zaro bog‘liqligi – innovatsiyalarning umumdavlat ahamiyatining *to‘qqizinchi jihatidir*. Ushbu ro‘yxatda yana bir jihat jamiyat manfaatlariga qarshi maqsadlarda ilmiy-texnik yutuqlardan foydalanish imkoniyati hisoblanadi.

7.1.2. Ilmiy-texnik natijalar va ularni joriy etishda bozor mexanizmlarining chegaralanganligi

Innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning zaruriyati u nafaqat umummilliy ahamiyati bilan, balki iqtisodiy mazmuni bilan izohlanadi. Bir tomondan hozirgi davrda innovatsiyalar bozor talablarini yaxshiroq qondirish, ishlab chiqarish xarajatlarini raqobatchilarga nisbatan kamaytirish hisobiga xo‘jalik subyektlarining daromadlarini oshirishning asosiy vositasiga aylandi. Ikkinchi tomondan, klassik bozor mexanizmlari sharoitida ilmiy-texnik natijalarni olish juda qiyin edi, aksariyat innovatsiyalar esa xo‘jalik amaliyotiga joriy etilmagan edi. Yirik korporatsiyaning faoliyati sezilarli darajada takomillashgan raqobatning mexanizmlar turini o‘zgartiradi va ilmiy-innovatsion jarayonlarni umumiy qayta ishlab

chiqish sikliga qisman birlashishga imkon beradi. Biroq, XX asr oxirida yetakchi mamlakatlardagi ko‘plab sohalarda shakllangan oligopolistik raqobatning mexanizmlari ilm-fanning hozirgi yutuqlarining innovatsion salohiyatidan to‘liq foydalanishni ta‘minlay olmadi. Bozor mexanizmlarining chegaralanganligi innovatsiyalarni taqsimlash muhiti sifatida bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha kuzatib borish mumkin.

*Birinchi*dan, ayrim xo‘jalik subyektlari tomonidan keng ko‘lamdagi innovatsiyalarni joriy etish uchun kerak bo‘lgan mablag‘larni yo‘naltirish imkoniyati yo‘q. Ilmiy bilish jarayonlarini takomillashtirish ITTKIning qiymati yanada oshishiga olib keladi. Yangi ilmiy natijalar yuqori malakali, ya‘ni yuqori haq oladigan xodimlar bilan erishiladi; bunda ilmiy mehnatni mablag‘ bilan ta‘minlanganlik darajasi keskin sur‘atlar bilan o‘sib boradi. Ilm-fan rivojlanishi ko‘proq fanlararo tasnifga ega bo‘ladi. Fan va texnikaning turli sohalaridagi vakillarning kooperatsiyasi qo‘shimcha xarajatlarni sarf qilishni talab qiladi, yangiliklarni joriy etish esa undan ham ko‘p xarajatlarni sarflashga olib keladi. Bu ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, ilmiy-texnik axborotlarni qidirish va sotib olish xarajatlari, konyunkturani prognozlashtirish, xodimlarni o‘qitish, tashkiliy chora-tadbirlar va ko‘pincha resurslarni yetkazib beruvchilar, mahsulot va xizmatlarning iste‘molchilari bilan shakllangan o‘zaro aloqalar turini o‘zgartirishga va h.k.ga ketgan kapital mablag‘lardir. Yangi mahsulotlarni ekspertizadan o‘tkazish, patentlash va sertifikatlash va boshqalar uchun ko‘p xarajat qilinadi.

*Ikkinchi*dan, ko‘plab innovatsiyalar faqatgina ularni joriy etishning ko‘lami kengligi, eng kritik nuqtadan oshadigan va keng hajmli bozorning mavjudligi sharoitida iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishi mumkin. ITTKIga va innovatsiyalarni joriy etishga sarflanadigan xarajatlarning nisbiy miqdori ko‘payib borishi bilan ishlab chiqarish xarajatlari shartli-doimiy xarajatlarning ulushi oshadi. Chegaralangan ishlab chiqarish bazasiga va mahsulot sotishning cheklangan bozoriga ega bo‘lgan ayrim xo‘jalik subyektlari uchun innovatsion qo‘yilmalar yuqori daromad bermasligi mumkin, chunki ular ishlab chiqarish ko‘lamida yetarli darajada tejalmasligi mumkin. Ushbu holat ayniqsa sarmoyaning aylanish tezligi past bo‘lgan tarmoqlar uchun xosdir.

*Uchinchi*dan, innovatsiyalarni alohida amalga oshirilishi ayrim

firmalar va butun iqtisodiyot uchun sezilarli darajada yo‘qotishlarga olib keladi. Ayrim hollarda ilmiy-innovatsion xarajatlarning oshishi bilan bog‘liq ITTKI va innovatsiyaga yo‘naltirilgan xarajatlarning asossiz ko‘payishi jamiyat uchun ortiqcha sarf-xarajatlardan hisoblanadi. Bundan tashqari, innovatsion jarayonni joriy etishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning haddan tashqari mustaqil bo‘lishi texnologik zanjirning turli pog‘onalarida ziddiyatlarga olib kelishi mumkin, bu esa hozirgi sharoitda katta miqdordagi iqtisodiy yo‘qotishlar bilan bog‘liq.

To‘rtinchidan, shunday innovatsion jarayonlar borki, ularni umuman tijorat asosida amalga oshirib bo‘lmaydi. Ularga fundamental ilmiy tadqiqotlarni kiritish mumkin, ularning natijalarini odatda tijoratlashirish mumkin emas. Ammo, ko‘plab innovatsiyalar fundamental fanning yutuqlari bilan bog‘liq. Bunga, butun jamiyat ehtiyojlarini to‘liq yoki qisman qondirishga qaratilgan faoliyat turi va tarmoqlardagi innovatsiyalar ham kiradi. Ushbu innovatsion jarayonlarning tarkibiy elementlariga sarflanadigan xarajatlar butun jamiyat zimmasida tushadi.

Beshinchidan, innovatsion loyihalar ko‘p hollarda natijalarning yuqori darajadagi noaniqligi va samaraga erishish kechikishlar bilan tavsiflanadi. Innovatsiyalarga mablag‘larni qo‘yib, tadbirkor yoki firma o‘zini bir nechta elementlaridan tarkib topgan innovatsion xavf-xatarga soladi va ular quyidagilardan iborat:

- texnologik xavf-xatar loyihaaning texnik tomondan muvaffaqiyatsizlikka uchrash ehtimoli;
- xo‘jalik xavf-xatar – xo‘jalik subyekti tasarrufida bo‘lgan resurslardan ko‘ra talab etilayotgan resurslar miqdorining oshishi;
- tijorat xavf-xatar – bozor konyunkturasiining noaniqligi;
- dinamik xavf-xatar – loyihaaning amalga oshirish davrida umumiy iqtisodiy muhitning sezilarli darajada o‘zgarishi.

Tadbirkor xavfi kam bo‘lgan usullar bilan sarmoyani joylashtirish maqsadida innovatsion loyihani maqbul deb topish uchun muvaffaqiyatsizlik holatlarida yo‘qotishlarni to‘liq yoki qisman qoplashga muayyan tashqi rag‘bat yoki kafolatlarni talab qiladi.

Oltinchidan, innovatsiyalarning iqtisodiy samarasi turli xil ko‘rinishlarda va har xil sohalarda namoyon bo‘ladi. O‘zaro uyg‘unlikdagi innovatsion samaralar ko‘p hollarda loyihani tayyorlash

bosqichida hisoblangan foydaning miqdoridan oshadi. Innovatsiyalarining tijoratlashtirish imkoniyatlari, masalan, bozorning qo‘shimcha segmentlarini qamrab olish, boshqa tarmoqlarda innovatsion texnologiyalar va birlamchi ishlab chiqish elementlaridan foydalanish bilan boshqa tarmoqlarda innovatsion loyihalarning ishlanmalari, texnologik zanjir orqali yetkazib beruvchi va iste‘molchilarda innovatsiyalarni rag‘batlantirish va h.k. orqali kengayishi mumkin. Mikrodarajada loyihaning to‘liq samaradorligini oldindan baholash (ham ijobiy, ham salbiy omillar hisobiga) va uni amalga oshirish to‘g‘risida asoslangan qarorlarni qabul qilish qiyin. Bundan tashqari, o‘zaro uyg‘unlikdagi innovatsion samaraning aksariyat ulushi dastlabki sarmoyadorlarning mablag‘ qo‘yiladigan sohalaridan tashqari amalga oshiriladi.

Yettinchidan, ilmiy-texnik yutuqlarga monopol egalik qilish hisobiga barqaror ravishda haddan tashqari yuqori foyda olish imkoniyati ham mavjud. Axborot tizimlari va patent-litsenziya mexanizmlarining rivojlanishi xo‘jalik subyektlarining tijorat nuqtayi nazardan intilishining jamiyat manfaatlari bilan keskin mojarolarini oldini olishga xizmat qiladi.

Sakkizinchidan, yangi tur mahsulot va xizmatlarning yuqori qiymati ommaviy iste‘molchilar uchun foydalanish imkoniyatini chegaralaydi. Bu innovatsion siklning ham boshlang‘ich bosqichlarda, ham innovatsiyani o‘zlashtirish bosqichida yuqori xarajatlar bilan bevosita bog‘liq. Talabning tashqi to‘lov qobiliyatini oshirishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi bo‘lmasa, u holat haqiqiy ehtiyojni o‘zgartirish va iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega innovatsiyalar yoyilishini to‘xtatishi mumkin.

7.1.3. Innovatsion faoliyatni tartibga solishda davlat organlarining asosiy vazifalari

Innovatsion jarayonlarning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tasnifiy belgilarini inobatga olgan holda mamlakat iqtisodiyotida innovatsiyalarni davlat tomonidan tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

1. Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarga mablag‘larni jamlash. Resurslarni to‘plash budjet orqali qayta taqsimlashning umumiy mexanizmlarining ishlashi va maxsus jamg‘armalarni shakllantirish hisobiga

erishilishi mumkin. Ushbu vazifa nafaqat davlat mablag'laridan innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish, balki resurslarni xususiy, aksiyadorlik, aralash, jamoa, qo'shma (xalqaro) tuzilmalar uchun jamg'arishga ko'maklashish yo'li bilan amalga oshirilish mumkin. Davlat moliyaviy mablag'larni va innovatsiyalarni amalga oshirishi uchun talab qilinadigan intellektual, moddiy-texnik resurslarni to'plashi mumkin. Mablag'larni taqsimlashda asosiy e'tibor innovatsiyalar uchun baza hisoblangan va amaliy fanning istiqbolli yo'nalishlar uchun umumdavlat ahamiyatga ega bo'lgan fundamental tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga beriladi.

2. Innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish. Davlat oldida innovatsion jarayonlarning umumiy strategik maqsadlarini aniqlash vazifasi turadi. Ularga erishish uchun davlat innovatsiyalarni amalga oshirishda turli xil institutlarning kooperatsiyalashuvini va o'zaro munosabatlarini rag'batlantiradi. Davlat tuzilmalari innovatsiyalarning to'g'ri kelishini ta'minlaydigan yagona texnologik makonni shakllantiradi. Innovatsiyalarni texnologik zanjirlar va innovatsion sikl bosqichlari bo'yicha bir-biriga moslashtiradigan vaqt oralig'ida muvofiqlashtirish hamda innovatsion jarayonlar davriyligini yumshatish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

3. Innovatsiyalarni rag'batlantirish. Bunda raqobatni rag'batlantirish hamda innovatsion jarayonning ishtirokchilariga turli xil moliyaviy subsidiyalar va imtiyozlarni berish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion xavf-xatarni davlat tomonidan qisman yoki to'liq sug'urtalash katta ahamiyatga ega. Davlat eskirgan mahsulotni ishlab chiqarganligi yoki eskirgan texnologiyalardan foydalanganligi bois xo'jalik subyektlariga jarima solish yo'li bilan «innovatsion bosim» o'tkazishi mumkin.

4. Innovatsion jarayonlarning huquqiy bazasini yaratish. Nafaqat jamiyat va texnologik o'zgarishlarga mos barqarorlik va o'z vaqtidagi o'zgartirishlarni bir-biriga qo'shib ketishini ta'minlaydigan qonunchilikni yaratish, balki unga rioya qilishni ta'minlaydigan va haqiqiy ishlaydigan mexanizmlarni ishlab chiqish ham muhim hisoblanadi. Bunda asosiy o'rin ilmiy-texnik mahsulotlarning yaratuvchilari va innovatorlarning huquqlarini, ya'ni intellektual va sanoat mulki huquqlarini himoyalash, xalqaro standart va sertifikatlarni tarqatishni davlat tomonidan himoyalashga beriladi.

5. Innovatsiyalarni xodimlar bilan ta'minlash. Davlat ta'lim

muassalarida ta'lim dasturining mazmuni ham innovatsiyalar asosining ijodiy salohiyatini va mutaxassislarning innovatsiyalarga bo'lgan ta'sirchanligini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Universal va maxsus bilimlarni hamda innovatsiyalarni tijoratlash tirish to'g'risida tasavvurlarni tartibga solishga erishish lozim. Butun faol hayoti davomida doimiy ravishda mustaqil o'qish uchun ko'nikmalarni shakllantirish muhim hisoblanadi.

6. Ilmiy-innovatsion infratuzilmalarni shakllantirish. Davlat yangiliklari yoyilishining asosiy kanallaridan biri hisoblangan axborot tizimining faoliyatini ta'minlaydi. Davlat tuzilmalari innovatorlarga boshqa xizmatlarni ham ko'rsatadi: yuridik, ishbilarmon, maslahat va boshqa davlat innovatsion subyektlari o'rtasida vositachi sifatida bo'lishi, sheriklarni topishda, davlat kafolati ostida bitimlarni tuzishda yordam berishi mumkin va h.k.

7. Kichik innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish. Davlat kichik yuqori texnologiyali korxonalarni tashkil etish va ularni muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi hamda faoliyatining dastlabki bosqichida ularga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratib beradi.

8. Innovatsion jarayonlarni institutsional ta'minlash. Bunda, avvalambor, davlat tarmoqlari (mudofaa, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqalar)da ITTKIning bajaradigan va yangiliklarni amalga oshiradigan davlat tashkilot va bo'linmalarini tashkil etish nazarda tutiladi. Davlat, shuningdek, iqtisodiyotda innovatsiyalarning mahsuldorligini oshirish va ularni joriy etish nuqtayi nazaridan eng samarali hisoblangan tashkiliy tuzilmalar (yirik korporatsiyalar, kichik biznes va h.k.)ni ko'paytirishiga ko'maklashadi.

9. Innovatsiyalarning ijtimoiy va ekologik yo'nalganligini tartibga solish. Bir tomondan davlat ijtimoiy barqarorlikni, ekologik muvozanatni saqlab qolishni ta'minlaydigan innovatsiyalarni alohida qo'llab-quvvatlaydi. Ikkinchi tomondan, ilmiy-texnik jarayonlar bilan bog'liq salbiy ta'sirlarni yo'qotish va oldini olishni faqatgina davlat amalga oshirishi mumkin.

10. Innovatsiya faoliyatining jamoatchilik maqomini oshirish. Davlat ilmiy-texnik yutuqlari va innovatsiyalarni targ'ibot qilishni, innovatorlarni moddiy rag'batlantirishni tashkillashtiradi, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydi va h.k.

11. Innovatsion jarayonlarni hududiy tartibga solish. Hukumat va

mahalliy organlar hududlarning innovatsion resurslarini eng to'liq amalga oshirishni, shu jumladan, turli xil hududiy imtiyozlar (soliq va boshqalar) yo'li bilan ta'minlashga ko'mak beradi. Davlat ilmiy-texnik va innovatsion salohiyatni unumli joylashtirishga ko'maklashadi. Odatda, davlat markaziy tuzilmalari mamlakat hududi bo'yicha taqsimlash sharoitlarni tenglashtirishga intiladi.

12. Innovatsion jarayonlarning xalqaro jihatlarini tartibga solish. Davlat tanlagan umumiyqisodiy va innovatsion strategiyasi doirasida xalqaro ilmiy-texnik va innovatsion kooperatsiyalashuvni rag'batlantiradi hamda innovatsiyalarning xalqaro almashishlarini tartibga soladi.

13. Sanoat va ilm-fan tarmoqlarida investitsion siyosatni amalga oshirish. Hukumat va mahalliy ijro etuvchi organlar investitsion sohadagi huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlashda, davlat budjeti mablag'larini taqsimlaydigan subyekt hamda sanoat va ilm-fan tarmoqlari obyektlari bo'yicha davlat buyurtmachi sifatida ishtirok etadi. Biroq davlat sanoatning ilmga oid va yuqori texnologiyali tarmoqlari uchun strategik investor, tanlangan innovatsion rivojlanish istiqbollari xususiy sarmoyalar hisobiga investitsiya qo'yilmalarining faol tashabbuskori hamda innovatsion sohadagi davlat hamda davlat tomonidan nazorat qiladigan tashkilot va korxonalarining investitsion faoliyatini samarali menejer sifatida namoyon bo'lganligi uning eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

7.1.4. Innovatsion faoliyatni tartibga solishning xorijiy davlatlar tajribasi

Ushbu yo'nalish bo'yicha biz asosan texnologik jihatdan rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini keltirishni (obyekt sifatida) ma'qul topdik, ya'ni, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Angliya, Fransiya. Predmet sifatida esa, innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi davlat organlari; moliyalashtirish; soliq va kredit tizimida, iqtisodiy faoliyatda imtiyozlar; innovatsion faoliyatning ilmiy-uslubiy va axborot ta'minoti; kooperatsiyani rag'batlantirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishda jarayonlardir.

Jahon amaliyotida innovatsion faoliyatning rag'batlantiruvchi quyidagi soliq imtiyozlari mavjud:

- tadqiqot va investitsion soliq kreditini taqdim etish, ya'ni innovatsion maqsadlarga ketadigan xarajatlar uchun foyda solig'ini to'lash muddatini uzaytirish;
- innovatsion xarajatlarning oshishida soliqni kamaytirish;
- innovatsion loyihalarni amalga oshirishda olingan foyda uchun bir necha yil davomida «soliq ta'tillari»ni olish;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan innovatsion tashkilotlarning aksiyalari bo'yicha olinadigan dividendlar bo'yicha imtiyozli soliqqa solish;
- buyurtma va qo'shma ITTKIga qaratilgan foyda soliq stavkasini kamaytirish;
- patent, litsenziya, nou-xau va boshqa intellektual mulk tarkibiga kirgan nomoddiy aktivlardan foydalanish natijasida olingan foyda bo'yicha imtiyozli soliq solish;
- OO'Y, ITI va boshqa innovatsion tashkilotlar tomonidan beriladigan jihoz va asbob-uskunalar qiymati miqdori uchun soliq solinadigan foydani kamaytirish;
- soliq solinadigan foydani faoliyati innovatsiyalarni moliyalashtirish bilan bog'liq xayriya jamg'armalariga kiritilgan badallarni chegirib tashlash;
- innovatsion tashkilotlar foydasining bir qismini maxsus hisob raqamiga o'tkazish uni keyinchalik innovatsion maqsadlarda foydalangan holda imtiyozli soliq solish.

Hozirgi kunda sanoati rivojlangan davlatlarning uchta bosh *ilmiy-innovatsion rivojlanish modellarini* ajratib olish mumkin: fan sohasida yetakchi hisoblangan, ilmiy-ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarini qamrab olgan, odatda, mudofaa sektorida ilmiy-innovatsion salohiyatning aksariyat ulushiga ega bo'lgan davlatlar (AQSH, Angliya, Fransiya); yangiliklarni tarqatish, qulay innovatsion muhitni yaratish, iqtisodiyotning barcha tuzilmalarini unumlashtirish (Germaniya, Shvetsiya, Shveysariya); innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirish, jahon ilmiy-texnik taraqqiyoti yutuqlariga ta'sirchanligini ta'minlash, fan va texnologiya sohasida turli sektorlarning harakatlarini muvofiqlashtirish yo'li bilan yangiliklarni rag'batlantiradigan davlatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya).

AQSH. AQSHda innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi davlat organlari quyidagilar hisoblanadi: Amerika ilmiy jamg'armasi

(fundamental tadqiqotlarni boshqaradi); Amerika ilmiy kengashi (sanoat va universitetlarni boshqaradi); NASA (Milliy fazoviy agentligi); Milliy standartlar byurosi; Sogʻliqni saqlash milliy instituti; Mudofaa vazirligi; Sanoat tadqiqotlar milliy markazi; Fanlar milliy akademiyasi; Milliy texnika akademiyasi; Amerika fanni rivojlantirishga koʻmaklashish assotsiatsiyasi.

Oxirgi toʻrtta tuzilmalar aralash moliyalashtirish mexanizmiga ega, qolganlari esa – davlat budjetidan moliyalashtiriladi. 1995-yilda ITTKIga ketgan xarajatlar \$173 mlrd. yoki YaIMdagi 2,6%ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari: 50 % atrofida - xususiy firma va tashkilotlar; 46 % – hukumat (tanlov asosida); qolganlari – universitetlar, kollejlari, nodavlat tashkilotlar.

Davlat venchur firmalarni va tadqiqot markazlarni tashkil etishni qoʻllab-quvvatlaydi. AQSHning Milliy ilmiy fondiga koʻra, eng samarali *tadqiqot markazlari* va *venchur firmalari* birinchi 5 yillikda toʻliq yoki qisman davlat budjeti tomonidan moliyalashtirilishi mumkin. Davlat eng samarali va ilmga boy tadqiqotlarni moliyalashtirishni ularning murakkabligi, sarflanayotgan xarajatlar miqdorining koʻpligi, yuqori xavf-xatarligi, kuchli xalqaro raqobat mavjudligi tufayli toʻliq oʻz zimmasiga oladi.

AQSHning Milliy ilmiy jamgʻarmasi maʼlumotlariga koʻra ITT hozirgi bosqichda kichik biznesning ITIdagi roli oshib bormoqda. Oxirgi yigirma yillikda kichik va oʻrta (ishchi-xodimlar soni 500 gacha boʻlgan) firmalar yirik (ishchi-xodimlar soni 10 mingdan ziyod boʻlgan) korporatsiyalardan koʻra bitta band boʻlgan kishi yoki bir dollar xarajati hisobiga taxminan 2,5 barobar koʻp yangiliklarni yaratgan. Texnologik asosga ega boʻlgan boshqa davlatlar kabi, AQSHda *venchur firma* («xavf-xatarli» sarmoya firma)lari va «*spinoff*» *firma* (oliy oʻquv yurtlari, mustaqil institut, davlat tadqiqot markazi yirik sanoat korporatsiyalarning maxsus laboratoriyadan ajralib chiqqan firma)lar, investitsion jamgʻarmalar faoliyat koʻrsatmoqda. Davlat yirik notijorat ilmiy markazlari va universitetlari orqali ular tarkibidan ajralib chiqqan «*spinoff*» firmalarni faol subsidiyalash ishlarni olib boradi. Bundan tashqari, «*spinoff*» firmalar orqali ilmiy yutuqlarni tarqatishga koʻmaklashish maqsadida mamlakatda AQSHning Milliy ilmiy jamgʻarmasi tomonidan moliyalashtiriladigan bir nechta innovatsion markazlar faoliyat koʻrsatmoqda.

Bu yerda «spinoff» firmani tashkil etishga xohish bildirgan (odatda universitet o'qituvchilari va talabalari) kichik firmalarni shakllantirish jarayonini yengillashtirishga qaratilgan fanlarni o'rganadi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, budget tadqiqotlar davomida patent olingan va davlat mulki hisoblangan ixtirolardan tijorat usullarida foydalanishda *litsenziyani bepul berish* amaliyoti ham mavjud.

Investitsion jamg'armalarning faoliyati xayr-ehson qilish bilan shug'ullanish xususiyatiga ham ega. Ular o'z oldiga kichik firma-innovatorlarni va alohida ixtirochilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni maqsad qilib qo'ygan. Kichik firmalarni investitsiyalashda AQSHning Milliy ilmiy jamg'armasi muhim rol o'ynaydi. U nafaqat innovatsion firmalarni kreditlash, balki ularga grantlarni – beg'araz maqsadli mablag'larni berish bilan ham shug'ullanadi.

Mazkur jamg'armaning vazifalariga o'xshash bo'lgan tuzilma AQSH Energetika vazirligining Investitsion jamg'armasi hisoblanadi. U kichik firmalar tomonidan olib borilayotgan alohida tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish va alohida ixtirochilarni subsidiyalashni amalga oshiradi. Ushbu tashkilot notijorat bo'lganligi bois «xavf-xatari yuqori bo'lgan» tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Innovatsion jarayonlarni to'g'ridan to'g'ri qo'llab-quvvatlashning muhim elementlaridan biri – *davlat innovatsion infratuzilmalarni shakllantirishdir*. Davlat innovatorlarga ishbilarmon xizmatlarini ko'rsata oladigan yangiliklarni tarqatish markazlari va maslahat markazlar tarmog'ini tashkil etish mumkin. Davlat innovatsiyalar bozorini shakllantirishga ko'mak beradi (davlat nashriyotidagi axborotlar, ko'rgazmalar, birjalar, yarmarkalar va h.k.) va agent sifatida ishtirok etadi.

Davlat organlari mamlakat va xorijda innovatsion jarayonlarni *monitoring* qilish hamda *prognozashtirish* va ko'pincha keng tatbiq etish maqsadida eng samarali ilg'or texnologiyalarni topish vazifalarini bajaradi. Bu yerda davlat tomonidan *innovatsion loyihalar ekspertizasi* muhim o'rin egallaydi, chunki alohida tashkilotlar tomonidan yaratiladigan yangiliklarning iqtisodiy samarasini baholash qiyin hisoblanadi. Innovatsion tashkilotlarga davlat xizmatlari bo'yicha – aloqa, issiqlik, elektr energiya va boshqa to'lovlarni to'lash bo'yicha imtiyozlar berilishi mumkin.

Shuningdek, *moddiy qo'llab-quvvatlash choralari*ni ham

unutmaslik lozim. Bularga yirik olim va innovatorlarga davlat mukofotlari va faxriy unvonlarni berish, xo‘jalik yuritishning innovatsion uslublarini targ‘ib qilish, innovatsion mahsulot va xizmatlarni iste‘mol qilish, mamlakatda mavjud bo‘lgan ilmiy-texnik va yangilikka oid an‘analardan foydalanish, ilmiy-texnik ziyolilar vakillarining muhim davlat tadbirlarida ishtirok etish, ilmiy-texnik hamjamiyatni o‘zini o‘zi tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash va boshqalarni kiritish mumkin.

Bilvosita tartibga solish choralariqa soliq imtiyozlarini alohida ko‘rsatish mumkin. Foydadan imtiyozli soliq solinishi, soliq solish bazasini qisqarish yo‘li bilan va soliq stavkalarini soliq to‘lovlarni chegirib tashlash orqali kamaytirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

AQSHning davlat innovatsiya siyosatining xususiyatlaridan biri innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha qarorlarni bir joyda jamlanishining «idoraviy» past darajadaligidir (Yaponiyada esa, aksincha, yuqori konsentrasiyasi).

AQSHda 1984 yilda innovatsion faoliyatni rivojlantirish maqsadida «ITTKI sohasida kooperatsiyasi to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilingan. Shuningdek, innovatsion loyihalarni prognozlashtirish, standartlashtirish, boshqaruv qarorlarini maqbullashtirish, davlat ekspertizasini o‘tkazish, davlat innovatsiya statistikasini yuritish kabi ishlarga katta e‘tibor berilmoqda. Konstruktor, texnolog, iqtisodchi, investor va menejerlar 30 yildan buyon turli obyektlarni funksional-qiymat tahlili bo‘yicha murakkab milliy standartlardan, taxminan 10 yildan buyon – 9000 seriyali ISO xalqaro standartlar asosida mahsulot sifatini boshqarish tizimli standartlardan foydalanib kelmoqda.

AQSHning Milliy ilmiy jamg‘armasi o‘z budjetini taqsimlashda loyihaning idoradan tashqari ekspertizasini o‘tkazadi va bu jarayonni doimo takomillashtirib boradi. Taqdim etilayotgan ITTKI loyihalarni baholashning tashkiliy jarayoni bosqichma-bosqich bo‘lib o‘tadi. Barcha takliflar tegishli dastur rahbari tomonidan o‘rganiladi, so‘ng mazkur sohadagi eng malakali mutaxassislarga, shu jumladan, xorij olimlariga yuboriladi. Ekspertlarning javoblari taqdim etilgan shakl bo‘yicha tuzilgan bo‘lishi va barcha kerakli ma‘lumotlarni, shu jumladan, milliy fan va iqtisodiyotni rivojlantirishga ITTKI loyihaning hissasini o‘z ichiga olishi lozim. Ikkinchi bosqichda mustaqil ekspertlar ishtirokidagi kengash o‘tkaziladi va Milliy ilmiy jamg‘arma tomonidan qarorlar qabul qilinadi. Ushbu baholash jarayoni uch yilda

bir marta bo‘lib o‘tadi.

AQSHda ichki va xalqaro raqobatni rivojlantirish mexanizmi yo‘lga qo‘yilgan, monopol trestlarni tashkil etishga qarshi qonunchilik 100 yildan ziyod amal qilinmoqda. Tabiiyki, ushbu mamlakat raqobatbardoshlik darajasi bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinni egallamoqda.

Yaponiya. Yaponiya sanoatni rivojlantirish strategiyasini aniqlash, sanoat ITTKI ishlab chiqish va ularni tatbiq etishda Tashqi savdo va sanoat vazirligi (TSSV) muhim rol o‘ynaydi. ITSning aniq yo‘nalishlarini bajarishni nazorat qilishni Fan va texnika boshqarmasi olib boradi. TSSV negizida litsenziyani import va eksport qilishi bilan shug‘ullanadigan Yapon sanoat texnologiyalar assotsiatsiyasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Amaliy tadqiqotlarni rag‘batlantirish va xorijdan litsenziyani sotib olish bo‘yicha mamlakatni uzoq muddatli ilmiy-texnik rivojlantirish dasturi mavjud. ITSni amalga oshirishda yirik korporatsiyalarga katta ahamiyat beriladi.

ITTKIga asosan fundamental tadqiqotlar va yangi g‘oyalarni shakllantirishga davlat xarajatlari YaIMning 3,5%gacha ko‘paygan. Davlat siyosati litsenziyani import qiluvchidan eksport qiluvchi davlatiga aylantirishga qaratilgan.

Mavjud bozorlardan narxi arzon va yuqori sifatli tovarlarni ishlab chiqarish hisobiga xorijiy raqobatchilarni siqib chiqarish o‘rniga yanada murakkab vazifa – yangi tovarlarning past narxlari va yuqori sifatini saqlagan holda o‘z kuchi bilan yangi bozorlarni shakllantirish masalasini yechish talab etiladi.

Yaponiyaning uzoq muddatli maqsadi – mamlakat texnologiyasini «o‘xshatuvchi» va «ratsionalizator»dan ijodkoriga aylantirishdir. Ustuvor yo‘nalishi – axborot tizimlari, mexanotronika, biotexnologiyalar, yangi materiallar hisoblanadi.

Yaponiya TSSV nafaqat sanoat va tashqi savdoni umumiy va tarmoq rivojlantirish strategiyasini aniqlab beradi, balki o‘z tasarrufida ushbu strategiyani aniqlashtirishga imkon beradigan mablag‘ va usullarning katta to‘plamiga ega. Eksport ishlab chiqarish va eksport qilishni rivojlantirishga, eksportni imtiyozli kreditlash va sug‘urtalash, eksport qiluvchilarni soliqni to‘lashdan qisman ozod etish, to‘g‘ridan to‘g‘ri subsidiyalash, eksport qiluvchilarga davlat kompleks yordam berish, ularning sotishga oid faoliyatiga ko‘mak berish va boshqalar kabi an’anaviy iqtisodiy va ma’muriy ta’sir etish usullaridan tashqari

Yaponiya davlat organlari *bilvosita uslublardan* keng foydalanib kelmoqda. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: a) xususiy banklarga berilayotgan moliyaviy resurslarning maqsadli taqsimlash va ustuvor tarmoqlariga yo'naltirish; b) ilg'or xorij texnologiyalarini sotib olishda korxonalariga ko'mak berish; d) xorijiy davlatlar bilan ilmiy-texnik almashish ustidan nazorat qilish.

Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, ilmiy-texnik taraqqiyoti Yapon modeli ITTKI va ilm-fanga oid sanoat ishlab chiqarishlar vazifasini o'z ichiga olgan tubdan yangi *texnopolis-shaharlarni* qurish nazarda tutadi. Texnopolislarni tashkil etish loyihasi – Yaponiyaning texnologik peshqadamlik borasida mustahkam o'rinni egallash bo'yicha hukumatning muhim strategik «oltita maqsadli» dasturining yo'nalishlaridan biridir. Loyiha TSSV rahbarligi ostida Yaponiyaning markaziy mahalliy organlari, akademik va ishbilarmonlar bilan ishlab chiqilgan bo'lib, 1982-yilda qabul qilingan va 1984–2000-yillarga mo'ljallangan.

Yaponiya texnopolislar bo'yicha amerikalik mutaxassis Sh.Tasunoning ta'kidlashicha, «texnopolislar strategiyasi – yuqori texnologik darajadagi hududiy markazlarni rivojlantirish asosida yangi faoliyat sohaslariga kirib borish strategiyasidir va shu bois – bu butun yaponiya xo'jaligini intellektuallashtirish strategiyasi hisoblanadi».

Yaponiyada innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solinishi ITTKI indikativ rejalashtirish, yuqori import bojxona tariflari, ITTKI moliyalashtirishda soliq va kredit imtiyozlarini berish, yangi ilm-fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlarni sotishga ko'maklashish bo'yicha siyosatini olib borish bilan ham tavsiflanadi. Yaponiya hukumati xalqaro integratsiya va kooperatsiyalashuvni rivojlantirish bo'yicha choralarni amalga oshiradi. Masalan, 1988-yilda ilm-fan sohasida amerika-yaponiya hamkorligi to'g'risidagi bitim imzolangan.

Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari sanoat ishlab chiqarish va firma sarmoyalarining yanada konsentratsiyalashuvi, mikroelektron texnika asosida resurslardan tejamkor foydalanish texnologiyalarga o'tish, qayta ishlovchi va yig'ib oluvchi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarga ustuvorlik berilishi hisoblanadi.

Faol investitsion siyosat natijasida Yaponiya aholining real daromadlari va hayot kechirish davomiyligi, resurslardan samarali foydalanish kabi ko'rsatkichlar bo'yicha jahonda sanoati rivojlangan davlatlar o'rtasida birinchi o'rinni egallaydi.

Germaniya, Angliya, Fransiya. Bu mamlakatlar Yevropa Hamjamiyati tarkibining yetakchilari hisoblanadi. Ushbu Hamjamiyatga 1997-yilda yana 12 davlatlar a'zo bo'lgan: Avstriya, Belgiya, Daniya, Gresiya, Irlandiya, Italiya, Ispaniya, Lyuksemburg, Niderlandlar, Portugaliya, Finlyandiya, Shvetsiya. Germaniya, Angliya va Fransiya, shuningdek, AQSH va Yaponiya jahon iqtisodiyoti rivojlanishining texnologik asosiga kiradi. Ushbu davlatlar jahonda ularga mos ravishda ITTKI xarajatlarning nisbiy hajmi bo'yicha 3, 4 va 5-chi o'rinni egallaydi yoki YaIMning 2,3; 2,4 va 2,2%ni tashkil etadi. Eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarning ulushi YaIMning 20–25%ni tashkil etadi. Ushbu mamlakatda davlat sektorining ulushi yuqori – 35–40%.

Yevropa Hamjamiyati mamlakatlarining o'ziga xos xususiyatlaridan quyidagilar hisoblanadi:

- ishchi kuchi va tabiiy resurslar, yerning qimmatligi;
- aholining zichligi;
- ishlab chiqarishda axborotlashtirishning texnologik darajasining yuqoriligi;
- ta'lim, madaniyat, jismoniy sog'lom hayot, yoshi ulug'larga, tarixiy an'analarga hurmat bilan qarash;
- eng muhim iste'mol tovarlar narxlarining davlat tomonidan tartibga solinishi;
- boshqaruv va ishlab chiqarishda xalqaro va yevropa standartlarini qo'llash;
- xalq xo'jaligini fanga oid tarmoqlarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarish konsentratsiyasi va kooperatsiyalashuv darajasi yuqoriligi. Shu bois, ushbu mamlakatlarda aholining turmush darajasi yuqori.

Yevropa Hamjamiyati innovatsion faoliyatni faollashtirishga katta e'tibor beradi. Yevropa Hamjamiyatning asosiy *innovatsion siyosat yo'nalishlariga* quyidagilar kiradi: yagona antimonopol qonunchilikni ishlab chiqish; asbob-uskunaning tezkor amortizatsiyalash tizimidan foydalanish; IKTTI imtiyozli soliq solish; ilmga boy kichik biznesni rag'batlantirish; eng yangi texnologiyalar sohasida innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun korxonalarini to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish; fan va ishlab chiqarish integratsiyasini qo'llab-quvvatlash.

Yevropa Hamjamiyatining asosiy innovatsion siyosati 1985-yilda

qabul qilingan «*Xalqaro innovatsiyalar infratuzilmalarini rivojlantirish va texnologiyalarni berish rejasi*» hisoblanadi. Ushbu hujjatning bosh maqsadi – milliy darajadagi tayyor mahsulotlarga ilmiy tadqiqot natijalarini tatbiq etishni tezlashtirish va yengillashtirish hamda Yevropa Hamjamiyati bo‘yicha innovatsiyalarning yoyilishiga ko‘mak berish hisoblanadi. Rejaning bo‘limlaridan biri – «*Innovatsiyalar sohasida davlatlar o‘rtasidagi kooperatsiyasi*» – innovatsiyalarni boshqarishga PI texnologiyalarni berish bo‘yicha konsalting xizmatlarni – innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha maxsus hududiy infratuzilmasini tashkil etish va faoliyatni qo‘llab-quvvatlashni ko‘zda tutadi. Ikkinchi bo‘lim uni bajarishni muvofiqlashtirishga bag‘ishlangan. Uchinchi – innovatsiya va texnologiyalar bo‘yicha axborotlarni berish tizimini yaratish va patent, unifikatsiya, standartlashtirish tizimini takomillashtirishga bag‘ishlangan. To‘rtinchisi – sust rivojlangan mamlakatlar (Gretsiya, Irlandiya)ning innovatsion salohiyatini oshirish bo‘yicha choratadbirlarni amalga oshirishga bag‘ishlangan.

1988-yildan boshlab Yevropa Hamjamiyatida IIKTI natijalarining qo‘llanilishi bo‘yicha «VELYU» dasturi amal qilmoqda. Yuqori texnologiyalar bozorida yevropa kompaniyalar ulushining pasayib ketishiga javoban quyidagi hujjatlar qabul qilingan:

1. ESPRIT – Yevropa axborot texnologiyalari sohasidagi ilmiy tadqiqotlar strategik dasturi (1984-yilda qabul qilingan bo‘lib, 250 kompaniya, 3 ming tadqiqotchilar ishtirok etadi).

2. RASE – Yevropada aloqaning ilg‘or uslublarini tadqiq etish (1985 yilda qabul qilingan). Uning maqsadi – integratsiyalashgan keng chiziqli aloqa sohasida (axborotni tovushli xabarlardan EHM yordamida tuzilgan grafik kacha yetkazib berish bo‘yicha) qo‘shma ITI olib borish. Rahbar – Yevropa Hamjamiyat Komissiyasi (YHK);

3. EVRIKA – majmuaviy dastur bo‘lib, Fransiya tashabbusi bilan 1985 yilda qabul qilingan. Mazkur hujjatning maqsadi – alyanslar yo‘li bilan yevropa guruhlar o‘rtasida raqobatbardosh, ayniqsa, Amerika va Yaponiya korporatsiyalari tomonidan, kuchli sanoat kompaniyalarini tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash va Yevropa muvofiqlashtirilgan ITTKIning 6 ta sohada tashkil etish: optronika; yangi materiallar; katta hajmdagi EHM; kuchli lazerlar; moddalar tezlatkichlari; sun‘iy intellekt. EVRIKAning yuqori organi – ishtirokchi-davlatning vazirlari ishtirokidagi konferensiyasi bo‘lib, u bir yilda ikki marta chaqiriladi.

Ishchi organ – 7 ta mutaxassis va 6 ta texnik xodimlardan iborat bo‘lgan kotibiyat hisoblanadi. U Bryusselda joylashgan.

Londonda 1886-yilda konferensiya doirasida \$2,1 mlrd. hajmidagi 62 loyihalar tasdiqlandi. Ushbu loyihalarning hajmi katta emas, lazer manipulyatorlardan foydalanish uchun zavodni qurish bo‘yicha Fransiya-Italiya loyihasi bundan mustasno.

ITTKIning informatsion ta’minotni rivojlantirish maqsadida Yevropa axborot markazi (YeAM) va uning bo‘linmalari tashkil etilgan. U 1995-yilda bir-biri bilan elektron aloqaga bog‘langan Buyuk Britaniyada 21 guruh va boshqa Yevropa mamlakatlarida 210 guruhlarni o‘z tarkibiga olgan. YAM Yevropa Hamjamiyati tomonidan 25%, 75% esa mustaqil tarzda pullik xizmatlar ko‘rsatish yo‘li bilan topilgan mablag‘lar va boshqa hamkorlik mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Yevropa Hamjamiyatida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish xuddi jahon amaliyotida qabul qilingan tamoyillarga o‘xshab amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Innovatsion jarayonlar ta’sirida mamlakat iqtisodiyotida yuzaga keladigan jihatlarni tushuntirib bering.
2. Ilmiy-texnik natijalarini joriy etishda bozor mexanizmlarining chegaralanganligi nimalarda o‘z aksini topadi?
3. Innovatsiyani rivojlantirishda davlat organlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. O‘zbekistonda fan va texnologiya sohasida davlat boshqaruv organlarining tizimi qanday tashkil etilgan?
5. O‘zbekiston milliy innovatsion tizimini tushuntirib bering.
6. O‘zbekistonda innovatsion ilmiy-texnik loyihalarning tanlovlarni tashkil etish qanday amalga oshiriladi?
7. Innovatsion faoliyatni tartibga solishning xorijiy tajribalarini qisqacha aytib o‘ting.

8-BOB. INNOVATSION FAOLIYAT XARAJATLARINI BOSHQARISH VA BAHO BELGILASH

8.1. XARAJATLARNI SHAKLLANISH OMILLARI VA UNING MAQSADI

8.1.1. Xarajatlarni boshqarishning maqsad va vazifalari

Xarajatlarni boshqarish uning IKni maqsadga erishishga yaqinlashtiradigan miqdoriga ta'sir etish tushuniladi. *Xarajatlarni boshqarish maqsadlari* IKning maqsadidan hosil bo'ladi, ular, masalan, bozor segmentini tez va to'liq egallash, istiqbolda muvaffaqiyatini qozonish, tezkor yuqori daromad olish yoki boshqa natijalarga erishishdan iborat. IKning strategik maqsadlari va xarajatlarini boshqarish maqsadlari uyg'unligi 8.1-jadvalda keltirilgan.

8.1-jadval

Innovatsion korxonaning strategik maqsadlari va xarajatlarni boshqarish maqsadlari uyg'unligi

Strategik maqsadi	IKning xarajatlarni boshqarishning bosh maqsadli mexanizmi
IKning o'sishi, kengayishi va bozor-ning ulushi	IK tomonidan qo'shimcha natijalarni olish (mahsulot sifatini oshirish, uning assortimentini kengaytirish, sotish hajmlarini oshirish, yangi bozorni o'zlashtirish) uchun xarajatlarning o'sishi; resurslarni ko'paytirish
Bozorda IKning ustunligi	Bozorda ustunligi holatini shakllantirish, mustahkamlash va rivojlantirishga imkon beradigan firmaning bozorda yuqori sifatli mahsulot, marka va qiyofasini yaratish va tarqatishga ketgan xarajatlarni oshirish
Kam xarajatlarni sarf qilish hisobiga raqobatli ustunliklarga erishish	Buyum konstruksiyasi, ishlab chiqish texnologiyasi va uning hajmini oshirish, xaridorlarga qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatishni rad etish hisobiga umumiy xarajatlarni (mahsulot narxini tushirish uchun) kamaytirish; ortiqcha resurslardan voz kechish
Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash	Firmaning asosiy faoliyati bilan bog'liq mahsulotlarni ishlab chiqarish

Strategik maqsadi	IKning xarajatlarni boshqarishning bosh maqsadli mexanizmi
	uchun xarajatlarni oshirish; resurslarni ko'paytirish
Ixtisoslashuvi (mahsulot turi va bozor segmenti bo'yicha)	Bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun xarajat va resurslarni yo'naltirish; ortiqcha resurslardan voz kechish
Sinergiya	Mavjud resurslardan qo'shimcha tarzda foydalanish hisobiga umumiy xarajatlarni kamaytirish
IK yo'nalishining o'zgarishi	Xarajatlarni oshirish; bitta resurslardan voz kechish va boshqa resurs va xarajatlarni ko'paytirish

IK xarajatlarni boshqarishda yakuniy maqsadli mezon tayanadi, u esa natijaning xarajat va foydalaniladigan resurslarga nisbatan maksimalashtirish sifatida aniqlanadi. Mazkur mezon tashkilot va loyihalarni boshqarish uchun ham bir xil hisoblanadi. Samaradorlikni ta'minlashning beshta strategiyalari mavjud:

– birinchisi – ko'zlangan samaradorlik darajasiga erishish uchun foydalaniladigan xarajat va resurslarni kamaytirish;

– ikkinchisi – resurs va xarajatlarning muayyan hajmlarga rioya qilishda samarani maksimalashtirish;

– uchinchisi – xarajat va resurslarni qayd etishsiz bosh munosabatlarni maksimalashtirish;

– to'rtinchisi – erishilgan samaradorlik darajasi va faoliyat hajmlarini saqlab turish;

– beshinchisi – samaradorlik darajasini saqlagan holda IKning faoliyatini kengaytirish.

U yoki bu strategiya ishlab chiqilganda IK samaradorlik, natijalar, xarajat va resurslar ko'rsatkichlarning maqsadli qiymatlaridagi asosiy miqdoriy tasnifiy belgilarini aniqlaydi. Xarajatlarni boshqarish uchun samaradorlikni aniqlanishning umumiy va tijorat tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$S_U = \frac{N}{X_r}$$

bu yerda; S_U – umumiy ko'rinishdagi samaradorlik; N – natija; X_r – xarajatlarni (resurslar).

$$S_T = \frac{F_s}{X_s}$$

bu yerda; S_T – tijorat samaradorlik; F_s – mahsulotni sotishdan tushgan foyda; X_s – xarajatlar (sarmoya).

Mahsulotni sotishdan tushgan foyda mahsulot, xizmatni sotishdan tushgan tushumni uni ishlab chiqishga ketgan xarajatlar nisbati bilan aniqlanadi. Sotishdan tushgan tushum – bu xaridor tomonidan kelishilgan narxlarda to‘langan ishlar va IK o‘z mahsulot va xizmatlar uchun olingan to‘lovlarning umumiy qiymatidir. Har bir birlik narx, quyidagi ifodada ko‘rsatilganidek, tegishli investitsion loyiha (tadqiqot, ishlanma, choralar) samaraning miqdoriga bevosita yoki bilvosita bog‘liq.

Butun IKda rentabellikni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$R_x = \frac{T_T - X_{IshS}}{X_{IshS}} \times 100 \quad \text{yoki} \quad R_s = \frac{T_T - X_{IshS}}{Q_s} \times 100$$

bu yerda; R_x – IKning xarajatlar rentabelligi, %; T_T – IKning mahsulotni sotishdan tushgan tushumi; X_{IshS} – IKning mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun xarajatlari; R_s – IKning butun sarmoya (mol-mulk)ning rentabelligi, %; Q_s – IKning butun sarmoya qiymati. Ushbu ko‘rsatkichning turlaridan ham foydalanish mumkin – o‘z kapitalning rentabelligi, soliqlarni to‘lagandan keyingi rentabellik va boshqalar.

Muayyan innovatsion mahsulotning narxi uning samarasi bilan bog‘liq:

$$N_{iq} = M_{iqs_t} \kappa$$

bu yerda; N_{iq} – innovatsion qarorlarni amalga oshirish narxi; M_{iqs_t} – t davrida innovatsion qarorlar samarasining miqdori (sum); κ – samara summasida ushbu qaror narxining ulushi, birlik hisobida.

Innovatsion qarorning samarasi bir nechta ko‘rsatkichlar (sof diskontlangan daromad, yig‘ilgan haqiqiy pul saldosi, integral budjet samarasi, integral iqtisodiy samarasi) bilan ifodalanishi mumkin. Turli ko‘rsatkichlar va formulalar bo‘yicha innovatsion qarorlar

samaradorligini baholash negizida bosh o‘lcham yotadi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{iq} = \sum_{t=0}^T (N_t - X_t)$$

bu yerda; N_t – hisobning t qadamida erishilayotgan natijalar (xususan, pullarning kirimi); X_t – t qadamida amalga oshirilgan xarajatlar (xususan, pullarning chiqimi); T – hisobning chegarasi (hisob-kitobda obyektning tugatilishi bilan yakunlanadigan davrni qamrab oladigan vaqt davomiyligi). IKning eng muhim maqsadli ko‘rsatkichi – rentabellikning erishilgan o‘lchamini maksimalashtirish va saqlab turish strategiyalar asosida ta‘minlanadi (8.1-jadval).

Shunday qilib, innovatsion mahsulotlarni sotish sharoitida IK rentabelligini oshirish masalasi hamda uning xarajatlar va resurslarni boshqarish boshqa IK va iste‘molchilarning keyingi xarajatlarini boshqarish hisobiga yechiladi. Demak, innovatsion xarajatlarni boshqarishning iqtisodiyotdagi samarasi ko‘p hollarda texnik va tashkiliy qarorlar bo‘yicha erishiladi.

8.1.2. Innovatsion xarajatlarning tarkibi va tuzilmasi

Innovatsion xarajatlarning tarkibi va uning tuzilmasi innovatsiyaning turiga bog‘liq, ular turli-tuman bo‘lib, 1-bobda ular to‘g‘risida batafsilroq ko‘rib chiqilgan. Innovatsiyaga ketadigan xarajatlar joriy va kapital bo‘lishi mumkin.

Joriy xarajatlar, pul ko‘rinishida ifodalangan bo‘lib, innovatsion mahsulot (loyiha) tannarxini shakllantiradi. Ular iqtisodiy elementlar bo‘yicha tavsiflanadi: moddiy xarajatlar; mehnatga haq to‘lash uchun xarajatlar; ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar; asosiy fondlarning amortizatsiyasi; boshqa xarajatlar.

IK «Moddiy xarajatlar»ga ishlab chiqarish va xo‘jalik maqsadlari (uskuna va boshqa asosiy vositalarni nazorat qilish, saqlash, ta‘mirlash va undan foydalanish) uchun innovatsion mahsulotlarni yaratish yoki tadqiqotlar olib borish (yaratilayotgan yoki o‘rganilayotgan obyektlarni sinovdan o‘tkazish)da foydalaniladigan ashyolar, jumladan: material; xomashyo; butlovchi buyumlar; yarim tayyor mahsulotlar qiymati; asosiy vositalarga kirmaydigan anjom; jihoz; asbob; laboratoriya uskuna va boshqa mehnat vositalarining eskirishi hamda maxsus kiyim va boshqa narxi past va tez eskiradigan

ashyolarning eskirishini qo‘shimcha hisoblash; boshqa tashkilotlar tomonidan bajaradigan ishlab chiqarish ishlar va xizmatlar qiymati; innovatsion mahsulotni yaratish bo‘yicha muayyan shartnomani bajarish uchun maxsus uskunalar; tashqaridan sotib olinadigan barcha turdagi yoqilg‘i va energiya hamda tabiiy zararning me‘yorlar doirasida moddiy ne‘matlarning to‘liq kelib tushmaganligidan paydo bo‘ladigan yo‘qotishlar qiymati kabilarni o‘z ichiga oladi.

Moddiy xarajatlar tannarxga qo‘shilganda qayta shakllanadigan xarajatlar qiymati miqdori kamayadi. Qayta shakllanadigan xarajatlar innovatsion mahsulotni ishlab chiqarishda vujudga keluvchi o‘z birlamchi xususiyatlarini yo‘qotgan va boshqa maqsadda foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan xomashyo, material, yarim tayyor mahsulotlar, energiya va moddiy resurslar qoldiqlarini o‘z ichiga oladi.

«Mehnatga haq to‘lash uchun xarajatlar» xodimlarga bajarilgan ishlari uchun ishbay, tarif stavkalari va lavozimi maoshi bo‘yicha to‘lanadigan haq summasini; ishlab chiqarish natijalari uchun amaldagi tartibga muvofiq holda to‘lanadigan mukofotlar; maoshga qo‘shimcha haq, ortiqcha ish qilganlik uchun qo‘shimcha haq; kompensatsiyalarni (uy-joy to‘lovlari bo‘yicha va boshqalar) va imtiyozlarni natura shaklida berish (qonunchilik bilan ko‘zda tutilgan hollarda mukofot, maxsus kiyim yoki davolat ozuqa)ning qiymati; ta‘tillarni to‘lash; shtatlar qisqarishi hisobiga xodimlarni ishdan bo‘shaganligi bo‘yicha to‘lovlar va boshqa shu kabi xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Alohida jamg‘armadan to‘lanadigan mukofotlar, moddiy yordam va boshqa tur to‘lovlari tannarxiga kiritilmaydi.

«Ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar» bo‘yicha xarajatlar IKning ijtimoiy sohalari (ijtimoiy va majburiy tibbiy sug‘urta, nafaqa) jamoa jamg‘armalariga majburiy ajratmalar summasidan tashkil topadi.

«Asosiy vositalarning amortizatsiyasi»da IKning (o‘z va ijaraga olingan) asosiy vositalarini to‘liq tiklash uchun amortizatsiya hisoblangan summasi hisobga olinadi.

«Boshqa xarajatlar»da IK tomonidan to‘lanadigan soliq, maxsus budjetdan tashqari jamg‘armalarga yig‘imlar, ajratmalar, IKning mol-mulkni majburiy sug‘urtalash uchun to‘lovlar, kreditlar bo‘yicha me‘yoriy stavkalar doirasida foizlarni to‘lash; xizmat safari uchun xarajatlar, ijara haqi, litsenziyani sotib olish uchun, patentdan foydalanganligi uchun to‘lovlari, ta‘mirlash jamg‘armasiga ajratmalar va h.k. hisobga olinadi.

Sarmoya qo'yilmalar (investitsiyalar) yangi obyektlarni yaratish yoki mavjud obyektlarni takomillashtirish bo'yicha loyiha-konstruktorlik ishlari uchun, ular yordamida ushbu obyektlarni sotib olish, ta'mirlash yoki yasash, qurilish maydonchasini tayyorlash, aylanma kapitalni ko'paytirish, intellektual mulk obyektlarini sotib olish, o'rnini bosadigan mulkni yo'qotish yoki undan maqsadli foydalanish uchun va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Xarajatlarni boshqarishda innovatsion mahsulotning joriy xarajatlar (tannarxi) o'zgaradigan va doimiy xarajatlarga bo'linadi. *O'zgaruvchan xarajatlar* innovatsion ishlarni bajarish jarayonida shakllanadi va bevosita yaratilayotgan mahsulot bilan bog'liq. Ushbu xarajatlar to'g'ridan to'g'ri xarajatlar deb ham ataladi. O'zgaruvchan (to'g'ridan to'g'ri) xarajatlarga muayyan buyurtmani bajarish uchun moddiy, ularga tenglashtirilgan pul ko'rinishdagi xarajatlar, uni bajarayotgan xodimarga mehnat haqi uchun xarajatlar kiradi. O'zgaruvchan xarajatlar bajarilayotgan ishlar hajmiga qarab ularning miqdori o'zgarib turishini inobatga olib, uni ushbu nomda atash qabul qilingan.

Doimiy xarajatlar – bu IKni faoliyat yuritishida va uni ta'minlashdagi xarajatlaridir. Ularning tarkibiga IKni asosiy vositalarining amortizatsion ajratmalar, ta'mirlash, ta'minlash, xonalarni isitish va yoritish, boshqarish uchun xarajatlari, yordamchi va xizmat ko'rsatadigan bo'linmalarni ta'minlash va boshqa shu kabi umumiy ishlab chiqarish va umumiy xo'jalik yo'nalishdagi moddiy va pul ko'rinishdagi xarajatlar kiradi. IK bo'yicha doimiy xarajatlar miqdori ma'lum davr (yil, chorak yoki oy) ichida kamdan kam o'zgaradi. Ularni egri va qoplama ham deb atashadi. Doimiy xarajatlar miqdori turli iqtisodiy elementlarga mos bo'lgan xarajatlarni o'z tarkibiga oladi, ya'ni: moddiy va mehnat haqi uchun xarajatlar, ijtimoiy ehtiyojlar uchun va amortizatsion ajratmalar, boshqa xarajatlar. Shu bois, ular majmuaviy deb nom olgan. O'zgaruvchan va doimiy xarajatlarning tafovuti IKda xarajatlarni boshqarishni tashkil etishda hisobga olinadi.

Innovatsion xarajatlar tuzilmasi innovatsion siklning bosqichiga bevosita bog'liq. Tadqiqotni olib borish va loyihalashtirish bosqichlarida moddiy xarajatlarning ulushi katta emas. Bunda asosiy ulush mehnat haqi uchun xarajatlar va ijtimoiy sug'urtalashga tegishli. Keyingi o'rinda esa amortizatsiya, ilmiy uskunani sotib olish uchun

xarajatlar turadi. Eng katta ko‘rsatkich boshqa xarajatlarga (aloqa xizmati, xizmat safari, ijara haqi xarajatlari va h.k.) tegishli. Innovatsion qarorlarni ishlab chiqarishga joriy etish bosqichida qolgan xarajatlar, ayniqsa mehnat haqi uchun xarajatlar va ijtimoiy sug‘urtalashning ulushi kamayib borishi bilan moddiy xarajatlarning ulushi oshib boradi.

Xarajatlarni boshqarishning aniq usulini tanlash ko‘pincha xarajatlarning tarkibi va tuzilmasiga bog‘liqdir. Moddiy xarajatlar ulushining yuqoriligi material va energiyani tejoyvchi texnologiyalarni qo‘llash, ikkilamchi material va energetik resurslar va chiqindilardan foydalanish, qimmat turadigan xomashyo, material, yoqilg‘i, energiyani o‘zgartirish, nisbatan arzon turadigan material resurslarning manbalarini topish uchun o‘z kuchini safarbar qilish lozimligini bildiradi. Mehnat haqi uchun xarajatlar ulushining yuqori bo‘lgan sharoitda esa, avvalambor boshqarishni ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning unumdorligini oshirish, xodimlar malakasini oshirish, ishchi o‘rinlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, kasblarni o‘rindoshlik qilish, mehnat ko‘p talab qiladigan ishlarni mexanizasiyalash va avtomatlashtirish, kompyuter texnologiyalarni qo‘llashga qaratish maqsadga muvofiqdir.

8.1.3. Xarajatlar miqdorini belgilovchi omillar

Ma’lumki, innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratishda xarajatlar miqdori – eng muhim ko‘rsatkichdir, uni boshqarishning sifat jihatdan ko‘rsatkichi esa samaradorlik miqdori hisoblanadi. IK xarajatlarni ko‘paytirib yoki kamaytirib, ularning tarkibini o‘zgartirgan holda innovatsion faoliyat natijalariga ta’sir ko‘rsatish mumkin. Eng muhimi, xarajatlarni boshqarish bo‘yicha qarorlar qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini bilib olish lozim. Innovatsion jarayonlarning turli-tumanligi va xarajatlarni bir taraflama hisobga olishni imkon bermaydigan xarajatlarni vujudga keltiruvchi omillarning mavjudligiga qaramasdan bir nechta o‘ziga xos va muhim nisbatlarni ajratib olishimiz mumkin. Ularning har biri u yoki bu aniq qaror bo‘yicha xarajatlar miqdorini aniqlab beradi. Bular butun innovatsion loyiha yoki uning bir qismi, bosqichi uchun xarajatlar bo‘lishi mumkin.

Innovatsion xarajatlar miqdoriga ta’sir etish darajasiga ko‘ra birinchi omil yechiladigan masalalar miqdorining yuqoriligi hisob-

lanadi. Innovatsion loyiha uchun xarajatlar miqdorining bosqichma-bosqich oshib borishi bilan o'zgarib boradi. Bitta-ikkita korxonada bir yoki bir nechta ishchi o'rinlar doirasida amalga oshadigan innovatsiyalar uchun xarajatlar bir yoki bir nechta xodimlarning bir oylik maoshi bilan tenglashtiriladi. Ushbu xarajatlarni qoplash uchun bitta korxonaning imkoniyati yetadi. Ko'p ishchi o'rinlarda, bir nechta korxonada ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarish uchastkasida o'zgarishlarni keltiradigan innovatsiya uchun xarajatlar salmoqli tus oladi. Ularni, masalan, uchastka, sex yoki korxonada xodimlariga bir necha oy uchun mehnat haqini to'lashga sarflanadigan summasiga asosiy fondlarning elementlaridan birining qiymati bilan solishtirish mumkin.


Ommaviy foydalanishga mo'ljallangan yangi tur mahsulotni, yangi texnologiyalar va ishlab chiqarishlarni yaratishdan oldin innovatsion natijalar ko'lamining oshishi xarajatlarning bir necha pog'onaga o'sishiga sabab bo'ladi (korxonada yoki tarmoqlarning asosiy fondlar qiymatidan bir nechta o'nlik foizini tashkil etish mumkin).

Va nihoyat, katta hajmdagi investitsiyalarga (tubdan yangi ishlab chiqarishni yaratish uchun) mamlakatning davlat budjeti xarajatlar qismining bir nechta foiziga teng kelgan innovatsion xarajatlar mos keladi.

Ikkinchi omil – xarajatlarning ular amalga oshirayotgan innovatsion jarayonlar bosqichiga bog'liqligi. Innovatsion jarayonning har bir bosqichdagi xarajatlar oldingisiga nisbatan oshib boradi. Turli tadqiqot va ishlanmalar bosqichlarida xarajatlar miqdorining nisbatlari muayyan qonuniyatga bo'ysunadi, ular jahon amaliyotiga ko'ra, muayyan o'rtacha miqdorlari bilan ifodalanadi. Yirik bo'lmagan innovatsion jarayonlar bosqichlari bo'yicha tarmoq me'yorlari va o'rtacha xarajatlar bo'yicha ma'lumotlar mavjud. Xarajatlarning bosqichdan bosqichga o'tish paytida oshib borish qonuniyatidan shu narsa kelib chiqadiki, mablag'larni bitta yagona siklga (u yaxshi natijalarni bermasligi ham mumkin) sarflashdan ko'ra, ITTKI bir nechta variantini, hattoki bir nechta loyihani moliyalashtirishni va amalga oshirish uchun eng qulayini afzal hisoblaydi.

Innovatsion xarajatlar miqdorini aniqlaydigan uchinchi omil – innovatsion qarorlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirishda mavjud resurs va salohiyatidan foydalanish darajasi. Loyihani ta'minlashda mavjud asosiy fondlar (mavjud, sotib va ijrada olingan) obyektlar, mavjud xodimlar, hujjatlashtirish, texnologiyalar, moddiy oqimlar va

axborot. Ishlab chiqarish va bozor aloqa tizimlari ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, innovatsion xarajatlarni amalga oshirish ehtiyoji (boshqa teng sharoitlarda) shunchalik kam bo'ladi. Ushbu omilga loyiha negizida turgan qarorlarni standartlashtirish va foydali qo'llash darajasini kiritish ham lozim. Takrorlanish holatlari ko'p bo'lsa, ya'ni mazkur jarayon, ish qanchalik tez takrorlanib bajarilsa, keyingi takroriy harakatlar uchun umumiy xarajatlar kamayadi. Bu bog'liqlik innovatsion jarayonning barcha bosqich va turi uchun mos keladi.




8.1-rasm. Mahsulot sifatini oshirish uchun umumiy xarajatlarning talab qilinadigan parametr darajasiga bog'liqligi

To'rtinchi omil – innovatsion qarorlarni amalga oshirish bilan bog'liq o'xshash ishlab chiqarish, iste'molchilarning xarajatlarga bo'lgan ehtiyoji (bir xil texnik uskuna, texnologiyalarni o'zgartirish, yangi materialni tayyorlash, atrof-muhitni muhofaza qilish obyekt va vositalarni yaratish uchun xarajatlar va h.k.). Ushbu ishlab chiqarish va tarmoqlarning doirasi qanchalik kichik bo'lsa, zarur xarajatlar miqdori shunchalik kichik bo'ladi.

Beshinchi omil – obyekt tomonidan yaratilayotgan maqsadli ko'rsatkichlarning darajasi. Ma'lumki, maqsadli parametrning muayyan miqdoriga o'tishi agar ushbu parametr katta bo'lmasa (o'tish yoki aylanish tezligi past va boshqalar) nisbatan katta bo'lmagan xarajatlarni sarf qilishni talab qiladi. Ammo, ushbu miqdorning o'sishi bilan umumiy xarajatlar ushbu o'sish miqdoridan ko'ra sezilarli

darajada yuqori bo‘ladi (8.1-rasmdagi A chizig‘i). Bu bog‘liqlik nazariy chegarasi to‘g‘risida gap borganda, masalan, moddalarning tozalash darajasi 100 foiz bo‘lgan sharoitda yanada sezilarli tus oladi (8.1-rasmdagi B chizig‘i).


Oltinchi omil – masalani yechishning yangi texnik tamoyiliga o‘tish. Yuqorida keltirilgan mahsulotning maqsadli parametrlarini yaxshilashning har bir keyingi bosqichdagi qimmatlashishi qonuniyatlariga yangi texnik tamoyilidan foydalanish (masalan, aviatsiyada reaktiv dvigatellarni qo‘llash, vintli samolyotning tezlik chegarasini oshirish)ga o‘tish orqali erishish mumkin. Uning grafik ko‘rinishdagi holati 8.2-rasmda keltirilgan.



8.2-rasm. Oldingi va yangi tamoyillarga asoslangan mahsulotning bosh parametrini yaxshilash uchun umumiy xarajatlarning o‘zgarish qonuniyatlari

Yettinchi omil – yaratilayotgan obyektning miqdori. Mashina, uskuna, ishlab chiqarish hajmlari va quvvatlari oshib borishi bilan odatda obyektning yaratish uchun xarajatlari ham oshib boradi. Biroq hajm, maydon, quvvat birligiga hisoblaganda obyektning hajmi oddiygina oshishi bilan xarajatlari kamayadi. Ushbu bog‘liqlik ikki egri chiziq bilan tasvirlanadi (8.3-rasm).

Sakkizinchi omil – innovatsion jarayonda foydalanilayotgan resurslar, tashkiliy-huquqiy ishlarni bajarish uchun narx, tarif, stavkalar darajasi. Bu yerda innovatsion xarajatlari miqdorining resurslar narxi darajasiga nisbatan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud.



8.3-rasm. Obyektning miqdoriga qarab bir obyekt (A chizig‘i) va ishlab chiqarish quvvati uchun (B chizig‘i) xarajatlarning uzviy bog‘liqligi

To‘qqizinchi omil – innovatsion qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonda moddiy, energetik va mehnat resurslarining obyektiv va texnik jihatdan asoslangan sarflash miqdori (me‘yorlar) (masalan, muayyan sharoitlarda energiyani olish uchun yoqilg‘ini sarflash, tarmoq va o‘zgartirish vositalarda energiyani yo‘qolishi, qo‘l mehnati bilan bajarilgan operatsiyalarni bajarishda mehnat xarajatlari me‘yorlari va h.k.)

Yuqorida keltirilgan omillarning xarajatlarga bo‘lgan ta’siri turli aniqlik darajasi bilan son jihatdan ifodalanishi mumkin. Bundan tashqari, innovatsion faoliyatda son jihatdan aniqlash qiyin yoki umuman aniqlash mumkin bo‘lmaygan xarajatlarni aniqlash omillari ham mavjud. Ulardan bittasi – xavf-xatar darajasi. Unda hisoblash usuli qo‘llaniladi. Ikkinchisi – loyihani boshqarishda mahorat darajasi va maqbul qarorlarni topish. Ushbu omil mazkur xarajatlar miqdorini sezilarli darajada kamaytirish qobiliyatiga ega bo‘lgan rahbarlar, yetakchi mutaxassislarining mahorati va o‘quvini aks ettiradi. Xarajatlarni boshqarish imkoniyatlarini amalga oshirishda yuqorida nomi keltirilgan (uchinchi omil) axborot resurslari va zamonaviy axborot tizimlar bazasida ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlarini jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan omillarni tasniflovchi IKning ko‘rsatkichlarni to‘plash va uni tahlil qilish kutilayotgan innovatsion xarajatlarni aniqroq aniqlash va barcha omillardan foydalanish hisobiga eng yuqori unumdorlikka erishish uchun ularni maqsadli boshqarishga imkon beradi.

8.2. INNOVATSION XARAJATLARNI BOSHQARISH USULLARI

8.2.1. Xarajatlarni boshqarish mexanizmlari

Boshqaruv xarajatlarini tartibga solish vazifasi sifatida turli mamlakatlarda so‘nggi o‘n yillik ichida ancha muvaffaqiyatli rivojlanib borgan¹¹⁷.

Xarajatlar o‘lchamiga ta‘sir etuvchi boshqaruv qarorlari boshqarishning barcha pog‘onalarida va IKning barcha tarkibiy bo‘linmalarida qabul qilinadi. Biroq, uni amalga oshirishning shaxsiy maqsadlari, vosita va usullari turlicha. Butun faoliyatni muvofiqlashuvi (boshqaruv, ishlab chiqarish bo‘g‘inlarning, maqsadlar, vositalar, usullarning ishlashi) va xarajatlar darajasini boshqarish sharoitida daromadlarni oshirishga qaratilgan. Korxonalar va tashkilotlarda bu vazifa majmuaviy boshqaruv tizimi yordamida hal qilinadi. Ushbu xarajatlar (va natijalar)ni boshqarishga qaratilgan alohida tizim *kontrolling* hisoblanadi.

Xarajatlarni boshqarish kontrolling bilan bir xil emas. Kontrolling o‘z mohiyatiga ko‘ra firmani boshqarishning integratsiyalashgan tizimi sifatida maqsadlarni strategik, o‘rta muddatli va joriy rejalashtirish, ularning resurslar bilan ta‘minlash. Ushbu maqsadlarga barcha boshqaruv va ishlab chiqarish bo‘g‘inlarning, har bir mehnat jamoatchiligi va ishchining ishlarini uyg‘unlashtirilgan yo‘li bilan erishishni tashkil etishni o‘z ichiga qamrab oladi. Xarajatlarni boshqarish tizimi kontrollingning tarkibiy qismi sifatida faoliyat ko‘rsatib turish uchun uning imkoniyatlaridan foydalangan holda bir qator qoidalarga rioya qilib amalga oshirilish lozim. Avval rejali maqsadlar, keyin esa – maqsadlarga erishish uchun ular paydo bo‘lgan joyi, barcha mahsulot turi bo‘yicha zarur xarajatlar aniqlanadi. Ushbu o‘lchamlar rejali ko‘rsatkich va me‘yorlarda qayd etiladi. Faoliyat jarayonida haqiqiy xarajatlar hisobga olinadi va ularni topshiriqlar nisbatiga qarab aniqlanadi. Xarajatlar o‘zgarishlari to‘g‘risida axborot mazkur xarajatlar darajasiga haqiqatan ham ta‘sir o‘tkazadigan IKning tarkibiy bo‘g‘inlarida qarorlarni qabul qilishning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Ushbu boshqaruv tizimining samarali ishlashi uchun barcha tarkibiy bo‘g‘inlarini aniqlash va tashkil etish lozim, chunki ularning faoliyati

¹¹⁷ Манн Р., Майер Э. Контроллинг для начинающих. Пер. с нем. – М.: Финансы и статистика, 1992. – 304С.

xarajatlarga va tabiiyki, natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. IKning har bir bo'linmasi *majburiyat markazi* maqomini oladi, ularga esa tegishli vakolat beriladi. Ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. *Xarajatlar markazi* – hajmi bo'yicha o'lchamiga ega bo'lmagan mahsulotni chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan natijalarga ega bo'lgan bo'linma yoki faoliyat turi. Xarajatlar markazi faqatgina xarajatlarga rioya qilish bo'yicha mas'ul va javobgardir. Bu yerda ish va xizmatlarning hajmini hisobga olmagan holda faqatgina xarajatlar nazorat qilinadi.

2. *Sotish markazi* – faqatgina mahsulotni sotishdan tushgan tushum bo'yicha javobgardir (sotish xizmati). Bu yerda faqat tushum va sotish hisobi yuritiladi.

3. *Foyda markazi* – mahsulotni savdo, realizatsiya qilishga taalluqli bo'lgan natijalarga ega bo'lgan bo'linmalar va faoliyat turi. Shuningdek, bir vaqtning o'zida xarajatlarni talab qiluvchi xizmatlarni ko'rsatish ham amalga oshirish mumkin (mahsulotni chiqarish, ishlab chiqarish xizmatlari, servis, savdo operatsiyalar bo'yicha mablag'larning aylanishi). Foyda markazning belgilari – mahsulot, buyurtma, mijozlar bo'yicha realizatsiya, xarajatlar miqdori va tegishli foyda hajmini aniqlash imkoniyatidir. Foyda markazi xarajatlar va tushumni ta'minlash bo'yicha majburiyatni o'z ichiga oladi.

4. *Natijalar markazi*. Ularga ishlab chiqarish bo'linmalari, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'limi kirishi mumkin. Xarajatlarni boshqarish tizimi rivojlanishi bilan IKning ichida bo'linmalarning – xarajatlar markazidan natijalar markaziga o'zgarishi tendensiyalar kuzatiladi. Bo'linmalarning natijalar markazi sifatidagi faoliyati uning mahsuloti, xizmatlari uchun narxlarning mavjudligi va uning hajmlarini o'lchash bilan shartlanadi. Bunga ichki narxlardan foydalanish xizmat qiladi. Bitta javobgarlik markazi boshqa javobgarlik markaziga unga ko'rsatilgan xizmatlari uchun to'lovlarni ushbu narxda amalga oshiradi. Bunday mexanizmlar rivojlangan ichki ishlab chiqarish xo'jalik hisobi bilan faoliyat ko'rsatayotgan milliy IKda o'z vaqtida amal qilgan (natijalar markazini ayrim hollarda sotish, foyda, investitsiyalar markazi deb ham atashadi).

5. *Investitsiyalar markazi* – korxonalar yoki uning tashqarisida investitsiyalarni kiritish bilan band bo'lgan bo'linma. Investitsiyalar markazi orqali uning faoliyatini va har bir loyihani ta'minlab beruvchi

xarajatlar; ushbu bo‘linma yordamida mahsulot va xizmatlarni sotishdan kelgan xarajat va tushumni qoplash uchun investitsiyalar qilinadi¹¹⁸.

Javobgarlik markazlarini belgilashning negizi sifatida IKning ishlab chiqarish va boshqaruv tuzilmasi xizmat qilishi mumkin. Ammo ular bir-biriga to‘liq to‘g‘ri kelmasligi mumkin, chunki har bir ishlab chiqarish tarkibiy bo‘linmani javobgarlik markaziga aylantirish har doim ham maqsadga muvofiq bo‘lavermaydi.

IKda xarajatlarni boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini shakllantirishda nafaqat xarajatlarga javobgar bo‘lgan bo‘linmalarni, balki aniq buyum, xizmatlar namoyon bo‘ladigan xarajatlarni tarqatuvchi subyektni aniqlashtirib olish lozim. Innovatsion sohasida xarajatlarni tarqatuvchi – bu loyiha, ishlanma, chora-tadbir, buyurtma, yangi buyum. Xarajatlarni tarqatuvchi bozorda sotiladigan mahsulotlardan tashqari IKda bitta bo‘linma (markazi) bilan ikkinchisiga beriladigan ichki iste‘mol uchun yarim tayyor mahsulotlar, mahsulot va xizmatlar ham bo‘lishi mumkin. Kontrolling ma‘lum bo‘lgan har bir IKning tuzilmasiga mos tushadi. Xarajatlarni boshqarishning har bir sikli ichki va tashqi muhit holati to‘g‘risida boshlang‘ich axborotni tahlil qilish, uning kutilayotgan o‘zgarishi va ko‘rib chiqilayotgan faoliyat sohalarida IKning imkoniyatlarini baholash bilan boshlanadi.

8.2.2. Rejadan oldingi tahlil


Boshqarish jarayonida tahlil qilishdan oldin qarorlar qabul qilinadi. Xarajatlarni boshqarish sohasida rejali qarorlar belgilangan natijalarga mos bo‘lgan kutilayotgan natijalarning aniq miqdorlarini o‘rnatishni ifodalaydi¹¹⁹. Rejalashtirishda IKning vazifalari ijrochilar vazifalariga o‘tish faqatgina bo‘linmalar (javobgarlik markazlari va boshqalar) kesimida, lekin barcha mahsulot (loyiha, buyum) bo‘yicha amalga oshiriladi¹²⁰. IKning maqsadli ko‘rsatkichlari loyiha rentabelligi va xarajatlar ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligining prinsipial shakli

¹¹⁸ Хорнгрен Ч.Т., Фостер Дж. Бухгалтерский учет: управленческий аспект. Пер. с англ./ Под ред. Я.В. Соколова. – М.: Финансы и статистика, 1995. – 410 С.

¹¹⁹ Медынский В.Г., Шаршукова Л.Г. Инновационное предпринимательство: Учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 1997. – 240 С.

¹²⁰ Х а н Д. Планирование и контроль: концепции контроллинга. Пер. с нем./ Под ред. и с предисл. А.А.Турчака, Л.Г.Головича, М.Л.Лукашевича. М.: Финансы и статистика, 1997. – 800 С.

8.4-rasmda keltirilgan.



8.4-rasm. Innovatsion korxonalar rentabelligi va innovatsion loyiha rentabelligining o‘zaro bog‘liqligi

Innovatsion xarajatlarning rejadani oldin tahlil qilish uning paydo bo‘lishi barcha turi va joyi bo‘yicha amalga oshirish muhim hisoblanadi, ammo u xarajatlar ko‘p talab qiladigan innovatsion mahsulotlarni sotish sohasida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Innovatsion loyiha maqsadi muayyan vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan mahsulotni yaratish yordamida ehtiyojlarni qanchalik samarali tarzda qondirish to‘g‘risida qarorlarni chiqarishdan iborat. Bu loyiha bo‘yicha xarajatlar rentabelligining zarur bo‘lgan darajasini ta’minlab berishi lozim. Iqtisodiyotda innovatsion loyiha natijasining mukammallik darajasini loyiha bo‘yicha hamda alohida vazifalar, natijalarning ko‘rsatkichlari bo‘yicha va xarajatlar miqdorli nisbati bilan ifodalash mumkin. Loyihani buyum, mahsulotning iqtisodiy (xarajatli) va texnik tomonlarini yig‘ib olishni *funksional-qiymatli tahlil* (FQT) orqali ham amalga oshirish mumkin.

Funksiya o‘z mohiyatiga ko‘ra iste’mol xususiyatining aniq sifat jihatini ifodalaydi¹²¹. Funksiya sifatli, aniq va qisqa tarzda talqin etilishi, miqdorli baholanishi lozim. Ko‘p hollarda ushbu parametrlar

¹²¹ Питер Р. Диксон. Управление маркетингом. Пер. с англ. – М.: ЗАО «Изд-во БИНОМ», 1998. – 560 С.

FQTDa foydalanish mumkin bo'lgan texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lishi mumkin¹²².

Xarajatlar tahlili detal, uzal va butun buyum, konstruksiya, texnik tizimlarni ishlab chiqarish hamda ayrim ishlar turini (konstruktorlik, loyiha-texnologik, hisobli, tajriba-sinov va boshqalar) olib borish uchun zarur bo'lgan xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi. FQTning har bir xarajat birligi muayyan natijani olish uchun zarur degan tamoyilga tayanadi. Innovatsion faoliyat natijalarining samaradorligi innovatsion mahsulotlar yoki bevosita innovatsion obyektlarni yaratishda sarflanadigan xarajatlarni nisbatan tejashda namoyon bo'ladi.

Innovatsion faoliyatning mahsuli hisoblangan murakkab buyum, texnik tizimlar o'nlab, yuzlab, hattoki minglab vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan. FQTDan eng katta foyda olish uchun mahsulot bo'yicha xarajatlarni har bir funktsiya bilan bog'liq xarajatlarga ajratiladi. Shu tarzda mahsulot narxini uning funktsiyalar narxiga ajratib chiqiladi. Har bir funktsiyaning qiymati miqdorli i baholanadi:

$$T_m = X_{Ish} + X_1N_1 + X_2N_2 + \dots + X_iN_i$$
$$S_m = S_{Ish} + S_1N_1 + S_2N_2 + \dots + S_iN_i$$

bu yerda; T_m va N_m – sifatning X_i dan N_i gacha miqdorli tasnifiy belgilarining to'plamida ifodalangan muayyan sifatidagi mahsulot birligining mos ravishda tannarxi va narxi (agar sifatning tasnifiy belgilari funktsiyaga teng bo'lsa); X_1, X_2, \dots, X_i - tegishli sifat ko'rsatkichining birligi hisobiga tayyorlovchining xarajatlari (N_1, N_2, \dots, N_i); S_1, S_2, \dots, S_i – iste'molchilarga ma'qul tushgan mazkur mahsulotni tegishli sifat ko'rsatkichining bir birligi uchun to'lovi (narxi); X_{Ish} – tayyorlovchining shaxsiy sifat ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lmagan mahsulot birligini ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar; S_{Ish} – shaxsiy sifat ko'rsatkichlarning o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan mahsulot birligiga qo'yilgan narxning doimiy qismi.

Rivojlangan FQT $X_1 N_1$ ni $S_1 N_1$ bilan, keyin esa $X_2 N_2$ ni $S_2 N_2$ bilan va boshqa qiymatlarning juft holda solishtirishni, $S_1 N_1$ va

¹²² Анализ хозяйственной деятельности в промышленности: Учебник / Л.А.Богдановская, Г.Г.Виноградов, О.Ф.Мигун и др. / Под общ. ред. В.И.Стражева. 2-е изд., стереотип. – Минск: Вышш. шк., 1996. – 363 С.

X_1 N_1 hamda S_{Ish} va X_{Ish} o'rtasidagi nisbatning miqdori eng katta bo'ladigan parametrlarni topishni o'z ichiga oladi. Amaliyotda FQT tahlil jarayonini turkumlashtirish, uni bosqichlarga bo'lishga imkon beradigan muayyan uslublar to'plami shakllangan.

Birinchi bosqich – rejalashtirish va tayyorlash. Ushbu bosqichda obyektни rejalashtirishning maqsad va asosiy vazifalari, ularga erishish va hal etish bo'yicha vosita va ishlari aniqlanadi. Boshlang'ich bosqichda tahlilni olib borish loyiha obyektiga uni ishlab chiqarishga tayyorlash bosqichida kiritilayotgan o'zgarishlar sonini 20–40%ga kamaytirishga imkon beradi.

Ikkinchi bosqich – axborotlarni yig'ish. Bosqichning maqsadi – tadqiqot obyekti va o'xshash obyektlar to'g'risida mumkin bo'lgan hujjat va ma'lumotlarni olish. To'liq axborot ko'plab qarorlarni qidirish va ishlab chiqish uchun ortiqcha xarajatlardan voz kechishga yordam beradi. Murakkab innovatsion loyiha ishlanmasini axborot bilan ta'minlashdagi nuqsonlar hisobiga takroriy «ixtiro» va qarorlarning jami qarorlar ulushida 40 %gacha yetishi mumkin, bunda natijalar yangiligi, bozor hajmini aniqlashda xatolar yuzaga kelish ehtimoli ko'proq. Barcha mumkin bo'lgan manbalardan yig'iladigan axborot saralanishi, tizimlashtirilishi va to'planishi lozim.

Uchinchi bosqich – xarajatlarni tadqiq etish. Agar mahsulot funksiyasi va mahsulotning o'zi tubdan yangi bo'lsa, mazkur bosqichda oldingi bosqichda tayyorlangan alohida funksiyalar bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi axborot tahlil qilinadi. Ushbu funksional xarajatlarni ko'plab ma'lum bo'lgan buyum, qarorlar bo'yicha solishtirish funksional xarajatlarning qonuniyatlarini va ularni optimallashtirish yo'llarini aniqlash, majburiy bo'lmagan funktsiya, detal, uzellarni olib tashlash va shu tariqa ortiqcha xarajatlardan voz kechish va mahsulotning umumiy qiymatini kamaytirishga imkon beradi.

Solishtirma buyumlar bo'yicha tayyorlangan FQTning tubdan yangi mahsulotni yaratishda alohida olingan asosiy funksiyalar yoki zarur funksiyalar guruhlari bo'yicha me'yoriy xarajatlarni topishga imkon beradi. Limitli xarajatlarga tayanish ixtirochilarga miqdorli limitga rioya qilishga imkon beradi.

To'rtinchi bosqich – variantni ishlab chiqish. Ko'p variantlilik – innovatsion faoliyatning asosini tashkil qiluvchi tamoyillaridan biri.

Odatda, natijalar va xarajatlarning eng yaxshi nisbatlari tanlanadi.

Beshinchi bosqich – variantlarni baholash va dastlabkisini tanlash. Qaror variantlari har tomonlama va samaradorlikni aniqlashning turli mezon va usullaridan qat’ian foydalangan holda baholanadi.

Oltinchi bosqich – optimal variantni tanlash va asoslash. Qarorlar ko‘lami va uning oqibatlari qanchalik keng bo‘lsa, ushbu qarorlar shunchalik sinchiklab tanlanadi. Yirik loyihalarni baholash uchun maxsus uslubiyatni qo‘llaydigan ekspert komissiyalari tashkil etiladi. Tanlangan variant minimal xarajatlarni sarf qilishni ta’minlashi lozim.

8.2.3. Xarajatlarni rejalashtirish

Innovatsion ishlar uchun *xarajatlarni rejalashtirish* – innovatsion jarayonni rejalashtirishning bir qismidir. U innovatsion qarorlarning maqsad va vazifalarini, ularga erishish yo‘li, usuli va ishlarini rejalashtirishni o‘z ichiga olgan majmua bilan amalga oshiriladi. Innovatsion menejmentda xarajatlarni rejalashtirishni tor va keng ma’noda ko‘rib chiqish mumkin. Tor ma’nodagi rejalashtirish faqatgina innovatsion loyihalarni ishlab chiqish uchun IKning xarajatlarini, keng ma’nodagi esa – ularni amalga oshirishni ham qamrab oladi. Turli yondashuvlarga ko‘ra, xarajatlarni boshqarish innovatsion loyihalar samaradorligini rejalashtirishga aylanadi. Xarajatlarni rejalashtirishning amaldagi usullari har bir IK va ishlarning har bir bosqichlariga mosdir. Rejali xarajatlarni hisoblash¹²³ mehnatni ko‘p talab qiladi. Loyiha bo‘yicha takliflarni tayyorlash bosqichida ular rejali bo‘lishi mumkin, rejali smeta ko‘rinishda innovatsion choralar bo‘yicha nazoratdagi hujjatlarni rasmiylashtirish bosqichida esa, to‘liq hajmda bajarilishi mumkin. Innovatsion sohada kutilayotgan xarajatlar ularning turlari bo‘yicha quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Me‘yorli – turli me‘yorlar ehtimollarining maksimal soni; bosqich, davr, jarayon, ish, operatsiyalar davomiyligi; turli ishlarni bajarishning sermehnatligi; moddiy xarajatlardan foydalanish va h.k. me‘yorlar ish yoki mahsulotning hajmi, vaqt yoki u yoki bu ma’lum bo‘lgan resursning hajmi, yaratilayotgan obyektning maqsadli parametr (funksiya) birligi hisobiga yoki muayyan xarajatlar nisbati sifatida

¹²³ Медынский В.Г., Шаршукова Л.Г. Инновационное предпринимательство. Учеб. Пособие. – М.: ИНФРА-М, 1997. -240 С.

belgilanishi mumkin. Ushbu usul, birinchidan, loyihani iloji boricha aniq ish, bosqichlarga bo'lish, ikkinchidan, sifatli me'yor bazasini tayyorlashni ko'zda tutadi. Me'yorlar tabaqalashgan va kengaytirilgan bo'lishi mumkin;

2. Parametrik – innovatsion obyektning belgilangan qiymatlari (hajmi, ishlab chiqarish unumdorligi, tezligi va h.k.) va birligi hisobiga xarajatlar me'yoridan kelib chiqqan holda xarajatlarning rejali summasini aniqlashga asoslanadi. Ushbu usul oldingisi bilan bog'liq. Obyektни loyihalashtirish va tayyorlashda yoki butun majmua innovatsion ishlari bo'yicha xarajatlarni hisoblash uchun qo'llanilishi mumkin.

3. To'g'ridan to'g'ri hisob-kitob – obyekt elementi, ushbu xarajatlarning tarkibiy qismlari bo'yicha har bir operatsiya (masalan, tarif stavkasi, rejalashtirilayotgan materiallar hajmini sotib olish uchun xarajatlar) xarajatlarning mukammal hisob-kitobini o'z ichiga oladi.

4. O'xshashliklar – rejalashtirilayotgan innovatsion ishlarga o'xshash, ilgari bajarilgan innovatsion ishlar uchun xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishdan iborat. Uning bazasi sifatida odatda butun ish bo'yicha emas, balki uning ayrim elementlari, bosqichlari, jarayonlari bo'yicha xarajatlar hajmi xizmat qiladi. Zaruriy holda o'xshash xarajatlarga yangi ishlar qiymatining oshishi yoki pasayishi hisobga oluvchi to'g'rilanadigan koeffitsiyentlardan foydalaniladi.

Eng aniq usullar (me'yor, to'g'ridan to'g'ri hisob-kitob) rejali ishlab chiqarishning yuqori darajadagi loyiha, bosqich va ishlar bo'yicha xarajatlarni rejalashtirish uchun ko'p hollarda foydalaniladi. O'xshash usul bilan kutilayotgan ishlar mazmuni noaniqlik darajasi yuqori bo'lgan sohalarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Parametrik usul yaxshilangan iste'mol tavsifidagi obyektlarni yaratish uchun chegaraviy (maksimal maqbul bo'lgan) xarajatlarni belgilashga yordam beradi. Deyarli barcha usullar bir-birini to'ldiradi va bitta loyiha, bitta bo'linma, butun IK bo'yicha xarajatlarni rejalashtirishda bir vaqtda foydalanilishi mumkin.

Innovatsion mahsulot tannarxini hisob-kitob qilishda ikki usulning biridan foydalanilishi mumkin, ya'ni buyurtma bo'yicha yoki jarayon bo'yicha. *Buyurtma bo'yicha hisob-kitob qilish* muayyan buyurtma, loyiha, ishlar bo'yicha xarajatlarni to'plashni ifodalaydi. U yagona ishlab chiqarishda, innovatsion loyihalarni bajarishda qo'llaniladi.

Jarayon bo'yicha hisob-kitob qilish muayyan davr bo'yicha barcha bir xil mahsulotning miqdorini tayyorlash uchun to'liq xarajatlarni aniqlashdan iborat. To'liq xarajatlarni mahsulot birligi soniga bo'lish mahsulotning o'rtacha tannarxini ko'rsatib beradi. Bitta korxonada ikkita tizimdan foydalanilishi mumkin: burtma bo'yicha – yakka buyurtma bo'yicha mahsulotni tayyorlash va jarayon bo'yicha – bir xil toifali yoki ommaviy ehtiyojiga ega bo'lgan mahsulotni chiqarish.

8.2.4. Xarajatlarni nazorat qilish

Xarajatlarni nazorat qilish, xuddi IKda boshqarish kabi loyiha, butun IK va uning tarkibiy bo'linmalar bo'yicha xarajatlarni nazorat qilishga asoslanadi. Xarajatlarni nazorat qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- rejali ishlar, davr va bo'linmalar bo'yicha rejali xarajatlardan tarkib topgan xarajatlarni nazorat qilish uchun kalendar jadvalini tayyorlash;

- hisob yuritish ma'lumotlari bo'yicha ishlarning bajarilishi va xarajatlar hajmi ustidan doimiy kuzatish;

- qabul qilingan topshiriq, limit va me'yorlarga nisbatan ishlarni bajarish va xarajatlar hajmining rejali ko'rsatkichlarning o'zgarishlarni uzluksiz aniqlash;

- o'zgarishlarni zudlik bilan tahlil qilish va baholash¹²⁴;

- sodir bo'lgan og'ishlar to'g'risida tegishli ishlar obyektiga mas'ul rahbarlarni xabardor qilish.

Har bir IK xarajatlarni nazorat qilishni tashkil etish tizimini o'zining xususiyati va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzadi. Tegishli xizmatni odatda direktor o'rinbosari rahbarlik qiladi. Unga buxgalteriya, statistika bo'limi, rejali bo'lim va maxsus nazorat qilish guruhlarini bo'ysunadi. Nazorat qilish guruhlarini loyihadagi ishlarning barcha davri davomida nazorat olib borish majburiyatini oladi¹²⁵. U qarorlar to'g'riligiga javobgar bo'lgan loyiha menejeri bilan aloqador bo'ladi. Nazorat asosida xarajatlarni to'g'rilash har bir bosqichda amalga oshirishi mumkin, ammo boshlang'ich bosqichlarda uning natijaviyligi eng yuqori bo'ladi.

Innovatsion loyihalarni boshqarishning sakkizta tashkiliy shakllari

¹²⁴ Контроллинг как инструмент управления предприятием / Е.А. Ананькина, СВ. Данилочкина и др./ Под ред. Н.Г. Данилочкиной. -М.: Аудит, ЮНИТИ, 1998. – 279 С.

¹²⁵ Управление проектами / Под ред. В.Д. Шапиро. -СПб.: ДваТриИ, 1996. – 610 С.

mavjud¹²⁶. Ayrim holatlarda buyurtmachi vakil sifatida ishtirok etayotgan loyiha menejeri qarorlarni qabul qilish bo'yicha buyurtmachiga to'liq tegishli bo'lgan moliyaviy javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Boshqarishning boshqa ko'plab shakllarida loyiha rahbarining belgilangan narxlarga rioya qilgan holda ishlarni bajarish bo'yicha moliyaviy javobgarlik olishni ko'zda tutadi. Bu holatda loyiha rahbari IK doirasida bajariladigan ishlar va tashqi sheriklar bilan amalga oshiriladigan moliyaviy javobgarlikni oladi. Tashqi sheriklarga berilgan ishning bir qismi bo'yicha majburiyat yuklanadi.

Loyiha ustida ishlayotgan guruhlar – foyda va javobgarlik markazi hisoblanadi. Menejer, nazoratchi tomonidan tegishli javobgarlik markazi bo'yicha olingan ma'lumotlar operativ va istiqbolli qarorlarni qabul qilish uchun baza hisoblanadi. Nazorat qilish o'z aksini olib borilayotgan ishlarni solishtirishda topadi, ya'ni xarajatlarning nisbiy darajasini topish (ish hajmi va sifatni hisobga olgan holda bo'linmaning xarajatlar miqdori raqobatchilarning rejasiga yoki o'xshash miqdoriga nisbati). Bu nisbat ($< 1,1$ ga teng yoki > 1) son bilan ifodalanishi mumkin va u IKning u yoki bu funktsiya, operatsiya, masalani yechishni bajarish uchun xarajatlarning nisbiy darajasini tavsiflanadi. Natijada funktsiyalarni bajarish uchun bo'linmalarning xarajatlar darajalari solishtiriladi va xarajatlarni boshqarish sohasidagi qarorlar qabul qilinadi, masalan: bo'linmani yangi va yaxshilangan resurslar bilan ta'minlash; muayyan funktsiyalarni bajarishni boshqa bo'linma va IKlarga topshirish; bo'linma ixtisosligini qayta ko'rib chiqish va h.k.

IKda xarajatlarni boshqarishdagi qulayliklarni yaratish uchun ularni, mazkur joyda aynan ushbu xarajatlar bo'yicha javobgar bo'lgan boshqaruv subyektlarni bog'lagan holda taqsimlash muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, xarajatlarni quyidagicha guruhlash mumkin.

1. Tarqatuvchi va joyi bilan bevosita bog'liq xarajatlar. Ularning miqdori faoliyat hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Bu – foyda markazining to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarish xarajatlari.

2. Tarqatuvchi va ularning paydo bo'lish joyi bilan bog'liq xarajatlar. Ularning miqdori faoliyat hajmi bilan to'g'ridan to'g'ri aloqasi mavjud emas. Bu birinchi guruhning tashkiliy xarajatlaridir.

¹²⁶ Ластовецкий В.Е. Учет затрат по факторам производства и центрам ответственности. – М.: Финансы и статистика, 1988. – 165 С.

3. Xarajatlarni tarqatuvchi. Faoliyat hajmi bilan bog‘liq bo‘lmagan, ammo faqat xarajatlarning paydo bo‘lish joyi bilan bog‘liq xarajatlar. Bu ikkinchi guruhning tashkiliy egri xarajatlaridir. Aniq mahsulot, loyihaning tannarxiga taalluqli xarajatlar dastavval bo‘linma xarajatlar sifatida shakllanadi.

O‘zgaruvchan xarajatlar, odatda, foyda va natijalar markazlarida, doimiy esa – xarajatlar markazlarida va qisman natijalar markazlarida, ya’ni ichki narx bo‘yicha xizmatning bir qismini ko‘rsatuvchi xizmat ko‘rsatish bo‘linmalarida rejalashtiriladi va hisobga olinadi. Xizmat ko‘rsatish bo‘linmalarining xarajatlari doimiy xarajatlarni to‘laligicha yoki qisman o‘z ichiga olishi mumkin. Oxirgi holatda boshqa xarajatlar ular bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni doimiy tarqatuvchilarga qiradi, xizmat ko‘rsatish bo‘linmalar esa xarajatlar markazidan katta bo‘lmagan daromad oluvchi foyda markaziga aylanadi.

Xarajatlarni tarqatuvchi yoki xarajatlar markazlari o‘rtasidagi doimiy xarajatlarni taqsimlash uchun hisob-kitob bazasi sifatida qulay rejalashtirilayotgan va hisobga olinayotgan miqdorlar qo‘llaniladi: sarflangan vaqtning odam-soni yoki mashina-soati, egallangan maydon, energiyaning sarfi, to‘g‘ri xarajatlarning miqdori va boshqalar.

Xarajatlarni boshqarishda shuni e’tiborga olish lozimki, rejali va haqiqiy xarajatlar miqdoriga, ularni boshqarishga hisob yuritish tizimi ta’sir etadi. Buxgalteriya hisobiga oid me’yoriy hujjatlar ushbu tizimni tartibga solib, IK uchun ko‘p hollarda hisobning u yoki bu variantini tanlash huquqini beradi. Xususan, IK quyidagi masalalar bo‘yicha mustaqil tarzda qarorlar qabul qilishga haqlidir:

1. Asosiy vositalarni amortizatsiya qilish: amortizatsion ajratmalarni qanday qilib amalga oshirish – yagona me’yorlar, tezlashtirilgan amortizatsiya usuli bo‘yicha, qo‘shimcha hisobdan chiqarish (kichik IK), ko‘paytirilgan koeffitsiyentlardan foydalanish.

2. Nomoddiy aktivlarni amortizatsiya qilish: ushbu aktivlarning qaysi obyektlari amortizatsiya qilinadi, qaysilari yo‘q; obyektlardan foydali foydalanish muddati.

3. Mehnat vositalarini asosiy vositalar va kam qiymatga ega bo‘lgan buyumlarga taqsimlash – mehnat vositasining qiymat chegarasini aniqlash, ya’ni ushbu chegaradan yuqorida bo‘lganda u asosiy vosita, pastda bo‘lganda esa – kam qiymatga ega bo‘lgan

buyum deb hisoblanadi.

4. Kelgusi davrdagi xarajatlar – shunday davrni belgilash kerakki, uning davomida ushbu xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilishi yoki boshqa usullarda hisoblab chiqarilishi lozim.

5. Kutilayotgan xarajat va to‘lovlar zaxiralari – zaxiralarni yaratish yoki yaratmaslik to‘g‘risida qaror qabul qilish (ishchilarning ta‘tilga chiqishi munosabati bilan to‘lovlarni amalga oshirish, xizmat ko‘rsatish davrida yil mukofotlarini berish, asosiy fondlarni ta‘mirlash uchun va h.k.).

6. Ishlab chiqarish uchun xarajatlarni hisobdan chiqarishni guruhlashtirish – xarajatlarni guruhlash va hisobdan chiqarish uslubini tanlash, tannarxini hisob-kitob qilish.

7. Sotib olinayotgan tovarni baholash – sotish uchun xarid qilinayotgan tovarlarni qaysi qiymat – xarid yoki sotish qiymati bo‘yicha hisobga olish kerak.

8. Mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan moddiy zaxiralarni baholash – hisobdan chiqarish uslubini tanlash: zaxiraning o‘rtacha tannarxi, vaqtga ko‘ra birinchi xaridlarning tannarxi, vaqtga ko‘ra ikkinchi xaridlarning tannarxi, xarid qilinayotgan materiallar birligining o‘rtacha tannarxi.

IK, shuningdek, hisob yuritishning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha ham mustaqil tarzda qarorlarni qabul qilishi mumkin. IKning hisob yuritishni tashkil etish sohasidagi qarorlari IKning xususiyatini, maqsad va imkoniyatlarini aks ettiruvchi, resurslardan unumli foydalanish va iqtisod qilishga yordam beruvchi uning hisob yuritish siyosatini shakllantiradi^{127, 128, 129, 130}.

Talab qilinayotgan natijalarga erishish uchun IKning umumiy va yakuniy xarajatlar tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni: ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, noyob resurslarni saqlash, texnologik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirish, asbob-uskuna, axborot va boshqa resurslardan samarali foydalanishning darajasini oshirish va h.k.larni amalga oshirish yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin.

¹²⁷ Бакаев А.С., Шнейдман Л.З. Учетная политика предприятия. 2-е изд., перераб. – М.: Бухг. учет, 1995. – 111 С.

¹²⁸ Ластовецкий В.Е. Учет затрат по факторам производства и центрам ответственности. – М.: Финансы и статистика, 1988. – 165 С.

¹²⁹ Николаева С.А. Учетная политика предприятия. – М.: ИНФРА-М, 1995. – 176 С.

¹³⁰ Хорнгрен Ч.Т., Фостер Дж. Бухгалтерский учет: управленческий аспект. Пер. с англ./ Под ред. Я.В. Соколова. – М.: Финансы и статистика, 1995. – 410 С.

8.3. NARX BELGILASH

8.3.1. Innovatsion mahsulotlarga narx belgilash tamoyillari

Narx bozor iqtisodiyotining markaziy, bog'lovchi bo'g'ini hisoblanadi. Tovarlariga qo'yilgan narxlar orqali ishlab chiqarish, ayriboshlash, taqsimlash jarayonlarining deyarli barcha iqtisodiy munosabatlari shakllanadi¹³¹. Bu borada o'zbekistonlik olimlar mahsulotlarga narxlar belgilashni, soliq siyosati uyg'unligida tadqiqot ishlarini olib borganligi e'tiborga loyiq^{132,133}. Shu bois, narxni belgilash bir qator iqtisodiy va iqtisodiy bo'lmagan omillar ta'siriga bog'liqligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

IK tijorat firmalar kabi narxni belgilashda iloji boricha barcha muhim narxni belgilash omillarini hisobga olgan holda muayyan siyosatni ishlab chiqadi¹³⁴. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Mahsulot mol sotiladigan bozorning turi (sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopolistik raqobat, sof monopoliya). Innovatsion sohada oligopoliya va sof monopoliya bozorlariga xos bo'lgan, ya'ni sotuvchi narxlarga sezilarli darajada ta'sir etish mumkin qonuniyatlariga amal qiladi¹³⁵.

2. Firmaning strategik yo'nalishi. Agar IK faoliyatini saqlash maqsadi qo'yilgan bo'lsa, mahsulot narxini tushirish tamoyiliga amal qilinadi; agar joriy foydani oshirishga maqsad qo'yilgan bo'lsa, mahsulotga eng katta foyda hajmini ta'minlab beruvchi narx belgilanadi; agar mahsulotning sifati hisobiga peshqadamlikka erishish maqsadi qo'yilgan bo'lsa, mahsulotga yuqori xarajatlarni qoplaydigan yuqori narx belgilanadi.

3. IK tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning talab va taklif darajasining nisbati. Talab qanchalik yuqori bo'lsa, sotuvchi (IK) shunchalik yuqori narx belgilashi mumkin. Biroq bu holda taklif ham oshadi, chunki boshqa IK o'xshash mahsulotni yuqori narxda sotishga intiladi. Agar vaqt mobaynida taklif talabdan oshib ketsa, sotuvchilar

¹³¹ Цены и ценообразование / Под ред. В.Е. Есипова. Учебник. 3-е изд. -СПб.: Питер, 2007. – 560 С.

¹³² Расулев А. Механизмы усиления воздействия ценообразования на инновационные процессы // Общество и экономика. -М.: Наука, 2010. -№ 10-11. –67-80 С.

¹³³ Расулев А., Воронин С., Юсупова Н. Проблемы активизации инновационной деятельности в Узбекистане и ценовая и налоговая политика государства // Общество и экономика. -М.: Наука. – 2007. - № 2. – 111-128 С.

¹³⁴ Эмерсон Г. Двенадцать принципов производительности. -М.: Бизнес-Информ, 1997. – 197 С.


¹³⁵ Хершген Х. Маркетинг: основы профессионального успеха: Учебник. Пер. с нем. Сер.«Университетский учебник». -М.: ИНФРА-М, 2000. – 324 С.

tomonidan narxni pasaytirishga to'g'ri keladi. Narxning optimal miqdori talab va taklif muvozanati (8.5-rasmdagi talab va taklif chiziq-lari kesishadigan nuqtasi)ga muvofiqdir.

4. Innovatsion mahsulot xaridorlarining daromad darajasi. Xaridorlarning moliyaviy holati yaxshilanishi talabni oshiradi va talab chizig'i o'ng tomonga siljiydi, aksincha, moliyaviy holati yomonlashganda talabni pasaytiradi, talab chizig'i chap tomonga siljiydi (8.5- rasm).

5. Mazkur mahsulotdan foydalanish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha tovarlarga narxlarning o'zgarishi (masalan, energiyani ko'p talab qiladigan uskunadan foydalanish uchun energiyani tarqatuvchiga yuqori narx belgilanishi unga bo'lgan talabni pasaytiradi va talab chizig'i chap tomonga siljiydi).

6. Mahsulotni ishlab chiqish va sotish uchun xarajatlar darajasi (ishlab chiqaruvchi xarajatlarni qoplaydigan va ko'zlangan foydani keltiradigan narxni taklif etadi). Muayyan narxlar o'z tarkibi bo'yicha turli xarajatlarni qoplashi mumkin, ammo butun IK bo'yicha ishlab chiqarish uchun barcha xarajatlarni qoplaydigan narxni belgilash lozim.



8.5-rasm. Talab chizig'ining o'ng tomondan tepaga qarab (narxning oshishini bildiradi) va chap tomondan pastga qarab (narxning pasayishini bildiradi) siljishi

7. Ko'zlanayotgan foydaning miqdori bilan rejalashtirilgan rentabellik darajasi. Foyda hisobidan kutilayotgan xarajatlar hisobga olinadi: soliqlarni to'lash – IK moliyaviy faoliyati natijalariga

taalluqli, mol-mulk solig‘i va boshqalar; IK tasarrufida qoladigan foyda hisobidan soliq to‘lovlari; ilgari olingan kreditlarni to‘lash; IKning aksiyalari bo‘yicha dividendlarni – mulkdorlarga haq to‘lash; zaxira fondiga ajratmalar; hayriya maqsadlariga badallar; ishchilarni moddiy rag‘batlantirish uchun xarajatlar va boshqalar.

8. Davlat boshqaruv vositalari – davlat tomonidan belgilanadigan va tartibga solinadigan alohida resurs va xizmatlar uchun narx va tariflar, soliq va soliq solish stavkalar, bojxona qoidalari va bojlari, Markaziy bank va tijorat banklarning ssudalar bo‘yicha stavkalari, valutar kursi va boshqalar.

9. Innovatsion mahsulotni oldi-sotdi shartnomaning huquqiy shartlari (xaridorga berilgan sotish obyektidan foydalanish yoki tasarruf etish huquqning hajmi qanchalik ko‘p bo‘lsa, narx shunchalik yuqori bo‘ladi¹³⁶);

10. Sotuvchi va xaridorlar xavf-xatarining darajasi (agar xaridor aksariyat xavf-xatarni o‘z zimmasiga oladigan bo‘lsa, tabiiyki u mahsulot narxini tushirishni talab qiladi).

11. Bitimning aniq shartlari: ishning muddatligi, texnik jihatlari, narx-navo imtiyozlarni qo‘llash va qo‘shimcha narx belgilash uchun imkoniyatlar va asoslar¹³⁷.

Buyurtmachi va iste‘molchilar tomonidan innovatsion ilmiy-texnika mahsuloti bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish uchun *kelishilgan narxlar* qo‘llaniladi. Ularni belgilash shartlari va miqdorlari xo‘jalik shartnoma, kelishuv yoki davlat, hududiy buyurtmalarda belgilanadi. Rejali kelishilgan narx ishlarni bajarishdan oldin texnik topshiriq bilan bir vaqt o‘zida buyurtmachi va ishlab chiquvchi tomonidan birgalikda belgilanadi.

Kelishilgan narxlarni belgilashda IK mahsulotni ishlab chiqaruvchi va xaridor narxi ishlab chiquvchi hamda buyurtmachi uchun iqtisodiy foydaliligi tamoyiliga rioya qiladi. Ushbu tamoyilni quyidagi asosiy formula ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$N_{\text{Im}} = T_{\text{Ish}} + F_{\text{IshT}} \quad \text{ёку} \quad N_{\text{Im}} = T_{\text{Ish}} + F_{\text{IshT}} + IS_b \quad \text{азар} \quad N_{\text{Im}} < IS_u IS_t \quad \text{ва} \quad IS_u = 1 - IS_1$$

bu yerda, N_{Im} – innovatsion mahsulotning hisoblangan narxi;

¹³⁶ Власова М.А. Лицензионные контракты и определение стоимости лицензий при патентной форме охраны изобретений. – М.: ПЦ «Ориентир», 1992. – 284 С.

¹³⁷ Питер Р. Диксон. Управление маркетингом. Пер. с англ. – М.: ЗАО «Изд-во БИНОМ», 1998. – 560 С.

T_{Ish} – tegishli ilmiy-texnik mahsulotni ishlab chiqarishining tannarxi (smetali xarajatlar); F_{IshT} – ilmiy-texnik mahsulotning tannarxiga nisbatan foizda belgilanadigan foyda; IS_b – tomonlarda kelishilgan davr uchun mazkur ilmiy-texnika mahsulotini sotishdan tushadigan buyurtmachi (iste'molchi)ning iqtisodiy samara (pul oqimining ijobiy saldos) miqdoridan foizda hisoblanadigan foyda; IS_u – ilmiy-texnika mahsulotining undan buyurtmachi, iste'molchi tomonidan foydalanishdan kelgan iqtisodiy samara miqdoridagi narxning eng maqbul ulushi; IS_t – hisobot davri uchun mazkur ilmiy-texnik mahsulotni ishlab chiqarish va undan foydalanishdan kelayotgan iqtisodiy samara; IS_1 – ilgari ishlab chiqarish rentabellik darajasini saqlab turishni ta'minlab beruvchi buyurtmachilardagi iqtisodiy samaraning ulushi.

Quyida narxni belgilashni hisoblash usuliga misol keltiramiz. Agar, ishlab chiquvchining loyiha uchun xarajatlari 30 000 so'mni tashkil etgan bo'lsa (IS_b foydasi rejalashtirilmagan), ishlab chiquvchi uchun ushbu summadan oshmagan narx ma'qul tushadi. Buyurtmachining loyiha bo'yicha qutilayotgan iqtisodiy samarasi (foydasi) 150 000 so'm miqdorida aniqlangan. Hisobot davri 1 yil deb qabul qilingan. Hozirgi paytda buyurtmachining ishlab chiqarishdagi rentabelligi 0,20 (foйда 1 000 000 so'm) ni tashkil etadi. Loyihani amalga oshirish hamda foyda va sarmoya o'zgarishi sababli buyurtmachida rentabellik 0,209 (foйда 1 100 000 so'm)ga teng bo'lishi kutiladi. Bu buyurtmachini loyiha bo'yicha qanoatlantiradigan samaraning eng kam ma'qul tushgan summasi 100 000 so'm (1 100 000 – 1 000 000 so'm) ga teng ekanligini bildiradi. Uning ulushi tegishlicha $IS_1 = 0,67$, IS_t ($100\ 000 / 150\ 000 = 0,67$)ga teng bo'ladi. IS_t samarasida eng katta ma'qul tushgan narxning ulushi N_{Im} 0,33 ($IS_u = 1 - 0,67$). N_{Im} narxi esa, 50 000 so'm ($150\ 000 \times 0,33$)dan oshmasligi kerak. Ishlab chiquvchi va buyurtmachini qanoatlantiradigan asoslangan narx 30 000–50 000 so'm oralig'ining o'rta qismida joylashgan hamda yuqorida ko'rsatilgan omillarni hisobga olib ishlab chiquvchi va buyurtmachi o'rtasida tuzilayotgan shartnomalarda belgilanadi.

8.3.2. Shartnoma narxlari

Innovatsion mahsulotning narxi muayyan oldi-sotdi shartnomalari

asosida aniqlanadi va odatda, erkin hisoblanadi. Pudrat shartnomalar, ITTKI va texnologik ishlarni bajarish shartnomalari bo'yicha umumiy qoidalar qonun bilan belgilanadi¹³⁸. Ushbu qoidalarga shartnoma matnida zaruriy hollarda aks ettiradigan muayyan vaziyatlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion sohada shartnomalarni tuzish va amalga oshirishda rioya qilinadi.

Pudrat shartnomasi – buyurtmachi (to'lovchi, iste'molchi, oluvchi) va ijrochi (pudratchi, sotuvchi, yetkazib beruvchi) tomonlar o'rtasida o'zaro munosabatlarning predmeti, mazmuni, sharoitlari va muhim tartiblari qayd etilgan huquqiy hujjatdir. Shartnoma (bir zumdagi oldi-sotdi hujjatdan farqli ularoq) tomonlarning amaldagi kelishuvi va majburiyatlarining uzoq vaqt davomida yuridik jihatdan mustahkamlashdan iborat¹³⁹. Belgilash uslubi bo'yicha shartnoma narxi quyidagilarga bo'linadi: 1) qat'i narx; 2) xarajatlarni qoplaydigan; 3) eng katta to'lovlarni to'lashni kafolatlaydigan; 4) mahsulot birligining qayd etilgan narxi; 5) davriy to'lovlar (royalti); 6) murakkab narx.

Qat'i narxdagi shartnomasi iste'molchi xaridor bilan shartnomani bajarish uchun sarf qilingan haqiqiy xarajatlardan qat'i nazar ilgari belgilangan narx bo'yicha (shu jumladan kutilayotgan sotish hajmi yoki foydaga nisbatan foizda hisoblanadigan narx bo'yicha) pullik hisob-kitobni anglatadi. Buni ishlar rejasi puxta ishlab chiqilib, xarajatlarni me'yorlashtirish va ijrochida xavf-xatarni qoplash uchun resurslar, buyurtmachida esa – bir zumda to'lash uchun mablag'lar mavjud bo'lgan sharoitda amalga oshirish mumkin. Ayrim hollarda to'lov 2-3 bosqichda amalga oshiriladi. Qat'i shartnoma narxi buyurtmachi topshiriqni o'zgartirgan, ijrochi shartlarni buzgan hollarda tomonlarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin. Innovatsion loyihalarga qat'i narxlar amaliyotda keng qo'llaniladi. Ular ijrochi uchun eng katta foyda olish aniqlik, erkinlik va imkoniyatlarni beradi, ammo topshiriq ustidan yanada ko'p ishlashni talab etadi va ikkala tomon uchun zarar ko'rish xavfini olib keladi.

Xarajatlar qoplanadigan shartnoma ijrochiga mazkur shartnomani bajarish bo'yicha sarflangan xarajatlarni qoplashni anglatadi. Buning uchun shartnomada quyidagilar aniqlashtiriladi: to'lashga qaratilgan

¹³⁸ Власова М.А. Лицензионные контракты и определение стоимости лицензий при патентной форме охраны изобретений. – М.: ПЦ «Ориентир», 1992. – 284 С.

¹³⁹ Николаева С.А. Учетная политика предприятия. М.: ИНФРА-М, 1995. – 176 С.

loyiha bo'yicha to'g'ridan to'g'ri xarajatlarning turlari; egri xarajatlar (qoplanadigan mehnat haqidan) va qo'shimcha to'lovlar (foydadan); ustama haqi va ustama narxning turlari, shartlari va miqdorlari. Xarajatlarni qoplaydigan narxlar (shartnomalar) rejali tuzilmasi yetrali darajada ishlab chiqilmagan; ishlarni parallel ravishda olib borish; buyurtmachi ish holati, yetkazib beruvchi va subpudratchini tanlash ustidan qat'i nazorat qilgan hollarda xavf-xatarining yuqori bo'lmagan loyihalar va ularning bosqichlarida qo'llaniladi. Ijrochi uchun xarajatlar qoplanadigan shartnoma narxi zarar ko'rish xavf-xatarini kamaytiradi, biroq foydalilik darajasini chegaralab qo'yadi va buyurtmachi tomonidan operativ nazoratni ko'zda tutadi.

Eng katta to'lovlarni to'lashni kafolatlaydigan shartnomalar ijrochiga belgilangan chegaralardan oshmaydigan hajmlarda deyarli barcha xarajatlarni qoplashni ko'zda tutadi. Turlar bo'yicha xarajatlar darajasi ijrochi va buyurtmachi tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu narxlar kutilayotgan xarajatlarning noaniqlik darajasi yuqori bo'lgan va buyurtmachi tomonidan xarajatlarni nazorat qilgan sharoitda u yuqori narxga rozi bo'lgan holda qo'llaniladi. Eng yuqori kafolatlanadigan narxlar xarajatlardan tashqari kafolatlanadigan foydani ham o'z ichiga oladi.

Mahsulot birligining qayd etilgan narxdagi shartnomasi loyiha natijani ifodalovchi shartnomada aniqlangan mahsulot birligining narxini belgilashni nazarda tutadi. Mahsulot birligining qayd etilgan narxlari haqiqiy moddiy obyektlarni yaratish bilan yakunlanayotgan shartnomalarda qo'llaniladi.

Davriy to'lovlar (royalti) shartnomasi – bitimning (odatda litsenziyali) amal qilish muddati mobaynida bo'lib-bo'lib to'lash shakli. Iste'molchi sotuvchiga innovatsion mahsulot narxining quyidagi miqdorlardan qat'i foizda bir necha marta mablag'ni to'laydi:

- ishlab chiqarishda qarorlar foydalanayotgan mahsulotni sotish summasidan;
- ko'rsatilgan mahsulotni sotishdan olingan foydasidan;
- innovatsion qarorlarni qo'llanadigan jarayonlarida foydalangan xomashyo tannarxidan;
- mahsulot birligini (donalab) sotishdan qat'i summa (stavka)da.

Ajratmalarning boshqa turlari, shartlari va ko'rsatkichlari (masalan, nafaqat pul bilan, balki qimmatli qog'ozlar bilan hisob-kitob qilish),

ularning yangilikdan foydalanish muddati, bosqich va ko‘lamiga qarab o‘zgarishi ham mavjud. Bular ishlab chiqarishda innovatsion qarorlardan foydalanish natijasida olinadigan haqiqiy iqtisodiy samaradan ajratmalar hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko‘proq foydadan foizdagi to‘lovlar mos keladi. G‘arb mamlakatlarida ushbu ko‘rsatkich odatda foyda summasidan 25-35%ni tashkil etadi, ba’zida undan ham kam bo‘lish mumkin¹⁴⁰.

Murakkab narxdagi shartnoma tezkor to‘lov va royalti usullarini birlashtirishni nazarda tutadi. Birinchi to‘lov foydani qo‘shmasdan turib, mazkur ishlanma bo‘yicha xarajatlarni sotuvchiga qoplanadigan tomonlar oldindan og‘zaki kelishilgan holda amalga oshiriladi. Keyin royalti davriy to‘lovlar tizimi amal qiladi, uning summasi belgilangan davr uchun boshlang‘ich bilan birga innovatsion mahsulotning to‘liq narxini tashkil etadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, innovatsion qarorlarning narxini tanlash modeli oldi-sottining huquqiy mexanizmlari bilan shartlangan¹⁴¹.

Yirik innovatsion loyihalarga asoslangan narxlarni belgilash uslublaridan biri savdo va tanlovlar hisoblanadi. Savdo – investitsion, innovatsion loyihalar uchun buyurtmalarni joylashtirish va narxni tanlash shakli hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti uchun raqobatli savdo ko‘proq mos keladi^{142,143,144}. Savdoda innovatsion loyihalar ko‘rgazmaga chiqariladi. Har bir savdoda bir nechta xaridor va bitta yoki bir nechta sotuvchi ishtirok etadi. Savdoning har bir ishtirokchisi (sotuvchi, xaridor) yuqorida qayd etilgan maqsadlarni ko‘zlaydi.

Markazlashgan investitsion resurslarni joylashtirish bo‘yicha tanlovlar – ko‘rsatilgan resurslarni joylashtirish va loyiha uchun narxni belgilash shakli. Tanlovlar loyihalarning keng miqyosligi, yaratilayotgan obyektlarning tijorat jihati, moliyalashtirishni markazlashgan manbalarining pudratchi va boshqa investorlarning qarz va o‘z mablag‘lari bilan uyg‘unlashuvi; pudratchining yaratilayotgan

¹⁴⁰ Корчагин А.Д., Галаянский В.Б. и др. Как защитить интеллектуальную собственность в России. Правовое и экономическое регулирование: Справоч. пособие / Под ред. А. Д. Корчагина. – М.: ИНФРА-М, 1995. – 336 С.

¹⁴¹ Контроллинг как инструмент управления предприятием / Е.А. Ананькина, СВ. Данилочкина и др./ Под ред. Н.Г. Данилочкиной. -М.: Аудит, ЮНИТИ, 1998. – 279 С.

¹⁴² Липсиц И.В. Коммерческое ценообразование: Учебник. – М.: БЕК, 1997. – 368 С.

¹⁴³ Управление проектами / Под ред. В.Д. Шапиро. – СПб.: ДваТрИ, 1996. – 610 С.

¹⁴⁴ Хорнгрен Ч.Т., Фостер Дж. Бухгалтерский учет: управленческий аспект. Пер. с англ./ Под ред. Я.В. Соколова. – М.: Финансы и статистика, 1995. – 410 С.

obyektga nisbatan mulkchilikka ishtirok etish imkoniyatini ko'zda tutadi. Ushbu innovatsion loyihalarning narxi tarkibi, tartibi, shakllanish sharti va qo'llashning oqibatlari bo'yicha eng murakkab hisoblanadi. Ushbu tanlovlar davlat tomonidan tartibga solinadi va olib boriladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Xarajatlarni boshqarishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Innovatsion xarajatlarning tarkibi va tuzilmasi nimalardan iborat?
3. Xarajatlar miqdorini belgilovchi omillarni aytib bering.
4. Xarajatlarni boshqarish mexanizmlari nimalardan iborat?
5. Innovatsion korxonalar rentabelligi va innovatsion loyihaning rentabelligi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib bering.
6. Xarajatlar qanday rejalashtiriladi?
7. Xarajatlarni nazorat qilish tizimi qanday bo'lishi lozim?
8. Innovatsion mahsulotlarga narx belgilash tamoyillarini aytib bering.

9-BOB. INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH

9.1. MOLIYALASHTIRISH TIZIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI

9.1.1. Moliyalashtirish tizimining maqsadi

Har bir xo‘jalik subyekti, shu jumladan, IKning moliya mablag‘lari ushbu IKni ilmiy-texnik mahsuloti, tashqi sheriklar ishlari, maxsus uskuna, material va butlovchi qismlarni yetkazib berish, ta‘sischi, mehnat jamoasi va davlat organlari bilan hisob-kitob bo‘yicha boshqa xo‘jalik subyekt va banklar bilan pullik munosabatlarni qamrab oladi.

Bozor iqtisodiyotida moliyalashtirish tizimi ikkita asosiy funksiyalarni – taqsimlovchi va nazorat funksiyasini bajaradi. Birinchi funksiyaning mohiyati har bir xo‘jalik yurituvchi subyektni unga zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashdan iborat. Moliyalashtirish subyekti sifatida mustaqil korxonalar, IK, integratsiyalashgan moliya-sanoat tuzilmalari, hududiy boshqaruv organlari, shuningdek, shaxslar namoyon bo‘ladi. Ular u yoki bu darajada qayta ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi va yakuniy jamoa mahsulotini shakllantiradi.

Moliya yordamida amalga oshiriladigan taqsimlovchi jarayon murakkabligi va keng qirraligi bilan tavsiflanadi va davlat, hududiy va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlaydigan amaldagi fuqarolik qonunchiligi, soliq tizimi, bank va qimmatli qog‘ozlarga oid qonunchilik, boshqa me‘yoriy hujjatlar bilan bevosita bog‘liq.

Moliyaning nazorat funksiyasi pul mablag‘larning taqsimlanishida shakllanayotgan nisbatlari to‘g‘risida xabar berishdan iborat. Muayyan xo‘jalik subyekti tomonidan ulardan qanchalik samarali foydalanib kelayotganligi muhim hisoblanadi. Xorijiy va respublikamizdagi IKning amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy resurslarni o‘z vaqtida va maqsadli taqsimoti har bir xo‘jalik yuritishning yakuniy natijasiga, shu jumladan innovatsion sohadagi tadbirkorlarlikning samarasiga ta‘sir etadi.

9.1.2. Moliyalashtirishni tashkil qilish tamoyillari

Innovatsiyalarni moliyalashtirish tizimi quyidagi tamoyillarda tuzilishi kerak:

– tizimning aniq maqsadli yo‘nalishi – zamonaviy ilmiy-texnik yutuqlarni tezkor va samarali tatbiq etish masalasining yechimini topish bilan bog‘liqligi;

- foydalanilayotgan uslub va mexanizmlarning mantiqiyligi, asoslanganligi va huquqiy jihatdan himoyalanganligi;
- moliyalashtirish manbalarining ko‘pligi;
- tizimning kengligi va majmuaviyligi, ya’ni ulardan amaliyotda foydalanishning texnik va texnologik yangiliklar va yo‘nalishlarning maksimal tarzda keng doirasini qamrab olish;
- eng yuqori samaradorlikni ta’minlash maqsadida jo‘shqin tarzda o‘zgarib turuvchi tashqi muhit sharoitlariga butun moliyalashtirish tizimi hamda uning alohida elementlarini doimiy to‘g‘rilashni nazarda tutuvchi moslashuvchanlik va egiluvchanlik.

Moliyalashtirishning unumli tizimi har doim moliyaviy resurslardan foydalanish hajmi va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Moliyaviy unumning oshishi – eng muhim umumlashtiruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, uning asosida nafaqat olib borilayotgan moliyaviy siyosatning amaliyligi, balki aniq amaliy ishlarning yakuniy natijalari baholanadi.

9.1.3. Moliyalashtirish tizimining asosiy vazifalari mohiyati

Mamlakatimiz iqtisodiyotida o‘rin olgan ko‘p tarmoqli moliyaviy o‘zaro aloqadorlik tizimi IKning moliyasi bosh va hal qiluvchi o‘rinni egallaydi, chunki aksariyat moddiy va nomoddiy ne‘matlar (ishlab chiqarish-texnika yo‘sindagi tovarlar, iste‘mol tovarlari, yangi ilmiy-texnik axborotlar va boshqa intellektual mahsulotlar) yaratilayotgan jamoa ishlab chiqarishning asosiy bo‘g‘iniga xizmat ko‘rsatadi. Tartibga soluvchi bozor munosabatlari sharoitida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi o‘ziga xos xususiyatga ega va davlatning moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tizim quyidagi eng muhim vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

1. Mamlakat iqtisodiyotining barcha bo‘g‘inlarida texnik yangiliklarni tezkor va samarali tatbiq etish, uni tarkibiy-texnologik qayta qurish bilan ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.
2. Istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarida strategik ilmiy-texnik salohiyatni saqlash va rivojlantirish.
3. Fan va texnikaning kadrlar salohiyatini saqlash.

IK va birlashmalar bilan o‘zaro munosabatlarni yurituvchi ushbu tizimning elementlariga quyidagilar kiradi:

- pul mablag‘lari kelib tushish manbalarining yig‘indisi;
- pul tushumlarini yig‘ib olish mexanizmi va ularni investitsion loyiha va maqsadli dasturlarga qo‘yish;

– investitsiyalarni, shu jumladan, o‘z va qarz sarmoyalarining qaytarish tizimini nazorat qilish va ulardan foydalanish samaradorligini baholash.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, moliyaviy nazorat tizimi quyidagilarni ta’minlashga xizmat qiladi:

– moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni ularni bir yoki bir nechta kanallar bo‘yicha olish imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanati;

– korxonaning davlat va mahalliy budjet oldida moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish;

– IKnning moddiy ne‘mat va pul resurslarini sarflash unumdorligi;

– buyurtmachi, tashqi sheriklar va yetkazib beruvchilar bilan iqtisodiy munosabatlarning amaliyotdan kelib chiqadigan boshqa masalalarini yechish.

9.2. Moliyalashtirish shakllari

Ilmiy-texnik rivojlanishning moliyalashtirish tizimi o‘z mohiyatiga ko‘ra murakkab va doimo rivojlanuvchi mexanizmi hisoblanadi. 1991-yilgacha ushbu tizim asosan tegishli qat’i me’yorlar bo‘yicha boshqaruv tuzilmalarida shakllangan budjetdan ajratilgan pul hamda maqsadli yo‘nalishlarning markazlashtirilmagan manbalariga tayangan. 1990–1991-yillarda O‘zbekistonda ITT moliyalashtirish bilan bog‘liq isloh qilish ishlari boshlandi. Xususan, iqtisodiy rag‘batlantiruvchi fondlar bo‘yicha tartibga solinadigan foyda taqsimotiga barham berildi, ko‘plab markazlashgan fondlar tarmog‘i yo‘qotildi, mehnat haqi ustidan nazorat qilish tizimi sezilarli darajada soddalashtirildi, narxlar erkinlashtirildi.

Hozirgi kunda innovatsion faoliyatni amalga oshirish yo‘nalishida davlat budjetidan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar uchun mablag‘lar ajratish nazarda tutiladi.

Innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun foydalanilayotgan mablag‘larning asosiy manbalari quyidagilar hisoblanadi:

– milliy va hududiy budjetdan ajratilgan pullar;

– vazirlik, milliy va hududiy boshqaruv organlari tomonidan shakllanayotgan ITTKI moliyalashtirishning budjetidan tashqari maxsus jamg‘armalarning mablag‘lari;


– korxonalarning o‘z mablag‘lari;

– turli tijorat moliyaviy tuzilmalar (investitsion kompaniyalar, tijorat banklar, sug‘urta jamiyatlari, moliya sanoat guruhlar (MSG) va h.k.)ning pul mablag‘lari;

– hukumat tomonidan maxsus vakolat berilgan investitsion banklarning kredit resurslari;

- IKning mudofaa majmuasi uchun konversion kreditlar;
- yirik xorijiy firma va kompaniyalarning sarmoyalari;
- milliy va xorijiy ilmiy jamg'armalarning mablag'lari;
- jismoniy shaxslarning jamg'armalari.

IKning moliyaviy resurslarini ularning turi va shakllanish manbasiga ko'ra guruhlash 9.1-rasmda keltirilgan. Tabiiyki, innovatsion loyihani moliyalashtirish tartibi har bir holatda o'ziga xos xususiyatga ega va tatbiq etilayotgan Innovatsiyalarning jihatlari bilan bevosita bog'liq.



9.1-rasm. Innovatsion korxonaning moliyaviy resurslarini guruhlanishi

Ta'kidlash o'rinliki, xo'jalik subyektining o'z mablag'laridan Innovatsiyalarga investitsiyalar yo'naltirish maqsadida foydalanishi, yuqori sifat va raqobatbardoshlik kabi bir qator afzalliklarni taqdim etadi.

O'zbekistonning innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari o'zaro nisbatini maqbullashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, innovatsion faoliyatning moliyaviy barqarorligiga erishish uchun unga yo'naltiriladigan investitsiyalar manbalarini diversifikatsiya qilish birlamchi vazifalardan biri hisoblanadi. Diversifikatsion siyosatning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar nazarda tutiladi:

- davlat budjetidan fundamental loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish va ularning amaliy-innovatsion loyihalar tarzida davom ettirilishini rag'batlantirish;

- fundamental tadqiqot loyihalarini davlat budjetidan moliyalashtirish mezonlari tarkibidan loyiha natijalarini tijratlashtirish imkoniyati mavjudligi qismini chiqarib tashlash;

- innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda tijorat banklari kreditlari hisobidan emas, balki investitsion faoliyat orqali amalga oshirish amaliyotini rivojlantirish;

- innovatsion-investitsion faoliyatni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik amaliyotini joriy etish;

- venchur fondlarining me'yoriy-huquqiy asoslarini shakllantirish;

- Innovatsiyalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larga moliyaviy imtiyozlar berish;

- xo'jalik yurutuvchi subyektlarning investitsion loyihalarni amalga oshirishda ilmiy tadqiqotlarga yo'naltiriladigan mablag'larni nazarda tutishni belgilash;

- Innovatsiyalarni yangiliklardan ajratib turuvchi mezonlarning me'yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish.

Natijada, budjet mablag'lariga bo'lgan talab kamayadi, innovatsion mahsulotlarda yashirin raqobat ustunligi mavjud bo'lishiga erishiladi.

Innovatsiyalarni moliyalashtirishning tashqi manbalarini makroiqtisodiy darajada ikki guruhga bo'lish mumkin: to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va qarz munosabatlarini keltirib chiqaruvchi ssuda kapitali. O'zbekistonda ham loyihalarga investitsiyalarni jalb qilishda mazkur ikki manba alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan fundamental va amaliy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, mahalliy aholi vakillarini bunday tadqiqotlarga jalb etish bo‘yicha qo‘shimcha rag‘batlantirish choralarini amalga oshirish hududning har tomonlama rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Ta’kidlash lozimki, ba’zi loyihalar respublika ahamiyatiga ega muammoni hal etishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Bu holat ko‘proq fundamental va amaliy loyihalarda ko‘zga tashlanadi.

Shu o‘rinda, innovatsion loyihalarni davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishning budjetlardan tashqari va xususiy mablag‘lar orqali amalga oshirilishi boror iqtisodiyoti sharoitida ideal holat hisoblanadi. Chunki xususiy mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar maqsadli yo‘naltirilgan va shuning uchun ham ancha samarali bo‘ladi. Lekin, O‘zbekistonda Innovatsiyalarni moliyalashtirishda xususiy sektorning ulushi 30% dan oshmaydi. Bu ko‘rsatkich jahon tajribasida kuzatilayotgan tendensiyalarga teskaridir: katta yigirmalik mamlakatlarda Innovatsiyalarning 70% dan ortig‘ini xususiy sektorning o‘zi investitsiyalar bilan ta’minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, Innovatsiyalarni moliyalashtirishda xususiy sektor uchun birinchi navbatda davlatning ko‘magi kerak bo‘ladi. Bu turli ko‘rinishlarda: subsidiyalar, soliq imtiyozlari, maxsus fondlar tashkil etish va davlat-xususiy sektor sherikligi asosida amalga oshirilishi mumkin. Ular ichida eng samarali usullardan biri – venchur fondlaridan foydalanish hisoblanadi. O‘zbekistonda 2020-yilda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan venchur moliyalashtirishga tavsiya etilgan birlamchi loyihalar 13 tani tashkil etib, ularning umumiy qiymati 267,8 mlrd so‘mga yetadi. Shundan 8 tasi innovatsion, 1 tasi tajriba-konstruktorlik va qolgan 4 tasi startap loyihalaridir. Bunda bir loyihaga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha moliyalashtirish qiymati 20 mlrd so‘mdan ortadi. Bu kabi loyihalarni moliyalashtirish uchun 2019-yilda 4 ta investitsiya kompaniyasi (“O‘zbek-Amirliklar”, “Venchur Kapital Invest”, “Vodiy Investments” va “IT PARK INVESTMENTS”), 2 ta venchur fondi (“Astron” va “IT-park venture fund”) va 1 ta boshqaruv kompaniyasi (“Vodiy Investments Management”) tashkil etildi. Ko‘rsatib o‘tilganidek, bir loyihaga to‘g‘ri keluvchi moliyalashtirish hajmi xususiy sektorda

davlat sektoridagiga qaraganda 40 baravargacha ko‘proqdir. Bu esa, barcha fondlarining o‘zlari uchun nihoyatda riskli hisoblanadi.

Fundamental loyihalar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, nazariyadagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qilib, uning asosida chuqurlashtirilgan fan tadqiqotlari yotadi. O‘zbekistonda mazkur turdagi loyihalarning moliyalashtirilishi va amalga oshirilishi quyidagilardan iborat:

fundamental va amaliy loyihalarni budjetdan moliyalashtirish hajmi ortib bormoqda. Jumladan, bir loyihaga to‘g‘ri keluvchi moliyalashtirish hajmi o‘rtacha ikki barobarga oshgan;

loyihalarning soni va moliyalashtirish hajmi teskari proporsional tarzda rivojlanib bormoqda;

innovatsion loyihalar soni keskin kamayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda.

9.1-jadval

O‘zbekistonda amalga oshirilgan loyihalar soni va moliyalashtirish hajmi¹⁴⁵

Loyiha turi	Loyihalar soni (dona)				Moliyalashtirish soni (mln so‘m)			
	2018	2019	2020	O‘zgarish (%)	2018	2019	2020	O‘zgarish (%)
Fundamental loyihalar	376	372	334	-11%	39257.3	63295.1	74394.5	190%
Amaliy loyihalar	1092	982	842	-23%	122225.3	211882.3	282458.6	231%
Innovatsion loyihalar	291	160	57	-80%	32915.9	42338.1	28040.9	-15%

9.1-jadvalda fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarning 2019–2020-yillardagi soni va ularni moliyalashtirish hajmi keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, barcha turdagi loyihalarda o‘rganilgan 3 yil davomida son jihatdan faqat pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Fundamental loyihalar 11% ga, amaliy loyihalar 23% ga, innovatsion loyihalar esa 80% ga qisqargan.

¹⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi ma’lumotlari.


Moliyalashtirish hajmi bo'yicha amaliy va fundamental loyihalarda umumiy o'sish, innovatsion loyihalarda pasayish kuzatilgan. Shuningdek, moliyalashtirish hajmi yillar davomida aniq tendensiya bo'yicha o'zgarayotganligini ko'rish mumkin.

Innovatsion loyihalarning soni 2019-yildagi 160 tadan 2020-yilda 57 tagacha kamayganligi loyihalarga qo'yilayotgan talablarning keskinlashganligi va loyihani tanlab olish bosqichlarining yetarlicha oshganligi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, bir loyihaga to'g'ri keladigan moliyalashtirish hajmi ko'payib, 492 mln so'mga yetganligini qayd etish mumkin.

Bizningcha, ilmiy tadqiqotlarni moliyashtirishda ularning natijalarini tijoratlashirish imkoniyatiga tamoyil sifatida qarash mamlakat miqyosida ilmiy faoliyatning to'laqonli amalga oshirilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Xususan, ijtimoiy va iqtisodiy fanlar doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan ilmiy g'oya va takliflar to'g'ridan to'g'ri daromad keltirmasligi, ammo ular amaliyotga tatbiq etilganda, tegishli qonunchilik o'zgartirishlari orqali O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bartaraf etilishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, tijoratlashirish imkonini belgilab beruvchi tamoyilni quyidagicha tartibda tizimlashtirish maqsadga muvofiq:

- ijtimoiy va aniq fanlar kesimida ilmiy natijalarga nisbatan tijoratlashirishning aniq mezonlarini shakllantirish;
- ilmiy tadqiqot loyihalari-fundamental, amaliy va innovatsion kategoriyalar doirasida tijoratlashirish qoidalarini tabaqalashtirish.

Bundan tashqari, ilmiy tadqiqot loyihalarini davlat tomonidan moliyalashtirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion holatlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Buning asosiy sababi loyiha mualliflari va davlat nomidan loyihaning samaradorligiga baho beruvchi va shu asosda mablag'larga ajratishga mas'ul shaxslar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi bo'lishi mumkin. Ushbu holatning oldini olishda loyihachi va baholovchi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri munosabat paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga, loyihalar sifati va yashovchanligini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ayrim tadqiqotchilar tomonidan loyihani moliyalashtirish jarayonining tavsiyaviy modeli ishlab chiqilgan (9.3-rasm).



9.3-rasm. Tadqiqot loyihalarini davlat tomonidan moliyalashtirish jarayoni¹⁴⁶

Modelga ko‘ra, tadqiqot muallifi (yoki mualliflari) loyihani ko‘rib chiqish uchun mahalliy hokimiyat organiga topshiradilar. Hokimiyatning mas’ul xodimlari esa loyihani birlamchi ko‘zdan kechirgach, uni onlayn platforma orqali O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga yuboradi. Vazirlik esa, loyihani bir vaqtning o‘zida milliy va xalqaro ekspertlar kengashlariga texnik va ilmiy ekspertiza uchun taqdim etadi. Kengashlarning har ikkisidan ijobiy xulosa olingan taqdirda, vazirlik uni mahalliy hokimiyatga yuborib, loyihani moliyalashtirish mumkinligi to‘g‘risida o‘z xulosasini beradi. Shundan so‘ng, hokimning qaroriga muvofiq, mahalliy budgetdan mablag‘lar transhlar ko‘rinishida ajratila boshlaydi. Ta’kidlash joizki, ushbu jarayonlar yagona onlayn platforma doirasida to‘liq shaffof shaklda amalga oshadi. Loyihachi ham, mahalliy hokimiyat organi ham va hatto aholi ham loyihaning taqdiri to‘g‘risida to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

¹⁴⁶ Kadirov M.U. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda innovatsion-investitsion faoliyatni takomillashtirish. Iqt.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss-ya avtoreferati. –T.: 2021.-19 b.

Innovatsion investitsion faoliyatni umumdavlat miqyosida rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlarining ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ular hududda qanday ishlanmalarga ehtiyoj yuqori ekanligi haqida eng to'g'ri ma'lumotga egalar. Shuningdek, ularning boshqaruv tuzilmasi ham so'nggi yillarda innovatsion rivojlanish maqsadlariga to'la moslashtirildi: Innovatsiyalarga mas'ul hokim o'rinbosari lavozimi joriy qilindi, mahalliy hokimiyat organlari huzurida innovatsion ishlanmalar va texnologiyalar transferi markazlari tashkil etildi va boshqalar. Shularni inobatga olgan holda, Innovatsiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirishda, davlat nomidan aynan mahalliy hokimliklar ish yuritishi maqsadga muvofiq. Bu orqali ham tadqiqotchilar uchun, ham sohadagi davlat mutasaddilari uchun qulay ish muhiti yaratiladi.

Aksiyadorlik korxonalarini ham o'z tabiatiga ko'ra yirik moliyaviy resurslarni jamg'arish uchun eng yaxshi mavjud imkoniyatlarga ega, chunki ular o'z aksiyalarini keng doiradagi investorlar (ham yuridik, ham jismoniy shaxslar) o'rtasida taqsimlash imkoniyatiga ega. Aksiyalarning yirik emissiyani amalga oshirish mukammal kasbiy bilimlarni talab qiluvchi murakkab va mas'uliyatli ishlar majmuasi hisoblanadi. Tabiiyki, qimmatli qog'ozlarni qo'shimcha joylashtirish bilan bog'liq barcha holat va vaziyatlar puxta o'ylab chiqilishi lozim. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aksiyani qo'shimcha emissiyani amalga oshirishni shartlovchi omillar qatoriga ko'pincha quyidagilar kiradi:


- istiqbolli innovatsion loyihalarni moliyalashtirish zarurati;
- IKni moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va uning tarkibiy bo'linmalarining ishlashi uchun maqbul sharoitlarni yaratish zarurati;
- IKning ilmiy va konstruktorlik bo'linmalari tomonidan bajarilayotgan istiqbolli qidiruv tadqiqotlarini moliyalashtirish zarurati;
- IKning ham asosiy, ham qo'shimcha faoliyat turlarida foydalaniladigan aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadga muvofiqligi;
- IKning moliyaviy barqarorligini oshirish va bank kreditlarini olish imkoniyati;
- buyurtmachi tomonidan IK ishonchliligi va barqarorligiga nisbatan talablar bilan shartlangan qo'shimcha buyurtmalarni olish imkoniyati.

Shuningdek, aksiyalarni yangidan chiqarish uchun boshqa sabablar ham bo'lishi mumkin. Ammo, yangi chiqarilgan aksiyalarni joylashtirish paytida olingan mablag'lardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi

va ular aksiyadorlik jamiyatiga emissiyaning yakunida sarmoya unumdorligi va bitta aksiya hisobiga dividend miqdorini oshirishga imkon berish kerak. Aksiyalar emissiyasini tashkil etish va amalga oshirish, uning asosiy parametrlari (emissiyaning umumiy miqdori, aksiyaning turi, nominal qiymati va amalga oshirish narxi, aksiyalarni tarqatish shakli)ni aniqlash – aksiyadorlik korxonada rahbariyati uchun murakkab va ma’suliyatli vazifa hisoblanadi. Emissiyaning eng muhim parametrlaridan biri uning hajmidir. Emissiyaning nominal summasini aniqlash uchun umumiy holda uchta asosiy mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojning miqdori;
- emissiyaning yakunida sarmoyaning unumdorlik darajasi va bir aksiya hisobiga dividendlar miqdori;
- emissiya paytida investorlar tomonidan yig‘ish va firmaning o‘z manbalar hisobidan (qo‘shimcha sarmoya, taqsimlanmagan foyda va h.k.) jamg‘arish mumkin bo‘lgan mablag‘lar miqdori.

Amaliyotda aksiya emissiyasi yordamida bir yo‘la bir nechta masalalarni yechishga urinishlar mavjud bo‘lganligi tufayli har bir emissiya oldida alohida ekspert yo‘li bilan mezonlar «ulushi» aniqlanishi lozim. Aksiya emissiyasining miqdorini aniqlash umumiy shakli 9.4-rasmda keltirilgan.



9.4-rasm. Aksiya emissiyasining miqdorini aniqlashning umumiy shakli

Bo‘lajak investorlarning oldin ma’lum bo‘lishiga qarab aksiyani

tarqatish shakli aniqlanadi. Bulardan tashqari amaldagi qonunchilik bilan belgilangan bir qator cheklovlarni ham hisobga olish lozim.

Emissiyani amalga oshirish bo'yicha keltirilgan umumiy tartib universal hisoblanadi va korxonaning muayyan xususiyatlariga bog'liq. Shu bilan bir vaqtda IK aksiya emissiyasini amalga oshirishda bir qator o'ziga xos holatlarni e'tiborga olish lozim.

Birinchi, bu mavjud investorlar doirasiga taalluqli. Aksiyaning nazorat paketini saqlab turishga nisbatan puxta yondashish kerak, chunki nazorat qo'ldan chiqarilgan paytda korxonaning yangi haqiqiy egalari yuqori foyda olish uchun korxonaning ixtisosligini o'zgartirishi mumkin. Demak, oddiy aksiyalarni chiqarish hajmi va uning mavjud xaridorlar doirasi hamda shu bilan bog'liq aksiyaning nominalini aniqlash muammosi puxta o'ylab amalga oshirilishi lozim.

IKda aksiya emissiyasining ikkinchi o'ziga xos xususiyati, odatda, investitsiyalar zarur bo'lgan muayyan innovatsion loyihalarning mavjudligi hisoblanadi. Bu vaziyatda loyihaning ilmiy-texnik darajasi, erishilayotgan ishlarning muddati va hajmi, uning raqobatbardoshligi bilan bog'liq umumiy masalalarni oldindan yechish va eng muhimi – loyihaning biznes-rejasini tuzish maqsadga muvofiqdir. Har bir holatda mazkur loyihalarning mazmun-mohiyatini aniq va chuqur bilish hamda zaruriy hollarda uning mazmunini har bir mavjud investorga yoritib bera olish lozim.

Hozirgi kunda IK ishni moliyaviy ta'minotda tijorat kreditlari muhim o'rin egallagan. Ushbu iqtisodiy munosabatlar doimo rivojlanib bormoqda va uning yangi, noan'anaviy shakllari keng qo'llanilmoqda.

Uzoq muddatli kreditlashni tashkil etish, uchta asos soluvchi tamoyillarga tayanadi: ta'minlanganligi, muddatiyligi, to'langanligi. IK faoliyatini kreditlashning hozirgi tizimining muhim belgisi uning shartnoma asosi hisoblanadi. Kreditlash bo'yicha paydo bo'ladigan barcha masalalar bevosita bank va korxonalar-qarz oluvchi (kreditlash subyekti) o'rtasida hal qilinadi. Uzoq muddatli innovatsion kreditni berish to'g'risidagi masalani hal qilishda bankdan kreditni oluvchi IKning iqtisodiy o'sish istiqboli, mahsulotni sotish imkoniyatlari va kutilayotgan daromadini tahlil qiladi. Ushbu ma'lumot biznes-rejada ko'rsatilgan bo'lib, u har bir innovatsion loyiha bo'yicha tayyorlanadi. Odatda, tijorat bank faqatgina haqiqatga yaqin bo'lgan qoplash muddatlari ko'rsatilgan, kreditni qaytarib berish manbalari mavjud

bo'lgan, moliyaviy qo'yilmalarini o'rtacha tarmoq muddatlaridan ko'ra eng qisqa muddat ichida qoplashni ta'minlaydigan chora-tadbirlarni kreditlaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bank krediti bank moliyalashtirishdan farqli o'laroq investitsion choralarning samaradorligini oshirishga imkon beradi va bir qator holatlarda korporativ aksiyalarni chiqarish yoki obligatsiya qarzlarni joylashtirishdan ko'ra uzoq muddatlarda pul mablag'larni jamg'arishning eng maqbul va qulay usullaridan biri bo'lishi mumkin.

Moliyaviy operatsiyalarning lizing turi ham mavjud bo'lib, ayniqsa qimmat turadigan stanok, asbob-uskuna, noyob nazorat-o'lchovli texnika, kompyuter, energetik mexanizmlar, transport vositalar va boshqalar xarid qilishni talab qilinadigan yirik texnik innovatsiyalarni qisqa muddatda sanoat usuli bilan o'zlashtirish masalasi yechilayotgan sohalarda qo'llanilishi mumkin. Aynan shu yerda murakkab mahsulotni ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi uzoq muddatli ijara va lizing asosida tubdan yangi tur aloqalari rivojlangan.

Lizing xizmatlarning zamonaviy bozori – eng jo'shqin va doim rivojlanayotgan xizmatlardan biri. AQSHda, masalan, lizing ulushiga mashina va uskunalar uchun kiritilayotgan investitsiyalarning umumiy hajmidan taxminan 25–30% to'g'ri keladi. Zamonaviy iqtisodiyot amaliyotida lizingga «maxsus» shartnoma – lizing shartnomasini amalga oshirish maqsadida investitsion faoliyat jarayonida vujudga kelayotgan iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning yig'indisi»ga aytiladi. Belgilangan shartnomada lizing beruvchi lizing oluvchi aniqlangan sotuvchidan va belgilangan mulkni sotib olish va ushbu mulkni lizing oluvchiga to'lov evaziga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanishga topshirish majburiyatini oladi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan lizing operatsiyasi uskuna va boshqa asosiy ishlab chiqarish fondlarni sotib olish uchun uzoq muddatli kreditlashga o'xshash. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, moliyaviy lizingda ijara muddati, odatda, uskunaning xizmat ko'rsatish muddatiga ancha yaqin. Lizingining asosiy afzalligi shundaki, tadbirkor (IK) rentabelli loyihaning mavjud paytida uskunani olish imkoniyatini qo'lga kiritish va bir zumda yirik xarajatlarsiz yangi

ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishi mumkin, bu ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun dolzarbdir. Lizing shartnomaning muddati tugashi va ijarachi tomonidan mol-mulkning qiymatini va belgilangan foizlarni to‘liq to‘lab berishi bilan ushbu mol-mulk uning mulki hisoblanadi yoki agar shartnomada belgilangan bo‘lsa, lizing beruvchiga qaytariladi.

Zamonaviy lizing firmalari ijarachiga unga zarur bo‘lgan uskunani yetkazib beruvchilarni tanlash, buyurtmani joylashtirish va bitim obyektini olish huquqini beradi. Yetkazib berilgan uskunaga texnik xizmat ko‘rsatish va uni ta‘mirlash ishlarini korxonasi ishlab chiqaruvchi yoki ijarachi (lizing oluvchi)ning o‘zi amalga oshiradi. Lizing shartnomalarning aniq muddatlarni belgilashning asosiy omillari quyidagilar hisoblanadi:

- uskunaning xizmat ko‘rsatish muddati;
- amortizatsion ajratmalarning me‘yorlari hamda ularning indeksatsiya tartiblari;
- yanada yuqori unumli texnika paydo bo‘lishining kutilayotgan muddatlari;
- ssuda kapitallar bozorining konyunkturasi va uning rivojlanish tendensiyalari.

9.3. MOLIYAVIY HOLAT VA MABLAG‘LARGA BO‘LGAN TALABNI BAHOLASH

9.3.1. Moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan talabni hisoblash

Innovatsion loyihalarni amalga oshirishning muayyan tashkiliy shakllaridan qat‘i nazar moliyalashtirish miqdorini aniqlashning negizi har bir loyihaning alohida va yillarga bo‘lingan holda mustaqil bosqichlar kesimida ishlab chiqiladigan smeta hisoblanadi. Bunda moliyalashtirishning vazifasi statik va dinamik kesimga ega. Birinchi holatda loyihani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larining umumiy hajmi to‘g‘risidagi masala yechiladi. Ikkinchisida – barcha zarur to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish uchun ushbu resurslar qaysi aniq muddatda olinishi lozim to‘g‘risidagi qaror qabul qilinadi. Birinchi savolning javobi moliyaviy tushumlar rejasining kengaytirilgan shaklini tuzgandan keyin amalga oshirish mumkin (9.2-jadval).

20 _yil uchun IK foydasining kutilayotgan hajmi, ming so‘m

№	Mavzu va bosqichning shifri	Shart-noma raqami	Bajarish muddati	Narx	Moliyalashtirish hajmi	Moliyaviy kiritimlarning rejasi			Olindi
						jami	O‘z ishlari	Tashqi sheriklar ishlari	
A. Davlat budjeti mablag‘lari									
B. Buyurtmachilarning mablag‘lari									
V. Boshqa manbalar									
Hammasi:									

Ushbu mashinali shakl moliyalashtirish manbalari kesimida to‘ldiriladi va ko‘zlangan loyihani amalga oshirish uchun pul mablag‘larning umumiy miqdorini aniqlashga imkoniyat yaratib beradi. Ushbu ma’lumotni to‘ldiruvchi foydani hisoblash 9.3-jadvalda ko‘rsatilgan shakl bo‘yicha amalga oshirish mumkin.

20 _yil uchun IKni moliyalashtirish rejasi, ming so‘m

№	Mavzu va bosqichning shifri	Shart-noma raqami	Bajarish muddati	Narx	Ishning hajmi				Balansli foyda					
					jami	Shu jumladan choraklar bo‘yicha				jami	Shu jumladan choraklar bo‘yicha			
						I	II	III	IV		I	II	III	IV
A. Davlat budjeti mablag‘lari														
B. Buyurtmachilarning mablag‘lari														
D. Boshqa manbalar														
Hammasi:														

Moliyalashtirishni o‘z vaqtida amalga oshirishning o‘lchovi pul mablag‘lari balansi deb nomlanuvchi maxsus shakl bo‘yicha ifodalanadi (9.4-jadval). IK sharoitida moliyaviy ishlarni tashkil etishning muayyan usullari IKning faoliyat ko‘lami, ishchilarning tajribasi, an‘analariga bog‘liq, ya’ni ular har bir holatda o‘ziga xos jihatlarga ega.

9.4-jadval

20 _yil uchun IKning pul mablag‘lari balansi, ming so‘m

Oylar	Kirimlarning hajmi			To‘lovlarning hajmi			Mablag‘lar-ning sof kirimi (chiqimi)	Oy oxiri-dagi qoldiq	
	jami	shu jumladan manbalar bo‘yicha		Jami	shu jumladan:				
						Ish haqi			Tashqi sheriklar ishlari
Yanvar									
Fevral									
...									
Noyabr									
Dekabr									
Hammasi:									

Zamonaviy IKning ishlarni moliyaviy rejalashtirishning umumlashtiruvchi hujjat IKning moliyaviy daromad va xarajatlar balansini o‘z ichiga olgan *moliyaviy reja* hisoblanadi. Odatda ushbu reja yillar kesimida tuziladi, yuqori inflyatsiya sharoitida chorak bo‘yicha tuzish maqsadga muvofiqdir. IKning moliyaviy rejasi to‘rtta mustaqil bo‘limdan tarkib topgan.

Birinchi bo‘limda daromad va mablag‘larning kirimlari ishtirok etadi. Bu yerda IKning barcha resurslari (bank va davlat tomonidan berilgan – ya’ni budjet va budjetdan tashqari fondlardan olingan mablag‘lardan tashqari) jalb qilinadi. Ushbu bo‘limning ko‘rsatkichlar tarkibiga ITTKI bajarishdan, tajriba namunalarni va seriyali mahsulotlarni sotishdan hamda IKning investitsion faoliyatidan kelgan foyda, qimmatli qog‘ozlardan tushgan foiz va dividendlar,

amortizatsiya ajratmalari, keraksiz uskuna va chiqarilgan mol-mulkni sotishdan tushgan tushum, harakatsiz passivlarning o'sishi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Mazkur rejaning «Xarajatlar va mablag'lar ajratmalari» ikkinchi bo'limida moliyaviy resurslardan foydalanish yo'nalishlari ko'rsatiladi. Ya'ni, ishlab chiqarishni kengaytirish (ishlanmalar hajmlarini oshirish), korxonada faoliyatining natijalarini iqtisodiy rag'batlantirishga sarf qilishga rejalashtirilgan mablag'lar, operatsion va boshqa xarajatlar nazarda tutiladi. Shunday qilib, rejaning ushbu bo'limida sarmoya qo'yilmalar, IK fondiga ajratmalar, qimmatli qog'ozlarni xarid qilish uchun xarajatlar, xayriya jamg'armalariga ajratmalar va h.k. qayd qilinadi.

Moliyaviy rejaning uchinchi bo'limida IKning bank muassasalari bilan kredit borasida o'zaro munosabatlari aks ettiriladi. Aynan shu yerda IK tomonidan olingan ssudalar, ularni qaytarib berish va kreditdan foydalanganligi uchun foizlarni to'lash holatlari qayd etiladi. Bunda IK tomonidan olinadigan mablag'lar rejaning daromad qismida, ssudalarni qaytarish hisobiga to'lanadigan mablag'lar va kredit uchun foizlar – xarajatlar qismida ko'rsatiladi.

Mazkur rejaning to'rtinchi bo'limida IKning budjet va budjetdan tashqari fondlar bilan o'zaro munosabatlari aks ettiriladi. Oldingi bo'limdagi kabi rejaning ushbu bo'limi daromad va xarajat qismidan iborat. Xarajatlar bo'limida budjet va byujetdan tashqari fondlarga (foyda solig'i, mol-mulk solig'i, markazlashtirilgan fondlarga ajratmalar va boshqalar), daromad qismida – kapital qurish va ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida budjetdan ajratilgan mablag'lar ishtirok etadi.

Hozirgi sharoitda moliyaviy rejalashtirish maksimal darajada malakaviy va mobil bo'lishi, doimo bozor kon'yunkturasiga moslashib turishi va tashqi muhitning u yoki bu omillarning o'zgarishida korxonaning xatti-harakatlar modelini o'zgartirish imkoniyatlarini ko'zda tutishi lozim.

9.3.2. Innovatsion loyihaning moliyaviy holatini baholash ko'rsatkichlari

Bozor munosabatlari tizimiga o'tish sharoitida innovatsion loyihaning moliyaviy resurslarni tasniflashi uchun ko'rsatkichlardan

foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ulardan eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

- loyihaning joriy sof qiymati (sof diskontlangan daromad) - NPV;
- loyiha bo‘yicha sof pul oqimi (haqiqiy pullar oqimi) - NCF;
- loyiha samaradorligining ichki koeffitsiyenti (daromadligining ichki me‘yori) – IRR. Shuningdek, loyihaning qoplanish tasniflari uchun loyihaning qoplanish muddati;

- loyihaga tashqi manbalardan jalb qilinadigan investitsiyalarning umumiy hajmi. Bunda, qaytarish sharti bilan banklar, investitsion kompaniyalar, jamg‘armalar va h.k. tomonidan ajratilgan mablag‘lar;

- kapitalni qaytarish muddati. Bu ko‘rsatkich investorlar mazkur innovatsion loyihaga qo‘yilgan mablag‘larni qaytarib berish muddatini aniqlab beradi.

IK faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlovchi muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisob-kitob ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Ular to‘rtta mustaqil guruhga birlashadi.

1. IK faoliyatining daromadlilik ko‘rsatkichlari:

$$R = \frac{F_s}{T_s} \times 100\%$$

bu yerda, R – innovatsion mahsulotni sotish rentabelligi; F_s – IKning mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushgan foyda; T_s – ish, xizmatni sotishdan tushgan tushum.

Ushbu ko‘rsatkich ishlab chiqarilayotgan mahsulotning daromadlilikini aniq ko‘rsatib beradi va u soliqlar darajasi va boshqa davlat faoliyatiga oid omillarga bog‘liq. Narxni belgilash bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilishda ushbu ko‘rsatkich asosiy negiz sifatida xizmat qiladi.

$$F = \frac{SF}{T_s} \times 100\%$$

bu yerda, F – foydalilik; SF – IK tasarrufida qolgan foyda; T_s – ish, xizmatni sotishdan tushgan tushum.

Keltirilgan ko‘rsatkich IK tomonidan sotilgan mahsulotning 1 so‘m hisobiga olingan sof daromad miqdorini aniqlab beradi. Bu ko‘rsatkich chiqarilayotgan mahsulot assortimentining umumiy tasnifini beradi va narxning tarkibini, soliq to‘lovlari miqdorini va majburiy ajratmalarni hisobga oladi.

$$O'Z_{k_q} = \frac{SF}{O'Z_k} \times 100\%$$

bu yerda, $O'Z_{k_q}$ – o‘z kapital uchun foyda miqdori; SF – IK tasarrufida qolgan foyda; $O'Z_k$ – o‘z kapitali.

Keltirilgan ko‘rsatkich IK xo‘jalik faoliyatining samaradorligini, o‘z kapitalining 1 so‘mga to‘g‘ri keladigan sof daromad miqdorini aniqlab beradi. Ushbu ko‘rsatkichning miqdori qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘z kapitalidan shunchalik samarali foydalaniladi.

2. IK aktivlarning aylanish tezligi ko‘rsatkichi:

$$A_{at} = \frac{T_s}{A_j}$$

bu yerda, A_{at} – foydalilik; T_s – ish, xizmatni sotishdan tushgan tushum; A_j – aktivlar yig‘indisi.

Keltirilgan ko‘rsatkich IKning xo‘jalik oborotida ishtirok etayotgan umumiy aktivlar (ko‘char va ko‘chmas mulk, nomoddiy aktivlar, pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar va h.k.)dan foydalanishning umumiy tasnifi sifatida namoyon bo‘ladi.

3. IKning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichi:

$$T_q = \frac{O'Z_k}{A_j}$$

bu yerda, T_q – IKning to‘lov qobiliyatligi; $O'Z_k$ – o‘z kapitali; A_j – aktivlar yig‘indisi.

Ushbu ko‘rsatkich korxonaning o‘z aktivlaridan foydalangan holda barcha o‘zining tashqi majburiyatlarini (qisqa va uzoq muddatli) bajarish qobiliyatini aniqlaydi. Agar bu ko‘rsatkich 0,5 dan yuqori bo‘lsa, moliyaviy xavf-xatarga duch kelish ehtimoli kamroq.

$$L_u = \frac{A_{joriy}}{M_{qm}}$$

bu yerda, L_u – IKning umumiy likvidligi; A_{joriy} – joriy aktivlar; M_{qm} – qisqa muddatli majburiyatlar.

Likvidlik tushunchasiga korxonaning boyliklar (xo‘jalik mablag‘lar)ini narxdagi yo‘qotishlarsiz naqd pulga tez aylantirish

imkoniyatlari tushuniladi. Umumiy likvidlilik koeffitsiyenti IKni o‘z joriy aktivlaridan foydalangan holda o‘zining qisqa muddatli (kreditlar, soliqni to‘lash, mehnat haqini to‘lash bo‘yicha) majburiyatlarni bajarish qobiliyatini ko‘rsatib beradi.

$$L_t = \frac{M_{hbk}}{M_{qm}}$$

bu yerda, L_t – IKning tezkor likvidliliği; M_{hbk} – hisob raqamida va bankning boshqa hisoblaridagi mablag‘lar, kassadagi pullar; M_{qm} – qisqa muddatli majburiyatlar.

Tezkor likvidlilik koeffitsiyenti IK tomonidan faqatgina IK hisobi va uning kassasida mavjud bo‘lgan pul mablag‘lari hisobiga qisqa muddatli majburiyatlarni to‘lay olish imkoniyatlarini aniqlashga oydinlik kiritadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi IKning moliyaviy siyosati asosini tashkil qiladi. IKda debitorlik va kreditorlik qarzlarning tez shakllanishi va uning korxonaga moliyaviy barqarorligiga bevosita va bilvosita ta‘sir ko‘rsatishini inobatga olib, bu koeffitsiyentlarni hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagi formulalarda keltirilgan:

$$D_{qa} = \frac{T_s}{D_q}$$

bu yerda, D_{qa} – debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi; T_s – ish va xizmatdan tushgan tushum; D_q – debitor qarzlari.

$$K_{qa} = \frac{T_s}{K_q}$$

bu yerda, K_{qa} – kreditor qarzlarning aylanuvchanligi; T_s – ish va xizmatdan tushgan tushum; K_q – kreditor qarzlari.

Debitor qarzlarning miqdori mazkur IKga boshqa xo‘jalik subyektlari to‘lashi lozim bo‘lgan mablag‘lar miqdorini ko‘rsatib beradi. Kreditor qarzlarning miqdori mazkur IK boshqa IK va banklarga tegishli hisoblar bo‘yicha to‘lashi lozim bo‘lgan mablag‘lar miqdorini ko‘rsatib beradi.

Aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat ko‘rsatayotgan IK uchun

amaldagi qonunchilik bilan moliyaviy barqarorlikning yana bir ko'rsatkichi – sof aktivlar qiymatini baholashdan qat'i foydalanish ko'zda tutilgan. Baholash yillik buxgalteriya balansining ma'lumotlari bo'yicha amalga oshiriladi. Sof aktivlarning miqdori aksiyadorlik jamiyatining hisob-kitobda foydalaniladigan aktivlar summasidan uning majburiyatlarini aniqlangan summani (passivni) ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Agar ikkinchi va keyingi yillar yakunida aksiyadorlik jamiyatining sof foydaning qiymati uning ustav fondining hajmidan kichik bo'lsa, jamiyat o'z ustav kapitalini sof aktivlar qiymatidan oshmaydigan miqdorigacha kamaytirishi lozim. Aksiyadorlik jamiyatiga, agar uning sof aktivlari ustav kapital va zaxira fondlardan kam bo'lsa yoki dividendlarni to'lash natijasida uning miqdori kichik bo'lishi kutilayotgan bo'lsa, dividendlarni to'lamaslik huquqi berilgan.

1. IK aksiyalarning daromadlilik ko'rsatkichi:

$$A_k = \frac{O'Z_k}{A_k} \times 100\%$$

bu yerda, A_k – aksiyaning hisoblangan kursi; $O'Z_k$ – o'z kapitali; A_k – aksiyadorlik kapitali.

$$A_f = \frac{SF}{A_s}$$

bu yerda, A_f – aksiya hisobiga foyda; SF – IK tasarrufida qolgan foyda; A_s – aksiyalar soni.

$$D_m = \frac{SF_d}{A_{nq}} \times 100\%$$

bu yerda, D_m – yillik dividendlar miqdori; SF_d – IK tasarrufida qolayotgan dividend to'lashga yo'naltiriladigan foydaning qismi; A_{nq} – aksiyaning nominal qiymati.

Ushbu guruhga kirgan barcha uchta ko'rsatkichlar avvalambor aksiyadorlarning korxonaga to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishiga qaratilgan.

Ularning:

– birinchisi mazkur IKning uni tugatish hollarida aksiyalarning

haqiqiy qiymatini.

– ikkinchi ko‘rsatkich – aksiyaning daromadlilik, ya’ni ushbu aksiyaning nominal qiymatiga teng bo‘lgan kapitalning unumdorligini;

– uchinchi ko‘rsatkich – aksiyadorning sof foyda, ya’ni o‘zining har bir aksiyadan olinadigan aniq pul mablag‘larini ifodalaydi.

Tabiiyki, IKning moliyaviy holatini chuqurroq va puxta baholash uchun turli bir qator boshqa ko‘rsatkichlardan foydalanishi mumkin. Ularning mazmuni va hisob-kitob usulini maxsus adabiyotlarda tanishish mumkin ^{147, 148, 149}.

9.4. INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

9.4.1. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimlari tavsifi

Xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko‘rsatadiki, Innovatsiyalarni moliyalashtirishning milliy tizimi iqtisodiyotning tarkibiy va institutsional xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Ular ko‘pincha mamlakatning erishilgan ilmiy-texnologik darajasi, ijtimoiy institut va inson kapitalining holati, iqtisodiy o‘sish sur‘atlari, iqtisodiyotning ko‘lami va moliyaviy soha turlari bilan farqlanadi.

Bu borada innovatsiyalarni moliyalashtirishning to‘rtta muvaffaqiyatli tizim turlarini ajratib olish mumkin: bozor, korporativ-davlat, klaster (tarmoq) va mezokorporativ. Bu tizimlar bir-biridan ham tashqi belgilar (miqdorli va sifatli parametrlari bo‘yicha), ham ular iqtisodiyotdagi roli bo‘yicha farq qiladi.

Bu yerda uchta jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi: moliyalashtirish tizimi innovatsion jarayonning ikki muqobil modeli (chiziqli yoki chiziqli bo‘lmagan modeli)dan qaysi biriga qaratilgan; innovatsion jarayonga faol ishtirok etayotgan tarmoqlar qanchalik tarqalgan; ushbu tizim tubdan boshqa innovatsiyalarni va ilmiy tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlarining boshlang‘ich bosqichini qay darajada moliyalashtirishga imkon beradi.

¹⁴⁷ Балабанов И.Т. Основы финансового менеджмента: как управлять капиталом. – М.: Финансы и статистика, 1996. – 383 С.

¹⁴⁸ Едророва В.Н., Мизиковский Е.А. Учет и анализ финансовых активов: Акции, облигации, векселя. – М.: Финансы и статистика, 1995. – 272 С.

¹⁴⁹ Шеремет А.Д., Сайфуллин Р.С. Методика финансового анализа. М.: ИНФРА – М, 1995. – 176 С.

9.4.2. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning bozor tizimi

Innovatsiyalarni moliyalashtirishning bozor tizimi anglosakson mamlakatlari (AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Irlandiya, Avstraliya), hamda Isroilga xos hisoblanadi. Ushbu tizim yaratuvchi turidagi innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan. Bozor tizimi spillover samarasi (o'xshash faoliyat sohalarida yangi qarorlarning tarqalishi)dan faol foydalangan holda tubdan boshqa hamda yaxshilanadigan innovatsiyalarni tez vujudga keltirishga imkon beradi. Ushbu tizim yangi texnologik ixtirolarga operativ tarzda ta'sir etadi.

Bozor modeli doirasida innovatsion jarayonning eng muhim subyektlari quyidagilar hisoblanadi: kichik firmalar – innovatsiyani ishlab chiquvchilar (venchur firmalar), venchur jamg'armalar va xususiyy yirik innovatsion-faol korporatsiyalar. Kichik innovatsion biznesda ITTKI uchun sarflanayotgan umumiy xarajatlarning ulushi nisbatan past bo'lishiga qaramasdan ular tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha moyilligi va yangi mahsulot, bozor, kompaniyalarni jalb qilishga imkoniyati yuqori bo'ladi.

Innovatsion jarayonning turli ishtirokchilari o'rtasidagi aloqa qilish va uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishini ta'minlab beruvchi asosiy elementlardan biri diversifikatsiyalashgan, shaffof va likvidlilik: intellektual mulkchilik, venchur sarmoya, korporativ birlashish va qo'shib olish, yuqori texnologik kompaniyalarning aksiyalar bozorlari hisoblanadi.

Innovatsiyalarni moliyalashtirishdagi bozor tizimining samarali ishlashi uchun eng muhim shartlar quyidagilar hisoblanadi:

- mulk huquqlarini (shu jumladan intellektual mulkni) aniqlash va uni himoya qilishning mukammal tizimi;
- enforsment (shartnomalarni bajarishga majbur qilish)ning samarali tizimi;
- xavf-xatarli investitsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mahsulotlarning keng to'plamini taklif qilinayotgan yaxshi tarkiblangan va rivojlangan moliyaviy bozor;
- institutsional investorlar (venchur moliyalashtirish uchun uzoq muddatli resurslarning bosh manbasi)ning rivojlangan tizimi;
- maxsus tayyorlangan, yetarli tajribaga ega, investitsiyalashning

istiqbollari va ishlanmalarini samarali tijratlashtirishni ta'minlay oladigan bir qator menejerlarning mavjudligi.

Innovatsiyalarni moliyalashtirishdagi bozor tizimi ishlashining asosiy muammosi uning moliyaviy barqarorligi yetarli darajada emasligi – iqtisodiy sikl doirasida Innovatsiyalarning o'zgarishiga kuchli ta'sirchanligi hisoblanadi. Bundan tashqari, u moliya bozorida «pufakchalar»ni shakllantirish mexanizmlari orqali biznes-sikli doirasini qo'shimcha ravishda kengayishiga imkon yaratib beradi.

9.4.3. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning korporativ-davlat tizimi

Innovatsiyalarni moliyalashtirishning korporativ-davlat tizimi kontinental Yevropa (Fransiya, Germaniya, Italiya va boshqa) mamlakatlar uchun xosdir. Bu tizim texnologik ixtirolarning bir me'yordagi intensivligi sharoitida innovatsion rivojlanishning barqaror strategiyalarini amalga oshirish uchun qulay hisoblanadi. U bir qator fundamental va strategik ahamiyatga ega amaliy tadqiqotlar yo'nalishlari bo'yicha ilg'or o'rinlarni ushlab turish va ko'plab tarmoqlarda raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlashga zamin yaratib bermoqda. Bundan tashqari, ushbu tizim ijtimoiy va ekologik muammolarni hamda hududiy rivojlanish va xalqaro integratsiya masalalarini yechish uchun innovatsion siyosatni qo'llash maqsadida qulay imkoniyatlarni yaratib beradi.

Mazkur innovatsiyani moliyalashtirish tizimi doirasidagi innovatsion jarayonning muhim subyektlari yirik, turg'un faoliyat ko'rsatuvchi kompaniya va tashkilotlar – korporatsiyalar, banklar, tadqiqot institutlari hisoblanadi. Shuningdek, ilmiy-texnologik siyosatini olib borishga javobgar bo'lgan turli davlat organlari ham muhim rol o'ynaydi. Venchur jamg'armalari va kichik investitsion biznes banklar, korporatsiyalar va tadqiqot institutlari bilan birlashtirilgan bo'lib, bo'ysunuvchi tizim hisoblanadi.

Turli iqtisodiy subyektlarning xatti-harakatlarini birlashtiruvchi hamda innovatsion yutuqlarning fundamental va qidiruv ishlanmalar bosqichidan ularni ishlab chiqarishga joriy etish bosqichiga o'tishni ta'minlovchi asosiy element bu davlat yoki yirik korporatsiyalar tomonidan tashabbus ko'rsatayotgan texnologik rivojlanish dasturlari hisoblanadi. Bular asosan xususiy-davlat sherikchiligi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalardir.

Ushbu tizim doirasida rivojlanishning zarur shartlardan biri rivojlangan ilmiy-tadqiqot bo‘linmalariga ega innovatsion-faol ilg‘or kompaniyalar hamda yetakchi kompaniyalarning strategik sheriklari sifatida namoyon bo‘layotgan kuchli universal banklar tizimi mavjudligi hisoblanadi.

Innovatsiyani moliyalashtirishning mazkur tizimi bozor tizimidan ko‘ra moliyaviy xavf-xatarga ta‘sirchanlik darajasi yuqori emas, ammo yuqori beqarorlikka ega. Uning aksariyat chiziqli innovatsion jarayonini qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligi bois unda yangi texnologik qarorlarning bir faoliyat turidan ikkinchiga singib ketishini qiyinlashtiradi.

9.4.4. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning klaster tizimi

Innovatsiyalarni moliyalashtirishning klaster (tarmoq) tizimi skandinaviya davlatlari (Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya) uchun xosdir. Bu tizim “quyi” ustunlikdagi innovatsion strategiyalarni amalga oshirish uchun qulaydir. U katta bo‘lmagan, ammo yaxshi diversifikatsiyalashgan jahon bozorlari o‘lchamlari bo‘yicha azaldan qoniqarsiz yoki yaxshi boshlang‘ich texnologik raqobatbardoshlik darajasiga ega bo‘lgan tarmoqlar mavjud bo‘lgan iqtisodiyot uchun eng maqbul hisoblanadi.

Mazkur model doirasida innovatsion jarayonning muhim subyektlari turli-tuman va bir-biriga nisbatan mustaqil bo‘lgan muayyan tarmoq va hududiy klasterlar doirasida birlashgan bozor agentlari: kichik innovatsion firmalar, yirik kompaniyalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar hisoblanadi.

Innovatsion jarayonning turli ishtirokchilari o‘rtasidagi aloqasini va ushbu jarayonning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishini ta‘minlovchi asosiy omili texnologik va ilmiy-tadqiqot korporatsiyalar hamda hududiy mahalliyashtirish asosida tuzilayotgan barqaror hamkorlik munosabatlar hisoblanadi. Ushbu munosabatlar yetarli darajada rivojlanmagan bozor institutlarini kichik innovatsion kompaniyalarning likvidliligi va mablag‘larni qo‘yishni baholashga va tegishli investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishni oldini olishga imkon yaratib beradi.

Bunday munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va qo‘llab-quvvatlashda davlat muhim rol o‘ynaydi. Turli kooperatsiya shakllarini rivojlantirish

institutlar tarmoqlari orqali hamkorlikni rag'batlantirish siyosatini olib boradi. Davlat ITTKIning boshlang'ich bosqichlarini, fundamental va qidiruv tadqiqotlarni moliyalashtirish va ularni biznesning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirishda ham muhim rol o'ynaydi. Biznesning strategik istiqbolli rivojlantirish bilan bog'langan original fundamental va qidiruv ishlanmalaridan foydalanish asosida milliy kompaniyalar istiqbolli yo'nalishlarida raqobatchilardan ustunlikka erishishi mumkin. Mazkur tizimning muvaffaqiyatli ishlashning zarur shartlardan biri yuqori sifatli rivojlanish instituti va davlat boshqaruvi hisoblanadi.

Innovatsiyani moliyalashtirishning mazkur tizimidan foydalana-yotgan davlatlar uchun ishchi kuchi yuqori qiymatga ega bo'lgan sharoitda inson kapitali rivojlanishining yuqori darajasi mos keladi. Bunda korporatsiyaning aniq ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan kuchli kasbiy-texnik va maxsus texnik ta'lim olish tavsiya qilinadi. Shuningdek, yuqori darajadagi fundamental ilmiy bilim ham talab qilinadi.

9.4.5. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning mezo-korporativ tizimi

Innovatsiyalarni moliyalashtirishning mezo-korporativ tizimi Sharqiy Osiyo (Koreya Respublikasi, Singapur, Yaponiya va boshqa) davlatlariga xosdir. Bu tizim jadallashtirilgan (imitatsion) innovatsion rivojlanish strategiyani amalga oshirish uchun qulaydir.

Mazkur tizim azaldan bozor institutlarning yetarli rivojlanmagan, bir qator tarmoqlarning boshlang'ich ilmiy-texnologik darajasi yetakchi davlatlardan ancha past bo'lgan, ammo iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash va farovonlik darajasi bo'yicha mavjud uzilishlarni tezda qisqartirishga intiluvchi iqtisodiyot uchun mos keladi.

Mazkur tizim doirasida innovatsion jarayonning muhim subyektlari ko'plab ixtisoslashgan ishlab chiqarish, moliyaviy, savdo kompaniyalar, ilmiy-tadqiqot tashkilotlar va h.k.lardan tarkib topgan yirik ko'p tarmoqli korporatsiyalar hisoblanadi. Kichik innovatsion biznes va venchur jamg'armalari ushbu tizimda ko'pincha u yoki bu mezo-korporatsiyaga qat'ian qo'shilishadi.

O'z mohiyatiga ko'ra, innovatsion sikl ushbu mezo-korporatsiya-

ning ichida tutashgan. Bunda mazkur sikl qisqa muddatga ega – u innovatsion jarayonning oʻrta va soʻnggi bosqichlarini oʻz ichiga oladi va texnologik yangiliklarni ishlab chiqarib tez joriy etishga moʻljallangan. Odatda, ushbu siklning negizida tashqaridan gʻoya yoki texnologik qarorlarni oʻzlashtirish, uning mazmun-mohiyatining negizi esa dastlabki namunaning takomillashgan analogini olishga qaratilgan yaxshilanadigan Innovatsiyalar yotadi.

Biznes va innovatsion jarayonning mezo-korporativ tashkil etish muhim yoʻnalishlarida resurslarni (moliyaviy, mehnat, innovatsion-texnologik va boshqalar) tez tarzda yoʻnaltirishni hamda turli sohalarga mansub korxonalarini yangi texnologiyalar bilan taʼminlashga imkoniyatlarni yaratib beradi. Shuningdek, tashkil etishning bunday shakli ITTKIning olib borish uchun umumiy xarajatlarni uning koʻlamini oshirish hisobiga kamaytirishga imkon beradi.

Bular hammasi yangi yoʻnalishlarni, texnologik qarorlarni oʻzlashtirishning yuqori tezligini, konyunkturaning oʻzgarishiga va sifat va tejamkorligi boʻyicha nusxa oladigan namunalardan ustun turuvchi natijalarni olishga tez taʼsir etishni taʼminlaydi.

Tez rivojlantirish strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mezo-korporatsiyalar yirik bank – strategik hamkor (Yaponiyada uni asosiy bank deb ataladi) tomonidan uzoq muddatli moliya resurslarning barqaror kirimiga muhtojlikni sezadi. Ushbu bank bir paytning oʻzida mezo-korporatsiyalarning turli boʻgʻinlari oʻrtasida moliyaviy oqimlarni qayta taqsimlab, uning moliyaviy va qaysidir maʼnoda boshqaruv markazi vazifasini ham bajarib turadi.

Natijada, ushbu yoʻnalishda ishlarni rivojlantirish uchun korporatsiyalar bilan bogʻliq kuchli banklarga tayanuvchi mustahkam moliyaviy tizimni shakllantirish lozim. Shuningdek, yana bir sharti – iqtisodiy agentlarning faoliyatini tartibga soluvchi korporativ madaniyatni rivojlantirishning yuqori darajasini taʼminlash hisoblanadi. Uchinchi eng muhim sharti – ishchi kuchining nisbatan arzon boʻlgan sharoitida uning yuqori sifatini taʼminlash. Bu xususan korporatsiyaning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan kuchli kasbiy-texnik va ijtimoiy texnik bilimlar olishni nazarda tutadi.

9.4.6. AQSHda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning venchur kapital bozori tizimi

AQSHda venchur sanoatining shakllanish va rivojlanish jarayonlari

O‘zbekistonda o‘xshash tizimni yaratish maqsadida ushbu bozorni shakllantirishning bir qator muhim o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib chiqarishga imkon beradi.

*Birinchi*dan, venchur investitsiyalar bozori umumiy iqtisodiy konyunkturaga tez ta’sir ko‘rsatadi va fond bozorining o‘zgarishlariga ta’sirchan hisoblanadi. Bu venchur investitsiyalarning yakuniy bosqichi investorlarning loyihadan chiqib ketishi bilan izohlanadi. Ushbu bosqich ko‘p holatda ochiq bozorda (Initial Public Offering (IPO)) aksiyalarni chiqarish yoki menejment aksiyalarini sotib olish (Management Buy-Out (MBO)), yordamida amalga oshiriladi. Venchur investorlarni tarkibdan chiqishi yangi moliyalashtiradigan firmaga qayta yo‘naltirish maqsadida investitsiyadan moliyaviy natijani qayd etish va loyihadan likvidlikni olishga imkon beradi. Noqulay kon’yunktura davrida chiqish istiqboli mavjud bo‘lmaganda investorlarning venchur loyihaga bo‘lgan qiziqishi susayadi va butun venchur sanoati dinamikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuni qayd etib o‘tish kerakki, 1950–1990-yillarda venchur investitsiyalar bozoridagi muvaffaqiyatsizliklar iqtisodiy va moliyaviy inqirozlar ta’sirida sodir bo‘lgan, yangi yuz yillikda esa teskari holat kuzatilgan. Xususan, 2001-yilda yuqori texnologik kompaniyalarning aksiyalar bozorining muvaffaqiyatsizligi AQSH iqtisodiyotining resessiyaga keltirgan eng muhim sabablardan biri bo‘ldi.

*Ikkinchi*dan, venchur kapital bozorini shakllantirish nuqtayi nazaridan ayrim moliyaviy sohalarning xususiyatlari hamda moliyaviy Innovatsiyalarning vujudga kelishi va tarqalishi jarayoni katta rol o‘ynaydi. AQSHda venchur sanoatining rivojlanishiga moliyaviy Innovatsiyaning turli to‘lqinlari sabab bo‘lgan. Venchur kapital bozorining birinchi to‘lqini (1950–1960-yillar oxiri) kompaniyalarning konversiyalashgan obligatsiyalar (keyinchalik kompaniya aksiyaga konversiya qilish imkoniyatlarini ko‘zda tutgan) bozorni shakllantirish bilan birga sodir bo‘lgan. Mazkur jarayonga venchur kompaniyalarni moliyalashtirish bilan band bo‘lgan maxsus firmalar o‘z mablag‘larini faol joylashtirgan.

Venchur kapital bozorining ikkinchi to‘lqini (1970–1980-yillar oxiri) 1979-yil oxirida ushbu bozorga ruxsat berilgan nafaqa jamg‘armalarining investitsiyalari bilan rag‘batlantirilgan. Bu davrda venchur sanoatining rivojlanishi xavf-xatarli kompaniyalar (junk bonds)ning obligatsiyalar bozori paydo bo‘lishi tufayli qo‘llab-quvvatlab turilgan.

Mazkur obligatsiyalarning chiqarilishi innovatsion bizneslarning ko‘p sonli operatsiyalarini sotib olish evaziga moliyalashtirilgan.

Uchinchidan, venchur investitsiyalar bozorining rivojlanishi soliq tizimining ayrim xususiyatlariga – avvalambor kapital oshishiga soliqni solish tartibiga ta’sir etayotganligidadir. Bu venchur sarmoyadorlarning tashkil etilayotgan biznes qiymati o‘shishining asosiy manbasi hisoblangan foydasi bilan shartlangan. 1970-yillarda kapital stavkalarining sezilarli darajada oshirilishi 1978-yilgacha davom etgan venchur investitsiyalar bozorida chuqur tanglikka olib keldi. 1978-yilda soliq stavkaning keskin kamaytirilishi (70%dan 20%gacha) venchur investitsiyalar bozorining tiklanishiga sabab bo‘ldi.

To‘rtinchidan, AQSHda venchur investitsiyalar bozorining rivojlanishining jadallashitiruvchi sifatida texnologiyalarni davlatdan xususiy sekorga o‘tkazishga ko‘mak beruvchi qonun va dasturlar xizmat qilgan.

1950–1960-yillarda venchur kapitalizm uchun xarbiy dasturlar bilan o‘zaro uyg‘unlikda bo‘lgan. AQSHda venchur investitsiyalar dastlabki bosqichlarda mudofaa idoralar istiqbolli deb hisoblangan tarmoqlarda eng samarali va tejamkor tus olgan. 1970-yilgacha elektronika, aloqa va tashish tizimlari, yangi material, yangi dori-darmon yaratish sohasida ishlarni olib boradigan venchur kompaniyalar mahsulotlarining asosiy xaridorlaridan biri AQSHning harbiy idoralari hisoblangan.

Bundan tashqari, Pentagon, Aeronavtika va kosmik fazolarni tadqiq etish bo‘yicha milliy agentligi hamda boshqa idoralar fuqarolik ishlab chiqarishida qo‘llash maqsadida texnologiyalarning sirlarini oshkor etishni qo‘llab-quvvatlagan. Bu “texnologiyalardan foydalanish” (technology utilization) dasturi orqali amalga oshirib borilgan. Texnologiyalarni transfert qilish (1950-yillar oxiri va 1960-yillar boshi, keyinchalik – 1980-yillar boshi) sohasida qonun va dasturlarni qabul qilish hamda AQSHda venchur bozori rivojining ilk ikkita to‘lqinlari jadallashuvi bilan to‘g‘ri aloqadorlikka ega. O‘xshash holat nafaqat AQSHda, balki rivojlangan venchur bozoriga ega bo‘lgan boshqa davlatlarda (masalan, Isroilda) ham kuzatilgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Innovatsiyani moliyalashtirish tizimining maqsadi nimadan iborat?
2. Innovatsiyani moliyalashtirishni tashkil qilish tamoyillarini gapirib bering.
3. Innovatsiyani moliyalashtirish tizimining asosiy vazifalarining mohiyati nimadan iborat?
4. Innovatsiyani moliyalashtirishning qanday shakllari mavjud?
5. Innovatsion korxonaning moliyaviy resurslari qanday guruhlanadi?
6. Moliyaviy lizing nima?
7. Moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabni hisoblash tartibini tushuntirib bering.
8. Innovatsion loyihadagi moliyaviy holat ko'rsatkichlarini aytib bering.
9. Xorijiy davlatlarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimlari tavsifini tushuntirib bering.

10-BOB. INNOVATSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

10.1. INNOVATSION LOYIHALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH TUSHUNCHASI

10.1.1. Innovatsiya samaradorligini baholash tizimi mohiyati

Sarmoya qo'yilmalarining samaradorligini kompleks baholash muammosi iqtisodchi-olimlar va amaliyotchilarning doimo diqqat markazda turadi. So'nggi yillarda ushbu muammoga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar^{150,151} olib borilgan, ular qo'llash ko'lami bo'yicha umumdavlat, tarmoq va hududlarga ajratilgan, shuningdek, investitsiyalarning iqtisodiy asoslari va samaradorligi bo'yicha ko'plab turli-tuman uslubiy qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqilgan¹⁵².

Tabiiyki, ularning yangilik darajasi turli sharoitlarga mosligi hamda innovatsion loyihalarni baholash uchun ulardan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida savol tug'iladi. Ammo, ushbu savolga javob topishdan avval mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi holati va istiqbolini inobatga olgan holda sarmoya qo'yilmalari sohasidagi ayrim uslubiy masalalarga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Investitsiyalar samaradorligini baholash muammosi aniq investor, ya'ni kapital resurslarga ega xo'jalik subyekti oldida vujudga keladi. Ushbu resurslarni investitsiyalash foyda keltirishi mumkin. Foyda olish, umumiy ko'rinishda, investor oldida turgan va uning ehtiyojlari bilan belgilangan maqsadlarga erishish darajasi sifatida aniqlanishi mumkin.

Agar bozor iqtisodiyoti nazariyasining klassik qonunlariga nazar tashlasak (unga muvofiq birlamchi xo'jalik subyektlar – mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqaruvchi, xaridor va yakuniy iste'molchilar) – faoliyati ushbu faoliyatning soha va yo'nalishlarini erkin tanlaydi, davlatning vazifasi esa birlamchi xo'jalik subyektlarning o'zaro aloqadorlik jarayonini tartibga solishdan iborat) faoliyat samaradorligini hech bo'lmaganda ikkita tur mezonlari bo'yicha ajratish zarur degan xulosa kelib chiqadi. Birinchisi – belgilangan

¹⁵⁰ Валдайцев С.В. Оценка бизнеса и управление стоимостью предприятия. Учеб.пособие для вузов / С. В. Валдайцев. – М.: Юнити-Дана, 2001. – 720 С.

¹⁵¹ Завлин П.Н., Юделевич М.А. Научный труд в условиях НТР: эффективность и качество. – М.: Экономика, 1985. – 112 С.

¹⁵² Кудашов В.И. Научно-технические нововведения: Организационно-экономический механизм управления в условиях перехода к рынку. Минск, 1993. – 187 С.

tashqi chegaralar doirasida uzoq muddatli istiqbolda eng yuqori foyda (daromad, tushum) olishga intiluvchi birlamchi xo‘jalik subyektlar faoliyati samaradorligining lokal mezonlari. Ikkita bir xil bo‘lmagan, hattoki qarama-qarshi mezonlarning ikkita guruhlarining mavjud bo‘lishini tan olinishi sarmoya qo‘yilmalar samaradorligini baholashning turli usullarini ishlab chiqishni talab etadi. Ularni qabul qilingan tasnifga muvofiq makro- va mikroiqtisodiy mezonlar deb atash mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida o‘z-o‘zini moliyalashtirish va o‘z-o‘zini qoplash asosida ishlayotgan va investitsiyalarni amalga oshirayotgan, ya’ni o‘z va qarzga olingan pul mablag‘larini ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflayotgan va shu bilan birga o‘z rivoji uchun uzoq muddatli moddiy asos yaratilayotgan IK va ilmiy tashkilotlar uchun istiqboldagi foydaliligi – ushbu investitsiyalarning yakuniy iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha masalasi eng muhim hisoblanadi. Shu bois, IK u yoki bu noaniqlikni hisobga olib ushbu investitsiyalardan keladigan umumiy daromadni prognoz qilishi va qabul qo‘llanilayotgan qarorlarni iqtisodiy asoslashning tegishli dastaklaridan foydalanishi lozim.

Xo‘jalik mexanizmning tubdan isloh qilish, uning iqtisodiy rivojlanishining bozor modeliga qaratishning hozirgi sharoitida investitsion qarorlarni iqtisodiy asoslash muammosi yanada dolzarb tus oldi. Ushbu muammolar ham birlamchi xo‘jalik subyektlar darajasida hamda milliy iqtisodiyotning yuqori pog‘onadagi boshqaruvida, xususan, budjet mablag‘larini ilmiy, ijtimoiy va boshqa umumdavlat dasturlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishda paydo bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyoti tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik subyektlarining eng muhim farq qiluvchi jihati ular o‘z faoliyatida ko‘zlayotgan maqsadlaridagi farqlarini hisoblashi mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tartibga soladigan hukumat va davlat boshqaruv organlari butun jamiyatni rivojlantirish uchun global, xalq xo‘jalik maqsadlarini hisobga olishi lozim. Bunda davlat boshqaruv organlari ilgari yechgan vazifa va maqsadlardagi farqi deyarli yo‘q. Farqi asosan ushbu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish usullaridan iborat. Agar ma‘muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida umumdavlat siyosatini amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida reja – xalq xo‘jaligining birlamchi obyektlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqarish shakli

turgan bo'lsa, bozor iqtisodiyotida davlat birlamchi xo'jalik subyektlarining xo'jalik yuritishdagi tashqi sharoitlarini shakllantiradi va shu bilan milliy iqtisodiyotga iqtisodiy o'sish uchun poydevor yaratib beradi.

Birlamchi xo'jalik subyektlar, o'z navbatida, faqatgina davlat tomonidan belgilangan va barcha subyektlar uchun yagona bo'lgan «o'yin qoidalar»i bilan chegaralangan bo'lib, o'z faoliyatini istiqbolda yuqori foyda olishdan iborat bo'lgan o'z lokal maqsadlarga erishish uchun tashkillashtiradi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yechish lozim bo'lgan vazifalardagi farqi investitsion qarorlar va investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari negizida yotgan turli mezonlarda o'z aksini topadi. Ushbu yondashuv va usullarni, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, shartli ravishda makroiqtisodiy (agar ularning asosida investitsiyalar samaradorligining global mezonlari yotsa) va mikroiqtisodiy (agar lokal mezonlar yotsa) deb atash mumkin.

Har qanday innovatsion loyiha amalga oshirishdan oldin ikkita bir-biri bilan bog'liq uslubiy masalalar yechilishi lozim, ya'ni:

1) loyihani amalga oshirishning har bir ehtimol variantining foydaliligini baholash;

2) variantlarni taqqoslash va ulardan eng yaxshisini tanlab olish.

Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyasi sharoitida belgilangan masalalarni yechish uslublari jahon amaliyotida qabul qilingan iqtisodiy o'lchov va asosnomalar usullariga mos kelishi lozim.

Davlat mulkchilik shakli va iqtisodiyotni boshqarishning markazlashgan usullari ustun turgan sharoitda barcha korxonalar va tashkilotlar uchun mos markazlashgan va yagona bo'lgan xo'jalik qarorlarning samaradorligini baholash yondashuvi ko'proq qo'llanilgan. Uning mazmuni davlat uchun afzal bo'lgan narsa, har bir xo'jalik subyekti uchun ham afzal bo'lishi kerak degan tamoyildan iborat. Ushbu tamoyil barcha subyektlar uchun yagona sarmoya qo'yilmalar samaradorligining global mezonlarini – yangiliklarni amalga oshirish, barcha bosqichlarda, ya'ni investitsiyalar iste'molchilar tomonidan foydalanishgacha tadqiqot va ishlanmalarni olib borishdan olinadigan iqtisodiy samarani ko'zda

tutgan. Uslubiy tortishuvlar asosan ushbu samarani baholash negizida turgan ko'rsatkichlar borasida vujudga kelgan, ya'ni bu ko'rsatkichga yangilikni amalga oshirish uchun «sarf qilingan xarajatlar» yoki «integral» yoxud «yillik iqtisodiy samara» sifatida qaralgan.

Ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimi sharoitida iqtisodiy asosnomalar har bir xo'jalik qarorlarining majburiy qismidan iborat bo'lgan bo'lsa ham ikkilamchi rol va ko'pincha rasmiy tavsifga ega edi. Ajratilgan sarmoya qo'yilmalarni o'zlashtirish bilan shug'ullanadigan tashkilotlar hamda ularni taqsimlash bilan shug'ullanayotgan idoralar taqsimlovchi vazifasini bajarib, ajratilayotgan pul mablag'larining haqiqiy egasi sifatida namoyon bo'lmagan. Bundan tashqari, sarmoya qo'yilmalarni bajarishi uchun ajratilayotgan pul mablag'lar asosan beg'araz shaklda amalga oshirilgan. Xo'jalik qarorlarini asoslashga nisbatan bunday yondashuv vaziyatning yomonlashishga olib kelar edi, ko'pincha bir necha yillar mobaynida foydalanilmagan yoki to'liq quvvat bilan ishlamagan uskunalar xarid qilinar edi. Xorijdan valutaga xarid qilinadigan yangi texnika mavjud texnologik jarayonga moslashmas edi, shu bois uning texnik darajasidan kutilgan samarani bermagan.

Uslubiy tavsiyalarda taklif etilgan samaradorlikni baholash usuli muayyan sharoitlarda innovatsion loyihalar bilan bog'liq pul mablag'larning kirimi va to'lovlarning dinamikasini tahlil qilishga asoslanadi. Ya'ni, «naqd pullar oqimi» tahlil qilishga asoslangan ushbu yondashuv g'arb investitsion hisob-kitoblar nazariyasi va amaliyotida keng qo'llanadi. Aynan bu yondashuv jahon amaliyotida umum qabul qilingan usullarga to'liq mos keladigan innovatsion loyihalar samaradorligini baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalari¹⁵³ asosida yotgan. Mazkur uslubiy tavsiyalarda investitsiyalar samaradorligini baholash usullari mamlakatimiz iqtisodchilarining ilmiy tadqiqotlari natijalari to'liq aks ettirilgan. Ammo ushbu tavsiyalarning ayrim qoidalari munozarali hisoblanadi. Xususan, ularda innovatsion loyihalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini quyidagi turlarga bo'lish tavsiya etilgan:

– loyihalarning bevosita ishtirokchilari uchun uni amalga

¹⁵³ Микков У.Э. Оценка эффективности капитальных вложений (новые подходы). -М.:Наука, 1991.–296 С.

oshirishning moliyaviy oqibatlarini hisobga oluvchi tijorat (moliyaviy) samaradorlik ko'rsatkichi;

– davlat, hududiy va mahalliy budget uchun loyihani amalga oshirishning moliyaviy oqibatlarini hisobga oluvchi budget samaradorlik ko'rsatkichi;

– innovatsion loyihalar ishtirokchilarining to'g'ridan to'g'ri moliyaviy manfaatlari tashqaridan chiqadigan loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajat va natijalarni hisobga oluvchi va qiymat o'lchovlarni qo'llashga imkon beradigan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi.

Ushbu turlarni ajratish sun'iy hisoblanadi va iqtisodiy samaradorlikning yagona ko'rsatkichini aniqlash bilan bog'liq, lekin shu bilan birga u iqtisodiy tizimning turli obyekt va pog'onalarida qo'llanilishi mumkin: butun xalq xo'jaligi (iqtisodiy samaradorlikning global mezoni), firmaning hududiy, tarmoq darajasi yoki muayyan innovatsion loyiha. Shunday qilib, keltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorlikni baholash yondashuvi va usullarining tahlil natijalari bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi:

– ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitlari uchun ishlab chiqilgan sarmoya qo'yilmalarining iqtisodiy samaradorlikni baholash usullari iqtisodiy islohotlar rivojlanishining hozirgi holatidagi nazariy va amaliy jihatlariga mos emas;

– moliyaviy oqimlarni tahlil qilishga asoslangan va butun innovatsion loyihalarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini baholashga imkon beradigan iqtisodiy samaradorlikni baholashning dinamik usullari hamda, investitsion dasturlarni amalga oshirayotgan IKning investitsion davrning hisobot yili bo'yicha moliyaviy holatini tadqiq etishga asoslangan statik usullar keng qo'llanilib kelayotgan investitsion hisob-kitoblarni olib borishdagi xorijiy tajribaga katta qiziqish uyg'otadi.

10.1.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiya samaradorligini baholash

Innovatsion loyihalarni ishlab chiqishning investitsion oldi bosqichida ITTKI yangiliklari deyarli yakunlangan hisoblanadi, loyihaning texnik parametrlarining noaniqligi hisoblanmaydi. Ushbu

sharoitda loyihani davom ettirish bo'yicha masalani yechishda uning samaradorligini baholash uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion loyihani ishlab chiqishning ushbu bosqichida uning tasnifiy belgilari quyidagilardan iborat:

– ishlab chiqarishni tashkil etish va yangiliklarni (tovar, xizmat) sotish uchun investitsiyalarga ehtiyoj sezish (u loyihaning amalga oshirishning rejalashtirilgan ko'lamiga asosida yetarli ishonchlik darajasi bilan aniqlanishi mumkin);

– sotish hajmidagi noaniqlik (tijorat muvaffaqiyatining ehtimoli) mavjudligi (uning darajasi ichki omillar (masalan, marketing tadqiqotlarning chuqurligi va yo'nalganligi) hamda tashqi omillar (bozor konyunkturasi)dan bog'liq) har qanday investitsion loyihalardagidan deyarli farq qilmaydi.

Ushbu holatda investitsion oldi bosqichida innovatsion loyihalar investitsiyalar samaradorligini aniqlovchi ko'rsatkichlar yordamida baholanishi mumkin. Loyihaning samaradorligini baholash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:


– butun loyihani baholash – unda loyihaga jalb qilinayotgan mablag'larning ularning paydo bo'lish manbalari bilan bog'liq bo'lmagan holda (o'z va qarzga olingan, ichki yoki tashqi) mablag'larning iqtisodiy samaradorligi baholanadi;

– loyihani moliyalashtirish uchun o'z kapitalidan foydalanish samaradorligini baholash bosqichi.

Ehtimol loyiha samaralidir, ammo qimmatli kreditlar hisobiga moliyalashtirilganligi bois tashabbuskor yoki mavjud investorlar uchun jozibali bo'la olmaydi. Investitsion oldi bosqichida loyiha samaradorligining ikkita baholash usullari mavjudligi aynan shu bilan izohlanadi.

10.1-rasmda innovatsion loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar innovatsion jarayonning bosqichlari (innovatsiyalarning hayotiy sikli) bo'yicha batafsil tarzda keltirilgan.


Rasmda investitsiyalar qaysi turi (budjetdan moliyalashtirish, xavf-xatarli investitsiyalar, tijorat) loyihani amalga oshirish bosqichlarga qarab eng maqbul bo'lish mumkinligi ko'rsatilgan. Ushbu modelda investitsiyalarni qaytarish, foyda olish, sotish hajmlarning tushish payti va h.k. ko'rsatilgan.




10.1-rasm. Innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari

10.2-rasmda innovatsion loyihani amalga oshirish bosqichlari bo'yicha investitsiyalarning taqsimlanishi hamda innovatsion loyihalarning tayyor bo'lishi bilan investitsiyalarning (sarmoya qo'yilmalarning) pul daromadlari, ya'ni foydasiga aylanishi ko'rsatilgan.

Endi esa, loyihalarni davom ettirish maqsadga muvofiqligi to'g'risida qarorlarni qabul qilish uchun foydalanish mumkin bo'lgan uning samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini batafsil ko'rib chiqamiz. Loyihaning samaradorligi xarajatlar va natijalarning nisbatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tasniflanadi. 10.3-rasmda innovatsion loyihaning samaradorlik ko'rsatkichlari keltirilgan.



10.2-rasm. Innovatsion loyihada investitsiyalar



10.3-rasm. Innovatsion loyiha samaradorligi ko'rsatkichlari

Loyihaning *tijorat samaradorligi* talab qilinadigan daromadni ta'minlovchi moliyaviy xarajat va natijalarning nisbati bilan aniqlanadi. Tijorat samaradorligi butun loyiha uchun hamda uning ishtirokchilari uchun alohida hisoblanishi mumkin. Bunda t - qadamidagi TS_t samarasi sifatida haqiqiy pul oqimlari namoyon bo'ladi.

Har bir faoliyat turi doirasida pul oqimlarining kirimi $K_p(t)$ va chiqimi $Ch_p(t)$ yuzaga keladi. Ularning farqini $F_i(t)$ deb belgilaymiz:

$$F_i(t) = K_p(t) - Ch_p(t)$$

bu yerda, $i = 1, 2, 3$.

Haqiqiy pul oqimiga $Ch_p(t)$ loyihani amalga oshirishning har bir davrda (hisob-kitobning har bir qadamida) investitsion va operatsion faoliyati natijasidan keladigan pul mablag'larning kirimi va chiqimi o'rtasidagi ayirmasiga tushuniladi:

$$F(t) = [K_{p_1}(t) - Ch_{p_1}(t)] + [K_{p_2}(t) - Ch_{p_2}(t)] = F_1(t) + F'(t)$$

Budjetli samaradorlik ko'rsatkichlari loyihani amalga oshirish natijalarining tegishli (davlat, hududiy yoki mahalliy) budjetining daromad va xarajatlariga bo'lgan ta'sirini aks ettiradi. Loyihada ko'zda tutilgan davlat va hududiy moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini asoslash uchun qo'llaniladigan byujetli samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi budjet samarasi hisoblanadi.

Loyihani amalga oirishning t - qadami uchun budjet samarasi BS_t mazkur loyihani amalga oshirish bilan bog'liq tegishli budjetning daromadlarining BD_t uning xarajatlariga BX_t nisbati bilan aniqlanadi:

$$BS_t = BD_t - BX_t$$

Xalq xo'jaligi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi butun xalq xo'jaligi hamda loyihani amalga oshirishda ishtirok etayotgan hududlar, tarmoq tashkilotlar manfaatlari nuqtayi nazaridan loyihaning samaradorligini aks ettiradi. Mamlakat iqtisodiyoti darajasida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi hisob-kitobida loyihaning natijalari tarkibiga (qiymat ifodasida) quyidagilar kiradi:

– yakuniy ishlab chiqarish natijalari (barcha ishlab chiqarilgan

mahsulotni tashqi va ichki bozorlarda sotishdan tushum – mahalliy tashkilot-ishtirokchilar tomonidan iste'mol qilinadigan mahsulotdan tashqari). Bunga loyihani amalga oshirishda ishtirokchilar tomonidan yaratilayotgan mol-mulk va intellektual mulk (ixtiro, nou-xaudan foydalanish uchun litsenziyalar, EHM uchun dasturlar va boshqalar)ni sotishdan tushgan tushum;

– loyihaning barcha ishtirokchilarining hududlardagi aholi salomatligi, ijtimoiy va ekologik holati;

– to'g'ridan to'g'ri moliyaviy natijalar;

– xorijiy davlatlar, bank va firmalarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, import bojidan tushgan moliyaviy kirimlar va boshqalar.

Shuningdek, egri moliyaviy natijalarni hisobga olish ham muhim hisoblanadi. Ular loyihani amalga oshirish bilan shartlangan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: tashqaridagi tashkilot va fuqarolarning daromadlari o'zgarishi, yer uchastkalar, bino va boshqa mol-mulkning bozor qiymatlari hamda ehtimol bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar tufayli konservasiya uchun xarajatlar yoki ishlab chiqarish quvvatlarini tugatish, tabiiy resurslar va mol-mulkning yo'qolishi.

Qiymat baholashni amalga oshirish mumkin bo'lmaydigan ijtimoiy, ekologik, siyosiy va boshqa natijalar mamlakat iqtisodiyoti samaradorligining qo'shimcha ko'rsatkichlari sifatida ifodalanadi hamda loyihalarni amalga oshirish yoki uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarorlarni qabul qilishda inobatga olinadi.

Loyihalarning xarajatlar tarkibiga loyihada ko'zda tutilgan va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha ishtirokchilarning joriy xarajatlari kiradi¹⁵⁴. Innovatsion loyihalarning samaradorligini aniqlashda kutilayotgan xarajat va natijalarni baholash hisobot davri ichida amalga oshiriladi. Uning davomiyligi loyihani yaratish, foydalanish va tugatish davomiyligi, asosiy texnologik uskunaning xizmat ko'rsatishning o'rtacha hisoblangan me'yoriy muddati, investor talablari kabi omillarni hisobga olgan holda qabul qilinadi. Natija va xarajatlarni qiymatini baholash uchun bazisli, jahon, prognoz va hisob-kitobli narxlardan foydalanish mumkin. Bazisli narxlarga muayyan vaqt birligida xalq xo'jaligida shakllangan narxlar tushuniladi. U yoki bu mahsulot yoki resursning bazisli narxi butun hisobot davri

¹⁵⁴ Аистова М.Д. Анализ эффективности, основанный на использовании приведенной стоимости. // (Тезисы докладов конференции молодых ученых и специалистов Тверского региона). -Тверь, 1995.

davomida o'zgaraydigan narx deb hisoblanadi. Loyihaning iqtisodiy samaradorlikni bazisli narxlarda hisoblash, odatda, investitsion imkoniyatlarni texnik-iqtisodiy tadqiqotlar bosqichida amalga oshiriladi. Bazisli, prognoz va hisob-kitobli narxlar so'mda va turg'un valutada ifodalanishi mumkin.

Innovatsion loyihalarning samaradorligini baholashda turli vaqtga mansub ko'rsatkichlarni tenglashtirish ularni boshlang'ich bosqichida qiymatga keltirish (diskontlash) yo'li bilan amalga oshiriladi. Turli vaqtga mansub xarajat, natija va samarasini qiymatga keltirish uchun *diskont me'yori* (u investor uchun ma'qul bo'lgan kapitaldan tushgan daromad normasiga teng) qo'llaniladi. Loyihani amalga oshirish hisob-kitobining t qadamida o'rin olgan xarajatlarni, natijalarni va samarani bazisli vaqt makoniga texnik holda keltirishni ularni *diskontlash koeffitsiyentiga* ko'paytirish yo'li bilan amalga oshirish qulay hisoblanadi. U doimiy diskont me'yori δ uchun quyidagicha hisoblanadi:

$$K = \frac{1}{(1 + \delta)^t}$$

bu yerda, t – hisob-kitobning qadamlar soni ($t = 0, 1, 2, \dots, T$); T - hisob-kitobning chegarasi, ya'ni u loyihani amalga oshirish vaqtiga teng.

Shuningdek, loyihaning sof diskontlangan daromad, foydaning ichki me'yori, investitsiyalarning rentabelligi, ishlab chiqarish qo'yilmalarining qoplash muddati kabi muhim baholovchi ko'rsatkichlarni hisoblash nazarda tutiladi, bu esa investor uchun loyihaning mavjud jozibadorligini baholashga imkon yaratib beradi.

Sof diskontlangan daromad dastlabki qadamiga keltirilgan butun hisob-kitob davri uchun joriy samaralar summasi sifatida yoki integral natijalarning integral xarajatlaridan oshishi sifatida aniqlanadi.

Qoplash muddati – eng kichik vaqt oralig'i bo'lib, undan oshgandan keyin integral samarasi musbat bo'ladi va keyinchalik ham musbatligini saqlab qoladi. Boshqacha qilib aytganda, bu investitsion loyihalar bilan bog'liq bo'lgan boshlang'ich qo'yilmalar va boshqa xarajatlar loyihani amalga oshirishning umumiy natijalar bilan qoplanadigan davrdir.

Ammo, sanab o'tilgan mezonlardan birontasi ham o'z mohiyatiga ko'ra loyihani qabul qilish uchun yetarli deb hisoblash noto'g'ri.

Loyiha uchun mablag'larni investitsiyalash to'g'risidagi qaror barcha sanab o'tilgan mezonlar va innovatsion loyihaning barcha ishtirokchilarini hisobga olgan holda qabul qilinishi lozim. Ushbu qarorlarni qabul qilishda loyihani amalga oshirish uchun jalb qilinayotgan sarmoyaning tarkibi va taqsimoti hamda boshqa omillar ham asosiy rol o'ynashi lozim.

Loyihaning moliyaviy asosligini baholash moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji va ularni qoplashning mumkin bo'lgan manbalari (o'z va qarzga olingan mablag'lar)dan kelib chiqqan holda loyihani moliyalashtirishning optimal shaklini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Buning uchun ta'sischilarning mablag'larni jalb etish samaradorligi, qimmatli qog'ozlar emissiyasi baholanadi, kreditni qaytarib olishning optimal jadvali tuziladi, loyihani amalga oshirishning belgilangan davri davomida qaytarilishi mumkin bo'lgan kreditning yuqori ehtimol bo'lgan stavkasi hisoblanadi, aktivlarning likvidligi, rentabelligi va aylanish tezligi ko'rsatkichlari tahlil qilinadi, moliyaviy hisobotlarning zarur shakllari (pul mablag'lar harakati bo'yicha hisobot, foyda bo'yicha hisobot, loyihaning balansi) tayyorlanadi. Hisob-kitoblarda IKning kreditorlar, aksiyadorlar va davlat oldida majburiyatlari aks ettiriladi, soliq solish shartlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisobga olinadi.

Loyihaga mablag'larni investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilishda u bilan bog'liq xavf-xatarni ham tahlil qilish muhim hisoblanadi. Ushbu tahlil loyihaning iqtisodiy ko'rsatkichlarining O'zbekiston iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan inflyatsiya, noaniqlik, yuqori xavf-xatar kabi omillar ta'sirida tashqi muhitning o'zgarishiga ta'sirchanligini baholashga imkon beradi, ushbu ta'sirlarni yumshatish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Iqtisodiy sharoitlar o'zgarishining, ya'ni loyihani samarali amalga oshira oladigan chegaralari aniqlanadi, parametrik ssenariyasi va uni rivojlantirilishi tahlil qilinadi. Qarorni qabul qiluvchi shaxsga ushbu qarorni qat'i ravishda qabul qilishga imkon beradigan loyihani amalga oshirishdan olish mumkin bo'lgan natijalarning to'liq va asoslangan tavsiloti beriladi.

Sof to'lovlarning oqimi, ya'ni har bir hisobot davridagi tushum va investitsion xarajatlar, funksional-ma'muriy xarajatlar, budjetga qarz mablag'larning to'lovlar summasi o'rtasidagi farqi, sof diskontlangan to'lovlar oqimi va loyihaning samaradorlik koeffitsiyentlarini quyidagi

ko‘rinishga keltirish mumkin (10.1-jadval). Investitsiyalarning samaradorligini baholash uchun 10.1-jadvalda xalqaro hamda milliy amaliyotda umum qabul qilingan bir qator koeffitsiyentlarni hisoblash uslubi berilgan.

11.1-jadval

**Sof to‘lovlar oqimi va loyihaning samaradorligini
koeffitsiyentini hisoblash**

Bandlar	1	...	t	...	T
A. Mablag‘larning kirimi 1. Tushum 2. Kreditlar (qarz olingan mablag‘lar va ssudalar)					
B. Mablag‘larning chiqimi: 1. Asosiy va aylanma kapitalga investitsiyalar a) investitsion xarajatlar 2. Qarzga olingan mablag‘larni qaytarish a) qarzning asosiy qismi b) ssuda foizi 3. Funktsional-ma‘muriy xarajatlar (amortizatsiyasiz) 4. Budjetga to‘lovlar					
C. Sof to‘lovlarning oqimi					
D. belgilangan diskontlash me‘yorida δ (NPV) sof diskontlangan daromad					
E. Foydaning ichki me‘yori (IRR)					
F. Foydaning oddiy me‘yori (R)					
G. To‘liq qoplanish muddati (P)					
N. Loyihaning moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (K_{mm})					
I. Joriy likvidlik koeffitsiyenti (K_l)					

1. Integral ko‘rsatkichlar:

a) *sof diskontlangan daromad* (NPV) butun hisob-kitob davrida sof to‘lovlarning diskontlangan oqimlarining yig‘indisi bilan hisoblanadi:

$$NPV = \sum_{t=1}^T \left[\frac{1}{1+\delta} \right]^{t-1} C_t$$

bu yerda, δ – diskont me'yor; C_t – sof to'lovlarning oqimi.

Diskontlash yo'li bilan kelgusi daromad va xarajatlarning joriy qiymatlari aniqlanadi. Shu bois, diskont me'yorini δ kapitalning qiymati (cost of capital) deb ataladi, ya'ni uni ko'pincha investor kapitalining talab qilinadigan unumdorligi bilan aniqlaydi. Diskontning iqtisodiy mohiyati pul mablag'lardan farqli o'laroq – belgilangan davrda boy berilgan foyda me'yoridan iborat. Diskontlash koeffitsiyentini investorlarning xohishiga qarab o'zgartirish mumkin, ammo, bu o'zgarish xavf-xatar tufayli vujudga kelayotgan yo'qotishlarni qoplashi lozim. Diskontlashning yuqori koeffitsiyenti, uning kichik koeffitsiyentidan farqli o'laroq prognoz qilinadigan boshlang'ich mablag'larining kirimini kamaytirishni tezlashtiradi. Agar innovatsion loyihaning firma faoliyatini an'anaviy sohasidan ko'ra, xavf-xatari past deb faraz qilsak, uning odatdagidan ko'ra, yanada past ko'rsatkichi olinadi, δ ¹⁵⁵.

Kelgusi pul oqimlarining noaniqligi – diskontni tanlashda asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Agar kelgusi pul oqimlari noaniq bo'lsa, oddiygina xavfsiz qaytarib olish me'yorini $\delta_0(r_0)$ bo'yicha diskontlash lozim bo'ladi. Agar $NPV > 0$ bo'lsa, investitsiyalarning rentabelligi diskontlashning minimal koeffitsiyentidan oshadi; agar $NPV < 0$ bo'lsa, loyihaning rentabelligi minimal me'yoridan past bo'ladi va loyihadan voz kechishga to'g'ri keladi. Agar muqobil variantlar bo'lsa, NPV ijobiy miqdorini olish uchun kerak bo'lgan investitsiya hajmini aniqlashtirish talab etiladi. NPV ning investitsiyaning joriy qiymatiga $I_t = I \times K$ bo'lgan nisbati *sof diskontlangan daromad koeffitsiyenti* deb ataladi va investitsiyalardan tushadigan mablag'larning diskontlangan me'yoriga teng.

$$K_{NPV} = NPV / \sum_{t=1}^T \left[\frac{1}{1+\delta} \right]^{t-1} I_t$$

bu yerda, I_t – bir yilda t umumiy investitsion xarajatlar.

¹⁵⁵ Аистова М.Д. Анализ эффективности, основанный на использовании приведенной стоимости. (Тезисы докладов конференции молодых ученых и специалистов Тверского региона). -Тверь, 1995.

b) foydaning ichki me'yori (IRR).

Foydaning ichki me'yoriga sof daromadning joriy miqdori 0 ga teng bo'lgan diskontlangan koeffitsiyenti tushuniladi, ya'ni quyidagi ifodada ko'rsatilgan me'yordir δ :

$$azap = \sum_{t=1}^T \left[\frac{1}{1+\delta} \right]^{t-1} C_t = 0, IRR = \delta$$

Ushbu koeffitsiyent loyiha rentabelligining aniq miqdorini (loyiha uchun ichki diskontlangan koeffitsiyentini) ko'rsatib beradi. IRR umumiy investitsion xarajatlarning haqiqiy rentabellik darajasini ko'rsatadi. Investitsiyalash to'g'risida qaror IRR uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkalaridan yuqori bo'lgan paytda qabul qilinadi. IRR, shuningdek, kreditorlarga qarz berish shartlarini aniqlashda ham qo'llanilishi mumkin, chunki foiz stavkalari loyihaning likvidlikni pasaytirish xavfini qoplash miqdorida belgilanadi. IRR joriy narxlarda aniqlab olinayotganligi bois uni kapitalning haqiqiy qiymati bilan solishtirish kerak, ya'ni agar qarzga olingan mablag'lar bo'yicha foiz stavkalari - δ , diskontlash davrida inflyatsiya Δ fozini tashkil etsa, kapitalning haqiqiy qiymati ($\delta - \Delta$) teng bo'ladi, va IRRni aynan shu ko'rsatkich bilan solishtirish lozim.

2. Moliyaviy baholashning oddiy ko'rsatkichlar:

a) umumiy investitsion xarajatlardan olinadigan foydaning oddiy me'yori:

$$F = \frac{SF + Q_f}{I_j} \times 100\%$$

bu yerda, SF – sof foyda; Q_f – qarzga olingan kapital uchun foizlar; I_j – umumiy investitsiyalar;

b) aksiyadorlik kapitaldan olinadigan foydaning oddiy me'yori:

$$F = \frac{SF}{K_a} \times 100\%$$

bu yerda, K_a – aksiyadorlik kapital.

d) qoplash muddati.

Bu muddat loyihadan tushgan foyda (soliqlarni chegirib tashlangandan so'ng sof foyda + moliyaviy xarajatlar + amortizatsiya)

hisobidan kiritilgan sarmoya qo'yilmalarni qoplash uchun muddat hisoblanadi:

$$I_j = \sum_{t=1}^T [K_t + A_t + SF_t]$$

bu yerda, T – qoplash muddati; I_j – umumiy investitsiyalar; SF_t – yilida sof foyda; A_t – amortizatsiya; K_t – kapitalning qarzga olingan qismi bo'yicha foiz.

Agar loyiha bo'yicha pul kiriminin oqimlari belgilangan vaqt mobaynida doimiy bo'lsa, qoplash muddati quyidagicha hisoblanishi mumkin:

$$T_{qm} = \frac{I_j}{SF_t + K_t + A_t}$$

Ushbu ko'rsatkich barqaror bo'lmagan iqtisodiy holatlarda xavf-xatar darajasini baholash uchun qo'llaniladi. Biroq bu ko'rsatkich foydani tez muddatda olishni baholab, qoplash muddatidan so'ng moliyaviy oqimlar dinamikasini hisobga olmaydi. Diskontlashni hisobga oladigan usullar loyihaning samaradorligini baholash uchun qulaydir, chunki loyihaning butun faoliyat muddatini va uni amalga oshirish bosqichlari bo'yicha mablag'lar oqimining dinamikasini hisobga olishga imkon beradi.

e) *loyihaning moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti* (K_{mm}). Bu o'z mablag'larning ($O'Z_m$) qarz mablag'larga (Q_m) bo'lgan nisbatidir, bu esa, loyihaning moliyaviy jihatdan mustahkamligini ifodalaydi. Agar $K_{mm} = 1$ bo'lsa, moliyaviy mustaqilligi tanglik nuqtasiga yetadi.

$$K_{mm} = \frac{O'Z_m}{Q_m}$$

f) *joriy likvidlilik koeffitsiyenti* (K_{jl}). Loyihaning aylanma aktivlar miqdorining (AA) qarz mablag'lar (qarzlari - Q_m) miqdoriga nisbatidir:

$$K_{jl} = \frac{AA}{Q_m} \geq 1$$

Aylanma aktivlar – yo'naltirish mumkin bo'lgan mablag'lar.

Tashkilotning innovatsion faoliyati samaradorligini tavsiflovchi integral ko'rsatkichi sifatida IK *ishlarining haqiqiy natijaviylik koeffitsiyentidan* foydalanish mumkin (r).

Amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirayotgan mavjud investori raqobatbardoshlik mahsulotini yaratishga mablag'larni qo'yishda tijorat xavf-xatari darajasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi lozim. Ushbu mahsulot yangi avlod texnikani ishlab chiqish yoki chiqarilayotgan mahsulotni modernizatsiyalash natijasida bozorga chiqishi mumkin. Tijorat xavf-xatarning miqdori ko'pincha IKning ITTKIning olib borishda haqiqiy natijaviyligiga bog'liq. Ma'lumki, mamlakat bo'yicha IK ishlarining haqiqiy natijaviyligi 30–50% atrofidagi miqdori bilan aniqlanadi, ya'ni u koeffitsiyent r - 0,4 bilan ifodalanadi. Shu bois mavjud investor uchun hisob-kitob yo'li bilan u yoki bu IK ishlarining haqiqiy natijaviyligini aniqlash katta qiziqish uyg'otadi¹⁵⁶. Bunday hisob-kitob quyidagi formula yordamida bajariladi:

$$r = \frac{\sum R}{\sum_{i=1}^N Q_i - \sum_{i=1}^N (H_2 - H_1)}$$

bu yerda, r – IK ishlarining haqiqiy natijaviylik koeffitsiyenti; $\sum R$ – seriyali ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun qabul qilingan (tavsiya qilingan) yakunlangan ishlar bo'yicha umumiy xarajatlar; H_1 – tahlil qilinayotgan davr boshida yakunlanmagan ishlab chiqarish, so'm; H_2 – tahlil qilinayotgan davr oxirida yakunlanmagan ishlab chiqarish, so'm; N – tahlil qilinayotgan davrning yillar soni; Q_i – i yil uchun tadqiqot va ishlanmalar uchun haqiqiy xarajatlar, so'm.

Innovatsion loyihalarning samaradorligini aniqlash algoritmi ularni amalga oshirish bosqichida ikkita masalalarni yechishni ko'zda tutishi lozim:

- sinov tarzida innovatsiyalarni sotishni amalga oshirishda loyihaning samaradorligini baholash;
- loyihaning haqiqiy samaradorligini baholash.

Mazkur masalalarning birinchisi ishlab chiqarishni davom ettirish maqsadga muvofiqligini va yangilikni sotishni tahlil qilish bilan bog'liq. Samarani baholash usuli bu yerda investitsion oldi bosqichida loyihaning samaradorligini baholash usullaridan deyarli farq qilmaydi, ammo bunday baholash uchun qo'llanadigan ko'rsatkichlar prognozli

¹⁵⁶ Методические рекомендации по оценке инвестиционных проектов и их отбору для финансирования. Официальное издание. – М., 2000. – 222 С.

emas, balki haqiqiy hisoblanadi, shu bois olingan natijalar haqiqatga yaqin bo'ladi. Samaradorlikni tahlil qilish natijalari amalga oshirilayotgan innovatsiyalar bo'yicha marketing dasturlarni o'zgartirish, ya'ni sinov tarzda sotishlar natijasi bo'yicha yangi mahsulot (xizmat)larga nisbatan narx-navo, sotish va innovatsiyani qo'llab-quvvatlash siyosatini o'zgartirishni ko'zda tutadi.

Ikkinchi masala xo'jalik subyekti – IK tomonidan olib borilayotgan butun innovatsion siyosat bo'yicha qarorlarni qabul qilishni ko'zda tutadi. Innovatsion siyosatning integral xususiyatini (unda ko'plab innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha amaliyotlar umumlashtiriladi) inobatga olib, bu yerda samaradorlikni baholash mezonlari umumiy shaklga ega bo'lishi kerak va u alohida – ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik yo'nalishlar bo'yicha erishilgan haqiqiy natijalarni baholashni o'z ichiga olishi lozim.

10.1.3. Innovatsion loyihalarni baholashning asosiy tamoyillari

Innovatsion loyihaning **dolzarbligi** – bu uning vazifalarini mamlakat, hudud, xo'jalik subyekting ilmiy-innovatsion va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muvofiqligidir. Vazifalar sanoati rivojlangan mamlakatlarning ustuvorliklarini hisobga olgan holda boshqaruv subyektlari (davlat, hududiy darajada) yoki xo'jalik subyektlari tomonidan belgilangan ilmiy-innovatsion, iqtisodiy, ijtimoiy ustuvorliklar bilan aniqlanadi. Ustuvorliklar umumjahon rivojlanish tendensiyalarini, davlatning texnologik va ekologik xavfsizligini, iqtisodiy o'sishini, aholining turmush darajasini oshirishni ta'minlash muammolarini yechish zaruriyatini aks ettirishi lozim. Ular mamlakat, hudud, xo'jalik subyekting ilmiy-innovatsion rivojlantirish strategiyasi (konsepsiya, doktrina) asosida o'rnatiladi. Uning umumiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- fan va texnika rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash;
- texnologik rivojlanishda ustuvorlikni ta'minlash, resurslarni yangi qayta ishlab chiqish tamoyillarida yangiliklarni yaratish;
- import qilinadigan mahsulotdan ko'ra, yuqori raqobatbardoshlik ko'rsatkichiga ega bo'lgan iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'nalishida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
- aholining farovonligini ta'minlash obyektlarni texnik yangilash, tarkibiy qayta qurish va mavjud ilmiy-innovatsion va ishlab chiqarish

salohiyatidan maksimal foydalangan holda hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish;

– xo‘jalik subyektlarning mahsulotlarni doimiy tarzda raqobatbardoshligini oshirish va eksportga yo‘naltirilgan hamda import o‘rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish.

Innovatsion loyihaning **umumiy ahamiyati** shundan iboratki, xo‘jalik subyektlarni davlat, hududiy, tarmoq boshqaruv pog‘onalari nuqtayi nazardan baholash mumkin. Shu bois ham loyiha davlat, hududiy, tarmoq yoki xo‘jalik subyekti uchun ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu baholash muayyan loyihaga nisbatan turli birikmalarda bo‘lishi mumkin.

Davlat ahamiyati ilmiy-innovatsion va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning milliy maqsadlari bilan muvofiq holda aholi faoliyatining barcha sohalarida davlat ko‘lamidagi muammolarni yechish bilan bog‘liq.

Hududiy ahamiyati hududlarning salohiyatini ishga solish maqsadlari, mazkur hududga xos ijtimoiy va ekologik muammolarni yechish darajasini aks ettiradi.

Tarmoq uchun ahamiyati loyihaning mazkur tarmoqdagi ko‘plab xo‘jalik subyektlari uchun muhim bo‘lgan umumtarmoq muammolari yechiladi. Loyihaning xo‘jalik subyektlari uchun ahamiyati uning bozordagi texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni yechish bilan bog‘liq rolini kuchaytirish nuqtayi nazaridan baholanadi. Loyihaning umumiy ahamiyatini shartli ravishda uchta pog‘onada baholash mumkin: birinchisi (yuqori) – birlamchi muammolarni yechish; ikkinchisi – ustuvor muammolarni yechish; uchinchisi – kunlik muammolarni yechish.

Milliy ahamiyatga ega bo‘lgan loyiha uchun birlamchi muammolarga keskin ijtimoiy, budjet, inflyatsiya va boshqa muammolar; ustuvor muammolarga – hukumat tomonidan fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda belgilaydigan ustuvorlar sohadagi muammolar; kunlik muammolarga – masalan, davlat budjetini to‘ldirish, strategik import o‘rnini bosish muammolari kirishi mumkin. O‘xshash yondashuv loyihaning hududiy va tarmoq ahamiyatini baholashda ham qo‘llanilishi mumkin. Xo‘jalik subyekti uchun ahamiyatliligi ularning tashqi va ichki bozorlardagi holatiga qarab o‘zgaruvchan, yoki yakka tartibda bo‘lish mumkin, shu jumladan, u loyihaning mahsulot, xizmatlar sifatini oshirishga ta’sirini baholash; bozorda sotuvlarni kengaytirish va barqarorligi; xarajatlarni kamaytirish va ijtimoiy hamda ekologik

muammolarni yechish; istiqbolda bozorga chiqishni ko‘zlaydigan texnologik ko‘nikmalarni shakllantirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Loyihaning umumiy ahamiyati uning ma‘lumotlari va boshqa materiallarini tahlil qilish asosida mutaxassislar tomonidan ekspertiza qilish yo‘li bilan baholanadi.

Innovatsion loyihaga ta’sir etish sohalar bo‘yicha ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik baholashni ajratib olishimiz mumkin.

Ilmiy-texnik baholash quyidagi savollarga javob berishi lozim.

Birinchi, qabul qilingan texnik qarorlar sanoati rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy texnologik talablarga qanchalik mos keladi, ishlab chiqarishning yangi texnologik ukladiga o‘tishga qanchalik yordam beradi?

Ikkinchi, loyihaning, uning tarkibiy qismlarining yangilik darajasi va ko‘lami qanaqa, qanday patent bilan himoyalangan intellektual mulki mavjud?

Uchinchi, loyihada ko‘zda tutilgan texnologiya tamoyillari va texnik jihozlanganligi qanchalik istiqbolga ega, yangi mahsulotni chiqarish qaysi bozor, ichki bozor yoki tashqi (rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlar) bozor uchun mo‘ljallangan? Loyihani ilmiy-texnik baholash uchun mahsulot, xizmat, bajarilgan ishlarning texnologiya, uslublaridan foydalanuvchilarni qiziqtiradigan 1-4 asosiy parametrlari tanlab olinish mumkin. Boshqa barcha parametrlari alohida standartlar yoki umumqabul qilingan darajasi doirasida bo‘lishi, ya’ni baholashda chegara sifatida ishtirok etishi lozim.

Loyihaning *iqtisodiy baholash* unig har bir ishtirokchisining xarajat va natijalarining o‘zaro nisbatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimini ifodalaydi. Bozor mezonlari – foydani yuqori darajada oshirish va raqobat – loyihani iqtisodiy baholash tarkibida quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- vaqt ko‘lamida bozor ehtiyoji va sotish hajmini baholash;
- mahsulot, investitsiyalarning haqiqiy oqimlarini, joriy xarajat, moliyaviy faoliyatini baholash;
- xarajatlarni, yalpi va sof daromad hajmlari, ssuda foizlari, inflyatsiya sur’atlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq prognozli narxlarni baholash;
- iqtisodiyot samaradorligini integral ko‘rsatkichini baholash.

Asosiy baholash usullaridan tashqari loyihani qo‘shimcha iqtisodiy baholash, ya’ni resurslardan foydalanishni yaxshilashni baholash ham mavjud. Unga quyidagilar kiradi: mehnat, moddiy, moliyaviy

resurslardan, hududning salohiyatidan foydalanishni yaxshilashni baholash; loyihani amalga oshirish chog'ida shakllanayotgan intellektual mulkni sotishdan tushgan tushumni baholash va boshqa davlat, hududiy, tarmoq manfaatlari hamda xo'jalik subyektlari manfaatlaridan kelib chiqadigan baholash usullari.

Ijtimoiy baholash ijtimoiy muhitni yaxshilashda loyihaning hissasini va pirovardida – quyidagilarni baholash bilan ifodalanadigan aholining turmush darajasini oshirishni aks ettiradi:

– turmush darajasi – aholi daromadlari (o'rtacha ish haqi va boshqa to'lovlar); iste'mol tovar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik; tovar va xizmatlarga bo'lgan narx va tarif; aholi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulot va xizmatlarini iste'mol qilish; uy-joy va kommunal xizmatlari bilan ta'minlanganlik;

– turmush tarzi – aholi bandligi; kadrlarni tayyorlash (qayta tayyorlash, malakasini oshirishdan o'tadigan, yangi kasbga ega bo'ladigan ishchilar soni); aholini ta'lim, madaniyat, san'at, sport obyektlari, maktabgacha muassasalar tarmog'i bilan ta'minlash, ulardan foydalanish imkoniyati va darajasi; ijtimoiy xavfsizligi (huquqbuzarlik va jinoyatchilikni kamaytirish);

– sog'lom hayot kechirish davomiyligi – mehnat sharoitlarini yaxshilash (og'ir, zararli va xavfli mehnat sharoitlardagi ishchi o'rinlar sonini kamaytirish (kasbiy kasallanish va ishlab chiqarishda shikastlanish holatlarini kamaytirish); sog'liqni saqlash sohani rivojlantirish, sog'liqni saqlash obyektlari bilan ta'minlash, ularning xizmat ko'rsatish darajasini oshirish.

Innovatsion loyihani ijtimoiy baholash ikki turda bo'lishi mumkin: loyihaning ijtimoiy-maqсадli yo'nalganligini baholash va loyihaning ijtimoiy oqibatlarini baholash. Birinchi holatda ijtimoiy baholash uning maqsad tarkibiga kiradi, ikkinchi holatda esa – loyihani amalga oshirish natijasida vujudga kelayotgan ikkilamchi, yashirin oqibatlari sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsion loyihani *ekologik baholash* quyidagi baholash turlaridan tarkib topish mumkin:

– tashqi muhitga chiqindilarni tashlash. Baholash xavfli moddalarning REOT (ruxsat etilgan oxirgi to'yinish) bilan va atrof-muhitga ta'sir etish REOD (ruxsat etilgan oxirgi darajasi) hamda me'yoriy miqdorlarning chegaralari o'rnatilmagan ko'rsatkichlar va tasnifiy belgilar bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi va obyektning hududni ekologik sig'imiga (uning darajasi yangilikni foydalanishga

topshirish paytida tushib ketmasligi lozim) ta'siri va ekologik xavf-xatari (innovatsiyalar bilan bog'liq fojialarning ehtimolligi va darjasi) baholanishi mumkin;

– resurslarni qayta ishlashdagi tutashgan texnologik siklni hisobiga yoki chiqindilarni qayta ishlash tufayli chiqindisiz ishlab chiqarish. Baholash ishlab chiqarishning to'liq yoki qisman chiqindisiz texnologiyalarni hamda chiqindilarni foydali ishga sarflash, aylanma suv ta'minotini, kam chiqindi chiqaradigan va chiqindilar chiqmaydigan ishlab chiqarishni tashkil etish darajasini qayd etadi;


– biosferaga mos texnologiya turiga yaqinlashish – tabiiy resurslarni qayta ishlab chiqarishdan tabiiy, tutashgan ashyo-energetik sikl yoki tabiiy resurslarni qayta ishlash hajmlarini kamaytirishga yaqin bo'lgan jarayonga o'tish darjasi nuqtayi nazaridan texnologiyalarni baholash. Baholash loyihada qabul qilingan tabiatdan foydalanish an'anaviy qoidalarini yoki istiqbolda tabiatdan foydalanishning yangi turini yaratish bo'yicha ustuvor bo'lgan texnologik o'zgarishlarni qayd etishdan iborat bo'lishi mumkin.

Innovatsion loyihalarni ekologik baholashda *ekologik xavfsizlik* alohida ahamiyatga ega. Murakkab texnologik tizimlarni yaratish texnogen yuklamasi, ekologik xavfsizligiga xavfi va ekologik xavf-xatarning tez sur'at bilan oshishiga olib keladi. Ushbu vaziyatlarda baxtsiz oqibatlarining ko'lami mashinali texnika va texnologiyalardan foydalanish natijasidagi baxtsiz oqibatlarga teng emas. Shu bois, murakkab texnik tizimlarni loyihalashtirish, ishlab chiqish, ulardan foydalanish sifatiga, ularning ishonchliligini oshirishga, mehnatni tashkil etish, avariyaning bartaraf etish va ularning oqibatlarini barham berishning texnika va texnologiyalar darajasidagi kamchiliklarni avtomatik tarzda to'sadigan texnik vositalarni yaratishga bo'lgan talablari tobora oshib bormoqda.

10.2. INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGI TURLARI

10.2.1. Samardorlikni kompleks baholash

Innovatsion faoliyatning samarasi keng qirrali hisoblanadi. Ushbu samaralarning shartli o'zaro aloqasi 10.3-rasmda keltirilgan bo'lib, unda ilmiy-texnik samarasi sifatida ilmiy (Is), ilmiy-texnik (ITs) va texnik (Ts) samaralari namoyon bo'ladi.



10.3-rasm. Ilmiy-texnik, ijtimoiy, iqtisodiy samaralarning o‘zaro aloqalari

Bir qator mualliflar tomonidan samaraning ayrim tarkibiy qismlarini - ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy samaralarni jamlash yoki ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish bo‘yicha urinishlar huquqiy asosga ega emas¹⁵⁷. Ushbu samaralar turli sifatga ega, ammo bir-biri bilan bog‘liq. Ular innovatsion loyhaning natijalarini alohida yoki birgalikda tasniflashi mumkin, ammo bu faqatgina ularga mos bo‘lgan mezonlar va ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshiriladi. 10.2-jadvalda innovatsion loyihalarning turli bosqichlari uchun xarajat va samaralarning hisobga olish imkoniyatlari keltirilgan.

10.2-jadval


Fan sohasida xarajatlarni va ishlar samarasining turlarini hisobga olish imkoniyatlari

“Tadqiqot-ishlab chiqarish” siklining bosqichlardagi ishlari	Ilmiy ish uchun xarajatlar	Ilmiy ishlar samarasi						
		Iqtisodiy (IQs)			Ilmiy (Is)	Ilmiy-texnik (ITs)	Texnik (Ts)	Ijtimoiy (IJs)
		Mavjud	Kutilayotgan	Haqiqiy				
Fundamental tadqiqotlar (FT)	+	+			+			+
Amaliy tadqiqotlar (AT)	+	+	+		+	+		+
Tajriba-konstruktorlik ishlari (TKI)	+		+	+		+	+	+

Ko‘rinib turibdiki, xarajatlar turli ishlar uchun aniqlab olinishi

¹⁵⁷ Вегер Л.Л. Экономика научных исследований. – М.: Наука, 1981. – 326 С.

mumkin. Ilmiy ishlar natijalariga kelsak, ijtimoiy (IJs) va iqtisodiy (IQs) samaralar u yoki bu darajada barcha ilmiy ishlar turlariga, ilmiy samara – FT va ATlarga, ilmiy-texnik samara - AT va TKlarga, texnika samara – ishlanmalarga (ularni o‘zlashtirishda (Uz)) xosdir. Iqtisodiy samaraning Is, ITs va Ts bilan o‘zaro bog‘liqligi 10.4-rasmda keltirilgan.



10.4-rasm. Iqtisodiy samaraning Is, ITs va Ts bilan o‘zaro bog‘liqligi

Keltirilgan ma’lumotlar taxminiy hisoblanadi. Ilmiy va ilmiy-texnik ishlarining muayyan natijalari uchun ular aniqlashtirilishi mumkin. Bunda ilmiy samara ilmiy-texnik samarasiga aylanadi, u esa, o‘z navbatida, yangi buyum to‘g‘risida axborot rivojlangani sayin – texnik samarasiga aylanadi. Barcha sanab o‘tilgan samaralar iqtisodiy jihatdan baholanishi mumkin. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, «tadqiqot-ishlab chiqarish» (yoki yangi texnikani, yangilikni yaratish jarayoni) sikli bosqichida ilmiy g‘oya qanchalik chuqur tus olsa, samarani shunchalik aniq va to‘liq aniqlash ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Yangi texnikani joriy etish fundamental bilim va ilmiy yutuqlarni moddiylashtirish hamda amaliy foydalanishga o‘tish jarayoni sifatida o‘zining tuzilishi, ichki va tashqi o‘zaro aloqalari bo‘yicha juda murakkab hodisa hisoblanadi va bir qator ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy muammolarni yechish bilan bog‘liq.

«Samara» va «samaradorlik» toifalari iqtisodiy adabiyotlarda doimo qoʻllanib kelinmoqda. Bu atamalar – u yoki bu jarayonlarni tavsiflash uchun eng mashhur belgilardan biri hisoblanadi. Yangi tushunchalar kiritilayotgan hozirgi sharoitda keltirilgan toifalar turgʻun holda joriy etilmoqda. «Iqtisodiyot» oʻzi – samaradorlik, resurslarni samarali foydalanish toʻgʻrisidagi fan¹⁵⁸. Ammo hozirgi kungacha «samaradorlik» tushunchasining umum qabul qilingan yagona izohi mavjud emas. Har qanday ishlab chiqarish munosabatlarning oʻzgarishi insonlarning bevosita faoliyatida amalga oshiriladi, shu bois ushbu munosabatlarni tavsiflashda inson faoliyati natijalarini eʼtiborga olish lozim. Mazkur munosabatlar bir qator bogʻliqlikda aniqlab olinishi mumkin, ishlab chiqarish munosabatlarning oʻzgarish miqdorlari toʻgʻrisida fikr yuritishga imkoniyat beradigan muayyan parametrlar sonidan iborat va ularga ega boʻlishi mumkin. Ulardan bittasi “samaradorlik” toifasi hisoblanadi.

Agar ishlab chiqarish munosabatlarning amaldagi tizimi doimiy rivojlanish holatida turishi deb faraz qilsak, uning holati va parametrlarning dinamikasini vektor bilan ifodalash mumkin. Uning yoʻnalishiga bizning harakatlarimiz natijalari oʻz taʼsirini qanday oʻtkazadi (samaradorlik ijobiy, yoki salbiy), uning oʻlchami (vektor oʻlchami) esa – nisbiy miqdor, uning samarasini koʻrsatib beradi. Hammasi tasnifiy belgilarni berishga harakat qilayotgan parametrga (ushbu harakatlar samaralimi yoki yoʻqmi) nisbatan vektorni qoʻyish nuqtasiga bogʻliq. Samaradorlik (vektor) ishlab chiqarish munosabatlarining oʻzgarish yoʻnalishlarini (ijobiy yoki salbiy) koʻrsatadi. Samara (vektorning oʻlchami) – rejalashtirilgan yoki olingan natijani koʻrsatib beradi, natijada alohida ishlab chiqarish munosabatlari va uning natijalarining oʻzgarish yoʻnalishlari hosil boʻladi.

Innovatsiyani sotishdan olingan samaraning miqdori bevosita ularning *kutilayotgan samaradorligi* bilan aniqlanadi. U quyidagi qiymatlar bilan ifodalanadi:

- a) mahsulotlar boʻyicha (tovar assortimentlarning sifatini yaxshilash va oshirish);
- b) texnologik (mehnat unumdorligini oshirish va uning sharoitlarini yaxshilash);

¹⁵⁸ Менеджмент организации. Учебное пособие / Под ред. д.э.н., проф. З.П. Румянцевой, проф. Н.А. Саломатина. – М.: ИНФРА-М, 1995. – 432 С.

- d) funksional (boshqaruv samaradorligini oshirish);
- e) ijtimoiy (turmush sifatini oshirish).

Demak, xaridorlar uchun yangiliklarni iqtisodiy qiymati u yoki bu jalb qilingan resurslarning chegaralanganligi muammosini bartaraf etishga imkon beradigan uning kutilayotgan (prognozlanayotgan) foydasi bilan bevosita aniqlanishi lozim. Innovatsiyalarning qiymati ularning xaridorlari uchun bevosita ularni sotishdagi kutilayotgan foydaliligi bilan bog'liq. Iqtisodiy ma'noda innovatsiyaning qiymati va foydalilik tushunchalari quyidagilarni sifat va miqdorini o'zaro bog'langan holda tahlil qilish bilan tenglashtiriladi:

- a) ishlab chiqarilayotgan buyum (mahsulot);
- b) bajarilayotgan ish (mehnat va vazifa);
- d) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning o'zgarishi;
- e) sotish hajmi, bozordagi ulushi, daromad va amaldagi talab doirasida raqobatbardoshlikning boshqa ko'rsatkichlari.

Innovatsiyaning samaradorligi yaratilayotgan mahsulot, texnik tizim, tuzilmaning barcha zarur va kutilayotgan foydali samaralarning birligi hisobiga mehnat, vaqt, resurs va pullarning tegishli miqdorni tejashga qobilligi bilan aniqlanadi. «Fan samaradorligi» tushunchasi esa, ilmiy faoliyatni baholash muammolari majmuasiga bir qator jihatlarda keng tarqalgan, ular quyidagilardan iborat: iqtisodiy samaradorlik, ilmiy-texnik darajasi, ijtimoiy samaradorlik va h.k. Hozirgi kunda ITTKI samaralari majmuali yondashuvlariga asoslanadigan tadqiqotlar paydo bo'ldi. Ularning uchta turi mavjud: ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik va iqtisodiy. Ushbu samaralar o'zaro muayyan uyg'unlikka ega va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Shunda ITTKIni sotishdan olinadigan natijalar iqtisodiy, ijtimoiy yoki faqat ilmiy tavsifga ega bo'lishi mumkin. Iqtisodiy natijani mehnat, moddiy yoki tabiiy resurslarni tejashga olib keladigan yoki qiymat bahosiga ega bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, iste'mol va xizmat turlarini ko'paytirishga imkon beradigan natijaga aytiladi.

Ijtimoiy natijani, odatda, qiymat bahosiga ega bo'lmagan inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirish (salomatlikni yaxshilash, estetik talablarni qondirish va h.k.) uchun xizmat qiladigan natijaga aytiladi. Aksariyat ijtimoiy samarani bevosita yoki bilvosita o'lchash mumkin emas, bu yerda faqatgina sifat ko'rsatkichlar bilan cheklanadi. Ijtimoiy yutuqlar qanchalik muhim bo'lsa, uni integral miqdoriy baholash shunchalik qiyin kechadi. Buning uchun ko'plab samaralarni (ularning

biri faqatgina miqdoriy, ikkinchilari esa taqqoslanmaydigan birlik tizimida o‘lchanadi) qo‘shib olish lozim bo‘ladi. Shu bois, jamoa farovonlik ko‘rsatkichlarining butun yig‘indisini ekspert baholash usulidan foydalanishni qamrab oladigan afzallik shkalasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. 10.4-rasmdan ko‘rinib turibdiki, FT va ATning natijalari sifatida *ilmiy samara* mavjud iqtisodiy samara orqali baholanishi mumkin. Ilmiy-texnik samara AT, TKI va UZ natijasi bo‘lishi va kutilayotgan iqtisodiy samara orqali baholanishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, amaliy tadqiqotlar natijalarining 15% mavjud iqtisodiy samara bilan, 85% esa – kutilayotgan (keyinchalik ATdan foydalanish) iqtisodiy samara bilan tavsiflanadi.

Texnik samara xalq xo‘jaligi ishlab chiqarishdagi TKI o‘zlashtirish natijasida hosil bo‘lib, haqiqiy iqtisodiy samara bilan baholanadi. Xususan, o‘z natijalari 70% haqiqiy iqtisodiy samara bilan, 30% esa – kutilayotgan iqtisodiy samara bilan¹⁵⁹ baholash mumkin. Axborotlarning texnik takomillashuvi, yuqorida ta’kidlanganidek, parametrlar miqdorining, buyumlar ko‘rsatkichlari o‘shida ifodalanadi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, yangi texnikaning samarasi kutilayotgan ilmiy-texnik axborot negizida yotadi. Ko‘rsatilgan samara turlari asosida ularni baholash muammolarini hamda baholash mumkin bo‘lgan uslubiy yondashuvlarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

10.2.2. Ilmiy-texnik samaradorlik

Ilmiy faoliyatning samarasini baholash qiyin hisoblanadi, chunki bu sohada turli sifatga ega bo‘lgan samaralar mavjud. Ularning mohiyatini va o‘zaro aloqadorligini aniqlash uchun ularning har birini tahlil qilish lozim. Ilmiy mehnatning rivojlanish intensivligi ko‘pincha ITT talablariga muvofiq holda tadqiqot va ishlanmalar yo‘nalishlari qanchalik o‘z vaqtida aniqlanganligi hamda FT va AT olib borish natijasida ilmiy axborotning qanchaga ko‘payganligi bilan ifodalanadi.

Ma’lumki, ilmiy mehnat yoki YaTYaJ jarayonida ilmiy mahsulotlarni yaratish natijasida olinadigan samara axborotning ko‘payganligini ifodalaydi. Ushbu samara, agar ilmiy axborotning ko‘payganligi o‘rin olsa, faqatgina ilmiy bo‘lishi mumkin. Agar YaTYaJ ishlar natijasi bo‘lsa, ilmiy-texnik samarasiga aylanadi va u

¹⁵⁹ Пузыня К.Ф., Запаснюк А.С. Экономическая эффективность научно-исследовательских и опытно-конструкторских разработок. – Л.: Машиностроение, 1980. –228 С.

ilmiy-texnik axborotning o‘shida o‘z ifodasini topadi. Va nihoyat, ilmiy-texnik axborot negizida ishlab chiqarishni rivojlantirish texnik samarasini namoyon qiluvchi texnik axborotlarning o‘shiga sabab bo‘ladi. Ilmiy va ilmiy-texnik samaralar ilgari to‘plangan bilimlardan foydalanish natijasida, ya’ni axborotlarning o‘shishi sharoitlarida yoki ularni shakllantirish jarayonida bir-biridan farq qiladi.

Fan to‘plagan bilimlar tizimi sifatida «tik» – bilim va ilmiy fanlar tarmog‘ini takomillashtirish va to‘plangan axborotlarni avloddan avlodga yetkazib berish yo‘li bilan rivojlanib bormoqda. Shuningdek, ilmiy axborot «yotiq» holda almashinadi. U quyidagi xilma-xil kanallar bo‘yicha amalga oshadi: kitoblar, davriy ilmiy nashriyotlar, patentlar, standartlar, me‘yorlar, hisobotlar, to‘g‘ridan to‘g‘ri yozishmalar, muloqotlar, anjumanlar va h.k. Bunda bilimlarni to‘plash tizimi sifatida fanning «tik» va «yotiq» rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Fanning tabaqalanishi va integratsiyasi yangi bilim, mutaxassislik sohaslarining, yangi axborotlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratib beradi. Masalan, oxirgi 40 yil ichida chop etishlar hajmi 8-10 martaga ko‘paydi, mana shu davr ichida ilmiy-texnik natijalar hisobiga ilmiy-texnik samara 2-3 martaga oshdi¹⁶⁰. Barcha ilmiy va ilmiy-texnika axborot turlarida ilmiy va ilmiy-texnik samaralar mavjud to‘plangan samara sifatida namoyon bo‘ladi. Nashrlarda aks ettirilgan axborotning ko‘payishini qo‘llash imkoniyatlari, iste‘mol qiymatidan kelgusida foydalanishdan olinadigan samaraga teng. O‘xshash samara fanning dinamik qismi – ilmiy mehnatdan foydalanishdan olingan axborotning ko‘payishida paydo bo‘ladigan ilmiy va ilmiy-texnika natijalarda namoyon bo‘ladi.

Bu ilmiy tadqiqotlarning natijaviyligini baholash uchun bibliometrik ko‘rsatkichlar (nashrlar, havolalar soni, olinadigan patentlar soni)dan foydalanishga asos bo‘la oladi. Bu esa ma‘lumotlarni to‘plash osonligi, alohida ilmiy jamoalar bilan taqqoslash uchun ulardan foydalanish imkoniyatlari mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, AQSHda yetakchi jahon ilmiy jurnallaridagi nashrlar to‘g‘risida axborotlarni o‘z ichiga olgan bibliometrik ma‘lumotlar bazasi yaratilgan, doimiy ravishda sitata qilish indeksleri hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlar ITI natijalarini, maqolaning sifat darajasi va yangilikni to‘liq aks ettirish imkoniyatini bermaydi.

¹⁶⁰ Завлин П.Н., Васильев А.В., Кноль А.И. Оценка экономической эффективности инвестиционных проектов (современные подходы). -СПб.: Наука, 1995. – 168 С.

Ko‘plab ilmiy nashrlar fanlararo tavsifga ega, bu esa tegishli ko‘rsatkichlarni hisoblashga qiyinchilik tug‘diradi. Bundan tashqari, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ITI samaradorligini baholash sifatida bibliometrik ko‘rsatkichlardan foydalanish nashrlar soni sun‘iy ravishda ko‘payib ketishiga olib keladi.

Ammo, yuqorida aytib o‘tilgan kamchiliklarga qaramay, amaliyotda ilmiy faoliyat natijaviyligini baholash uchun ushbu ko‘rsatkichlardan foydalanib kelinmoqda. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, nashrlar soni, ITI moliyalashtirish darajasi va olimlarning ilmiy maqomi o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlik mavjud. Ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini tahlil qilish uchun bibliometrik ma’lumotlardan tashqari boshqa miqdoriy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi: xalqaro anjumanga taklif etilgan ma’ruzachilar soni, olimlarning migratsiyasi, xorijiy manbalar hisobidan ilmiy tadqiqotlar uchun loyihalarni olish, xorijiy akademiya va ilmiy jamiyatlarda a’zoliqi va h.k.

Darhaqiqat, nashr – bu ilmiy mehnatning natijasidir. Biroq nashr etish mezonini chetlagan holda yuqori samarali ilmiy mehnatning natijalaridan foydalanishni ta’minlay oladigan ilmiy-texnik samarani ajratib olishimiz mumkin. Yuqorida izohlanganidek, ushbu samaralarni o‘lchash qiyin, chunki u ko‘plab omillar bilan aniqlanadigan va turli oqibatlarga olib keladigan axborot ko‘payishining negizida yotadi. G.A. Laxtin mamlakat xalq xo‘jaligida mehnat unumdorligi va ilmiy ishchilarning faoliyati o‘rtasidagi aloqadorlikni tadqiq etishga urinib ko‘rgan. Ushbu aloqadorlikni u quyidagicha ifodalagan:

$$\Delta Q \prec \Delta I \times T$$

bu yerda, ΔQ – xalq xo‘jaligida mehnat unumdorligining o‘sishi; ΔI – axborotlarning ko‘payishi; T – jamiyatda axborotlar harakatlarini, avvalambor, ulardan moddiy ishlab chiqarishda foydalanishni tavsiflovchi intensivlik omili.

Ammo amaliyotda axborotlar ko‘payishi miqdor jihatdan o‘lchash imkoniyati yo‘q, chunki ilmiy mahsulot hajmi «bit» o‘lchovi (axborotlar birligi)da yoki g‘oyalar soni bo‘yicha o‘lchashning iloji yo‘q. G.A. Laxtin tomonidan tavsiya etilgan formulani amaliyotda qo‘llash qiyinligini tushungan holda shunday yozadi: «Ishlarning

natijasida olingan tadqiqot mahsulotlar sonini o'lchashga imkoniyat bo'lmasa, hech bo'lmaganda ushbu ish bajarilganligi yoki bajarilmaganligini baholashga harakat qilish mumkin»¹⁶¹. Biroq bu yondashuv nafaqat miqdoriy, balki sifatni baholashni, ya'ni mazkur baholash turlarini uyg'unlashtirish yo'li bilan ilmiy mehnat natijasi sifatida ilmiy samarani aniqlashni nazarda tutadi. Bunda ilmiy samara yangi axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish va ko'p marta undan foydalanish (ilmiy mehnatning iste'mol qiymat xususiyatlari) imkoniyatlarini aks ettiradi hamda ehtiyojlarni qondirish darajasini (yaratilgan axborot sifatining xususiyati)ni namoyon qiladi.

Jahon amaliyotida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va yangiliklarni amalga oshirish uchun mablag'larning doimiy ravishda ortib borishiga olib keladigan texnik loyihalar murakkab va qimmat bo'layotgan hozirgi sharoitda kerakli natijalarga erishishda xavf-xatar darajasini aniqlash muammosining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Chunki, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda moliyalashtirish tashkilot uchun og'ir ahvolga, ayrim hollarda halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois, ishlab chiqarish tizimining yirik ilmiy g'oyalar, kashfiyot va tubdan yangi ixtirolar hisobiga emas, balki mayda ixtiro va unumlashgan takliflarni amalga oshirish yo'li bilan texnik bazasini takomillashtirishning evolutsion jarayoniga o'tishiga intilish kuchayib bormoqda. Tabiiyki, ushbu yo'l xavf-xatarni kamaytirishi mumkin, ammo jadal ilmiy-texnik rivojlanishni ta'minlay olmaydi.

Buyurtmachi nuqtayi nazaridan, hal qiluvchi omillardan biri texnik va tijorat xavf-xatarlar yig'indisi bilan ifodalangan umumiy xavf-xatar hisoblanadi. ITTKIning ijrochi ushbu ikkita xavf-xatarni, uning qaysi birini to'liq o'z zimmasiga olish, qaysini buyurtmachi o'rtasida taqsimlash to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi uchun alohida baholash lozim. Texnik xavf-xatarning miqdori ITTKIni bajarishdan oldin mavjud ilmiy-texnik ko'nikmasini baholashdan kelib chiqib aniqlanadi. Ilgari olib borilgan FT va AT, ishlanmalar, maketli va laboratoriya namunalarining natijalari texnik muammolarga muvaffaqiyatli barham berilish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

Texnik xavf-xatar o'lchamini aniqlashning eng oddiy va qulay usullaridan biri ekspert baholash hisoblanadi. Bu texnik xavf-xatarni baholashning o'ziga xos usullarini yaratish zarurligini inkor etmaydi,

¹⁶¹ Лахтин Г.А. Тактика науки. -Новосибирск: Наука, 1969. – 252 С.

ayniqsa ularni ishlab chiqish uchun dastlabki shartlari mavjud bo'lsa¹⁶².

Eng katta ilmiy va ilmiy-texnik samarani boshqa g'oyalarda mujassam etadigan ilmiy g'oyalar hamda xalq xo'jaligining ko'plab tarmoqlarida amalga oshiriladigan ilmiy-texnik yangiliklar beradi. Ular aksariyat texnik yangiliklarni ham yuzaga chiqaradi. Xususan, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida katta integral shakllarga mikroprotessorlar – tegishli dasturlar orqali obyektни boshqarishning turli vazifalarni bajaradigan ixcham hisoblash uskunalari joriy qilinadi (operatsiyalar ketma-ketligi dasturlangan kir yuvish mashinadan belgilangan dastur bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish mexanizmi-gacha). Hisob-kitoblarga ko'ra, yaqin istiqbolda mikroprotessorlar 200 mingdan ortiq turli xil uskuna hamda sanoat mexanizm va maishiy texnikalarda qo'llanadi.

FT samaradorligini baholashda katta qiyinchiliklar vujudga keladi. Ularning natijalarini iqtisodiy jihatdan baholash mumkin emas. Ularni baholashning negizi – ilmiy samara hisoblanadi. Ularni muayyan tadqiqot (mavzu) bo'yicha o'lchashni faqatgina ekspert-ballik baholash asosida amalga oshirish mumkin. Buning uchun ilmiy samarani nashr etish ma'lumotlar (to'plangan bilimlar tizimini kengaytirish) va olingan ilmiy mehnat natijalarini (ularning keyinchalik tadqiqot, ilmiy tashkilot, ishlab chiqarishda mujassam etgan holda) chegaralab qo'yishga urinib ko'rish lozim.

Maqola, patent va boshqalar miqdor jihatdan hisoblanishga asoslangan yondashuvlar tadqiqot natijalarining sifatli jihatlariga chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu bois aksariyat tadqiqotchilar tadqiqotlarni baholashning eng maqbul uslublaridan biri mazmundor komponentli baholash usuli, deb hisoblashadi. Ushbu usul ekspertlarni jalb etgan holda ITI natijaviyligini ballik baholashdan foydalanish yordamida amalga oshiriladi.

Rasmiy ballik baholashning ko'plab variantlari mavjudligiga qaramasdan, ularning barchasi bir nechta oddiy holatlarga asoslanadi:

- har bir ilmiy natijaga muayyan miqdorli ball beriladi;
- bir qancha mezonlar mavjud bo'lsa ilmiy tadqiqotlarning umumiy natijaviyligida kutilayotgan shaxsiy natijaning ahamiyatini tavsiflovchi muayyan «vazn» beriladi;

¹⁶² Лахтин Г.А. Тактика науки. -Новосибирск: Наука, 1969. – 252 С.

– ilmiy natijaviyligini baholashda ilmiy natijaning har bir shaxsiy turi bo‘yicha ballarning miqdori tegishli vaznli koeffitsiyent miqdoriga ko‘paytiriladi va ularning yig‘indisi chiqariladi.

Ilmiy tadqiqotlarning ahamiyatini baholashga bo‘lgan ushbu yondashuvni misol sifatida V.S. Libenson tomonidan ishlab chiqilgan FT ilmiy samarani baholash uslubiyatini (muallif uni ilmiy tadqiqotlarning samaradorligi deb ataydi) keltirish mumkin. U tomondan ilmiy axborotlar guruhlarining beshta tasnifiy belgilarga ega bo‘lgan shkalasi taklif etilgan. Har bir guruh tegishli ballar – alohida oddiy omillarni izohlash bo‘yicha 1 balldan, nazariy qonuniyatlarni asoslash bo‘yicha 5 ballgacha va 5 ballik yangilik darajasining ko‘rsatkichi bo‘yicha baholangan. Mavjud axborotlarni umumlashtirish (1 ball)dan tubdan yangi ilmiy axborotlarni olishgacha (masalan, yangi nazariyani ishlab chiqish (10 000 ball)) baholangan. Shunday qilib, ilmiy axborot guruhlarining ballarini yangilik darajasining ballariga ko‘paytirish yo‘li bilan ilmiy samarani aniqlash harakatlari amalga oshirilgan. Oddiy kuzatuvlar va keyinchalik ilmiy axborotlarni umumlashtirish sohadagi ishlarda ilmiy samara 1 (1x1) ga teng bo‘ladi, ilmiy axborotlarning eng yuqori guruhda – yangi nazariyani o‘rganish va ushbu nazariyani yaratish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda esa – ilmiy samaraning natijasi 50 000 (5x10 000)ga yetishi mumkin. Keltirilgan shkala, shubhasiz, FTning ilmiy samarasini o‘lchashda foydalanilishi mumkin. Bundan tashqari, ishlab chiqilgan shkala barcha ilmiy ishlar uchun maqbul bo‘lavermaydi. U fundamental tadqiqotlarning ayrim natijalari uchun qo‘llanilishi mumkin, biroq nashrda ushbu shkala ITTKI baholashda ham ko‘llanilishi mumkin degan g‘oya ham chop etildi¹⁶³.

Ayrim ishlarda ilmiy-texnik samarani baholash ilmiy samarani baholash kabi amalga oshiriladi. Xususan, A.S. Zapasnyuk ilmiy-texnik samaraning eng muhim belgilariga yangilik darajasi, nazariy darajasi va uni amalga oshirish imkoniyatlarini kiritadi¹⁶⁴. Muallifning umumiy fikrlarning yo‘nalishini e‘tirof etgan holda biz ular ITTKI uchun emas, balki faqatgina FT natijalar uchun, ya’ni IT ilmiy samara tasnifiy belgilar uchun ma’qul tushadi deb hisoblaymiz. A.S. Zapasnyuk ishlanma yangiligining tubdan yangi darajasini 8-10

¹⁶³ Первозванский А.А., Первозванская Т.Н. Финансовый рынок: расчет и риск. – М.,1994.–192 С.

¹⁶⁴ Статистика науки и инноваций: Краткий терминологический словарь / Под ред. Л.М. Гохберга. – М.: ЦИСН, 1996. – 526 С.

ball bilan, an'anaviysini esa – 1 ball bilan baholaydi¹⁶⁵. Fundamental, hattoki amaliy tadqiqotlar natijasini baholash uchun bu to'g'ri holat. Ammo, TKI natijalarni baholash uchun ushbu g'oya ishlab chiquvchini mo'ljaldan chiqarishi mumkin. Ilmiy-texnik samara koeffitsiyentini oshirishga intilib, detalning yangiligini turli usullar bilan, masalan, noyob detallar sonini ko'paytirish yo'li bilan oshirishga harakat qiladi.

Bizning nazarimizda, ilmiy-texnik samaraning eng aniq belgilari V.A. Pokrovskiy tomonidan berilgan: tavsiya etilgan natijalarning ilmiy-texnik darajasi, istibolligi, joriy etishning mumkin bo'lgan ko'lami (mamlakat iqtisodiyoti, tarmoq, vazirlik ichki) va muvaffaqiyatning ehtimollik darajasi (yuqori, o'rta, kichik)¹⁶⁶. V.A. Pokrovskiy tomonidan ilmiy-texnik samarani hisoblash uchun keltirilgan baholash faqatgina ballik tizimni qo'llashga asoslangan. Shuningdek, K.G. Fedorov tomonidan ishlab chiqilgan yangilik va joriy etilgan ko'rsatkichlar shkalasi yuqori ahamiyatga ega bo'lib, muallif fikriga ko'ra, ular ilmiy-texnik ishlarning samaradorlik va sifat mezonlari hisoblanadi¹⁶⁷. Shkalalarni baholash asosida ballik tizimi yotadi. Ularning tuzilish tamoyillarini ko'rib chiqamiz.

Yangilik darajasi shkalasining tuzilishi yangi bilimlarni olish (FT) yoki yangi tur mahsulot (ITTKI) ishlab chiqarishga qaratilgan turli tavsifdagi ishlarga tabaqalashgan yondashuvni ko'zda tutadi. Yangilikning yuqori va quyi darajalari o'rtasidagi diapazoni 50 balldan 1 ballgacha; joriy etilganlikning yuqori va quyi darajalari o'rtasidagi diapazoni 7 balldan 1 ballgacha deb qabul qilingan. Ulardan sanoatda amaliy foydalanishga yaqinlashishi bilan ballik baholash oshib boradi. Ishning umumiy integral baholashni (ilmiy-texnik samarani) aniqlash uchun K.G. Fedorov yangilik darajasi va joriy etilganlik darajasi baholashlarni bir-biriga ko'paytirishni taklif etadi. Bu turli yo'nalishlardagi ishlarni taqqoslashga imkon beradi: yuqori yangilik darajasi va quyi joriy etilganlik darajasiga ega fundamental tadqiqotlar va qisqa muddatda amalga oshiriladigan, ammo yangilik darajasi har doim ham yuqori bo'lmagan amaliy ishlar. Bitta ko'rsatkich bo'yicha baholashning quyi darajasi boshqa ko'rsatkichni baholashning yuqori darajasi bilan qoplanadi.

¹⁶⁵ Статистика науки и инноваций: Краткий терминологический словарь / Под ред. Л. М. Гохберга. – М.: ЦИСН, 1996. – 526 С.

¹⁶⁶ Пузыня К.Ф., Запаснюк А.С. Экономическая эффективность научно-исследовательских и опытно-конструкторских разработок. – Л.: Машиностроение, 1980. – 200-202 С.

¹⁶⁷ Федоров К.Г. Стимулирование эффективности и качества научной работы. – М.:Химия, 1980. –74-76 С.

Shu o‘rnida, ekspert-ballik usulida mavjud bo‘lgan ayrim kamchiliklarni aytib o‘tish lozim. Xususan, ularga quyidagilar kiradi:

– ilmiy tadqiqotlar bir qancha yetakchi muassasalarida olib borilishi mustaqil va malakaviy ekspertizani olib borishni qiyinlashtiradi;

– tizim yosh olimlar, yangi tashkilot va yangi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarga yo‘l qo‘ymay, yetakchi olimlar, ilmiy jamoalar, tashkilotlar va an’anaviy yo‘nalishlariga urg‘u berib, ilmiy tadqiqotlar sohasida yangiliklarni amalga oshirmaslikni keltirib chiqaradi;

– tizim malakaviy mutaxassislar uchun katta moliya va vaqt xarajatlarni sarf qilishni talab etadi.

Shunga qaramay, ilmiy tadqiqotlar ahamiyatini ekspert-ballik baholash hozirgi kunda ilmiy-texnik ishlanmalarni davlat darajasida va aniq firma darajasida moliyalashtirish hamda qo‘llab-quvvatlash masalalarini yechishda asosiy usullardan biri hisoblanadi. Xususan, AQSHda ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish yo‘nalishlari to‘g‘risida masalalarni yechishda budjetdan Prezidentning Ilmiy-masalihat kengashi, Prezident apparatining Ilmiy-texnik siyosat boshqarmasi, Kongressning tadqiqot guruhi, Texnologiyalarni baholash boshqarmasi va boshqalar ishtirok etadi¹⁶⁸. Ilmiy adabiyotlarda o‘xshash soha va boshqa davlatlardagi olimlarni jalb qilish va ulardan taqriz olish bo‘yicha takliflarni, taqrizchi va taqriz oluvchi o‘rtasida munozaralarni tashkil etishni, ilmiy tadqiqotlarni baholashning foydalanilayotgan mezonlar tizimini aniqlashni o‘z ichiga olgan ekspert baholash usullarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar qizg‘in muhokama qilinmoqda.

Muhokamalarning bosh maqsadi olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning samaradorlik darajasini baholash uchun miqdoriy ko‘rsatkichlardan foydalanish zarur ekanligidan iborat. Miqdoriy indikatorlardan foydalanish ilmiy-texnik yutuqlarni taqqoslama tahlilni yanada obyektiv tarzda olib borishga imkon beradi.

10.2.3. Ijtimoiy samaradorlik

Ilmiy-texnik innovatsiyaning ijtimoiy oqibatlarini baholash innovatsion faoliyat samaradorligining metodologik jihatdan eng

¹⁶⁸ Грейсон Дж. К.-мл., О’Делл К. Американский менеджмент на пороге XXI века. Пер.с англ. / Авт. предисл. Б. З. Мильнер. – М.: Экономика, 1991. – 319 С.

murakkab muammolar toifasiga kiradi. Bir tomondan, ijtimoiy maqsadlar va unga mos ravishda ijtimoiy samaradorlik har qanday loyihani baholashning asosiy mezonlari sifatida namoyon bo'lishi lozim, chunki ITT va har qanday innovatsion loyihaning yakuniy maqsadi jamiyat turmushini yaxshilash, uning uyg'unlashgan holda rivojlantirishdan iborat. Shu bois loyihaning aynan ijtimoiy maqsadlari davlat innovatsion siyosatini shakllantirishdan ustunroq turishi lozim.

A. Fonotov, innovatsion siyosatni ishlab chiqishga nazariy-uslubiy yondashuvlarni tahlil qilib, uni amalga oshirish natijalariga quyidagilar kirishi lozim¹⁶⁹ deb qayd etadi:

- eng yuqori me'yoriy talablarga javob beradigan yangi texnologik tizimni keng yoyilishi hisobiga ITTning ijtimoiy yo'nalganligining yuqori darajasiga erishish;

- jamoa ishlab chiqarishning mahsuldorligi va samaradorligining oshishi, shahar va qishloq aholisining predmetli maishiy yashash muhitini takomillashtirish natijasida aholining sifat jihatdan yangi turmush darajasi;

- resurslarni tejashning sifat jihatdan yangi darajasi, mehnat mahsuldorligi, fond samardorligini oshishi, mahsulot uchun material, energiya, sarmoyalarni sarflashning kamayishi;

- mahsulotning yuqori raqobatbardoshlik ko'rsatkichiga erishish va shundan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotning xomashyo sektorini yengillashtirish va qayta ishlash tarmoqlarining hissalarini oshirish yo'nalishida xalq xo'jaligi va tashqi savdo tuzilmasini tubdan isloh qilish;

- mamlakatning texnik tomondan orqada qolishini bartaraf etish;

- yangi, yanada yuqori darajadagi iqtisodiy rivojlanish darajasida asoslangan ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirish;

- sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, tubdan qayta qurish va ta'minlash natijasida yangiliklar jarayonida insonlarga texnika yukining oshib borishini bartaraf etilishi.

Boshqa tomondan ijtimoiy samaraning ko'plab namoyonlarini aniqlash qiyin yoki umuman iloji yo'q, faqatgina ularni miqdor jihatdan izohlash mumkin. Odatda, ijtimoiy yutuq qanchalik ahamiyatli bo'lsa, unga integral miqdoriy bahosini berish shunchalik

¹⁶⁹ Фонотов А. От мобилизационного к инновационному типу развития // Вопросы экономики. 1993. № 11. – 111 с.

qiyin kechadi.

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlari – pirovard maqsad bo‘lib, ularga erishish uchun ITTKI bajariladi. «Ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarning tasnifi ilm-fan rivojlanishida shakllangan istiqbollarni baholash uchun mo‘ljallangan va ilmiy-texnik siyosatini shakllantirishning muhim dastagi sifatida xizmat qiladi». Ushbu tasnif «milliy fan statistikasida qo‘llanilib, davlat ilmiy-texnika siyosati vazifalaridan kelib chiqib tuziladi va Iqtisodiy hamkorlik hamda rivojlanish tashkiloti, Yevropa statistika tavsiyalariga mos keladi...»¹⁷⁰.

Innovatsion loyihalarning ijtimoiy oqibatlarini baholash amaliyotida ushbu muammoni yechishga imkon beradigan bir qator uslubiy qo‘llanmalar shakllangan. Loyiha ijtimoiy samarasining ijtimoiy standart me‘yorlariga me‘yoriy talablar o‘rnatilgan tarkiblari uchun, masalan, ekologik va sanitariya-gigiyena me‘yorlari uchun loyihani baholashning me‘yoriy parametrlari qo‘llanilishi mumkin. Masalan, agar loyiha o‘rnatilgan me‘yorlarni qanoatlantirsa, ijtimoiy samaraning tegishli tarkiblari loyihani amalga oshirish natijasida erishiladi. Bir tomondan, jamiyatning zamonaviy rivojlanish darajasiga mos ilmiy asoslangan me‘yoriy talablarni o‘rnatish, ikkinchi tomondan esa – o‘tib ketish tavsifdagi talablarni o‘rnatish muammosi mavjud

Ijtimoiy samaradorlikning alohida tarkibiy qismlari qiymatli bahosiga ega va loyihaning iqtisodiy samaradorligini hisoblashda qayd etiladi. Ularga quyidagilarni kiritish tavsiya qilingan¹⁷¹:

- hududda ishchi o‘rinlar sonining o‘zgarishi;
- ishchilarning yashash va madaniy-maishiy sharoitlarining yomonlashishi;
- ishchilarning mehnat sharoitlari o‘zgarishi;
- ishlab chiqarish personalini tuzilmasi o‘zgarishi;
- hudud aholini ayrim mahsulotlar (yonilg‘i va energiya – yonilg‘i-energetik sektordagi loyihalar uchun, oziq-ovqat mahsulotlari – agrar sohadagi va oziq-ovqat sanoatidagi loyihalar uchun va h.k.) bilan ta‘minlash mustahkamligining o‘zgarishi;
- ishchi va aholining salomatlik darajasi o‘zgarishi;

¹⁷⁰ Статистика науки и инноваций: Краткий терминологический словарь / Под ред. Л.М. Гохберга. – М.: ЦИСН, 1996. – 526 С.

¹⁷¹ Микков У.Э. Оценка эффективности капитальных вложений (новые подходы). – М.: Наука, 1991.–296 С.

– aholining bo‘sh vaqtlarining tejamkorligi.

Ammo shuni tan olish kerakki, loyihaning ijtimoiy samaradorligini baholashning asosiy usuli hanuzgacha ekspert usuli hisoblanadi. Ilmiy-texnik innovatsiyaning kutilayotgan ijtimoiy oqibatlarining ekspertizasi turli shakllarda tashkil etilishi mumkin:

- turli soha faoliyati malakaviy mutaxassislarni jalb etgan holda yakka tartibda yoki jamoachilik ekspertizasi;
- ishchilar va aholi o‘rtasida sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazish;
- olib boriladigan loyihalar bo‘yicha turli jamiyat qatlami yoki hududning manfaatlariga dahl qiladigan umumxalq referendumlar (anjumanlar).

10.2.4. Iqtisodiy samaradorlik

Innovatsion loyihaning iqtisodiy samaradorligi sarmoya qo‘yilmalarining samaradorligini majmuaviy baholash bilan bevosita bog‘liq, chunki bu vaziyatda loyiha investitsiyalash obyekti sifatida qaraladi.

Bozor munosabatlariga o‘tish investitsiyalar iqtisodiyotda samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta‘minlaydigan egiluvchan yechimlarini talab qiladi. Samaradorlik nazariyasining eng muhim masalalaridan biri mezonlash yondashuvi hisoblanadi, chunki turli mezonlar mavjud paytda iqtisodiy samaradorlikning turli mos bo‘lgan ko‘rsatkichlari (koeffitsiyentlar) o‘rin olgan. Mezonlash yondashuvi negizida investitsiyalar unumdorligining uch qismli mezonlari yotadi: iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy. Bu samaradorlikni izohlashni bir muncha murakkablashtiradi va dastavval har bir keltirilgan soha uchun maqbul variantlarini aniqlaydigan, so‘ng ularning ma‘lumotlarini integratsiyalashga imkoniyat beradigan uslubiyatini talab qiladi.

Ko‘rsatib o‘tilgan sohalarga ta‘sirini hisobga olishga nisbatan aniq yondashuvni iloji boricha ko‘rsatkichlarning chegaralangan soniga keltirish kerak. Bu esa, ko‘p omilli masalalarning yechimini bir muncha osonlashtirishga imkon beradi. *Iqtisodiy* nuqtayi nazardan investitsiyalar hozirgi va o‘tgan mehnat xarajatlari bilan tavsiflanadi. Ushbu konsepsiyaga mos ko‘rsatkichlar (jamg‘arma sarflash hajmi, mehnat sarflash hajmi, materiallarni sarflash hajmi va h.k.) investitsiya samaradorligini yanada oshirishni ta‘minlash uchun kamayish tendensiyasiga ega.

Ijtimoiy mezon kommunal-maishiy mehnat sharoitlarini

yaxshilash, qo‘l mehnati xarajatlarini pasaytirish hamda bir ishchi hisobiga daromadlarning oshishini hisobga oladi.

Ekologik jihati havo, suv, yer resurslarining qurilishida va boshqa sohalarda foydalanishni kamaytirishga qaratilgan (10.3-jadval).

10.3-jadval

Samaradorlik ko‘rsatkichlari

Nomi	Shartli belgilari	Mezonli yo‘nalganligi
Iqtisodiy Jamg‘armani sarflash hajmi, so‘m Materiallar sarflash hajmi, so‘m Mehnatni sarflash hajmi, odam Qurilish muddati, oy Sarmoya qo‘yilmalari, so‘m Korxonaning quvvati, so‘m	Js’h MAs’h MEs’h Qm Sq Kq	Js’h→min MAs’h→min MEs’h→min Qm→min Sq→min Kq →min
Ijtimoiy Ishchilarning soni, kishi Mehnat unumdorligi, so‘m/kishi Uy-joy bilan ta‘minlanganligi, m ² /kishi	Is Mun UJt	Is→min Mun→min UJt→min
Ekologik Yer resurslaridan foydalanish, ga Suv resurslaridan foydalanish, m ³ Havo resurslaridan foydalanish, m ³	YeRf SRf HRf	YeRf→min SRf→min HRf→min

Investitsiyalarning umumiy iqtisodiy samaradorligi quyidagicha hisoblanishi mumkin:

a) butun xalq xo‘jaligi, yirik hudud va tarmoqlari bo‘yicha MI – solishtirma narxlardagi ishlab chiqilgan milliy daromad ulushining ΔMD ushbu o‘shishiga sababchi bo‘lgan barcha moliyalashtirish manbalari bo‘yicha foydalaniladigan sarmoya qo‘yilmalariga Q nisbati:

$$MI = \frac{\Delta MD}{Q}$$

Bunda mutlaq samaradorlik mezoni S_m Kr sifatida investitsiya hajmlarni maksimallashtirish hisoblanadi:

$$S_m = MD \rightarrow \max,$$

$$S_m = Q \rightarrow \min$$

b) i loyiha bo'yicha D_o – daromad yoki xo'jalik hisob daromadining o'sishi $\Delta\pi$ (tannarxning pasayishi)ning ushbu o'sishga sabab bo'lgan sarmoya qo'yilmalarning o'sishiga ΔQ nisbati:

$$D_o = \frac{\Delta\pi}{\Delta Q}$$

Sarmoya qo'yilmalarning tarkibiy qismlari ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga ketgan xarajatlar hisoblanadi, «ular ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bajarilishi uchun ketgan haqiqiy xarajatlarning pul ko'rinishida ifodalanadi. Statistika asosiy e'tibor moliyalashtirish manbasidan qat'i nazar hisobot yili davomida hisob beradigan tashkilotning o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va ishlanmalar uchun ichki xarajatlarni hisobga olishga qaratiladi»¹⁷².

Innovatsiyadan kelgan iqtisodiy samara o'z mohiyatiga ko'ra fan va ishlab chiqarishning birgalikdagi faoliyatining natijasini ifodalaydi. Jamoa foydaliligini miqdor jihatdan o'lchash sifatida namoyon bo'lib, ushbu ko'rsatkich yechimini topish uchun zarur bo'lgan muammolarni tanlash, ilmiy mavzu va yo'nalishlar o'rtasida resurslarni taqsimlash, ilmiy mahsulot uchun narxlarni ishlab chiqish, ilmiy jamoatchilik faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini tuzish uchun foydalaniladi¹⁷³.

Biroq, yuqori yillik iqtisodiy samarasiga bilvosita ishlarni bajarishda (resurslarni hisobga olmagan holda) ham erishish mumkin. Ilmiy tashkilotlar faoliyatining bosh maqsadi barcha resurslardan foydalanish unumdorligini oshirishdan iborat bo'lishi lozim. Yangi texnika kam xarajatlar sarflashi va eng yuqori yakuniy natijani berishi kerak. Bu esa ilmiy jamoatchilik ishlarining natijaviyligini aniqlash mezoni hisoblanadi. Demak, xarajatlarni qoplash ko'rsatkichi bu fanning iqtisodiy samaradorligi bo'lib, u ilmiy g'oyalarni (ya'ni innovatsiyani) ishlab chiqarishga joriy etishdan olingan samaraning ularni amalga oshirish umumiy xarajatlariga miqdoriy nisbatida ifodalanadi.

Har qanday ilmiy ish rentabellik bo'lishi lozim degan fikr aslida noto'g'ri hisoblanadi. Masalan, FT ilmiy ishlar uchun zarur nazariy

¹⁷² Статистика науки и инноваций: Краткий терминологический словарь / Под ред. Л. М. Гохберга. – М.: ЦИСН, 1996. – 526 С.

¹⁷³ Завлин П.Н., Васильев А.В., Кноль А.И. Оценка экономической эффективности инвестиционных проектов (современные подходы). – СПб.: Наука, 1995. – 168 С.

negizni yaratadi. Nazariy negizni iqtisod qilish urinishlari amaliy tadqiqotlar darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. FT ishlab chiqarish bilan aloqasi to'g'ri chiziqli emas, chunki g'oyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bir muncha vaqtni talab qiladi. Shunday qilib, yaqin vaqt kesimi uchun ushbu tadqiqotlar natijalarining samaradorligi deyarli qiymat miqdoriga ega emas.

ITTKI iqtisodiy samaradorligini aniqlashga ham boshqa yondashuv talab qilinadi. ITTKIdan keladigan iqtisodiy samaradorlik kutilayotgan, haqiqiy va mavjud samaradorliklarga bo'linadi.

TKI va texnologik loyihalardan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning ikkinchi yili bo'yicha hisoblanishi lozim. Haqiqiy samarasi joriy etish va foydalanish bosqichida turgan buyumlar bo'yicha, haqiqatan chiqarilgan mahsulotlar hajmi bo'yicha hisoblanadi. Mavjud iqtisodiy samara buyumlarni ishlab chiqarishga joriy etish optimal hajmi hamda mumkin bo'lgan eng yuqori iqtisodiy samara sifatida ulardan foydalanish optimal sharoitlari bo'yicha hisoblanadi.

Ushbu iqtisodiy samara FT, AT va GOSTlarni ishlab chiqish bilan aniqlanib, unda joriy etishning optimal hajmi sifatida yangi texnikaga bo'lgan ehtiyoji namoyon bo'ladi. U prognozli va ehtimolli tavsifiga ega, chunki bu yerda kelgusida olish mumkin bo'lgan samara to'g'risida gap boradi.

10.3. INNOVATSION LOYIHALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI

10.3.1. Samaradorlikni baholashning statistik usullari

Iqtisodiy samaradorlikni baholashning statistik usullari oddiy usullarga mansub bo'lib, loyihaning iqtisodiy jozibadorligini tezkor tarzda va taxminan baholashni amalga oshirish uchun foydalaniladi. Ular innovatsion loyihalarni ekspertiza qilishning dastlabki bosqichida hamda nisbatan qisqa investitsion davrga ega bo'lgan loyihalarda qo'llanish uchun tavsiya qilinadi. Iqtisodiy tahlil amaliyotida loyihaning iqtisodiy samaradorligini ko'p foydalaniladigan baholash ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- loyihani amalga oshirishdan olinadigan umumiy (yoki o'rtacha yillik) foyda;

- investitsiyalar rentabelligi (foydaning oddiy me'yori);
- investitsiyalarning qoplanish muddati (qaytarish muddati).

Loyihaning daromadlilik ko'rsatkichi loyiha ishtirokchilari loyihani amalga oshirish natijasida olinadigan sof daromad miqdorini tavsiflaydi.

Umumiy foyda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq umumiy qiymat natijalari va xarajatlar ayirmasini ifodalaydi:

$$n = \sum_{t=0}^m (N_{uq} - X_j)$$

bu yerda, N_{uq} – t vaqt davr mobaynida loyihaning ishtirokchilari oladigan natijalarning qiymatli bahosi; X_j – t vaqt davr mobaynida loyihaning ishtirokchilari sarflaydigan umumiy xarajatlar; m – investitsion davri, ya'ni loyihaning hayotiy sikli mobaynida oraliq (interval)lar soni.

O'rtacha yillik foyda bir yilda loyiha ishtirokchisi tomonidan olinadigan sof foydaning o'rtacha hisobdagi miqdorni ifodalaydi:

$$n_r = \frac{1}{T} \sum_{t=0}^m (N_{uq} - X_j)$$

bu yerda, T – investitsion davrining davomiyligi, yil.

Agar ushbu ko'rsatkichlar ijobiy bo'lsa, loyiha iqtisodiy jihatdan jozibador hisoblanadi, aks holda loyiha istiqbolsiz deb hisoblanishi mumkin. Foydalilik ko'rsatkichlar loyihada ishtirok etishga manfaatdor bo'lgan turli iqtisodiy subyektlar bo'yicha ham hisoblanishi mumkin. Ularning xarajat va zararlarning qiymatli baholash mazmuni va miqdorlari o'zgaradi xolos. Xususan, mavjud investorlar uchun loyihani amalga oshirishning iqtisodiy natijalari sifatida loyihani amalga oshirish davri mobaynida olishi kutilayotgan daromad (masalan, dividendlar) namoyon bo'lishi mumkin. Kreditorlar uchun iqtisodiy natijalari loyihaga investitsiyalangan kreditlar uchun xarajatlar hisoblanadi.

Investitsiyalar rentabelligi (*ROI* - Return On Investments) nafaqat loyiha foydaliligini aniqlash, balki ushbu foydalilik darajasini baholash imkoniyatini ham yaratib beradi. Investitsiyalarning rentabellik ko'rsatkichi (foydaning oddiy me'yori) yillik foydaning loyihaga kiritilgan investitsiyalarga nisbati bilan ifodalanadi:

$$ROI = \frac{F}{I}$$

bu yerda, F – loyihani amalga oshirishdan tushgan foyda;
I – loyhaga kiritilgan dastlabki investitsiyalar.

Investitsiyalar rentabellik ko‘rsatkichi loyihani amalga oshirish yillaridan biri bo‘yicha (odatda loyiha to‘liq ishlab chiqarish quvvati bilan amalga oshirilgan yilga mos yil tanlanadi), ishlab chiqarish quvvatlarning turli darajada foydalanish sharoitida loyihani amalga oshirishning ayrim yillari bo‘yicha yoki sof foydaning o‘rtachaga keltirilgan ko‘rsatkichi bo‘yicha hisoblanib chiqilishi mumkin.

Foydaning oddiy me‘yorini iqtisodiy talqini rejalashtirishning bitta oralig‘i davomida investitsion xarajatlarning qaysi qismi foyda ko‘rinishida qaytishini baholashdan iborat. Bunda agar investitsiyalar rentabelligining hisoblash miqdori sarmoyani qo‘yishning boshqa muqobil variantlari bo‘yicha daromadlik darajasidan yuqori bo‘lsa, mavjud investor mazkur investitsion loyihani yanada chuqurroq tahlil qilishni maqsadga muvofiqligini baholashi mumkin.

Iqtisodiy tahlillar maqsadlarga ko‘ra foyda va investitsiyalangan sarmoyaning turli ko‘rsatkichlari ko‘rinishida mumkin.

$$ROI = \frac{F + r}{I}$$

bu yerda, r – qarzdorga to‘lanadigan foiz to‘lovlari.

To‘langan aksiyadorlik sarmoya bo‘yicha foyda me‘yori quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$ROI = \frac{F}{I_a}$$

bu yerda, I_a – aksiyadorlik sarmoya.


Investitsiyalarning qoplash davri loyihani investitsiyalashning boshlanishidan loyihani amalga oshirishdan olingan sof foyda loyihaga dastlabki qo‘yilmalarni qoplaydigan paytgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ini ifodalaydi. Loyiha uning qoplash davri kam bo‘lgan va investorlarga dastlabki qo‘yilmalarni tez qaytarib berish sharoitida jozibador hisoblanadi. Qoplash davrining ko‘rsatkichini grafik ko‘rinishdagi talqini 10.5-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib, unda innovatsion loyihalar bo‘yicha sof daromadlarning o‘zgarish dinamikasi keltirilgan.

Miqdor bo‘yicha doimiy bo‘lgan va bir maromdagi sof foyda F_s

va loyihaga bir zumda sarmoya qo'yilmalari I bilan tavsiflovchi loyihalar uchun qoplanish muddati T_{qm} (10.5-rasm), formula yordamida aniqlanadi:

$$T_{qm} = \frac{I}{F_s} = \frac{1}{ROI}$$

Mazkur ifoda asosida investitsiyalar rentabellik ko'rsatkichidan foydalanib, qoplanish davrini taxminiy baholash mumkin.



10.5-rasm. Investitsiyalarning qoplanish davri (qaytarish muddati) ko'rsatkichining grafikli talqini

Qaytarib berish davri ko'rsatkichning kamchiligi shundan iboratki, ushbu ko'rsatkich loyihaning qoplanish muddatidan tashqaridagi moliyaviy natijalarni hisobga olmaydi. Shu bois uni investitsiyalashning muqobil variantlarini taqqoslashda qo'llash imkoniyati mavjud emas.

Ammo shu bilan birga, shuni qayd etish kerakki, statistik usullar juda qo'pol hisoblanadi va ularning amaliy qo'llanilishi tegishli baholash ko'rsatkichlarning oson hisoblanishi bilan izohlanadi.

10.3.2. Pul oqimlarini diskontlash usuli

Pul oqimi loyihani amalga oshirish natijasida xo'jalik subyektlarning hisob raqamlari va kassasiga haqiqatda tushgan (kiradigan pul oqimi) va tashqi sheriklarga to'lanadigan (chiqadigan pul oqimi) pul mablag'larning yig'indisi hisoblanadi.

Kiradigan pul oqimi o'z mohiyatiga ko'ra, loyihaning moliyaviy natijasi bo'lib, uning shakllanish manbalariga mahsulot (ish, xizmat)ni

sotishdan tushgan tushum; tashqi sheriklarning kredit va qarz mablag‘lari; aksiyalar qo‘shimcha emissiyasi hisobiga jalb qilinadigan aksiyadorlik sarmoya; loyihaga jalb qilinadigan va loyihani yakunlash paytida baholanadigan aktivlarni sotishdan tushgan tushum; aniq loyiha bilan bog‘liq boshqa daromadlar kirishi mumkin.

Chiqadigan pul oqimi loyihaga dastlabki sarmoya qo‘yilmalarining miqdorini aniqlovchi investitsion xarajatlarni hamda odatda loyihaga jalb qilingan asosiy aktivlarga amortizatsion ajratmalarni¹⁷⁴ hisobga olmagan holda ishlab chiqarish sotish xarajatlarini o‘z ichiga olgan loyiha bo‘yicha joriy moliyaviy to‘lovlarni; kredit va qarz mablag‘lari uchun to‘lovlar; soliq to‘lovlari; boshqa foydadan to‘lovlar, shu jumladan qo‘shimcha aksiyadorlik sarmoyaga dividendlarni to‘lashni o‘z tarkibiga olgan.

Sof pul oqimi investitsion davrining muayyan vaqt davrida haqiqiy pul mablag‘lari kiriminig va haqiqiy pul mablag‘lari chiqimiga ayirmasi bilan ifodalanadi:

$$NCF_t = CIF_t - COF_t$$

bu yerda, NCF_t – t vaqt oralig‘idagi sof pul oqimi; CIF_t – t vaqt oralig‘ida kiradigan pul oqimi; COF_t – t vaqt oralig‘ida chiqadigan pul oqimi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlarning prognozini investitsion davrining oralig‘i bo‘yicha tabaqalashgan holda amalga oshirish lozim. Investitsion davr oralig‘i sifatida oy, chorak yoki yil deb qabul qilish mumkin. Muayyan oraliqni birinchidan, pul kirimi va to‘lovlarning rejalashtirilgan davriyligidan, ikkinchidan har bir oraliq bo‘yicha prognozni olish aniqligidan kelib chiqqan holda tanlash lozim. Uzoq muddatli loyihalar uchun investitsion davrlarni turli oralig‘larga bo‘lish tavsiya etiladi. Masalan, loyiha amalga oshirilishining birinchi yil uchun oraliq odatda bir oy yoki chorak, keyingi yillar uchun – bir yil deb qabul qilinadi.

Innovatsion loyihalar pul oqimlari bilan tavsiflanib, ular odatda, investitsion davrning alohida oralig‘i davomida turli intensivligiga ega. Bunda sof pul oqimi loyiha bo‘yicha investison xarajatlar sarflanayotgan paytida loyihaning boshlang‘ich, investison bosqichida

¹⁷⁴ Amortizatsion ajratmalar nominal pul xarajatlari hisoblanadi. Ular iqtisodiy subyektlarning xarajatlar tarkibiga kiritilib, soliq solish foydasini kamaytiradi. Ammo, haqiqatda amortizatsion ajratmalar tashqi sheriklarga to‘lanmaydi va iqtisodiy subyektlarida jamg‘ariladi.


salbiy bo‘lishi mumkin va aksincha, joriy kirimlar joriy to‘lovlar miqdoridan oshib ketadigan paytda, loyihaning foydalanish bosqichida ijobiy tus oladi.

Loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun loyihaning mavjud ishtirokchilar tomonidan turli vaqt oralig‘ida olinadigan yoki sarflanadigan pul mablag‘larning turli qiymatlarini hisobga olish lozim. Turli vaqtdagi pul oqimlarini taqqoslash *diskontlash* – turli vaqtdagi pul oqimini (kirimni va to‘lovlarni) yagona vaqt paytiga keltirish uslubi bilan amalga oshiriladi. Diskontlash uslubining mohiyati kelgusida turli vaqt paytlarida to‘lanadigan va olinadigan pul mablag‘larning ekvivalentini topishdan iborat:

$$P = \varphi(F_t)$$

bu yerda, P (present value) – pul mablag‘larning joriy bahosi; F_t (future value) – t vaqt paytida to‘lanadigan (olinadigan) pul mablag‘lar (kirimlar va to‘lovlar) miqdori.

Kelgusi kirimlar (to‘lovlar)ning pul ekvivalentini aniqlashga imkon beradigan hisoblash uslubi sifatida murakkab foizlar formulasi qo‘llaniladi. Endi ushbu formulani yagona to‘lov shakli sifatida oddiy pul oqimi uchun qo‘llashni ko‘rib chiqamiz. Uning diagrammasi 10.6-rasmda berilgan.



10.6–rasm. Yagona joriy pul miqdori va yagona kelgusi pul miqdori

Agar n yildan keyin R foiz stavkalarida joriy pul miqdorining pullik ekvivalentini P aniqlash zarurati bo‘lsa, kelgusi pul miqdori F quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$F = P(1 + R)^n$$

bu yerda, n – joriy va kelgusi vaqt paytlarini ajratadigan foizli davrlarning soni (foizlarni qo‘yishlar soni)

Agar n yildan keyin R foiz stavkalarida kelgusi pul mablag‘lar F joriy pul miqdorining pullik ekvivalenti P aniqlash zarurati tug‘ilsa, quyidagi formuladan foydalanamiz:


$$P = \frac{1}{(1+R)^n}$$

Agar pul oqimi miqdor jihatdan teng bo‘lgan va doimo amalga oshiriladigan to‘lovlar bilan amalga oshirilsa ekvivalentni hisoblash yanada murakkablashadi.

Xususan, n yildan keyin R foiz stavkalarida teng to‘lovlar seriyaning kelgusi ekvivalentini A aniqlash uchun (10.7-rasm), quyidagi misoldan foydalanamiz.

MISOL.

Faraz qilamizki, har yili bankning omonat hisob raqamiga 100 ming so‘m qo‘yiladi. Omonat hisob raqamidagi foiz stavkasi butun davr mobaynida yiliga 12% tashkil etadi. 5 yil ichida hisob raqamida qancha mablag‘ yig‘iladi?



10.7-rasm. Teng to‘lovlar seriyalari va yagona kelgusi pul miqdori

Topish lozim bo‘lgan ko‘rsatkichning hisob-kitob ketma-ketligi 10.3-jadvalda keltirilgan bo‘lib, u quyidagilardan iborat. Omonat hisob raqamiga qo‘yilgan birinchi pul miqdori - 100 ming so‘m 4 yildan keyin miqdori – 157,35 ming so‘mga oshadi. Ikkinchisi, bir yildan keyin qo‘yilgan pul miqdori 140,49 ming so‘mga oshadi va h.k. Chunki so‘nggi pul mablag‘i 5 yil oxirida kiritilgan, unga foiz stavkalari hisoblanmaydi.

Har yilgi to'lovlar seriyalarining murakkab foizlar summasi

Yil oxiri	Yillik to'lovlarning murakkab foizlar koeffitsiyenti	5 yil oxirida murakkab koeffitsiyenti	Umumiy pul miqdori F
1	$100 (1,12)^4$	157,35	635,28
2	$100 (1,12)^3$	140,49	
3	$100 (1,12)^2$	125,44	
4	$100 (1,12)^1$	112,00	
5	$100 (1,12)^0$	100,00	

Kelgusi pul miqdorini F hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$F = A + A(1 + R) + \dots + A(1 + R)^{n-2} + A(1 + R)^{n-1}$$

Ushbu ifodani $(1+R)$ ko'paytiramiz:

$$F(1 + R) = A(1 + R) + A(1 + R)^2 + \dots + A(1 + R)^{n-1} + A(1 + R)^n$$

Ikkinchi ifodadan birinchi ifodani ayirib, quyidagicha hosil qilamiz:

$$F(1 + R) - F = -A + A(1 + R)^n$$

Natijada n foizli davrlardan keyin R foiz stavkalarida miqdori bo'yicha teng va doimo amalga oshiriladigan to'lovlar seriyadagi pul oqimining A pullik ekvivalentini F hisoblash uchun quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$F = A \left[\frac{(1 + R)^n - 1}{R} \right]$$

n foizli davrlardan keyin kelgusi pul miqdori ekvivalentiga F teng bo'lgan R foiz stavkalarida miqdor bilan teng va doimo amalga oshiriladigan to'lovlar seriyadagi pul oqimini A aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$A = F \left[\frac{R}{(1 + R)^n - 1} \right]$$

MISOL.

Agar har yili murakkab foizni yiliga 12% stavkalar bilan 5 yillik to'lovlarni amalga oshirgan holda 6 000 so'm jamg'arish talab qilinadigan bo'lsa, har yili quyidagi miqdorda to'lovlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi:

$$A = 6000 \times 0,12 / [(1 + 0,12)^5 - 1] = 6000 \times 0,1574 = 944,4$$

Amaliyotda joriy pul miqdori P bilan n foizli davr mobaynida R foiz stavkalarida doimo amalga oshiriladigan to'lovlar miqdori A bo'yicha teng seriyadagi pul oqimining o'rtasidagi ekvivalentligini o'rnatish masalalari doimo yuzaga chiqadi.

MISOL.

Investitsion loyiha bilan savdo lizing shartlari bo'yicha asbob-uskunalarini sotib olish ko'zda tutilgan. Asbob-uskunaning qiymati 2 000 000 doll.ga teng. Shartnoma shartlariga ko'ra oldindan to'lanadigan to'lov (avans) asbob-uskuna qiymatining 50%ni tashkil etadi. Keyingi to'lovlar yiliga 10% stavkalarida 10 to'lovlarga teng seriyalarda har chorakda amalga oshiriladi. Har chorakdagi to'lovlar miqdorini aniqlab bering.

Buning uchun p foizli davr mobaynida R foiz stavkalarida joriy pul miqdori P ekvivalentiga teng bo'lgan to'lovlar miqdorini A aniqlash lozim. Buning uchun ilgari hosil bo'lgan bog'liqlikdan foydalanib, quyidagi ko'rinishdagi ifodani hosil qilamiz:

$$A = F \left[\frac{R}{(1 + R)^n - 1} \right] = p(1 + R)^n \left[\frac{R}{(1 + R)^n - 1} \right] = P \left[\frac{R(1 + R)^n}{(1 + R)^n - 1} \right]$$

Hosil bo'lgan formulani keltirilgan misolda lozim bo'lgan miqdorini A ni topish uchun qo'llashga harakat qilamiz. Agar shartnoma shartlariga ko'ra, oldindan to'lanadigan to'lov 1 000 000 doll.ni tashkil etadigan bo'lsa, har chorakda hisoblanadigan 10% stavka foizi bo'yicha 10 to'lovlar seriyalarda namoyon bo'lgan (10%:4 = 2,5%) qolgan mablag' miqdori P ekvivalentini aniqlash lozim bo'ladi:

$$A = 1000000 \left[\frac{0,025(1 + 0,025)^{10}}{(1 + 0,025)^{10} - 1} \right] = 1000000 \left[\frac{0,025 \times 1,28}{1,28 - 1} \right] =$$

$$= 114258,8 \text{ doll.}$$

Ushbu to'lovlar tizimida A to'lovning qaysi qismi asosiy qarzlarni qaytarish, qaysi qismi esa savdo krediti bo'yicha foizlarni to'lashga yo'naltirilganligini aniqlash darkor. Xususan, soliq solish maqsadida foizlarni tannarxiga qo'shish muhim hisoblanadi. Buning uchun 10.4-jadvalda keltirilgan hisob-kitoblar tizimidan foydalanish mumkin.

10.4-jadval

**Kredit uchun to'lovlarning hisob-kitob tizimi
(hisob-kitoblar yaxlitlangan holda amalga oshirilgan)**

To'lov raqami	Kreditning to'lanmagan qismi	To'lov		
		Jami	Shu jumladan	
			Foizlar	Kreditning nominalini qaytarish
1	1 000 000	114 259	25 000	89 259
2	910 741	114 259	22 768	91 490
3	819 251	114 259	20 481	93 777
4	725 473	114 259	18 137	96 122
5	629 351	114 259	15 734	98 525
6	530 825	114 259	13 271	100 988
7	429 837	114 259	10 746	103 513
8	326 324	114 259	8 158	106 101
9	220 223	114 259	5 506	108 753
10	11 470	114 259	2 787	111 470
Jami	0	1 142 590	142 590	1 000 000

Hisob-kitob shunga asoslanadiki, kredit uchun foizlar foizlarni hisoblash paytida qolgan qarz miqdori (kreditning nominali) hisobidan hisoblab chiqiladi. Shu bois birinchi to'lov (114 259 doll.) 1 000 000 doll. $\times 0,025 = 25 000$ doll. miqdordagi foiz to'lovini va 114 259 doll. $- 25 000$ doll. = 89 259 doll. miqdoridagi pul mablag'ni qaytarishni o'z ichiga oladi. Birinchi to'lovdan keyin asosiy qarz miqdori 1 000 000 doll. $- 89 259$ doll. = 910 741 doll.gacha kamayadi. Shuning uchun ikkinchi to'lovni amalga oshirishda foizlar aynan shu miqdoridan hisoblab chiqiladi. Keyingi barcha to'lovlar bo'yicha ham keltirilgan hisob-kitob tartibi qo'llaniladi.


R foiz stavkalarida n foizli davr mobaynida amalga oshiriladigan

A to'lovlar seriyasining P joriy ekvivalentini baholash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$P = A \left[\frac{(1+R)^n - 1}{R(1+R)^n} \right]$$

Ifodalangan bog'liqliklar loyihaning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish uchun qo'llanilgan bo'lib, ular pul oqimlarining turli tuzilish shakllarida namoyon bo'lgan. Bunda bitta pul oqimining ikkinchidan afzallik tomonini baholash taqqoslanadigan oqimlarni yagona ekvivalent asosiga keltirishni talab etadi. Xususan, 10.8-rasmda ko'rsatilganidek, har bir 1 va 2 taqqoslanadigan pul oqimlari yagona to'lovlar (kirimlar) yig'indisi sifatida ko'rib chiqiladi, har biri uchun joriy ekvivalent $P_i(F_i)$ aniqlanadi. Agar bu holatda har bir yagona to'lovlar diskontlangan, ya'ni joriy vaqt paytiga keltirilgan bo'lsa, quyidagi formula orqali aniqlanadigan diskontlangan yagona to'lovlar miqdori pul oqimini taqqoslash uchun asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

$$P = \sum_{i=1}^n P_i(F_i) = \sum_{i=1}^n \frac{F_i}{(1+R)^i}$$



10.8-rasm. Pul oqimini diskontlash shakli

Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblar pul oqimlarini taqqoslash bo'yicha olib borgan diskontlash stavkasi ma'lum bo'lganligi bilan shartlangan. Ammo diskontlash stavkasini tanlash nazariy va amaliy jihatdan ham juda murakkab muammo hisoblanadi.

Muayyan loyiha uchun diskont stavkasini tanlashda mazkur loyihaga investitsiyalash bilan bog'liq xavf-xatar hisobiga to'g'rilangan (ko'paytirilgan) investorlar uchun mumkin bo'lgan va

kafolatlangan sarmoya jamg'arish manbalar miqdorlari (masalan, ishonchli bankda qo'yilmalar bo'yicha depozit foizlari yoki davlat obligatsiyalari bo'yicha daromad foizlari)ni hisobga olish tavsiya etiladi.

10.3.3. Samaradorlikni baholashning dinamik ko'rsatkichlari

Innovatsion loyihalarni tahlil qilish uchun pul oqimini diskontlashga asoslangan iqtisodiy samaradorlikni baholashning quyidagi dinamik usullaridan foydalanish mumkin: joriy qiymat, rentabellik, likvidlilik.

Joriy qiymat usuli sof diskontlangan daromadni aniqlashga asoslanib, u loyihadan keladigan integral iqtisodiy samara ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi. Sof diskontlangan daromad *NPV* butun investitsion davr mobaynida loyihani amalga oshirish jarayonidagi diskontlangan pul oqimi qirimlarining to'lovlariga ayirmasini ifodalaydi:

$$NPV = \sum_{t=0}^T \frac{CIF_t}{(1+R)^t} - \sum_{t=0}^T \frac{COF_t}{(1+R)^t}$$

Xususan, agar loyihaga investitsiyalar bir yo'la qo'yilsa, *NPV* quyidagicha hisoblanishi mumkin:

$$NPV = \sum_{t=0}^T \frac{NCF_t}{(1+R)^t} - I$$

bu yerda, I – investitsion (nolga teng) oralig'ida amalga oshiriladigan jami investitsion xarajatlar.

NPV ijobiy miqdori loyihani moliyalashtirish va amalga oshirish to'g'risida qarorni qabul qilish maqsadga muvofiq, qo'yilmalarning muqobil variantlarini taqqoslaganda sof diskontlangan oqimning eng katta miqdoriga ega bo'lgan variant iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Joriy qiymat usuli annuitet to'lovlari (ingliz tilidan annuity – har yillik rentasi), ya'ni miqdor jihatdan doimiy va muttasil ravishda amalga oshiriladigan pul to'lovlariga xos bo'lgan ayrim litsenziya va qimmatli qog'ozlarning qiymatini baholashda foydalanish mumkin. Bu holda *NPV* ko'rsatkichi litsenziya qiymatining joriy bahosini aniqlaydi:

$$m = \sum_{t=1}^T \frac{A}{(1+R)^t} = A \sum_{t=1}^T \frac{1}{(1+R)^t}$$

$\sum_{t=1}^T \frac{1}{(1+R)^t}$ yig'indisi geometrik progressiyaning hadlar yig'indisi hisoblanganligi bois, uning o'zgarishidan so'ng quyidagi ifoda hosil bo'ladi:

$$\sum_{t=1}^T \frac{1}{(1+R)^t} = \frac{(1+R)^T}{R(1+R)^T}$$

Bunda harakatlar cheksiz davomiylikka ega bo'lgan $T \rightarrow \infty$ to'lovlari uchun ifoda quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$P = A \frac{(1+R)^T - 1}{R(1+R)^T} = AR$$

Agar litsenziyani to'lash doimiy royalti A dan tashqari umumiy to'lovlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, litsenziyaning miqdori quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$R_t = P_t + A$$

bu yerda, P_t – litsenziyani sotib olish paytida amalga oshiriladigan umumiy to'lov.

Daromadlilik indeksi (profitability index) diskontlangan pul oqimining va loyihaga kiritilgan boshlang'iya investitsiyalar miqdori o'rtasidagi nisbatini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkich sifatida ifodalanadi:

$$PI = \frac{\sum_{t=1}^T \frac{NCF_t}{(1+R)^t}}{I}$$

Loyihaning iqtisodiy jozibadorligi to'g'risida qarorlarni qabul qilish qoidalariga quyidagi sharti kiradi: agar $PI > 1$ bo'lsa, loyiha iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Aks holda, agar $PI < 1$, loyihani qabul qilmaslik tavsiya etiladi.


Rentabellik usuli loyihaning ichki rentabellik ko'rsatkichini (internal rate of return - *IRR*), ya'ni loyiha bo'yicha pul mablag'lar kiriminin diskontlangan qiymati to'lovlarning diskontlangan qiymatiga teng bo'lgan diskont stavkasini aniqlash uchun qo'llaniladi:

$$IRR \Rightarrow \sum_{t=0}^T \frac{CIF_t}{(1+IRR)^t} = \sum_{t=0}^T \frac{COF_t}{(1+IRR)^t}$$

bu yerda, IRR – loyihaning ichki rentabellik stavkasi.

Agar loyihaning ichki rentabelligi ushbu loyiha uchun belgilangan minimal rentabelligidan yuqori bo‘lsa, loyiha iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichning iqtisodiy mazmuni loyihaning ichki rentabelligi loyihaga kiritilayotgan sarmoyaning o‘rish sur‘atini aniqlab berishidan iborat. Bundan tashqari, ushbu ko‘rsatkich eng yuqori mumkin bo‘lgan ssuda foiz stavkani aniqlab, unda loyihani kreditlash zararsiz holda, ya’ni investitsiyaga kiritilgan o‘z sarmoyadan olingan foydaning bir qismini kreditni to‘lamasdan turib amalga oshiriladi.

Loyihaning ichki rentabellik ko‘rsatkichini aniqlash uchun diskont stavkalarining turli miqdorlar sharoitida NPV miqdorning grafikni tuzishga asoslangan grafik usulidan foydalanish mumkin. Bunda 10.9-rasmda ko‘rsatilganidek, grafik absissa o‘qi bilan kesishadigan R miqdori loyihaning ichki rentabellik miqdorini belgilaydi.



10.9-rasm. Loyihaning ichki rentabellik miqdorini aniqlash

Likvidlilik usuli investitsiyalarni qoplash davri (qaytarish muddati)ni aniqlash uchun mo‘ljallangan. Qoplash davrini hisoblash loyiha bo‘yicha pul oqimining diskontlash yo‘li bilan amalga oshiriladi:

$$\sum_{t=0}^{T_{qm}} \frac{CIF_t}{(1+R)^t} = \sum_{t=0}^{T_{qm}} \frac{COF_t}{(1+R)^t}$$

bu yerda, T_{qm} – investitsiyalarni qoplash davri.

Agar loyihaning investitsiyalarni qoplash davri investitsion davridan oshadigan bo'lsa, loyiha zarar ko'radi va iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanadi.

Loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha keltirilgan ko'rsatkichlar muhim mezonlari sifatida namoyon bo'lib, ular asosida loyiha ishtirokchilari loyihaning iqtisodiy (tijorat) jozibadorligini baholashi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, loyihada ishtirok etish yoki uni qo'llab-quvvatlash to'g'risida qarorlar qabul qilinishi har bir aniq holatlarda loyiha ishtirokchilari oldida turgan maqsadlaridan kelib chiqadigan boshqa baho va mezonlarni, loyihani amalga oshirish sharoitlarini va u bilan bog'liq xavf-xatarni hamda boshqa miqdoriy ifodaga ega bo'lmagan omillarni hisobga olib amalga oshirilishi lozim. Shu bois, innovatsion loyihalarni tanlash va baholash iqtisodiy samaradorlikni baholashning miqdoriy mezonlarni rasmiy va norasmiy hisoblash usullaridan, loyihaning turli jihatlarini tahlil qilishning ekspert baholashdan foydalanishni o'z ichiga olish kerak.

10.3.4. Innovatsion loyihalarning investitsion muqobil variantlari bo'yicha qarorlar qabul qilish

Investitsion muqobil variantlariga investor tomonidan investitsiyalash imkoniyatlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilayotgan ko'plab turli xil investitsion takliflar va innovatsion loyihalar tushuniladi. Investitsion portfel tarkibiga turli loyihalar kirib, ularni qarorlarni qabul qilish nuqtayi nazaridan quyidagicha tasniflanishi mumkin:

– *mustaqil* loyihalar – ulardan biri bo'yicha investitsiyalash to'g'risidagi qarorni qabul qilishi boshqasi bo'yicha o'xshash qarorlarning qabul qilinishiga ta'sir etmaydi;

– *bog'liq bo'lgan* loyihalar – ulardan biri bo'yicha investitsiyalash to'g'risidagi qarorni qabul qilish majburiy holda u bilan bog'liq bo'lgan loyihalar bo'yicha ushbu qarorni qabul qilinishiga yoki boshqa loyihalardan voz kechish (bir-birini rad etuvchi takliflar) bo'yicha qarorni qabul qilinishiga olib keladi.

Investitsion takliflarni iqtisodiy tahlili o‘z mohiyatiga ko‘ra qarorni qabul qilishning o‘rnatilgan iqtisodiy mezonlari va investitsiyalash imkoniyatlarining mavjud chegaralari asosida investitsion muqobil variantlarini tartiblash va tanlash mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda tahlil qilish maqsadlari uchun barcha investitsion takliflarni bir-birini rad etish sifatida qarash mumkin, chunki iqtisodiy mezonlar asosida mustaqil takliflarni tartiblash ularning maqbul bo‘lish darajasini o‘rnatish va mavjud chegaralar doirasida eng samarali takliflarni tanlab olishga imkon beradi. Shartli takliflar uchun dastlab iqtisodiy o‘zaro bog‘liqliklar o‘rnatilishi lozim va aynan shu holatda ular yagona muqobil varianti sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

Bir-birini rad etuvchi muqobil variantlarni solishtirganda ular o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun ular o‘rtasidasi iqtisodiy jozibadorlik nisbatini aniqlash yordamida amalga oshiriladi. Masalan, ikkita muqobil variantlarni (A1 va A2) solishtirishda ularning pul oqimini o‘rganish va ularning o‘rtasidagi farqini bilish kifoya qilinadi.

10.5- jadval

Bir-birini rad etuvchi muqobil variantlar o‘rtasidagi farqi

Yilning oxiri	Muqobil variantlar uchun pul oqimlari (PO)		
	A1	A2	PO ayirmasi (A2-A1)
0	- 600	- 1 000	400
1	100	900	800
2	800	800	0
3	900	800	- 100

Muqobil variantlardan qaysi biri iqtisodiy jihatdan eng jozibador ekanligi to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun quyidagi qoidaga rioya qilishi lozim: agar «o‘sgan» pul oqimi (A2 - A1) iqtisodiy jihatdan jozibador deb hisoblansa, A2 muqobil varianti A1 muqobil variantidan ko‘ra jozibador hisoblanadi; agar «o‘sgan» pul oqimi (A2 - A1) iqtisodiy jihatdan jozibador emas deb hisoblansa, A1 muqobil varianti A2 muqobil variantidan ko‘ra jozibador hisoblanadi.

Taqqoslanadigan muqobil variantlarning jozibadorligini baholashga imkon yaratib beradigan iqtisodiy mezonlar sifatida yuqorida nomi keltirilgan ko'rsatkichlardan ham foydalanish mumkin. Taqqoslanadigan muqobil variantlar bo'yicha kutilayotgan natija va xarajatlar miqdorlariga qarab, 10.6-jadvalda ko'rsatilganidek, mezonlar miqdorlari ham o'zgarishi mumkin.

10.6-jadval

Taqqoslanadigan muqobilar variantlar va tanlash mezonlari

	Tahlil uchun vaziyat	Joriy qiymatning mezon (PV)	Yillik ekvivalentning mezon (A)	Ichki rentabellik mezon (IRR)
1 variant	Taqqoslanadigan muqobil variantlar bo'yicha boshlang'ich investitsiyalar va joriy xarajatlar teng	Daromadning (yoki boshqa natijalarning) joriy qiymatini maksimallashtirish - PV_{nat}	Daromadning (yoki boshqa natijalarning) yillik ekvivalentini maksimallashtirish - A_{nat}	Daromadning (yoki boshqa natijalarning) ichki rentabellikni maksimallashtirish - IRR_{nat}
2 variant	Taqqoslanadigan muqobil variantlar bo'yicha daromadlar va boshqa iqtisodiy natijalar	Joriy qiymat xarajatlarni minimallashtirish - PV_{xar}	Amalga oshirilgan yillik xarajatlarni minimallashtirish - A_{xar}	Xarajatlar bo'yicha ichki rentabellikni minimallashtirish - IRR_{xar}
3 variant	Taqqoslanadigan muqobil variantlar ham iqtisodiy natijalar bo'yicha. ham xarajatlar bo'yicha farq qiladi	Maksimallashtirish $NPV = (PV_{nat} - PV_{xar})$	Maksimallashtirish $A = (nat - xar)$	Maksimallashtirish $IRR = (nat - xar)$

Endi A_1 va A_2 muqobil variantlarni iqtisodiy tahlil qilish uchun yuqorida keltirilgan mezonlarni ko'rib chiqamiz (10.5-jadval). Taqqoslanadigan muqobil variantlar xarajat va natija xususiyatlari bo'yicha 3 variantga (10.6-jadval) mansub bo'lganligi uchun eng yaxshi variantni topish mezon natijaning xarajatiga ayirmasini maksimallashtirish mezon hisoblanadi. Faraz qilaylik, muqobil variantlarni taqqoslaganda diskontlash stavkasi (eng kichik jozibador

foiz stavkasi) yiliga 30% ni tashkil etadi. Bunda:

$$NPV = -400 + \frac{800}{(1+0,3)^1} + \frac{0}{(1+0,3)^2} - \frac{0}{(1+0,3)^3} = 169,9$$

Bu esa, A2 muqobil varianti A1 muqobil variantidan ko'ra jozibador ekanligini ko'rsatib turibdi. Mezon sifatida yillik ekvivalent ko'rsatkichni qo'llaganimizda o'xshash natijani hosil qilamiz: ya'ni A2 muqobil varianti har yilgi 93,53 shartli pul birligi miqdori ekvivalentiga teng bo'lgan sof daromadning "o'sishi"ni ta'minlab berishi mumkin. *IRR* ko'rsatkichning miqdori (A2 - A1) pul oqimi uchun 93,5% ga teng, bu esa qabul qilingan diskontlash stavkasidan yuqori hamda A2 muqobil varianti A1 muqobil variantidan ko'ra iqtisodiy jihatdan jozibador ekanligini tasdiqlaydi.

Olib borilgan hisob-kitoblar quyidagi xulosani chiqarishga imkon berdi: investitsion muqobil variantlar to'g'risida qabul qilinadigan qarorlar negizida turgan mezonlar bir-biriga mos tushadi, ya'ni bir muqobil variantni ikkinchisiga nisbatan afzal ko'rish munosabatlarida bir xil natijalarni beradi.

10.3.5. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha misol

Bir yilga mo'ljallangan investitsion loyiha quyidagi moliyaviy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Investitsion xarajatlar asosiy vositalarni sotib olish xarajatlarini (500 ming so'm tashkil etadi) va aylanma vositalarning o'sish xarajatlari (250 ming so'm tashkil etadi)ni o'z ichiga oladi. Asosiy vositalarning eskirishiga to'lovlar me'yori yiligi 12 foizni tashkil etadi. Loyihaning investitsion bosqichi, ya'ni bir chorak oxirida ishlab chiqarishni tashkil etish va yangi mahsulotni sotish rejalashtirilgan, undan tushgan tushum II chorakda 500 ming so'm., III – 350 ming so'm va IV – 200 ming so'm miqdorida olish kutiladi. Loyihaning yakunida loyihaga kiritiladigan asosiy vositalarni sotish, hamda aylanma vositalarni to'ldirish uchun investitsiya qilingan sarmoyalarni qaytarish rejalashtirilgan. Ushbu operatsiyadan olinadigan taqsimlanmagan daromadlar 550 ming so'm miqdorida baholanadi.

Pul vositalarining harakatlar prognozi (ming so‘m hisobida)

Ko‘rsatkichlar	Rejalashtirish oraliqlari (choraklar)				Jami
	I	II	III	IV	
1. Pul mablag‘larning kirimi (jami) <i>shu jumladan:</i>	500,0	500,0	350,0	750,0	2100,0
1.1. Sotishdan tushgan tushum	-	500,0	350,0	200,0	1050,0
1.2. Banklarning kreditlari	500,0	-	-	-	500,0
1.3. Boshqa kirimlar	-	-	-	550,0	550,0
2. Pul mablag‘larning to‘lovlari (jami) <i>shu jumladan:</i>	750,0	233,3	231,2	328,0	1542,5
2.1. Investitsion xarajatlar	750,0	-	-	-	750,0
2.1.1. Asosiy vositalarga qo‘yilmalar	500,0	-	-	-	500,0
2.1.2. Aylanma vositalarni to‘ldirish	250,0	-	-	-	250,0
2.2. Joriy xarajatlar (amortizatsiyasiz)	-	232,5	180,0	127,5	540,0
2.2.1. Yetkazib beruvchilarga to‘lovlar	-	100,0	70,0	40,0	210,0
2.2.2. Ajratmalar bilan ish haqi	-	75,0	52,5	30,0	157,5
<i>Ma‘lumot uchun:</i> asosiy vositalarning amortizatsiyasi	-	15,0	15,0	15,0	45,0
2.2.3. Qo‘shimcha xarajatlar	-	-	-	-	-
2.2.4. Kreditlar uchun foizlar	-	20,0	20,0	20,0	60,0
<i>Ma‘lumot uchun:</i> Soliq solinadigan foyda	-	37,5	37,5	37,5	112,5
2.2.5. Foyda solig‘i (33%)	-250,0	2,5	155,0	607,5	515,0
<i>Ma‘lumot uchun:</i> Sof foyda	-	0,8	51,2	200,5	252,5
2.2.6. Kreditlarni qaytarish	-250,0	1,7	103,9	407,0	262,6
	-	-	-	500,0	500,0
3. Sof pul oqimi (SPO)	-250,0	266,67	118,9	-78,0	57,6
3.1. SPOning yig‘iladigan harakati	-250,0	16,7	135,5	57,6	

Bunda joriy ishlab chiqarish-sotish xarajatlariga quyidagilar kiradi:

– material va bo‘tlovchi qismlarning yetkazib beruvchilarga ishlab chiqarish va sotishni rejalashtirilgan hajmdan 20% miqdordagi to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar;

– xodimlarga mehnat haqini to‘lash uchun ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish va sotishning rejalashtirilgan hajmdan 15% miqdordagi xarajatlar;


– mazkur loyihaga qilingan qo‘shimcha xarajatlar har chorakda 20 ming so‘mni tashkil etadi va uy-joy ijarasi, kommunal to‘lovlari, sotish xarajatlari hamda tannarxiga qo‘shiladigan soliq to‘lovlarini o‘z ichiga oladi.

Loyihani amalga oshirish davri mobaynida pul vositalarning harakatlar prognozi 10.7-jadvalda keltirilgan.

Faraz qilaylik, loyihaning samaradorligini baholashning dinamik ko'rsatkichlarini hisoblashda o'z kapitalining muqobil qiymati 15% stavkasi bilan baholanadi. Bu holatda loyihaning sof joriy qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$NPV = -250 + \frac{266,68}{(1+0,15)^1} + \frac{118,85}{(1+0,15)^2} + \frac{(-77,98)}{(1+0,15)^3} = 20,48 \text{ min g som}$$

Ushbu ko'rsatkichning ijobiy miqdori, ayniqsa o'z sarmoyalaridan foydalanish muqobil yo'nalishlari bilan solishtirgan paytida, loyihaning iqtisodiy jozibadorligidan dalolat beradi.



10.9-rasm. Loyihaning ichki rentabelligini aniqlash

Loyihaning ichki rentabelligi – *IRR* grafik usuli bilan aniqlanib, (10.9-rasm) chorak hisobiga 36% ni tashkil etadi, bu moliyaviy bozorlarda daromadlilik foizlar bilan solishtirganda yuqori daromadlilik me'yoridan dalolat beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, loyihaning ichki rentabelligi *IRR* kredit uchun foiz stavkasi (yiliga 30%)ga nisbatan yuqori. Bu vaziyatda kredit mablag'larni jalb qilish o'z mablag'laridan foydalanish samaradorligiga ijobiy ta'sir etadi, chunki qarzga olingan mablag'larni jalb etishdan olingan daromad kreditlarni to'lash uchun yetarlidir. Bundan tashqari daromadning bir qismi loyihaning

tashabbuskori tasarrufida bo‘lib, u o‘z sarmoya rentabelligini oshirishga qaratiladi. Xususan, mazkur loyihani faqatgina o‘z hisobidan moliyalashtirish (bu holda $NPV = -29,7$ ming so‘m, va $IRR = 7,9\%$) loyiha iqtisodiy jihatdan jozibador hisoblanadi.

10.4. INFLYATSIYA VA XATAR OMILLARINI HISOBGA OLISH

10.4.1. Loyiha bo‘yicha yakka tartibdagi stavka

Diskontning yakka tartibdagi (mazkur investitsion loyiha uchun maxsus qo‘llaniladigan) stavkasini baholash uchun odatda ikkita muqobil usuli – “kapital aktivlarini baholash modeli” (*capital assets pricing model*) va diskontning stavksini kumulyativ tuzish usuli qo‘llaniladi^{175, 176, 177}.

Kapital aktivlarni baholash modeli («moliyaviy aktivlarni baholash modeli») loyiha bo‘yicha quyidagi yakka tartibdagi diskont stavkasi i tuzilishini ko‘zda tutadi (stavka o‘zi ham, uning tarkibiy qismlari ham muayyan investitsion hisob-kitobida t yagona davr uzunligiga qarab bir muddat – yil, chorak, oy hisobida olinadi):

$$i = R + \beta \times (R_m - R) + y + x$$

bu yerda, R_m – iqtisodiyotda ssudda bo‘lmagan investitsiyalarning o‘rtacha daromadliligi (fond bozorida aksiyalarning o‘rtacha daromadliligi bo‘yicha aniqlanadi); R – ssuda foizining nominal xavf-xatarsiz stavkasi; $(R_m - R)$ – qarz oluvchining shartsiz qarz majburiyatlari yo‘q bo‘lgan sharoitda ssuda bo‘lmagan investitsiyalashning xavf-xatar uchun bozor rag‘bati; y – yopiq kompaniyaga investitsiyalarning xavf-xatari uchun qo‘shimcha rag‘bati, agar investitsion (innovatsion) loyiha aynan bu shakldagi firma tomonidan amalga oshirilsa; x – kichik biznesga investitsiyalarning xavf-xatari uchun qo‘shimcha rag‘bati, agar investitsion (innovatsion) loyiha (InL) amalga oshirilayotgan innovatsion korxonada (IK) kichik biznes vakili bo‘lsa (nomi keltirilgan ushbu ikkita qo‘shimcha rag‘batlar 5% gacha atrofda belgilanadi);

¹⁷⁵ Jones C P. Investments. Analysis and management. N-Y.: John Wiley & Sons, Inc, 1991. P 386.

¹⁷⁶ Львов Д.С., Медницкий В.Г., Медницкий Ю.В., Овсиенко Ю.В. Методологические проблемы оценивания инвестиционных проектов. Экономика и математические методы. Том 31, выпуск 2, 1995. – 519 С.

¹⁷⁷ Валдайцев С.В. Оценка бизнеса и управление стоимостью предприятия: учеб. пособие для вузов / С. В. Валдайцев. – М.: Юнити-Дана, 2001. – 720 С.

β – ko‘rib chiqilayotgan loyihaning maxsus xavf-xatarining shu turdagi investitsion loyihaning o‘rtacha xavf-xatariga nisbatan nisbiy darajasi bilan o‘lchanadigan koeffitsiyent (uni qisqartirib aytish uchun «beta» koeffitsiyenti deb ham atashadi) (mazkur IK aksiyalarning xavf-xatarligining butun fond birjasida aksiyalarning xavf-xatarligiga nisbatan, mazkur mahsulotlar bo‘yicha yo‘nalishlar daromadning eng yaqin turdosh mahsulotlariga nisbatan).

Agar InL uchun xavf-xatarining asosiy omillaridan biri tashqi muhitning xavf-xatari, ya‘ni tarmoq (raqobatchilik, talabning o‘zgaruvchanlik, zarur sotib olinadigan resurslarning taklifi, tarmoq uchun xos bo‘lgan tashqi sheriklar bilan kontraktatsiya xavf-xatari) va mamlakat xavf-xatari bo‘lsa, diskont stavkasi yuqorida keltirilgan formula yordamida hisoblanadi. Tarmoq xavf-xatari bu yerda β koeffitsiyenti bilan, mamlakat xavf-xatari - o‘rtacha bozor daromadliligi R_m bilan hamda uni davlat uzoq muddatli obligatsiyalarni qoplashga o‘rtacha o‘lchangan daromadlilik darajasida belgilansa, xavf-xatarsiz stavkasi R bilan aks ettiriladi.

R_m va R miqdorlari investorlar tasavvurida mamlakat xavf-xatari pasayotgan paytda aksiyaning joriy narxlarning umumiy darajasi va turli paytda chiqarilgan uzoq muddatli davlat obligatsiyalari oshib boradi (bunda R_m va R ko‘rsatkichlari mos ravishda pasayadi) va aks holatlarda pasayib boradi (R_m va R ko‘rsatkichlari esa, oshib boraveradi).

Agar nominal xavf-xatarsiz stavkani R uzoq muddatli davlat obligatsiyalar bozorida kuzatadigan ko‘rsatkich sifatida belgilashga imkon tug‘ilmasa (masalan, bozorda muomalada bo‘lgan uzoq muddatli davlat obligatsiyalar yo‘q yoki bor bo‘lsa ham, ular xorijiy valutada bo‘lgan va bir vaqtning o‘zida InL bo‘yicha pul oqimlari so‘mda rejalashtirilgan paytda), ushbu stavkani t davr uchun (InL muddatiga mos bo‘lgan) o‘rtacha yil kutilayotgan foizning real xavf-xatarsiz stavka va inflyatsion kutishlarning yig‘indisi asosida I. Fisher formulasi bo‘yicha hisoblanadi¹⁷⁸:

$$R = r + s + r \times s$$

r – ssuda foizning xavf-xatarsiz haqiqiy (inflyatsiya uchun

¹⁷⁸ Bogue M.C., R.R. Roll, Capital Budgeting of Risky Projects with Imperfect Markets for Physical Capital. Journal of Finance. May 1974. P.601-613.

kompensatsiyani hisobga olmagan holda) stavkasi (faqatgina narxlarning inflyatsiyali o'sishni qoplaydigan puch daromadlardan «tozalangan» ssudaning haqiqiy daromadlilik stavkasi; s - t davri uchun inqirozli kutishlar (T muddatida loyihaning o'rtacha foydali faoliyati; shuni ta'kidlashimiz kerakki, bu yerda inflyatsiya o'zi emas, balki inflyatsiyali kutishlar kelgusi pul oqimiga tegishlidir).

Fisher formulasi quyidagi oddiy tasdig'idan kelib chiqadi: inflyatsiya sharoitida investor bitta t davri uchun bitta pul birligi hisobiga investitsiyalashda unga kamida $(1+R)$ teng daromad yoki unga yaqin $(1+r) \times (1+s)$ olib kelishini kutadi, ya'ni boshqacha aytganda,

$$(1+R) = (1+r) \times (1+s)$$

Bu shuni anglatadiki, olish mumkin bo'lgan eng kam daromadining haqiqiy foiz stavkasiga investitsiyalangan pul birligining ko'payishi ham, mazkur kelgusi davr uchun kutilayotgan inflyatsiyaning o'sishini indeksatsiyalashni ta'minlashi lozim.

Ssuda foizlarning haqiqiy xavf-xatarsiz stavkasi, ushbu foizning nominal stavkasi va bitta kelgusi davr t uchun inflyatsion kutishlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning miqdoriy o'lchovlarni aniqlashning ikkita yondashuvi^{179, 180}.

Birinchi yondashuv ushbu ko'rsatkichlar kelgusida (tegishli investitsion loyihaning foydali faoliyat muddati) "bozorda olinishi", ya'ni u yoki bu statistik jihatdan haqiqatan ham kuzatilayotgan (va hujjatlarda aks ettiriladigan) ko'rsatkichlarga tenglashtirishni nazarda tutadi. Ikkinchi yondashuv r va s ko'rsatkichlarni alohida tahliliy baholashni yoki birining ikkinchisidan, prognozlashtirish imkoniyati yuqori yoki kam bo'lgan ko'rsatkichni chiqarib tashlashni nazarda tutadi.

Birinchi yondashuv doirasida odatda eng rivojlangan bozor iqtisodiyotida (O'zbekiston iqtisodiyoti bunga to'liq mansub emas) ssuda foizlarning nominal xavf-xatarsiz stavkalari uzoq muddatli davlat obligatsiyalar bo'yicha daromadlilik stavkasi bilan aks ettirilganligiga asoslanadi (G'arbda – o'n yillik, mamlakatimizda – hech bo'lmaganda bir-ikki yil muddati bilan omonat qarz

¹⁷⁹ Беренс В., Хавранек П.М. Руководство по оценке эффективности инвестиций: пер. с англ. – М.: Интерэксперт. 1995, – 343 С.

¹⁸⁰ Первозванский А.А., Первозванская Т.Н. Финансовый рынок: расчет и риск. – М., 1994. – 192 С.

obligatsiyalar yoki T loyihaning foydali faoliyat davri davomiyligi bilan solishtirishga hisoblangan qisqa muddatli davlat obligatsiyalarga). Mazkur moliyaviy dastaklarga qo'yilmalarning xavf-xatarsizligi ushbu qimmatli qog'ozlar bo'yicha davlat qarzlari tegishli qonunchilikka asosan ustuvor tarzda davlat budjetining soliq kirimlari bilan qoplanganligi bilan izohlanadi. Bunda belgilangan qimmatli qog'ozlarga (ko'rib chiqilayotgan investitsion muqobil variantning eng soddasi) investitsiya qilayotgan shaxs uchun eng kam transaksiya xarajatlari davlat obligatsiyaning yuqori likvidligi va turli eng mayda investorlar uchun ulardan foydalanish imkoniyalari bilan kafolatlanadi (ushbu ikkita belgilar hozirgi milliy iqtisodiyotimizga salgincha bir oz mos keladi).

Ssuda foizlarning nominal xavf-xatarsiz stavkani uzoq muddatli davlat obligatsiyalarning bozor daromadlilik stavkasi bo'yicha aniqlashni iqtisodiyot barqaror rivojlangan paytda, kapital bozori esa (xususan, uzoq muddatli davlat obligatsiyalar bozori) juda raqobatbardosh bo'lgan (eng muhimi: unda aniq narx-navo borasidagi peshqadamlarsiz ko'p ishtirokchi va operatorlar bo'lishi lozim) va muvozanatga yaqin holatlarda bo'lgan holatda tavsiya qilinadi. Aynan bu sharoitda uzoq muddatli davlat obligatsiyalari bo'yicha daromadlilik stavkalari foizning u yoki bu haqiqiy ijobiy stavkasini olib borishni va inflyatsiyani qoplashni haqiqatan ham ta'minlab beradi. Bunda keltirilgan daromadlilik stavkaning o'zi va uning foiz va inflyatsiyaning haqiqiy stavkasiga mosligi kelajakka shunday taqsimlanadiki, u uzoq muddatli davlat obligatsiyalar bozoridagi haqiqiy daromadlilikning kelgusi haqiqiy foiz stavkalari va inflyatsiya borasidagi kutishlarni ham aks ettirilishi lozim.

Agar mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat davlat obligatsiyalar daromadliligining haqiqiy bozor stavkasini ushbu usul bilan aniqlashga (birinchi navbatda, inflyatsiyaning nobarqarorligi tufayli) imkoniyat bermasa, ssuda foiz stavkasi va inflyatsion kutishlarni alohida tahlil qilish va aniqlashga to'g'ri keladi, shu jumladan hech bo'lmaganda ularning biri bo'yicha eng ishonchli prognozga tayanish lozim. Birlamchi holat inflyatsion kutishlarni aniqlash hisoblanadi.

Kutilayotgan inflyatsiyaning s sur'ati (investitsion loyihaning foydali faoliyati oxirgacha qolayotgan o'rtacha T davr uchun) u yoki bu ishonch tug'diradigan tadqiqot markazlari tomonidan qilingan progozlardan olinishi mumkin. Shuningdek, loyiha bo'yicha texnik-

iqtisodiy asosnomani tuzayotgan shaxs tomonidan o'z kuchi bilan baholanishi ham mumkin. Va nihoyat, investitsion hisob-kitoblarda foydalanayotgan inflyatsion kutishlar hukumat tomonidan e'lon qilingan va qabul qilingan budjetda ushbu ko'rsatkichni o'zgartirishni hisobga olgan holda davlat budjet loyihasida qayd etilgan kutilayotgan inflyatsiyaning rasmiy prognoziga tayanishi ham mumkin (yanada uzoq muddatli loyihalarni tahlil qilish uchun hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning rasmiy hukumat prognozlariga asoslash mumkin). Ushbu inflyatsiya prognozi butun jahonda uni kamaytirish tendensiyasi kuzatiladi, bu hukumatning inflyatsiyaning rasmiy optimistik prognozlar yordamida haqiqiy kelgusi inflyatsiyani kamaytirishga («teskari aloqa» tartibda) ta'sir o'tkazishga o'rinishlari bilan izohlanadi. Haqiqatan ham ssuda foizlarning haqiqiy xavf-xatarsiz stavkasini taxminan aniqlash uchun ikki mumkin bo'lgan uslublar orqali amalga oshirish mumkin:

1. Uni eng qisqa muddatli davlat obligatsiyalar bo'yicha ushbu obligatsiyalarning eng qisqa muomala qilish muddatida inflyatsiya bir munchaga o'zgarishga ulgurmay qoladi degan fikrni yuritgan holda bozor daromadlilik stavkasi sifatida qarash (t "qadaming talab qilinadigan yanada uzoq davr bo'yicha qaytadan hisoblangan holda).

2. Uni milliy iqtisodiyot jahon tovar va xizmatlar bozoriga integratsiyalashga ulgurgan nisbatan xavf-xatarsiz (keng hajmli talabga tayangan holda) tovar va xizmatlar bozori (ya'ni import uchun ochilgan raqobatli ichki bozori ushbu tovar va xizmatlarni xorijga faol eksport qilish bilan mos keladigan bozor)dagi operatsiyalarning rentabelligiga tenglashtirish. Ushbu bozorlardagi haqiqiy daromadliliigi ham jahon sanoati rivojlangan mamlakatlarida anchadan beri barqarorlashib ulgurgan real foiz stavkalarni (1–2% atrofida), ham milliy iqtisodiyotda xavf-xatarsiz sarmoya qo'yilmalariga nisbatan hozirgi samaradorlik xususiyatini (bizning mamlakatimizda ushbu tovar va xizmatlarga spirtlik ichimliklar, birlamchi ahamiyatga ega oziq-ovqat va dori-darmonlar, yoqilg'i-moylash materiallar, uzoq davomida foydalanadigan ayrim maishiy tovarlar bo'yicha ta'mirlash xizmatlar kiritish mumkin) aks etadi.

Foizning haqiqiy xavf-xatarsiz stavkasini T kelgusi davr uchun ekstrapolyatsiya maqsadida ikkinchi uslub, bizning nazarimizda ma'qulroq keladi, ammo qisqa muddatli davlat obligatsiyalar bozoriga ko'plab xorijiy investorlar jalb qilinsa, birinchi uslub, o'z moliyaviy

holatini o'zgartirish nuqtayi nazardan, shubhasiz afzalroq bo'ladi. Ushbu o'zgartirish ayrim davrlarda investitsion hisob-kitoblar uchun ssuda foizning salbiy haqiqiy stavkalari ham mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Faqatgina diskontning yakka tartibdagi stavkalarga investitsion xavf-xatarlar uchun katta miqdordagi mukofotlar qo'yilishi lozim.

Inflyatsion kutishlar prognozi ishonch bildirsa, foizning real stavkalarini baholash esa ishonch bildirmasa (yoki aksincha), shu bilan birga ssuda foizining nominal xavf-xatarsiz stavkasining barqarorlashtirish hukumat va Markaziy bank uchun uzoq muddatli ustuvorlik hisoblangan holatlarda (ular buning uchun uzoq muddatli davlat obligatsiyalari bo'yicha daromadlilik stavkasini barqarorlashtiradi) I.Fisher formulasi boshqa modifikatsiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ular yordamida foizning hozirgi haqiqiy xavf-xatarsiz stavkani inkor etgan holda va ishonchli tarzda baholanadigan kelgusi inflyatsiyaga tayangan holda inflyatsiyaning prognozi amalga oshiriladi¹⁸¹.

Investitsion xavf-xatar uchun mukofotlar ko'rsatkichlarga kelganda ushbu xavf-xatarlarning qabul qilingan miqdoriy o'lchovlarga aniqlik kiritamiz. Qisqa va sodda qilib¹⁸² shunday deyish mumkin: investitsion xavf-xatar miqdorini loyihaning turli kutayotgan natijalarning (yoki aniq kelgusi davrda unga pul oqimlarining) tegishli o'rtacha kutilayotgan daromadlilikidan o'rtacha (o'rta kvadratik) og'ishlar miqdoriga tenglashtirish qabul qilingan. Soddarog qilib aytganda – bu kutilayotgan daromadlilikni pessimistik va optimistik baholashlarning o'rtacha arifmetik miqdoridan o'rtacha og'ishlardir. Shu narsani e'tiborga olib, turli investitsion xavf-xatarlar uchun mukofotlarni ko'rib chiqamiz.

Ssuda bo'lmagan investitsiyalash xavf-xatar uchun bozor mukofoti (yoki “*xavf-xatar uchun bozor mukofoti*”) aksiyaga kiritilgan investitsiyaning o'rtacha daromadlilikini davlat obligatsiyalarni sotib olish orqali ssudalash daromadliliigi (ya'ni davlat obligatsiyalarnig daromadliliigi)ga ayirmasi bilan o'lchanadi¹⁸³. Ushbu ayirmaning iqtisodiy ma'nosi davlatga ssudalash shaklida xavf-xatarsiz investitsiyalashga nisbatan (xavf-xatarsizlarga nisbatan) bozorda aksiyalarni

¹⁸¹ Bogue M.C., R.R. Roll, Capital Budgeting of Risky Projects with Imperfect Markets for Physical Capital. Journal of Finance. May 1974. P.601-613.

¹⁸² Валдайцев С.В. Оценка бизнеса и управление стоимостью предприятия: учеб.пособие для вузов / С. В. Валдайцев. – М.: Юнити-Дана, 2001. – 720 С.

¹⁸³ Первозванский А.А., Первозванская Т.Н. Финансовый рынок: расчет и риск. – М., 1994. – 192 С.

sotib olish evaziga yuqori xavf-xatarli investitsiyalashni qoplashdan iborat. Bunda quyidagi holat amalga oshiriladi: agar boshqa investorlar ham ushbu kompensatsiya va mukofot olsa, u ko‘rib chiqilayotgan investitsion loyihaning daromadlilik me‘yoriga (bir so‘m sarmoya qo‘yilma hisobiga eng kam talab qiladigan yillik daromad) kiritilishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, ko‘rib chiqilayotgan loyiha bo‘yicha ushbu muqobil variantdan foydalanmaganligi uchun investorlarning bir so‘m sarmoya qo‘yilmaning yo‘qolishi u tomondan ssuda muqobil variantlar yo‘qolganligining daromadlilikini aks ettiruvchi diskont stavkasida xuddi shunday mukofotlar evaziga qoplanishi lozim (loyiha bo‘yicha pul oqimining haqiqiy iqtisodiy qiymatini kamaytirib, ishonchli qarzdorga ssuda bo‘lmagan investitsiyalash xavf-xatari uchun hisoblangan mukofot).

Amaliyotda aksiyaga kiritilgan investitsiyaning o‘rtacha daromadlilik yirik fond birjalarda muomalada bo‘lgan aksiyalarning o‘rtacha daromadlilik bo‘yicha aniqlanadi. Bu juda qulay, chunki ushbu ko‘rsatkich fond birjalar tomonidan doimo hisoblanadi va nashr etiladi¹⁸⁴.

Kichik korxonalar (KK) qo‘yilmalarning xavf-xatar uchun qo‘shimcha mukofotlar (X) yetarli bo‘lmagan kreditlarni to‘lashga qobiliyatlilik (ko‘rib chiqilayotgan loyiha bo‘yicha sarmoya qo‘yilmalarini yanada moliyalashtirish uchun rejalashtirish mumkin kreditlarni ashyoviy jihatdan ta‘minlash hamda aylanma mablag‘lar va kutilayotgan zararlarni qoplash maqsadida yetarli aktivlarning va shundan kelib chiqqan holda KI rivojlantirish moliyaviy rejaning ishonchli emasligi) va katta miqdorda bo‘lmagan ustav kapitali bilan IKning moliyaviy barqarorligi (ko‘plab mamlakatlarda IKning hajmini belilovchi ko‘rsatkichlardan biri ishchilar soni hisoblanadi) bilan izohlanadi. Ushbu mukofotning miqdori (ekspert jihatdan aniqlashtiriladi) 84%gacha bo‘lgan ssuda foizning nominal xavf-xatarsiz stavkasini tashkil etish mumkin. Xususan, ssuda foizning nominal yillik xavf-xatarsiz stavkasi (2–3%dagi yilik inflyatsiya va 1–2% o‘n yillik mobaynida kuzatilgan foizning o‘rtacha yillik haqiqiy xavf-xatarsiz stavkasining yig‘indisi)ni 5–6% tashkil etadi, kichik biznesga qo‘yilmalar xavf-xatari uchun investorlar tomonidan talab qilinadigan

¹⁸⁴ Беренс В., Хавранек П.М. Руководство по оценке эффективности инвестиций: пер. с англ. – М.: Интерэксперт. 1995, – 343 С.

mukofotlar yiliga 5 %ga yetadi (qisqa muddatli InLga nisbatan xavf-xatarsiz daromadlar me'yorini qo'yishga qaratilgan hozirgi sharoitda nominal xavf-xatarsiz stavkasi ushbu mamlakatlarda atigi 1,5-2%, inflyatsiya esa – o'rtacha 1 %ni tashkil etadi; demak, haqiqiy xavf-xatarsiz stavkasi vaqtinchalik 0,5–1%ga tushib qolgan) yetakchi Yevropa mamlakatlarda va AQSHda kuzatilgan.

Yakka tartibdagi diskont stavkasida *IK yopiq holda faoliyat amalga oshirilganligi uchun qo'shimcha mukofot* investor mazkur mamlakat rezidenti yoki xorijiy rezidenti bo'lishidan qat'i nazar hisobga olinadi. Ushbu xavf-xatar ular uchun bir hil va yopiq kompaniyalarda sarmoyani yopish xavf-xatariga olib keladi.

Mamlakat xavf-xatariga keladigan bo'lsak, u, ta'kidlab o'tganimizdek, tegishli milliy aktivlar bo'yicha hisoblangan R va R_m ko'rsatkichlarda aks etadi. Mamlakat xavf-xatarining mazmuni quyidagi xavf-xatarlarda o'z aksini topadi¹⁸⁵:

– mol-mulkni olib qo'yish xavf-xatari (eng «yumshoq» holatda – mulkni bozordagidan ko'ra past narxda sotib olishda mulk huquqini yo'qotish);

– kutilayotgan daromadlarning kamayishiga olib keladigan (masalan, soliqlar o'zgaranda) qonunchilikning kutilmagan o'zgarishi xavf-xatari;

– to'g'ridan to'g'ri bo'lmagan harakatlarga oid qonunchilikni tartibga soladigan davlat va mahalliy boshqaruv organlari (qonunosti me'yoriy hujjatlarni tayyorovchi, ziddiyatlikni keltiradigan yoki qayta ishlanmagan qonun va me'yoriy hujjatlar, masalan IKning soliq balanslarni qabul qilish bo'yicha hujjatlar asosida operativ qarorlarni qabul qiluvchi organlar)da xodimlarning almashishi xavf-xatari.

Hozirgi kunda investitsiyalashning mamlakat xavf-xatari darajasi bo'yicha jahon mamlakatlari reytingi Business Environment Risk Information Index (BERI) ixtisoslashgan reyting firmasi (Germaniya), Shveytsariya banklari uyushmasi, «Ernst & Young» transmilliy auditorlik korporatsiya nashrlarida keltirilgan.

Ko'rib chiqilayotgan yakka tartibdagi diskont stavkaning *kumulyativ tuzish usuli* dastlab yangiligi yuqori bo'lgan InL uchun bosh xavf-xatari sifatida InL amalga oshirilayotgan korxonaning ichki

¹⁸⁵ Валдайцев С.В. Оценка бизнеса и управление стоимостью предприятия: учеб.пособие для вузов / С. В. Валдайцев. – М.: Юнити-Дана, 2001. – 720 С.

muhim xavf-xatari hisoblanganligi (masalan, “beta” o‘rtacha tarmoq koeffitsiyenti IK uchun yaqqol birdan kamligi) isbotlangan paytida qo‘llaniladi.

Ushbu usul kapiatl aktivlarni baholash modelidan faqatgina shu bilan farqlanadiki, diskont stavkaning tarkibida R ssuda foizining nominal xavf-xatarsiz stavkaga aynan mazkur loyihaga taalluqli ayrim xavf-xatarlar uchun mukofotlardan tarkib topgan investitsion xavf-xatar uchun umumiy mukofotlar qo‘shiladi. Bunda i yakka tartibdagi diskont stavkasi uchun formulasi tahminan shunday ko‘rinishni oladi (nisbatan past darajali inflyatsiya uchun velichin r va s ko‘rsatkichlarning ko‘paytmasiga e‘tiborsiz qarash mumkin; yuqori darajali inflyatsiyada esa bunday qilish mumkin emas, bu ko‘paytma keltirilayotgan formulaga yana bir had sifatida qo‘yilishi lozim):

$$i = r + s + \sum_{j=1}^J g_j$$

bu yerda, $j=1, \dots, J$ – mazkur investitsion loyihada ko‘plab hisobga olingan omillar xavf-xatari; g_j shartli raqamidagi omillar bo‘yicha alohida xavf-xatar uchun mukofot.

Odatda diskont stavkasining kumulyatik tuzish usuli doirasida ajratiladigan investitsiyalashning xavf-xatar omillarida quyidagilar baholanadi:

– IKning menejer (yoki uni nazorat qiluvchi investorlar) tarkibida «asosiy shaxs» – ya’ni ushbu xavf-xatarining o‘zi yo‘qligi yoki uning aniq-ravshan emasligi, insofsizligi, vakolatsizligi va h.k.;

– IK sotish bozorining diversifikatsiyalanishi yetarli darajada emasligi; sotib olinadigan resurslar (shu jumladan mehnat)ni xarid qilish manbalarining diversifikatsiyalanishi yetarli darajada emasligi;

– IK mahsulotining diversifikatsiyalanishi yetarli darajada emasligi;

– IK tomonidan o‘z mahsulotlar bo‘yicha yo‘nalishlarini amalga oshirish (xususan sotib olinadigan resurslar, xizmatlar va o‘z mahsulotlarni sotish) uchun tuziladigan shartnomalar, shu jumladan insofsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlik xavf-xatari (shu jumladan shartnoma amal qilgan muddat mobaynida yuzaga kelgan bo‘lsa ham) hamda shartnomalar bo‘yicha tashqi sheriklarning huquqiy muomalaga layoqatsizligi;

– moliyalashtirish manbalarning tor to‘plami (ayniqsa amortizatsion jamg‘armasining yetarli darajada shakllanmaganligi va undan o‘zini o‘zi moliyalashtirish manbasi sifatida to‘liq foydalanmaganligi, jalb qilingan mablag‘larning ahamiyatini talab darajasida baholanmaganligi, moliyaviy lizing va boshqa ilg‘or milliylashtirish tizimidan to‘liq foydalanmaganligi);

– firmaning moliyaviy nobarqarorligi (o‘z aylanma mablag‘lari bilan yetarli darajada ta‘minlanmaganligi, qisqa muddatli qarzlarni pul aylanma bilan yetarli darajada qoplanmasligi;

– likvidli aksiya va barcha aktivlar bilan qisqa va uzoq muddatli qarzlarni yetarli darajada qoplanmasligi va h.k. – ushbu xavf-xatarlar IK balansining tegishli moliyaviy koeffitsiyentlar xuddi shunday o‘rtacha tarmoq koeffitsiyentlaridan yoki bank ko‘zlari bilan tarmoqning eng moliyaviy sog‘lom va kreditni to‘lab beradigan firmalarning koeffitsiyentlaridan qanchalik kichik yoki kattaligi baholanadi);

– kichik biznes;

– InL amalga oshiruvchi yopiq holdagi korxonalar kabi xavf-xatarlar.

Sanab o‘tilgan xavf-xatarni baholash ushbu xavf-xatarlar uchun tegishli mukofotlarni aniqlash bilan bog‘liq. Bu ish ekspert yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda g‘arb investitsion amaliyotidan olingan statistik ma‘lumotlar (so‘rovlar bo‘yicha ma‘lumotlar) usuli juda asd qotadi. Agar ushbu usulni umumlashtirganda sanoati rivojlangan Yevropa mamlakatlari va AQSHda keltirilgan alohida xavf-xatarlar uchun o‘rtacha mukofotlar ayrim hollarda 50-60% ssuda foizining nominal xavf-xatarsiz stavkasiga yetadi deb aytishimiz mumkin.

Diskontning yakka tartibdagi stavkani aniqlashning yuqorida izohlangan har qaysi usullaridan foydalanishda uning iqtisodiy mazmuni nafaqat saqlanadi, balki to‘ldiriladi. Haqiqatan ham dskontning yakka tartibdagi stavkadan foydalanilganda loyiha bo‘yicha (IKda) kelgusida kutilayotgan pul oqimining nisbiy miqdorining pasayishi, birinchidan, ulardan xuddi shu investitsiyalarning xavf-xatarsiz ssudalashning boy berilgan foydani «kesib olinishi» (loyihadan haqiqiy – oddiy xavf-xatarsiz ssudalashdan ko‘ra ko‘p daromad olish mumkin bo‘lgan – taqqoslanadigan daromad), ikkinchidan, IKning investitsion loyiha (InL)ning xavf-xatarini qoplaydigan loyiha (IK aksiyaga) uni qo‘shimcha tarzda

oshirish bo'yicha qattiq talablarni qo'yishni nazarda tutadi. Oxirgi ko'rsatkich boy berilgan foydaga ko'shilgan holda diskont stavkasiga ushbu xavf-xatar uchun mukofotlar kiritilish yo'li bilan kelgusida pul oqimlari mazkur loyiha haqiqatan ham olib kelishi mumkin bo'lgan daromadini (haddan tashqari boy berilgan foyda va xavf-xatar uchun eng kam talab qilinadigan qo'shimcha daromadlilikini) aniqlash maqsadida pul oqimining pasaytiradigan qismini yanada oshiradi.

Diskont stavkasida loyiha xavf-xatarlarni hisobga olish yana bir qator uslublar bilan amalga oshirish mumkin, ularning qo'llanishi muayyan shartlar bilan chegaralangan.

Xususan, agar loyiha likvidli yoki hech bo'lmaganda doimo kotirovka qilinadigan xavf-xatarga ega bo'lgan bir qancha ochiq turdagi kompaniyalar ixtisoslashgan mahsulotni o'zlashtirishdan iborat bo'lsa, tartibli (ushbu mahsulotni sotish bozorining konyunkturasi bilan hamda uning uchun zarur bo'lgan sotib olinadigan resurslarning bozor kon'yunkturasi diskont stavkasida aks etgan bo'lib, unig miqdori keltirilgan kompaniyalar bo'yicha aniqlanadigan tarmoq) xavf-xatari bo'yicha «narx/foyda» (R/Y) teskari nisbatini ifodalaydi (ular bo'yicha mazkur kompaniyalarning sotish hajmiga hisoblangan o'rtacha bog'liqlik qo'llanilishi lozim, o'shandagina u o'rtacha tarmoq o'zaro nisbati («narx/foyda»teskari) sifatida qabul qilinishi mumkin):

$$i = \frac{1}{(\text{narx/ foyda})_{\text{nisbiy}}}$$

bu yerda, «narx» – kompaniya(lar)ning muomalada bo'lgan aksiyaning umumiy bozor qiymati, «foyda» – kompaniya(lar) e'lon qilinadigan foyda (sof foyda, ya'ni egalari uchun eng muhim, chunki aynan shu foydadan ular dividendlar oladi).

Loyihaning tartibli xavf-xatarlarini hisobga olish zarurati shundan iboratki, fond bozori u yoki bu kompaniya (uning aksiyasi) uchun narxni «chiqarib», nafaqat e'lon qlilinadigan joriy foydaga, balki ularni kelgusida olish (hattoki ularning oshirilgan holda olish) ishonchliligiga tayanadi. Shu bois «narx/foyda» o'zaro bog'liqlik qanchalik katta hamda barqaror ravishda foyda olish nuqtayi nazardan istiqbolli va ishonchli bo'lsa, fond bozori kompaniyani samarali deb hisoblaydi. Agar tarmoqq hos bo'lgan bir nechta korxonalar uchun «narx/foyda» o'zaro bog'liqligi yuqori bo'lsa, fond bozori ushbu

tarmoqni eng istibolli va ishonchli deb hisoblaydi. Va tegishli mazkur tarmoq uchun «narx/foйда» o‘zaro teskari bog‘liqlik miqdori sifatidagi diskont stavkasi kichik, shu jumladan xavf-xatar uchun umumiy kafolatlarning miqdori ham kichik hisoblanadi.

Diskont stavkasida juda aniq va nostandart holda loyihaning xavf-xatarni aniqlashning yana bir holati, agar investitsion loyiha mazkur korxonaga anchadan beri chiqarilayotgan va ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan mahsulotni sotish va chiqarishni kengaytirish yoki qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lgan vaziyatda sodir bo‘ladi. Bunda diskont stavkasi sifatida «Investitsiyalangan sarmoyadan keladigan daromad» kabi barqarorlashtirilgan moliyaviy koeffitsiyent bilan kuzatadigan korxonaga balansida aks ettirilgan korxonaga tomonidan ilgari investitsiya qilinganidan erishilgan unumdorligidan foydalanishi mumkin. Ushbu yondashuvda daromad me‘yori sifatida ilgari boshlangan faoliyatni davom ettirish vaziyatida korxonaga xavf-xatarni deyarli qoplaydigan unda allaqachon erishilgan daromadlilikni qabul qilish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

10.4.2. Yakka tartibdagi diskont stavkasini mahalliy sharoitlarda baholash

Mahalliy sharoitlarda diskont stavkasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

1. Xavf-xatarsiz va loyihaning xavf-xatarlarni hisobga oladigan nominal foiz stavkalari ham so‘mli, ham valutali (dollarda) bo‘lishi mumkin. So‘mli stavkalarni daromadlari takroran ichki bozorga kirita oladigan va mamlakat ichida iste‘mol qilish maqsadida investor uchun jamg‘armalarni yarata oladigan loyihalar bo‘yicha hisob-kitoblardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tabiiyki, foizning nominal so‘mli stavkalariga ichki mamlakat inflyatsion kutishlar (so‘mning xarid qilish qobiliyatining o‘zgarishini kutish)ni kiritish lozim. Agar u yoki bu loyiha bo‘yicha davlatdan tashqariga chiqib ketadigan, xorijda investitsiyalangan va iste‘molni ta‘minlaydigan bo‘lsa, butun jahon iqtisodiyoti uchun mos bo‘lgan inflyatsiya foiz stavkalarini (1–4%) hisobga olish lozim bo‘ladi.

Bu narsa haqiqiy foiz stavkasiga ham taalluqli. Foizning so‘mli stavkalari uchun haqiqiy stavka investitsiyalarning o‘rtacha bozor daromadlilik sifatida inflyatsiyadan kelgan daromadlarni indekslash-

tirishni hisobga olmagan holda milliy iqtisodiyoti sharoitiga, valutali stavkalar esa – jahon iqtisodiyoti sharoitlariga mos kelishi lozim (1–1,5%).

Inflyatsion kutishlar va foizning haqiqiy bozor stavkalarini hisobga olgan holda foizning nominal soʻmli xavf-xatarsiz stavkalari milliy davlat obligatsiyalar bozorida haqiqiy daromadlilik (ham kelgusi inflyatsiya borasida bozor ishtirokchilarining jamoatchilik kutishlari, ham foizning haqiqiqatdan ham daromad olingan oʻrtacha haqiqiy stavkasi) asosida aniqlanishi lozim. Valutali nominal stavkalari esa milliy uzoq muddatli mablagʻlarni qaytarib berish uchun oʻrtacha hisoblangan joriy (haqiqiy bitimlar narxlari boʻyicha) daromadlilik boʻyicha hisoblanishi lozim. Bunda agar bozor daromadlilik yanada uzoq muddatli obligatsiyalar boʻyicha aniqlansa, bu daromadlilik koʻpincha xavf-xatarsiz investitsiyalar daromadlilikini tavsifiy belgisi sifatida xizmat qiladi, chunki yanada uzoq muddatli davlat obligatsiyalar vaqt makonda kam tebranadi.

Bu holatda InL boʻyicha pul oqimini dollarda ifodalash lozim, chunki InL sotishdan tushgan foydani olish yoki import qiluvchi sotib olinadigan resurslarni xarid qilish uchun xarajatlarning aksariyat qismi boʻyicha hisob-kitoblar dollar hisobida amalga oshiriladi. Keyinchalik ichki bozorda sotuvlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan soʻmli pul oqimlarini diskontlash uchun foizning soʻmli stavkalari tahlil qilinadi.

2. Bunda dollarli sarmoya qoʻyilmalari uchun qoʻyilgan nominal xavf-xatarsiz stavkasi qoʻllanilishi mumkin. Soʻmli investitsiya va soʻmli pul oqimlarini diskontlash uchun xavf-xatarsiz stavkalar oʻrtasidagi aloqa, bir tomondan Oʻzbekistonda dollarli sarmoya qoʻyilmalar uchun qoʻyilgan xavf-xatarsiz stavkasi, boshqa tomondan dollarga nisbatan soʻm kursining oʻrtacha yillik kutilayotgan oʻzgarishini hisobga olib belgilanadi (xuddi shu aloqa yevrodagi investitsiya va pul oqimlari uchun oʻrnatilishi mumkin, agar milliy yevrobondlar yevroga nominallashtira olsa).

Ushbu aloqadorlik quyidagi oddiy tenglama bilan tavsiflanadi:

$$R_{so'm} = R_{dollar} \pm \Delta k_{so'm-dollar}$$

bu yerda, $R_{so'm}$ – Oʻzbekistonda soʻmli sarmoya qoʻyilmalari va soʻmli pul oqimlarini diskontlash uchun nominal xavf-xatarsiz stavkasi

(xavf-xatarsiz daromad me'yori); R_{dollar} – xuddi shu faqat dollarli investitsiyalar va dollarli pul oqimlarini diskontlash uchun; $\Delta k_{so'm-dollar}$ – InL muddatida so‘mning dollarga nisbatan almashish kursining kutilayotgan o‘rtacha yillik tushishi (ko‘tarilishi).

3. Mahalliy sharoitda ko‘plab tarmoqlarda (aksiya bozorlariga ega bo‘lmagan sohalarda) koeffitsiyent «beta»ni (davlat obligatsiyalarga kiritilgan umumiy investitsiyalarning o‘rtacha xavf-xatariga nisbatan muayyan korxonaga yoki muayyan mahsulotga kiritilgan qo‘yilmalar xavf-xatari ko‘effitsiyenti) kichik hajmi, axborot shaffofligining darajasi past (ochiq turdagi kompaniyaning faqatgina moliyaviy hisobotlardan kerakli ma‘lumotlarni olishda yuqori tranzaksiya xarajatlari mavjud) va bozorda aksiyalarning likvidlik yetarli darajada emasligi tufayli klassik uslub bilan aniqlashning imkoniyati yo‘q. Bu yerda mahsulotni ishlab chiqaruvchi IK bo‘yicha emas, balki mahsulot o‘zi bo‘yicha bozor axborotidan foydalanishi lozim¹⁸⁶.

Har bir mahsulotlar bo‘yicha yo‘nalishlarning (mahsulotning butun hayotiy sikl davomida) foydaliligi mahsulot narxining nisbatan daraja va dinamikasi, mahsulot tannarxining asosiy qismini tashkil etuvchi uni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan asosiy sotib olinadigan resurslar, to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zgaruvchan xarajatlar bilan aniqlanadi. Bularning barchasi mamlakatda umumiy inflyatsiyaning (tovar va xizmatlar bo‘yicha umumiy narxlar darajasining o‘zgarishi) darajasi va dinamikasiga mos kelish kerak. Mahsulotlar bo‘yicha yo‘nalishlarga kiritilgan investitsiyalar (mahsulotni foydaliligida tebranishlarning mavjud miqdorida ifodalangan) xavf-xatarning asosiy omillari inflyatsiya tebranishlarga nisbatan sotib olinadigan resurslar va mahsulot o‘zining narxlarini tebranishlarini hisobga olishi lozim. Agar so‘nggi ko‘rsatkich doimo oshib borsa, ushbu omillarga inflyatsiya tebranishlarga nisbatan sotib olinadigan resurslar va mahsulot narxlarining tebranishlari kiradi¹⁸⁷.

Haqiqatan ham umumiy inflyatsiya sur‘ati aniq ifodalanganda (davrdan davrgacha inflyatsiyaning o‘zgarishi tebranishlari katta emas) sotib olinadigan resurslar va mahsulotlarning narxlarini o‘shirish

¹⁸⁶ Валдайцев С.В. Оценка бизнеса и управление стоимостью предприятия: учеб.пособие для вузов / С. В. Валдайцев. – М.: Юнити-Дана, 2001. – 720 С.

¹⁸⁷ Львов Д.С., Медницкий В.Г., Медницкий Ю.В., Овсиенко Ю.В. Методологические проблемы оценивания инвестиционных проектов. Экономика и математические методы. Том 31, выпуск 2, 1995. – 519 С.

sur'atlarida trend (katta tebranish) aniq kuzatilsa, baxtsiz vaziyatlar ko'proq yuz beradi, agar sotib olinadigan resurslarning narxi uning o'rtacha o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa, mahsulot narxlarining o'sish sur'ati yanada uzoq muddatli davrda pasayadi va iqtisodiyotda narxlarining umumiy o'sish indeksi turg'un darajada (sotib olinadigan resurs va mahsulot narxlarining indekslariga nisbatan so'nggi ko'rsatkichning nisbatan kam tebranishida) saqlanadi.

Ushbu mantiqqa rioya qilgan holda «beta» koeffitsiyenti yoki mahsulot uchun (agar bu bozor uchun yangi mahsulot bo'lsa, quyida keltirilgan formula bozorda mazkur yangilikka o'xshash mahsulot bozori bo'yicha axborot olish asosida hisoblanishi lozim) yoki ushbu mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan IK uchun quyidagi tarzda hisoblanadi:

$$k_{\beta} = \frac{M_{no} + R_{no}}{I_o}$$

bu yerda, k_{β} – «beta» koeffitsiyenti; M_{no} – mahsulotga qisqa muddatli (oylik) narxlar o'zgarish indekslarining unga o'tgan davrda (yilda) o'rtacha qisqa muddatli naxlar o'sish indeksiga o'rtacha kvadratik og'ishi; R_{no} – asosiy sotib olinadigan resurslarga qisqa muddatli (oylik) narxlar o'zgarish indekslarining ularga o'tgan davrda (yilda) o'rtacha qisqa muddatli naxlar o'sish indeksiga o'rtacha kvadratik og'ishi; I_o – qisqa muddatli (oylik) inflyatsiya indekslarining (chakana va ulgurji narxlarning o'zgarishi) o'tgan davrda (yilda) o'rtacha qisqa muddatli inflyatsiya indeksiga o'rtacha kvadratik og'ishi.

4. Fond bozorining hajmini va likvidligini oshirish hisobiga fond bozori tomonidan ushbu bozorda tarmoqqa xos bo'lgan loyiha (yoki maqsadli mahsulot) ushbu loyihani amalga oshiruvchi kompaniya (korxon)ning (mahsulot turi, hajmi, hayotiy sikl bosqichi, moliyaviy barqarorligi, balans hisobotlarning asosiy moliyaviy koeffitsiyentlari va boshqalar bilan o'xshash bo'lgan korxonaning) likvidlik va hech bo'lmaganda doimo kotirovka qilayotgan aksiyalar borasida ishonchli daromad olish istiqbollari to'g'risidagi fikrini hisobga olgan holda «narx/foйда» (R/Y ratio) teskari aloqada bo'lgan miqdor sifatida mazkur tarmoqqa xos bo'lgan mahsulotni o'zlashtirish bo'yicha loyiha xavf-xatarini hisobga oladigan diskont stavkasini aniqlashga harakat qilishimiz mumkin.

5. Mahsulotni o'zlashtirish yoki keng ishlab chiqarish loyihaning xavf-xatarini hisobga oladigan Diskont stavkasidan foydalanish sifatida «Investitsiyadan olingan daromad» turdagi (masalan, mazkur mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kompaniyaning aktivlar balansining qoldiq yoki tiklangan qiymatlari yig'indisida sof foyda) o'rtacha balansli moliyaviy koeffitsiyentiga teng miqdorni mahalliy sharoitlarda ushbu imkoniyatlarni juda ehtiyotkorlik bilan tutish lozim.

Ushbu uslub samarali ekanligini tekshirish (loyiha xavf-xatarini to'g'ri hisobga olinadigan diskont stavkalarini o'xshash tasavvurlar sharoitlariga to'g'rilash) uchta holatda amalga oshirish mumkin:

– agar mazkur mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan IKning aktivlar bo'yicha to'plangan inflyatsiyaning narxning inflyatsion o'sishida oldingi umummilliy aktivlarning qayta baholangan tiklangan va qoldiq balansli qiymatidan keyin katta miqdorda bo'lmasa;

– mazkur mahsulotni ishlab chiqarishga yoki sotib olishga ixtisoslashgan IK (mamlakatimizda turli yuqori texnologik asosiy fondlarga xosdir) xarid qilingan yoki o'z kuchi bilan yaratilgan aktivlar amortizatsiyasi (to'g'ri amortizatsiya muddatiga teng) umummilliy me'yorlari eskirganda (ya'ni hech bo'lmaganda jismoniy eskirish sur'atidan orqada qolganda);

– mazkur mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan IK bir me'yorda bo'lmagan tezlashtiradigan yoki pasaytiradigan amortizatsiyadan foydalanilmaganda.

Nihoyat, mahalliy kompaniyalar sekin-astalik bilan Xalqaro moliyaviy hisobot berish standartlari (Yevropa Hamjamiyati versiyasi yoki US.GAAP versiyasiga) o'tib, ular (masalan, Yevropa Hamjamiyati versiyasining 39 sonli bayonnomasiga muvofiq) firma aktivlarining baholanadigan bozor qiymati bo'yicha korxonaning balanslarini yopishni ko'zda tutadi. Bu yuqorida keltirilgan holatlarni butunlay o'zgartirib yuboradi.

Loyihaning investitsiyalar xavf-xatarini hisobga olgan holda diskont stavkani aniqlash bo'yicha misollar keltiramiz.

1. Agar tarmoqqa xos bo'lgan likvidlik aksiyalarga ega bo'lgan kompaniyaning «narx/foйда» bog'liqligi 7:1 teng ekanligi ma'lum

bo'lsa, investitsion loyihaning tartibli (tarmoq) xavf-xatarlarni hisobga oladigan diskont stavkasini aniqlang. (Yechimi: diskont stavkasi keltirilgan bog'liqlikning teskari miqdoriga, ya'ni 1:7ye 0,143 ga teng.)

2. Agar IK aksiyaga qo'yilgan so'm hisobiga daromadi uning o'rtacha tebranishi daromad oshishining o'rtacha sur'atining tebrani-shiga nisbatan 1,5 barobar yuqori bo'lganligi hamda davlat obligatsiyalarining daromadliligi – 15%, korporativ qimmatli qog'ozlarning o'rtacha daromadliligi – 20% teng ekanligi ma'lum bo'lsa, investitsiyalar xavf-xatarini hisobga oladigan diskont stavkasini hisoblang. (Yechimi: 1) «beta» koeffitsiyenti 1,5 ga teng; 2) diskont stavkasi: $0,15 + 1,5 \times (0,20 - 0,15) = 0,225$ tashkil etadi.)

10.4.3. Ssenariylar ishlab chiqish usullari


Ushbu usul yuqorida ko'rib chiqilgan investitsion xavf-xatarni hisobga olish uslublarining muqobil varianti hisoblanadi. U uslubiy tavsiyalarda to'g'ridan to'g'ri davlat yoki hududiy yoxud bilvosita (kafolat, subsidiya, subvensiya, soliq imtiyozlari, soliq investitsion kreditlari, moddiy va nomoddiy aktivlarni tezlashtirilgan amortizat-siyasi bo'yicha imtiyozlari va h.k.) moliyalashtirish ko'zda tutilgan loyihaning texnik-iqtisodiy asosini tayyorlashda majburiy operatsiyadan biri deb qayd etilgan. Tegishli davlat yoki hududiy organlar esa bu holatda loyihaning texnik-iqtisodiy asosnomasini yuqorida nomi keltirilgan tavsiyalarga muvofiq holda tekshirishi lozim.

Ushbu usuldan diskont stavkasi sifatida foydalanilgan paytda innovatsion loyihalar uchun ssuda foizining nominal xavf-xatarsiz stavkasi qo'llaniladi. Yakka tartibdagi loyihaning xavf-xatarlari esa loyiha bo'yicha kutilayotgan pul oqimlarining hisob-kitobida ishtirok etayotgan ko'rsatkichlarning o'zgarishiga sabab bo'ladi.

A_t pul oqimi hisob-kitobida har bir kelgusi t davrda pul oqimining prognoz qilinadigan umumiy miqdorini tashkil etuvchi barcha kutilayotgan ko'rsatkichlar, ushbu usulga muvofiq kelgusida tegishli ko'rsatkichning aynan shu miqdorning chiqish ehtimolligiga (subyekti va eksperti baholagan holda, ammo zarur miinimal

hujjatlashtirish marketing va boshqa tadqiqotlar asosida) qarab o'zgartirilishi lozim. Bunda ko'rib chiqilayotgan ko'rsatkichlarning yakuniy miqdorlari ularing muqobil miqdorining ehtimollik yig'indisi sifatida hisoblanadi.

Ssenariya usulining ko'inishi 10.10-rasmda keltirilgan¹⁸⁸. Agar kelgusi davrda foydaga soliq solish stavkasi Z ehtimolligi bilan h_{t_1} darajasida kutilayotgan bo'lsa, $(1-Z)$ ehtimolligi bilan esa ushbu ko'rsatkich h_{t_2} ga teng bo'lsa, loyihaning sof diskontlangan daromadni NPV yoki t davrida kutilayotgan loyihaning qoldiq joriy qiymati PV_{qoldiq} ni hisob-kitobiga kiritganda A_t pul oqimi $h_t = h_{t_1} \times Z + h_{t_2} \times (1-Z)$ teng bo'lgan t davrda ehtimoli eng yuqori bo'lgan h_t soliq solish stavkasidan kelib chiqadigan rejalashtirilgan foydadan olinadigan soliq miqdorini o'z ichiga olishi lozim.



11.10-rasm. Foyda solig'i stavkani prognoz qilish uchun ikkita ssenariyasi

**(“a” ssenariyaning ehtimolligi Z bilan baholanadi)
 (“v” ssenariyaning ehtimolligi $1-Z$ bilan baholanadi)**

Ssenariya usullarini qat'i qo'llanilishi pul oqimini tashkil etuvchi ayrim ko'rsatkichlarning namoyon bo'lishida mumkin bo'lgan turli oqibatlar to'g'risida juda katta axborotlarga ega bo'lishini talab etadi. Shuningdek, ushbu oqibatlarning keng yoyilgan ssenariyalarini ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Natijada ushbu

¹⁸⁸ Валдайцев С.В. Оценка бизнеса и управление стоимостью предприятия: учеб.пособие для вузов / С. В. Валдайцев. – М.: Юнити-Дана, 2001. – 720 С.

usuldan foydalanish bir ko‘rishda oson tuyilganligiga qaramasdan, u ko‘p mehnat talab qiladigan va mas’uliyatli ish hisoblanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Innovatsiyalar samaradorligi qanday baholanadi? Moliyaviy baholashning oddiy ko‘rsatkichlarini aytib bering.
2. Innovatsion loyihani baholashning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
3. Samaradorlikni majmuali baholash qanday amalga oshiriladi?
4. Ilmiy-texnik samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlari nimalardan iborat?
5. Ijtimoiy samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlari nimalardan iborat?
6. Iqtisodiy samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlari nimalardan iborat?
7. Samaradorlikni baholashning statistik usullarini aytib bering.
8. Diskontlangan pul oqimlari nima?

11-BOB. INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH

11.1. INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH ASOSLARI

11.1.1. Innovatsion loyihalar tushunchasi va mohiyati

Milliy amaliyotda loyihalarni boshqarish konsepsiya (Project Management) muayyan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar majmuasida namoyon bo'lgan maqsadli majmuaviy dastur va loyihalarni (MMD(L)) shakllantirish va ularni bajarishni tashkil etishni ko'zda tutadigan dasturiy-maqsadli boshqaruv (ayniqsa rejalashtirish) usulini keng qo'llashda (ham hozirgi, ham oldingi sharoitlarda) o'z aksini topadi. Keng yoyilgan loyiha va dastur tizimi ham ilmiy, ham innovatsion sohalarda amalga oshiriladi. Innovatsion loyihalar va ularni amalga oshirish dasturlari mamlakatda shakllanadigan ilmiy-texnik rivojlanishni boshqarishning xo'jalik mexanizmini asosiy qismini tashkil etadi.

Innovatsion loyihani aniqlash va uning asosiy elementlari.
«Innovatsion loyiha» tushunchasi:

- innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarish shaklini;
- innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonini;
- hujjatlarning to'plamini ifodalaydi.

Innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarish shakli sifatida innovatsion loyiha fan va texnikani rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarida aniq maqsad (vazifalar)ga erishishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning resurs, muddat va ijrochilar bo'yicha o'zaro shartlangan va o'zaro muvofiqlashtirilgan murakkab tizimini ifodalaydi. Innovatsiyalarni amalga oshirish sifatida innovatsion loyiha – bu innovatsiyaga keltiradigan ilmiy, texnologik, ishlab chiqarish, tashkiliy, moliyaviy va tijorat chora-tadbirlarning yig'indisidir. Shuningdek, innovatsion loyiha – bu loyiha maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnik, tashkiliy-rejali, hisobli-rejali hujjatlarning to'plamidir (G'arbda loyihaning ushbu jihatini belgilash uchun «design» atamasi ishlatiladi).


Innovatsion loyihaning eng to'liq va majmuaviy jihatdan keng talqini uning birinchi jihatida namoyon bo'ladi. «Innovatsion loyiha» tushunchasining barcha uchta jihatini hisobga olgan holda unga

quyidagi ta'rifni berish uchun asos bo'ladi.

Innovatsion loyiha – o'zaro muvofiqlashtirilgan maqsad va ularga erishish mexanizmlar tizimi bo'lib, tegishli tarzda rasmiylashtirilgan (resurs, muddat va ijrochilar bo'yicha muvofiqlashtirilgan), loyihaviy hujjatlar to'plami bilan rasmiylashtirilgan va innovatsiyaga keltiradigan hamda miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalangan tegishli aniq ilmiy-texnik masala (muammo)ni samarali yechimini ta'minlaydigan ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, ishlab chiqarish, tashkiliy, moliyaviy, tijorat va boshqa chora-tadbirlarning majmuasini ifodalaydi.

Asosiy *innovatsion loyiha elementlariga* (11.1-rasm) quyidagilar kiradi:

- loyihaning asosiy vazifalarini aks ettiruvchi maqsad va vazifalarni shakllantirish;
- innovatsion muammolarni yechish va qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha loyihaviy chora-tadbirlar majmuasi;



11.1-rasm. Innovatsion loyihaning asosiy elementlari

– loyihaviy chora-tadbirlarni amalga oshirishni tashkil etish, ya'ni chegaralangan vaqt va belgilangan narx hamda sifat doirasida loyihaning maqsadlarga erishish uchun ularni resurslar va ijrochilar bo'yicha muvofiqlashtirish;

– loyihaning asosiy ko'rsatkichlar (maqsadlidan – butun loyiha bo'yicha, shaxsiygacha – alohida topshiriq, mavzu, bosqich, chora-tadbir, ijrochilar), shu jumladan uning samaradorligini tavsiflovchi.

Innovatsion loyihalar dasturning alohida yo'nalishlari (topshiriqlar, bo'limlar)ning vazifalarini bajarib mustaqil tarzda fan va texnikani rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha aniq muammolarni yechishi, ilmiy-texnik dasturlar tarkibida shakllanishi mumkin.

Innovatsion loyihalarning vazifalari. Eng muhim ilmiy-texnik muammo (masala)larni yechish uchun innovatsion loyihaning shakllanishi quyidagilarni ta'minlashga xizmat qiladi:

– ilmiy-texnik rivojlanishning aniq vazifa (maqsad)ni yechishga majmuaviy, tizimli yondashuv;


– ilmiy-texnik rivojlanishning maqsadlarini miqdor jihatdan aniqlashtirish va innovatsiyalarni boshqarishda pirovard maqsad va loyihaning natijalarini qat'i aks ettirish;

– innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish, ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonlarini mufassal boshqarish;

– loyihaning maqsadlarini eng samarali amalga oshirish yo'llarini asoslangan holda tanlash;

– loyiha bo'yicha murakkab ishlar majmuasini idoralararo muvofiqlashtirish va samarali boshqarish.

Innovatsion loyihaning asosiy ishtirokchilari. Innovatsion loyihaning g'oyalarini amalga oshirilishi loyihaning ishtirokchilari tomonidan ta'minlanadi. Loyihaning turiga qarab, unda bittadan to o'nlab (ayrim hollarda yuzlab) tashkilotlar ishtirok etishi mumkin. Ularning har biri loyiha bo'yicha o'z vazifasi, ishtirok etish darajasi va uning taqdiri bo'yicha majburiyat choraloriga ega. Bundan tashqari ushbu tashkilotlarning barcha ular bajaradigan vazifalariga qarab loyiha ishtirokchilarining aniq guruh (toifa)larga birlashishi qabul qilingan. loyihaning asosiy ishtirokchilarning sxematik tasviri 11.2-rasmda keltirilgan.



11.2-rasm. Loyihaning asosiy ishtirokchilari

Buyurtmachi – loyiha natijasining bo‘lajak egasi va foydalanuvchisi. Buyurtmachi sifatida ham jismoniy shaxs, ham yuridik shaxs ishtirok etishi mumkin.

Investor – loyiha mablag‘larini kiritayotgan jismoniy yoki yuridik shaxslar. Investor buyurtmachi ham bo‘lish mumkin. Agar investor va buyurtmachi bitta shaxs bo‘lmasa, investor buyurtmachi bilan shartnoma tuzadi, shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qiladi va loyihaning boshqa ishtirokchilari bilan hisob-kitobni amalga oshiradi. O‘zbekistonda investorlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- davlat va hududiy mol-mulkni boshqarishga vakolatli organlar;
- tashkilotlar, tadbirkorlik birlashmalar, jamoat tashkilotlari va boshqa barcha mulkchilik shaklidagi yuridik shaxslar;
- xalqaro tashkilotlar, xorijiy yuridik shaxslar; jismoniy shaxslar
- O‘zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari. Loyihani moliyalashtirishni ta‘minlovchi asosiy investorlardan biri bank hisoblanadi.

Loyihalashtiruvchi – loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiquvchi

maxsus loyiha tashkilotlaridir. Ushbu ishlar majmuasini bajarish bo'yicha mas'ul odatda bitta tashkilot, u bosh loyihalashtiruvchi deb ataladi. Xorijda uning vakillari arxitektor va muhandislar hisobalanadi. Arxitektor – loyiha-smeta hujjatlarini tuzish bo'yicha ishlarni mahorat bilan, ammo rasmiylashgan litsenziyaga mufoviq tarzda bajarish huquqiga ega bo'lgan shaxs yoki tashkilotdir. Muhandis – injiniring, ya'ni loyiha mahsulotni ishlab chiqarish va sotish jarayoni bilan bog'liq xizmatlar majmuasi bilan shug'ullanishga litsenziya olgan shaxs yoki tashkilotdir.

Yetkazib beruvchi – loyiha (xarid qilish yoki yetkazib berish)ni moddiy-texnika ta'minoti bilan shug'ullanuvchi tashkilot.

Ijrochi (tashkilot-ijrochi, pudratchi, subpudratchi) – shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish bo'yicha javobgar bo'lgan yuridik shaxs. Unga ilmiy-texnik tashkilotlar, IK, ishlab chiqarish korxonalari, OO'Y va h.k. kiradi.

Ilmiy-texnik kengash (ITK) – loyihaning tematik yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-texnik yechimlarini tanlash, ularni amalga oshirish darajasi, loyihaning maqsadlariga erishish uchun chora-tadbirlarning to'raligi va majmuaviyligi bo'yicha javobgar bo'lgan; ijrochilarni tanlov asosida tanlash va olingan natijalarni ekspertizadan o'tkazishni tashkil etuvchi yetakchi mutaxassislardir.

Loyihaning rahbari (G'arbda qabul qilingan «proyekt-menejer» atamasidan kelib chiqadi) – buyurtmachi loyiha bo'yicha ishlarni rahbarlik qilish, loyiha ishtirokchilarining ishlarini rejalashtirish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha o'z vakolatlarini berayotgan yuridik shaxsdir. Loyihaning rahbar vakolatlarining aniq tarkibi buyurtmachi bilan tuzilgan shartnoma bilan belgilanadi.

Loyiha jamoasi – loyiha rahbari boshchiligida va loyihaning amalga oshirish davrida uning maqsadlarga samarali erishish uchun tuzilayotgan maxsus ixtisoslashgan tashkiliy tuzilma. Loyiha jamoasi tarkibi va vazifalari loyihaning ko'lami, murakkabligi va boshqa tasnifiy belgilarga bog'liq. Loyiha jamoasi loyiha rahbari bilan birga loyihani ishlab chiquvchilar hisoblanadi. Ishlab chiquvchi o'z vazifalarining bir qismini bajarish uchun maxsus ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilishi mumkin.

Loyihani qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar – loyihaning asosiy

ishtirokchilariga loyiha vazifalarini bajarishda ko‘maklashuvchi turli mulkchilik shakldagi tashkilot bo‘lib, ular bilan birga innovatsion tadbirkorlikni tashkil etadi. Loyihani qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalarga quyidagilar kiradi:


- innovatsion markazlar;
- dastur, loyihalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari;
- konsalting firmalar;
- mustaqil ekspertiza organlari;
- patentli-litsenziya firmalar;
- auditorlik firmalar;
- ko‘rgazmali markazlar va boshqalar.

11.1.2. Innovatsion loyiha turlari

Ilmiy-texnik rivojlanishning maqsad va vazifalarining turli-tumanligi turli xil innovatsion loyihalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ularning umum qabul qilingan tasnifi yo‘q. Innovatsion loyihalarni loyihani amalga oshirish muddati, loyiha maqsadining tavsifi, qondiradigan ehtiyojlar turi, innovatsiyaning turi va qabul qilinadigan yechimlar darajasi kabi mezonlar bo‘yicha tasniflash maqsadga muvofiq. Ushbu keltirilgan mezonlar bo‘yicha innovatsion loyihalarning tasnifi 11.3-rasmda keltirilgan.

Loyihani amalga oshirish, uning maqsadlariga erishish uchun sarflangan vaqtga qarab innovatsion loyihalar uzoq muddatli (strategik) – ularni amalga oshirish muddati 5 yildan oshmaydi, o‘rta muddatli (amalga oshirish muddati 3–5 yil) va qisqa muddatli (3 yildan kam) loyihalarga bo‘linadi.

Maqsadlar tavsifi nuqtayi nazardan loyiha yakuniy – ya’ni butun innovatsion muammo (masala) yechimining maqsadini aks ettiradigan, yoki oraliq – murakkab muammolarni yechish bo‘yicha oraliq natijalarga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan loyiha bo‘lishi mumkin. Qondiradigan ehtiyojlar turiga qarab loyiha mavjud ehtiyojlarga yoki yangi ehtiyojlarga qaratilgan bo‘lishi mumkin.



12.3-rasm. Innovatsion loyiha turlari

Innovatsiyalar turi bo'yicha innovatsion loyihalarning tasnifi ularni quyidagilarga bo'linishini ko'zda tutadi:

- yangi (radikal) yoki takomillashgan (inkremental) mahsulotni chiqarish;
- yangi yoki takomillashgan ishlab chiqarish usuli;
- yangi bozorni yaratish;
- xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotni yetkazib berishning yangi manbalarni o'zlashtirish;
- boshqaruv tuzilmani isloh qilish.

Innovatsion loyihalar bilan qamrab oladigan qaror va sohalarni

qabul qilish darajasi bo'yicha ular quyidagilarga bo'linadi:

– xalqaro va prezident innovatsion loyihalari (ularning asosiy topshiriqlari davlat ilmiy-texnik dasturi tarkibiga kirishi mumkin);

– hududiy innovatsion loyihalar (ular hududiy ilmiy-texnik dasturi tarkibiga kirishi mumkin);

– tarmoq (tarmoqlararo) innovatsion loyihalar (ular O'zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralarning rejalar tarkibiga kirishi mumkin);

– alohida IKnig innovatsiya loyihalari (ular IKnig rejalar tarkibiga kirishi mumkin).

Innovatsion loyihaning u yoki bu turiga mansubligi loyihani shakllantirish va boshqarishning alohida usullarning maxsus mazmun-mohiyatini va ulardan foydalanishni belgilaydi. Loyiha tamoyillarning yagonaligi innovatsion loyihalarni boshqarish uchun umumiy uslubiy qoidalardan foydalanishga imkon yaratib beradi.

Innovatsion loyihalarning mazmun-mohiyati. Innovatsion loyihaning mazmun-mohiyatini uchta jihatlar bo'yicha ko'rib chiqish mumkin:

– innovatsion faoliyatning bosqichlari bo'yicha;

– loyihani shakllantirish va uni amalga oshirish bo'yicha;

– loyihani tashkil etish elementlari bo'yicha.

Innovatsion loyiha ilmiy-texnik g'oyalarni bozorga tatbiq etilgan yangi yoki takomillashgan mahsulotga, amaliy faoliyatda foydalanilgan yangi yoki takomillashgan texnologik jarayon yoxud ijtimoiy xizmatlarga yangi yondashuvning o'zgarishi bilan bog'liq barcha innovatsion faoliyatning bosqichlarini qamrab oladi. Innovatsion faoliyatni amalga oshirish bosqichlari nuqtayi nazardan loyiha ITI, loyiha-konstruktorlik va tajriba-sinov ishlari, ishlab chiqarishni o'zlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va uni yo'lga solish, yangi mahsulotlar marketingi hamda moliyaviy chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Innovatsion loyihani mazmun-mohiyatini uni shakllantirish va amalga oshirish, ya'ni texnologik jihatdan ko'rib chiqish negizida *innovatsion loyihaning hayotiy sikli* yotgan bo'lib, u quyidagidan kelib chiqadi: innovatsion loyiha bu yakuniy vaqt oralig'i davomida sodir bo'ladigan jarayondir. Ushbu jarayonda loyihaning faoliyatini ta'minlaydigan faoliyat turi bilan farqlanadigan bosqichning vaqtlar bo'yicha bir qator ketma-ketligini ajratib olishimiz mumkin.

Vaqt makonida sodir bo‘layotgan jarayon sifatida ko‘rib chiqiladigan innovatsion loyiha quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi¹⁸⁹:

– innovatsion g‘oya (niyat)larni shakllantirish. Bu innovatsion g‘oyalarning tug‘ilishi va loyihaning bosh (yakuniy) maqsadlarini shakllantirish jarayonidir. Ushbu bosqichda loyihaning yakuniy maqsadlar (hajm, muddat, foyda miqdori bo‘yicha miqdoriy baholash) va ularga erishish yo‘llari, investitsiya subyekt va obyektlari, ularning shakl va manbalari aniqlanadi;

– loyihani ishlab chiqish. Bu loyihaning yakuniy maqsadlarga erishish bo‘yicha yechimlarni topish va ularni amalga oshirish uchun topshiriq va chora-tadbirlar majmuasini vaqt, resurslar va ijrochilar bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda shakllantirish jarayonidir. Ushbu bosqichda loyihaning maqsadlarga erishishning turli variantlari taqqoslama tahlil qilinadi va amalga oshirish uchun eng samarali variant tanlanadi; innovatsion loyihani amalga oshirish rejaları ishlab chiqiladi; loyiha (loyiha jamoasi) ustidan ishlash uchun maxsus tashkiliy ishlar masalalari yechiladi; loyihaning mavjud ijrochilarni tanlov asosida saralanadi va shartnoma hujjatlari tayyorlanadi;

– loyihani amalga oshirish. Bu loyiha o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha ishlarni bajarish jarayonidir. Ushbu bosqichda taqvim (kalendar) rejalarining bajarilishi va resurslardan foydalanish ustidan nazorat, yuz bergan og‘ishlarni to‘g‘rilash va loyihani amalga oshirishni operativ boshqarish bo‘yicha ishlar amalga oshiriladi;

– loyihaning tugatilishi. Bu loyihaning natijalarini buyurtmachiga topshirish va shartnomani yopish jarayonidir. Shu bilan innovatsion loyihaning hayotiy sikli yakuniga yetadi.


Innovatsion loyihani tashkil etish elementlari bo‘yicha ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda ikkita qismni ajratib olishimiz mumkin: loyihani shakllantirish va amalga oshirishni boshqarish va innovatsion loyihaning ishtirokchi organlari.

¹⁸⁹ Jahon banki va BMT bo‘linmalarida – United Nations Industrial Development Organization (UNIDO) innovatsion loyihaning hayotiy siklini uchta bochqichga bo‘lish qabul qilingan: investitsion oldi, investitsion va ekspluatatsion sikllar.

11.2. INNOVATSION LOYIHALARNI ISHLAB CHIQUISH TARTIBI

11.2.1. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish

Innovatsion loyihani ishlab chiqish o‘z mohiyatiga ko‘ra loyihani ishlab chiqish bo‘yicha maqsadlarni qo‘yish, uning konsepsiyasini ishlab chiqish, loyihani rejalashtirish va uning loyiha-hujjatlarini rasmiylashtirish bilan bog‘liq prognoz-tahliliy va texnik-iqtisodiy tavsifdagi uyushqoqlik bilan tashkil etilgan ITI. Innovatsion loyihaning konsepsiyasi loyihani amalga oshirish variantlarini aniqlash, uning asosiy maqsadlarini va kutilayotgan yakuniy natijalarini shakllantirish, natijalarning raqobatbardoshlik va ustuvorligini baholash hamda innovatsion loyihaning mumkin bo‘lgan samaradorligini baholash kabilar bilan ta‘minlashi lozim. Innovatsion loyihaning konsepsiyasini ishlab chiqish jarayonida quyidagi bosqichlarni ajratib olishimiz mumkin (11.5-rasm): loyihaning innovatsion g‘oyalarini shakllantirish maqsadlarini qo‘yish, loyiha g‘oyalarini marketing tadqiq etish, loyihani tarkiblashtirish, xavf-xatarini va noaniqlikni tahlil qilish, loyihani amalga oshirish variantini tanlash.



11.5- rasm. Innovatsion loyiha konsepsiyasini ishlab chiqishning mazmun-mohiyati va bosqichlari

Innovatsion g'oyalarni shakllantirish va loyiha maqsadlarini qo'yish. Innovatsion g'oyalarning shakllanishi innovatsion loyihani ishlab chiqishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Innovatsion g'oyani shakllantirish ikkita tomondan ko'rib chiqiladi. Birinchi tomondan, innovatsion g'oya innovatsion loyihaning negizi, mazmuni hisoblanib, u loyihaning bosh (yakuniy) maqsadlarini (yangi mahsulot va xizmat yaratish g'oyasi, tarmoq, hudud va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va h.k.) qo'yishda o'z aksini topadi. Ikkinchi tomondan, innovatsion g'oya (niyat)ni shakllantirishga o'ylagan xatti-harakatlar rejasi, ya'ni loyihaning maqsadlariga erishish uslubi yoki yo'li tushuniladi. Aynan bu bosqichda muammoning muqobil variantlari yechiladi. G'oya to'satdan paydo bo'lishi yoki uzoq muddatli jarayon natijasi, jamoa ekspertiza yoki yakka tartibdagi tahlil natijasi bo'lishi mumkin.

Innovatsion g'oyalarni jamg'arish va shakllantirish ekspert baholash usullaridan yaxshi tanish bo'lgan fikrini aniqlash usuli (intervyu usuli; so'rovnomalar usuli – tanlov savollari; ssenariya yozish va h.k.) va ijodiy usullari («aqliy hujm»; morfologik tahlil; Delfi usuli va h.k.).

Loyihaning g'oyasini marketing tadqiq etish. Loyihaning innovatsion g'oyalarning shakllanishi bilan birga uning marketing tadqiqoti olib boriladi. Bu bosqichning maqsadi loyihaning xalq xo'jaligini rivojlantirishga ta'sir etish yo'nalishini aniqlash va natijada, loyihaning maqsadini hamda alohida davrlari bo'yicha vazifalarni miqdoriy aniqlashtirishdan iborat. Innovatsion loyihaning yakuniy maqsad va vazifalari muammoni (innovatsion g'oyani) tanlash va asoslash bosqichida aniq miqdoriy ko'rsatkichlari ko'rinishida har doim ham o'rnatilmasligi mumkin. Shu bois loyihani ishlab chiqish loyihaning yakuniy maqsadlarini miqdoriy jihatdan aniqlashtirish va uni turli amalga oshirish variantlari uchun alohida vaqt davrlar bo'yicha amalga oshirishning oraliq vazifalarini qo'yish bilan boshlanishi lozim.

Ushbu maqsad uchun:

– loyihaning maqsadli mahsulotlarning mumkin bo'lgan iste'molchilari aniqlanadi;

– ishlab chiqarilayotgan mahsulotni yangi maqsadli mahsulot turlari bilan almashtirish imkoniyatlari va iqtisodiy maqsadga

muvofiqligi tahlil qilinadi;

– loyihani xomashyo, energiya resurslari, butlovchi qismlar va h.k. bilan ta'minlovchi tarmoqlar tarkibi o'rganiladi;

– loyihani amalga oshirishning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini tadqiq etiladi.


Marketing tadqiqot bosqichida 5-bobda izohlangan innovatsiyalar marketingning umumiy usullaridan foydalanish lozim. Marketing tadqiqotning natijalari loyihaning maqsadli parametrlarning aniq miqdori ko'rsatkichlarida ifodalanadi.

Innovatsion loyihani tarkiblashtirish. Loyihaning oldingi bosqichida maqsadli parametrlarni belgilash loyihaning yakuniy maqsadlarga erishish bo'yicha loyiha chora-tadbirlar ro'yxatini shakllantirish uchun asos hisoblanadi. Zarur chora-tadbirlar tarkibini aniqlash uchun yakuniy maqsadlar tarkiblanadi, ya'ni ular tarkibiy qismlarga bo'linadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, loyihani tarkiblashda ikkita turni ajratib olish lozim bo'ladi: vazifalar va muammolar bo'yicha tarkiblash.

Loyihani funksiyalar bo'yicha tarkiblash. Innovatsion loyihani tarkiblashda uning to'liq va majmuaviy tarzda yechishning sharti hisoblangan funksional elementlarning tarkibi o'rnatiladi. Loyihani ishlab chiqishda ushbu muammolarni funksiyalar bo'yicha tarkiblashning dastaki sifatida "maqsadlar daraxti" xizmat qiladi. Ushbu daraxt o'z mohiyatiga ko'ra iyerarxik tizim bo'lib, u amalga oshirishni talab qiladigan aniqlashtiriladigan maqsadlarning ketma-ket joylashgan bir qator pog'onalarini o'z ichiga oladi (11.6-rasm.). Bunda har bir keyingi pog'ona yuqorida turuvchi pog'onaning maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlashi lozim.

Har bir o'rnatilgan elementlar, shu jumladan muqobil elementlar bo'yicha ilmiy-texnik darajasini tavsiflovchi va yuqori turuvchi pog'onadagi elementlarning maqsadli ko'rsatkichlarning mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi eng muhim maqsadli ko'rsatkichlarning chegaralangan ro'yxati aniqlanadi. Har bir elementni rivojlantirish alohida prognozlar asosida va shakllangan nisbat, solishtirma xarajat va xarajatlarni me'yorlarni hisobga olgan holda loyihaning alohida amalga oshirish davri bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar miqdorlari aniqlanadi. Maqsadli ko'rsatkichlar miqdorlari aniqlashda yuqori turuvchi pog'onadagi tegishli elementning maqsadli parametrini


majburiy holda ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqishi lozim. «Maqsadlar daraxti» elementlari bo'yicha maqsadli parametrlarning hisob-kitobi yuqori pog'onadan quyi pog'onagacha qarab ketma-ketlik bilan kichiklashtirish bilan amalga oshiriladi.



11.6-rasm. Maqsadlar daraxti

Maqsadli ko'rsatkichlardan tashqari har bir element bo'yicha «maqsadlar daraxti»ni maqsadlarga erishishning alohida shartlarini belgilaydigan chegaralovchi parametrlarni o'rnatish tavsiya qilinadi. Ushbu parametrlar va ularning miqdorining tarkibi loyihaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ekspertlar tomonidan tanlanadi va asoslanadi. Chegaralovchi parametrlar loyihani amalga oshirishda bardosh bera oladigan talablarni o'rnatadi. Shunday qilib, loyihaning chegaralovchi parametrlar tarkibini va ularning sifat miqdorlarini o'rnatish loyihani amalga oshirish variantini birinchi va eng yirik texnik-iqtisodiy asoslash bosqichi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Loyihani muammolar bo'yicha tarkiblash. Tuzilgan «maqsadlar daraxti» muammolar jihatdan ifodalangan topshiriq va choralar tizimiga aylanib, u ham iyerarxik tuzilmaga, ya'ni «ishlar daraxti» deb nomlanuvchi tuzilmaga ega bo'ladi. Agar «maqsadlar daraxti» loyiha-ning maqsadlariga erishishning zarur vositalarini belgilasa, choralar majmuasi esa («ishlar daraxti») ushbu vositalarni olish yo'llari va uslublarini aniqlashi lozim. Choralarini shakllantirishda quyi pog'onadagi ishlar yuqori pog'onadagi mavzu, topshiriq, muammolarga asta-sekinlik bilan kirib borish tamoyilini qo'llashi lozim (11.7-rasm).



11.7-rasm. Ishlar daraxti

Zarur choralar ro'yxatini ishlab chiqish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- an'anaviy texnikani ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish hisobiga maqsadli parametrlarni ta'minlash imkoniyati va maqsadga muvofiqligi o'rganiladi;

- ilgari yakunlangan ITTKIning natijalarini ishlab chiqarishda o'zlashtirish bo'yicha choralar shakllantiriladi;

- ilmiy bilim yetarli bo'lmagan paytda litsenziya, asbob-uskuna yoki hujjatlarni sotib olish asosida chet el mamlakatlar tajribasidan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar o'rganiladi va choralar belgilanadi;

- ITI yo'nalishi va aniq mavzular bo'yicha takliflar tayyorlanadi.

«Maqsadlar daraxti» quyi pog'onadagi elementlar bo'yicha belgilangan ishlar majmuasi loyihaning ishlab chiqishning keyingi bosqichida yuqori pog'onadagi tegishli elementlarni yaratish bilan bog'liq mavzu, topshiriq va bosqichlarga qo'shib ketadi. Shu tarzda hosil bo'ladigan «ishlar daraxti» loyihani amalga oshirishning mumkin bo'lgan variantlaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Loyihani tarkiblashning natijasi choralar ro'yxati (topshiriq, mavzu va ishlar tarkibi) hisoblanib, loyihaning har bir amalga oshirish variantlari bo'yicha maqsadli miqdorlariga belgilangan muddatda erishish uchun ularni bajarish zarur hisoblanadi.

Xavf-xatar va noaniqlikni tahlil qilish. Innovatsion loyihaning asosiy eng ahamiyatli xususiyatlaridan biri shundaki, loyiha xavf-xatar va noaniqlik sharoitlarida bajariladi. Agar loyihani amalga oshirish

sharoitlari turlicha bo'lgan paytda uning xarajat va natijalari ham turlicha bo'lsa, bu omillar samaradorlikni hisoblashda inobatga olinishi lozim. Innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda xavf-xatarni tahlil qilish natijasi muqobil variantlarni amalga oshirish ehtimolini aniqlashga xizmat qiladi.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish variantlarini tanlash.

Innovatsion loyihalarning muqobil variantlardan eng samaralisini tanlash loyihani ishlab chiqishda eng mas'uliyatli ishlaridan biri sanaladi. Ushbu bosqichning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– innovatsion loyihalarning asosiy samaradorlik mezon (ko'rsatkich)larini belgilash;

– loyihaning muqobil variantlarini ularni amalga oshirish ehtimolini hisobga olgan holda samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash;

– amalga oshirish uchun innovatsion loyiha variantini taqqoslash va tanlash.

Innovatsion loyihalarning samaradorligini baholash maqsadida investitsion loyihalarning samaradorligini baholash va ularni moliyalashtirish uchun tanlash bo'yicha mavjud uslubiy tavsiyalarda belgilangan ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Loyiha variantini amalga oshirishda sharoitlarning noaniqligini hisoblash uchun kutilayotgan integral samara (iqtisodiy – xalq xo'jaligi ko'lamida, tijorat – IK ko'lamida) ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Loyihani amalga oshirishda turli sharoitlarning ehtimollari aniq bo'lsa, kutilayotgan integral samarasi matematik kutishlar quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$S_{kutil.} = \sum S_i \times E_i$$

bu yerda, $S_{kutil.}$ – loyihaning kutilayotgan integral samarasi; S_i - i amalga oshirish sharoitila integral samara; E_i – ushbu loyihani amalga oshirish ehtimoli.

Umumiy holda hisob-kitobni quyidagi formula yordamida amalga oshirish tavsiya qilinadi:

$$S_{kutil.} = h \times S_{max} + (1 - h) \times S_{min}$$

bu yerda, S_{max} va S_{min} – integral samaraning mumkin bo'lgan ehtimol taqsimoti bo'yicha eng katta va eng kichik matematik

kutishlar; h – samaraning noaniqligini hisobga olish uchun maxsus me'yor, uni 0,3 atrofida qabul qilish tavsiya qilinadi¹⁹⁰.

Loyihaning turli variantlarini taqqoslash va ulardan eng yaxshisini tanlash quyidagi usullardan foydalangan holda amalga oshirish tavsiya qilinadi:

– sof diskontlash daromadi (SDD) yoki kutilayotgan integral samarasi;

– daromadlilik indeksi (DI);

– daromadlilikning ichki me'yor (DIM);

– qoplanish muddati;

– zararsizlik nuqtasini hisoblash va boshqa ishtirokchilar manfaatlarini va loyihaning ixtisosligini aks ettiruvchi usullar.

Ularning har biridan foydalanish uchun ularning yordamida innovatsion loyihaning qaysi iqtisodiy baholash masalasi yechilayotganligi va yechimlar qay tarzda tanlanayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Innovatsion loyihaning konsepsiyasini ishlab chiqish tadqiqot olib borish va innovatsion loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashning barcha bosqichlarini (maqsadni aniqlashdan to' ularga erishish uchun eng samarali variantni tanlashgacha) qamrab oladi.

11.2.2. Innovatsion loyihani rejalashtirish


Loyihani boshqarishda rejalashtirish (dasturlash, aniqlashtirish dasturi) asosiy o'rin egallaydi va loyihani amalga oshirishda butun jarayonning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Rejalashtirishning asosiy maqsadi – loyihaning yakuniy natijalarga erishishni ta'minlab beruvchi ishlar majmuasini bajarish uchun loyihaning barcha ishtirokchilarining integratsiyasi hisoblanadi. *Innovatsion loyihani amalga oshirish rejasi* - vaqt makonda yoyilgan, resurs va ijrochilar bo'yicha balanslashgan umumiy maqsad yoki qo'yilgan masalani yechishga erishishga qaratilgan ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarning o'zaro bog'langan ro'yxatidir. Shunday qilib, reja kimga qanday vazifa va qay vaqtda yechish hamda har bir vazifani yechish uchun qanaqa resurslar ajratish lozimligi to'g'risida ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Odatda ushbu reja majmuaviy

¹⁹⁰ Завлин П.Н., Васильев А.В., Кноль А.И. Оценка экономической эффективности инвестиционных проектов (современные подходы). -СПб.: Наука, 1995. – 168 С.

innovatsion dastur ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.

Rejalar tizimi. Innovatsion loyihalarni boshqarishda 11.8-rasmda keltirilgan rejalar tizimi tuziladi.

Maqsadlar bo‘yicha loyihani rejalashtirish strategik va joriy rejalariga bo‘linadi. Strategik reja quyidagilarni belgilaydi: ishlar majmuasini tugatish muddati, mahsulot (asbob-uskuna) yetkazib berish muddati, ishlar doirasini ishlab chiqish muddati va h.k. tavsiflovchi loyihaning maqsadli bosqichlar va asosiy jihatlarini; tashkilot-ijrochilarning kooperatsiyasi; moddiy, texnik, moliyaviy resurslarni yil, chorak bo‘yicha taqsimlangan holda ularga bo‘lgan ehtiyojlarini. Strategik rejaning asosiy maqsadi – loyihani amalga oshirishning oraliq bosqichlari uning yakuniy maqsadlarga qarab mantiqiy jihatdan sarflanganligini ko‘rsatishdan iborat. Joriy reja ishlar majmuasini bajarish muddatlarini va resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlashtiradi, yil va chorak kesimida turli tashkilot-ijrochilar bajarilishiga javob beradigan ishlar majmuasi o‘rtasida aniq chegaralarni belgilaydi.



11.8-rasm. Innovatsion loyihaning reja turlari

Rejalar loyiha darajasi (loyiha ishining qamrab olish darajasi)ga qarab aniqlashtirilishi mumkin: butun loyiha rejasi, loyiha tashkilot-ijrochilarning rejalarini, alohida ish (bosqich, asosiy jihat)lar turining

rejasi. Butun loyiha rejasi umumiy yoki majmuaviy deb ataladi va loyihadagi barcha ishlarni qamrab oladi. Alohida tashkilot-ijrochilar (yetkazib beruvchilar, investorlar, ijrochilar) yoki alohida ish turi (ITTKI rejasi, loyiha budjeti, yetkazib berishlar rejasi va h.k.) rejalari xususiy yoki aniqlashtiruvchi hisoblanadi.

Mazmun-mohiyatga ko'ra rejalar mahsulotli-tematik, taqvimli, texnik-iqtisodiy (resursli) va biznes-rejaga bo'linadi.

Innovatsion loyihaning *mahsulotli-tematik reja* resurslar, ijrochilar va muddat bo'yicha bir-biri bilan bog'langan ITTKI topshiriqlar majmuasini hamda loyihaning maqsadlarini samarali amalga oshirish uchun ularni ta'minlash bo'yicha ishlarni bajarishni ifodalaydi. Loyiha tarkibiga kirgan topshiriqlar bo'yicha mahsulotli-tematik rejalashtirish jarayonida quyidagi parametrlar aniqlanadi:

- ishlar bosqichlarning tarkibi va ularni bajarish muddatlari;
- bosqichlar bo'yicha mas'ul ijrochi va sheriklar tarkibi;
- har bir bosqichning, shu jumladan ITTKI uchun xarajatlar, sarmoya qo'yilmalar, yillar bo'yicha taqsimlangan holda boshqa xarajatlarning smetali qiymati;
- yillar bo'yicha taqsimlangan holda topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan eng muhim moddiy-texnik resurslarning ro'yxati;
- iqtisodiy samaradorlikning hisob-kitobi;
- yangi mahsulot turi va yangi texnologik jarayon bo'yicha texnik darajasining xaritalari.

Mahsulotli-tematik rejani ishlab chiqishning samarali usullari – dasturli-maqсадli usullar, dastagi – «maqсадlar daraxti» va «ishlar daraxti», asosiy shakli esa – loyihani amalga oshirishning majmuaviy dasturini ishlab chiqish hisoblanadi.

Innovatsion loyihaning *kalendar reja* ishlarning davomiyligini va hajmini, muammoli-tematik rejaning ish, mavzu, topshiriqlarni bajarishni boshlash va yakunlash muddatlari, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqt zaxiralari va resurslarning miqdorlarini aniqlaydi. Taqvimli hisob-kitoblarning maqsadi muammoli-tematik reja va alohida tashkilot-ijrochilar bo'yicha (aniqlashtiruvchi taqvimli rejalar) rejalarning har bir mavzu (topshiriq) hamda butun loyiha (umumiy optimal taqvimli reja) bo'yicha maqsadga muvofiqligi va ketma-ketligini hisobga olgan holda uyg'unlashgan va moslashgan ishlarni tartibga solishdan iborat. Innovatsion loyihani boshqarish

tizimida taqvimli rejalashtirish usuli sifatida tarmoqli rejalashtirish va boshqarish (TRB) usulidan foydalanish tavsiya etiladi. TRB tizimi kelgusi ishlarni chuqur o'rganish va ularni maxsus chizmasi – *tarmoq grafigi* ko'rinishida taqdim etishni ko'zda tutadi. Tarmoq grafigini tuzish va taqvimli rejani ishlab chiqish jarayoni texnologik jihatdan quyidagi asosiy bosqich va qadamlarga bo'linadi:

1. Loyihaning maqsad va cheklovlarini aniqlashtirish: maqsadlar:
 - davomiyligi, sifat;
 - cheklovlar: qiymati, ishlab chiqarish resurslarning mavjudligi.
2. Tarmoq grafikni tuzish:
 - ishlar ro'yxatini tuzish;
 - ishlar, bosqichlar (tarmoq tipologiyasi) o'rtasida aloqalarni o'rnatish;
 - bog'liqlik aloqalarini tuzish (xususiy va umumiy aloqa grafiklari).
3. Taqvimli rejani ishlab chiqish (vaqt makonda loyihani tahlil qilish):
 - har bir ishning davomiyligini baholash;
 - butun loyihadagi alohida vazifani, bosqichni bajarish davomiyligini aniqlash;
 - aloqa parametrlarni hisoblash: har bir vazifa va butun loyihaning boshlanish va yakunlanish sanasini hisoblash; loyihaning kritik yo'lini aniqlash; vaqt zaxirasini hisoblash;
 - aloqani optimallashtirish (qayta rejalashtirish).
4. Mavjud resurslarni baholash, zarur resurslarni va ularning qiymatini aniqlash hamda resurslarni loyiha vazifalari bo'yicha taqsimlash.

Loyihani taqvimli rejalashtirishda aloqa usullaridan foydalanish loyihaning kritik yo'lga kiruvchi eng mas'uliyatli ishlarini aniqlash; loyihani eng qisqa yakunlanish vaqtini belgilash; yuqori xavf-xatarga ega bo'lgan ish, vazifalarni ajratib belgilash; haddan tashqari intensiv bo'lgan faoliyat davrlarni aniqlashga yordam beradi. Innovatsion loyihalarning asosiy aloqa rejalashtirish uslub va usullari tanish bo'lgan TRBning umumiy amaliyotiga muvofiq holda qo'llaniladi.

Texnik-iqtisodiy (yoki resursli) *reja* innovatsion loyihani (moddiy-texnik, axborot, pul) resurs bilan ta'minlash rejasini o'zida ifodalaydi hamda resusrlar tarkibi va ularga bo'lgan ehtiyoji, yetkazib berish

muddati va mavjud yetkazib beruvchilar hamda pudratchilarni aniqlaydi. Resursli rejalashtirish jarayonida pudrat savdolar tayyorlanadi va olib boriladi, yetkazib berish uchun shartnomalar tuziladi. Resurslarni yetkazib berish shartnomasi resurslarni yetkazib berish muddati, hajmi va shartlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Resurslarning asosiy turi pul mablag‘lari (moliya) hisoblanadi. Xarajatlarni rejalashtirishni shunday tarzda amalga oshirish kerakki, ular loyihani amalga oshirish butun davr mobaynida moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira olishi kerak. Buning uchun loyiha budjeti tuziladi.

Innovatsion loyiha budjeti – miqdoriy ko‘rsatkichlardan ifodalangan va qo‘yilgan maqsadga erishish uchun zarur xarajatlarni ask ettiradigan rejadir. Umumiy budjet loyihani amalga oshirishning butun davr mobaynida loyiha bo‘yicha har yilgi sarflanadigan mablag‘larni ko‘rsatib beradi. Bunda birinchi yildagi budjet chorak va oy kesimida imkoniyat boricha aniq belgilanishi mumkin, kelgusi yillardagi budjetlari esa narxlar o‘zgarayotganligini inobatga olib, o‘zgarishi mumkin. Umumiy budjetda alohida ijrochilarning rejaları asos solinadi. Loyiha budjeti ikki taraflama ahamiyatga ega: birinchidan, bu xatti-harakatlari rejasi, ikkinchidan, boshqarish va nazorat qilish uchun dastagi. To‘g‘ri tuzilgan loyiha budjeti ikkita asosiy masalalarni yechishga qaratilgan:

– loyihani vaqt va moliyaviy cheklovlarga muvofiq holda bajarish imkoniyatini bera oladigan dinamika bilan ta‘minlash;

– investitsiyalarning tegishli tuzilmasi va eng katta soliq imtiyozlari hisobiga loyihaning xarajatlari va xavf-xatarini kamaytirish.

Loyiha uchun xarajatlarni rejalashtirish uchun boshlang‘ich axborotiga quyidagilar kiradi: loyiha bo‘yicha smeta hujjatlari va loyihani taqvim rejasi. Loyiha budjetini tuzishda xarajatlarni rejalashtirish umumiy rejadan xususiy rejaga qarab tuziladi, loyiha uchun pul mablag‘lari taqvim davri bo‘yicha uchta bosqichda taqsimlanadi.

1. Taqvim rejaning barcha ishlarning qiymatlari bosqichma-bosqich qo‘shiladi va loyihani amalga oshirishning butun davr mobaynida pul mablag‘larini o‘zlashtirishning integral egri chizig‘i tuziladi. Bunda xarajatlarni rejalashtirishning muqobil variantlari

ko‘rib chiqiladi: ishlarning ertangi muddatda boshlanishida, ishlarning kechki muddatda boshlanishida va vaqt makonda xarajatlarni taqsimlashning ehtimoli eng yuqori bo‘lgan variant ishlarning o‘rta muddatda boshlanishida.

2. Har bir vaqt davridagi zarur xarajatlarning miqdori taqvim reja bo‘yicha ushbu davrda bajarilgan ishlarning qiymatlarini qo‘shgan holda aniqlanadi.

3. Har bir ish turi bo‘yicha vaqt makonda xarajatlar taqsimlanadi. Bunda mablag‘lardan foydalanish mumkin bo‘lgan variantlari ko‘rib chiqiladi: normal, tezlashtirilgan va sekinlashtirilgan.


Innovatsion loyihaning *biznes-rejasi* raqobat sharoitida loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini baholash va asoslashga yordam beradi. Biznes-rejani tuzishda quyidagi savollarga javob topish lozim bo‘ladi:

- g‘oya o‘zi shunchalik yaxshimi?
- yangi mahsulot yoki xizmat kim uchun mo‘ljallangan?
- ushbu mahsulot yoki xizmat o‘z xaridorlarini toparmikan?
- kim bilan raqobatga tushish kerak bo‘ladi?

Biznes-reja innovatsion loyihani amalga oshirish maqsadlari, usullari va qutilayotgan natijalari to‘g‘risida tasavvurlarni beradigan qisqa dasturiy hujjat hisoblanadi. Uning qiymatliligi shundan iboratki, u raqobat sharoitida loyihaning amal qilish qobiliyatini aniqlash imkoniyatini beradi, loyihani rivojlantirish mezonlarini o‘z tarkibiga oladi va tashqi investorlar tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning eng muhim dastagi sifatida xizmat qiladi.

Biznes-rejaning tarkibi va uni aniqlashtirishning darajasi innovatsion loyiha turiga, ya‘ni uning ko‘lami, xalq xo‘jaligi uchun ahamiyati, ilmiy yo‘nalganligi, ko‘zda tutilgan sotish bozorining hajmi va raqobatchilar mavjudligiga bog‘liq. Biroq namunaviy tarkibi, bo‘limlarning mazmun-mohiyati, innovatsion loyihaning biznes-rejasini tuzish usullari va unga qo‘yilgan umumiy talablar xuddi boshqa biznes-rejasini tuzgandagidek.

Rejalashtirish jarayoni. Innovatsion loyihani ishlab chiqish bo‘yicha faoliyati loyihani boshqarishning barcha bosqichlarini: loyiha konsepsiyasini ishlab chiqishdan to taqvim rejani bajarishni nazorat qilish va resurslarni sarflashgacha bo‘lgan bosqichlarni qamrab oladi (11.9-rasm).



11.9-rasm. Innovatsion loyihani rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari.

Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish bosqichida loyihaning innovatsion dasturi ko‘rinishidagi mahsulotli-tematik reja shakllanadi. Buning uchun loyihaning maqsadlari va alohida davr bo‘yicha vazifalari («maqsadlar daraxti»)ning miqdor jihatdan aniqlashtiriladi; tashkiliy-texnologik qarorlar tanlanadi; loyihaning mahsulotli-tematik rejalari ishlab chiqiladi («ishlar daraxti») va loyihaning asosiy parametrlari hisoblanadi. Innovatsion loyihani amalga oshirishni rejalashtirish bosqichida taqvim va resursli rejalar ishlab chiqiladi. Buning uchun ishlar majmuasining xususiy va umumiy aloqa modellari tuziladi; aniqlashtiruvchi va umumiy taqvim rejalari tuziladi; resurslarga bo‘lgan ehtiyojlar aniqlanadi va loyihaning amalga oshirish

darajasi tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda rejalar paketi bo'yicha hujjatlar rasmiylashtiriladi hamda rejalar va budjetlar tasdiqlanadi. Loyihani amalga oshirish borasida nazorat qilish bosqichida bevosita ijrochilar tomonidan rejali topshiriqlarni bajarish ustidan nazorat olib boriladi va zaruriyat tug'ilganda rejaga o'zgartirishlar kiritiladi. Ayrim bosqichlarni ishlab chiqishning assortimenti va chuqurligi innovatsion loyiha ko'lami va turiga qarab o'zgarib turadi.

11.2.3. Loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish

Innovatsion loyihani ishlab chiqish loyiha hujjatlarini tayyorlash bilan yakunlanadi. Loyiha hujjatlarining yagona tarkibi hali belgilanmagan va har bir holatda uning tarkibi boshlang'ich topshiriq bilan aniqlanadi. Shu bilan birga turli darajadagi loyiha quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi lozim:

- muammoning mazmun-mohiyati va loyiha doirasida uni yechish zarurligini asoslash;
- loyihaning asosiy maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish muddati va bosqichlari;
- loyiha dasturlarining chora-tadbirlar tizimi;
- ITK (bosh va loyiha bo'limlari yoki bosqichlari bo'yicha) tarkibi;
- davlat budjeti va budjetdan tashqari manbalari, O'zbekiston Respublikasi davlat va mahalliy budjeti va boshqa mablag'lar hisobiga loyihani resurslar bilan ta'minlash;
- loyihani amalga oshirish samaradorligini va ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik oqibatlarini baholash;
- loyihani amalga oshirish mexanizmi;
- loyihani boshqarishni tashkil etish va uni amalga oshirish ustidan nazorat qilish.

Har bir sanab o'tilgan bo'linmalar javdal yoki chizma ko'rinishida taqdim etiladi. Loyihaga ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy asosnoma bilan birga izohlovchi xat va biznes-reja ilova qilinishi lozim.

Loyihani rasmiylashtirishda quyidagi ishlar bajarilishi mumkin:

- loyiha hujjatlarni tayyorlash;
- loyihani amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni loyihalashtirish;
- loyihani tasdiqlash;

- loyiha topshiriqlarni tegishli rejalar bo‘yicha taqsimlash;
- yaqin davr uchun muammolarni yechish bo‘yicha muvofiqlashgan rejalarini tuzish;
- ishlarni bajarish uchun buyurtma-buyruqni tayyorlash.

11.2.4. Loyihani tugatish tartibi

Loyiha bo‘yicha barcha ishlar bajarilgandan keyin yoki tugatilmagan loyiha bo‘yicha ishlarni to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilish natijasida loyiha tugatilgan deb hisoblanadi. Loyihani tugatishning asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi: loyihani topshirish va shartnomani yopish.

Loyihani topshirish. Innovatsion loyihani topshirish – loyiha konsepsiyasi ishlab chiqish paytida buyurtmachi tomonidan qabul qilingan qarorlarning loyihani amalga oshirishda olingan natijalarga muvofiqligini o‘rnatish deb tushuniladi. Ishlarni topshirish va qabul qilish bo‘yicha barcha talablar shartnomada belgilanadi. Agar loyihani amalga oshirishning natijasi tayyor mahsulot bo‘lsa, ushbu mahsulotni sinovdan o‘tkazish ishlarini amalga oshirish lozim bo‘ladi. Agar sinov ishlari natijasida loyihaning talablariga javob beradigan mahsulot olinsa, tayyor obyektlarni qabul qilish bo‘yicha komissiyaning bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Sinov natijalari tayyor obyektlarni topshirish-qabul qilish paytida tashkilot-ijrochi buyurtmachiga o‘z majburiyatlarini berish uchun asos hisoblanadi.

Shartnomani yopish. Shartnomani yopishning asosiy bosqichlari: moliyaviy hisobotni tekshirish; pasportlashtirish; bajarilmagan majburiyatlarni aniqlash; bajarilmagan majburiyatlarni to‘xtatish. Moliyaviy hisobotni tekshirish buyurtmachi va tashkilot-ijrochi hisobotlariga kiradi. Ushbu tekshiruvlarning natijalari loyiha bo‘yicha yakuniy moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun ma‘lumotlarni olishga imkon beradi. Bu bosqichda ijrochilar bilan yakuniy hisob-kitoblar qilinadi. Pasportlashtirish o‘z mohiyatiga ko‘ra shartnomani yopishning eng muhim tashkiliy elementlaridan biri hisoblanadi. Uni amalga oshirish uchun tegishli hujjatlarni, masalan, foydalanilayotgan xomashyo va materiallarning texnik sharoitlarini tavsiflovchi hujjatlarni taqdim etish lozim. Bularga sertifikatlar ham kirishi mumkin, chunki u bilan mahsulot sinovdan o‘tadi. Barcha hujjatlar qayd etish uchun buyurtmachiga beriladi.

Umuman loyihani tugatish tartibi quyidagi amaliy ishlarni koʻzda tutishi mumkin:

– loyihaning tashkilot-ijrochilari muayyan muddatda ishlar (mavzular)ni tugatishdan oldin bosh tashkilotga ilmiy-texnik mahsulotni joriy etish toʻgʻrisida axborotni taqdim etgan holda butun hisobot davri uchun loyihaning boʻlimi boʻyicha yakuniy hisobot taqdim etadi;

– bosh tashkilot loyiha boʻlimi boʻyicha yakuniy hisobot tayyorlaydi va u loyiha boʻlimi boʻyicha ilmiy-texnik kengashi (boʻlim ITK) tomonidan koʻrib chiqilgandan keyin butun loyiha boʻyicha bosh tashkilotga yuboriladi;

– boʻlim BITK oʻz boʻlimidagi har bir ishning natijalarini qabul qiladi va ilmiy-texnik mahsulotni qabul qilish-topshirish hamda ishlarni qabul qilish aktlarini tasdiqlaydi;

– bosh tashkilot loyihani bajarish natijalari boʻyicha yakuniy hisobot tayyorlaydi va uni loyiha boʻyicha ilmiy-texnik kengashiga (bosh ITK) koʻrib chiqish uchun taqdim etadi;

– bosh ITK ishlarni bajarish natijalarini koʻrib chiqadi va yakuniy materiallarni tegishli qarorni qabul qilish uchun loyihaning bosh buyurtmachisiga yoʻnaltiradi;

– bosh buyurtmachi alohida ishlar boʻyicha ham, butun loyiha boʻyicha ham bosh ITK ijrochilarini hisobga olgan holda maxsus komissiyani tayinlash huquqiga ega.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Innovatsion loyiha» va «Innovatsion loyihani boshqarish» tushunchalariga taʼrif bering. Ularning mohiyatini tushuntiring.

2. Innovatsion loyiha qatnashchilarini aytib bering.

3. Innovatsion loyiha turlarini aytib bering.

4. Innovatsion loyihalarni boshqarish mohiyati va tamoyillari nimalardan iborat?

5. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish mazmun-mohiyati va bosqichlarini tushuntirib bering.

6. Innovatsion loyihani qanday rejalashtiriladi?

7. Innovatsion loyiha hujjatlarini qay tartibda rasmiylashtirish?

8. Innovatsion loyihalarni qay tarzda boshqarish tashkil qilinadi?

9. Innovatsion loyihalar boʻyicha ishlarni nazorat qilish va tartibga solish tizimini tushuntirib bering.

10. Innovatsion loyiha qanday tartibda tugatiladi?

GLOSSARIY

Investitsiya aktivlari – qimmatli qog‘ozlar, pul mablag‘lari va qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya aktivlari deb e‘tirof etiladigan boshqa mol-mulk.

Investitsiya (lot. kiyintirmoq) – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapital kiritish (qo‘yish).

Investitsiya faoliyati – investitsiyalarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha qilinadigan amaliy harakatlar.

Investitsiyalar samaradorligi – milliy daromad (foyda) o‘sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.

Investitsiyalardan kutiladigan foyda – kapital qo‘yilmalardan yuqori foyda olishning kutilishi investitsion tovarlarga talabni oshiradi va aksincha, istiqbolda investitsion dasturlardan foyda olish noaniq bo‘lsa, investitsiyalarga sarflar kamayish tamoyiliga ega bo‘ladi, demak, yalpi talab ham kamayadi.

Investitsiyaning qoplanish muddati – investitsiya qilinayotgan mablag‘ning shuni evaziga olingan sof foyda summasiga nisbati bilan hisoblanadi.

Investor – biron-bir faoliyatga, korxonaga foyda olish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishni amalga oshiruvchi xususiy tadbirkor, tashkilot yoki davlat.

Investitsiya fondlari – jisimoiy va yuridik shaxslar mablag‘larini to‘plovchi hamda foyda olish, aksiyadorlar xatarini kamaytirish maqsadida ushbu mablag‘larni fond nomidan qimmatli qog‘ozlarga, bank hisob raqamlariga va omonatlarga joylashtiruvchi tashkilot hisoblanadi.

Portfel investitsiyalar – xo‘jalik obyektini ekspluatatsiya qilish tufayli daromad olish huquqini kafolatlovchi kapital qo‘yilmalari. Portfel investitsiyalar aksiya, qimmatli qog‘ozlar shaklidagi investitsiyalardir.

Real investitsiya – moddiylashgan asosiy va aylanma vosita (kapital) barpo etishga sarflanadigan mablag‘.

To‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – o‘zga mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakat real aktivlariga mablag‘ kiritish, uni tasarruf etish va ular ishlatilishi ustidan nazorat o‘rnatish.

Fiktiv kapital – egalariga daromad (dividend yoki foiz shaklida) keltiradigan qimmatli qog‘ozlar; rivojlangan mamlakatlarda ma’lum daromad olib turishga huquq beradigan har xil qimmatli qog‘ozlar; qalbaki, soxta kapital (aksiya, obligatsiyalar).

Jarayonli innovatsiyalari – yangi yoki tub takomillashgan mahsulotni, ishlab chiqarishni tashkil etishni o‘zlashtirish.

Investitsiyalarni qoplash davri – loyihani investitsiyalashning boshlanishidan to loyihani amalga oshirishdan olingan sof foyda loyihaga dastlabki qo‘yilmalarni qoplaydigan paytgacha bo‘lgan vaqt oralig‘i.

Industriyalashtirish – mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashgan asosga o‘tkazish, iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishi ulushini ahamiyatli darajada ko‘paytirish, butun iqtisodiyot yoki uning alohida tarmoqlarida yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni barpo etish jarayoni.

Inkubator – noyob ilmiy-texnik g‘oyalarni amalga oshiradigan kichik innovatsion korxonalar (KIK) faoliyatini shakllantirish va uni samarali amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratishga ixtisoslashgan tuzilma.

Innovator – innovatsiya (ixtiro, kashfiyot, foydali model, loyiha yechimi, samarali taklifi, nou-xau, sanoat namunasi yoki boshqa innovatsiya turi)ning muallifi.

Innovatsion jarayon – ilmiy bilimning innovatsiyaga o‘zgarish jarayoni, uni innovatsiya g‘oyalardan aniq mahsulot, texnologiya yoki xizmatgacha bo‘lgan davr mobaynida vujudga keladigan va amaliyotga qo‘llaniladigan voqealar ketma-ketlik zanjiri.

Innovatsion infratuzilma – yangi ilmiy-texnik g‘oyalarni shakllantirish, yaratish, ishlab chiqarish va ularni qayta ishlashdan boshlab o‘zaro bog‘langan va bir-birini to‘ldiradigan tizimlar faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur va yetarli bo‘lgan tegishli tashkiliy elementlarining yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladigan fan yutuqlariga asoslangan mahsulotni sotishgacha bo‘lgan innovatsion faoliyatni amalga oshirishning barcha sikllarini qamrab oluvchi tashkilot, firma, birlashma va boshqalar kiradi.

Innovatsion loyiha – o‘zaro muvofiqlashtirilgan maqsad va ularga erishish mexanizmlar tizimi bo‘lib, tegishli tarzda rasmiylashtirilgan (resurs, muddat va ijrochilar bo‘yicha muvofiqlashtirilgan), loyihaviy

hujjatlar to'plami bilan rasmiylashtirilgan va innovatsiyaga keltiriladigan hamda miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalangan tegishli aniq ilmiy-texnik masala (muammo)ni samarali yechimini ta'minlaydigan ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, ishlab chiqarish, tashkiliy, moliyaviy, tijorat va boshqa chora-tadbirlarning majmuasi.

Innovatsion loyiha budjeti – miqdoriy ko'rsatkichlardan ifodalangan va qo'yilgan maqsadga erishish uchun zarur xarajatlarni ask ettiriladigan reja.

Innovatsion loyihani boshqarish – maqsadlar, tashkiliy tuzilmani aniqlash, innovatsion g'oyalarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni rejalashtirish va ularni bajarish yuzasidan nazorat qilish bilan bog'liq boshqaruv qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish jarayon.

Innovatsion mahsulot – mahsulot innovatsiyalarni joriy etish natijalari, yangi (qayta joriy qilingan) yoki takomillashtirishga uchragan buyumlar, shuningdek, yangi va tub takomillashtirilgan usullar asosida ishlab chiqarilgan buyumlar (boshqa innovatsion mahsuloti).

Innovatsion salohiyat – turli xil resurslari, shu jumladan innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-ishlab chiqarish, moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnika boshqa resurslarining yig'inidisi.

Innovatsion siyosat – innovatsion strategiyaning maqsad va istiqbolini va uni davlat hukumati organlari tomondan amalga oshirish mexanizmini belgilab beradigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning bir qismi.

Innovatsion faoliyat – ishlab chiqarilayotgan mahsulot (tovar, xizmat)larning assortimentini kengaytirish va yangilash hamda sifatini yaxshilash, ularni keyinchalik joriy etish hamda ichki va xorijiy bozorlarda sotish uchun ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalaridan foydalanish va ularni tijoratlashtirishga qaratilgan faoliyat.

Innovatsion faoliyatning subyekti – innovatsion faoliyatida ishtirok etadigan yuridik shaxslar, tashkiliy-iqtisodiy shakllardan va mulkchilik shakllardan qat'i nazar, O'zbekistondagi jismoniy shaxslar, xorijiy tashkilotlar va fuqarolar hamda fuqarolikni olmagan shaxslar.

Innovatsiya – yangi yoki takomillashgan mahsulot ko'rinishda sotilgan, bozorda realizatsiya qilinadigan innovatsion faoliyati hamda

amaliy faoliyatida foydalaniladigan yangi va takomillashgan texnologik jarayonning yakuniy natijasi.

Innovatsiyalarning samaradorligi – yaratilayotgan mahsulot, texnik tizim, tuzilmaning barcha zarur va kutilayotgan foydali samaralarning birligi hisobiga mehnat, vaqt, resurs va pullarning tegishli miqdorni tejashga qobilligi.

Ishlab chiqarish bahosi — firmaning aynan mahsulotni ishlab chiqarish va marketingga sarflangan xarajatlariga kutilayotgan daromad hajmini qo‘shish orqali aniqlanadi.

Kontrolling – boshqariladigan jarayonlarni maxsus nazorat uslublari yordamida ishga solingan aktiv (resurs)lardan olinadigan yuqori samarani ta’minlash mexanizmi.

Korxonalar – jamiyatdagi mehnat taqsimotining umumiy tizimida nisbatan ajratilib turadigan tarkibiy bo‘linmadir.

Korxonalar strategiyasi – korxonaning uzoq muddatli asosiy maqsad va vazifalarini shakllantirish, xarajatlar izchilligini ta’minlash va bu maqsadlarga erishishi uchun zarur bo‘lgan resurslarni taqsimlash.

Kreditor qarzdorlik – korxonalar, tashkilot yoki muassasaning tegishli yuridik yoki jismoniy shaxslarga to‘lanishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari bo‘lib, ular me‘yordagi (muddati o‘tmagan) hamda muddati o‘tgan qarzdorliklarga bo‘linishi mumkin.

Lizing – mol-mulk haqini vaqti-vaqti bilan to‘lab turish sharti bilan vaqtincha foydalanishga berish.

Loyihalashtiruvchi – loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiquvchi maxsus loyiha tashkilotlari.

Mahsulot innovatsiyalari – yangi va takomillashgan mahsulotlarni joriy etish.

Mahsulot tannarxi – mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog‘liq barcha xarajatlar.

Nou-xau – ilmiy-texnikaviy, tijorat tashkilotchilikka oid bilimlar, tajribalar va ularga tanho ega bo‘lish.

Pul oqimi – loyihani amalga oshirish natijasida xo‘jalik subyektlarning hisob raqamlari va kassasiga haqiqatda tushgan (kiradigan pul oqimi) va tashqi agentlarga to‘lanadigan (chiqadigan pul oqimi) pul mablag‘larning yig‘indisi.

Raqobat – ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va sotishning eng yaxshi sharoitlari uchun tovar ishlab chiqaruvchilararo raqiblik.

Raqobatbardoshlik – tovarning bozordagi xaridorgirligi va pulga ayirboshlanish qobiliyati.

Tezkor innovatsiyalar – raqobatchi tomonidan kiritilgan yangilik ta'sirida firmani saqlab qolishga qaratilgan innovatsiyalar.

Rentabellik – korxonada faoliyatining foydalik darajasi. Uning uch xil ko'rsatkichi mavjud: korxonada aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko'rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda ko'rsatkichini korxonada aktivlarining o'rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

Strategik innovatsiyalar – istiqbolda raqobat ustunliklariga ega bo'lish uchun ogohlantiruvchi xarakterga ega bo'lgan innovatsiyalar.

Tajriba-konstruktorlik ishlari – yangi texnika, material, texnologiyalar namunalarni yaratish (yoki modernizatsiya qilish, takomillashtirish) uchun axborot texnologiyalari natijalarni qo'llash.

Texnologiya – texnikani yaratish va qo'llash hamda tabiiy moddalarni sanoat va maishiy sohalarda qo'llanadigan mahsulotga aylantirishning usul va uslublari yig'indisi.

Texnopark – umumiy holatda ilmiy muassasa, OO'Y va sanoat korxonalarini hamda axborot, ko'rgazma majmualarini, xizmat ko'rsatish xizmatlarini o'z ichiga olish mumkin va qulay uy-joy va maishiy sharoitlarni yaratishni ko'zda tutuvchi ixcham joylashgan majmua.

Fanning tajriba bazasi – tajriba, sinov ishlari amalga oshiradigan tajriba ishlab chiqarishlarning yig'indisi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., «O‘zbekiston», 2012.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi «Xorijdan mablag‘ jalb qilish to‘g‘risida»gi 263-I-son qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-598-son qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi «Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5643-son farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-5635-son farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5495-son farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrda «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5600-son Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-aprelda PF-3594-sonli «To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-4135-son qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda «Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4300-son qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-mayda «O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi

faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4332-son qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida xorijiy investorlar kengashini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4519-son qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4563-son qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4300-sonli «Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyundagi «Investitsiya va infratuzilma loyihalarini jadal amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3794-son qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi eksportni rag‘batlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 373-son qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 390-son qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi tarif va notarif tartibga solish kengashining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 408-son qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-maydagi «Investitsiya va boshqaruv kompaniyalari faoliyati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 414-son qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi «O‘zbekiston Respublikasining to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 420-son qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi «Xorijiy investorlar bilan ishlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 547-son qarori.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 621-son qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligining 2019-yil 15-apreldagi «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida»gi 52-son qarori.

24. «Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 7-avgustdagi PQ-436 sonli Qarori.

25. «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyuldagi PQ-916 sonli Qarori.

26. «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2008-y.dagi PF-4058- sonli Farmoni.

27. «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldagi PQ -1166-sonli Qarori.

28. «Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investitsion faollikni kredit yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 31-dekabrda 288-son Qarori.

29. Аистова М.Д. Анализ эффективности, основанный на использовании приведенной стоимости. (Тезиси докладов

конференции молодых ученых и специалистов Тверского региона). Твер, 1995.

30. Аладин В.В. Инвестиционная деятельность субъектов Российской Федерации. – М: Сосиум, 2002.

31. Abdullayev V.A. Innovatsiya faoliyatini boshqarish strategiyasi. I.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2005.

32. Анализ хозяйственной деятельности в промышленности: Учебник / Л.А.Богдановская, Г.Г.Виноградов, О.Ф.Мигун и др. / Под общ. ред. В.И.Стражева. 2-э изд., стереотип. -Минск: Висш. шк., 1996. – 363 С.

33. Баев Л.А., Шугуров В.Э. Системный подход к определению инновации // Современные технологии в социально-экономических системах. -Челябинск: ЧГТУ, 1995. – 210 С.

34. Бакаев А.С., Шнейдман Л.З. Учетная политика предприятия. 2-э изд., перераб. -М.: Бухг. учет, 1995. – 111 С.

35. Баркан Д.И., Валдайцев С.В., Долбежкин В.Л. и др. Как создаются коммерчески успешные товары и услуги: маркетинг и нововведение. -Л.: Аквилон, 1991. – 94 С.

36.Бездудный Ф.Ф., Смирнова Г.А., Нечаева О.Д. Сушность понятия «инновация: и его классификация // Инновации. 1998. №2-3. –3-13 С.

37.Беклешов В.К., Завлин П.Н. Нормирование в научно-технических организациях. -М.: Экономика, 1989. – 240 С.

38.Беренс В., Хавранек П.М. Руководство по оценке эффективности инвестиций пер. с англ. - М.: Интерексперт, 1995. – 343 С.

39.Бурханов А.У. Организация инновационной деятельности на промышленном предприятии. // Сборник научных трудов Международной конференции «Актуальные проблемы развития инновационной деятельности». – Ташкент, 2008. – 106-108 С.

40.Бурханов А.У. Поддержка инновационного развития промышленных предприятий в условиях финансово-экономического кризиса. // Сборник научных трудов «Реализации антикризисной программы – дальнейшего развития национальной экономики и повышения его конкурентоспособности». – М.:МГЕИ, 2010. – 23-26 С.

41. Бочаров В.В. Финансово-кредитные методы регулирования инвестиций. -М: Финансы и статистика, 1999.

42. Бакиева А.А. Анализ подходов к оценке инвестиционной привлекательности российских регионов // Научно-технический вестник Санкт-Петербургского государственного университета информационных технологий, механики и оптики. - 2006. - № 24. - С. 289–291.

43. Бизнес: Оксфордский толковый словарь. – М.: ПРОГРЕСС-АКАДЕМИЯ, 1995.

44. Беренс В. Руководство по оценке эффективности инвестиций. Пер. с англ.-2-е изд. перераб. и доп. / В. Беренс, П.М.Хавренек. - М.: АОЗТ «Интрексперт», Инфра – М, 1995.

45. Бернштам Й.С. Инвестиции в региональную экономику: сравнительный анализ субъектов Российской Федерации //Федеративные отношения и региональная социально-экономическая политика. 2002. - №9. - С. 6-20.

46. Бланк И.А. Основы инвестиционного менеджмента. В 2т. – СПб.: Ника-цент, 2001.

47. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. / i.f.d., professor A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – T.: “Moliya”, 2010.

48. Долан Э.Ж., Линдсей Д.Е. Микроэкономика. –СПб.,1994.

49. Миллер, Р.Л. Современные деньги и банковское дело / Р.Л. Миллер, Д.Д. Ван-Хуз. – Пер. 3-го англ. изд. – М.: ИНФРА-М, 2000.

50. Uzoqov A., Nosirov E., Saidov R., Sultanov M. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006.

51. Imomov H.H. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2007.

52. Kayumov R.I., Xojimatov R.X. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. –T.: TDIU, 2010.

53. Karlibayeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2009.

54. Kuziyeva N. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar moliya va kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006.

55. Книш М.И., Перекатов Б.А., Тютиков Й.П. Стратегическое планирование инвестиционной деятельности. – СПб.: Бизнес-пресса, 1998.

56. Массе П. Критерии и методы оптимального определения капиталовложений / Пер. с фр. – М.: Статистика, 1971.

57. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2-х т.: Пер. с англ. 11-го изд. Т.1. – М.: Республика, 1992.

58. Михайлова Э.А., Орлова Л.Н. Экономическая оценка инвестиций. Учебное пособие. – Рибинск: РГАТА, 2008.

59. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo‘llanma. – Т.: Baqtriya press, 2017.

60. Методические рекомендации по оценке эффективности инвестиционных проектов. 2-е изд. – М.: Экономика, 2000.

61. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2014.

62. Николаева И.П. Инвестиции. Учебник. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2013.

63. Подшиваленко Г.П., Лахметкина Н.И., Макарова М.В. Инвестиции. – М.: КНОРУС, 2006.

64. Сухинова С.Й. Региональная специфика инвестиционного климата. – Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2004.

65. Стариков Д.Э. Расчеты эффективности инвестиционных проектов. – М.: ЗАО «Финстатинформ», 2001.

66. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирования инвестиций: учеб. пособие. – М.: Финансы и статистика, 2001.

67. Завалин П.Н., Василев А.В., Кнол А.И. Оценка экономической эффективности инвестиционных проектов (современные подходы). – СПб.: Наука, 1995.

68. Фабосси Ф. Управление инвестициями. Пер. с англ. – М.: ИНФРА – М, 2000. ХХВІІІІ, 932 с. – (Серия «Университетский учебник»).

69. Шарп У., Александер Г., Бейли Ж. Инвестиции: Пер. с англ. – М.: ИНФРА- М, 1997.

70. Шапиро В.Д. Управление проектами. – СПб.: ДваТри, 1996.

71. Шваков Й.Й. Анализ основных подходов к формированию механизмов реализации региональной инвестиционной политики в Российской Федерации // Вестник молодых ученых: сборник научных работ. – Горно-Алтайск: РИО ГАГУ, 2006. - №3.

72. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010.

73. Tojiboyev D. Iqtisodiy nazariya (ikkinchi kitob). – T.: Sharq, 2003.

74. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - T.: 2003.

75. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: “Moliya” nashriyoti. 2013.

76. Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G'. Investitsiya va lizing asoslari. O'quv qo'llanma. –T., Iqtisod-Moliya, 2018.

77. Brennan M.J. (1971). Capital Market Equilibrium with Divergent Borrowing and Lending Rates // The Journal of Financial and Quantitative Analysis Vol. 6, No. 5, pp. 1197-1205.

78. Richard Roll; Stephen A. Ross (1980). An Empirical Investigation of the Arbitrage Pricing Theory // The Journal of Finance, Vol. 35, No. 5, pp. 1073-1103.

79. Chen, Nai-Fu. (1983). Some Empirical Tests of the Theory of Arbitrage Pricing // The Journal of Finance, Vol. 38, No. 5, pp. 1393-1414.

80. Fernandez, P. (2010). WACC: Definition, Misconceptions and Errors. Available at SSRN:<http://ssrn.com/abstract=1620871>.

81. Bogue M.S., R.R. Roll. Capital Budgeting of Risky Projects with Imperfect Markets for Physical Capital. Journal of Finance. May 1974. P.601-613.

82. Cooke Ian, Mayers P. Introduction to Innovation and Technology Transfer. Boston: Artech House, Inc., 1996. Part 1. – P.124

83. G'ulomov S., Qosimov G'., Xolmirzayeva D., Saidaxmedov S. Strategik va innovatsion menejment. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2013.

84. Grossi G. Promoting Innovation in a Big Business // Long Range Planning. 1990. Vol. 23. №1. R.41-52

85. Jones S P. Investments. Analysis and management. N-Y.: John Wiley & Sons, Inc, 1991. R 386.

86. Porter M. Ye. Competitive strategy. Technigues for alayingz industries and competitors. New York: The Free Press, 1980. – R. 396

87. Валдайцев С.В. Оценка бизнеса и управление стоимостью предприятия: учеб.пособие для вузов / С. В. Валдайцев. – М.: Юнити-Дана, 2001. – 720 С.

88. Вегер Л.Л. Экономика научных исследований. – М.: Наука, 1981. – 326 С.

89. Власова М.А. Лицензионные контракты и определение стоимости лицензий при патентной форме охраны изобретений. -М.: ПС «Ориентир», 1992. – 284 С.

90. Водачек Л., Водачкова О. Стратегия управления инновациями на предприятии. – М.: Экономика, 1989. – 176 С.

91. Воронин С.А. Государственное регулирование сенообразования в условиях повишения конкурентоспособности национал-ной экономики (на примере Республики Узбекистан). Автореферат дис. д.э.н. – Ташкент, 2010.

92. Гапоненко Н. Инновасии и инновационная политика на этапе перехода к новому технологическому порядку // Вопросы экономики. 1997. №9. – 84-97 С.

93. Длинные волны: научно-технический прогресс и сосиальное развитие / С.Ю. Глазев, Г.И. Микерин, П.Н. Тесля и др. - Новосибирск: Наука, 1991. – 224 С.

94. Добров Г.М. Системный анализ организационно-управленческих проблем научно-технического прогресса. -Киев: Знание, 1981. – 19 С.

95. Едророва В.Н., Мизиковский Е.А. Учет и анализ финансовых активов: Акции, облигацияи, векселя. – М.: Финанси и статистика, 1995. – 272 С.

96. Завлин П.Н. Инновационная деятелност в современных условиях // Инновасии. 2001. № 8 (45). – 13-15 С.

97. Завлин П.Н., Василев А.В., К н о л А.И. Оценка экономической эффективности инвестиционных проектов (современные подходи). – СПб.: Наука, 1995. – 168 С.

98. Завлин П.Н., Ипатов А.А., Кулагин А.С. Инновационная деятелност в условиях рынка. – СПб.: Наука, 1994. – 259 С.

99. Завлин П.Н., Юделевич М.А. Научный труд в условиях НТР: эффективность и качество. – М.: Экономика, 1985. – 112 С.

100. Инновационный менеджмент. Учебник для вузов/ С.Д. Иленкова, Л.М. Гохберг, С.Ю. Ягудин и др. / Под ред. проф. С.Д. Иленковой. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – 343 С.

101. Ishmukhamedov A.E., Abdusattarova X.M., Akabirova D.N., Rasulova I.A. Innovatsion strategiya. – O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2007. – 302 b.

102. Карганов С.А. Создание и внедрение научно-технической продукции. Вопросы экономики, организации, планирования и управления: Учебное пособие. – Спб.: Судостроение, 1993, 224 С.

103. Корчагин А.Д., Талянский В.Б. и др. Как защитить интеллектуальную собственность в России. Правовое и экономическое регулирование: Справоч. пособие / Под ред. А. Д. Корчагина. – М.: ИНФРА-М, 1995. – 336 С.

104. Кругликов А.Г. Системный анализ научно-технических нововведений. – М.: Наука, 1991. – 118 С.

105. Кудашов В.И. Научно-технические нововведения: Организационно-экономический механизм управления в условиях перехода к рынку. Минск, 1993. – 187 С.

106. Ластовеский В.Е. Учет затрат по факторам производства и центрам ответственности. М.: Финансы и статистика, 1988. – 165 С.

107. Лахтин Г.А. Тактика науки. -Новосибирск: Наука, 1969. – 252 С.

108. Липсис И.В. Коммерческое сенообразование: Учебник. М.: БЕК, 1997. – 368 С.

109. Лвов Д.С., Медниский В.Г., Медниский Ю.В., Овсиенко Ю.В. Методологические проблемы осенивания инвестиционных проектов. Экономика и математические методы. Том 31, выпуск 2, 1995. – 519 С.

110. Манн Р., Маер Э. Контроллинг для начинающих. Пер. с нем. – М.: Финансы и статистика, 1992. – 304 С.

111. Медниский В.Г., Шаршукова Л.Г. Инновационное предпринимательство: Учеб. пособие. -М.:ИНФРА-М, 1997. –240 С.

112. Медниский В.Д., Илдеменов С.В. Реинжиниринг инновационного предпринимательства. М.: Юнити, 1999. – 414 С.

113. Микков У.Э. Оценка эффективности капиталных вложений (новые подходы). М.: Наука, 1991. – 296 С.

114. Национальная инновационная система Узбекистана. Оценка потенциала и результативности. 2011. Институт прогнозирования и макроэкономических исследований и Программа развития ООН в Узбекистане. стр. 100.

115. Пузиня К.Ф., Запаснюк А.С. Экономическая эффективность научно-исследовательских и опытно-конструкторских разработок. - Л.: Машиностроение, 1980. – 228 С.

116. Расулев А. Механизмы усиления воздействия сенообразования на инновационные процессы // Общество и экономика. – М.: Наука. – 2010. - № 10-11. – 67-80 С.

117. Расулев А., Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике // Общество и экономика. -М.: Наука. – 2007. - № 5-6. – 13-36 С.

118. Расулев А., Воронин С., Юсупов а Н. Проблемы активизации инновационной деятельности в Узбекистане и сеновая и налоговая политика государства // Общество и экономика. -М.: Наука. – 2007. - № 2. – 111-128 С.

119. Рашидова Г. Какой бит национальной инновационной системе Узбекистана? // Экономическое обозрение. - 2010 - №6 – 16-18 С.

120. Статистика науки и инноваций: Краткий терминологический словарь / Под ред. Л.М. Гохберга. -М.: СИСН, 1996. – 526 С.

121. Струмилин С.Г. К методологии учета научного труда. -Л.: Наука, 1982. – 21 С.

122. Твисс Б. Управление научно-техническими инновациями. - М.: Экономика, 1989. – 388 С.

123.123. Трапезников В.А. Управление и научно-технический прогресс. – М.: Наука, 1983. – 223 С.

124. Управление проектами / Под ред. В.Д. Шапиро. -СПб.: ДваТрИ, 1996. – 610 С.

125. Федоров К.Г. Стимулирование эффективности и качества научной работы. – М.: Химия, 1980. – 74-76 С.

126. Фигуровский Н. Будущее за инкубаторами инновационного бизнеса // Радикал. 1992. № 44. – 36 С.

127. Фонотов А. От мобилизационного к инновационному типу развития // Вопросы экономики. 1993. № 11. – 111 С.

128. Хан Д. Планирование и контрол: концепсии контроллинга. Пер. с нем./ Под ред. и с предисл. А.А.Турчака, Л.Г.Головича, М.Л.Лукашевича. -М.: Финанси и статистика, 1997. – 800 С.

129. Хорнгрен Ч.Т., Фостер Ж. Бухгалтерский учет: управленческий аспект. Пер. с англ./ Под ред. Я.В. Соколова. -М.: Финанси и статистика, 1995. – 410 С.

130. Светков А.Н. Государственный организационно-экономический механизм научно-технических нововведений. - СПб.:СПбГИЕА, 1997. –142 С.

131. Шеремет А.Д., Сайфуллин Р.С. Методика финансового анализа. – М.: ИНФРА-М, 1995. – 176 С.

132. Экономика и управление в отраслевых НТО: Справ. пособие / П.Н. Завлин, А.К. Казансев и др. / Под ред. П.Н. Завлина, А.К. Казансева. – М.: Экономика, 1990. – 447 С.www.cer.uz

133. www.minfin.ru

134. www.oilru.com

135. www.lex.uz

136. The Global Competitiveness Report 2018.

137. <https://www.investopedia.com>.

138. <https://uzse.uz>.

139. <https://www.novgorodov.com>.

140. <https://yahoo.finance.com>.

141. <https://nauchforum.ru>.

142. <http://pif.investfunds.ru>.

143. <http://investfunds.kz>.

144. <http://www.pifconsulting.ru>.

145. <http://www.globfin.ru>.

146. <http://www.businesswire.com>.

147. <http://www.sse.com.cn>.

148. <http://ssrn.com>.

149. <http://people.stern.nyu.edu>.

150. <https://csm.gov.uz>.

151. <https://www.gazeta.uz>.

152. <https://stat.uz>.

153. <https://doingbusiness.org>

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. INVESTITSIYA HAQIDA TUSHUNCHA VA UNING IQTISODIY MOHIYATI	5
1.1. Investitsiya tushunchasi va iqtisodiy mohiyati.....	5
1.2. Investitsiyalarning tasniflanishi.....	14
1.3. Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi.....	23
1.4. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o‘rni.....	33
2-BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATI	46
2.1. Investitsiya faoliyati, uning obyektlari va subyektlari.....	46
2.2. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va shakllari.....	54
3-BOB. INVESTITSIYA SIYOSATI VA MUHITI	68
3.1. Investitsiya siyosatining mohiyati, vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari.....	68
3.2. Hududiy investitsion siyosat va uni takomillashtirish yo‘llari.....	73
3.3. Hududlarda investitsiya siyosati samaradorligini baholash.....	86
3.4. Investitsiya muhiti va uning shakllanishi.....	96
3.5. O‘zbekistonda investitsiya siyosati va muhiti.....	99
3.6. Investitsiya muhiti jozibadorligi va uni oshirish yo‘llari....	105
3.7. Investitsiya muhiti jozibadorligi.....	110
4-BOB. INVESTITSIYA LOYIHASI VA UNI MOLIYALASHTIRISH	121
4.1. Investitsiya loyihasi tushunchasi, uning maqsadi va qatnashchilari.....	121
4.2. Pul oqimlarini diskontlash.....	130
4.3. Investitsiya loyihalarining samaradorligi, uni baholash mezonlari va usullari.....	137
4.4. Investitsiya loyihalarining hayotiy sikli.....	148
4.5. Investitsion risklar va ularni baholash usullari.....	156
5-BOB. XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA MOLIYALASHTIRISH	172

5.1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy mohiyati va mexanizmlari.....	172
5.2. Xorijiy investitsiyalarning shakl va turlari.....	184
5.3. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tamoyillari va yo‘nalishlari.....	191
5.4. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy ahamiyati va hozirgi holati.....	202
6-BOB. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA INNOVATSIYA.....	213
6.1. Innovatsiyaning asosiy ta’riflari.....	213
6.1.1. Innovatsiyalar.....	213
6.1.2. Innovatsion jarayon.....	218
6.1.3. Innovatsion faoliyat.....	226
6.2. Innovatsiyalarning maqsadi va turlari.....	229
6.2.1. Innovatsiyalarning tasnifi va o‘ziga xos xususiyatlar.....	229
6.2.2. Innovatsiyalar, fan-texnikaning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanishi.....	243
6.3. Innovatsion infratuzilmalarning xususiyatlari.....	247
6.3.1. Innovatsion infratuzilma turlari.....	247
6.3.2. Innovatsion korxonalar tasnifi.....	250
7-BOB. INNOVATSION JARAYONLARNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH.....	258
7.1. Innovatsiyalarni rag‘batlantirishda davlatning roli.....	258
7.1.1. Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda innovatsiyalarning ahamiyati.....	258
7.1.2. Ilmiy-texnik natijalar va ularni joriy etishda bozor mexanizmlarining chegaralanganligi.....	261
7.1.3. Innovatsion faoliyatni tartibga solishda davlat organlarining asosiy vazifalari.....	264
7.1.4. Innovatsion faoliyatni tartibga solishning xorijiy davlatlar tajribasi.....	267
8-BOB. INNOVATSION FAOLIYAT XARAJATLARINI BOSHQARISH VA BAHO BELGILASH.....	277
8.1. Xarajatlarni shakllanish omillari va uning maqsadi.....	277
8.1.1. Xarajatlarni boshqarishning maqsad va vazifalari.....	277
8.1.2. Innovatsion xarajatlarning tarkibi va tuzilmasi.....	280
8.1.3. Xarajatlar miqdorini belgilovchi omillar.....	283

8.2. Innovatsion xarajatlarni boshqarish usullari.....	288
8.2.1. Xarajatlarni boshqarish mexanizmlari.....	288
8.2.2. Rejadan oldingi tahlil.....	290
8.2.3. Xarajatlarni rejalashtirish.....	294
8.2.4. Xarajatlarni nazorat qilish	296
8.3. Narx belgilash.....	300
8.3.1. Innovatsion mahsulotlarga narx belgilash tamoyillari.....	300
8.3.2. Shartnoma narxlari.....	304
9-BOB. INNOVATSION FAOLIYATNI	
MOLIYALASHTIRISH.....	308
9.1. Moliyalashtirish tizimining maqsad va vazifalari.....	308
9.1.1. Moliyalashtirish tizimining maqsadi.....	308
9.1.2. Moliyalashtirishni tashkil qilish tamoyillari.....	308
9.1.3. Moliyalashtirish tizimining asosiy vazifalari mohiyati...	309
9.2. Moliyalashtirish shakllari.....	310
9.3. Moliyaviy holat va mablag‘larga bo‘lgan talabni baholash.	321
9.3.1. Moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan talabni hisoblash.....	321
9.3.2. Innovatsion loyihaning moliyaviy holatini baholash ko‘rsatkichlari.....	324
9.4. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning xorijiy davlatlar tajribasi.....	329
9.4.1. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimlari tavsifi...	329
9.4.2. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning bozor tizimi.....	330
9.4.3. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning korporativ- davlat tizimi.....	331
9.4.4. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning klaster tizimi.....	332
9.4.5. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning mezo-korporativ tizimi.....	333
9.4.6. AQSHda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning ven- chur kapital bozori tizimi.....	334
10-BOB. INNOVATSIYA SAMARADORLIGINI	
BAHOLASH.....	338
10.1. Innovatsion loyihalar samaradorligini baholash tushunchasi.....	338
10.1.1. Innovatsiya samaradorligini baholash tizimi mohiyati...	338

10.1.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiya samaradorligini baholash	342
10.1.3. Innovatsion loyihalarni baholashning asosiy tamoyillari.....	355
10.2. Innovatsion faoliyat samaradorligi turlari.....	359
10.2.1. Samaradorlikni kompleks baholash.....	359
10.2.2. Ilmiy-texnik samaradorlik.....	364
10.2.3. Ijtimoiy samaradorlik.....	371
10.2.4. Iqtisodiy samaradorlik.....	374
10.3. Innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari.....	377
10.3.1. Samaradorlikni baholashning statistik usullari.....	377
10.3.2. Pul oqimlarini diskontlash usuli.....	380
10.3.3. Samaradorlikni baholashning dinamik ko'rsatkichlari...388	
10.3.4. Innovatsion loyihalarning investisiyon muqobil variantlari bo'yicha qarorlar qabul qilish.....	391
10.3.5. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha misol.....	394
10.4. Inflyatsiya va xatar omillarini hisobga olish	397
10.4.1. Loyiha bo'yicha yakka tartibdagi Stavka.....	397
10.4.2. Yakka tartibdagi diskont stavkasini mahalliy sharoitlarda baholash.....	408
10.4.3. Ssenariylar ishlab chiqish usullari.....	413
11-BOB. INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH.....	416
11.1. Innovatsion loyihalarni boshqarish asoslari.....	416
11.1.1. Innovatsion loyihalar tushunchasi va mohiyati.....	416
11.1.2. Innovatsion loyiha turlari	421
11.2. Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish tartibi.....	425
11.2.1. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish.....	425
11.2.2. Innovatsion loyihani rejalashtirish.....	431
11.2.3. Loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish.....	438
11.2.4. Loyihani tugatish tartibi.....	439
GLOSSARIY.....	441
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	446

**A.U. BURXANOV, SH.X. MUMINOV,
X.X. XUDOYQULOV**

INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:	X.Zakirova
Tex. muharrir:	A. Moydinov
Musavvir:	A. Shushunov
Musahhih:	L. Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Zoyirova

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.
Bosishga ruxsat etildi 28.10.2021.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturasini.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i: 29,25. Nashriyot bosma tabog‘i 28,75.
Tiraji: 50. Buyurtma № 264**

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.**